

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASINING
DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH DEPARTAMENTI
TOSHKENT SHAHRI HOKIMLIGI**

**TOSHKENT SHAHRI
JOY NOMLARINING
IZOHLI LUG‘ATI**

Toshkent – 2025

UO‘K 811.512.133'373.21(575.1-25)(038)
KBK 81.2O‘zb-3
G 20

Tahririyat a’zolari:

Sh.B. Umurzakov (Toshkent shahri hokimi), **D.Sh. Raximova** (Toshkent shahri hokimi o‘rinbosari), **A.F. Xen** (Toshkent shahri hokimi o‘rinbosari), **A.A. Ro‘zitoyev** (Toshkent shahri hokimi maslahatchisi).

Mas’ul muharrir:

O.B. Bo‘riyev – t.f.d., professor.

Tuzuvchilar:

O.B. Bo‘riyev (t.f.d., prof.), **M.T. Mirakmalov** (g.f.d (DSc), prof.), **X.O. Bo‘riyeva** (t.f.d (DSc), dots.), **M.M. Avezov** (g.f.f.d (PhD), dots.), **G.M. Gapporova** (Toshkent shahri hokimligi huzuridagi Raqamli rivojlanish departamenti Toponimika bo‘limi toponimisti).

O.B. Bo‘riyev va boshq.

Toshkent shahri joy nomlarining izohli lug‘ati [Matn]: Ilmiy-ommabop/ O.B.Bo‘riyev va boshq. – Toshkent: “Kamalak-PRESS”, 2025. – 280 b.

Muvofiqlashtiruvchi:

G.M. Gapporova – Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Toshkent shahar komissiyasi kotibi, toponimist.

Taqrizchilar:

P.N. G‘ulomov – g.f.n., dotsent;
Z.T. Xolmonova – f.f.d., professor.

Ushbu lug‘at t.f.d., prof. O.B. Bo‘riyev va Toshkent shahar komissiyasi kotibi, toponimist G.M. Gapporova umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi.

Kitob Toshkent shahri hokimligi buyurtmasi asosida chop etildi.

Toshkent shahri hokimligining bevosita rahbarligi va homiyligida tayyorlangan hamda nashr etilayotgan ushbu izohli lug‘atning yaratilishida o‘zbek nomshunosligi va geografik obyektlarning nomlanishiga doir tadqiqotlar asos bo‘ldi. Turli manbalardan to‘plangan toponimlarni izohlashda ularning ilmiy talqiniga e’tibor qaratildi, – shuningdek, xalqona talqinlar ham berildi.

O‘quvchilar e’tiboriga havola etilayotgan ushbu izohli lug‘atda shahar hududidagi joy nomlari o‘ziga xos qo‘llanma uslubida keltirilgan va tarkib jihatdan ikki qismdan: – “Tarixiy Toshkent” (ariqlar va kanallar, daha va darvozalar, muassasalar) va “Zamonaviy Toshkent” (tuman, mahalla, daha va mavzalar, metro bekatlari, qabriston va ziyoratgohlar)dan iborat.

SO‘ZBOSHI

Toshkent – O‘zbekiston Respublikasining poytaxti, aholisi bo‘yicha Markaziy Osiyodagi eng yirik va 2200-yildan ziyod tarixga ega qadimiy shahar. Maydoni 334,8 kv.km, aholisi 3 112 700 (2024-y.) kishi.

Toshkent haqidagi toponimik ma’lumotlar turli davrlarda yozilgan birlamchi yozma manbalarda, keyinchalik chop etilgan nashrlarda o‘z aksini topgan. Eng qadimgi Toshkent “Choch” deb atalishi bizning davrimizgacha yetib kelgan (“Choshtepa”). Undan keyingi shahar – “Binkat” shaklidagi nomi keyingi davrlarda saqlanmagan. Undagi shahar devorlari, markaz – Chorsu, hukmdor saroyi – O‘rda, shahar darvozalari haqida ma’lumotlar yozma yodgorliklarda qayd etilgan. Mazkur toponim etimologiyasi xususida yozilgan ma’lumotlar XI asr Markaziy Osiyo olimlari Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” (“Toshkand, ya’ni “tosh-shahar”) va Abu Rayhon Beruniyning “Qonuni Mas’udiy” (“Binkat – Shoshning markazi, turkchada Toshkand, yunonchada Tosh qal’a”) asarlaridan o‘rin olgan. Umuman, hozirgi Toshkent hududida IX–X asrlarda bir nechta shahar (qo‘rg‘on)lar bo‘lgani va ularning o‘rni tepaliklar ko‘rinishida shahar toponimiyasida aks etgani ma’lum (Yunusobod Oqtepa, Chilonzor Oqtepa).

Undan keyingi davrlarda shahar hududi kengayib borib, toponimiyasida mahalla va mavzalar nomlari salmoqli o‘rinni egallaydi. Markaziy Osiyo shaharlarida “mahalla” va “mavze” atamallari ma’muriy birlikka oid atama sifatida keng ko‘lamda joriy etilishi Sohibqiron Amir Temur tomonidan Samarqand shahri va atrofida olib borilgan bunyodkorlik ishlari bilan bog‘liq.

Yevropaning g‘arbiy qismida joylashgan Kastiliya (Ispaniya)dan 1404-yili Samarqandga Amir Temur davlatiga elchi bo‘lib kelgan Rui Gonsales de Klavixo, o‘z kundaligida shahardan ko‘ra, uning devori tashqarisida aholi ko‘proq yashashini, shahar atrofidagi bog‘larda hashamatli saroylar qurilgani, ularning bir qismi Amir Temurga tegishligi; undan tashqari, bu bog‘larda shahar zodagonlarining ham o‘z ko‘shk-saroylari borligini yozib qoldirgan. Amir Temurning Samarqand shahri mahallalari va uning atrofidagi mavzalarining obodonchiligi uslubi keyingi asrlarda Movarounnahr va Xurosonda davom etib, keng rivojlandi.

Mazkur an‘ana davomiyligi Toshkent shahri ma’muriy-hududiy holatidagi “mahalla” va “mavze” misolida ham kuzatiladi. Shahar mahallalarida istiqomat qiluvchi aholi erta bahordan to kech kuzgacha shahar devoridan tashqarida ma’lum joylarda dehqonchilik bilan shug‘ullanishgan va bu joylar mavzalar deb atalgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlari rus manbalarida Toshkent shahri hududida 280 ta mahalla va shahar atrofida 171 ta mavze borligi qayd etilgan. Tabiiyki, har bir mahalla va mavzening o‘z nomi bo‘lgan, ular shaharning maxsus toponimik qatlamini hosil qilgan. Shahar devori buzilib, uning hududi kengayib borgan payt-

da ham aksari mavzalar nomlari saqlangan va ushbu kitobda bu haqda kerakli va qiziqarli ma'lumotlar o'rin olgan. Ular Toshkent shahrining tarixiy toponimlari sirasiga kiradi.

Ta'kidlash joizki, hozirgacha Toshkent shahri toponimiyasi bilan bog'liq muammolar respublika ko'lamidagi qonun hamda qarorlarda va turli ma'lumotlar chop etilgan kitob va risolalarda yoritilgan: *"Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"*gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent, 2011-yil 12-oktyabr. № O'RQ – 303 (*"Xalq so'zi"* gazetasining 2011-yil 13-oktyabrdagi № 198 (5365) soni); *"Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"*gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi 295-son qarori; D.A. Alimova, M.I. Filanovich. *Toshkent tarixi (qadimgi davrlardan bugungi kungacha)* – Toshkent: "Art-flex", 2009. – 208 b.; O.Bo'riyev. *Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi*. [Matn]. Monografiya. Toshkent: "Mumtoz so'z", 2017. – 352 b. [xarita va ill.]; X.Bo'riyeva. *Toshkent shahri joy nomlari tarixidan*. / To'ldirilgan qayta nashr. – Toshkent: "KALEON PRESS", 2021-y. – 136 b.; *Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi (qayta ishlangan ikkinchi nashr)* / Tahrir hay'ati: A.Qayumov va boshq. Bosh muharrir: A.A'zamov. – T.: "Sharq" NMAK Bosh tahririyati, 2017. – 688 b. (40 bet illyustratsiyalar); Н.Г. Маллицкий. *Ташкентские махалля и мауза*. – Ташкент, 1927. – С 16; A.Muhammadjonov. *Qadimgi Toshkent (Tarixiy va arxeologik lavhalar)*. – Toshkent: "Sharq", 2002. – 64 b.; A.Muhammadkarimov. *Toshkentnoma. Tarixiy-toponimik lavhalar*. 1-kitob. – Toshkent: "Movarounnahr", 2004. – 170 b.; *Toshkent: Ensiklopediya* / Bosh tahrir hay'ati: A.Akromov, B.Sh. Alimov, M.N. Aminov va boshq. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 784 b.: rangli surat, xarita; *Toshkent shahridagi nomi o'zgargan ko'chalar to'g'risida ma'lumot (1989–2005)*. – Tayyorlovchi: E.Ismatullayev. Toshkent shahar Kamolot bo'limi. – Toshkent, 2005. – 92 b.; *Toshkent mahallalari: ma'lumotnoma* / Nashrga tayyorlovchilar: M.Aminov, F.Hasanov; mas'ul muharrir E.Ismatullayev. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2011. – 160 b.; A.O'rinboyev, O.Bo'riyev. *Toshkent Muhammad Solih tavsifida*. – Toshkent, "Fan", 1983. – 56 b.; S.Qorayev. *Toshkent toponimlari* / Mas'ul muharrir A.Muhammadjonov. – Toshkent: "Fan", 1991. – 62 b.; H.H. Hasanov. *O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan*. – T.: "Fan", 1965.

Kitob oxirida o'quvchilarga qo'shimcha adabiyot sifatida joy nomlari va Toshkent shahridagi toponimlar to'g'risida chop etilgan ba'zi tadqiqotlar ro'yxati o'rin olgan.

O'quvchilar e'tiboriga havola etilayotgan ushbu "Toshkent shahri joy nomlarining izohli lug'ati" nomli kitobda shahar hududidagi joy nomlari o'ziga

xos qo‘llanma uslubida keltirilgan va tarkib jihatdan ikki qismdan iborat. “Tarixiy Toshkent” deb nomlangan birinchi qism – ariqlar va kanallar, daha va darvozalar, muassasalar va “Zamonaviy Toshkent” deb atalgan ikkinchi qism – tuman, mahalla, daha va mavzelar, metro bekatlari, qabriston va ziyoratgohlar ro‘yxatini o‘z ichiga oladi.

Toshkent shahri toponimlarini nazorat qilib borish, ularni davr talabi doirasida tegishli qonun-qoidalar, ilmiy va tarixiylik talablaridan kelib chiqib o‘zgartirish yoki yangi toponimlar taklif qilishga doir muammolar bilan ma’muriy va ilmiy tarkibdagi Toshkent shahar hokimligi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Toshkent shahar komissiyasi shug‘ullanadi.

TARIXIY TOSHKENT

TOSHKENT – zamonaviy davrda jahonning Osiyo mintaqasidagi yirik madaniyat, san’at, fan, texnika, sanoat, savdo markazlaridan biri, boy tarixga ega shahar sifatida tanilgan. Uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida Toshkent qadimgi davrlardan boshlab to hozirgi zamonga qadar Markaziy Osiyo hududidagi yirik shaharlardan biri bo‘lib, Shosh viloyati markazi, Qang‘ davlati poytaxti, Turk xoqonligidagi yirik savdo markazi, Arab xalifaligi davrida ma’rifat o‘choqlaridan biri hisoblangan. Chig‘atoy ulusidagi muhim hunarmandchilik va savdo shahri, Temuriylar davridagi strategik ahamiyatga ega bo‘lgan va madaniy hayotda alohida o‘rin egallagan, xonliklar davrida Toshkent bekligining markazi, keyingi asrlarda Turkiston general-gubernatorligi markazi, sobiq sovetlar davlati tarkibidagi respublika poytaxti vazifasini o‘tab, bugungi kunda suveren O‘zbekiston davlatining poytaxti maqomiga erishgan. Uzoq tarixiy jarayonlar davomida Toshkentning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotida muntazam o‘zgarishlar ro‘y berib, ular shaharning topografik hamda toponimik holatlarida ma’lum iz qoldirgan. Tabiiyki, turli o‘zgarishlar o‘lkaning tarixiy rivojlanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Shu nuqtayi nazardan Toshkent shahrining o‘tmishi bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar O‘zbekiston tarixini yoritishda qimmatli ma’lumotlarni beradi.

Mustaqillik davrida Vatanimiz poytaxti Toshkent shahri tarixiga bo‘lgan yondashuvlar ko‘lami kengayib, uning o‘tmishi, bugungi kun taraqqiyoti va istiqboli bilan bog‘liq masalalar turli soha mutaxassislari tomonidan tadqiq etib kelinmoqda. Jumladan, joy nomlari tarixini o‘rganish masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Zero, toponimlar ma’lum hududning siyosiy, madaniy, iqtisodiy tarixiy taraqqiyotini o‘zida aks ettiradi. Shaharning turli tarixiy davrlardagi voqealari ma’lum tarzda joy nomlariga ta’sir ko‘rsatib, alohida toponimik qatlamlarning shakllanishiga sabab bo‘lgan. Tilshunoslik jihatidan Toshkent toponimlari tarkibida sug‘diy, turkiy, fors-arab, rusiyazon, aralash toponimik guruhlar vujudga kelgan. Tarixiy nuqtayi nazardan esa, ularni turli davrlar – qadimiy, o‘rta asrlar, xonliklar, mustamlakachilik, sobiq sovetlar, mustaqillik davrlari toponimlariga ajratish mumkin. Har bir tarixiy davrga oid toponimlarni tadqiq etish natijasida ushbu davrning tarixiy toponimik qiyofasi yaratiladi va shu bilan birga shaharning tarixiga oydinlik kiritiladi.

“Toshkent” atamasining etimologiyasi chuqur tarixga ega bo‘lib, olimlar bu xususda yagona fikrga hozirgacha to‘xtalmaganliklarini qayd etish lozim. “Toshkent” toponimi ma’nosi bilan bog‘liq uchta fikr zamonaviy tarix fanida keng tarqalgan bo‘lib, birinchisiga ko‘ra bu nom “Toshshahar”, ya’ni toshdan qurilgan imoratlar ko‘p shahar, degani; sababi – miloddan avvalgi davrda shahar joylashgan hudud toshli tog‘lar orasida bo‘lgan va aholi o‘rtasida tosh asosiy qurilish ashyosi sanalib, o‘lkada mavjud qal’a va devorlarni bunyod etishda undan keng foydala-

nilgan. Ikkinchi fikrga ko‘ra ushbu toponim “Toshqal’a” deb tarjima qilinadi; bu haqida yunon manbalaridagi shaharning Tashkura – toshdan qurilgan qal’a, deb atalishi dalolat beradi. Uchinchi fikr nisbatan kechroq, aniqrog‘i XX asrda shakllangan bo‘lib, ayrim qadimshunos olimlar tomonidan ilgari surildi va unga ko‘ra Toshkent nomi “qimmatbaho tosh o‘lkasi” deb izohlandi; ushbu mutaxassislar Toshkent vohasi hududidan qadimgi davrlarda qimmatbaho lojuvard toshi qazib olingani va Buyuk ipak yo‘li orqali u xalqaro savdoga chiqarilib, shahar shu nom bilan mashhur bo‘lgan, deb hisoblashadi. Mazkur uchta yondashuvning umumiy tomoni shundaki, ular Toshkent so‘zi “toshli o‘lka” ma’nosiga yaqinligini ma’qullaydilar, ya’ni “Toshkent” toponimi “Toshshahar” ma’nosini anglatadi.

Toshkent O‘rta Osiyoning qadimiy shaharlaridan biri sanaladi. Shu sababdan shahar toponimiyasi ancha qadimiy, o‘rta asrlar va undan keyingi davr manbalarida qayd etilgan. Fanda mavjud dastlabki toponimik ma’lumot shahar nomi etimologiyasi bilan bog‘liq. Qadimiy Xitoy solnomalarida Toshkent xitoycha Loyuyeni, Yuni, Chje-shi, Chje-chji, Chje-si va Shi nomlari bilan tilga olingan. Miloddan avvalgi II asrga oid Xitoy solnomasida hozirgi Toshkentning bir qismiga to‘g‘ri keladigan hudud Yuni deb ko‘rsatilgan; keyinroq shu joy Chje-shi, Shi shakllarida yozilgani ham ma’lum. Shi, Chje-chji va Chje-shi Xan sulolasi davri (mil. avv. 206-y. – mil. 25-y.) solnomalarida Davan (Farg‘ona) ning shimoliga chegaradosh joy; uning aylanasi 1000 li (500 km.), hukmdori Shi, qarorgohi Chjesi shahrida joylashgan, odamlari mohir jangchi; bedov otlari bor, deyilgan. Milodiy III asrga tegishli Xitoy solnomasida ham yuqoridagilarni qisman qaytaruvchi ma’lumot bor: “Shi hukmdori Yaosha bo‘yida yashaydi, Qarorgohi aylanasi 10 li (5 km.). Hukmdor Shi deb ataladi; ismi Ne... Bu yerda bug‘doy va arpa yetishtiriladi. Yaxshi otlar ko‘p. Odamlari mohir jangchilar...”. Mazkur manbalarda hozirgi Toshkentning o‘rni Shi hududiga kirganligi ta’kidlangan. “Shi” so‘zini ifodalovchi xitoycha belgi (iyeroglif) “tosh” degan ma’noni anglatadi. Ayni paytda, shaharning sug‘dcha “Choch” degan nomi ham “tosh” ma’nosini bildiradi. Demak, xitoy manbalarida uchraydigan “shi” so‘zi sug‘dcha “choch” atamasining kalkasi, deyish mumkin.

“Choch” toponimi yozma shaklda ilk bor sasoniy podshoh Shopurning farmonga ko‘ra “Zardusht ka’basi”ga (milodiy 262-yil) bitilgan yozuvlarda uchraydi va u viloyat nomini anglatadi. “Choch” yozuvi III–V asrlarga oid sug‘d tangalarida ham zarb etilgan. Shuningdek, ilk o‘rta asrlar tangalari, kumush idish va Fatufarning Divashtichga yozgan xatida ham “Choch” toponimi uchraydi.

O‘rta asrlarga oid, shu jumladan, X–XI asrlar forsiy yozma manbalarida ham shahar nomi “Choch” shaklida berilgan. Masalan, 983-yilda yozilgan “Hudud ul-olam” nomli fors tilida yozilgan asarda Choch katta viloyat poytaxti Binkat va podshohning qarorgohi shu shaharda ekanligi qayd etilgan. Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asarida Choch o‘z navbatida Buxoro, Sug‘d va Samarqand shaharlari qatorida sanab o‘tilgan.

Arab manbalarida “Choch” toponimi “Shosh” shaklida ifodalangan. Sababi, arab alifbosida “Ch” harfi yo‘q. Masalan, Muhammad Jarir at-Tabariyning “Kitob ar-rusul va-l-muluk” (IX asrda) asarida Shosh (Choch) viloyati bir necha bor tilga olinadi. Muallif mazkur o‘lkani arablar tomonidan qanday qilib egallanganligi haqida yozgan.

IX asr o‘rtalaridan boshlab hozirgi Eskijo‘va, Chorsu, Xadra oralig‘ida yangi shahar shakllanadi va u yozma manbalarda “Binkat” nomi bilan qayd etilgan. Binkat shahri Shosh viloyatining markazi bo‘lganligi yuqorida aytiladi. Bu so‘z sug‘d tilida “Yangi shahar” degan ma‘noni bildiradi.

X asrning oxirida Toshkent Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan va unga alohida ulus maqomi berilgan. Ana shu davrdan boshlab “Toshkent” toponimi muomalaga kirgan, ya‘ni shahar shu nom bilan atala boshlangan. Mazkur toponim Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” (XI asr) asarida eslatilgan: “Tarkan – Shoshning nomidir. Aslida bu Toshkand, ya‘ni “tosh-shahar” demakdir”. Abu Rayhon Beruniyning (XI asr) “Qonuni Mas‘udiy” asarida esa shahar nomining bir necha shakllari qayd etilgan: “Binkat – Shoshning markazi, turkchada Toshkand, yunonchada Tosh qal’a”.

XVI asr mualliflaridan Fazlulloh ibn Ro‘zbixonning “Mehmonnomai Buxoro” asarida esa shahar nomi “Toshkand” va unga yondosh yerlar birgalikda “Shosh viloyati” deb atalgan. Arab tilida yozilgan yana bir asar, ya‘ni Jamoliddin Qarshining “Mulhaqat as-suroh” (XIII asr)da shahar “Shosh shahri” deb atalgan.

XVII asrda yashab ijod etgan tarixchi Mahmud ibn Valiyning “Bahr al-asror” asarida faqat shahar nomi berilgan xolos, biroq uning uch xil shakli keltirilgan: “Shosh – Turkistonga tegishli, Sayxun daryosining narigi tomonidagi shahar; 5- va 6-iqlimlarda joylashgan. Uni Choch deb ham atashadi, biroq hozir uning nomi – Toshkent”.

Umuman olganda, XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida Toshkentning Choch, Shosh, Binkat kabi qadimiy nomlari aholi o‘rtasida muomaladan chiqib, uning so‘nggi atamasi, ya‘ni “Toshkent” shakli shuhrat topa boshlagan.

XVIII–XXI asrlarda shahar nomi “Toshkent” deb ataladi, shuningdek, rusiyabon adabiyotlarda u “Tashkent”, ko‘plab xorijiy nashrlarda – “Tashkent” shakli bilan mashhur.

ARIQLAR VA KANALLAR

ANHOR KANALI – Boʻzsuvning chap tarmoqlaridan biri, uzunligi 8,7 km. Kanal shahar ichidan shimoli-sharqdan janubi-gʻarbga qarab oqadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Anhor Toshkentning Eski shahar va Yangi shahar qismlari oʻrtasidagi chegara vazifasini ham oʻtagan. Uning oʻng va chap tomonlaridan bir nechta ariq suv olgan.

“Anhor” gidronimi arabcha “nahr” – “daryo” soʻzining koʻplik shakli boʻlsa-da, bu yerda “katta ariq” maʼnosini bildiradi. Shuni ham taʼkidlash lozimki, “Anhor” gidronimi mahalliy aholining talaffuzida koʻpincha “ariq”, “soy” maʼnolarini anglatadi. Anhor shahardan oqib chiqqach, Boʻrijar nomini olgan.

Anhor kanalining nomi turli davr yozma manbalarida qayd etilgan. XIX asr rus yozma manbalarida mazkur gidronim koʻproq “Angor”, shuningdek, “Anhor” deb yozilgan. Oʻsha davrda nashr etilgan xaritalarda mazkur ariqning nomi “Anhor” shaklida qayd etilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Anhor arigʻi Shayxontahur dahasining Yer-teshgan, Yangi shahar-Labzak, Turk, Yangi shahar-Minor, Yangi shahar-Qiyot, Tojik mahalla mavze-mahallalari, Shatak, Turktepa, Qashqar, Qiyot katta koʻchasi, Kaltatoy, Qaymoqbozor, Qiyot tor koʻchasi, “Pastak”, “Qoryogʻdi”, “Quduqboshi”, “Oʻrda”, “Qiyottepa”, “Qiyot”, “Quyi Mergancha” mahallalari hududidan oqib oʻtgan va ularni suv bilan taʼminlagan.

BOʻZSUV ARIGʻI – Chirchiq daryosining oʻng tarmogʻi. Oʻz suvini ikki joydan – Boʻzsuv-Zax bosh tarmoqdan hamda Chirchiq shahri “Boʻzsuvboshi” mahallasi yaqinidan oladi. Toshkent shahridan oqib chiqqach, Chinoz shahridan oʻtib, Sirdaryoga quyiladi. Umumiy uzunligi 159 km. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Boʻzsuv Toshkentning shimoliy qismidan oqib kirib, shaharning markaziy qismida Anhor va shahardan chiqqandan soʻng Boʻrijar nomi bilan davom etgan. Hozirgi kunda Toshkent hududida Boʻzsuvdan 25 ta tarmoq chiqarilgan.

Boʻzsuv kanalining qachon qazilganligi haqida aniq maʼlumot yoʻq. Arxeologlarning taxminiylariga koʻra, u milodning boshlarida qazilgan. Mazkur ariq haqida yozma manbalarda ham qayd etilgan. Jumladan, Muhammad Solihxoʻjaning “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida Boʻzsuv qadimda “Kaykobus” deb atalgani, muallif yashagan davrda esa (XIX asr) u “Boʻzsuv” deb nomlanishi haqida yozilgan. Hozirgi vaqtda “Boʻzsuv” nomi kanalning yuqori qismidagina saqlanib qolgan.

“Boʻzsuv” gidronimi ikki soʻz – “boʻz” va “suv” komponentlaridan tashkil topgan. “Boʻz” asli turkiy soʻz boʻlib, uning bir qancha maʼnolari bor. Jumladan, rang, tus maʼnosida: “boʻzrang” – och kulrang; “boʻz tuproq” – choʻl yoki dasht tuprogʻining bir turi, sargʻish rangda; Oʻrta Osiyoning togʻ etaklarida keng tarqalgan. Baʼzi tadqiqotchilar Boʻzsuv arigʻi ham undagi suv rangiga koʻra shunday

nom olgan deb yozishadi. “Bo‘z” – qo‘lda to‘qilgan mato nomi; ushbu ma’noda “Bo‘zchi” degan joy nomi ham paydo bo‘lgan. “Bo‘z” so‘zining “yangi” degan ma’nosi ham borki, u joy nomlariga bevosita daxldordir. Jumladan, “Bo‘z yer” – o‘zlashtirilmagan yer, qo‘riq yer, dasht. “Bo‘z” atamasi asosida yasalgan joy nomlari anchagina. Shu jumladan, Toshkentning shimoli-sharqiy tomoni (hozirgi Mirzo Ulug‘bek tumanining shimoli-sharqiy qismi) ilgari “Bo‘z mavzei” deyilgan va bu nom qayta tiklandi. Qadimdan bu joylar o‘zlashtirilmagan, asosan, chorva mollari o‘tlab yuradigan, yaylovdan iborat bo‘z yerlar bo‘lgan. Ushbu qo‘riq yer-dan oqib o‘tgan suv tarmog‘i esa “Bo‘zsuv” nomini olgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Bo‘zsuv arig‘i Sebzor dahasining Otchopar, Yangi shahar-darvoza, Yerteshgan, Yangi shahar-Shahidontepa mavze-mahallalari va “Sirli masjid” mahallasi hududlaridan oqib o‘tib, suv ta’minotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu suvdan mavzelardagi dala va bog‘larni sug‘orishda, shuningdek, aholini ichimlik suvi bilan ta’minlashda keng foydalanilgan.

BO‘RIJAR (BO‘RJAR) ARIG‘I – Bo‘zsuvning chap tarmog‘i, uzunligi 5,4 km. Hozirda Chilonzor va Yakkasaroy tumanlari hududidan oqadi, Salor kanaliga quyiladi. Mazkur ariq Anhor arig‘ining shahar tashqarisidagi davomidir.

“Bo‘rijar” gidronimi tadqiqotlarda har xil talqin qilingan: “Bo‘rjar” aslida “bo‘z” (oqish, oqimtir) va “jar” so‘zlarining o‘zgargan shakli; bu yerda chiyabo‘ri ko‘p bo‘lganidan xalq ariq oqib o‘tgan jarni va ariqni “Bo‘rijar” deb atagan.

“Bo‘rjar” gidronimining etimologiyasini “Bo‘zsuv”dan olib qaragan to‘g‘ri-roq, chunki Bo‘rijar arig‘i Bo‘zsuv kanalining davomi va “Bo‘rjar” – “Bo‘z jar” – “Bo‘zsuv oqqan jar” iborasining qisqargan shaklidir.

XX asr boshlarida Bo‘rijar arig‘i Toshkent shahri atrofidagi Rakat, Chilonzor, Taxtako‘prik, Xayrobod, Katta Qozirabot, Kichik Qozirabot, Zangiota, Bo‘rijar mavzalaridan oqib o‘tgan va bu suvdan ekinzorlarni sug‘orishda foydalanilgan.

G‘ADIR ARIG‘I – Bo‘zsuvning chap tarmog‘i, uzunligi 4,7 km. Hozirgi vaqtda Mirobod tumanidan oqib o‘tadi. Rakat arig‘iga quyiladi.

XIX asr 2-yarmi – XX asr boshlariga oid rus manbalarida G‘adir arig‘i “Gad-rachako”, “Gadra”, “Gadragan” shakllarida yozilgan. Mazkur davrda G‘adir arig‘i Yangi shaharning sharqiy, markaziy va janubi-sharqiy qismlaridan shimoldan janubga bo‘lgan yo‘nalishda oqqan va shu hududda joylashgan Minor, Yangi shahar – Minor ko‘chalari, Mahram shohko‘chasi, Qashqar, Samarqand, Chimkent, Koljent /Xo‘jand/ ko‘chalarini suv bilan ta’minlagan.

DARXON ARIG‘I – Salor kanalidan boshlanuvchi qadimiy ariq, yuqori o‘zani o‘tgan asrning 50-yillari oxirida tekislab yuborilgach, qolgan qismi Oqqo‘rg‘on kanalining chap shoxobchasiga aylantirildi. Darxon arig‘ining uzunligi 3,1 km, chap tomonga 8 ta va o‘ng tomonga bitta shoxobchalarga tarmoqlangan. “Darxon” gidronimi aslida “Darxon” toponimidan olingan. Mazkur toponim lug‘aviy jihatdan olib qaraganda bir necha xil shaklda talaffuz etilgan: darxon, darxan, tarxon, tarxan, tarqan, tarqat va h.k. To‘g‘ri atalishi “tarxon” yoki “tarxan”. Har xillik esa ma’lum joydagi xalqning so‘z talaffuzi qoidalari bilan bog‘liq. “Darxon” (yoki

“tarxon”) – qadimiy turkiy soʻz. Qadimiy turkiy yozma manbalarda u “tarqan” shaklida qayd etilgan va shaxsga berilgan maʼlum bir unvonni anglatgan. Mahmud Koshgʻariyning (XI asr) “Devonu lugʻotit turk” asarida ham “tarxon” turkiy qabilalardan biri boʻlishi argʻu tilida “bek” maʼnosini anglatishi qayd etilgan. Keyinchalik, “tarxon” atamasi ancha keng ijtimoiy mazmun kasb etdi. Moʻgʻullar hukmronligi davrida bu atama maʼlum imtiyozni belgilaydigan boʻldi. Hukmdor tomonidan taqdirlangan ayrim kishilarga “tarxon” degan unvon berilgan va bu unvon, odatda, oʻsha shaxsning nomiga qoʻshib aytilgan (Alp tarxon, Arslonxoʻja tarxon). “Tarxon” unvoni bilan taqdirlangan amaldorlarga ajratilgan mulk soliقدan ozod qilingan. Bunday yerlarni “tarxonlik yerlari” (qisqacha “tarxon”) deyishgan. Shu asosda joy nomlari paydo boʻlgan hollar ham uchraydi. Jumladan, hozirgi Astraxan shahrining nomi “Hoji-tarxon” boʻlgan. Moʻgʻullarda bu soʻz “darxon” shaklida qabul qilingan va lugʻaviy jihatdan “ozod” degan maʼnoni anglatgan. Shundan kelib chiqib, undan joy nomlari ham hosil boʻlgan. Chunonchi, Darxan – Mongoliyadagi shahar nomi. Oʻzbekistonda bu atama, asosan, uning moʻgʻulcha atalishi, yaʼni “darxan” (“darxon”) shaklida keng tarqalgan.

Toshkent shahrining hozirgi joylashgan maydonida Darxon nomli joylar bir nechta joyda mavjud. XX asr boshlarida Shayxontahur dahasida “Darxon” mahallasi boʻlib, u “Pushtibogʻ”, “Orqakoʻcha” va “Oqmachit” mahallalariga yondashgan edi. Boʻzsuvdan boshlanadigan Oqqoʻrgʻon kanalining bir tarmogʻi Darxonariq, undan suv olgan mavze Darxon mavzesi deb atalgan. Muhammad Solihxoʻjaning “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida mazkur ariq Tarxon-sayyod arigʻi, deb eslatilgan. Anhor kanalining etak qismidan, chap yonidan suv oluvchi bitta ariqni Eski Darxon arigʻi deyishadi. Sebzor dahasida ham Darxon degan mavze boʻlgan. Toshkent shahri joy nomlari orasida “Darxon” toponimining koʻp uchrashi qadimda shahar zodagonlariga anchagina joylar tarxonlikka ajratilib berilganligidan dalolat beradi. Ana shu yerlarda ular ariqlar qazdirib, ekin ekib, bogʻ-rogʻlar barpo etishgan. Zero, Toshkentdan sharqda Boʻzsuvdan boshlanib, shaharning shimolidan davom etgan ikkita kanalning nomi ham Darxonariqdir.

XX asr boshlarida Darxon arigʻi Salor kanalidan suv olgan va Yangi shahar hududida Salor yoʻnalishi boʻyicha, kanaldan uzoq boʻlmagan masofada, shimoldan janub yoʻnalishida oqqan va Oqqoʻrgʻon arigʻiga quyilgan.

JARARIQ KANALI – Chigʻatoy arigʻining tarmogʻi. Hozirgi kunda uzunligi 1,8 km, Olmazor va Shayxontohur tumanlaridan oqib oʻtadi.

“Jarariq” gidronimi relyef bilan bogʻliq boʻlib, “jarlikda hosil boʻlgan ariq”, “jardan oqib oʻtgan ariq” maʼnolariga yaqin. Maʼlumki, Chigʻatoy baland yerlardan oqqan, undan oʻng tomonga tarmoqlangan ariqlardan eng kattasi sanalgan Jarariq oqib oʻtgan yerlari nisbatan pastlik joylarga toʻgʻri keladi.

XX asr boshlariga oid rus manbalarida Jarariq “Djar” shaklida berilgan. Mazkur davrda Jarariq Toshkent shahri Koʻkcha dahasining “Shahidontepa” mahallasi hamda shahar atrofidagi Jarariq mavzesini suv bilan taʼminlagan.

KAYKOVUS KANALI – Boʻzsuvning oʻng qirgʻogʻidan suv olgan. Kaykovus kanalidan oʻng va chap tomonga 13 ta ariq suv oladi. Kaykovus kanali hozirgi Olmazor va Shayxontohur tumanlari hududlaridan oqib oʻtadi.

Kaykovus kanali qadimgi ariqlardan boʻlib, uning qazilgan vaqti oʻrta asrlarga toʻgʻri keladi. Mazkur ariq haqida yozma manbalarda ham maʼlumotlar uchraydi. Jumladan, Muhammad Solihxoʻjaning “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida ariq nomiga daxldor shunday rivoyat keltiriladi: “Kaykobus va podshoh Salor zamonlarida Kaykobusning buyrugʻi bilan shahardan uch farsax yerda Farrak daryosining Bandi podshoh degan joyidan katta kanal qazib chiqarildi. Toʻgʻondan 2 farsax masofada kanal ikki tarmoqqa boʻlingan: birinchi tarmoq shahardan chorak farsang (taxminan 1,5 km) janubdan oqib oʻtgan va Salor deb atalgan; ikkinchisi – bevosita shahardan oʻtib, Kaykobus nomi bilan mashhur boʻlgan”.

Muhammad Solihxoʻja qadimgi davrda Boʻzsuv arigʻi Kaykobus (Kaykovus) deb atalganligi, keyinroq esa ushbu nom Boʻzsuvning faqat shahardan oqib oʻtgan shimoliy tarmogʻi uchungina saqlanib qolganligini qayd etgan.

Kaykovus kanali haqida Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” (“Sharafnomai shohiy”) asarida ham maʼlumotlar bor. Unda yozilishicha, XVI asrda Kaykovus boʻyida (shahar qoʻrgʻoni tashqarisida) shu ariq nomi bilan atalgan bogʻ boʻlgan va bu bogʻ “Kaykovus bogʻi” deb atalgan, unda Toshkent sultonlari yashashgan.

Bizning davrimizda xalq talaffuzida Kaykobus kanalining nomi “Kalkovuz” shaklida ommalashgan.

“Kalkovuz” gidronimi “Kaykovus”, “Kaykobus” toponimlarining oʻzgargan shaklidir. Mazkur toponim “Kaykovus” antropotoponimi bilan bogʻliq. X–XI asr fors shoiri Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asarida yozilishicha, Kaykovus Eron shohlaridan biri boʻlgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Kaykovus arigʻi Sebzor dahasining Kohota, Otbozor, Yangi shahar mavze-mahallalari, “Shatak”, “Qoshiqchilik”, “Qangʻlikoʻcha”, “Yuqori Taxtapul”, “Oʻrta Taxtapul”, “Quyi Taxtapul”, “Chiltoʻgʻon”, “Chaqar”, “Qumloq”, “Mozorxon”, “Halimkoʻp” mahallalari, shuningdek, Koʻkcha dahasining “Qoʻshtut”, “Qoziobod”, “Shahidontepa”, “Chigʻatoytepa” mahallalari hamda Yangi shahar, Jarariq, Allon mavze-mahallalarining hududlaridan oqib oʻtgan. Ariqning suvlaridan mavzelardagi dala-bogʻlarni, shahardagi tomorqalarni sugʻorishda, aholining suvga boʻlgan boshqa ehtiyojlarini qondirishda keng foydalanilgan. Bahor, yoz fasllarida ariq boʻylarida odamlarning dam oladigan yerlari boʻlgan.

KOʻKCHA ARIGʻI – Kaykovus arigʻining chap tarmogʻi, Shayxontohur va Olmazor tumanlari hududidan oqib oʻtadi, Qoraqamishga borib quyiladi; uzunligi – 5,5 km.

“Koʻkcha” gidronimi “koʻkcha” toponimidan kelib chiqqan; sababi, mazkur ariq Koʻkcha dahasidan oqib oʻtgan. Toponimning etimologiyasi xususida fikrlar turlicha: Koʻkcha dahasi daraxtzor, koʻkalamzor, ekinzor koʻp boʻlganidan shun-

day nom olgan; “ko‘kcha” – forscha “kohcha” so‘zining talaffuzda o‘zgargan shakli bo‘lib, “kichik qarorgoh” – “qal’acha” ma’nosini anglatadi. Ko‘kcha arig‘i shu qarorgoh hududidan oqib o‘tganligi tufayli keyinchalik bu joyning nomini olgan. “Ko‘kcha” shaxs nomi sifatida XIV asrda, aniqrog‘i, Rashid ad-Din Fazlullohning “Jome at-Tavorix” asarida uchraydi. Muhammad Solihxo‘janing yozishi-cha, “ko‘kcha” bu turkiy qabilalardan birining nomi.

Biz ko‘rib chiqayotgan davrda mazkur ariq Ko‘kcha dahasining “Jarariq”, “Oqtepa”, “Xiyobon”, “Sholiquloq” mavze-mahallalari hamda “Shahidontepa”, “Balandko‘prik”, “Chaqar”, “Obinazir”, “Sharshin” mahallalaridan oqqan va shu yerlarni suv bilan ta’minlovchi asosiy ariq bo‘lgan.

LABZAK (YOKI JANGOB) ARIG‘I – Bo‘zsuv kanalining o‘ng tarmoqlaridan biri, shahar hududida sharqdan g‘arbga yo‘nalishda oqadi, suvi Quyi Bo‘zsuv arig‘iga qo‘shiladi. Uzunligi taxminan 4 km.

“Labzak” gidronimi “Labzak” toponimi bilan bog‘liq. Mazkur joy nomi forscha “lab” – “bo‘yi”, “chekkasi” va arabcha “zax” – “nam, zax yer” so‘zlaridan tashkil topgan. Ya’ni “labzak” so‘zi “zax yer” ma’nosiga yaqin. Aslida ariqning nomi shu nomli hududdan oqib o‘tganidan kelib chiqqan. Manbalarda Labzak nomli ariq XIX asrdan boshlab uchraydi. Uning xalq orasida “Jangob” degan nomi ham mashhur bo‘lgan va bu nom qadimiyroqdir. Bu ariq XVIII asrda shahar markazidan oqib o‘tgan. Chorhokimlik davrida (XVIII asr) uning ikki sohili (asosan, hozirgi Sebzor mavzesi qismida) dahalararo bo‘lib o‘tadigan janglar maydoniga aylangan. Shu boisdan ham suvining nomi shaharliklar orasida “Jangob”, ya’ni “urush suvi” deb shuhrat topgan edi. Keyingi davrlarda ham Jangobda to‘qnashuvlar bo‘lgani haqida yozma manbalarda ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, “Aziz parvonachi xalqdan ortiqcha iftor puli olgani uchun qo‘zg‘olon ko‘tarilgan... Jangobda jang bo‘lgan”. “Jangob” gidronimi XIX asr rus manbalarida “Yangob” shaklida xato yozilgan hollar ham uchraydi.

O‘rganilayotgan davrda Labzak arig‘i Shayxontahur dahasining “Turk”, “Labzak” mavze-mahallalari, Maraim xalfa, “Raisko‘cha”, “Orqako‘cha” mahallalari, markaziy bozordagi “Qoshiqchilik” mahallasi, Sebzor dahasining “Darvozakent” mavze-mahallasi, “Zanjirli”, “G‘ishtmasjid”, “Qoziko‘cha”, “Tinchob”, “Kichik Janggoh”, markaziy bozorda joylashgan “Poyakilik”, “Hojiko‘cha-2”, “Hojiko‘cha-3” mahallalari, Ko‘kcha dahasining “Ishqobod”, “Mahkama”, “Xodabozor”, Beshog‘och dahasining “Sarichopon”, “Eski Namozgoh”, markaziy bozordagi “Hovuzbog‘-1”, “Gulbozor”, “Chorsu” mahallalaridan oqib o‘tgan. Shaharning ko‘p aholi yashaydigan joylarini suv bilan ta’minlagan bu ariq Sebzor va Shayxontahur, Ko‘kcha va Beshog‘och dahalari o‘rtasida chegara ham sanalgan.

OQQO‘RG‘ON ARIG‘I – Bo‘zsuv kanalining chap tarmog‘i. Uzunligi 8,2 km. Hozirgi kunda Yunusobod va Mirzo Ulug‘bek tumanlaridan oqib o‘tadi va bir nechta shoxobchalarga bo‘linib ketadi, ularning eng kattasi – Darxon arig‘i.

“Oqqo‘rg‘on” gidronimi shu shakldagi toponimdan hosil bo‘lgan. XV asrda Toshkent atrofidagi mavzelardan biri Oqqo‘rg‘on deb atalgan va shaharning sharqiy chekkasida, Shibli arig‘idan sharqda joylashgan, uning sharqiy chegarasi Salor kanaligacha yetgan. Oqqo‘rg‘on kanali o‘rta asrlarda qazilgan. Uning suvidan Xoja Ahrorning Oqqo‘rg‘on mavzesidagi vaqf yerlari sug‘orilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Oqqo‘rg‘on arig‘i Toshkentning Yangi shahar qismida shimoldan janubga oqqan va Salor kanaliga quyilgan. Uning suvidan Qoramurut, Niyozbek, Oqqo‘rg‘on, Pushkin, Baliqchi, Namangan, Qo‘yliq, Жуковская, Хирургическая ko‘chalarini obod qilishda, o‘sha yerlardagi aholining suvga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda keng foydalanilgan.

REGISTON ARIG‘I – Kaykovus kanalining chap qirg‘og‘idan (Zarqaynar ko‘chasiga yaqin joydan) boshlangan. Uzunligi 2,5 km. Zarqaynar ko‘chasi bo‘ylab Imomsoib masjidi, aholi zich yashaydigan mahallalar orqali o‘tib, Jangob arig‘iga quyilgan.

“Registon” gidronimi “Registon” toponimidan olingan. Aslida “registon” toponimi forscha “reg” – “qum” va “iston” – “o‘lka, joy” – so‘zlaridan tashkil topgan. O‘rta asrlar shaharlaridagi Registon qum-shag‘al to‘kib tekislangan markaziy maydondan iborat edi. O‘rta Osiyoning yirik shaharlarida, jumladan, Buxoro, Samarqand va Toshkentda ham Registon bo‘lgan. Toshkentdagi Registon bozori hozirgi “Chorsu” metro bekati hududiga to‘g‘ri keladi. Ushbu joydan oqib o‘tgan ariq ham “Registon” nomini olgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mazkur ariq Sebzor dahasining “Uchko‘cha”, “Asuvot”, “Chuvalachi”, Hasanboy, “Sebzor”, “Chigitboshi”, “Oxunguzar-1”, “Oxunguzar-2”, “Oxunguzar-3”, “G‘ishtko‘prik”, “Eskijo‘va”, “Hojiko‘cha-1”, “Hojiko‘cha-2”, “Hojiko‘cha-3” mahallalaridan oqqan. Shaharliklar ariq suvidan yerlarni sug‘orishda va ichimlik suvi olishda keng foydalanishgan. Registon arig‘ining shaharning markaziy bozoridan o‘tgan qismida esa ariq bo‘ylab hordiq chiqarish joylari, oshxona va choyxonalar barpo etilgan.

SALOR ARIG‘I – Bo‘zsuv arig‘idan boshlanib, Chirchiq daryosiga quyiladi, uzunligi 65 km. Ikki qismdan iborat: bir qismi shahar hududida – Yunusobod, Mirzo Ulug‘bek, Yashnobod, Mirobod, Yakkasaroy va Sergeli tumanlaridan, ikkinchi qismi Toshkent viloyatining Zangiota, Yangiyo‘l tumanlaridan oqib o‘tadi.

Salor – qadimiy ariq, qazilgan vaqti, arxeologik tadqiqotlarga ko‘ra, miloddan avvalgi birinchi mingyillikka to‘g‘ri keladi. Ariq sohili bo‘ylab olib borilgan arxeologik qazishmalar chog‘ida Qovunchitepa, Niyozboshitepa, Qo‘g‘aytepa va boshqa joylarda mil. avv. V–I asrlarga oid qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklari topilgan. IV–XI asrlarda Salor bo‘yida Toshkentning qadimgi markazi – Madinat ash-Shosh, shuningdek Danfig‘ankat, Shuturkat va boshqa aholi maskanlari joylashgan. XIII asrda O‘rta Osiyoga bostirib kirgan mo‘g‘ullar kanalning ko‘p qismini buzib yuborishgan. Hozirgi vaqtda undan suv oluvchi ariqlar ichida eng kattasi Polvon ariqidir.

“Salor” gidronimi aslida harbiy-tarixiy atama. Arabchada “solor” – “sipoh”, “sarkarda”, “bosh qo‘mondon”, “boshliq” degan ma’nolarni anglatadi. Shuningdek, uning “podshoh” degan ma’nosi ham bor. Mazkur gidronimning paydo bo‘lishi haqida bir nechta fikrlar mavjud: Salor – ushbu ariqni sipohsolor, ya’ni bosh qo‘mondon qazdirganini bildiradi. Muhammad Solihxo‘ja keltirgan rivoyatda Salor arig‘i Kaykobus va podshoh Salor zamonlarida qazdirilgan ariqning nomi va u (XIX asr 2-yarmida) shahardan chorak farsang (taxm.1,5 km) janubdan oqib o‘tgan.

Demak, “Salor” qadimgi podshohning ismi bo‘lgan. Rivoyatdan ariqning nomi podshoh Salor ismidan olingan, deb taxmin qilish mumkin. Boshqa fikrga ko‘ra, “salor” – bu etnotoponim, qadimgi turkiy qabila nomidan olingan. Xitoy olimlarining tadqiqotlari natijasiga qaraganda, salorlar o‘g‘uzlar avlodi bo‘lib, milodiy I–IV asrlarda “turo” nomi bilan atalgan 44 turkiy qabilaning biri hisoblanadi.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida qadimgi solur (silg‘ur) o‘g‘uzlar tarkibiga kirgan bir qabilaning nomidir, deb ko‘rsatilgan. Ushbu fikr “Islom” qomusida ham uchraydi. Qomusda, shuningdek, solur atamasi O‘g‘uzxonning olti o‘g‘lidan birining ismi bilan bog‘liq bo‘lganligi va bu atama bilan atalgan qabila qadimgi davrlarda Sayxun daryosi (Sirdaryo), Issiqko‘l atrofiga va Xurosonda yashaganligi, keyingi davrlarda ular bo‘linib, har tarafga tarqalganligi qayd etilgan. Xitoy yilnomalarida salorlar XIV asrdan tilga olina boshlangan.

Yirik turkshunos olim E.R. Tenishev salorlar Tangritog‘ tomonidan g‘arbga ko‘chganda, ularning bir qismi Samarqandda o‘troqlashib qolganligi va yana bir qismi Turkmaniston hududiga borib joylashib, turkman millati tarkibiga kirganligini ko‘rsatadi. Salor qabilalari kelib o‘troqlashgan ba’zi hududlar keyinchalik ularning nomi bilan atala boshlagan.

Rus tilida “salor” gidronimi “salar” shaklida talaffuz qilinadi va yoziladi. XX asr boshlarida Toshkent shahrining sharqiy chegarasi Salor arig‘ining o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab o‘tgan va uning suvidan Toshkentning Yangi shahar qismi aholisi keng foydalangan. Salorning kichik tarmoqlari Parkent, Asaka yo‘li, Namangan, Salor, Qo‘yliq, Mahram shohko‘chalaridan o‘tgan.

Shuningdek, ariqning o‘ng sohilida shaharning ot bozori barpo etilgan. Kanalning chap sohili bo‘ylab esa, asosan harbiy bo‘linma, zavod, dala hovlilar joylashgan. Salor arig‘i mazkur yerlar aholisini suv bilan ta‘minlashda, dalalarni sug‘orishda, zavodlarning faoliyat yuritishida muhim suv manbai vazifasini o‘tagan.

TANISHAHAR ARIG‘I – Bo‘zsuv kanalining chap tarmoqlaridan, uzunligi 4,7 km. Shayxontohur tumanida, g‘arb tomonga yo‘nalib, Abay, Olmazor, Besh-yog‘och hamda Samarqand Darvoza ko‘chalarini kesib o‘tadi.

“Tanishahar” gidronimi “tan” va “shahar” morfemalaridan tashkil topgan. “Tan” forscha-tojikcha so‘z bo‘lib, bir qancha ma’nolarga ega, bu yerda “tan”

soʻzining “kimsaga tegishli qism, ulush yoki narsa” degan maʼnosi toʻgʻri keladi. Yaʼni Tanishahar – bu “shaharga tegishli” degani. Shu bois “Tanishahar” gidronimi mazkur ariqning aynan shahar hududida oqishini anglatishi mumkin.

XX asr boshlarida Tanishahar arigʻi Eski shahar hududida sharqdan gʻarbga tomon yoʻnalgan boʻlib, Shayxontahur dahasining “Yuqori Mergancha”, “Eski Oʻrda”, “Shahidontepa”, “Qoratosh”, Beshogʻoch dahasining Murod, “Koʻkmasjid”, “Xonaqoh”, “Balandmasjid”, “Tikanlimozor”, Badirboy, Qabsota, “Mirlar”, “Andijon” mahallalaridan oqqan va shaharning gʻarbiy chegarasida Quyi Boʻz-suvga quyilgan. Mazkur hududlarning aholisi Tanishaharning suvidan ichimlik suvi olishda, dala-bogʻlarni sugʻorishda keng foydalanishgan.

CHILONZOR ARIGʻI – Anhor kanalining chap tarmoqlaridan biri, uzunligi 2,2 km. Hozirgi Chilonzor tumanidan oqib oʻtadi.

Gidronim “chilonzor” toponimi bilan bogʻliq. “Chilonzor” toponimi “chilon” va “zor” soʻzlaridan iborat boʻlib, “chilon jiyda oʻsadigan bogʻ” maʼnosini anglatadi. Biroq N.G. Malliskiyning fikricha, Chilonzor aslida Chinorzor, yaʼni “chinor bogʻi” demakdir.

XX asrning birinchi choragida Chilonzor arigʻi Toshkentning janubiy hududini va unga tutash boʻlgan shahar atrofi yerlari (hozirgi Yakkasaroy) tumanining Chilonzor koʻchasi va uning tor koʻchalarini suv bilan taʼminlagan.

CHIGʻATOY ARIGʻI – Kaykovus kanalining oʻng tarmoqlaridan biri, uzunligi 3 km. Bu ariq Olmazor va Shayxontohur tumanlaridan oqib oʻtadi, undan 9 ta shoxobcha suv oladi, Qoraqamish arigʻiga quyiladi.

“Chigʻatoy” gidronimining paydo boʻlishi taxminan XIV asrga toʻgʻri keladi, “chigʻatoy” antroponimi va “chigʻatoy” etnonimi bilan bogʻliq. Maʼlumki, Chigʻatoy (XIII asr) Oʻrta Osiyoda hukmronlik qilgan Chingizxonning ikkinchi oʻgʻlining nomi. Oʻsha davrda Oʻrta Osiyo hududi “Chigʻatoy ulusi” deb nomlangan. Keyinroq ushbu atoqli otdan Amir Temurning buyrugʻi bilan Toshkent shahri devorlari tiklanib, unda 12 ta darvoza bunyod etilgan. Darvozalarning biri ushbu turkiy qabila nomi bilan “Chigʻatoy darvozasi” deb nomlangan. Chigʻatoy arigʻi esa Chigʻatoy darvozasi yonidan oqib oʻtganligi tufayli, uning nomi bilan atalgan.

Asrimizning boshlarida Chigʻatoy arigʻi Koʻkcha dahasining “Chigʻatoytepa” mahallasi, shuningdek, dahaga tegishli boʻlgan, shahar tashqarisida joylashgan Yangi shahar mavze-mahallasi, Kichik-qoʻriq, Beklarbegi-qoʻriq, Ingichka-qoʻriq, Koʻksaroy mavzalaridan oʻtgan va uning suvidan shu yerlardagi dala va bogʻlarni sugʻorishda, aholini suv bilan taʼminlashda keng foydalanilgan.

CHORSU ARIGʻI – Boʻzsuv kanalining oʻng qirgʻogʻidan suv olib gʻarbga tomon oqqan. Ariqning yoʻnalishi hozirgi Shayxontohur tumani hududiga toʻgʻri keladi, uzunligi taxminan 4,4 km. Hidronim “Chorsu” toponimidan kelib chiqqan. “Chorsu” toponimi forscha “chor” – “toʻrt” va “su” – “tomon” soʻzlaridan tashkil topgan, lugʻaviy maʼnosi “toʻrt tomon” demakdir. Bu shartli tushuncha boʻlib, faqat toʻrt koʻcha emas, balki beshta, hatto olti-yettita koʻchaning ham kesishgan

joyini anglatgan. Chorsu – markaziy bozorning, aniqrog‘i usti yopiq (tim) ko‘chalarning boshlanishi bo‘lgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Chorsu arig‘i Shayxontahur dahasining “Quyi Mergancha”, “Yuqori Mergancha”, “Qoziko‘cha”, “Qo‘rg‘ontagi”, “O‘roqchilik”, “Egarchi”, “Tarloq”, “Sho‘rtepa” mahallalari, shuningdek, Ko‘kcha dahasining “Jarlimasjid”, “Qalandarxona”, “Sirlimasjid”, “Qug‘irmoch”, “Temirchi”, Mirzag‘ozi, “Mirlar”, “Eski Namozgoh” mahallalaridan oqqan; bozor hududidan o‘tgan qismida yoz faslida suv bo‘yi o‘ziga xos oromgoh sanalgan.

CHOVLI ARIG‘I – Bo‘zsuv kanalining chap tarmog‘i. Shaharning shimoli-sharqiy qismidan janubga yo‘nalgan bo‘lib, Salor kanaliga quyilgan. Uzunligi 7 km. Hozirgi vaqtda ariq Mirzo Ulug‘bek, Yunusobod va Mirobod tumanlari hududidan oqadi.

Ushbu gidronim ma‘nosi haqida ikki xil fikr mavjud. Birinchisiga ko‘ra, “shibli” – bu “zax yerlar, o‘tloq” demakdir. Ya‘ni bu ariq shunday joylardan oqqanligi bois Chovli deb atalgan.

Ikkinchi fikrga ko‘ra, bu gidronimning to‘g‘ri atalishi “Shibli”. Ariqning nomi mashhur tarixiy shaxs Shayx Shibliy ismidan olingan. Keyinchalik aholi tomonidan “Shibli” so‘zi “Chovli” shaklida talaffuz qilinadigan bo‘ldi.

Shayx Shibliy, Shivliota – tasavvufning mashhur shayxi, buyuk avliyolardan. Uning to‘liq ismi Abu Bakr Dulaf ibn Jahdar (ibn Ja‘far) Shibliy (861–946).

Shibli arig‘i haqida Muhammad Solihxo‘janing “Tarixi jadidayi Toshkent” asarida ham ma‘lumotlar qayd etilgan. Muallif, Shayxontahur dahasini ta‘riflaganda, dahaning uchta asosiy ariqlaridan biri – Shibli arig‘i ekanligini ta‘kidlab, shunday yozgan: “Uchinchi ariq Shayx Shibli yoki Shibli arig‘i bo‘lib, u ham bu loqdan suv oladi, boshlanish yeri shahar devoridan tashqarida, O‘zbeklar (Labzak) darvozasi yaqinidagi Mirzo Yusufning yerida. Shu joyda shaharga doxil bo‘lib, Xo‘ja Darvozning yerlaridan o‘tadi va Qiyot darvozasi yaqinida shahardan oqib chiqadi, so‘ngra davom etib, Mirobod mavzeini suv bilan ta‘minlaydi”.

1936-yilgi Toshkent xaritasida Chovli arig‘i “Chauli” shaklida yozilgan. Mazkur davrda Chovli arig‘i shimoldan janubga yo‘nalgan bo‘lib, Yangi shaharning markaziy qismi bo‘ylab asosiy ko‘chalardan o‘tgan va janubi-sharqda Salor kanaliga quyilgan. Jumladan, u Jizzax, Sayram, Mahram ko‘chalarini obodonlashtirishda, aholini suv bilan ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

CHUQURKO‘PRIK ARIG‘I – Anhor kanalining o‘ng tarmog‘i, Toshkentning qadimgi ariqlaridan biri. Hozirgi vaqtda qirg‘oqlari o‘pirilib, kengayib, jarlikka aylangan; Bo‘zsuvga quyiladi. “Chuqurko‘prik” gidronimi “chuqur” va “ko‘prik” so‘zlaridan tuzilgan. Relyef shakli bilan bog‘liq, ya‘ni ariqning qirg‘oqlari past qismiga qurilgan ko‘prik mavjudligidan shunday nom olgan. Ushbu gidronim 1890-yilgi Toshkent xaritasida “Uch Kur Kupryuk” shaklida xato yozilgan.

XX asr boshlarida Chuqurko‘prik arig‘i Eski shaharning janubiy qismida sharqdan g‘arbga oqqan. U Shayxontahur dahasining “O‘qchidarvoza”, “Yuqori

Mergancha”, “O‘qchi”, Qozi Nizomiddin va Beshog‘och dahasining “Zevak”, “Yalanqar-1”, “Chaqar”, Madalixon, “Laklak”, “Chuqurko‘prik” mahallalari aholisi uchun muhim suv manbai bo‘lgan.

SHAYXONTAHUR ARIG‘I – Bo‘zsuvning o‘ng tarmoqlaridan biri, uzunligi 2,1 km. 1966–1974-yillarda ariqning suvi beton quvurlarda oqadigan qilingan, u o‘z yo‘lida M-13, M-14, Janggoh mavzelari hududi va qo‘shni ko‘chalarni ham suv bilan ta‘minlagan, qolgan suvi Jangob arig‘iga tushirilgan.

“Shayxontahur” gidronimining paydo bo‘lishi esa juda qadimgi tarix, XIV asrga borib taqaladi va “Shayxontahur” antropotoponimi bilan bog‘liq. Aniqrog‘i, bu toponim mashhur tarixiy shaxs – Shayx Xovandi Tohur (Tahur) ismining qisqartirilgan shaklidir. Mazkur shayx Toshkentda XIV asrda yashagan va vafot etgan, qabri ustiga keyinchalik maqbara bunyod etilgan va u hozirgacha saqlangan. Toshkent shahrining ana shu qismi keyinchalik “Shayxontahur” nomini oldi va to‘rt dahadan birining nomiga aylandi. Shayxontahur arig‘i ham ushbu daha nomi bilan atalgan.

Shayxontahur arig‘i haqidagi ma‘lumot Muhammad Solihxo‘janing “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida ham berilgan: “Shayxontahur dahasida uchta ariq bor. Birinchisi – Shayxontahur arig‘i bo‘lib, Kaykobus kanalidan suv oladi. Boshlanish joyi Anhordan, Ganjtepa degan joydan. Bu ariq daha o‘rtasidan sharqdan g‘arbga oqib o‘tib, dahaning bir qismini suv bilan ta‘minlaydi. Shayxontahur arig‘i Ganjtepadan boshlangandan so‘ng Xoja Ahror jome masjidi tomon oqib keldi, so‘ngra shahar bozoridan, keyin Darvishxon Namozgohining shimolidan o‘tadi va Ko‘kcha darvozasi yonidan shahar tashqarisiga chiqadi. Bu yer Shayxontahur dahasining g‘arbiy chegarasidir. Bu ariqda bir nechta tegirmon va objuvozlar qurilgan”.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ushbu ariq Shayxontahur dahasining “Pastak”, “Zanjirli”, “Shayxontahur Quyi Oqmasjid”, “Yuqori Oqmasjid”, “Darxon”, “Orqako‘cha”, “Raisko‘cha” mahallalaridan oqib o‘tib, Jangob arig‘iga quyilgan. Shayxontahur arig‘i mazkur mahallalarda yashovchi aholining asosiy suv manbai hisoblangan.

Vaqtlar o‘tishi bilan “Shayxontahur” toponimi xalq talaffuzida bir muncha o‘zgarib, “Shayxontohur” shaklini olgan.

SHAHAR ARIG‘I – Kaykovus kanalining chap qirg‘og‘idan, Abu Bakr Shoshiy ko‘chasi oldidan boshlanadi. Uning uzunligi 5 km bo‘lib, Olmazor tumanidan oqib o‘tadi. Bu ariq Abu Bakr Shoshiy, Sag‘bon, Forobiy, Beruniy ko‘chalarini kesib o‘tadi va qolgan suvi Ko‘kcha arig‘iga qo‘shiladi.

Ushbu ariq Toshkentning Eski shahar qismidan oqib chiqqanligi sababli, “Shahar arig‘i” nomini olgan. Shuni ham ta‘kidlash lozimki, 1936-yilgi Toshkent shahar xaritasida “ap. IIIaxap” deb nomlangan suv tarmoqlari Kaykovus kanalidan ham chap, ham o‘ng tomonlarga oqqan shaklda tasvirlangan. Chap tarmog‘i Eski shaharga, Ko‘kcha dahasining “Qozirabot”, Hastimom, Hofiz Ko‘hakiy,

“Langar”, “Sarxumdon” mahallalari hududidan oqib, Jangob arig‘iga quyilgan. O‘ng tomonga oqqan Shahar arig‘i esa Toshkentning shimoliy chegarasi tomon yo‘nalgan va shahardan oqib chiqib, Ko‘kcha dahasining “Sag‘bon” mahallasi, shahar atrofidagi Achaobod (Achavot), Yangi shahar mavze-mahallalari hududini suv bilan ta‘minlagan.

QUYI BO‘ZSUV KANALI – hozirgi vaqtda Toshkentning janubi-g‘arbiy qismidan o‘tuvchi va shu hududdan oqib chiquvchi oqova, tashlama va grunt suvlarini o‘ziga yig‘ib boruvchi jarga aylanib qolgan kanal. Aslida u Bo‘zsuv kanalining davomi hisoblanadi.

Ma‘lumki, Bo‘zsuv – bu Chirchiqdan suv oluvchi va Toshkent shimolidan oqib kiruvchi yirik ariq. Shahar hududida undan Kaykovus, Anhor, Bo‘rijar kabi tarmoqlar oqib chiqadi. O‘z navbatida, ushbu ariqlardan mayda ariqlar suv oladi. Mazkur ariqlarning ba‘zilari ma‘lum bir joyda yirikroq ariqqa qo‘shiladi. Bunday ariqlardan biri – Jangob va Chorsu ariqlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan Quyi Bo‘zsuv arig‘idir. Bu ariq Bo‘zsuvdan oqib chiqqan tarmoqlarning birlashishi natijasida vujudga kelganligi sababli aholi tomonidan shunday deb nomlangan. “Quyi Bo‘zsuv” gidronimi “Bo‘zsuvning pastki qismi” degan ma‘noni anglatadi.

Ushbu ariqning nomi XIX asr oxiri – XX asr boshi rus manbalarida turlicha keltirilgan. Jumladan, 1890-yilgi Toshkent xaritasida u “ar. Boz-su”, 1936-yilgi xaritada esa “Nij. Boz-su” shakllarida berilgan. Bu davrda “Bo‘zsuv” nomli ariq shaharning janubi-g‘arbiy tomonidagi chegarasi ortidagi yerlarda oqqan, biroq u shahardan ancha pastroqda, Quyi Bo‘zsuv va Cho‘ponota ariqlari suvining qo‘shilishidan vujudga kelgan.

XX asr boshida Quyi Bo‘zsuv arig‘i shahar hududida “Mirlar”, “Chuqurqishloq”, “Andijon”, “Chaqar”, Suzukota mahallalari, shahardan oqib chiqqach, Shofayzi, Uchtepa, Cho‘ponota, Teshikli-tepa, Beshqayrag‘och mavzellarini ichimlik suvi bilan ta‘minlagan muhim manba bo‘lgan.

DAHA VA DARVOZALAR

ZANGIOTA DAHASI – xalq orasida ko‘proq “Beshog‘och” deb nomlangan. “Zangiota” – qo‘shma toponim, (“zangi” – “qora”, “ota” – “shayx”, “pir”) antropotoponimlar guruhiga mansubdir.

Dahaning nomi Zangiota laqabi bilan mashhur bo‘lgan mutasavvuf shayx Oyxo‘ja ibn Tojxo‘ja (vafoti 1258-y.) sharafiga shunday atalgan. Zangiota “poda-chilar piri” sifatida mashhur bo‘lgan, shu sababdan uni ko‘pincha Cho‘ponota deb ham ataganlar. Toshkent shahrining Samarqand Darvoza ko‘chasidagi Zangiota mahallasida tug‘ilib o‘sgan degan taxminlar ham bor. Arab naslidan, qora tanli bo‘lgani uchun zangi (zanji), hurmat yuzasidan va oliy himmatliligi uchun Zangibobo Himmatiy deb atashgan. Zangiotaning qabri Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi Zangiota qishlog‘ida joylashgan. Zangiota dafn etilgan mozor yonida masjid va madrasa qad ko‘targan. Bu joy ziyoratgoh sanaladi.

Dahaning ikkinchi nomi – “Beshog‘och”. “Beshog‘och” qo‘shma toponim bo‘lib, “besh” va “og‘och” o‘zaklaridan tashkil topgan (“og‘och” yoki “yog‘och” – masofa o‘lchov birligini anglatgan, taxminan 7-8 km). Beshog‘och – “beshinchi yog‘och”, ya‘ni “beshinchi bekat”, Eski Toshkentdan hisoblaganda beshinchi karvonsaroy ma‘nosida ham talqin qilinadi. Tarixchi Muhammad Solihxo‘janing asarida ushbu toponim “Beshog‘och” shaklida berilgan va qabila nomi ekanligi qayd etilgan. Beshog‘och dahasi Toshkentning janubiy qismini tashkil etib, Ko‘kcha, Sebzor, Shayxontahur dahalari bilan tutashgan. Chegarasi shimoli-g‘arbdan Quyi Bo‘zsuv bo‘ylab (hozirgi Mannon Uyg‘ur va Samarqand Darvoza ko‘chalari oralig‘idan), sharq tomondan Beshog‘och – Xadra yo‘nalishi bo‘ylab (hozirgi Furqat ko‘chasidan) o‘tgan. Dahaning janubida beshog‘ochliklarning bog‘lari va dehqonchilik yerlari (mavzelari) joylashgan. Beshog‘och dahasining yerlari ancha notekis bo‘lgan, unda Chuqurko‘prik va Zaxariq ariqlari jarliklar hosil qilgan edi. XIX asr oxirlarida Beshog‘ochda uchta darvoza (Samarqand, Kamolon, Beshog‘och), 75 ta masjid, 3 ta madrasa (eng kattasi – Abulqosim madrasasi) bo‘lgan. N.G. Malliskiyning ro‘yxatida daha hududida 76 ta mahalla va shahar atrofidagi yerlarda unga tegishli 36 ta mavze qayd etilgan. 1876-yilgi “Turkiston o‘lkasi yilnomasi” (“Ежегодник Туркестанского края”) xabarlariga ko‘ra, Beshog‘ochda 1400 ta xonadon bo‘lib, ularda 12450 kishi yashagan; aholisi miskarlik, egarchilik, tikuvchilik, pishiq g‘isht tayyorlash kabi kasblar bilan mashhur edi. Daha hududida bog‘lar ham ko‘p bo‘lgan.

SHAYX ZAYNIDDINBOBO DAHASI – u xalq orasida ko‘proq Ko‘kcha deb atalgan. Shayx Zayniddinboboning to‘liq ismi Shayx Zayniddin bobo Ko‘hi Orifon Toshkandiy bo‘lib, bu shayx 1164–1259-yillarda yashagan. Otasi – Shayx Shihobiddin Abu Hafs Umar Suhravardiydir. U kishi atoqli olim va jamoat arbobi bo‘lib, “suhravardiya” tasavvuf tariqatini yaratganlar. “Avoruf ul-maorif” nomli mashhur kitobning muallifi. Bu kitob arab, fors, ingliz, nemis va boshqa tillarda

ko‘p marotaba nashr etilgan. Ushbu kitobda ilm-fanga qanday munosabatda bo‘lish kerak, odamning xulq-atvori, odob-axloqi, jamiyatda o‘zini qanday tutishi, poklanish usullari, komil inson bo‘lish uchun maorifu ma‘rifat, ma‘naviyat-madaniyat imkoniyatlaridan foydalanish lozimligi tushuntirib beriladi. XIII asr boshlarida Xorazm, Iroq va Eron o‘rtasidagi davlatlararo janjallarni diniy arbob va elchi sifatida bostirgan shaxs ham mana shu Shayx Shihobiddin Abu Hafs Umar Suhravardiy bo‘lganlar. Navoiy bobomiz ham o‘z kitoblarida Suhravardiylar sulolasini hurmat bilan tilga olganlar. Shuni ham aytish joizki, mashhur mutafakkir va shoir Shayx Sa‘diy “Bo‘ston” kitobida Suhravardiyni o‘z ustozim deb e‘tirof etgan.

Rivoyat qilinishicha, Shayx Zayniddinbobo yoshligida o‘z otasi Shayx Shihibiddinning ko‘rsatmasiga ko‘ra Bag‘doddan Toshkentga kelib, Ko‘kcha mavzesidagi eski qabriston yonida mavjud bo‘lgan “chillaxona”ga joylashadi va shu yerda yashay boshlaydi. Asta-sekin uning atrofiga odamlar ko‘chib kelib maskan quradilar. Shayx Zayniddinbobo Toshkent ahliga tasavvuf ilmidan va‘zlar o‘qib, ma‘rifatdan saboq beradi. Bir necha yillar o‘tgach, Shayx Zayniddinboboning zuriyodidan tarqalgan avlod hamda ko‘chib kelgan ixlosmandlar jamoasining nufuzi orta borib, qabriston yonida bir qishloq (XIII asr) vujudga keladi. Mazkur qishloqning nomini Shayx Zayniddinboboga nisbat berib, “Ko‘hi (Kuyi) Orifon” (oriflar qishlog‘i) deb atay boshlashadi. Keyinchalik “Oqilon” (oqillar) deb atalib ketgan. Zayniddinbobo vafot etgach, jasadlarini mana shu yerga dafn etishgan.

Dahaning ikkinchi nomi – “Ko‘kcha” haqida aniq ma‘lumot mavjud emas. Muhammad Solihxo‘janing yozishicha, Ko‘kcha darvozasining nomi qabila nomidan olingan, ya‘ni “ko‘kcha” deb atalgan qabiladan. Tarixchi olim A.R. Muhammadjonovning fikriga ko‘ra, “ko‘kcha” so‘zi aslida “kohicha” so‘zining o‘zgartirilgan shakli, “kohicha”, “kohak” so‘zi “qal’acha” degan ma‘noni anglatadi va bu yerda o‘rta asrlarda harbiy qal’a bo‘lganidan dalolat beradi.

Ko‘kcha dahasi shaharning shimoli-g‘arbiy, g‘arbiy qismlarida joylashgan; Sebzor, Shayxontahur va Beshog‘och dahalari bilan chegaradosh bo‘lgan. Chegarasi sharqdan Sag‘bon ko‘chasining janubi-sharqiy tarafidan Quyi Bo‘zsuv bo‘ylab (hozirgi Mannon Uyg‘ur va Samarqand Darvoza ko‘chalarining oralig‘ida) o‘tgan; dahaning g‘arbida ko‘kchaliklarning bog‘lari va polizlari bo‘lgan. Podaxona arig‘i dahadagi yirik ariqlardan sanalgan. Yer yuzasi ur-qir bo‘lsa-da, unda bog‘ va ekinzorlar ham anchagina edi. Daha aholisiga qarashli chorbog‘lar Nazarbek, Keles daryolari bo‘yida ham joylashgan edi. XIX asr oxirlarida Ko‘kchada 3 ta darvoza (Sag‘bon, Chig‘atoy, Ko‘kcha), 60 ta masjid va 2 ta madrasa bo‘lgan. N.G. Malliskiy ro‘yxatida mazkur dahada 56 ta mahalla va shahar atrofidagi yerlarda unga tegishli 43 ta mavze qayd etilgan. Daha aholisi asosan ko‘nchilik, kosibchilik va to‘qimachilik, mavzelar esa dehqonchilik bilan shug‘ullanishgan. Eskiyo‘va bozorining janubiy qismi Ko‘kchaga kirgan. Ko‘kcha dahasining yerlari hozirgi Shayxontohur tumaniga to‘g‘ri keladi.

SHAYXONTAHUR DAHASI – “Shayxontahur” toponimi ko‘p o‘zakli murakkab antropotoponim bo‘lib, “shayx”, “xovand”, “tahur” so‘zlaridan tarkib

topgan va XIV asrda yashagan mashhur shaxs – Shayx Xovandi Tohur (Tahur) ismining biroz qisqartirilgan shaklidir.

Shayx Xovandi Tohur (Tahur) hozirgi Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani-ning tog'li Bog'iston qishlog'idan bo'lib, Shayx Umar Bog'istoniyning o'g'lidir. XIV asrda yashab o'tgan Shayx Xovandi Tohur (Tahur) o'sha vaqtlarda Shosh shahrida eng mo'tabar, o'z davrining o'qimishli shaxslaridan, taniqli din ulamolalaridan biri bo'lib, urf-odat, odob-axloq mavzusiga oid kitoblar, hatto she'rlar ham yozgani ma'lum. Shayx Xovandi Tohur (Tahur) 1355-yili vafot etgan. Vafotidan so'ng u kishi dafn etilgan ko'rimsiz mozar murid va shogirdlari tomonidan obodonlashtirilib kengaytirilgan, turli hajmdagi binolar qurilib, shaharning eng katta qabristoniga aylantirilgan va XIV asrning oxirlarida Shayxontohur nomi bilan atalgan. XIX–XX asrlar boshlarida shaharning to'rt dahasidan biri, ya'ni shu maqbara joylashgan daha uning nomi bilan yuritilgan. 1992-yildan boshlab Toshkentning eng katta tumanlaridan biriga Shayxontohur nomi berilgan.

XV asrda yashagan mashhur shayx toshkentlik Xoja Ubaydullo Ahror Valiy Shayx Xovandi Tohur (Tahur)ning nevarasi bo'lgan. U bobosining qabri ustiga ixcham va naqshinkor maqbara qurdirgan. Ushbu maqbara keyinchalik ta'mirlanib turgan. Shayx Xovandi Tohur (Tahur) o'g'illarining qabrlari ham shu maqbara atrofida bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Bundan tashqari, maqbaraning shimoliy tomonidan Shayxontohur nomi bilan yuritilib, doimiy oqib turuvchi shifobaxsh zilol suv arig'i bo'lib, uning bo'yida besh yuz yillik qadimiy katta chinorlar qabristonga soya-salqin solib, qator tizilib turgan.

Shayxontohur dahasi XVIII asr oxirlarida tashkil topgan bo'lib, shaharning sharqiy tomonida joylashgan (hozirgi Shayxontohur tumani hududida), Beshog'och, Ko'kcha, Sebzor dahalari bilan tutashgan. Chegarasi shimolda Jangob arig'idan, g'arbda Beshog'och – Xadra yo'nalishi bo'ylab (hozirgi Furqat ko'chasidan) o'tgan. XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab Anhorning chap sohilida Beklarbegi o'rdasi va mavzelar o'rnida Yangi shahar barpo etilgan. Dahada Shayx Xovandi Tohur (Tahur) maqbarasi katta ziyoratgoh joy bo'lgan, bu yerda sayillar ham o'tkazilgan. Daha yerlari Anhordan boshlangan ariqlardan sug'orilgan va boshqa dahalarga nisbatan bu yerda bog'lar, ekinzorlar ko'p bo'lgan. XIX asr o'rtalarida Shayxontohur dahasi hududida uchta darvoza (Qo'ymas, Qo'qon va Qashqar) bo'lgan, ular Yangi O'rda qurilgan vaqtda o'rnatilgan; 70 ta masjid, 3 ta madrasa, shuningdek karvonsaroilar, tegirmonlar, har mahallada 1–2 tadan choyxona bo'lgan. Shayxontohur Eski shahar bozori (hozirgi Eskijo'va bozori)ning bir qismini o'z ichiga olgan. Aholisi hunarmandchilik – degrezlik, egarchilik, gazlama to'qish va boshqa sohalarda band bo'lgan, shahar tashqarisidagi yerlar (Oqqo'rg'on, Yalang'och, Qorasuv, Bo'z, Sho'rtepa, Posira va boshqa mavzelar)da dehqonchilik va bog'dorchilik bilan ham shug'ullanishgan. N.G. Malliskiyning ro'yxatiga ko'ra, dahada 70 ta mahalla va shahar atrofidagi yerlarda unga tegishli 31 ta mavze bo'lgan.

HAZRAT IMOM QAFFOLI SHOSHIY DAHASI – iste'molda ko'proq Sebzor deb atalgan. Hazrat Imom Qaffoli Shoshiy dahasining nomi murakkab

antropotoponimlar guruhiga kiradi va X asrda yashagan tarixiy shaxs ismidan olingan. Imom Qaffoli Shoshiyning ismi kundalik iste'molda qisqartirilib, "Hastimom" shaklida talaffuz qilingan. Ayni paytda dahaning "Sebzor" degan nomi ham saqlangan.

Qaffol Shoshiyning to'liq ismi – Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil al-Qaffol ash-Shoshiy (904–976), shofi'ya mazhabining yetakchi olimlaridan, fiqhshunos. U kishi Shoshda tug'ilganlar. Dastlabki ma'lumotni shu yerda olgan. Iroq, Shom mamlakatlariga safar qilgan. Islom dunyosining eng mashhur imomlaridan Abul Abbas Ahmad ibn Umar ibn as-Surayjiy (850–918)ning shogirdi bo'lgan. Har tomonlama yetuk, o'qimishli va yuksak aql-zakovat sohibi bo'lgan. Vataniga qaytgach, Movarounnahrda, jumladan, Shosh viloyatida shofi'ya mazhabini targ'ib etgan, ilohiyotga doir bir qancha asarlar yozgan. Qur'on, hadis va shariat ilmi, shuningdek tilshunoslik sohasida bilimdon bo'lgan. "Odob ul-qozi" ("Qozi odobi"), "Odob ul-baxs", "Husni jadal" nomli asarlarni yozib qoldirgan.

Qaffol Shoshiy Toshkentda vafot etib, Kaykovus arig'iga yaqin yerga dafn etilgan. Keyinchalik qabri ustiga maqbara bunyod qilingan. Bu daha Muhammad Solihxo'janing "Tarixi jadidayi Toshkand" asarida Imom Qaffol Shoshiy dahasi deyilgan. Qaffol Shoshiy maqbarasi xalq orasida Hazrati Imom (qisqacha Hastimom) nomi bilan shuhrat topib, muqaddas ziyoratgohga aylangan. Hozirgi kunda Hastimom – bu faqat bir maqbaraning emas, balki Toshkent shahridagi arxitektura majmuining nomlanishi. Uning tarkibiga Qaffol Shoshiy maqbarasi (XVI a.), Tillashayx masjidi (XIX a.), Jumamasjid (XX a.) imoratlari kiradi.

Qaffol Shoshiy qulfsolzlik kasbi bilan tirikchilik qilgan. Og'irligi yarim gramm keladigan ajoyib qulf-kalit yasaganligi uchun "al-Qaffol" ("Qulfchi") laqabini olgan. Arab tarixchisi va geografi Abul Fido (1273–1331)ning yozishicha, Qaffol Shoshiy o'z zamonasining yetuk olimlaridan bo'lib, Movarounnahrda unga teng keladigan allomaning o'zi bo'lmagan. Toshkent ko'chalaridan biri Qaffol Shoshiy nomi bilan atalgan.

Qaffol Shoshiyga atab qurilgan dastlabki maqbara hozirgi kunda saqlanmagan. Keyingi maqbara me'mor G'ulom Husayn tomonidan qurilgan (1541–1542). Eshik tepasidagi kitoba va gumbazning pastki qismidagi yozuvlar saqlanib qolgan. Hozirgi kunda u tarixiy yodgorlik sifatida mashhurdir.

Yuqorida qayd etilganidek, dahaning ikkinchi nomi – "Sebzor". "Sebzor" – qo'shma toponim, "seb" va "zor" qismlardan (forscha "seb" – "olma") tuzilgan, "olmazor" degan ma'noni anglatadi. Ya'ni Sebzor dahasi olmazor, umuman bog'lari ko'p yer bo'lgan.

Hazrat Imom Qaffoli Shoshiy (Sebzor) dahasi XVIII asr boshlarida shakllangan va shaharning shimoliy qismini egallagan, Ko'kcha, Shayxontahur, Beshog'och dahalari bilan tutashgan, Toshkentdagi to'rtta dahadan eng kichigi. Chegarasi g'arbda Sag'bon va Qorasaroy ko'chalarining oralig'idan (hozirgi Zarqaynar ko'chasining g'arbidan), janubda Jangob arig'idan o'tgan, dahaning shimoli-sharqiy qismida sebzorliklarning bog'lari va dehqonchilik yerlari (mavzelar)

o‘rin olgan; undan Kaykovus, Shahar (Tanishahar) kabi yirik ariqlar oqib o‘tgan. Dahada shaharning eng katta molbozori joylashgan. N.G. Malliskiy ro‘yxatiga ko‘ra, dahada 79 ta mahalla va shahar atrofida unga qarashli 64 ta mavze bo‘lgan. XIX asr oxirlarida Sebzorda 3 ta madrasa, 78 ta masjid bor edi. Toshkentning 3 ta darvozasi (Labzak, Taxtapul, Qorasaroy) va Eskijo‘va bozori Sebzor hududida joylashgan. Aholisi hunarmandchilik (kosibchilik, to‘quvchilik, chitga gul bosish va b.), savdo-sotiq, shahar tashqarisidagi yerlarda esa dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanishgan.

Dahada ko‘hna qabristonlar (Kohota mahallasidagi Voyvoyota, shahar darvozasidan tashqarida joylashgan Darvishqofqa) bor edi. Daha hududida 1970-yillarda 2230 ta xonadon bo‘lib, ulardagi aholi soni 18650 kishini tashkil etgan.

BESHOG‘OCH DARVOZASI – Ko‘kcha dahasining janubiy qismida joylashgan. Yuqorida qayd etilganidek, Muhammad Solihxo‘ja bu darvoza nomini “beshog‘och” qabilasi nomidan olinganini qayd etgan. U holda mazkur toponim etnotoponimlar guruhiga mansub bo‘ladi. Ba‘zi tadqiqotlarda esa bu so‘z “beshinchi manzil” ma‘nosini anglatishi haqida yozilgan (mazkur lug‘atning “Dahalar” bo‘limiga qarang).

Ushbu darvozaning nomi Muhammad Solihxo‘janing XIV–XV asrlar uchun bergan ro‘yxatida mavjud. Keyingi davr rus manbalarida ham u qayd etilib, “Beshagach” shaklida berilgan. Beshog‘och darvozasi XX asr boshlarigacha bo‘lgan, bu yerlarda “Beshog‘och” mahallasi joylashgan. Hozir ushbu hudud “Beshyog‘och” deb ataladi, sababi, vaqtlar o‘tishi bilan “Beshog‘och” toponimi xalq talaffuzida birmuncha o‘zgarib, “Beshyog‘och” shaklini olgan.

KAMOLON DARVOZASI – Beshog‘och dahasining janubiy qismida joylashgan. Muhammad Solihxo‘ja o‘z asarida bu toponimni Toshkentning Amir Temur davridagi darvozalar ro‘yxatida eslatadi. Muallif uni “Kamondaron darvozasi” deb ataydi va etimologiyasi xususida so‘z yuritib, darvoza nomi kamondaronlardan, ya‘ni *buzuq* qabilasi nomidan olinganini ta‘kidlaydi. Yozma manbalarda qayd etilishicha, buzuqlar qadimgi turkiy qabila bo‘lib, O‘g‘uzxon avlodiga mansubdir. Bu haqda u shunday yozadi: “O‘g‘uzxonning o‘g‘illari bir kuni to‘planib ovga chiqdilar. (Ular) ovda bitta yoy, uchta tilla o‘q topib oldilar va O‘g‘uzxonga keltirib berdilar. (Podshoh) uchchala katta o‘g‘illariga yoyni va kichik o‘g‘illariga esa uchta o‘qni (bo‘lib) berdi. Katta o‘g‘illar yoyni uch qismga bo‘ldilar. Shu sababdan ularni buzuq, kichik (o‘g‘illarini esa) uch o‘q atadilar. (Shu bilan birga) buzuqlarning hukmi uch o‘qlarnikiga qaraganda yuqoriroq bo‘lsin, deb qaror qildilar, chunki o‘q elchilikni va yoy podshohlikni anglatadi”.

S.Qorayevning taxminicha, “Kamondaron” yoki “Kamongaron” toponimi “kamon yasovchi ustalar” ma‘nosini bildiradi. Ya‘ni “kamondaron” so‘zi bu yerda kamon, o‘q tayyorlagan kishilarning yashaganligidan dalolat beradi.

Toshkentda kamon yasaydigan ustalar yashagani haqida yozma manbalarda ham qayd etilgan. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida XVI asrda Toshkentda kamon va kamon o‘qi yasaydigan ustalarning mahorati butun viloyatga tarqalgani haqida yozilgan.

Kamolon darvozasi XX asr boshlarigacha saqlangan. Uning atrofida XIX asr oxirida “Kamolon-1”, “Kamolon-2”, “Charxkamolon-1”, “Charxkamolon-2” nomli mahallalar boʻlgan. Hozirgi kunda ham bu hududda “Kamolon” mahallasi va shu nomdagi masjid mavjud.

KO‘KCHA DARVOZASI – Ko‘kcha dahasining janubi-g‘arbiy qismida joylashgan. “Ko‘kcha” toponimi Muhammad Solihxo‘janing ma’lumotlariga ko‘ra, qabila nomidan kelib chiqqan va etnotoponimlar guruhiga oiddir. Ko‘kcha darvozasining nomi XX asr boshigacha saqlangan. Ko‘kcha darvozasi shaharning g‘arbiy devoriga qurilgan va undan Qoraqamish va Samarqandga yo‘l ketgan.

LABZAK DARVOZASI – Sebzor (XIX asr o‘rtalariga oid Eski Toshkent planida – Shayxontohur) dahasining shimoli-sharqiy qismida, Taxtapul va Oqqo‘rg‘on darvozalari oralig‘ida joylashgan edi. Toponim “Tarixi jadidayi Toshkand”da eslatilgan “O‘zbek darvozasi” bilan turdoshga o‘xshaydi. Muhammad Solihxo‘ja o‘z asarida Shibli arig‘i O‘zbeklar darvozasidan shaharga kirib, Qiyot darvozasidan tashqariga oqib chiqadi, deydi. Ana shu mulohazadan kelib chiqib, O‘zbek va Labzak nomlari bitta darvozaga tegishli deb faraz qilish mumkin. Haqiqatdan ham, Shibli (Chovli) arig‘i Labzak darvozasi yaqinidan shaharga oqib kirib, Qiyot (Qo‘qon) darvozasining yonidan Eski shahardan chiqib ketadi. Yana bir sabab, “Tarixi jadidayi Toshkand” asari arab yozuvida yozilgan bo‘lib, ushbu grafika bo‘yicha Labzak va O‘zbek so‘zlarining ko‘rinishi bir-biriga juda o‘xshaydi. “O‘zbek” degan darvoza Muhammad Solihxo‘ja keltirgan XIV asr oxiri – XV asr darvozalari ro‘yxatida ham bor. Unda muallif O‘zbek darvozasining nomi o‘zbek qabilasi nomidan olinganini ta’kidlaydi. Hozir ham Labzak darvozasining o‘rni va atrofidagi yerlar Labzak deb ataladi.

SAMARQAND DARVOZASI – Beshog‘och dahasining g‘arbiy qismida joylashgan. “Samarqand darvoza” toponimi Toshkent shahrining xalqaro aloqalar tarixi bilan bog‘liq. Sababi, bu darvoza orqali Toshkentdan Samarqandga olib boruvchi yo‘l o‘tgan. Mazkur darvoza nisbatan kechroq, taxminan XVII asrda qurilgan. Zero, uning nomi Muhammad Solihxo‘janing XIV–XV asrlardagi Toshkent darvozalari ro‘yxatida keltirilmagan. Biroq keyingi davrga oid manbalarda (K. Miller, A.K. Geyns, N.A. Mayev, A.I. Dobrosmislov ma’lumotlari, Toshkentning 1890-yilgi xaritasi) Samarqand darvoza nomi qayd etilgan. Hozirgi kunda ushbu darvozaning o‘rnida ramziy darvoza o‘rnatilgan bo‘lib, bu yerda “Samarqand Darvoza” nomli ko‘cha, mahalla va “Samarqand” oshxonasi mavjud.

SAG‘BON DARVOZASI – Ko‘kcha dahasining shimoliy qismida joylashgan. “Sag‘bon” toponimining etimologiyasi haqida turli qarashlar mavjud. Muhammad Solihxo‘ja “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida keltirgan XIV asr oxiri – XV asr darvozalari ro‘yxatida Su‘boniyon, XIX asr darvozalari ro‘yxatida esa Sag‘bon shakllarida berilgan. Ehtimol, “Su‘boniyon” so‘zi davrlar mobaynida xalq talaffuzida o‘zgarib, qisqargan va “Sag‘bon” shaklini olgandir. Sag‘bon darvozasi XX asr boshlarida bor edi va uning nomi “Sag‘bon” mahallasi nomida

keyinchalik ham saqlanib qoldi. N.G. Malliskiy “Sag‘bon” mahallasida it boqarlar ko‘p bo‘lgani uchun shunday atalgan, degan taxminni aytgan.

TAXTAPUL DARVOZASI – Sebzor dahasining shimoliy qismida joylashgan. “Taxtapul” – forscha qo‘shma toponim (“taxta” va “pul”), tarjimai “yog‘ ochko‘prik” degan ma‘noni bildiradi.

Ushbu darvozaning nomi Muhammad Solihxo‘ja o‘z kitobida XIV asr oxiri – XV asr boshlari uchun keltirgan ro‘yxatida ham bor. Darvozaning nomi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida chop etilgan yozma va kartografik manbalarda ham o‘z aksini topgan. K.Miller ro‘yxatida u “Taxtakus” shaklida yozilgan. Bu darvoza XX asr boshlarigacha saqlanganiga qaramay, uning nomi keyinroq ham mahallalar nomlarida aks etgan: “Yuqori Taxtapul”, “O‘rta Taxtapul”, “Quyi Taxtapul” mahallalari. “Taxtapul” toponimi hozir ham shu mahallalar o‘rnidagi bir nechta mahallalarni birlashtirgan hududning nomi sifatida saqlanib qolgan.

CHIG‘ATOY DARVOZASI – Ko‘kcha dahasining shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan. Antropotoponim; nomning kelib chiqishi Chingizxonning (1155–1227) o‘g‘li Chig‘atoyning (vafoti 1242-y.) ismini bildiradi.

Ma‘lumki, XIII asrda Chingizxon o‘g‘illariga o‘z saltanatini taqsimlab, O‘rta Osiyo yerlarini ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyga bergan va keyinchalik bu hudud Chig‘atoy ulusi deb atalgan. Chig‘atoy darvozasining nomi xonning sharafiga qo‘yilgan. Mazkur darvoza nomi Muhammad Solihxo‘janing ro‘yxatlarida ham keltiriladi. Darvozaning nomi XX asr boshlarida mahallalar nomlarida ham uchraydi: “Chig‘atoy-tepa”, “Chig‘atoy-Chaqar”, “Chig‘atoy-Yangi shahar”. Hozirgi vaqtda ushbu hudud Olmazor tumaniga tegishli bo‘lib, bu yerdagi mahallaga “Chig‘atoy Darvoza” nomi berilgan.

QASHQAR DARVOZASI – Shayxontahur dahasining sharqiy tomonida joylashgan. Darvoza nomi XIX asrda Qashqar shahridan bir talay aholining Toshkentga ko‘chib kelib o‘rnashib qolganligi bilan bog‘liqdir. XIX asrning 40-yillarida shaharning yangi tashkil topgan bu qismida, Qashqardan chekinib qaytayotgan qo‘qonlik Muhammadalixon (1822–1842) qo‘shini bilan kelgan qashqarliklar yashashardi. Bu yerlar to 1966-yilgi zilzilagacha “Qashqar” mahallasi deb atalardi.

Umuman, davrlar o‘zgarishi bilan bu darvoza nomi ham o‘zgarib kelgan. Muhammad Solihxo‘ja keltirgan ro‘yxatlarda u XV asrda Turk, XIX asrda Xitoy va Oqqo‘rg‘on nomlari bilan ma‘lum bo‘lgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu darvozaning nomi manbalarda Qashqar darvoza shaklida uchraydi.

Muhammad Solihxo‘janing yozishicha, Turklar darvozasining nomi *turk* qabilasi nomidan, XIX asr boshlarida bu yerda “Turk” mahallasi ham bor edi. Darvozaning Xitoy degan nomi haqida aniq yozma ma‘lumotlar hozircha uchramagan bo‘lsa-da, uni Buyuk ipak yo‘lining bir yo‘nalishi, aniqrog‘i, shimoliy tarmog‘i Toshkent shahri orqali o‘tganligi va bu yerga Xitoydan savdo karvonlari kelgani, mazkur yo‘ldan Xitoyga borilganligi bilan ham bog‘lash mumkin.

Keyinchalik ushbu darvoza Oqqo‘rg‘on nomi bilan mashhur bo‘lgan. Muhammad Solihxo‘janing yozishicha, shaharning sharqiy qismi yaqinidagi Xoja Ahror-

ning vaqf yerlari Oqqo'rg'on deb atalgan. Bu yerlar Shibli (Chovli) arig'ining sharqiy tomonida bo'lib, darvoza orqali shahardan aynan shu yerga chiqilgan.

QORASAROY DARVOZASI – Sebzor dahasining shimoliy qismida joylashgan. “Qorasaroy” – ikki o'zakli qo'shma etnotoponimdir. Aslida bu turkiy so'z bo'lib, qadimgi turkiy qabilalardan birining nomidan kelib chiqqan.

Ushbu darvoza, Muhammad Solihxo'janing o'z asarida yozishicha, XIV asrda Amir Temur buyrug'i bilan qurilgan. XIX asrda ham shu nom bilan saqlanib qolgan. Biroq keyinchalik XX asr boshlarida, boshqa darvozalar kabi u ham buzilib ketgan va nomi darvoza turgan hudud uchun saqlangan. “Qorasaroy” mahallasi, ko'chasi va shu nomli kanal ham mavjud.

XIX asr o'rtalariga oid Eski Toshkent tarixida Sebzor dahasida Taxtapul va Qorasaroy darvozalari oralig'ida Teshik qopqa darvozasi ham ko'rsatilgan. K. Miller bu darvoza nomini “Kapkan” (“Qopqa”) shaklida yozgan. Muhammad Solihxo'ja o'z kitobida darvozaning ikki xil nomini keltiradi: Teshik qofqa (Darvishak qofqa). “Teshik qopqa” – ikki so'zdan iborat toponim bo'lib, “shahar devoriga o'yib qurilgan kichik eshik” ma'nosini anglatadi. Bu darvoza XIX asr oxirlarigacha ham mavjud edi.

QO'YMAS DARVOZASI – dahaning janubi-sharqiy qismida, Anhor kanalining Toshkentdan oqib chiqadigan yerida joylashgan. Muhammad Solihxo'ja ushbu toponimni XIX asr Toshkent darvozalari haqida yozganda, uni “Qo'ymas-kenagas” shaklida berib, u XV asrdagi Qatag'on darvozasi ekanligini va bu toponim esa qatag'on qabilasi nomidan olinganini qayd etgan.

Qatag'on qabilasi – turkiy qabilalardan biri – o'zbeklar tarkibidagi yirik qabilalardan biridir. Ular Afg'oniston, Buxoro vohasi, Xorazm, Kattaqo'rg'on tumani, ozroq qismi Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasida yashashgan. XVIII–XIX asrlarda batamom o'troq hayotga o'tishgan. Qatag'onlar bir necha urug'larga bo'lingan bo'lib, qadimda chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Asrlar davomida qatag'onlarning aksariyati mahalliy xalq ta'sirida o'troqlashib, dehqonchilik qilishgan.

Muhammad Solihxo'ja yana Qo'ymas-kenagas darvozasi nomi XIX asrda Qirilmos darvozasiga to'g'ri kelishi va bu darvoza yaqinida Qo'ymas yoki Qirilmos tepaligi bo'lganligini o'z asarida keltiradi. Qirilmos darvozasi Qo'qon darvozasi bilan Beshog'och darvozasi oralig'ida joylashgan. A.K. Geyns bu darvoza nomini “Koymas” shaklida yozadi. Muhammad Solihxo'janing o'z kitobida yozishicha, Qirilmos darvozasi oldida chuqur jarlik bo'lgan va bu jarlik hokim saroyiga o'tadigan yo'lda tabiiy to'siq vazifasini o'tagan. Jarlik tarafidan qo'rg'onga faqat Qirilmos darvozasi yonidagi torgina yo'lakdan o'tish mumkin edi, xolos. Bu yo'lak haqida Filipp Nazarov ham (XIX asr boshlari) eslatib, hokim qo'rg'oniga faqat tor so'qmoq orqali o'tiladi, deb yozgan edi. Qo'ymas yoki Qirilmos darvozasi XIX asrda Lashkar beklarbegi davrida avvalgi o'rnida qayta tiklangan. Darvozaning nomi shu yerdagi Qo'ymas yoki Qirilmos tepaligi bilan bog'liq bo'lib, manbalarda “Qo'ymas darvozasi”, “Qirilmos darvozasi”

shakllarida uchraydi. Shunga ko'ra, "Qo'yimas" darvozasining nomi darvozaning o'tish juda qiyin joyga o'rnatilganligini anglatadi, deyish mumkin. Boshqa fikrga ko'ra, Qo'yimas – qadimgi toponim bo'lib, u "katta yo'l" yoki "katta ko'cha" ma'nolarini anglatgan. Kenagas esa – etnonim.

Darvozaning XIX asrdagi Qo'yimas-kenagas nomi uning Qo'yimas nomli tepalikda joylashgani va bu hududda kenagaslar yashaganidan dalolat beradi, degan fikr mavjud.

Kenagaslar – yirik o'zbek qabilalaridan biridir. Hozirgi O'zbekiston hududiga qayerdan, qachon kelganligi va shakllanish tarixiga oid aniq ma'lumotlar kam. Ayrim manbalarda ularning XV asrda no'g'oy elatining shakllanishida qatnashganligi qayd etilgan. Kenagaslarning asosiy qismi XVII–XIX asrlar davomida Qashqadaryoning yuqori havzasida yashab, Buxoro xonligining siyosiy hayotida faol qatnashishgan. Amirlik tobeligidan chiqish va o'z mustaqil bekligini o'rnatish uchun kurash olib borishgan. 1856-yili amir Nasrulloning qirg'inidan omon qolgan kenagaslar qochib, har qayoqlarga tarqalishgan va keyinchalik ularning ma'lum qismi yana Shahrisabz va Kitobni egallashgan. Kenagaslar asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida aksariyati boshqa o'zbek qavmlari bilan aralashib ketishgan. Ushbu qabila nomini Toshkentning tarixiy toponimiyasi bilan bog'liq ma'lumotlaridan bizga hozircha ana shulargina ma'lum.

QO'QON DARVOZASI – Shayxontohur dahasining sharqiy qismida joylashgan. "Qo'qon" toponimi Qo'qon shahri nomidan olingan. Buning sababi, ushbu darvoza orqali Toshkentdan Qo'qon tomon borilgan. Bu yo'lning boshlanishi hozirgi Toshkentning Istiqbol va Farg'ona yo'li ko'chalari va keyin Qo'yliq yonida Chirchiq daryosi orqali, so'ngra To'ytepa yo'nalishi bilan Qo'qongacha davom etgan. XIX asrda Farg'ona vodiysi bilan Toshkent shahri o'rtasidagi asosiy yo'l sanalgan.

Muhammad Solihxo'ja o'z kitobida XIX asrdagi Qo'qon darvozasi XIV–XV asrlardagi Qiyot darvozasiga to'g'ri kelishini ta'kidlab o'tadi. Uning yozishicha, Qiyot darvozasining nomi – qiyot qabilasi nomidan olingan.

Qiyot – o'g'uzlar tarkibidagi qadimgi turkiy qabilalardan sanaladi. VII–X asrlarda Dashti Qipchoqda yashab, ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanishgan. O'g'uzlar davlati yemirilgach (XI asr), qiyotlar ham bo'linib, katta qismi Turkmanistonga, bir qismi Bolqon yarimoroliga qarab ketishgan. Dashti Qipchoqda qolgan qismi esa keyinchalik o'zbek, qozoq va qoraqalpoq xalqlari tarkibiy qismlaridan birini tashkil etgan.

Ular XX asr boshlarida, asosan, o'troqlashib, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Lekin qiyotlar butun O'rta Osiyo hududi bo'ylab asta-sekin tarqalishgan. Shu jumladan, XIV–XV asrlarda va undan so'ng ham Toshkentda qiyotlarning ma'lum bir guruhi yashashgan va o'n ikki darvozadan biri ularning nomi bilan atalgani bunga dalildir.

MUASSASALAR

BAROQXON MADRASASI – Sebzor dahasida joylashgan (hozirgi Zarqaynar ko‘chasida). Bir necha davrda qurilgan imoratlardan tarkib topgan (XV–XVI asrlar). Dastlab binoning sharqiy burchagidagi mo‘jaz maqbara (kinga mansubligi noma’lum) qurilgan. So‘ng (1503-y.) Shayboniylar sulolasining Toshkentdagi hokimi Suyunchxo‘jaxon (vafoti 1525-y.) maqbarasi qad ko‘targan. Baroqxon madrasasi memorial kompleksining uchinchi bosqichi XVI asr o‘rtalarida yashagan Baroqxon bilan bog‘liq. Baroqxon uning uchinchi qismini qurdirgan va shu bois majmuaga uning nomi berilgan.

Baroqxonning haqiqiy ismi Navro‘z Ahmadxon (vafoti 1556-y.), Shayboniylar sulolasiga mansub xon, Abulxayrxonning nevarasi, Toshkent xoni Suyunchxo‘janing kichik o‘g‘li. Otasining vafotidan keyin Toshkentni (1525–51-y.), so‘ngra Movarounnahrni (1551–56-y.) Navro‘z Ahmadxon nomi bilan boshqargan, o‘z nomidan tanga pul zarb ettirgan. Baroqxon obodonchilik ishlariga katta e‘tibor qaratgan, madrasalar qurdirgan. Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarida qayd etilishicha, Baroqxon 1556-yili Zarafshon daryosidan boshlangan Darg‘om kanalining bosh inshooti Ravotxo‘ja to‘g‘onini tuzattirish uchun kelgan va shu yerda to‘satdan vafot etgan (Samarqand shahriga dafn etilgan).

XIX asrning oxirlarida madrasa Mullaxonning Kanagat-Shabiy nomli sarkasi in‘om etgan Oqsoqota va Nazarbek hududlaridagi vaqf yerlari bo‘lgani ma’lum.

BEKLARBEGI MADRASASI – Sebzor dahasida bo‘lgan. Aslida “beklarbegi” atamasi o‘rta asrlarda yuqori ma’muriy unvon va amaldorlik lavozimiga qo‘llanilgan. Bu lavozim XIX asrgacha O‘rta Osiyo, Kichik Osiyo va Kavkaz-ortida mavjud edi. Asosiy vazifasi soliq va feodal majburiyatlarning o‘z vaqtida to‘lanishi, xon farmonlarining bajarilishini nazorat qilish, tegishli masalalarni oqsoqollar kengashi bilan kelishib hal etishdan iborat bo‘lgan. Beklarbegilar ayni vaqtda sarkarda hisoblanib, ularning qo‘l ostida yuzboshi va o‘nboshilar bo‘lishgan. Toshkentni beklarbegi tomonidan boshqarish 1810-yilda Qo‘qon xoni Olimxon shaharni uzil-kesil bosib olgandan so‘ng boshlangan.

Toshkentdagi “Beklarbegi” madrasasining nomi esa Qo‘qon xoni Muhammad Alixon hukmronligi (1822–1842) bilan bog‘liq. Etnograf A.Xoroshxin keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu madrasa 1840-yillarda Muhammad Alixon hukmronligi davrida bunyod etilgan. U Toshkentdagi eng katta madrasa sanalib, 64 ta hujrasi bo‘lgan. Madrasaning xon, qozi va bir qator mulla, olimlarning muhrlariga ega bo‘lgan vaqfnomalari mavjud. Jumladan: 3 ta karvonsaroy, sham, sovun, asal sotiladigan savdo rastalari, 4 ta tegirmon madrasa tasarrufiga kirgan. Shuningdek, Nazarbek madrasasi bilan birga Toshkent hukmdori Nazarbek hadya etgan yerga ham egalik qilgan.

VOSKRESENIYE BOZORI (Воскресенский базар) – 1870-yilda vujudga kelgan. 1893-yilgacha Piyonbozor deb atalgan. Bozor maydoni Jizzax (shimolda), Politsiyachilar berk ko‘chasi (sharqda), Mahram (janubda), Романов (g‘arbda) ko‘chalari orasida joylashgan. Asosiy inshootlari yarim doira shaklidagi usti yopiq ikki timdan iborat edi. Voskreseniye bozori XX asrning 30-yillarigacha mavjud bo‘lgan. Keyinchalik bu yerda Navoiy nomidagi teatr qurilib, teatr oldidagi maydon Teatr maydoni deb atala boshladi.

Ushbu bozorning xalq tomonidan Piyonbozor deb atalishiga sabab, bozor hududida mayxonalar ko‘p bo‘lganidadir. Aslida, “piyonbozor” so‘zi ikki o‘zakli qo‘shma toponim bo‘lib, “piyon” (ruscha pyan so‘zining o‘zgartirib talaffuz qilinishi) – “mast” va “bozor” (forscha) – savdo qilinadigan joy – so‘zlaridan tashkil topgan. Mazkur toponim “mastbozor”, aniqrog‘i, “mast kishilar ko‘p bo‘lgan bozor” ma’nosini anglatadi. Umumiy tasnif bo‘yicha ijtimoiy-xo‘jalik hayotni aks ettiruvchi toponimlar guruhiga, alohida tasnif bo‘yicha esa o‘ziga xos xususiyatlarni aks ettiruvchi turga kiradi.

1883-yildan ushbu bozorni Voskreseniye bozori deb atay boshlaganlar. Sababi – bu yerda eng ko‘p savdo bo‘ladigan kun – yakshanba kuni edi. Voskreseniye bozori haqida o‘sha davr manbalarida ma’lumotlar mavjud. Jumladan, Toshkent shahar Dumasining qarorlari to‘plamida “Toshkent shahri aholisi uchun Voskreseniye bozorida savdo qilish haqidagi majburiy ko‘rsatmalar” keltirilgan. Mazkur hujjatda bozor g‘arbiy va sharqiy qismlarga bo‘linganligi, ularning joylashuvi, chegaralari, bozorda ikki xil – doimiy va vaqtinchalik – savdo olib borilishi to‘g‘risida, rastalar soni, qayerda, qanday mollar bilan savdo qilishga ruxsat berilishi qayd etilgan. Hujjatda doimiy savdo har kuni, vaqtinchalik esa, asosan bozor kunlari bo‘lishi yozilgan. Bozorda turli xil mahsulotlar, shuningdek, eski kiyimlar va buyumlar ham sotilgan. Savdogarlar o‘z joylari uchun ma’lum miqdorda patta to‘lashgan. Har bir savdo qatorining saylanadigan oqsoqoli bo‘lgan. Bu oqsoqollar umumiy bozor oqsoqoliga hisobot berib, unga bo‘ysunishardi. Umumiy bozor oqsoqollari faqat Voskreseniye, O‘rda, Ярмарочный va Eski shahardagi Chorsu saylanadigan savdo nazoratchisiga bo‘ysunishgan (savdo nazoratchilari ikkita – Yangi va Eski shahar qismlari uchun alohida bo‘lgan). Shuningdek, Shahar Dumasi tomonidan saylanadigan shahardagi barcha savdo ishlarini nazorat qiluvchi 7 kishidan iborat deputatsiya ham mavjud bo‘lib, ular bozorlar, zavod va fabrikalarning oldi-sotdi ishlarini tekshirib, Dumaga hisobot berishgan.

KO‘KALDOSH MADRASASI – Ko‘kcha dahasidagi XVI asrning 60-yillariga oid arxeologik yodgorlik. Shahar markazining Chorsu maydonida joylashgan. Qulbobo Ko‘kaldosh qurdirgan (1551–75). Shu sababdan uni Ko‘kaldosh madrasasi deb atashgan. Madrasa o‘sha davrda shaharning eng yirik monumental inshootlaridan sanalgan, dastlab uch qavatli bo‘lib, 38 hujradan tashkil topgan. XVIII asr oxirlarida madrasa qarovsiz holga kelib qolgan va uning binosidan karvonsaroy sifatida foydalanilgan. 1866, 1886-yilgi zilzilalardan keyin madrasaning

zararlangan peshtoqi qayta tiklangan. 1946-yilgi zilziladan so‘ng ham madrasa qattiq shikastlangan va 1960-yillarda qayta ta‘mirlangan. 1991-yildan Ko‘kaldosh madrasasi binosi Movarounnahr musulmonlari Diniy idorasi tasarrufiga o‘tkazilgan.

MAHKAMA IDORASI – Eski shahardagi asosiy ma‘muriy binolardan sanalib, Chorsu bozori hududida joylashgan. Aslida “mahkama” so‘zi ikkita ma‘noni anglatib, 1) “hukm qiluvchi, hukm chiqaruvchi idora, sud”; 2) umuman boshqarma, idora degani.

Ushbu misolda mahkama – bu mahalliy aholining sud organi hisoblangan. Unda aholi tomonidan saylangan mahkama xodimlari – rais, uch nafar a‘zo va qozi kabilar faoliyat ko‘rsatishgan. Mahkamaning faoliyati haqida Duma hujjatlarida shunday qayd etilgan: “Mahkama – bu xalq sudi demakdir”. Bu ma‘noda u doimiy muassasa. Mahkama qoshida ko‘chmanchi aholining biylar degan maxsus bo‘limi ham bo‘lgan. Ushbu bo‘lim faqat qirg‘izlarning ishi bilan shug‘ullangan. Mahkama mahalliy aholining ishlarini shariat va odatga asosanib olib borgan, qirg‘izlarnikini esa, odatda, urf-odatlariga ko‘ra hal qilgan... Mahkama politsiya tarkibini o‘zgartirmagan, biroq sudnikini o‘zgartirgan: ilgari Toshkentda to‘rtta qozi va ularning muftiylari bo‘lgan – endi Mahkamada bir qozi va uch maslahatchi mavjud. Qozilar ham shaharda qoldirildi, lekin oldingi hukumatga ega emas va faqat ba‘zida gubernator tomonidan maslahat uchun chaqiriladi”. Mahkama raisi a‘zolar chiqargan hukmlarning to‘g‘riligini nazorat qilib turgan. Mahkamaning ish tartibi murakkab bo‘lmay, aholidan bo‘lgan iltimoslar og‘zaki tarzda qabul qilingan va muammo bo‘lmasa, darhol hal etilgan. Agar ish muhimroq va murakkab bo‘lsa, akt tuzilib, barcha xodimlar o‘z muhrlarini qo‘yishgan. So‘ng-ra akt jurnalga (qayd daftariga) ko‘chirilib, raqamlangan; muhim ishlar bo‘yicha chiqarilgan qarorlar darhol bajarilgan. Bu Mahkamaning faoliyati 1917-yilgacha davom etgan.

MAHKAMA MASJIDI – Ko‘kcha dahasida, bozor yonida joylashgan. Eskijo‘va bozoridagi Mahkama idorasiga yaqin bo‘lgani uchun shunday nomlangan. Muhammad Solihxo‘janing “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida Mahkama masjidi ham Xoja Ahror masjidi sifatida tilga olingan. 1951-yilga kelib Mahkama masjidi Sarichopon masjidiga qo‘shib yuborilgan.

SAVDO NAZORATCHISINING IDORASI – Chorsu bozorida bo‘lgan. U aslida Toshkent shahar savdo politsiyasi tarkibiga kirgan. 1885-yilda Sirdaryo harbiy gubernatori tomonidan tasdiqlangan qarorga ko‘ra, Toshkent shahar Mahkamasi qoshida Toshkent savdo politsiyasi tashkil etilgan. Uning tarkibiga Shahar Dumasi tomonidan saylanadigan yettita a‘zodan tarkib topgan savdo delegatsiyasi, ikkita savdo nazoratchisi, uchta bozor oqsoqoli (Shahar Mahkamasi tayinlagan), savdo va sanoat rastalari hamda kichkina bozorchalar uchun sotuvchilar tomonidan saylanadigan rasta oqsoqollari kirgan. Savdo politsiyasi tarkibidagi ikkita savdo nazoratchidan biri “shaharning ruslar yashaydigan qismi, ikkinchisi – osiyoliklar yashaydigan qismi uchun” Toshkent shahar Dumasi tomonidan

to'rt yilga saylangan. Ularga maosh ham belgilangan. Yangi shahardagi savdo nazoratchisi Voskreseniye va Yarmarka bozorlari, shuningdek, butun shahar bo'ylab savdoni, fabrika va zavodlarni nazorat qilish uchun tayinlangan. Eski shahardagi savdo nazoratchisi "katta bozorga (Chorsu bozoriga), shuningdek, kichik bozorchalarni va umuman barcha sanoat muassasalarini" nazorat qilish uchun tayinlangan. Uchta bozor oqsoqolidan birinchisi – Voskreseniye, O'rda bozorlari, ikkinchisi – Yarmarka va kichik bozorlarni, uchinchisi – Chorsu bozori uchun tayinlangan. Ularga ham maosh to'langan. Rasta oqsoqollari, odatda, ushbu yerda savdo qiluvchilardan saylanib, ularga maosh to'lanmagan. Ular o'ziga qarashli bo'lgan rastadagi intizomni nazorat qilib, bozor oqsoqoliga bo'ysunishgan. Bozor oqsoqoli butun bozordagi savdoning olib borilishi uchun javobgar bo'lib, shahar savdo nazoratchisiga hisobot berib turgan. O'z navbatida, savdo nazoratchisi Toshkent shahar Mahkamasi va Toshkent shahar Dumasi tomonidan nazorat qilib turilib, o'z faoliyati haqida Shahar boshqarmasiga hisobot bergan. U hukumat tomonidan belgilab berilgan hududda mavjud barcha savdo obyektlarining ish faoliyatini nazorat qilib, olib borilayotgan savdo, bozordagi intizom uchun javobgar bo'lgani sababli unga "Savdo nazoratchisi" deyilgan. Savdo nazoratchisi va umuman Toshkent savdo politsiyasi 1917-yilgacha faoliyat ko'rsatgan.

TAXTAPUL KUSHXONASI – Sebzor dahasida Taxtapul darvozasi ortida 1893-yili qurilgan, unda veterinariya nazoratchisi faoliyat olib borgan. Biroq suv tanqisligi tufayli kushxona 1896-yili yopilgan. Manbalarda ta'kidlanishicha, kushxona 1914-yili qayta ta'mirlanib, yana ishga tushirilgan. Kushxonaning "Taxtapul" deb atalishiga sabab – u qurilgan yer Taxtapul darvozasi yaqinida, Taxtapul deb nomlangan hududda joylashgan edi.

TOSHKENT ASTRONOMIYA OBSERVATORIYASI (Ташкентская Астрономическая обсерватория) – 1873-yilda Turkiston harbiy okrugi Harbiy topografiya bo'limi tizimida astronomiya va fizika observatoriyasi sifatida tashkil qilingan. Mazkur tashkilot Toshkentda astronomik yo'nalishdagi tadqiqotlar olib borgan sababli unga "Toshkent Astronomiya observatoriyasi" nomi berilgan. Manbalarda qayd etilishicha, observatoriyaning maqsadi o'lkada joylarning geografik o'rnini aniqlash, iqlimshunoslikni o'rganish, astronomiya sohasidagi bilimlarni harbiy-topografik bo'limga yetkazish bo'lgan. Observatoriyaning tashkil etilishi O'rta Osiyoda astronomiya tadqiqotlari rivojida yangi bosqich bo'lib, astronomik punktlarni aniqlash uchun ekspeditsiyalar uyushtirildi. Ayni vaqtda observatoriyaning o'zida ilmiy-tadqiqot ishlari (vaqtni o'lchash, Quyosh aktivligi, Quyosh va Oy tutilishi, metereologik hamda seysmik kuzatishlar va h.k.) olib boriladi. Toshkent Astronomiya observatoriyasi 1922-yildan Turkiston Xalq maorifi komissarligi, 1925-yildan Respublika Xalq maorifi Komissarligi tarkibida, 1943-yildan O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibida faoliyat yuritdi. 1966-yildan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Astronomiya institutiga aylantirilgan.

TOSHKENT TUPROQQO‘RG‘ONI (Военная крепость) – 1865-yilda

Yangi shaharda ruslar tomonidan bunyod etilgan ilk inshoot, Qo‘ymas darvozasidan sharqda Qirilmos yoki Qo‘ymas tepaligida joylashgan. Uning ichida kazarmalar, ofitserlar uylari, 150 o‘rinli lazaret (harbiy kasalxona), o‘q-dori ombori va hokazolar joy olgan. Qal‘aga kiradigan asosiy yo‘l sharq tomonda bo‘lib, atrofi g‘ishtdan qurilgan katta darvozasi hozir ham saqlangan. Keyinroq qo‘rg‘on devoridan tashqarida ham harbiy inshootlar qurilgan. Ushbu qo‘rg‘on haqida yozma manbalarda ham ma‘lumotlar keltirilgan. Jumladan, Muhammad Solihxo‘janing “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida bu haqda shunday yozilgan: “Shirinuf (Chernyayev) muddao hosil va xotirjam bo‘lgach, Childuxtaron mavzeidan (680 b. varaq) Qirilmos tepaligining (Talli Qirilmos) kunchiqar tomonida G‘adir arig‘i bo‘yida Mullo Shams, Mullo Mahmud, Miryusuf Mirishkor, Doniyolxoja va Qurbonboy chorbog‘lari, shunga o‘xshash, yana bir qancha qiyotliklarning bog‘larini (olib, u yerga) ko‘chib keldi va Qirilmos tepaligida podshohona imoratlar qurishga kirishdi; uning to‘rt tomonini xokrez qilib ko‘tardi va qal‘aning uch tomoniga uchta darvoza o‘rnatdi. Shundan so‘ng xalq bu joyni Tuproq qo‘rg‘on deb atay boshlagan”. Toshkent Tuproqqo‘rg‘onining aynan shunday atalishi ikki sabab bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin: birinchidan, mazkur qo‘rg‘on tepalik – tuproqlar to‘plangan joy ustiga qurilgan, ikkinchidan, qal‘a devorlari va qurilmalari tuproqdan – paxsadan bo‘lgan. Ehtimol, shu bois ham xalq ruslarning ushbu qurilmasini “Tuproqqo‘rg‘on” deb nomlagan. Ruslar esa uni “Военная крепость” deb atashgan. Sababi – bu yer general-gubernator va uning askarlari joylashgan qo‘rg‘on edi.

TOSHKENT SHAHAR DUMASI (Ташкентская городская дума) –

Duma binosi ham Voronsovskiy prospekt (hozirgi Istiqlol ko‘chasi)da joylashgan. Toshkentning 1890-yilgi xaritasida “Городская дума” shaklida berilgan. Ushbu inshoot arxitektor O.I. Gamberger tomonidan barpo etilgan. Bugungi kunda uning o‘rnida Fan va texnika davlat qo‘mitasining binosi joylashgan.

Shahar Dumasi shahar jamoat boshqarmasining farmoyish beradigan organi bo‘lgan. U Toshkentda 1877-yili joriy qilingan. Duma boshlig‘i va a‘zolari saylov yo‘li bilan tayinlangan bo‘lib, bularning 2/3 qismi Yangi shahar, 1/3 qismi Eski shahar aholisi yuqori tabaqalaridan saylangan. Dumaga 72 nafar deputat saylangan. 1913-yili deputatlardan 30 nafari fabrika va zavod egalari, 12 nafari savdogar, 8 nafari uy egasi, 22 nafari erkin kasbli shaxslar bo‘lishgan. Deputatlar 4 yilga saylangan. Shahar Dumasi shahar xo‘jaligi, obodonchilik, sog‘liqni saqlash, xalq maorifi, shahar savdosi va soliqlar ustidan nazorat qilib turgan. Unda shahar hokimi (boshlig‘i) va uning muovinnlari, doimiy va muvaqqat komissiyalar raislari va a‘zolari saylangan. Hukumat ma‘muriyati Shahar Dumasi faoliyatini nazorat qilib borgan. Duma qarorlari general-gubernatorning ijozatidan so‘ng kuchga ega bo‘lgan. 1917-yili Shahar Dumasi a‘zolarining bir qismi muvaqqat hukumat tarkibiga kirgan. 1917-yil Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng Turkiston XKSning

1917-yil 4-dekabrda qaroriga ko'ra Shahar Dumasi tarqatib yuborilgan, shahar xo'jaligini boshqarish Toshsovetga topshirilgan.

TOSHKENTDAGI "YORDAM" MUSULMON JAMIYATI (Мусульманское общество "Помощь" в Ташкенте) – 1909-yili 12-mayda tuzilgan. Ushbu jamiyat Toshkentda musulmon kishilar tomonidan tuzilgani va muhtoj insonlarga turli yordam ko'rsatish bilan shug'ullangani sababli shunday atalgan. Uning maqsadi Sirdaryo viloyati hududidagi nochor musulmon kishilarining ma'naviy va moddiy ahvolini yaxshilash uchun xizmat qilish bo'lgan. Bu borada jamiyat tomonidan yetimxonalar, nochor qariya, yetim, nogironlar uchun shifoxonalar ochish, tunaydigan joylar qurib berish, shuningdek, o'rta va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishni davom ettirayotgan talabalarga stipendiyalar ta'sis etish ishlarini amalga oshirgan. Unga faqat erkaklar a'zo bo'lishgan, islomdan boshqa dindagilar ham kiritilgan. Jamiyat "Toshkentdagi "Yordam" musulmon jamiyati" deb yozilgan muhriga ega edi. Boshqaruv ishlarini Umumiy majlis va Jamiyat kengashi yuritgan. Jamiyat tashabbuskorlari Toshxo'ja Tuyoqboyev, Nizomqori Mulla Husainov, Mulla Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Bashirulla Asadullaxo'jayevlar bo'lishgan.

TURKISTON OMMAVIY KUTUBXONASI (Туркестанская публичная библиотека) – Toshkentdagi dastlabki jamoat kutubxonasi bo'lib, 1870-yilda muzey bilan birga tashkil qilingan. 1877–1883-yillarda general-gubernator mahkamasi ekzekutori, kansler Y.N. Nikolayev uyida (9 ta xona), 1883-yildan Romanov shohko'chasidagi (hozirgi Buyuk Turon) sobiq kimyo laboratoriyasining ta'mirlangan binosiga ko'chirilgan va shu yili yopilib, muzey qoshidagi kitob saqlaydigan muassasaga aylantirilgan. Biroq 1894-yili general-gubernator N.O. Rozenbax kutubxona faoliyatini qayta tiklagan. Kutubxona Turkiston o'lkasida ilk tashkil qilingani, barcha kitobxonlar uchun mo'ljallangan kutubxona bo'lgani sababli "Turkiston ommaviy kutubxonasi" nomini olgan.

TURKISTON O'QITUVCHILAR SEMINARIYASI (Туркестанская учительская семинария) – Konstantin maydonining janubiy tomonida shimolga yuz tutgan bir qavatli binoda joylashgan (hozirgi Amir Temur xiyobonida). "Turkiston o'qituvchilar seminariyasi" toponimi Turkistonda mutaxassis o'qituvchilarni tayyorlaydigan dargoh ma'nosini bildiradi. Ushbu toponim geografik joy nomi va muassasa turi bilan bog'liq toponimlar guruhiga tegishlidir.

Turkiston o'qituvchilar seminariyasi 1879-yili Toshkentda ochilgan. U yerda asosan rus-tuzem maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlangan. Mahalliy aholi orasidan yetishib chiqqan o'quvchilar soni juda kam bo'lgan (1886-yili 61 o'quvchidan 9 nafari, 1883–1904-yillarda 254 bitiruvchidan 39 nafari tub yerliklardan bo'lishgan). Seminariyada ilohiyot qonuni, pedagogika, rus tili, fors va qozoq tillari (1884-yildan qozoq tilining o'rniga o'zbek tili), arifmetika, geografiya, rasm, husnixat, ashula, musiqa, bichish-tikish, gimnastika o'qitilgan. Seminariya mudiri sharqshunos olim Nikolay Petrovich Ostroumov bo'lgan. 1920-yili O'qituvchilar

seminariyasi Toshkent o'zbek o'lka erlar maorif instituti (bilim yurti)ga aylantirilgan. Seminariya binosi hozir ham saqlangan (Amir Temur xiyobonida joylashgan Kurant soati ro'parasidagi binoning birinchi qavati).

TURKISTON DAVLAT PALATASI (Туркестанская казённая палата) – 1901-yilgacha shaharning turli yerlarida joylashgan va o'sha yili Qo'yliq va Xiva ko'chalari oralig'idagi maxsus binoga ko'chirilgan (hozirgi Istiqbol va Istiqlol ko'chalari). Turkiston Davlat palatasi 1869-yili Davlat kengashi qaroriga binoan ta'sis etilgan. 1886-yildan boshlab aksiya hujjatlarini ham nazorat qilgan. Palata xodimlari savdo hujjatlarini tekshirish, kassalarda taftish olib borish, 1889-yildan esa soliq yig'ish ishlarini nazorat qilishni amalga oshirgan. Bu muassasa Turkiston o'lkasida davlat tomonidan nazorat ishlarini olib borani sababli shunday atalgan.

XOJA AHROR MASJIDI – Shayxontohur dahasida joylashgan. Shayx Xovandi Tohur (Tahur) (vafoti – 1359-y.) tomonidan qurdirilgan bo'lib, keyinchalik uni Xoja Ahror (XV asr) qayta tiklagan, shu sababli “Xoja Ahror masjidi” deb atalgan. Umuman, Eski shahar hududida Xoja Ahror nomi bilan atalgan masjidlar soni o'ndan ortiq, Shayxontohur dahasining o'zida beshta bo'lgan.

Xoja Ahror (1404–1490; hozirgi Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani Bog'iston qishlog'ida tug'ilgan (Samarqandda vafot etgan), asli ismi Xoja Ubaydulloh – O'rta Osiyolik shayx, murshid; naqshbandiylik tariqatidagi rahnamalardan; yirik yer egasi. Samarqand madrasasida tahsil ko'rgan. Naqshbandiylikning yirik namoyandasi shayx Yoqub Charxiydan murshidlik qilishga fatvo olgan. Xoja Ahror yirik yer egalari va ruhoniylar o'rtasida katta nufuzga ega bo'lib, “valiy” (avliyo) deb tilga olingan. Mashhur shayx mamlakatning ichki va tashqi siyosiy hayotida yetakchi o'rin tutgan. Ayniqsa Abu Said (1451–69), so'ngroq Sulton Ahmad (1469–94) hukmronlik qilgan davrda katta mavqega ega bo'lgan.

CHARMGARON MASJIDI – Ko'kcha dahasida joylashgan. “Charmgaron” mahallasi hududida bo'lgani uchun unga ushbu mahalla nomi berilgan. Bu masjid Xoja Ahror nomi bilan ham yuritilgan. Charmgaron masjidi pishiq g'ishtdan, darvozaxonali bo'lib, minorasi toshdan qurilgan. Uning hujralarida talabalar istiqomat qilishgan.

CHORSU BOZORI – qadimdan Toshkent hududidagi eng yirik savdo markazi. Yozma manbalardan ushbu bozorning nomi turli davrlarda turlicha bo'lganligi ma'lum. Bu “Chorsu”, “Jo'ba”, “Registon”, “Eskijo'va” “Katta bozor” nomlaridir.

“Chorsu” qadimiy so'z bo'lib, dastlab zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da “chovurchuq” (“to'rt tomonlama”) shaklida uchraydi va “bozor” ma'nosini anglatadi. Keyinchalik bu so'z “chahorsu” va nihoyat “chorsu” shaklini olgan; “chorsu” deganda “gumbazli bozor” tushunilgan. XI asrga kelganda Turkiston shahar ko'chalarining har ikki tomoni bozor – rastalardan iborat bo'lib, ko'chalar kesishgan joydagi bozor maydoni, ya'ni markaziy gumbaz “chorsu” deb atalgan. So'zning ma'nosidan Chorsu bozori o'rta asrlarda shaharning markazida

joylashganligi aniq bo'ladi. Ba'zi tadqiqotlarda "chorsu" faqat to'rt yo'l emas, balki besh, olti, undan ham ko'proq yo'llar kesishgan joy ekani ta'kidlangan. Darhaqiqat, bozor hududida shaharning barcha darvozalaridan kelgan yo'llar tutashgan. Bunday joylarda savdo rastalari, kosiblarning do'konlari joylashgan.

X–XVI asrlarga oid manbalarda bozor "Jo'ba" va "Registon" shakllarida ham uchraydi. O'rta Osiyolik tarixchi Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida "jo'ba" – "bozor maydoni" ma'nosida uchraydi.

Chorsu bozorining "Registon" deb nomlanganiga sabab – XV–XVII asrlarda shahar markazi bozorga yaqin hududda bo'lib, unda Xoja Ahror qurdirgan jome masjidi va madrasa (1451-y.), keyinchalik Shayx Abulqosim (XVI a.), Ko'kal-dosh (XVI a.) va uning yaqinida Beklarbegi madrasalari (1835-y.) qurilgan. Mazkur binolar joylashgan maydon "Registon" deb nomlangan. Aslida bu so'z "qumloq maydon" ma'nosini anglatadi, ya'ni bu yerda katta maydon bo'lgani ma'lum. Natijada uning yaqinida joylashgan bozor ushbu maydonning nomi bilan atala boshlangan.

XIX asrga oid yozma manbalarda markaziy bozor "Jo'ba" va "Chorsu" deb tilga olinadi. Jumladan, Muhammad Solihxo'ja ham "Tarixi jadidayi Toshkand" asarida Registondagi bozorni savdo markazi tarzida ta'riflab, u xalq tomonidan "Jo'ba", kitoblarda esa "Jo'ybor" deyilishini yozadi. Muallif bozor haqida qimmatli ma'lumotlar keltirgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ham Chorsu bozori shaharning geometrik markazida, Toshkentning to'rt dahasi tutashgan yerida joylashgan. U shaharning asosiy bozori hisoblangan. Bu haqda o'sha davr yozma manbalarida qayd etilgan. Mazkur davrga oid rus manbalarida Chorsu bozori "Большой базар" ("Katta bozor"), "Главный базар" ("Asosiy bozor") deb keltirilgan.

V.I. Masalskiyning yozishicha, ushbu davrda bozorning uzunligi shimoldan janubga 800 metr bo'lib, eni 500 metr chamasida edi. Bozor tim va rastalardan (4500 do'kon) iborat bo'lgan. Har bir rastaga mol sifatini va narxini nazorat qilib turadigan rasta oqsoqoli saylangan. M.Pospelov va T.Burnashevlar rasta va do'konlar savdogarlar uchun mollarning xiliga qarab qurilganligini ta'kidlashgan. Shu sababdan rastalarning nomi sotiladigan mol bilan, do'konlar esa, odatda, egasining nomi bilan atalgan (go'sht rastasi, shoyi gazlamalar rastasi, Sharifboy do'koni). A.K. Geyns keltirgan bozor va rastalarning ro'yxati ham diqqatga sazovordir: un bozor, kigiz bozor, qo'y bozor, go'sht rastasi, nonvoylik rastasi, kovush bozor, yog'och bozor, temirchilik rastasi, chitfurushlik rastasi, sham bozor, bazzozlik rastasi, pichoqchilik rastasi, paxta bozor, tamaki bozor, tovoq bozor, zargarlik rastasi, misgarlik rastasi, choyfurushlik rastasi, egar bozori va hokazo. Muallifning xabar berishicha, bozordagi savdo rastalarining umumiy soni 1500 taga yetgan va bunday rastalar karvonsaroylarda ham bo'lgan.

Amerikalik sayyoh va diplomat Yujin Skayler 1873-yili Toshkentga kelganda Eski shahar bozori unda katta taassurot qoldirganini ta'kidlagan. U asosiy bozor chorshanba kuni, shahar atrofidagi hududlardan savdogarlar o'z mollari bilan

kelganlarida yigʻilishini yozgan. Sayyoh bozorda hunarmandlar ham buyum ishlab chiqarib, ham uni shu yerda, maxsus ochgan peshtoqlarida sotishlariga alohida ahamiyat bergan. Lekin bozorda faqat koʻp xarid qilinadigan buyumlar ishlab chiqarilishini, asosiy ustaxonalar esa mahallalarda joylashishini, shuningdek, sotuvchilar ishsiz qolmaslik uchun mahsulotlarni katta miqdorda sotmasliklarini, bozorda rastalar sotiladigan molga qarab joylashishi, yaʼni bir turdagi mahsulot sotuvchilar boshqa xil mol sotuvchilardan alohida oʻrinlarda turib savdo qilishi haqida bayon qilgan.

Markaziy bozor atrofida bir turdagi mahsulot sotiladigan kichikroq bozorlar ham boʻlgan. Ular sotiladigan mahsulotning nomi bilan atalgan. Bunday maxsus bozorlar joylashgan mahallaga ushbu bozorning nomi berilgan (Gulbozor, Gʻoʻzabozor, Boʻyrabozor, Xodabozor).

Bozor atrofida ustaxonalar, hunarmand-kosiblar yashaydigan mahallalar oʻrin olgan. Koʻp hollarda bunday mahallalar u yerda istiqomat qiluvchi hunarmandlarning kasb-hunari nomi bilan atalgan (Degrez, Kallaxona, Pichoqchilik, Kaduvot, Parchabof, Temirchi, Oʻroqchilik, Kovushfurushlik, Ziroatfurush, Qoshiqchilik va boshqalar).

Chorsu bozorida nafaqat shahar ichida ishlab chiqarilgan, balki tashqi hududlardan keltirilgan mollar ham sotilgan. XIX asrning oxirlaridan boshlab bu yerda mahalliy va yevropalik boylar oʻz doʻkonlari, omborlari, banklari va savdo idoralarini qurdira boshlaganlar.

Chorsu bozori nafaqat savdo markazi edi, balki bu yerda shahar aholisi turli yangiliklardan boxabar boʻlishgan. Buning sababi shahar hokimining turli farmonlari mahallalardagi masjidlarda maʼlum qilinganidan tashqari, yana shahar bozorida ham jarchilar tomonidan eʼlon qilinardi. Shuningdek, ushbu bozor aholi dam olib hordiq chiqaradigan joy ham boʻlgan. Undagi turli taomlar tayyorlanadigan oshxona, choyxonalar xizmatidan tashqari, maydonida xalq sanʼati namunalaridan dor oʻyini, kulgi-hazil sahnalari namoyish etilardi. Oʻrta Osiyoning aksariyat yirik shaharlarida boʻlgani kabi, Toshkentda ham hayit va roʻza kunlari bozorshab (tungi bozor) oʻtardi. Bu haqda Muhammad Solihxoʻja shunday yozgan: “Bozorning doʻkon-rastalari Chorsudagi qandolatpazlik doʻkonigacha davom etadi. Ramazon oyida bu yerda kechasi ham bozor boʻladi, xalq savdo-sotiq, har xil oʻyin-kulgi qiladi”.

SHAHAR DORIXONASI – Chorsu bozoriga yaqin hududda 1874-yilning mart oyida ochilgan. Bu yerda dorilar nochorlarga bepul berilgan. 1907-yilda dorixona qoshida Kimyoviy bakteriologiya qoʻmitasi tashkil qilingan. Dorixona ijaraga olingan uyda joylashgan edi. 1910-yili dorixona Yangi shahar hududidagi Романовский koʻchasidagi ikki qavatli binoga koʻchirilgan. Dorixona qoshida aholiga tibbiy maslahat beruvchi xodimlar ham xizmat qilishgan.

Ushbu dorixona Toshkent shahrida ilk bor ochilgan, shaharning ikkala qismi uchun xizmat koʻrsatgan dori sotish va tarqatish muassasasi boʻlgani bois “Shahar dorixonasi” deb atalgan.

YUNUSXON MAQBARASI – Shayxontohur maqbarasi majmuasi tarkibidagi XV asrga oid arxitektura yodgorligi hisoblanadi. Maqbara nomi Mo‘g‘uliston xoni Yunusxonning qabri ustiga qurilgan va uning ismi bilan atalgan.

Yunusxon (1415/17–1487) Mo‘g‘uliston xoni (1462–1487) va Toshkent hokimi (1485–1487) bo‘lgan. Boburning onasi Qutlug‘ Nigorxonimning otasi. “Boburnoma”da aytilishicha, “Yunusxon Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘a-toyxonning naslidandur”.

Mo‘g‘uliston xoni Vaysxon vafotidan (1428-y.) keyin to 1434-yilgacha ulusda notinchlik hukm surgan. O‘zaro taxt talashishlardan so‘ng 1434-yili taxtga Vaysxonning kichik o‘g‘li Eson Bug‘axon o‘tiradi. Katta o‘g‘li Yunusxonni esa Movarounnahrga, Ulug‘bek huzuriga olib borishadi. Ulug‘bek Yunusxonni 1434-yili Xurosonga Shohrux huzuriga jo‘natgan. Yunusxon Xurosonda mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiydan ta‘lim oldi, ko‘p ilmlarni egalladi. Xurosondan qaytgach (1456-y.), Abu Said yordamida Mo‘g‘uliston taxtiga o‘tirgan. O‘zaro nizolar girdobiga tushib qolgan Yunusxon goh Temuriylar tarafida turib, goh ularga qarshi urushdi. XV asrning ikkinchi yarmida Temuriylar saltanatidagi o‘zaro ichki nizolardan foydalanib, Sayramni (1482-y.) bosib olgan. Toshkentni o‘z tasarrufiga kiritish uchun Abu Saidning o‘g‘illari – Umarshayx (Boburning otasi) bilan Sulton Ahmad o‘rtasida jangga tayyorgarlik ko‘rila boshladi. Lekin raqiblarni Xoja Ahror yarashtirib, muzokara natijasida Toshkent shahri va viloyati Yunusxonga berildi (1485-y.). Yunusxon 1487-yili shol kasalligidan vafot etgan va Toshkentdagi Shayx Xovandi Tohur qabristoniga dafn etilgan. Bu yerga unga atab Ahmadxon (Olachaxon) maqbara qurdirgan.

Yunusxon maqbarasi haqida XIX asr yozma manbalarida, jumladan, Muhammad Solihxo‘janing “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida shunday yozilgan: “Bu maqbara Shayx Xovandi Tahur maqbarasidan g‘arbroqda joylashgan. Yunusxon maqbarasi uchun uning o‘g‘li Ahmadxon – Olachaxonning maxsus buyrug‘i bilan 6 tanob yer ajratilib, pishiq g‘isht hamda toshdan 8 gumbaz barpo etilgan. 1829–1830-yilda sodir bo‘lgan zilziladan Yunusxon qabri ustidagi gumbazlar xarob bo‘lgan, 1859-yilga kelib qayta tiklangan”.

O‘RDA BOZORI – O‘rda qal’asidan Toshkentga kirish yo‘lida joylashgan (hozirgi O‘rda atroflari). 1871-yili “sartlar bozorчасi” yangi joyga ko‘chirilganidan vujudga kelgan. Mazkur hudud O‘rda, Qashqar va rus kvartallari, ya’ni Eski shahar va Yangi shahar qismlari o‘rtasida, Shibli arig‘ining ikkala tomonidagi yerlarni o‘z ichiga olgan. Dastlabki ikki yil davomida bozorda savdo qiluvchilar, eski O‘rda bozoridan ko‘chirilganda rastalari buzilib ketgani hisobiga, barcha to‘lovlardan ozod qilingan. O‘rda bozorida ko‘proq oziq-ovqat mahsulotlari (sut va sut mahsulotlari bilan mashhur bo‘lgan), shuningdek kiyim-kechak sotilgan.

Bozor O‘rda qal’asiga yaqin hududda joylashgani sababli O‘rda bozori deb atalgan. Ushbu O‘rda XIX asrning 30-yillarida Qo‘qon xoni tomonidan Qo‘qon qo‘shinlari garnizoni uchun Shayxontohur dahasida, Anhor kanalining chap sohi-

lida qurdirilgan. Unda shahar va viloyat hokimi uchun maxsus qo'rg'on-qarorgoh bo'lgan. Keyinchalik unda rus qo'shinlari ham vaqtinchalik joylashishgan. XIX asr oxirlariga kelib O'rdadagi xon saroyi va O'rda devori buzib tashlandi va Yangi shaharga qo'shib olindi. Biroq ushbu hududning nomi "O'rda" shaklida saqlanib qoldi.

O'G'IL BOLALAR VA QIZLAR GIMNAZIYALARI – Toshkentda XIX asr ikkinchi yarmida Konstantin xiyobonining (taxminan hozirgi Amir Temur xiyoboni) g'arbiy tomonida bir-biriga o'xshash uch korpusli ikkita bino bo'lgan. Ular orasidan Соборная (hozirgi Sayilgoh) ko'chasi o'tgan. O'g'il bolalar gimnaziyasi uchun 1878-yili arxitektor Yanchevskiy boshchiligidagi bosh fasadi Konstantin xiyoboni (hozirgi Amir Temur)ga qaragan bino qurilgan, 1879-yili uning yoniga uchinchi korpus barpo etilgan. 1920-yildan bu yerda O'rta Osiyo davlat universiteti, 1972-yildan esa Toshkent avtomobil transporti va yo'llari instituti va ToshDUNing yuridik fakulteti bo'lgan. Hozirgi davrda Toshkent davlat yuridik universiteti joylashgan. 1912-yili Qo'yliq shohko'chasi (hozirgi Istiqbol ko'chasi)da arxitektor G.M. Svarichevskiy boshchiligidagi Ikkinchi qizlar gimnaziyasi uchun ikki qavatli bino qurilgan, keyinchalik bino ustiga uchinchi qavat barpo etilgan (hozirgi Toshkent xalqaro Vestminster universiteti).

Ushbu gimnaziylarning nomi va ular haqidagi ma'lumotlar o'sha davr yozma manbalarida uchraydi. Jumladan, 1890-yilgi Toshkent shahar xaritasida O'g'il bolalar gimnaziyasi "Мужская гимназия", Qizlar gimnaziyasi esa "Женская гимназия" shakllarida berilgan. Bu ikki toponim muassasa faoliyat turi va unda kimlar o'qitilishini aks ettiruvchi toponimlar guruhiga oid.

Gimnaziyalarda dastlab faqat rus bolalar ta'lim olishgan, keyinchalik mahalliy boylarning farzandlari bu yerga qabul qilingan. Gimnaziyalarda ilohiyot, rus tili, leksika, pedagogika, arifmetika, algebra, geometriya, geografiya (umumiy geografiya va Rossiya geografiyasi), kosmografiya, tarix (umumiy tarix va Rossiya tarixi), fizika, zoologiya, botanika, mineralogiya, fransuz va nemis tillari, husnixat, rasm chizish kabi fanlar o'qitilgan. "Qizlar gimnaziyasi"da bichish-tikish, musiqa, ashula, gimnastika, raqs ham o'rgatilgan.

Mazkur ikki gimnaziya tashqari, XX asrning birinchi choragida yana uchta gimnaziya – Real bilim yurti, Kadetlar korpusi va Tijorat bilim yurti bo'lgan. 1918-yildan so'ng gimnaziya o'rta umumta'lim maktablariga aylantirilgan. 1989-yildan boshlab maktablar qoshida yana gimnaziya sinflari tashkil etilgan.

QO'YLIQ SHOHKO'CHASI – XIX asr ikkinchi yarmida Qo'yliq shohko'chasi shahar markazidan boshlanib, to shahar tashqarisida, janubda joylashgan Qo'yliq qishlog'igacha davom etgan. Hozirgi kunda bu yo'l Istiqbol va Farg'ona yo'li ko'chalariga, Qo'yliq qishlog'i esa Toshkent hududidagi Qo'yliq mavzesiga to'g'ri keladi. Bu yerlarning "Qo'yliq" deb nomlanishi haqida, asosan, uchta fikr mavjud. Aholi o'rtasida avvallari bu yerlarda qo'y bozori bo'lgan, shu sababli ham "qo'yliq" deb ataladi kabi fikr keng tarqalgan bo'lsa, ba'zilar bu yerda suv

quyilish joyi bo'lgan, shuning uchun "qo'yliq" – bu "suv to'planishi, ko'llanishi joyi", deb izoh berishadi. Biroq fanda yana bir fikr mavjud bo'lib, "qo'yliq" so'zi antropotoponim ekani ta'kidlanadi. Aniqrog'i mazkur hududda XIV asrda taniqli shaxs Qo'yliqota yashab o'tgan, bu yerda uning qabristoni ham mavjud. Shu bois, ushbu joylar uning nomi bilan atalgan ekan. Bu fikr ilmiy asoslangan va haqiqatga yaqin sanaladi.

QO'YLIQ QISHLOG'I – Toshkentdan 2 chaqirim masofada joylashgan edi. XIX asrning oxirlarida Qo'yliq Qurama (Кураминский) uyezdining markazi hisoblangan. Ushbu uyezd Sirdaryo harbiy gubernatorining 1868-yil 20-oktyabr-dagi buyrug'iga binoan, Toshkent uyezdidan Toshkent shahri alohida ma'muriy birlik sifatida ajralib chiqqanidan so'ng tashkil etilgan. Dastlab uyezd boshqarmasi To'ytepaga, keyinchalik esa, 1869-yili Qo'yliq qishlog'iga ko'chirilgan va bu yerda 1887-yilgacha faoliyat yuritgan. "Turkiston o'lkasini boshqaruvi haqidagi" 1886-yilgi Nizomga ko'ra Qurama uyezdi 1887-yili 1-yanvarda Toshkent uyezdi deb nomlana boshlangan va uyezd boshqarmasi Qo'yliqdan Toshkentga ko'chirilgan. Qishloqda butun uyezd uchun bitta dorixona va uning qoshida tibbiy qabul punkti, telefon tarmoqlari, masjid, madrasa, uyezd boshqaruvchisi idorasi bo'lgani ma'lum. Toshkent shahri bilan bog'lovchi yo'l "Qo'yliq shohko'chasi" (hozirgi Istiqbol ko'chasi) (ko'proq shahar hududidagi Salor arig'igacha bo'lgan qismi) va "Qo'yliq shossesi" (hozirgi Farg'ona yo'li ko'chasi) (Salordan Chirchiqqacha bo'lgan qismi) deb atalgan. Mazkur yo'l shaharni uyezd markazi bilan bog'lagani tufayli, unga ma'muriyat tomonidan katta e'tibor qaratilgan. Ko'payib borayotgan yevropalik shahar aholisi ham ko'proq Никольское va Qo'yliq tomon yo'nalishlarda o'ziga uy-joylar qurib o'rnatishgan. Jumladan, arxiv hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, Qo'yliq shohko'chasining uzunligi Toshkentdan Chirchiq stansiyasigacha 10 chaqirim 319 $\frac{1}{2}$ sajn bo'lgan. Deyarli butun yo'lga tosh yotqizilgan, Salordan Qo'yliqqacha bo'lgan qismida 1877-yili shosse qurilgan va 1878-yili unga to'qqizta ko'priq o'rnatilgan. 1892-yilga kelib ko'priklar soni 25 taga yetgan. Vaqti-vaqti bilan Qo'yliq yo'li va undagi ko'priklar ta'mirlanib turilgan (1878–80, 1884, 1886–87, 1888, 1892, 1903, 1905, 1912-yillarda).

HARBIY GOSPITAL – binosi Госпитальная (hozirgi Avliyoota) ko'chasida joylashgan. "Harbiy gospital" toponimi ushbu idorada harbiylarni davolash uchun mo'ljallangan muassasa joylashganidan dalolat beradi. Mazkur gospital harbiy xizmatchilarni statsionar usulda davolaydigan tibbiy muassasa bo'lgan. 1869-yilda Toshkent garnizonining rus ekspeditsion qo'shinlariga xizmat ko'rsatish maqsadida statsionar shifoxona (415 o'rin) sifatida tashkil etilgan. Dastlab xirurgiya, yuqumli kasalliklar, teri-tanosil kasalliklari, hibsga olingan bemorlar bo'limlari ishlagan. 1896–1910-yillarda psixiatriya, ko'z, quloq kasalliklari, ayollar, ofitserlar, sanatoriy bo'limlari ochilgan. 1920–21-yillarda O'rta Osiyo davlat universiteti meditsina fakultetining klinik bazasi bo'lgan. 1892-yildan bu yerda mashhur xirurg va parazitolog P.F. Borovskiy ishlagan. 1981-yili gospitalga uning nomi berildi.

ZAMONAVIY TOSHKENT

TOSHKENT SHAHRI TUMANLARI

BEKTEMIR TUMANI. Bektemir tumanining nomi tumandan oqib o'tuvchi Bektemir kanali nomidan olingan. Ayrim tadqiqotchilar Bektemir so'zini etnonimlar guruhiga mansub deb hisoblashadi va ushbu atama turkman qabilasidagi igdir urug'i nomidan kelib chiqqanligini ta'kidlashadi. Mazkur tuman hududi 1960–73-yillarda Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi Bektemir shaharchasi, 1973–90-yillarda shahar, 1981–90-yillarda davlat va jamoat arbobi Narimon Narimonov (1870–1925) nomi bilan yuritilgan. 1990-yil 27-fevraldan boshlab bu hudud poytaxt tarkibiga kiritilib, Toshkent shahri tumaniga aylantirildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining "Toshkent shahar tarkibida Bektemir tumanini tashkil etish to'g'risida" 1990-yil 27-fevraldagi 3938-XI-son qarori).

Bektemir tumani Toshkent shahrining janubi-sharq tomonida bo'lib, Katta halqa yo'lining tashqarisida, asosan, Chirchiq daryosining chap sohilida joylashgan. Bektemir tumani shimol va shimoli-g'arbda Toshkent viloyatining Qibray tumani, Toshkent shahrining Yashnobod va Mirobod tumanlari, sharqda Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq, janubi-sharqda O'rta Chirchiq tumanlari, janubi-g'arbda Toshkent shahrining Sergeli, Yangihayot tumanlari, janubda Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumani bilan chegaradosh. Maydoni 32,62 kv. km. Aholisi 65,5 ming kishi. Ko'chalar soni – 532 ta, mahallalar – 18 ta. Tuman hokimligi Husayn Boyqaro ko'chasi, 2-uyda joylashgan.

Tuman hududida "Qo'yliq" metro bekati barpo etilgan.

MIRZO ULUG'BEK TUMANI. Mazkur tuman 1929-yil 29-noyabrda tashkil qilingan. Uning nomlanishi bir necha bor o'zgartirilgan. 1935-yil 27-fevralgacha Proletar rayoni, 1992-yil maygacha Kuybishev rayoni, 1992-yil 8-maydan Mirzo Ulug'bek deb nomlangan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining "Toshkent shahar Kuybishev rayonining nomini Mirzo Ulug'bek tumani deb o'zgartirish to'g'risida" 1992-yil 8-maydagi 580-XII-son qarori). Shaharning bu qismida ko'plab ilmiy muassasalar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi institutlari joylashgan. Mazkur omillar ushbu shahar tumaniga ilm-fan ravnaqiga yuksak hissa qo'shgan va jahon miqyosida tanilgan, Temuriylar sulolasining taniqli vakili, Movarounnahrda o'rta asrlarda hukmdorlik qilgan shaxs, buyuk matematik, falakiyotshunos, geograf, tarixchi olim Mirzo Ulug'bek nomini berilishiga asos bo'ldi.

Mirzo Ulug'bek tumani shaharning shimoli-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, Yashnobod, Yunusobod tumanlari hamda Toshkent viloyatining Qibray tumani bilan chegaradosh. Toshkent markazi (Amir Temur xiyoboni)dan boshlanib, shimoli-sharq tomonga, Katta halqa yo'ligacha boradi. Tuman hududidan 2 ta

kanal (Salor va Qorasuv) va 5 ta ariq oqib o'tadi. Maydoni 59,43 kv. km. Aholisi 337,1 ming kishi. Ko'chalar soni – 675 ta, mahallalar – 70 ta. Tuman hokimligi Mustaqillik ko'chasi, 122-uyda joylashgan.

Tumanda 10 ta respublika ahamiyatidagi, shuningdek, mahalliy ahamiyatdagi madaniy meros obyektlari mavjud. Jumladan, Konservatoriyaning eski binosi (1934), Oliy harbiy o'quv yurti (XX asr boshi), Yozuvchilar uyushmasining avvalgi binosi (1938), "Gulshan" madaniyat saroyi (XX asr), Avliyo Germogen cherkovi (XX asr) va boshqalar.

Tuman hududida "Buyuk ipak yo'li", Pushkin, Hamid Olimjon, "Amir Temur xiyoboni", Yunus Rajabiy metro bekatlari joylashgan.

MIROBOD TUMANI. Mazkur tuman Toshkent hududida 1929-yilda tashkil etilgan. Dastlab Lenin rayoni deb atalgan. 1992-yil 8-mayda uning nomi Mirobod tumani deb o'zgartirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining "Toshkent shahridagi ayrim rayonlarning nomini o'zgartirish to'g'risida" 1992-yil 8-maydagi 579-XII-son qarori). Ushbu toponim hududda saqlanib kelgan Mirobod aholi maskani nomidan olingan bo'lib, "mirlar yoki taniqli shaxs tomonidan obodonlashtirgan yer, joy" ma'nosini bildiradi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1880–90-yillarda Shayxontohur dahasidan Mirjonboy ismli shaxs boshchiligida mirlar qavmiga mansub oilalar hozirgi "Mirobod" bozori atrofidagi joyga ko'chib kelib, shu hududni o'zlashtirishgan. Natijada bu joylar keyinchalik Mirobod nomi bilan tanilgan.

Tuman Toshkentning markaziy qismida joylashgan. Shimolda Amir Temur xiyobonidan Katta halqa yo'ligacha cho'zilgan. Mirobod tumani shimoldan Yunusobod, janubdan Bektemir, sharqdan Yashnobod, shimoli-g'arbdan Yakkasaroy, janubi-g'arbdan Sergeli tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 16,55 kv. km. Aholisi 154,2 ming kishi. Tuman hududidan 3 ta kanal (Barotxo'ja, Salor, Tolariq) oqib o'tadi. Ko'chalar soni – 300 ta, mahallalar – 39 ta. Tuman hokimligi Nukus ko'chasi, 18-uyda joylashgan.

Tumanda Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatri, O'zbekiston akademik rus drama teatri, shuningdek, Furqat nomidagi madaniyat va istirohat bog'i, San'at, Temir yo'l texnikasi, Tibbiyot muzeylari, O'zbekiston Badiiy akademiyasi Markaziy ko'rgazmalar zali mavjud.

Tarixiy yodgorliklardan Mingo'rik shahristoni, Qo'yliqota maqbarasi va boshqa me'moriy obidalar saqlangan. Tuman hududida mahalliy ahamiyatga ega madaniy meros obyektlaridan Toshkent kurantlari, "Bahor" restorani, Tibbiyot instituti kutubxonasi arxivi binosi, Temir yo'llar boshqarmasi binosi, Avliyo Uspenskiy kafedral butxonasi va boshqalar mavjud.

Tuman hududida "Mingo'rik", Oybek, "Toshkent", "Matonat" metro bekatlari joylashgan.

OLMAZOR TUMANI. Mazkur tuman 1970-yil 7-dekabrda tashkil etilgan. Dastlab Sobir Rahimov rayoni deb atalgan. Toshkent hududining shimoli-g'arbiy tomonga kengaytirilishi, xususan, 1970-yilda Oktyabr va Kirov rayonlarining

ma'lum qismi hamda Toshkent viloyati Kalinin rayoni yerlarining poytaxt hududiga qo'shib olinishi natijasida tashkil bo'lgan. 2010-yil noyabrda tuman nomi o'zgartirilib, Olmazor tumani deb atalgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "Toshkent shahar Sobir Rahimov tumanining nomini o'zgartirish to'g'risida" 2010-yil 4-dekabrda 133-II-son qarori). Toshkentning ushbu qismida ancha qadimdan Sebzor dahasi joylashgani ma'lum. Mustaqillik yillarida ko'plab joy nomlariga o'zining tarixiy shakli qaytarildi. Shu jumladan, ushbu shahar tumanining nomlanishida ham hududning tarixiy atalishini tiklash masalasi qo'yilib, uning nomi Olmazor tumani deb qayta nomlandi. "Olmazor" so'zi "sebzor" so'zining o'zbek tilidagi shaklidir. Mazkur atama "olma bog'lari ko'p hudud" ma'nosini bildiradi. Tarixiy manbalarda qayd etilishiga ko'ra, Toshkentning to'rt dahasidan aynan Sebzor dahasi o'zining olmazorlari bilan mashhur bo'lgan.

Tuman shimoli-g'arbda Toshkent viloyatining Zangiota tumani, shimolda Toshkent tumani, shimoli-sharq va sharqda Yunusobod tumani, janub va janubi-g'arbda Shayxontohur tumani bilan chegaradosh. Maydoni 33,75 kv. km. Aholisi 412 ming kishi atrofida, asosan, o'zbeklar, shuningdek, rus, tatar, qozoq va boshqa millat vakillari yashaydi. Ko'chalar soni – 755 ta, mahallalar – 64 ta. Olmazor tumani hokimligi Kichik halqa yo'li, 1-uyda joylashgan.

Tuman hududidan Qichqiriq, Damariq, Qoraqamish, Kaykovus, Chig'atoy, Yakkacho'p va boshqa kanallar oqib o'tadi.

Olmazor tumanida respublika ahamiyatidagi ko'plab me'moriy obidalar saqlangan. Mahalliy me'moriy obyektlardan Sharofboy masjidi, O'zbek drama teatri binosi (XX asr), Qoraxo'jaota maqbarasi (XIX asr), Langarota maqbarasi va masjidi (XIX asr), Oxunguzar (darvozaxona), Oxunguzar-I, II masjidleri (XVII–XIX asrlar), Matkarimboy majmuasi (XIX asr), shuningdek, Oqtepa (V–XII asrlar), Qo'shilish (mezolit), Xiyobontepa (VII–XIII asrlar) arxeologiya yodgorliklari bor. Beruniy, L.B. Shastri, Berdaq va Abdulla Qodiriylarga haykallar o'rnatilgan.

SERGELI TUMANI. 1967-yil 20-yanvarda tashkil etilgan (O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1967-yil 20-yanvardagi 06-A-son qarori). Toshkentning janubi-g'arbiy qismida joylashgan. Uning asosini 1966-yilgi zilziladan keyin qurilgan Sergeli aholi turar joy massivi tashkil qiladi. "Sergeli" so'zi O'rta Osiyo hududida o'rta asrlardan yashab kelgan o'zbek qabilalari tarkibidagi sirg'ali urug'i nomidan kelib chiqqan bo'lib, etnotoponimlar guruhiga mansubdir.

Sergeli tumani hududi markaziy temir yo'l trassasidan Chirchiq daryosi qayirlarigacha bo'lgan yerlarni, "No'g'oyqo'rg'on" mahallasi, Toshkent aeroporti atrofi, Qo'yliq 5–7, Sergeli 2–8-mavzelari, Quruvchi dahasini qamrab oladi. Shimoli-g'arbdan Chilonzor, janubi-sharqdan Bektemir tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 52,08 kv. km. Aholisi 173,1 ming kishi, asosan o'zbeklar va ruslar, shuningdek, koreys, tatar va boshqa millat vakillari yashaydi. Ko'chalar soni – 638 ta, mahallalar – 46 ta. Tuman hokimligi Sug'diyona ko'chasi, 1-uyda joylashgan.

Sergeli tumanida respublika ahamiyatidagi arxeologik yodgorliklardan Qo'g'aytepa (Quvaidtepa), Xonobodtepa saqlangan. Tuman hududidan "Chosh-tepa", "O'zgarish", "Sergeli", "Yangihayot", "Chinor", "Qiyot", "Tolariq", "Xonobod", "Quruvchilar" metro bekatlari o'tadi.

UCHTEPA TUMANI. 1977-yil 15-sentyabrda Chilonzor va Oktyabr (hozirgi Shayxontohur) tumanlarini ixchamlashtirish maqsadida, ular hududida yangi tuman sifatida tashkil etilgan. 2005-yil 6-maygacha Akmal Ikromov rayoni deb atalgan. Mustaqillik yillarida joy nomlariga yangicha yondashuv va tarixiylikka katta e'tibor qaratilib, ushbu tuman nomi ham yangilandi va Uchtepa deb ataldi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "Toshkent shahrining Akmal Ikromov tumani nomini o'zgartirish to'g'risida" 2005-yil 6-maydagi 39-I-son qarori). Ushbu nom hududning tarixiy nomlanishi bilan bog'liq bo'lib, tabiiy omil, ya'ni joyning relyefidan kelib chiqib berilgan. Tuman joylashgan hududda Uchtepa degan aholi maskani bo'lgani XIX asr yozma manbalarida qayd etilgan.

Tumanda qurilish ishlari 1966-yildan boshlangan. Toshkentni rekonstruksiya qilish va rivojlantirish Bosh planiga muvofiq tumanda katta qurilish ishlari amalga oshirilgan.

Tuman hududi janub va janubi-sharqdan Zargarlik va Guliston ko'chalari bilan boshlanib, g'arb va shimoli-g'arbda Katta halqa yo'li orqali Qoraqamish kanali-ga tutashadi. Maydoni 28,08 kv. km. Aholisi 301,6 ming kishi. Ko'chalar soni – 659 ta, mahallalar – 60 ta. Tuman hokimligi Farhod ko'chasi, 21-uyda joylashgan.

Uchtepa tumanida respublika ahamiyatidagi me'moriy yodgorliklardan Cho'ponota majmuasi (XVII asr), Foziltepa (V–X asrlar) arxeologiya yodgorligi, mahalliy madaniy meros obyektlaridan Said Vaqqosota jome masjidi va boshqalar saqlangan.

CHILONZOR TUMANI. Toshkent shahar aholisi 1 million kishidan ortgan hamda Toshkentdagi 1966-yilgi zilziladan keyingi yillarda olib borilgan keng ko'lamli qurilish ishlari sababli, shaharning janubi-g'arbiy qismida Chilonzor rayoni nomi bilan yangi tuman 1963-yil 4-yanvarda tashkil qilingan (O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1963-yil 22-martdagi qarori). Tuman nomi tabiat bilan bog'liq toponimlar guruhiga mansub bo'lib, aksariyat tadqiqotchilar uni ushbu hududda chilon jiyda bog'lari ko'p bo'lgani bilan bog'lashadi.

Chilonzor tumani poytaxtning Uchtepa, Shayxontohur, Yakkasaroy, Sergeli, Yangihayot va Toshkent viloyatining Zangiota tumanlari bilan chegaradosh. Shimolda Oqtepa kanali, sharqda Bo'rijar kanali, janubi-g'arbda O'rta Osiyo temir yo'li bo'ylab Katta halqa yo'li va Bo'rijar kanaligacha davom etgan. Maydoni 30,58 kv. km. Aholisi 276,7 ming kishi, asosan, o'zbeklar, ruslar, shuningdek, tatar, koreys, qozoq va boshqa millat vakillari yashaydi. Ko'chalari soni – 295 ta, mahallalar – 55 ta. Tuman hokimligi Bunyodkor shohko'chasi, 50-uyda joylashgan.

Tuman hududidan Novza, Cho'ponota, Botirma, Katta Qa'ni, Bo'rijar, Oqtepa, Anhor va boshqa kanallar oqib o'tadi.

Tumanda Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali drama teatri, O‘zbekiston davlat musiqali komediya (operetta) teatri, Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog‘, G‘afur G‘ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i, “Xalqlar do‘stligi” san’at saroyi faoliyat ko‘rsatadi.

Tuman hududida Chilonzor Oqtepasi, Xirmontepa, Mozortepa arxeologik yodgorliklari (V–VIII asrlar, X–XI asrlar), Abulqosim madrasasi, Xayrobod Eshon majmuasi kabi respublika ahamiyatidagi me‘moriy yodgorliklar mavjud.

Shahar metropolitenining “Olmazor”, “Chilonzor”, “Milliy bog‘”, Mirzo Ulug‘bek, “Novza” metro bekatlari tuman hududidan o‘tadi.

SHAYXONTOHUR TUMANI. 1929-yil 29-noyabrda tuzilgan va Oktyabr rayoni deb atalgan. Tarixiy davrlarga nazar solinsa, o‘rta asrlar va so‘nggi o‘rta asrlarda mazkur hudud Toshkentning to‘rt dahasidan biri – Shayxontohur dahasining yerlariga to‘g‘ri keladi. Mustaqillik yillarida joy nomlaridagi tarixiylikni tiklash an‘anasi davom ettirilib, 1992-yil 8-mayda tumanga Shayxontohur (Shayx Xovandi Tohur) nomi berilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining “Toshkent shahridagi ayrim rayonlarning nomini o‘zgartirish to‘g‘risida” 1992-yil 8-maydagi 579-XII-son qarori). Toshkent shahrida XIV asrda yashagan Shayx Xovandi Tohur o‘z zamonasining eng mo‘tabar, o‘qimishli shaxslaridan, taniqli din ulamalaridan biri bo‘lib, urf-odat, odob-axloq mavzuiga oid kitoblar, shuningdek she‘rlar ham yozgani ma‘lum. XIV asrning oxirlarida bu joyga Shayxontohur nomi berilgan. XIX–XX asr boshlarida shaharning to‘rt dahasidan biri, ya‘ni shu maqbara joylashgan daha, uning nomi bilan yuritilgan.

Shimoli-g‘arbda Zangiota tumani, shimolda Olmazor, shimoli-sharqda va sharqda Yunusobod, janubda Chilonzor, g‘arbda Uchtepa tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 27,18 kv. km. Aholisi 369,6 ming kishi, asosan, o‘zbeklar, shuningdek, rus va boshqa millat vakillari ham yashashadi. Tumanda Xadra, Chorsu, Oqtepa maydonlari mavjud. Ko‘chalar soni – 545 ta, mahallalar – 51 ta. Tuman hokimligi Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 7a-uyda joylashgan.

Tuman hududidan Ko‘kcha, Bo‘zsuv, Kaykovus kanallari oqib o‘tadi.

Tumanda O‘zbek milliy akademik drama teatri, O‘zbekiston davlat drama teatri, O‘zbekiston davlat satira teatri, Rus yosh tomoshabinlar teatri, O‘zbek davlat sirki, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, “O‘zko‘rgazmasavdo” saroyi va boshqalar faoliyat yuritadi.

Tuman hududida respublika va mahalliy ahamiyatdagi me‘moriy yodgorliklar saqlangan: Ko‘kaldosh madrasasi (XVI asr), Shayx Zayniddinbobo maqbarasi, Nuriddinbobo maqbarasi (XVI asr), Xo‘ja Alambardor majmuasi (XIX asr), Shayx Xovandi Tohur (XV–XX asrlar) majmuasi, Suzukota majmuasi (XVI asr), Kohota majmuasi (XIX asr).

Shahar metropolitenining “Xalqlar do‘stligi”, “Paxtakor”, “O‘zbekiston”, Alisher Navoiy, G‘afur G‘ulom, “Chorsu”, “Tinchlik”, Beruniy metro bekatlari tuman hududida joylashgan.

YUNUSOBOD TUMANI. 1936-yil 26-avgustda tashkil topgan va Kirov rayoni deb atalgan. Mustaqillik yillarida, xususan 1992-yil 8-maydan boshlab ushbu tumanga Yunusobod nomi berildi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining “Toshkent shahridagi ayrim rayonlarning nomini o‘zgartirish to‘g‘risida” 1992-yil 8-maydagi 579-XII-son qarori). “Yunusobod” toponimi ushbu hududda ilgaridan mavjud aholi maskani, keyinchalik Toshkent mavzalaridan biri bo‘lgan joy bilan bog‘liq, tumanning shu nom bilan atalishi tarixiylik bilan uyg‘undir. Yunusobod nomining kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, joy nomi juda qadimiy bo‘lib, asli “Yunusrabot” deb atalgan. Bu o‘rinda “rabot” karvonsaroy ma‘nosida qo‘llanilgan. Shimoliy tomondan shaharga kiruvchilar shu joyda qo‘nib o‘tishgan. Mahalliy ziyolilarning fikricha, joyning nomi sebzorlik tadbirkor Yunushoji Nodirhoji o‘g‘li (XIX asr, Yunusobod Oqtepasida bog‘-rog‘lari bo‘lgan) haqidagi rivoyatlar bilan bog‘liq.

Tuman shaharning shimoliy qismida joylashgan. Amir Temur xiyobonidan boshlanib, shimol tomonga, Katta halqa yo‘ligacha davom etadi. Maydoni 40,99 kv. km. Aholisi 385,2 ming kishi atrofida. Ko‘chalar soni – 792 ta, mahallalar – 64 ta. Tuman hokimligi Amir Temur shohko‘chasi, 72-uyda joylashgan.

Tuman hududida “Turkiston” kinokonsert zali, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O‘zbekiston xalqlari tarixi davlat muzeyi, O‘zbekiston tasviriy san’at galereyasi, Toshkent hayvonot bog‘i, “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi faoliyat yuritadi. Toshkentning asosiy televizion minorasi tuman hududida joylashgan.

Yunusobod tumanidagi knyaz Romanov saroyi (1898), Yuridik instituti binosi (1878–83-yillar), Yunusobod Oqtepas (V–XII asrlar) respublika ahamiyatidagi me‘moriy yodgorlik hisoblanadi. Mustaqillik yillarida barpo etilgan “Mustaqillik va ezgulik monumenti” majmuasi (2005), Amir Temur haykali (1993), “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi (2002), Xotira maydoni (1999) shahardagi muhim me‘moriy yodgorlik majmualaridir.

Shahar metropolitenining “Mustaqillik maydoni”, Abdulla Qodiriy, “Minor”, “Bodomzor”, “Shahriston”, “Yunusobod”, “Turkiston” metro bekatlari tuman hududida joylashgan.

YAKKASAROY TUMANI. 1936-yil 26-avgustda Frunze rayoni nomi bilan tashkil qilingan. Mustaqillik davrida, joy nomlarini milliyalashtirish va ular-da tarixiylikni aks ettirish maqsadida, ba’zi tumanlarning nomlari o‘zgartirilib, mazkur tumanga 1992-yil 8-mayda Yakkasaroy nomi berilgan. Yangi nomlanish ushbu yerlarda mavjud Yakkasaroy nomli aholi punkti bilan bog‘liq (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining “Toshkent shahridagi ayrim rayonlarning nomini o‘zgartirish to‘g‘risida” 1992-yil 8-maydagi 579-XII-son qarori).

“Yakkasaroy” toponimining kelib chiqishi to‘g‘risida olimlar quyidagi taxminiy mulohazalarni bildirishadi: birinchi fikrga ko‘ra, ushbu toponim u joylashgan hududda yagona bo‘lgani uchun shunday nomlangan: yakka+saroy (yakkasaroy).

Agar xalqimizni qadimdan har ishda ijodkor hamda mehnatkashligini hisobga olsak, bu taxmin xalq etimologiyasi bo‘lib chiqadi.

Ikkinchi fikrga ko‘ra, mazkur joy nomida ikkita ma’noli bo‘lak bor: yakka va saroy. Yakka so‘zining yagona, noyob, tengi va o‘xshashi yo‘q ma’nolari bor. Saroy ikkita ko‘rinishdagi omonim so‘z bo‘lib, uning birinchi shakldosh so‘zining ma’nosi (saroy – turkiycha so‘z bo‘lib) o‘zbeklar tarkibiga kiruvchi urug‘-qabilalar uyushmasi. Ikkinchi omonim so‘zning esa quyidagi ma’nolari mavjud: “uy, boshpana; qasr; karvonsaroy; yopiqbozor; xon, amir, podshohlarning doimiy qarorgohi bo‘lib xizmat qilgan hashamatli katta bino; koshona; saroydagi davlat boshqaruvi; hokimiyat, saltanat; umuman, istiqomat qilish yoki biror ijtimoiy faoliyat uchun mo‘ljallab, zamonaviy me’morlik uslublarida qurilgan hashamatli katta bino va majmualar; karvonlar, savdogarlar qo‘nadigan, mehmonxonali, hovli va otxonali joy; karvonsaroy, rabot”.

Uchinchi fikrga ko‘ra, bu toponim birinchi omonimik so‘zning ma’nolaridan shakllangan joy nomidir. Chunki oldingi davrda saroy qabilalar uyushmasining urug‘lari markazga yaqin shahar va qishloqlarda istiqomat qilishgan. Toponimning shakllanishi uchun saroy etnonimi topoasos bo‘lgan va yakkasaroy etnotoponimi yuzaga kelgan.

Yakkasaroy tumani Toshkentning qisman markaziy hududidan o‘rin olgan. Shimolda Islom Karimov shohko‘chasidan, janubda O‘rta Osiyo temir yo‘ligacha cho‘zilgan. Maydoni 14,16 kv. km. Aholisi 139,7 ming nafar. Yakkasaroy tumani hududidan Salor kanali oqib o‘tadi. Jami ko‘chalar soni – 202 ta, mahallalar – 21 ta. Tuman hokimligi Bobur ko‘chasi, 4-uyda joylashgan.

Tuman hududida Bobur nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i, Respublika Baynalmilal madaniyat markazi, O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatri, O‘zbekiston amaliy san‘at muzeyi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi Markaziy ko‘rgazmalar zali, “Kosmonavtlar” metro bekati va Janubiy vokzal joylashgan.

Yakkasaroy tumanida Shoshtepa arxeologik yodgorligi, Toshkent qal’asi darvozasi (1880), Amaliy san‘at muzeyi binosi (XIX asr) kabi respublika ahamiyatiga molik me’moriy yodgorliklar saqlangan.

YASHNOBOD TUMANI. 1968-yilda tashkil qilingan va Hamza rayoni deb atalgan. Shaharning sharqiy tomonidagi hududni va qisman uning markaziy yerlarini ham o‘z ichiga olgan. Bu tumanda zilziladan keyingi davrda bir nechta aholi turar joy massivlari qurilgan, yirik sanoat obyektlari, yangi mavzelar, bog‘lar barpo qilingan. 2014-yilda tumanga Yashnobod nomi berilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2014-yil 29-avgustdagi SQ-441-II-son qarori). Ushbu nomda aholining hududni obod qilish bilan bog‘liq harakati, orzu-umidlari inobatga olinib, kelajakda mazkur tuman shaharning go‘zal, ko‘rkam, obod tumanlaridan biri bo‘lishiga bo‘lgan ishonch o‘z aksini topgan.

Tuman Amir Temur xiyoboni va Istiqbol ko‘chasi bo‘ylab Farg‘ona yo‘li ko‘chasigacha, Xonobodtepa shohko‘chasi hamda Chirchiq daryosi qayiri bo‘y-

lab o'tib Yangi O'zbekiston shohko'chasidan Parkent ko'chasigacha davom etadi. Maydoni 58,87 kv. km. Aholisi 309,7 ming nafar. Ko'chalar soni – 639 ta, mahallalar – 67 ta. Tuman hokimligi Farg'ona yo'li ko'chasi, 21-uyda joylashgan.

Tumandagi “Eski ToshMI” tibbiyot akademiyasi binosi (ilgarigi kadet korpusi) XIX asrda qurilgan, Rim-katolik cherkovi (Polsha kosteli binosi, 1914–17-yillar) respublika ahamiyatidagi me'moriy yodgorliklardir.

Yashnobod tumani hududida Fransiya, Turkiya, Xitoy, Indoneziya, Ukraina, Yaponiya davlatlari elchixonalari va Koreys milliy markazi joylashgan.

Shahar metropolitenining “Mashinasozlar”, “Do'stlik”, “Texnopark”, “Yashnobod”, “Tuzel”, “Olmos”, “Rohat”, “Yangiobod” metro bekatlari tuman hududida joylashgan.

YANGIHAYOT TUMANI. 2020-yilda Toshkent hududiga yangi yer maydonlarini qo'shib olish natijasida tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 29-mayda Sergeli tumaniga tashrifi paytida Toshkent viloyatidagi ayrim yer maydonlari hamda Toshkent shahridagi ikki tuman hududlaridan yangi shahar tumanini tashkil etish taklifi berilgan bo'lib, ushbu taklif deputatlar tomonidan ma'qullangan. Yangi tuman tashkil etishning maqsadi – Sergeli tumanida istiqomat qiluvchi aholining turmush tarzini yaxshilash va bu yerdagi infratuzilmani samarali tashkil etish zaruratidan kelib chiqilgan. Yangihayot tumanini tashkil etish haqidagi Qaror Oliy Majlis tomonidan 2020-yil sentyabrda tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2020-yil 8-sentyabrdagi 443-IV-son qarori).

“Yangihayot” nomi ushbu hududda “yangi, zamonaviy, obodonlashtirilgan turar joy barpo etish” ma'nosini anglatadi. Aslida “Yangihayot” toponimi qo'shma so'z bo'lib, “yangi” va “hayot” komponentlaridan tashkil topgan. Lug'aviy ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, “yangi” – bu “endigina shakllangan, avvalgilardan farq qiladigan, hozirgi davrda shakllangan”; “hayot” – bu “inson yashashi”, “jamiyat faoliyati”, “turmush”, “tirikchilik” ma'nolarini bildiradi. Shuningdek, ushbu so'zning “hovli-joy”, “tevaragi devor bilan o'ralgan joy”, “tomorqa, bog'rog'” ma'nolari ham bor. Bularni inobatga olib, “Yangihayot” – yangidan barpo qilingan, bog'li hududda tashkil etilgan aholi punkti, deb izohlash ham mumkin.

Mazkur tuman uchun quyidagi yerlar ajratilgan: Toshkent shahar Sergeli tumanidan – 1864,2 ga, Bektemir tumanidan – 267 ga, Toshkent viloyati Zangiota tumanidan – 492 ga, Quyi Chirchiq tumanidan – 128,7 ga, Yangiyo'l tumanidan – 264,4 ga, O'rta Chirchiq tumanidan – 1403,3 ga. Yangihayot tumani maydoni 44,23 kv. km ni tashkil etadi. Aholisi 188,2 ming kishi. Tumandagi ko'chalar soni – 288 ta, mahallalar – 30 ta. Tuman hokimligi Yo'ldosh-2 dahasi, 25a-uyda joylashgan.

Toshkent yer usti metrosi Sergeli yo'lining quyidagi 5 ta bekati Yangihayot hamda Sergeli tumanlari chegarasi bo'ylab joylashgan: “Choshtepa”, “O'zgarish”, “Sergeli”, “Yangihayot”, “Chinor”. Shuningdek, tuman hududida “Qipchoq”, “Turon” metro bekatlari mavjud.

TOSHKENT SHAHRINING MAHALLA, DAHA, MAVZELARI

ABAY – Bektemir tumanidagi mahalla nomi. Bu nom mashhur qozoq shoiri Abay Qo‘nonboyev sharafiga qo‘yilgan. “Mirishkor”, Husayn Boyqaro, “Bektemir”, Iykota, “Iqbol”, “Chashma”, “Gulbog‘” mahallalari bilan chegaradosh.

Abay Qo‘nonboyev – qozoq shoiri, faylasufi, yozuvchisi, qozoq yozma adabiyoti asoschisi, tarjimon va bastakor. Abayning asl ismi Ibrohim Qo‘nonboyev bo‘lib, 1845-yilning 10-avgustida Qozog‘istonning Semipalatinsk uyezdiga qarashli Chingiztov rayonida chorvador oilasida tug‘ilgan. Uning otasi Qo‘nonboy O‘skonboy o‘g‘li qozoq urug‘lari ichidagi badavlat insonlardan edi. Ibrohimning onasi va buvisi yoshligidan erkalatib Abay (ehtiyotkor, o‘ychan ma’nosida) deb chaqirishar edi. Keyinchalik bu nom shoirning taxallusiga aylangan.

Abayning juda ko‘p o‘lanlari xalq orasida mashhur, u o‘z she‘rlariga xalq kuylari asosida kuy bastalagan. O‘z davrining ilg‘or g‘oyali ziyolisi bo‘lgan Abay ma’rifatparvarlik harakatiga boshchilik qilgan.

ABDULLA AVLONIY – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda tashkil topgan. (“Mirobod” mahallasidan ajralib chiqqan). “Mirobod” mahallasi hududida yashab, ijod etgan ma’rifatparvar Abdulla Avloniy xotirasiga shu nom bilan atalgan. Hamid Sulaymonov, Oybek, “Yangi Mirobod”, “Salor”, “Mirobod”, “Lolazor” mahallalari bilan chegaradosh.

Abdulla Avloniy – (1878-yil 12-iyul, Toshkent – 1934-yil 25-avgust, Toshkent) – XIX asr oxiri – XX asr boshidagi o‘zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri, ma’rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi edi.

Avloniy madrasani bitirib, maktabdorlik bilan shug‘ullangan. O‘qish va o‘qitish usuliga isloh kiritib, yangi uslubdagi maktab tashkil etgan va yosh pedagog-o‘quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, Sharq va G‘arb tillarini o‘rgatish kabi muhim ta’lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirgan.

Abdulla Avloniy maktab o‘quvchilari uchun “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” (1912), “Tarix”, “Turkiy Guliston yoki axloq” (1913) kabi zamonasi uchun hodisa bo‘lgan darsliklarni yozgan.

ABDULLA QAHHOR – Yakkasaroy tumanidagi mahalla nomi. 1890-yil “Guberbog‘” deb nomlangan. Ikkinchi jahon urushi yillarida (1942) Toshkentga Rossiyadan zavodlar ko‘chirib keltirilgani sababli, mahalla nomi o‘zgartirilib, “Zavod” mahallasi deb atalgan. 1985-yilda O‘zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor nomi berilgan. “Damariq”, Hamid Sulaymonov, Bobur, “Konstitutsiya”, “Muhandislar”, Shohjahon mahallalari bilan chegaradosh.

Abdulla Qahhor 1907-yil 17-sentyabrda Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq yozuvchisi (1967). Abdulla Qahhor ijodiy hayoti davomida

40 dan ziyod asarlarni eʼlon qilgan. Bu kitoblar orasida 30 ga yaqin hikoyalar ham boʻlib, ular oʻzbek adabiyotida hikoya janrining badiiy ufqlarini kengaytirgani bilan nihoyatda ahamiyatlidir. Abdulla Qahhor yozuvchi sifatida oʻzbek tilini nozik his etuvchi va uning boy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanuvchi qalamkash edi. U oʻzining nasriy asarlarida ham, komediyalarida ham tildan foydalanish va ona tilining cheksiz imkoniyatlarini namoyish etishning ajoyib namunalaridan foydalangan va oʻz ijodi bilan oʻzbek adabiy tilining kamol topishiga oʻzining ulkan hissasini qoʻshgan. Abdulla Qahhor Hamza nomidagi Oʻzbekiston Davlat mukofoti (1966) laureati. Vafotidan soʻng “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan (2000).

ABDULLA QODIRIY – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. Mahalla 1969-yilda tashkil topgan. Mahalla hududida yozuvchi Abdulla Qodiriyning qarindosh-urugʻlari istiqomat qilayotganlari sababli shu nom bilan atalgan. “Sharq yulduzi”, “Koʻkcha-Oqtepa”, Jurjoniy, “Davlatobod”, Hayratiy, “Beshqayragʻoch”, “Nishabariq”, “Latifguzar” mahallalari bilan chegaradosh.

Abdulla Qodiriy (asosiy taxalluslari: Qodiriy, Julqunboy) (1894.4.10 – Toshkent – 1938.10.4) – XX asr yangi oʻzbek adabiyotining ulkan namoyandasi, oʻzbek romanchiligining asoschisi, 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi.

Abdulla Qodiriy Musulmon (1904–06), rus-tuzem maktablarida (1908–12), Abulqosim shayx madrasasida (1916–17) taʼlim olgan; Moskvadagi adabiyot kursida (1925–26) oʻqigan. “Oʻtkan kunlar” (1924–26), “Mehrobdan chayon” (1929) romanlari, “Obid ketmon” (1934) qissasi yozuvchining ulkan mahoratini oʻzida mujassam etgan. Abdulla Qodiriy 1926-yilda “Mushtum”da bosilgan “Yigʻindi gaplar” maqolasi tufayli qisqa muddat qamalgan. 1937-yilning 31-dekabrida esa “xalq dushmani” sifatida ikkinchi bor qamoqqa olinib, 1938-yilda Toshkent shahrida otib tashlangan. Uning asarlari 1956-yildan boshlab oqlangan. 1990-yilda Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Farmoni bilan Abdulla Qodiriy nomidagi Respublika Davlat mukofoti taʼsis etilgan. 1991-yili Abdulla Qodiriyga Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berilgan, 1994-yilda “Mustaqillik” ordeni bilan taqdirlangan.

ABDURAUF FITRAT – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1961-yilda tashkil topgan. 1992-yilda yozuvchi, davlat va jamoat arbobi Fitrat nomi bilan atalgan. Banokatiy, “Qorasuv”, Furqat, “Sarikoʻl”, “Oltinkoʻl”, “Inoqobod”, “Yangizamon” mahallalari bilan chegaradosh.

Abdurauf Fitrat (1886, Buxoro shahri – 4-oktyabr, 1938, Toshkent shahri) – oʻzbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoir, zamonaviy oʻzbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri, Oʻrta Osiyo jadidchiligining taniqli vakili, birinchi oʻzbek professori.

Oʻsmirlik yillari u Mijmar (“choʻgʻdon”) taxallusi bilan, soʻngra Fitrat (“tugʻma isteʼdod”) taxallusi bilan ijod qilgan. Fitrat ayni paytda tashkilotchilik

faoliyati bilan ham shug'ullanib, 1921–1923-yillarda Buxoro Xalq Jumhuriyatida maorif xalq noziri bo'lib xizmat qilgan. 1921-yilda Sharq musiqa maktabini tashkil etgan. Maktabga mumtoz musiqa bilimdonlari bilan birga V.A. Uspenskiy singari musiqashunoslarni ham taklif etgan. Shuningdek, u “Shashmaqom” kuylarini to'plash va notaga yozib olish ishlariga ham rahbarlik qilgan. Fitratning o'zbek tili grammatikasiga oid darsliklari 1925–1930-yillarda besh marta chop etilgan. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo'yicha olib borgan tadqiqotlari uchun Fitratga o'zbek olimlari orasida birinchilardan bo'lib professor unvoni berilgan.

Fitrat 1938-yil 4-oktyabrda Abdulla Qodiriy, Cho'lpon singari yozuvchilar bilan birga otib tashlangan. 1991-yil 25-sentyabrda Fitrat o'zbek adabiyotini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti bilan taqdirlangan.

ABU BAKR SHOSHIY – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1990-yilda Ismoil Shoshiy nomi bilan tashkil etilgan. Ushbu mahallaga “Sur'at” mahallasi birlashgan. Mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda Abu Bakr Shoshiy deb qayta nomlangan. Hastimom, Hofiz Ko'hakiy, “Guzarboshi”, Hazrati Imom, “Qo'shtut”, “Zarhal” mahallalari bilan chegaradosh.

Abu Bakr Shoshiy, Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn al-Husayn ibn Umar al-Imom al-Kabir, Faxr ulislom (429/1038, Shosh – 507/1114, Bag'dod) – fiqhshunos. Fiqh ilmini Bag'dodda Muhammad ibn Bayon al-Kazruvniy, Qozi Abu Mansur at-Tusiy, Shayx Abu Muhammad al-Juvayniy, Abu Nasr as-Sibog'lardan o'rgangan. Shayx Abu Is'hoq Sheroziyning yaqin shogirdi bo'lgan. Keyinchalik ulug' imom (al-Imom al-Kabir) darajasiga yetgan va Islom faxri (Faxr ul-islom) sifatida el-yurt orasida shuhrat qozongan. Bag'doddagi “Nizomiya” madrasasida mudarrislik qilib, ko'p shogirdlar yetishtirgan.

AVAYXON – Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla nomi. XX asrning 2-yarmida tashkil topgan. “Katta Oltintepa”, “Oltintepa”, “Minglola”, “Yangi Avayxon”, “Gulzorobod”, “Ko'hna Mevazor”, “Temuriylar”, Alisher Navoiy mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi Abdulmansur, keng jamoatga Ablayxon nomi orqali tanilgan tarixiy shaxs bilan bog'liq. Ablayxon (1711–1781) – Qozoq xonligi tarixidagi muhim shaxslardan biri bo'lib, jung'orlar bosqini paytida yurt himoyasi uchun jonbozlik namoyish etgan. Mahalla hududida Avayxon qabristoni mavjud.

AVIASOZLAR – Yashnobod tumanidagi mahalla va mavzelarning nomi. Mahalla 1992-yilda tashkil topgan, nomi 1946-yilda Rossiyadan aviatsiya zavodining Toshkentga ko'chirib kelinishi bilan bog'liq. Mahalla hududida, asosan, shu kasb egalari uchun ko'p qavatli uylar qurilgan. “Fazogir”, Maxmur, “Yashnobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Tumanda Aviasozlar-1, Aviasozlar-2, Aviasozlar-3, Aviasozlar-4 mavzelari mavjud. 2009-yilgacha mavzelar Lisunov (LI-2 samolyoti muallifi) nomi bilan atalgan. Turar joylar, ma'muriy binolar va inshootlar, asosan, aviasozlarga qarash-

li bo‘lgani uchun hamda daha nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, 2009-yilda “Aviasozlar” deb qayta nomlangan.

ADOLAT – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 2005-yil 22-aprelda “Navro‘z” mahallasi ikkiga bo‘linib, ushbu mahallaga “Adolat” nomi berilgan. “Qo‘shchinor”, “Turkiston”, “Anorzor”, “Billur”, “Husniobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Mazkur nom Mustaqillik davridan keyin atalgan bo‘lib, u *“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da* quyidagicha izohlangan: “Odilona ish tutish, odillik” (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I jild, 41-bet).

Shu sababli, mahalla nomi “haqqoniylik va to‘g‘rilik tamoyillariga asoslangan mahalla” yoki “adolatparvarlikni ulug‘laydigan turar joy hududi” deb talqin qilinadi. Bu turdagi nomlar mahallaga nisbatan odob-axloq yoki qadriyatlarini ifodalash maqsadida qo‘yiladi.

AZAMAT – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 1982-yilgacha Ташавтомаш massivi, 1991-yilgacha TTZ-4, 1991-yildan “Azamat” mahallasi deb atalgan. Munavvarqori, “Ahillik”, “Yuzrabot”, “Traktorsozlar” mahallalari bilan chegaradosh.

Azamat – arabcha so‘z bo‘lib, *“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da* quyidagicha izohlangan: “Buyuklik, kattalik; faxr, g‘urur; ko‘rinish-tuzilishi e‘tibori bilan juda katta; haybatli, ulkan; katta kuch-quvvatga ega; qudratli; g‘ayrat-shijoatli; bahodir, botir; jismonan yetuk, zabardast” (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I jild, 48-bet).

AKBAROBOD – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. Mahalla boburiy shohlardan Akbarshoh nomi bilan ataladi. “Ahilobod”, “Yunusobod”, “Qadrdon”, “Yangibog‘”, “Bog‘ishamol”, “Billur”, “Husniobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Akbarshoh qariyb ellik yil – 1556-yil boshidan to 1605-yil oxiriga qadar Hindistonni boshqargan. Akbar – Bobur boshlab bergan sulolaning uchinchi hukmdori edi, hokimiyati harbiy kuchga tayanardi. Ayni Akbar zamonida Mo‘g‘ullar sulolasi qaror topib, hindcha qiyofa kasb etdi. Xuddi Akbar davrida Buyuk Mo‘g‘ul iborasi Yevropada rasm bo‘ldi.

AL-BUXORIY – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 2001-yildan Al-Buxoriy nomi bilan atalgan. “Tong”, “Vatandosh”, “Uchchinor”, “Mohinur”, “Go‘zal” mahallalari bilan chegaradosh.

Al-Buxoriy (asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al-Buxoriy) (milodiy 810-yil 21-iyun, Buxoro – milodiy 870-yil 31-avgust, Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog‘i) – islom olamining yirik mutafakkiri. Muhaddislar imomi, hadis ilmining sultoni deb ham yuritiladi.

ALGORITM – Chilonzor tumanidagi dahalar nomi. Algoritm va Algoritm-G35 dahalari ushbu hududda 1982-yilda qurilgan elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqaradigan ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati – “Algoritm” zavodi nomi bilan atalgan. Zavod dastlab “Agat” deb nomlangan sanoat elektron hisoblash

mashinalarini ishlab chiqargan. Asosan elektr energiyasi elektron hisoblagichlari, davlat avtomobil raqami belgilari, maishiy elektrotexnika mahsulotlari, nostandart uskunalar ishlab chiqilgan. Zavodda 39 millatga mansub insonlar ishlashgan.

Algoritm dahasi Al-Xorazmiy, “Bekto‘pi” mahallalarida, Algoritm-G35 dahasi Al-Xorazmiy mahallasida joylashgan.

Algoritm, algorifm – ma’lum bir turga oid masalalarni yechishda ishlatiladigan amallarning muayyan tartibda bajarilishi haqidagi aniq qoida (dastur). Kibernetika va matematikaning asosiy tushunchalaridan biri. O‘rta asrlarda sanoqning o‘nli tizimi bo‘yicha to‘rt arifmetik amal bajariladigan qoidani Algoritm deb atashgan. Bu qoidalarni matematikaga IX asrda buyuk bobokalonimiz – matematik al-Xorazmiy kiritgan. Yevropada bunday qoidalar uning tug‘ilgan yurtiga nisbatan lotinchalashtirilgan (Algoritmus yoki Algorithmus shaklida “algorizm” deyilgan), keyinchalik “algoritm”ga aylangan.

ALIMKENT – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1991-yilda tashkil topgan va Ulug‘bek nomi berilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Alimkent” deb qayta nomlangan. Maxmur, “Qadriyat”, Ahmad Yassaviy, “Yashnobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi Toshkent viloyati Oqqo‘rg‘on tumanidagi shu nomdagi joy nomi bilan atalgan. Mazkur nom ikki qismdan iborat bo‘lib, apellyativning birinchi qismi “Olim” antroponimi sanaladi, uning ikkinchi komponenti “kent” – “aholi punkti” ma’nosini anglatadi.

ALIXONTO‘RA SOG‘UNIY – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. Mahalla yirik alloma Alixonto‘ra Sog‘uniy nomi bilan atalgan. “Bahoriston”, “Diyorobod”, “Guliston”, “Qoziguzar”, “Yangiyo‘l”, “Diydor” mahallalari bilan chegaradosh.

Din va davlat arbobi, yetuk olim, mohir tarjimon Alixonto‘ra Sog‘uniy hazratlari 1885-yil 21-martda sobiq Turkiston o‘lkasining To‘qmoq shahrida tug‘ilgan. Sog‘uniy taxallusi tug‘ilgan shahrining nomi – Bolasog‘un bilan bog‘liq. U kishi avvaliga Buxoro shahridagi “Mir Arab” madrasasida, keyinchalik esa Madinai munavvaradagi dorulfununlardan birida tahsil olgan. Alixonto‘ra Sog‘uniy – Sharqiy Turkiston muvaffaq hukumatining raisi. Alixonto‘ra hazratlari tarixiy me’morlik obidalari va qadimgi qo‘lyozmalarni saqlab qolishda jonkuyarlik qilgan. Darhaqiqat, ustoz ilmu hikmatning bir-ikki sohasida emas, balki qiroat, tafsir, hadis, fiqh, nahv, balog‘at, mantiq, tabobat, tarix, siyrat, geografiya, nazmu nasr va boshqa fanlar bo‘yicha ham yetuk mutaxassis hisoblangan. Umrining oxirgi yillari Toshkentda yashagan va 1976-yilda Shayx Zayniddinbobo qabristoniga dafn etilgan.

ALISHER NAVOIY – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 1966-yil tashkil etilib, Alisher Navoiy nomi bilan atalgan. “Temuriylar”, Shukur Burhonov, “Alpomish”, “Minglola”, “Katta Oltintepa”, “Katta Qorasuv”, Avayxon mahallalari bilan chegaradosh.

Alisher Navoiy (1441–1501) – buyuk shoir va mutafakkir, o‘zbek adabiy tili asoschisi va davlat arbobi. To‘liq ismi Nizomiddin Mir Alisher. Navoiy hamda Foni taxalluslari ostida chig‘atoy (eki o‘zbek tili) hamda forsiyda (fors tilidagi asarlarida) ijod qilgan. Alisher Navoiy butun hayoti davomida adabiy asarlarni siyosat bilan birlashtirgan. Yuqori mansabga ega shaxs bo‘la turib, u mamlakat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy takomillashishiga katta hissa qo‘shgan; ilm, fan, san‘at rivojiga homiylik qilgan; tinchlik va totuvlik hukmron surishiga doim harakat qilgan. Hirotida tug‘ilgan va o‘sha yerda dafn etilgan.

ALISHEROBOD – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 1996-yilda tashkil topgan. Mahalla o‘zbek adabiyotiga o‘zining betakror ijodiy merosi bilan ulkan hissa qo‘shgan Alisher Navoiy nomini abadiylashtirish maqsadida ushbu nom bilan atalgan. Mahallada ilk bor barpo etilgan ko‘cha ham Alisherobod deb yuritilgan. 2021-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga o‘tkazilgan. “Zakovat”, “Geofizika”, “Jasorat”, “Sarbon”, “Jarboshi”, “Ijodkor”, “Temuriylar” mahallalari bilan chegaradosh.

Alisher – buyuk o‘zbek mutafakkiri va shoiri Alisher Navoiy ismi, “obod” – forsha kelib chiqishga ega qo‘shimcha bo‘lib, “ravnaq topgan”, “obod qilingan joy” degan ma‘nolarni anglatadi.

ALLON – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1931-yilda tashkil qilingan. “Allon” so‘zi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” va Navoiy asarlarida “Olong” (tepalik, past-balandlik ma‘nosida) shaklida uchraydi. Darhaqiqat, “Allon” Binkat atrofida, shahar devoriga yaqin joydagi tepalik yerda vujudga kelgan. “Quyosh”, “Chimboy”, “Zamondosh”, “Orzu”, “Chig‘atoy Darvoza”, “Ziyo”, “Universitet” mahallalari bilan chegaradosh.

ALPOMISH – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. Mahalla 1984-yilda tashkil topgan bo‘lib, dastlab “Vatan” deb nomlangan. 2005-yildan boshlab o‘zbek xalq qahramonlik dostoni bosh qahramoni “Alpomish” nomi bilan qayta nomlangan. Nodirabegim, “Katta Oltintepa”, “Bo‘z”, Shukur Burhonov, “Podshobog‘”, “Elobod”, “Olimlar”, “Bahor”, Alisher Navoiy mahallalari bilan chegaradosh.

“Alpomish” – o‘zbek xalqining ming yillar davomida yaratilgan qahramonlik dostoni. U xalqimiz orasida juda keng tarqalgan va asrlar davomida baxshilar tomonidan kuylab kelingan. Doston asrlar davomida avlod-ajdodlar, yoshlarning ma‘naviyati, madaniyati, axloq-odobi, ulardagi Vatan, millat tuyg‘ularini o‘stirish, shuningdek do‘st-birodarlik, oriyat, mardlik, bahodirlik, pahlavonlik, qat‘iyatlilik kabi fazilatlarini shakllantirish va kamolga yetkazishda muhim tarbiya vositasi bo‘lib kelgan.

AL-FARG‘ONIY – Yangiheyot tumanidagi mahalla nomi. 1966-yilda Sergeli tumanida tashkil etilgan. Shu yildan “Yo‘ldosh” nomi bilan atalgan. 1998-yilda mahalla hududi ikkiga bo‘linib, Al-Farg‘oniy mahallasi tashkil etilgan. Mahalla 1966-yildagi Toshkent zilzilasidan so‘ng qurilganligi sababli uning hududida-

gi uylar rossiyalik quruvchilar uchun berilgan. 2021-yilda Yangihayot tumani-ga o'tkazilgan. "Nurhayot", "Nilufar", "Ittifoq", "Fayzli", "Viqor", "Yo'ldosh" mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi buyuk o'zbek olimi – matematigi, astronomi va geografi Abu Nasr al-Farg'oni (797–865) (Alfraganus) sharafiga qo'yilgan.

Olimning to'liq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oni'dir. Manbalarda uning farg'onalik ekanligidan tashqari deyarli boshqa ma'lumotlar saqlanmagan. U IX asrda yashab, astronomiya, matematika, geografiya sohalarida umrboqiy asarlar yaratgan.

AL-FOROBIY – Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla nomi. Mahalla nomi qomuschi olim Al-Forobiy sharafiga qo'yilgan. Humoyun, Ahmad Yugnakiy, "Beshkapa" mahallalari bilan chegaradosh.

Al-Forobiy (to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon Forobiy) (873, Farob shahri – 950, Damashq) – O'rta Osiyoning ulug' mutafakkiri va qomusiy olimi. O'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji uning nomi bilan bog'liq. Forobiy o'z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo'shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug'lanib, "Al-Muallim as-soniy" – "Ikkinchi muallim" (Aristoteldan keyin), "Sharq Arastusi" deb yuritilgan.

AL-XORAZMIY – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1992-yilda shu nomda tashkil qilingan. "Bekto'pi", "Diyorobod", "Guliston" mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi Abu Ja'far (Abu Abdulloh) Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783, Xiva – 850, Bag'dod) – xorazmlik matematik, astronom, geograf, fan tarixidagi ilk qomusiy olimlardan biri nomiga qo'yilgan.

"Algebra" so'zi allomaning Al-Jabr kitobi nomidan olingan. Borlig'imizni qamrab turuvchi har qanday texnologiyalar uchun asos sifatida xizmat qiladigan fan nomidagi "Algoritmi" atamasi esa aynan olimning Al-Xorazmiy ismidan olingan. Yevropalik olimlar bir necha asrlar davomida barcha hisob-kitoblarning tagiga "diksiti Algoritmi" ya'ni "Al-Xorazmiy shunday deydi" deb qo'shib ketishni o'zlariga sharaf deb bilishgan. Bu olimlarning hisob-kitoblarni aynan ulug'alloma al-Xorazmiy ko'rsatmalari asosida o'tkazganini bildirar edi. Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiyning qilgan buyuk xizmatlariga e'tirof o'laroq 1976-yili Sayyoralar tizimini nomlash ishchi guruhi oyning 7.0N, 107.0E sonli kraterini Al-Xorazmiy nomi bilan atashgan.

AMIR TEMUR – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1988-yilda tashkil etilgan. 1970-yilga qadar Qibray tumani jamoa xo'jaligiga qarashli bog' (uzumzor, olmazor) bo'lgan. Ko'p qavatli uylar qurilishi munosabati bilan shahar ixtiyoriga o'tkazilib, mahalla tashkil topgan. 1991-yilda Amir Temur nomi berilgan.

“Vatandosh”, “Fidoyilar”, “Mohinur”, “Navro‘zobod”, “Tuzel”, “Birlashgan”, “Ko‘hna Mevazor” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi Amir Temur (to‘liq ismi Amir Temur ibn Amir Tarag‘ay ibn Amir Barqul) (1336.9.4, Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xoja Ilg‘or qishlog‘i (hozirgi Yakkabog‘ tumani) – 1405.18.2, O‘tror shahri, Samarqandda dafn etilgan) – o‘rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi sharafiga qo‘yilgan.

ANORZOR – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1987-yilda tashkil topgan. Shu hududdagi jamoa xo‘jaligida 42 yil rais bo‘lib ishlagan G‘ulommahmud Abdullayev nomi berilgan. Joyning tarixiy nomini tiklash maqsadida, 2013-yilda “Anorzor” deb qayta nomlangan. “Qo‘shchinar”, “Adolat”, G‘ayraty, “Yunusobod”, “Shahriston”, “Husniobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Anorzor – anor yetishtiriladigan hudud. Ushbu nom *“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”*da shunday izohlanadi: “Anor bilan band yer, bog‘” (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I jild, 87-bet). Anor qadimdan O‘zbekistonda mashhur bo‘lgan meva bo‘lib, unumdorlik, farovonlik va go‘zallik timsoli hisoblanadi.

ARG‘IN – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga o‘tkazilgan. “Tashisti”, “Mohirlar”, “Bog‘bon”, “Hilol” mahallalari bilan chegaradosh.

Argin (shakllari: arg‘in, argun) – turkiy qabila nomi bo‘lib, Mahmud Koshg‘ariyning asarida Amudaryo bo‘ylarida argu shaklida qayd etilgan, qadimda Movarounnahrda yashashgan.

Arg‘in etnonimi qozoqlar, qirg‘izlar, boshqirdlar, xakaslar va tatarlar tarkibida ham uchraydi. Argin so‘zi (o‘zagi – arg‘) mo‘g‘ulchadan kelib chiqqan bo‘lib, “chatishma” ma‘nosini ifodalaydi. Tarixiy manbalarda, jumladan, “Boburnoma”da va Mulla Sayfiddin Axsikandiyning “Majmuat at-tavorix” (XVI) asarida bu urug‘ nomi arg‘un shaklida qayd etilgan.

Ayrim manbalarda mazkur etnonimni mo‘g‘ulcha arg‘in (o‘zagi ar-) – “duragay” so‘zidan kelib chiqqanligi ta‘kidlanadi. Arg‘in etnonimi, masalan, qirg‘iz tilida hozir ham shu ma‘noni anglatadi.

ARMUG‘ON – Yakkasaroy tumanidagi mahalla nomi. “Boshliq” mahallasi negizida 2015-yilda tashkil etilgan yangi mahalla. “Oltinvodiy”, “Qushbegi”, “Damariq”, “Boshliq”, “Zaminobod”, Bobur, “Muhandislar” mahallalari bilan chegaradosh.

“Armug‘on” – bu so‘z fors tilidan kirib kelgan bo‘lib, “sovg‘a”, “tuhfa” yoki “hadya” ma‘nolarini bildiradi. U odatda samimiy ehtirom, hurmat va muhabbat ramzi sifatida taqdim etiladi. “Armug‘on” hayotdagi tajriba, o‘git yoki ma‘rifat timsoli sifatida ham talqin qilinishi mumkin.

ASAKA – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 1992-yilda “Salor” nomi bilan tashkil topgan. Joydagi asosiy ko‘cha nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, 2016-yilda “Asaka” deb qayta nomlangan. Cho‘lpon, “Lashkarbe-

gi”, “Nur”, “Mustaqillik”, Hamid Olimjon, Mirzakalon Ismoiliiy mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla va ko‘cha nomi Andijon viloyatidagi Asaka shahridan olingan bo‘lib, bu shahar 1937-yildan beri mavjud va Asaka tumanining ma‘muriy markazi hisoblanadi.

Mutaxassislar Asaka nomining kelib chiqishini turlicha talqin qilishgan. Ayrim tadqiqotchilar Asaka nomining paydo bo‘lishini Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi VI–V asrlarda yashagan sak qabilalari nomi bilan bog‘lashadi. Chunki bu qabila ba‘zi tarixiy manbalarda “assakenlar” nomi bilan ham tilga olingan. Ularda “*asvaka*” – ot, “*assaka*” – otiqlar ma‘nosini bildirgan. Qadimshunoslar vodiyni sharqiy qismida topilgan toshlardagi otlar tasviri bilan o‘z fikrlarini asoslashga harakat qilishgan va shu hududda qadimda nasldor otlar boqilgan, degan xulosaga kelishgan.

Rus tarixchisi B.A. Litvinskiy Asaka tarixini Farg‘onada miloddan avvalgi VI–V asrlarda yashagan sak qabilalari bilan bog‘laydi. Taniqli olim qadimgi yunon va hind manbalariga asoslanib, o‘tmishda Pomirda yashovchi sak qabilalarining yurti Assakana, xalqi esa assake(n)lar deb atalganligi, A.Makedonskiy O‘rta Osiyodan keyin, ana shu yo‘l orqali Hindistonga o‘tganligini ta‘kidlaydi.

Arxeolog olim B.X. Matboboyev esa Asaka tarixini Dayyuan (qadimgi Farg‘ona) davlati tarixi bilan bog‘liq deb hisoblaydi. Uning talqinicha, Asaka so‘zi jonli hind tilida “*asvaka*” – ot, “*assaga*, *assaka*” – otiqlar, chavandozlar degani, ya‘ni assaka – otiqlar yurti deb e‘tirof etadi. Shu xulosaga asoslanib, 1997-yili Asaka shahriga kiraverishdagi maydonda tulpor otning ramziy haykali o‘rnatilgan.

Taniqli nomshunos olim S.Qorayevning yozishicha, ba‘zi nasabnomalarda o‘zbek urug‘lari orasida asaka va qirg‘izlarning sayaq qabilasi tarkibida asake urug‘i qayd qilingan.

Shu o‘rinda B.Ahmedovning Asaka nomini “ass” urug‘i bilan bog‘liq degan xulosasini ham aytish mumkin. Olimning fikricha, hozirgi Asaka va uning atrofidagi adir va vodiylarda ilk o‘rta asrlarda “ass” etnik guruhi vakillari yashaganlar. Bu mulohazani tarixchi A.Muhammadjonov ham tasdiqlaydi va uning fikricha, Asaka aslida Assikal shaklida talaffuz etilib, ass – turkiy urug‘, kal – suv yoki soy demakdir.

ASALOBOD – Yashnobod tumanidagi mahalla va mavzelarning nomi. Mahalla dastlab J.Shaxbozov nomi bilan atalgan. 2011-yilda “Asalobod” deb qayta nomlangan. “Jarqo‘rg‘on”, Maxmur, “Yangidavr”, “Beshbola”, Muxtor Ashrafiy, “Fazogir”, “Xosiyatli”, Ahmad Yassaviy mahallalari bilan chegaradosh.

Asalobod-1 va Asalobod-2 mavzelari “Asalobod” mahallasida joylashgan. Joydagi tub aholi qadimda asalarichilik bilan shug‘ullangani uchun, mahalla shunday atalgan. “Asal” – shirinlik va totlilik ramzi bo‘lib, asalari mahsuloti yoki shirin hayotni anglatadi. “Obod” – o‘zbek tilida “ravnaq topgan”, “taraqqiy etgan”, “yashash uchun qulay” degan ma‘nolarni bildiradi. Shu sababli, “Asal-

obod” nomi “shirin va farovon joy”, “go‘zal va obod maskan” yoki “asarlari boqiladigan hudud” degan ma’nolarni bildiradi.

ASROBOD – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda tashkil topgan. Dastlab “Obod” nomi bilan yuritilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Asrobod” deb qayta nomlangan. Mahalla yaqinida “Asrobod” nomli yer usti transporti bekati mavjud bo‘lib, jamoat transporti orqali hududga yetib borish imkonini beradi. Mahalla nomining kelib chiqishi shundan. “Qo‘shqo‘rg‘on”, “Sultonobod”, “Qumariq”, “Ko‘hna Qumariq” mahallalari bilan chegaradosh.

“Asrobod” so‘zi ikki qismdan tashkil topgan: “Asr” – arabcha so‘z bo‘lib, “davri”, “zamon” ma’nolarini anglatadi. “Obod” – forsha “go‘zal joy”, “obod shahar” degan ma’nolarni bildirib, ko‘plab tarixiy shaharlar nomlarida uchraydigan qo‘shimchadir.

Shu tariqa “Asrobod” so‘zi “davrlar davomida obod bo‘lgan shahar” yoki “davrlarning go‘zal shahari” degan ma’nolarni ifodalashi mumkin.

ASTROBOD – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1975-yildan shu nomda. “Sobiobod”, “Nurmakon”, “Turkiston”, “Tiklanish”, “Billur” mahallalari bilan chegaradosh.

Astrobod – o‘rta asr shaharlaridan biri. Hozirgi Eronning shimolida joylashgan shahar bo‘lib, 1930-yildan Go‘rgon deb atalgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Alisher Navoiy bu shaharda 1486–1487-yillari hokim bo‘lgan.

AT-TERMIZIY – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda tashkil topgan. Shu yili mahalla hududida Imom at-Termiziyning tavalludi nishonlanib, mahallaga uning nomi berilgan. “Bog‘saroy”, “Farovon”, “Afrosiyob”, Yunus Rajabiy mahallalari bilan chegaradosh.

Jahonshumul ahamiyatga ega asarlar yaratgan buyuk allomalardan biri – mashhur muhaddis (hadis ilmi olimi) Abu Iso Muhammad at-Termiziydir. Uning to‘liq ismi Abu Iso Muhammad ibn Savra ibn Muso ibn ad-Dahhok as-Sullamiy (umrining oxirlarida ko‘zi ojiz bo‘lib qolganligidan ad-Dariyr taxallusi bilan ham atalgan) at-Termiziy bo‘lib, u hijriy hisobda 209 (milodiy 824)-yilda Termizda tavallud topgan. Imom Buxoriy, Imom Muslim, Abu Dovudlardan dars olgan. Imom at-Termiziyning eng mashhur kitobi “Al-Kitab al-azim”dir (“Al-Jome‘ as-sahih”), u “Sahihi Termiziy”, “Sunani Termiziy” nomlari bilan mashhur bo‘lib, “Olti sahih”ning to‘rtinchisi hisoblanadi. Undagi hadislarini to‘plash uchun imom Termiziy Xuroson, Iroq, Shom yurtlarida, Makka va Madina shaharlarida ilmiy safarlarda bo‘lgan.

AFROSIYOB – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1983-yilda Oybek nomi bilan tashkil etilgan. 1937–38-yillarda buyuk adib shu mavzeda yashab ijod qilgan. 1990-yil 4-mayda mahalla idorasida Oybek uy-muzeyi filiali ochilgan. 1991-yilda qo‘shni mahalla oldinroq ro‘yxatdan o‘tib, Oybek deb atalgani uchun, 1991-yildan rasman Muso Toshmuhammad mahallasi deb atalib kelingan. 2005-yili oktyabrda

“Afrosiyob” nomini olgan. Mahalla hududidan Afrosiyob ko‘chasi o‘tganligi sababli mahalla shunday atalgan. Oybek, Yunus Rajabiy, “Mingo‘rik”, “Farovon”, At-Termiziy, Sharof Rashidov, “Lolazor” mahallalari bilan chegaradosh.

V.L. Vyatkinning fikricha, Afrosiyob nomi XVII asrdan boshlab yozma manbalarda uchray boshlaydi. Bungacha uni “*Hisori ko‘hna*”, “*Qal‘ayi ko‘hna*” (“*Eski qal‘a*”) nomlari bilan tilga olishgan. Endilikda xalq tilida ham, ilmiy adabiyotlarda ham *Afrosiyob* nomi bilan mashhur.

V.A. Livshis yodgorlik nomini *Parshab* (so‘g‘dcha *Parshvab*) – “*Siyob usti*” so‘zidan kelib chiqqan, deydi. Biroq Afrosiyob nomi bilan bog‘liq geografik nomlar respublikamizning boshqa joylarida ham ko‘plab uchraydi. Jumladan, Toshkent shahridagi Mingo‘rik yodgorligining yana bir nomi “*Afrosiyob oshxonasi*”, “*Shohnishintepa*” esa “*Afrosiyob taxi*” deb atalgan.

AHIL – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1990-yilda tashkil topgan. 1990-yildan Ro‘zi Ashurov mahallasi 2 ga (Ro‘zi Ashurov va “Rasulobod” mahallasi) bo‘linib, 1994-yildan yana birlashgan va “Ahil” mahalla nomini olgan. Shu ikki mahalla ahli ahil va inoqlikda yashaganlari inobatga olinib, shunday nom berilgan. “Moyariq”, Ibrohimota, “Katta Hasanboy”, “Gulzor”, “Elparvar”, “Hamkorobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahallada O‘zbekiston xalq hofizi Orifxon Hotamov yashagan.

AHILLIK – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. TTZ-2 mavzesiga Yunusobod, Bodomzor, Bo‘z dahalaridan va Mirzo Ulug‘bek tumani “Guldaraxt” mahallasidan fuqarolar ko‘chib kelishi munosabati bilan 1980-yilda “Ahillik” nomi bilan tashkil etilgan. “Azamat”, “Uyg‘onish”, Munavvarqori, “Beshkapa”, “Traktorsozlar” mahallalari bilan chegaradosh.

“Ahillik” – bu so‘z o‘zbek tilida “birdamlik”, “intilishda va maqsadda hamjihatlik”, “o‘zaro totuvlik” ma’nolarini anglatadi. Odatda, ahillik deganda oilada, jamiyatda yoki ish jamoasida insonlarning bir-biri bilan tinch, do‘stona, hamjihat va bir maqsad yo‘lida harakat qilishlari tushuniladi.

AHILOBOD – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 2005-yilda 17-aprelda “Yangiobod” mahallasi ikkiga bo‘linib, biriga “Ahilobod” nomi berilgan. “Sevinch”, “Akbarobod”, “Yunusobod”, “Qadrdon”, “Yangibog‘” mahallalari bilan chegaradosh.

“Ahilobod” so‘zi ikki qismdan tashkil topgan: “Ahil” – arabcha so‘z bo‘lib, “do‘stona”, “totuv”, “hamjihat” ma’nolarini anglatadi. “Obod” – forsha “go‘zal joy”, “obod shahar” degan ma’noda ishlatiladi. Bu ikki qism birlashganda, “Ahilobod” – “totuv va go‘zal joy”, “hamjihatlikka asoslangan obod hudud” ma’nosini beradi.

AHMAD DONISH – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 2005-yilda “O‘zbekiston mustaqilligi” mahallasi ikkiga bo‘linishi natijasida tashkil topgan. Mahalla nomi Ahmad Donish sharafiga qo‘yilgan. Yunusota, “Muruvvat”, “Bobodehqon”, “O‘zbekiston mustaqilligi” mahallalari bilan chegaradosh.

Ahmad Donish (1827–1897) yoki Ahmad Kalla deb nom qozongan Ahmad ibn Mir Nosir ibn Yusuf al-Xanafi as-Siddiqiy al-Buxoriy Buxoro amirligida XIX asrning oʻrtalarida yashab ijod etgan, ilgʻor fikrlari bilan nom qozongan shoir, mutafakkir, maʼrifatparvardir. U 1827-yilda Buxoro shahrida tugʻilgan. Shu yerdagi maktab va madrasalarda bilim olib, oʻz davrining ilgʻor olimi va mutafakkiri darajasiga erishgan. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasidagi elchisi boʻlgan. Ahmad Donish “Nodir voqealar” asarida fan, texnika yangiliklari, tabiat hodisalari, geografiya, insonning uzoq umr koʻrishi, koinotning kelib chiqishi, Oy va Quyosh tutilishi, zilzila kabilar haqida fikr yuritgan. Yevropa ilmi-fanini oʻrganishga daʼvat etgan. “Risolai tarixiy” nomi bilan mashhur boʻlgan “Taʼrix saltanati xonadoni mangʻitiya” asarida mangʻitlar sulolasining 100 yillik hukmronligi tahlil va tadqiq qilingan.

AHMAD YUGNAKIY – Mirzo Ulugʻbek tumanidagi mahalla va dahaning nomi. Mahalla 1993-yilda oʻzbek shoiri, mutafakkir Ahmad Yugnakiy nomida tashkil etilgan. “Beshkapa”, Humoyun, Al-Forobiy mahallalari bilan chegaradosh.

Ahmad Yugnakiy dahasi tumanning sharqiy qismida, Ahmad Yugnakiy koʻchasi va Qorasuv kanali oraligʻida joylashgan. Toshkent shahrini rekonstruksiya va obod qilish davlat loyihalash instituti loyihasi asosida 1970–80-yillarda bunyod etilgan. Dastlab Солнечный massivi deb yuritilgan, 1990-yilda qayta nomlangan. Ahmad Yugnakiy, Al-Forobiy mahallalarida joylashgan.

Ahmad Yugnakiy (XII asr oxiri, Samarqand, Yugnak qishlogʻi – XII asr 1-yarmi, ?) – turkiy shoir, mutafakkir, yirik adib va taʼlimiy didaktik adabiyot namoyandasi. Adibdan bizgacha yetib kelgan yagona yaxlit asar “Hibat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar tuhfası”) dostoni boʻlib, 484 misradan iborat.

AHMAD YASSAVIY – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1929-yilda tashkil topgan. 1988-yilda Ahmad Yassaviy nomi berilgan. “Shirinobod”, Muxtor Ashrafiy, “Qadriyat”, “Asalobod”, Maxmur, “Alimkent”, “Maʼrifat”, “Boysun”, “Beshbola” mahallalari bilan chegaradosh.

Xoja Ahmad Yassaviy (Yassi yaqinidagi Sayram shahri, taxminan XI asrning ikkinchi yarmi, baʼzi manbalarga koʻra 1093–1166) – tasavvufning mashhur namoyandalardan biri, turkiy xalqlar orasida islomni tarqatishda katta hissa qoʻshgan va “Hikmatlar” asari bilan tanilgan.

Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Abdulloh Barrafiy (Barkiy), Xoja Ahmad Yassaviy va Xoja Abdulxoliq Gʻijduvoni tasavvuf ilmi boʻyicha Yusuf Hamadoni qoʻlida chuqur taʼlim olgan toʻrt mashhur shayxlar sanalishadi.

ACHAOBOD (Achavot, Achchiobod) – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. Sebzor dahasidagi qadimiy mahalla boʻlib, 1935-yilda tashkil topgan. 1957–92-yillar “Oktyabr 40 yilligi” nomi bilan atalgan. 1992-yildan hozirgi nomda. “Chinniobod”, “Guruchariq”, “Guzarboshi”, “Chimboy”, “Qoʻshtut”, “Chigʻatoy Darvoza” mahallalari bilan chegaradosh.

XIX asr oxiri – XX asr boshlari “Chimboy”, “Yov” va “Sag‘bon” mahallalari bilan chegaradosh bo‘lgan, shahar mudofaa devoriga tutashgan. Achaobod nomining etimologiyasi munozarali. Ba’zi olimlar (A. Muhammadjonov) ilk o‘rta asrlarda zodagon ayollar yashagan joy (Achat – Katta ona qo‘nog‘i) deb hisoblashadi. Ammo boshqa bir fikrga ko‘ra, Achaobod nomi joyning tabiiy xususiyatidan kelib chiqqan, ya’ni zaxkash Achchi suvi bo‘yini o‘zlashtirilishi natijasida Achchiobod – Achavot atamasi paydo bo‘lgan.

Muhammad Solihxo‘ja Toshkandiy (XIX asr) “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida Jumanbiy madrasasining Achchi mavzeida 150 tanob yerdagi daraxtzordan iborat vaqf bo‘lganligini yozgan. Aholisi hunarmandchilik, savdo-sotiq, bog‘-dorchilik bilan shug‘ullanishgan. Uchta masjid, 3 ta tegirmon va maktab bo‘lgan (XX asr boshi).

Yana boshqa ma’lumotlarga ko‘ra, u yerda, avvalo, lo‘lilar yashashgan. Mahallaning nomi “achi qabilasi vakillari tomonidan o‘zlashtirilgan va obod qilingan” degan ma’noni ifoda etadi. Achavot bilan bog‘liq bo‘lgan “achi” etnonimi (achchi) ham mavjud. Bu mahalla o‘zining tarixi va etnik tarkibi bilan qiziqarli bo‘lib, uning atrofidagi madaniyatlar va urf-odatlar ham e’tiborga molik.

BAYOT – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1982-yilda tashkil topgan. Mahallada nogironlarga tegishli korxonalar joylashganligini e’tiborga olib “Matonat” nomi berilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Bayot” deb qayta nomlangan. Barotxo‘ja mahallasi bilan chegaradosh.

“Bayot” nomi o‘zbeklarning qadimiy qabilalaridan biri bo‘lgan *bayot* qabilasi nomidan kelib chiqqan. Bayotlar turkiy xalqlar tarkibida bo‘lib, tarixiy manbalarda ularning nomi uchraydi.

BAYNALMILAL – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1950-yilda tashkil topgan. Sho‘rolar davrida mahalla hududida 30 dan ortiq millat vakillari yashaganligi uchun shu nom bilan atalgan. “Zaminobod”, “Temiryo‘lchilar”, “Yangi Mirobod”, “Salor”, “Istiqlolobod”, “Damariq”, “Tong yulduzi”, Hamid Sulaymonov, “Mirobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Baynalmilal so‘zi “*O‘zbek tilining izohli lug‘ati*”da shunday izohlanadi: “Millatlar o‘rtasidagi, millatlararo; xalqaro, umuminsoniy, umumxalqiy” (*O‘zbek tilining izohli lug‘ati*. I jild, 142-bet).

BANOKATIY – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1975-yilda “Sariko‘l” mahallasidan ajralib chiqqan. 1984-yilda mahallaga “Navbahor” nomi berilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda Banokatiy deb qayta nomlangan. “Birodarlik”, “Temiryo‘lchilar”, “Navro‘z”, “Uchuvchilar”, “Sariko‘l”, Abdurauf Fitrat, “Istiqlolobod”, “Yangizamon” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi o‘rta asr olimi va tarixchisi Banokatiy sharafiga qo‘yilgan. To‘liq ismi Abu Sulaymon Faxruddin Ali Abulfazl Dovud Muhammad Banokatiy (?–1330) Shosh vohasidagi Banokat shahrida tug‘ilgan. Hulokuiylardan G‘ozonxon davrida (1301–02) saroy shoirlari orasida “Malik ush-shuaro” unvo-

niga ega bo'lgan. Banokatiy umumiy tarixga oid "Ravzat uli-l-albob fi at-tavorix va al-ansob" ("Ulug' kishilarning tarixi va nasablari haqida oqillar bog'i") asarini yozgan. Uni qisqacha "Tarixi Banokatiy" deb atashgan. Bu asar Rashiduddinning "Jome ut-tavorix" tarixiy asarining qisqartirilgan nusxasi bo'lib, 1317-yilda yozib tugatilgan. Asar 9 qismdan iborat, unda Hindiston, Armaniston, Eron, Rum, Xitoy, shuningdek, yahudiylar, arab xalifaligi, mo'g'ullar tarixi bayon etilgan.

BARKAMOL – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1991-yilda Bobur nomi bilan tashkil etilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda "Barkamol" deb qayta nomlangan. "Dilbog'", "Parvoz", "Iltifot", Nodira, "Beshariq", "Xosiyatli" mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi o'zbek tilida "to'liq", "komil" ma'nolarini anglatuvchi "barkamol" so'zidan olingan bo'lib, bu hudud aholisining ma'naviy va madaniy jihatdan yuksakligini ifodalaydi.

BAROTXO'JA – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1936-yilda tashkil topgan. Mahalla hududidan anhor oqib o'tgan. Aytishlaricha, ushbu anhora qadimda Barotxo'ja ismli shaxs umrining oxirigacha miroblik qilgan. Uning vafotidan so'ng anhor Barotxo'ja deb nomlangan. Mahalla ham shu kishiga nisbat berilib, Barotxo'ja deb atalgan. "Eshonbuloq", "Katta Qo'yliq", "Qo'yliqobod", "Parvona", "Bayot", "Chinor", "Mumtoz", Qo'yliqota mahallalari bilan chegaradosh.

BARHAYOT – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. Dastlab "Yangihayot" nomi bilan tashkil etilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda "Barhayot" deb qayta nomlangan. Yunusota, "Muruvvat", "Kulolqo'rg'on", "Uchqahramon", "Halqabog'" mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi o'zbek tilida "abadiy" yoki "mangu" ma'nolarini anglatuvchi "barhayot" so'zidan olingan bo'lib, bu hudud aholisining uzoq umr va barqaror hayot kechirishini ifodalaydi.

BAHOR – Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla nomi. 1978-yilda tashkil topgan. O'zbek tilida bahor yil faslini anglatsa-da, nom berishda joyning gullab-yashnagan, chiroyli, rivojlanayotgan maskan ekanligini e'tirof etilishi nazarda tutiladi. Habib Abdullayev, "Olimlar", "Alpomish", "Bog'imaydon", Nodirabegim, "Yalang'och", "Bo'z", "Katta Yalang'ochota" mahallalari bilan chegaradosh.

BAHORISTON – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 2005-yilda tashkil topgan. "Guliston" mahallasidan ajralib chiqqan. "Sharaf", "Guliston", "Qoziguzar", "Sharq tongi", "Bekto'pi", Alixonto'ra Sog'unii mahallalari bilan chegaradosh.

Ushbu toponim bahor so'ziga o'rin-joy oti yasovchi *-iston* qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan. U fors tilidan o'zlashgan bo'lib, "gullab-yashnagan bog'" ma'nosini ifodalaydi hamda "*O'zbek tilining izohli lug'ati*"da shunday izohlanadi: "Bahorga makon bo'lgan, doim yashnab turgan o'lka, mamlakat" (O'zbek tilining izohli lug'ati, I jild, 198-bet).

BEG‘UBOR – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda tashkil topgan, bu yerga ko‘chib kelgan aholining ko‘p millatli ekanligini e‘tiborga olib, ularning o‘zaro ittifoqlikda yashashlarini niyat qilib, mahallaga “Ittifoq” nomi berilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Beg‘ubor” deb qayta nomlangan. “Shoshtepa”, “Qadrton”, “Mehnatobod”, Uvaysiy mahallalari bilan chegaradosh.

“Beg‘ubor” so‘zi “*O‘zbek tilining izohli lug‘ati*”da shunday izohlanadi: “Chang-g‘ubordan, ifloslikdan xoli; musaffo, toza; pok, sofdil, sidqidil” (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I jild, 248-bet).

Bu nom mahalla aholisi va hududning pokizaligi, tozaligini ifodalaydi.

BEKOBOD – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. Mahalla nomi Toshkentning janubi-g‘arbidagi qadimiy daha nomidan olingan. 1968-yildan shahar tarkibiga kirib, shu nom bilan atala boshlagan. Aholisi asosan Shayxontohur dahasining shu hududda dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan xonadonlaridan iborat bo‘lgan. Aholi soni ortishi bilan 2005-yilda mahalla 2 qismga: “Bekobod” va “Shaftolizor” mahallalariga ajralgan. “Qoryog‘di”, “Ipakchi”, “Shaftolizor”, “Bog‘ichinor”, “Istirohat” mahallalari bilan chegaradosh.

Shoir, Shamsiya, Istirohat va ularga yondosh ko‘chalarda joylashgan hudud Bekobod dahasi deb nomlangan. Loyihalash va qurilish ishlari 1966-yildagi Toshkent zilzilasidan keyin boshlanib, yakka tartibdagi uy-joylar qurilgan, asosan zilzila markazi bo‘lgan “Qashqar” mahallasi aholisi ko‘chib o‘tgan.

Nom ikki tarkibiy qismdan iborat, bek (beg) – O‘rta Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida mansab, unvon. Qadimda turkiy xalqlarda xon xizmatidagi alohida harbiy qism vakillari. Ular katta imtiyozlarga ega bo‘lib, oliy harbiy zodagonlar tabaqasini tashkil qilgan. Movarounnahr xonliklarida davlat arboblarning bolalari va yaqin qarindoshlariga, zodagonlarga berilgan faxriy unvon.

Obod – ba‘zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo‘shilib, joy nomini yasaydigan, “obodonlashtirilgan”, “o‘zlashtirilgan”, “gullab-yashnagan”, “go‘zal” ma‘nosidagi so‘zlardir.

BEKTEMIR – Bektemir tumanidagi mahalla nomi. Ilgari Husayn Boyqaro ko‘chasidan boshlanib, Bektemir yo‘li ko‘chasi bo‘ylab yo‘l harakati xavfsizligi nazorati maskanigacha bo‘lgan hududda shu nomdagi daha bo‘lgan. Bu hudud 1990-yilgacha Toshkent viloyatidagi Narimonov shahri tasarrufida edi. 1990-yil 27-fevralda Narimonov shahriga Bektemir nomi berilgan. Bu nom tumandan oqib o‘tuvchi Bektemir kanali nomidan olingan. Mahallaning nomi ham shundan. “Nurafshon”, “Sohil”, Abay, Husayn Boyqaro, “Ustozlar”, “Oltintopgan” mahallalari bilan chegaradosh.

BEKTO‘PI – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. Ilgari mahalla hududida jamoa xo‘jaligining bog‘, olmazor, poliz ekinlari ekiladigan yerlari, mehnatkashlar dam oladigan dala shiypni, hovuzlar bo‘lgan. 1985–87-yillarda bu bog‘lar buzilib, o‘rniga “Algoritm” zavodi qurilgan. Aholi taklifi bilan ilgari gullab-

yashnagan joy “Bo‘ston” mahallasi deb nomlangan. 2005-yildan hozirgi nomda. “Yakkabog‘”, “Beshqo‘rg‘on”, Al-Xorazmiy, “Xayrobod”, “Sharq tongi”, “Xonto‘pi”, “Guliston”, “Bahoriston” mahallalari bilan chegaradosh.

Bek – viloyatni boshqarish uchun barcha huquq, imtiyozlarga ega bo‘lgan mansabdor, hokim. Bundan tashqari, T.Nafasovning qayd etishicha, qo‘ng‘irot qabilasi oyinni bo‘limining beshbola urug‘ida 20 ta to‘p bor. Shulardan biri beglar (beklar). Mang‘itlarning oqmang‘it urug‘i tarkibida ham beglar degan to‘pi bor. Xalq ularni urug‘ hisoblaydi. Demak, Bekto‘pi – urug‘ nomi.

BELARIQ – Yakkasaroy tumanidagi mahalla nomi. “Rakatboshi”, “Charx Kamolon-1”, “Chilonzor”, “Konstitutsiya”, “Rakat”, Shohjahon mahallalari bilan chegaradosh.

Mazkur toponim “*bel*” va “*ariq*” terminlaridan tarkib topgan. “*Bel*” mahalliy geografik termin sifatida “*tog‘dan oshib o‘tish joyi*” degan ma‘noni anglatadi. Qadimgi turkiy tillarda “*bel*” so‘zi “*to‘be, tepa, do‘ng*”, “*past tog‘*”, “*tog‘ tizmasining pasaygan joyi*” ma‘nolarida (asosan balandliklarda) joy nomlari tarkibida uchraydi. Shu bilan birga, uzun cho‘zilgan, qirralari sezilmaydigan do‘nglikka nisbatan ham bel deyiladi. Nomning ikkinchi komponenti – *ariq* so‘zi “*suvni ma‘lum bir joydan boshqa bir yerga olib borish uchun yer sathini qazib, hosil qilingan oqar suv yo‘li va o‘zani*”ni bildiradi.

BELTEPA – Shayxontohur tumanidagi mahalla va dahaning nomi. Mahalla 1992-yilda tashkil etilgan. Nomi Chig‘atoy Oqtepa nomi bilan bog‘liq. “O‘zbekiston”, “Chig‘atoy-Oqtepa”, “Yangi Beltepa”, “Katta Jarariq”, “Shifokorlar” mahallalari bilan chegaradosh.

Beltepa dahasi ilgari Toshkent viloyatiga qarashli bo‘lib, dehqon xo‘jaliklari istiqomat qilar edi. 1983-yilda Toshkent viloyati va Toshkent shahar ijroiya qo‘mitalari qo‘shma qarori bilan Toshkent shahri tasarrufiga o‘tgan. Toshkent shahrini rekonstruksiya va obod qilish davlat loyihalash instituti loyihalari asosida shu hududda Ibn Sino, Jarariq va Beltepa dahalarini qurishga kirishilgan. 1992–96-yillarda Beltepa dahasida qurilish ishlari nihoyasiga yetkazilgan. Daha “Beltepa”, “Yangi Beltepa” mahallalarida joylashgan.

Toponimikada “*bel*” – *tog‘* va tepaliklardan oshib o‘tish oson bo‘lgan joy, oshuv, dovon ma‘nosida qo‘llaniladi. Bundan tashqari, uzun cho‘zilgan, qirralari sezilmaydigan do‘nglikka nisbatan ham bel deyiladi. Bu holatda “*bel*” atamasi uzun cho‘zilgan, qirralari sezilmaydigan do‘nglikning pasaygan qismi. “*Tepa*” esa yer sathidan baland, do‘ng joy, do‘nglik, tepalik, balandlik degani.

BERUNIY – Olmazor tumanidagi mahalla va dahalarning nomi. Mahalla 1966-yildagi Toshkent zilzilasidan so‘ng bunyod etilgan. Mahallaga buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy nomi berilgan. Xislat, “Jiydali”, Mirzo G‘olib, “Olimpiya”, “Chig‘atoy-Oqtepa” mahallalari bilan chegaradosh.

Beruniy-B1 dahasi Chustiy mahallasida, Beruniy-B3 dahasi “Quyosh” mahallasida joylashgan.

Oʻrta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy 973-yil 9-sentyabrda Xorazmning qadimgi poytaxti Kot shahrida tugʻilgan. Ayrim manbalarda Beruniyni Kot shahrining tashqarisida tugʻilgan, shu sababli uni “Beruniy”, yaʼni “tashqarilik” degan taxallus bilan atashgan deyishadi. Beruniy mashhur olim Abu Nasr Mansur ibn Iroq qoʻlida taʼlim olgan. Ibn Iroq astronomiya, geometriya, matematikaga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bagʻishlaydi.

Beruniy geografiya, matematika, astronomiya, mineralogiya, geodeziya, falsafa kabi bir qator fanlarga oid koʻplab fundamental asar, traktat va qoʻllanmalar yaratgan. Oʻz davrida birinchi boʻlib Yerning shar shaklidaligini va u Quyosh atrofida aylanishi gʻoyasini ilgari surgan, keyinroq Yer radiusini (taxminan 6000 km) oʻlchagan. Beruniy 1048-yilda Gʻazna (hozirgi Afgʻoniston)da vafot etgan.

BEHIZOR – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1968-yilda tashkil topgan. Dastlab davlat arbobi Akmal Ikromov nomiga qoʻyilgan. Joy qadimda behizor boʻlgani uchun, 2009-yilda “Behizor” deb qayta nomlangan. “Yanginur”, “Katta Yangiobod”, “Yosh avlod”, “Yangiqoʻrgʻon”, “Tarnovboshi”, “Oʻrtamasjid” mahallalari bilan chegaradosh.

Oʻsimlik va daraxt nomlari bilan ataladigan aholi manzilgohlari koʻp takrorlanishi kuzatiladi. Bunday fitooykonimlar tarkibidagi *-zor* qoʻshimchasi maʼlum turdagi oʻsimlikni shu yerda keng tarqalganligini bildiradi. Demak, Behizor – “behi koʻp oʻsadigan bogʻ, joy” maʼnosini anglatadi.

BESHARIQ – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 2015-yilda Bobur mahallasidan ajralib chiqqan yangi mahalla. Hududdagi asosiy koʻchalardan biri nomi bilan uygʻunlashtirish maqsadida, “Beshariq” deb qayta nomlangan. “Parvoz”, Nodira, “Barkamol”, “Fazogir”, “Birlashgan”, “Xosiyatli” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi “besh” (besh) va “ariq” (ariq) soʻzlaridan tashkil topgan boʻlib, beshta ariqning mavjudligini bildiradi.

T.Nafasovning yozishicha, ariq soʻzi oldidan uch, besh, olti kabi sonlarning qoʻshilishi nutqda bor hodisa. Uchariq, Beshariq, Oltiariq nomlari shunday yaratilgan. Bunday nomlarning yaratilishida ariqni boshlangan joyida bir necha shoxobchalarga boʻlinishi nazarda tutiladi.

Ariq (ayiriq soʻzidan) – daryo, soy, kanal va boshqalardan sugʻorish, suv bilan taʼminlash maqsadlarda inson kuchi bilan chiqarilgan suv shoxobchasi. Anhor oʻzani kengroq, tubi chuqurroq, notabiyy suv yoʻlidan besh, baʼzan koʻp yoki oz ariqqa boʻlingan band quyisidagi joy – Beshariq.

BESHBOLA – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. Rivoyatlarga koʻra, XIX asrning oxirlarida eskishaharlik bir boy befarzand boʻlib, 5 bolani asrab olgan. Bu bolalar voyaga yetgach, hozirgi mahalla hududida oʻtmishda boʻlgan qamishzor va toʻqayzorlarni oʻzlashtirib, ekinzorga aylantirishgan. Bu yerlarda dala hovli qilib sholi ekishgan, kech kuzda hosilni yigʻishtirib, Eski shaharga

qaytishgan. Mahalla nomi shundan kelib chiqqan. 1930-yillarda bu hudud Frunze nomidagi kolhoz, Qorasuv tumani deb yuritilgan. “Beshbola” qishloq soveti tuzilgach, ushbu yerlar o‘zlashtirilib, odamlar ko‘chib kelishgan. 1946–92-yillarda Mahzuna (o‘zbek shoirasi), 1992-yildan yana “Beshbola” mahallasi deb atalgan. “Jarqo‘rg‘on”, Muxtor Ashrafiy, “Asalobod”, “Oquy”, Ahmad Yassaviy mahallalari bilan chegaradosh.

BESHYOG‘OCH – Shayxontohur tumanidagi daha nomi. O‘tmishda Toshkentdagi to‘rt dahadan biridir. Muhammad Solihxo‘janing “Tarixi jadidayi Toshkent” asarida (XIX asr) Zangiota dahasi nomi bilan qayd etilgan. Ba’zi olimlar (H.Hasanov) fikricha, qadimgi turkiy uzunlik, masofa o‘lchovi – og‘ochdan olingan. (1 og‘och – 7-8 km). Shu asarda daha nomi beshyog‘och qavmi, toifasi nomidan olingani aytilgan.

Beshyog‘och Toshkentning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan. Ko‘kcha, Sebzor, Shayxontohur dahalari bilan tutash bo‘lgan. Beshyog‘ochning chegarasi shimoli-g‘arbdan Quyi Bo‘zsuv bo‘ylab, sharq tarafdin Beshyog‘och – Xadrayo‘nalishi bo‘ylab o‘tgan. Dahaning janubiy tomonida bog‘-rog‘lar joylashgan. Beshyog‘och hududidan Chuqurko‘prik va Zaxariq jarlik-soylari o‘tgan. Beshyog‘ochdagi me‘moriy yodgorliklardan Abulqosim madrasasi mashhur. Dahada shaharning uch darvozasi (Samarqand, Kamolon va Beshyog‘och), besh yirik madrasa, 75 masjid, 76 mahalla va 36 mavzesi bo‘lgan. Rus sharqshunosi N.Mayevning ma‘lumotiga ko‘ra, 1876-yilda Beshyog‘ochda 1400 xonadon (12450 kishi) yashagan.

Eng qadimiy shohko‘chasi Beshyog‘och bo‘lgan. Ko‘chadan 1903-yilda ko‘nka, 1913-yildan tramvay qatnay boshlagan. Ko‘cha Chorsu maydoni bilan Beshyog‘och maydonini bog‘lab turgan. Beshyog‘och dahasida 3 ta karvonsaroy hamda Kichik Tanishahar arig‘i bo‘yida joylashgan 13 ta tegirmon faoliyat yuritgan. Daha aholisining asosiy mashg‘uloti dehqonchilik, bog‘dorchilik, g‘isht quyish, hunarmandchilik (etikdo‘zlik, bo‘yoqchilik, temirchilik, chilangarlik) va baqqollikdan iborat bo‘lgan.

Hozirgi Beshyog‘och dahasi Toshkent shahrini rekonstruksiya va obod qilish davlat loyihalash instituti loyihasi asosida 1980–85-yillarda bunyod etilib, Toshkentning qadimiy Beshyog‘och dahasi nomi bilan atalgan. “Yangi Kamolon”, “Kamolon”, “Kamolon Darvoza” mahallalarida joylashgan.

BESHYOG‘OCH – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 2007-yil 2-avgustgacha “Gulobod” nomi bilan yuritilgan. “Charx Kamolon-1”, “Charx Kamolon-2”, “Rakatboshi”, Yunus Rajabiy, “O‘qchi”, “Katta Olmazor”, “Chaqar”, “Qashqar”, “Yangi Kamolon”, “Kamolon”, “Kamolon Darvoza”, “O‘rda”, “Olmazor” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla hududida shaharning Beshyog‘och darvozasi bo‘lgan, mahalla nomi shundan olingan. Bu darvoza nomini Beshog‘och qabilasi nomidan olingani qayd etilgan. U holda ushbu toponim etnotoponimlar guruhiga mansub bo‘ladi.

Ba'zi tadqiqotlarda esa bu so'z "beshinchi manzil" ma'nosini anglatishi haqida yozilgan. Mazkur darvozaning nomi Muhammad Solihxo'janing XIV–XV asrlar uchun bergan ro'yxatida mavjud. Keyingi davr rus manbalarida ham u qayd etilib, "Бешараи" shaklida berilgan. Beshyog'och darvozasi XX asr boshlarigacha bo'lgan, bu yerlarda "Beshyog'och" mahallasi joylashgan. Mahalla aholisi misgarlik, egarchilik, tikuvchilik, pishiq g'isht tayyorlash kabi kasblar bilan mashhur edi. Hozir bu hudud "Beshyog'och" deb ataladi, yillar davomida "Beshog'och" toponimi xalq talaffuzida birmuncha o'zgarib, "Beshyog'och" shaklini oldi.

BESHKAPA – Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla nomi. 1966-yilda tashkil topgan. "Zakovat", "Pastkiyuz", "Shalola", "Geofizika", "Yalang'och", Ahmad Yugnakiy, "Uyg'onish", Munavvarqori, "Ahillik", "Yuzrabot", "Traktorsozlar", Humoyun, Al-Forobiy mahallalari bilan chegaradosh.

Beshkapa – etnonim; qirg'iz qabilasida *beshkepe* urug'i, qoraqalpqlarda *kepe* urug'i, o'zbeklarda *kapa* urug'i mavjud. Mazkur toponim Farg'ona vodiysida keng tarqalgan joy nomlaridan hisoblanadi. Qamishdan yasalgan, usti somonli loy bilan suvalgan uylar – kapa deyilgan. Beshkapa – beshta kapa ma'nosini anglatadi.

Taniqli toponimist T.Nafasov Qashqadaryo viloyatining bir necha tumanlaridagi shu nomli qishloqlarni izohlab, "kapa" – poliz ekinzori boshida cho'p va shox-shabbdan qilingan vaqtinchalik boshpana joy, deb izohlaydi.

BESHQAYRAG'OGH – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, mahalla hududi 1910–12-yillarda "Tuyatortar karvon yo'li" nomi bilan atalgan. "Temurnoma" asari muallifi Salohiddin Toshkandiy shu mahallada yashab, ijod qilgan. Mahalla guzarida beshta qayrag'och daraxti ekilgan bo'lib, Salohiddin Toshkandiy taklifi bilan mahalla "Beshqayrag'och" nomi bilan atalgan. 1930–66-yillarda bu hudud "Oktyabr" kolxozi nomi bilan yuritilgan. 1966-yili kolxoz tarqatilgach, mahalla "Beshqayrag'och" nomini saqlab qolgan. "Sharq yulduzi", Hayraty, Xurshid, "Oqmasjid", "O'tkir", "Zulfizar", Abdulla Qodiriy, "Taqaqchi", Ibrat mahallalari bilan chegaradosh.

BESHQO'RG'ON (1, 2, 3, 4) – Olmazor tumanidagi dahalar nomi. Eski nomi – O'rol Tansiqboyev dahasi. Joy nomini tartibga keltirish va joyning tarixiy nomini tiklash maqsadida 2013-yilda "Beshqo'rg'on" deb qayta nomlangan. "Yoshlik", "Mustaqil yurt", "Chamanbog'", "Shon-shuhurat", "Yuqori Beshqo'rg'on" mahallalarida joylashgan.

BESHQO'RG'ON – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. Mahallaning nomi mahalla hududida o'tmishda Beshqo'rg'on mavzesi bo'lganligi sababli shunday atalgan. 1998–2008-yillarda Usmon Yusupov nomi berilgan, 2008-yil 28-apreldan hozirgi kungacha "Beshqo'rg'on" nomi bilan ataladi. "Tirsakobod", "Yakkabog'", "Choshtepa", "Bekto'pi", "Jo'nariq" mahallalari bilan chegaradosh.

BESHCHINOR – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1991-yilda Chilonzor dahasi, 5-mavzesi hududida tashkil topgan. Hamza nomi bilan yuritilgan. Mahalla

nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Beshchinor” deb qayta nomlangan. “Dilobod”, “Xalqlar do‘stligi”, “Nafosat”, “Ko‘rkam”, “Qatortol-1”, “Charx Kamolon-3”, “Chilonzor-Oqtepa” mahallalari bilan chegaradosh.

“Beshchinor” nomi o‘zbek tilida “besh” va “chinor” (Platanus turidagi daraxt) so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, beshta chinor daraxti mavjudligini anglatadi. Bu nom mahalla hududida beshta chinor daraxti bo‘lganligini yoki mavjudligini ifodalaydi.

BILIMDON – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1890-yillarda mahalla o‘rnida qamishzor bo‘lgan. Toshkentning “Guliston” mahallasidan chiqqan Sattorboyvachcha bu yerlarni o‘zlashtirib, sholi va poliz ekinlari ekib kelgan. 1900-yillarda u qarindosh-urug‘lari bilan uy-joylar qurib yashay boshlagan, bu yerlar ularning dala hovlisiga aylangan. 1932–36-yillarda ocharchilikdan qiynalgan Farg‘ona vodiysidan bir necha oila ko‘chib kelib, hozirgi Farg‘ona yo‘li bo‘ylab oqayotgan Tolariq bo‘yida joylashgan. 1966-yilgi Toshkent zilzilasidan so‘ng bu joylarga ko‘plab oilalar ko‘chib kelishgan. 1986-yili mahalla nomi “Bilimdon” deb atalgan. “Bunyodkor”, “Yosh avlod”, “Fayziobod”, “Parvona”, “Chinor”, “Yuksalish” mahallalari bilan chegaradosh.

Bilimdon – bilimlarni mukammal egallagan; katta ilmga, ma‘lumotga ega bo‘lgan; bilag‘on, o‘qimishli; bilimli ma‘nolarini bildiradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bu joy nomini “o‘z ishini, sohasini yaxshi biladigan; omilkor, bilarmon” deb izohlash mumkin.

BILLUR – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1972-yilda “Navro‘z” nomi bilan tashkil topgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Billur” deb qayta nomlangan. “Adolat”, “Akbarobod”, “Bog‘ishamol”, “Sobirobod”, “Nurmakon”, “Turkiston”, “Astrobod”, “Mingchinor”, “Husniobod” mahallalari bilan chegaradosh.

“Billur” – bu so‘z o‘zbek tilida yorug‘lik, shaffoflik va noziklikni ifodalovchi ma‘noga ega. Bu nom mahalla hududining pokizaligi va shaffofligini ifodalaydi.

BINOKOR – Yangiheyot tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Yangiheyot tumanidagi mahallalarning hududiy chegaralarini qayta ko‘rib chiqish hisobiga yangi tashkil etilgan mahalla. “Daryobo‘yi”, Xo‘ja Uchqun, “Fayzli”, “Jaloyir” mahallalari bilan chegaradosh.

“Binokor” – bu so‘z o‘zbek tilida qurilish va yaratuvchanlik bilan bog‘liq bo‘lib, “bunyod etuvchi”, “qurish va yaratish bilan shug‘ullanuvchi shaxs” ma‘nosini anglatadi. Faqat bino emas, balki ma‘naviy, madaniy va ijtimoiy sohalarida yangiliklar yaratadigan shaxs ham binokordir.

BIRDAMLIK – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. Abdurahmon Jomiy mahallasidan 2015-yilda ajralib chiqqan yangi mahalla. Hududdagi asosiy ko‘chalardan birining nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, “Ziyokor” deb nomlangan. 2020-yilda mahalla nomi “Birdamlik” deb qayta nomlangan. “Kengmakon”, “Shukrona”, “Qo‘shqo‘rg‘on”, “Madaniyat”, “Nomdanak” mahallalari bilan chegaradosh.

“Birdamlık” soʻzi oʻzbek tilida “birlik”, “hamjihatlik”, “bir maqsad yoʻlida birlashgan odamlar oʻrtasidagi totuvlik holati” maʼnolarini bildiradi. U kuchli va taraqqiy etuvchi jamiyat uchun muhim qadriyat hisoblanadi. Bu nom mahalla aholisi oʻrtasidagi birlik va hamjihatlikni ifodalaydi.

BIRLASHGAN – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1962-yilda tashkil topgan. Aholisi, asosan, qozoqlardan iborat boʻlib, 1966-yildan boshqa millat vakillari ham koʻchib kelib, oʻzaro inoq, doʻst boʻlib yashayotgani uchun “Birlashgan” deb nom berilgan. “Vatandosh”, “Parvoz”, “Navroʻzobod”, “Beshariq”, “Fazogir”, Amir Temur, “Yashnobod” mahallalari bilan chegaradosh.

BIRLIK – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1998-yili 26-dekabrda tashkil topgan. Dastlab “Shodlik”, 2004-yildan mahalla koʻp millatli boʻlgani uchun “Birlik” deb nomlangan. “Farhod”, “Bogʻobod”, “Nayman”, “Katta Choʻponota” mahallalari bilan chegaradosh.

“Birlik” soʻzi, asosan, hamjihatlik, totuvlik, yagona maqsad yoʻlida birlashishni ifoda etadi.

BIRODARLIK – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1975-yili 8-mavze qoshida tashkil etilib, 17-raqami bilan belgilangan. 1994-yilda ushbu mahallada 17 millat vakillari hamjihat, ahil-inoq, doʻstona yashab kelayotganliklari uchun “Birodarlik” nomi berilgan. “Zaminobod”, “Temiryoʻlchilar”, “Uchuvchilar”, Banokatiy mahallalari bilan chegaradosh.

BOBODEHQON – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 2004-yilda shu nom bilan tashkil topgan. “Sevinch”, Uvaysiy, Yunusota, Ahmad Donish, “Muruvvat”, “Shoshtepa”, “Oʻzbekiston mustaqilligi”, “Halqabogʻ”, “Yurtobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Bobodehqon – 1) dehqonchilik kasbining ustasi, mirishkor, tajribali keksa dehqon. Dehqonchilik ishlariga mohir, oʻz ishining sohibi boʻlgan dehqonlarni Oʻrta Osiyoda qadimdan Bobodehqon deb atashgan. Kishilar dehqonchilikda ular-dan maslahatlar olishgan, ularning izidan borishga odatlanishgan; 2) Oʻrta Osiyo xalqlari orasidagi rivoyatlarga koʻra, dehqonchilik homiysi, piri. Xalq orasida ekin ekish, oʻrish-yigʻish vaqtida “Bobodehqon qoʻllasin”, “Bobodehqonning qoʻli” deb aytish shuning natijasidir. Toshkent aholisi oʻrtasida ham Bobodehqon obrazi keng tarqalgan. Shahar aholisining bogʻ hovlilarida mavsumiy dehqonchilik ishlari yer haydash, kuzgi hosilni yigʻishtirish, shudgorlash oldidan duoga qoʻl ochib “Bobodehqon qoʻllasin” deb, tegishli marosim-udumlar oʻtkazilgan.

BOBUR – Yakkasaroy tumanidagi mahalla nomi. 1998-yili fevral oyida Abdulla Qahhor va “Damariq” mahallalari negizida tashkil etilgan. Mahalla hududi, asosan, koʻp qavatli binolardan iborat. Bobur koʻchasida joylashgani uchun Bobur mahallasi deb atalgan. “Armugʻon”, “Damariq”, Abdulla Qahhor, “Muhandislar” mahallalari bilan chegaradosh.

Jahon tarixida oʻchmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda

sifatida butun dunyoda ma'lum va mashhurdir. Uning beqiyos ilmiy-ijodiy mero-si nafaqat milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakl-lanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida o'ringa ega.

BOG'BON – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga o'tkazilgan. Eski nomi – “Mirishkor”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Bog‘bon” deb qayta nomlangan. “Arg‘in”, “Go‘zal”, “Olmos”, “Hilol”, “Qalqon”, “Uchchinor”, “Tovkentepa” mahallalari bilan chegaradosh.

“Bog‘bon” so‘zi o‘zbek tilida an‘anaviy ravishda bog‘larda ishlaydigan, daraxtlar va o‘simliklarni parvarishlaydigan shaxsni ifodalaydi. Mahalla aholi-sining asosiy qismi dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullangani uchun, mahalla Bog‘bon nomi bilan atalgan.

BOG'ZOR – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 2005-yilda “Oqtepa” mahallasidan ajralib chiqqan. Bu yerlar o‘tmishda bog‘lari bilan mashhur bo‘lgani uchun “Bog‘iston” deb atalgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsa-dida, 2016-yilda “Bog‘zor” deb qayta nomlangan. Lutfiy, “Qatortol-1”, “Chilon-zor-Oqtepa” mahallalari bilan chegaradosh.

“Bog‘zor” toponimi o‘zbek tilida “bog‘” so‘zi va “-zor” (ko‘plik qo‘shimcha-si)dan kelib chiqib, “bog‘lar joyi” ma’nosini anglatadi. Bu nom mahalla hududida ko‘plab bog‘lar va yashil hududlar mavjudligini ifodalaydi. Bog‘zor – “*mevazor, chamanzor, bog‘li joy*” deganidir.

BOG'IBO'STON – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 2005-yil 23-aprelda “Obod” mahallasi ikkiga bo‘linib, “Oqqo‘rg‘on” mahallasi tashkil etilgan. Oqqo‘rg‘on arig‘i shu mahalla hududida Bo‘zsuvdan ajralib chiqqan-ligi sababli shunday nom berilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Bog‘ibo‘ston” deb qayta nomlangan. “Darxon”, “Otcho-par-2”, “Obod”, “Yangitarnov”, “Sayram”, “Oliyhimmat”, “Bo‘zsuv”, “Oydin”, “Navnihol” mahallalari bilan chegaradosh.

“Bog‘ibo‘ston” nomi o‘zbek tilida “bog‘” va “bo‘ston” (bog‘lar) so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, go‘zal tabiat, yashillik va obodonlikni ifodalaydi. Yashil bog‘ va gulzorlarga boy maskan hamda tabiat go‘zalligi bilan ajralib turadigan hudud “Bog‘ibo‘ston” deyiladi. Mahalla aholisi, hududi go‘zal, yashillikka bur-kangan va fayzli joy bo‘lgani uchun shu nomni tanlashgan.

BOG'IMAYDON – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 1993-yil sentyabrda tashkil etilib, “Umid” nomi bilan atalgan. Hududda “Lokomotiv” madaniyat va istirohat bog‘i joylashgani uchun, 2016-yilda “Bog‘imaydon” deb qayta nomlangan. “Yalang‘och”, Habib Abdullayev, “Bahor”, “Shahriobod”, “Katta Yalang‘ochota” mahallalari bilan chegaradosh.

“Bog‘imaydon” so‘zi o‘zbek tilida “bog‘” va “maydon” (keng joy) so‘zlari-dan tashkil topgan bo‘lib, “bog‘ maydoni” yoki “bog‘lar joyi” ma’nosini bildiradi.

Bog‘imaydon – Amir Temur tomonidan barpo etilgan bog‘lardan birining nomi sanaladi.

BOG‘ISTON – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1966-yildagi Toshkent zilzilasidan so‘ng qurilgan. 1992-yilda “Bog‘iston” mahallasi tashkil etilgan. Bu yerlar o‘tmishda bog‘lari bilan mashhur bo‘lgani uchun “Bog‘iston” deb atalgan. Serbog‘ joy, bog‘lar o‘lkasi, bog‘-rog‘lar bilan qoplangan maydon Bog‘iston demakdir. Lutfiy, Cho‘ponota, “Bog‘obod”, “Guzar”, “Ko‘hna Cho‘ponota”, “Katta Cho‘ponota” mahallalari bilan chegaradosh.

“Bog‘iston” – “bog‘” va “-iston” qo‘shimchasidan tashkil topgan so‘z bo‘lib, “bog‘lar mamlakati”, “go‘zal tabiat makoni” yoki “ko‘kalamzor yurt” ma’nolarini anglatadi.

BOG‘ICHINOR – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. Toshkent zilzilasi (1966) dan so‘ng, 1966-yili sentyabrda “Shtab” guzarida “Oktyabr samarasi” mahallasi tashkil etilgan. Mahalla asosan “Eski shahar”, “O‘qchi”, “Langar” kabi mahallalardan kelgan aholidan tashkil topgan. 1978–2004-yillarda mahalla Sharof Rashidov nomi bilan atalgan. 2005-yildan hozirgi nomida. “Ipakchi”, “Qoryog‘di”, “Degrez”, “Bekobod”, “Nishabariq” mahallalari bilan chegaradosh.

Bog‘ichinor – bu so‘z “chinor daraxtlari o‘sadigan bog‘” degan ma‘noni anglatadi. Bog‘ – daraxtzor, yashil hudud, chinor – uzun umr ko‘radigan, ulkan tanali daraxt. “Bog‘ichinor” – Amir Temur o‘z hayotining eng oxirida qurgan bog‘lardan biri. U Samarqandning janubida joylashgan bo‘lib, “Qal‘aga yovuqtur”, “Bog‘ning saroyi” (ko‘shk) nomlari bilan tepalikda qurilgan edi.

BOG‘ISHAMOL – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1995-yilda shu nom bilan tashkil etilgan. Tumanning aynan shu joyi ilgaridan tokzor va mevali bog‘lar maskani bo‘lgani hamda boshqa joylardan farqli ravishda “shamol yo‘lagi” aynan shu hududdan o‘tishini hisobga olib, mahalla aholisi shu nom bilan atagan. “Bog‘ieram”, “Akbarobod”, “Yo‘layriq”, “Yangibog‘”, “Mingchinor”, “Bog‘ishamol”, “Billur”, “Husniobod” mahallalari bilan chegaradosh.

BOG‘IERAM – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. Bog‘ishamol mahallasi negizida 2015-yilda tashkil etilgan yangi mahalla. Yunusota, “Yo‘layriq”, “Kulolqo‘rg‘on”, “Yangibog‘”, “Bog‘ishamol” mahallalari bilan chegaradosh.

Bog‘i Eram (Iram bog‘i) – mifologik bog‘. Sharq xalqlari og‘zaki ijodidagi parilar makoni. Bog‘i Eram gulzor, mevazor va o‘tloqzor bilan qoplangan beqiyos go‘zal afsonaviy, tilsimli silsila bog‘lar sifatida talqin etiladi. Mifologiyaga ko‘ra, Yamanda, ba‘zan Shomda deb tasavvur etilgan. “Go‘ro‘g‘li” dostonlar turkumidagi Yunus pari, Misqol parilar Iram bog‘ilik bo‘lib, bu bog‘ parilarining rahnamosi, Chambil yurtida esa botirlar murabbiysi, el-yurt homiysi sifatida tasvirlangan. Bog‘i Eram iborasi ko‘pincha go‘zal va obod bog‘larni tasvirlash uchun ishlatiladi.

BOG‘KO‘CHA – Shayxontohur tumanidagi mahalla va mavzening nomi. Mahalla 1994-yilda tashkil topgan. Mahalla hududi ilgari bog‘ bo‘lib, “Qo‘rg‘on-

tepa” deb nomlangan. “Gulobod”, “Ilg’or”, Chustiy, “Obinazir” mahallalari bilan chegaradosh.

Bog’ko’cha mavzesi dastlab S-27 mavzesi deb nomlangan va Beruniy, Shoahmad Shomahmudov ko’chalari, Nurafshon shohko’chasi va Ko’kcha arig’i oraliq’ida joylashgan. Bu hududda avval yakka tartibdagi uy-joylar bo’lgan. “Qutlug’ qon”, “Uchrashuv” kabi filmlarning lavhalari aynan shu joyda tasvirga olingan. 1972–73-yillarda Toshkent shahrini rekonstruksiya va obod qilish instituti loyihasi asosida ko’p qavatli uylardan iborat Bog’ko’cha mavzesi bunyod etilgan. Joyning tarixiy nomini tiklash maqsadida, 2000-yilda “Bog’ko’cha” deb qayta nomlangan. “Obinazir”, “Gulobod”, “Bog’ko’cha” mahallalarida joylashgan.

Bog’ko’cha toponimi fors-tojikchada bog’+ko’cha – bog’li ko’cha, tevaragida daraxtlar ko’p ekilgan guzar. Bog’ko’cha, ko’chabog’ shahar mikrotoponimiya-siga xos. Ikki tomoniga daraxt ekilib, o’rtasida yo’l (guzar)i bo’lgan xiyobon bog’ko’cha deyilgan.

BOG’OBOD – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1995-yili mart oyida tashkil topgan. O’tmishda bu hudud bog’lardan iborat bo’lgani uchun shunday nomlangan. “Farhod”, “Birlik”, “Bog’iston”, “Ko’hna Cho’ponota”, “Katta Cho’ponota” mahallalari bilan chegaradosh.

“Bog’obod” – tabiat go’zalligi, obodlik va yashillik timsoli bo’lgan chiroyli va ma’noli nomdir.

“Bog’” – daraxtzor, gulzor, mevazor, dam olish uchun yaroqli yashil hudud. “Obod” – obod, rivojlangan, yashash uchun qulay joy. Qo’shma shaklda “Bog’-obod” – bog’lar bilan bezangan obod maskan, ya’ni yashil va go’zal tabiat qo’rg’oni ma’nosini beradi.

BOG’SAROY – Yakkasaroy tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilgacha “Pedagoglar” mahallasi deb nomlangan. 1993-yildan “Turkiston” deb yuritilgan. Joydagi ko’cha nomi bilan uyg’unlashtirish maqsadida, 2016-yilda “Bog’saroy” deb qayta nomlangan. “Tepa”, Yunus Rajabiy, Hamid Sulaymonov, “Konstitutsiya”, “Farovon”, At-Termiziy, “Lolazor” mahallalari bilan chegaradosh.

“Bog’saroy” nomi o’zbek tilida “bog’” va “saroy” (saroy yoki katta bino) so’zlaridan tashkil topgan bo’lib, “bog’ saroyi” yoki “bog’dagi saroy” ma’nosini anglatadi. Bu nom mahalla hududida tarixiy bog’ yoki saroy mavjudligini yoki hududning go’zal bog’lari bilan mashhur ekanligini ifodalaydi.

BODOMZOR – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. Mahallaga XIX asr o’rtalarida asos solingan. Eski shahardagi “Shayxontohur”, “Sebzor”, “Labzak”, “Beshog’ayni”, “Raisko’cha” mahallalari fuqarolarining shu hududda bog’ hovlilari bo’lgan. Bog’ hovlilar Bo’zsuv kanali bo’yida joylashgani uchun ko’plab turli mevalar (o’rik, yong’oq, uzum, olma, nok, bodom, shaftoli, olcha, gilos) yetishtirishgan. Shuning uchun mahallaga 1935-yilda “Bodomzor” nomi berilgan. “Xiyobontepa”, “Yangitarnov”, “Otchopar-1”, Shayx Shibliy, “Bo’zsuv” mahallalari bilan chegaradosh.

BOYQO‘RG‘ON – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. Dastlab Sharof Rashidov nomi bilan atalgan. Mahalla nomini joydagi ko‘cha nomi bilan uyg‘unlashtirish hamda takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2012-yilda “Boyqo‘rg‘on” deb qayta nomlangan. “Darxon”, “Istiqlol”, Cho‘lpon, “Semurg‘”, “Do‘stobod”, “Yangi Olmachi”, “Turon”, “Mashinasozlar”, Mirzakalon Ismoiliy mahallalari bilan chegaradosh.

“Boyqo‘rg‘on” nomi o‘zbek tilida “boy” (badavlat yoki boy) va “qo‘rg‘on” (qal‘a yoki mustahkam joy) so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, “boylarning qo‘rg‘oni”, “boy qo‘rg‘on”, “ulkan qal‘a, yirikligi va boshqa belgilari bilan boshqalardan ajralib turadigan qo‘rg‘on” ma‘nosini anglatadi.

BOYSUN – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1930-yilda tashkil topgan. 2009-yilgacha mahalla faoli G‘ulomota Usmonov nomi bilan atalgan. Mahalla hududidagi asosiy ko‘cha nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida 2009-yil aprel oyidan hozirgi nomda. Muxtor Ashrafiy, Jo‘rabek, “Shirinobod”, Ahmad Yassaviy mahallalari bilan chegaradosh.

Boysun Surxondaryo viloyatidagi eng qadimiy aholi manzilgohlaridan hisoblanadi. Boysunda miloddan avvalgi taxminan 5-ming yillik oxirida aholi yashaganligi ma‘lum. Milodiy VI–XIII asr boshlarida Boysun o‘rnida Chag‘oniyon shaharlaridan biri – Bosand joylashgan. Abu Is‘hoq Istaxriyning “Kitob masolik va al-mamolik” (“Mamlakatlar yo‘llari to‘g‘risida kitob”) asarida ham Bosand deb ta‘riflangan. Bu haqda “Zafarnoma”da ham qayd etilgan. XIX asrda Boysun Buxoro amirligi davrida Surxondaryodagi uchta beklikdan birining markazi bo‘lib, unda badavlat turkiy qavmlar yashashgan.

Chig‘atoy ulusi tarkibiga mansub ko‘chmanchi turkiy qavmlar unga “Boysun” deb nom berishgan. “Boysun” atamasi qadimiy turkiycha “boy” va “sin”dan olinib, “ulug‘ tog‘” yoxud “katta tog‘” ma‘nosini ifodalagan. V.V. Verbiskiyning XIX asr oxirida tuzgan lug‘atida ham “sin” so‘zi orografik obyekt tarzida ifodalashi qayd qilingan.

T.Nafasovning yozishicha, “sin” so‘zining areali ancha keng, orografik obyekt – tog‘, tog‘ tizmasini bildirishi Oltoy, Sibirda saqlangan, qad-qomat, bo‘y-bast ma‘nosini ifodalashi Volgabo‘yi, Markaziy Osiyo, Qozog‘istonda saqlanib qolgan.

Tog‘, tog‘ tizmasi “sin” so‘zining qadimgi, birlamchi ma‘nosi, “bo‘y, qad-qomat” ma‘nosi ikkilamchidir. O‘zbek xalq dostonlaridagi Boysin yurti ham tog‘ va o‘lka nomidir.

BOTIRMA – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1982-yil “17-mavze” nomi bilan tashkil topgan, 1992-yil aprelda mahalla qo‘mitasiga yuridik shaxs maqomi berilgan. 2006-yildan shu joydan o‘tgan qadimgi ariq nomi bilan “Botirma” deb nomlangan. Suvga yaqin hudud – “Botirma” so‘zi “botirmoq” (suvga cho‘kmoq, botmoq) so‘zidan kelib chiqqan. “Zarqo‘rg‘on”, “Mehrjon”, “Kichik Xirmontepa”, “Naqqoshlik”, “Qatortol-2”, “Bo‘rijar”, “Fidokor” mahallalari bilan chegaradosh.

BOSHLIQ – Yakkasaroy tumanidagi mahalla va dahaning nomi. Mahalla 1981-yilga qadar mayda ko‘chalardan tashkil topgan. 1981-yildan ular o‘rniga ko‘p qavatli binolar qurilib, Boshliq dahasi deb nom berilgan. Mahalla nomi shundan olingan. “Qushbegi”, “Dilbuloq”, “Armug‘on”, “Muhandislar” mahallalari bilan chegaradosh.

Boshliq dahasi Toshkent shahrini rekonstruksiya va obod qilish davlat loyiha-lash instituti loyihasi asosida 1982–83-yillarda qurilgan. “Boshliq”, “Armug‘on” mahallalarida joylashgan.

1986-yilda “Boshliq” mahallasidan “Qushbegi” mahallasi ajralib chiqqan. O‘tmishda Qo‘qon xonligi davrida Toshkentni Lashkar qushbegi boshqarganligi ma‘lum (1810–1842). Qushbegi – amir va xonlar saroyida bosh vazir yoki huquqi vazirga teng bo‘lgan yirik amaldor, hokim hisoblangan. Shuning uchun bu mahal-laga Boshliq deb nom berilgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

BO‘Z – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla va dahalarning nomi. Mahalla 1989-yil 24-fevraldan “Bo‘z-2” nomi bilan tashkil topgan. Mahalla nomini tar-tibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Bo‘z” deb qayta nomlangan. “Sayram”, “Buyuk ipak yo‘li”, “Oliyhimmat”, “Alpomish”, “Elobod”, “Olimlar”, “Bahor”, “Navnihol” mahallalari bilan chegaradosh.

Bo‘z dahalari shaharning shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Daha 1964–66-yillarda Cherdansev nomi bilan qurilgan bo‘lib, me‘morlar G.M. Aleksandrovich, R.M. Valiyev, V.Muratov va boshqalar tomonidan loyihalashtirilgan. Bo‘z-1 dahasi “Bo‘z” mahallasida, Bo‘z-2 dahasi “Bahor” mahallasida joylashgan.

“Bo‘z” so‘zi o‘zbek tilida “bo‘z tuproq” yoki “bo‘z yer” ma‘nosini anglatadi. Bu nom mahalla hududining tuproq xususiyatlariga ishora qiladi.

BO‘ZSUV – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1924-yilda tashkil topgan. Bo‘zsuv bo‘yida shahar aholisining bog‘ hovlilari bo‘lgan. 1926-yilda Bo‘zsuv GES qurilgach, uning atrofi obod bo‘lib, shaharliklar uchun sayilgohga aylangan. Choyxonalar, dam olish maskani barpo qilingan. Shundan so‘ng mahalla tashkil etilib, “Gidrostantsiya” deb atalgan. Asta-sekin aholi soni ortib, bog‘lar barpo bo‘lgan, ko‘p hovlilarda o‘rik ko‘chatlari ekilgan. Shundan boshlab bir necha ko‘cha nomlari Mingo‘rik deb nomlangan va 1991-yilda mahallaga “Mingo‘rik” nomi berilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Bo‘zsuv” deb qayta nomlangan. “Yangitarnov”, “Bog‘ibo‘ston”, “Otchopar-1”, “Otchopar-2”, Shayx Shibliy, “Bodomzor” mahallalari bilan chegaradosh.

“Bo‘zsuv” nomi “bo‘z” (kulrang) va “suv” so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, suvning rangi yoki xususiyatlariga ishora qilishi mumkin. Shuningdek, “Bo‘zsuv” Chirchiq daryosining o‘ng sohilidagi magistral kanal nomi bo‘lib, Toshkent va uning atrofini sug‘oruvchi asosiy ariqlardan biridir. Muhammad Solihxo‘janing (1830–1890) “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida Bo‘zsuv kanali qazilishiga oid rivoyat keltirilgan: “... Podshoh Kaykobus va podshoh Salor zamonida Kayqobus buyrug‘i bilan shahardan uch tosh bo‘lgan Bandi Podshoh degan yerda Farak

(Chirchiq) daryosidan katta anhor qazildi va ikki toshga yetkazilgach, u ikki tarmoqqa bo'lindi. Biri sharqdan janubga yo'naltirildiki, u yerdan shahargacha chorak farsang (1,5 km)dir. Viloyatning oxiri bo'lgan g'arb tarafga oqadigan bu ariq Salor nomiga mansubdir. Yana birini shu mavzedan shahar tashqarisigacha yetkazib, Kayqobus nomini qo'ydilar. Hozir Kayqobus arig'ini odamlar Bo'zsuv deb ataydilar".

BUNYODKOR – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. Taxminan 1960-yilda tashkil topgan. "Bilimdon", "Yangidavr", "Katta Yangiobod", "Yosh avlod", "Fayziobod", "Parvona", "Xosiyatli" mahallalari bilan chegaradosh.

"Bunyod" so'zi "qurish, barpo etish" degan ma'nolarni bildiradi, "-kor" qo'shimchasi esa "ish qiluvchi, ijro etuvchi" ma'nosini beradi. Shunday qilib, "Bunyodkor" – "yaratuvchi, quruvchi, obodonlashtiruvchi" degan ma'nolarga ega.

BUNYODOBOD – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 2019-yilda "Mehrigiyo" mahallasini bo'lish hisobiga tashkil etilgan yangi mahalla. Habibiy, "Yuqori Darxon", "Qut-baraka", "Yangi Bunyodobod", "No'g'oyqo'rg'on", "O'zgarish" mahallalari bilan chegaradosh.

"Bunyodobod" nomi o'zbek tilida "bunyod" (qurilish yoki yaratilish) va "obod" (farovon yoki rivojlangan) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, "qurilgan obod joy" yoki "rivojlangan qurilish" ma'nolarini anglatadi.

BO'RIJAR – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. O'tmishda bu yerlar "Bo'rijar" deb atalgani uchun 1970-yil mahallaga shu nom berilgan. "Xayrobod", "Botirma", "Mehrijon", "Kichik Xirmontepa", "Shuhrat", "Yakkabog'", "Qatortol-2", "Yakkatut", "Mevazor" mahallalari bilan chegaradosh.

"Bo'rijar" gidronimi tadqiqotlarda har xil talqin qilingan: "Bo'rijar" *aslida "bo'z" (oqish, oqimtir) va "jar" so'zlarining o'zgargan shakli deb hisoblagan toponimist S.Qorayev. L.Karimovanning fikriga ko'ra, bu yerda chiyabo'ri ko'p bo'lganidan xalq ariq oqib o'tgan jarni va ariqni "Bo'rijar" deb atagan. Chunki Bo'rijar kanalining o'zani chuqur bo'lib, qirg'oqlari tikligi va atrofi keng chakalakzor bo'lganligi tufayli yovvoyi hayvonlar ham uchrab turgan.*

Bizningcha, "Bo'rijar" gidronimining etimologiyasini "Bo'zsuv"dan olib qaragan to'g'riroq, chunki *Bo'rijar arig'i* Bo'zsuv kanalining davomi va "*Bo'r-jar*" – "*Bo'z jar*" – "*Bo'zsuv oqqan jar*" iborasining qisqargan shaklidir.

BO'STON – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. 1959-yildan Toshkent viloyati Kalinin tumani yerlariga aholi ko'chib kelib, yangi bir hudud tashkil bo'lgan. 1978-yilda bu hudud Toshkent shahrining hozirgi Shayxontohur tumaniga o'tib, "Bo'ston" mahallasi nomini olgan. Mirzo G'olib, "Orzu", "Zafarobod", Huvaydo, "O'zbekiston", "Universitet" mahallalari bilan chegaradosh.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da (1981) arabcha *bo'ston* so'zi "*bog'*", "*dala*", "*tomorqa*", "*poliz*", "*bog'-rog'li obod yer*" kabi ma'nolarni anglatishi qayd etilgan.

Bo'ston so'zi o'zbek tilida *"yashnagan bog"*, *"obod va ko'rkam maskan"* ma'nosida ishlatilishini ham e'tiborga olish lozim.

BO'STONOBOD – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 2003-yil 6-dekabrda "Istiqbol" mahallasidan mustaqil bo'lib ajralib chiqqan va aholi talabiga asosan "Bo'ston" deb nomlangan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda "Bo'stonobod" deb qayta nomlangan. "Istiqbol", G'ani A'zamov, "Paxta", "Zamondosh", "Ziyo", "Qichqiriq" mahallalari bilan chegaradosh.

Bo'stonobod so'zi "obod, go'zal bog'lar joylashgan hudud" yoki "yashil va rivojlangan maskan" degan ma'nolarni anglatadi.

BUYUK IPAK YO'LI – Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla va mavzening nomi. Dastlab mahalla Ahmad Yassaviy deb atalgan. Joydagi asosiy ko'chalardan birining nomi bilan uyg'unlashtirish hamda takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda "Buyuk ipak yo'li" deb qayta nomlangan. "Bo'z", "Sayram", "Podshobog'", "Elobod", "Yangi Olmachi" mahallalari bilan chegaradosh.

Buyuk ipak yo'li mavzesi 1966-yilgi Toshkent zilzilasidan keyin loyihalashtirilgan (me'morlari: L.Adamov, A.Arzumanov, B.Borisoglebskiy, N.Breusov, A.Vanke, Y.Miroshnichenko va boshqalar). Qurilish ishlarida, asosan, moskvalik quruvchilar ishtirok etishgan. Dastlab mavze Markaz-1 (S-1) deb atalgan. Hudud qadimgi Buyuk ipak yo'lida joylashgani uchun, 2000-yilda "Buyuk ipak yo'li" deb qayta nomlangan. "Oqibat", "Nur", "Shahrisabz" mahallalarida joylashgan.

Mahalla va mavze nomlanishida Toshkentning tarixiy savdo markazi bo'lgani va hudud orqali o'tgan muhim yo'llardan biri Buyuk ipak yo'li bo'lgani inobatga olingan. Shuningdek, Toshkent shahrida Buyuk ipak yo'li ko'chasi va shu nomdagi metro bekati mavjud bo'lib, ular ham bu nomning tarixiy ahamiyatini mustahkamlaydi.

BUYUK TURON – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1993-yil 27-noyabrda ushbu hududda Markaz-2 (S-2) nomi bilan mahalla tashkil etilgan. 1994-yilda "Turon" nomi berilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda "Buyuk Turon" deb qayta nomlangan. "Minor", Mirzo Ulug'bek, "Matonat", "Lashkarbegi", "Qashqar", "Mustaqillik", Hamid Olimjon mahallalari bilan chegaradosh.

Mahallaning nomi *buyuk* va *Turon* so'zlaridan tashkil topgan. Apellyativning birinchi komponenti – *buyuk* so'zi *"O'zbek tilining izohli lug'ati"*da *"hajm-o'lchovi odatdagidan ortiq, katta; ulkan. Ulug'vor, yuksak, tengsiz, mislsiz. Aziz, mo'tabar"* tarzida ifodalangan (O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild, 390-bet).

Uning ikkinchi komponenti Turon – bu turklar, turkiy qabilalarning yurti degan ma'noni bildirib, keyinchalik Turkiston tushunchasiga aylangan. Turkiston termini sug'dcha – yer, tuproq, dala va dasht kabi ma'nolarni ifodalagan. Shunga ko'ra, Turkiston, Turon toponimi pasttekislik, dala-yu dashtliklar, ya'ni keng yaylovlar degan ma'noni anglatgan.

VATAN – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1992-yil 11-noyabrda tashkil topgan. 1966-yildagi zilziladan so‘ng boshqa respublikalardan Toshkentga turli millat vakillari kelib, boshpana topganlar. Ularning bir guruhi shu hududda yashab, uni o‘z vatanimiz, vatan ichida “vatan” bo‘lsin, deb shu nomni taklif etishgan. “Tinchlikobod”, “Nurobod”, “Farhod”, “Zargarlik”, “Nayman”, “Shirin” mahallalari bilan chegaradosh.

VATANDOSH – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1991-yilda tashkil topgan bo‘lib, shoir Usmon Nosir nomi berilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Vatandosh” deb qayta nomlangan. “Tuzel”, “Tong”, “Mohinur”, “Parvoz”, “Birlashgan”, Al-Buxoriy, Amir Temur mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi “vatandosh” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu atama “vatan” (yurt) va “dosh” (do‘st) so‘zlarining birikmasidan hosil bo‘lgan. “Vatandosh” so‘zi odatda bir millatga mansub, bir vatandan chiqqan yoki bir xil kelib chiqishga ega bo‘lgan kishilarni ifodalaydi.

VATANPARVAR – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 2005-yilda “Vatan” mahallasidan ajralib chiqib, tashkil topgan. “Nurobod”, “Vatan”, “Hamdo‘st”, “Shirin” mahallalari bilan chegaradosh.

Vatanparvar – bu so‘z “vatan” (o‘z yurti, tug‘ilib o‘sgan joy) va “parvar” (g‘amxo‘r, muxlis, himoyachi) so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, “o‘z vatanini sevuvchi, unga sadoqatli va fidoyi inson” degan ma’nolarni bildiradi va mustaqillik yillarida yangicha yondashuv asosida qo‘yilgan joy nomidir.

VIQOR – Yangihayot tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Sergeli tumani-dagi mahallalarning hududiy chegaralarini qayta ko‘rib chiqish hisobiga Yangi-hayot tumaniga o‘tkazilgan. Eski nomi – “Polvonyor”. Mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Viqor” deb qayta nomlangan. “Nilufar”, “Navqiron”, “Yo‘ldosh”, “Chorbog‘”, Al-Farg‘oniy mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi arabcha “viqor” so‘zidan olingan bo‘lib, “salobat”, “oliyjanoblik” va “jiddiylik” ma’nolarini anglatadi. “Viqor” – shaxsning ichki kuch-g‘ayrati, qadr-qimmat va hurmatga sazovorligini ifodalovchi keng ma’noli so‘zdir.

GAVHAR – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 2015-yilda “Do‘mbirobod” mahallasidan ajralgan yangi mahalla. Hududdagi asosiy ko‘chalardan biri nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, shunday nomlangan. “Tirsakobod”, “Katta Do‘mbirobod”, “Yakkasaroy”, “Katta Qozirabot”, “Do‘mbirobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi arabcha “gauhar” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “mohiyat”, “qimmatbaho tosh”, “haqiqiy nodirlik” ma’nolarini anglatadi. “Gavhar” – nafaqat moddiy qimmatbaho toshni, balki ma’naviy boylik, beqiyos qadriyat va nodirlikni ifodalovchi yuksak so‘zdir.

G‘AYRATIY – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1960-yilda aholi soni-ning ko‘pligi sababli sobiq Karl Marks mahallasi ikkiga bo‘linib, shoir G‘ayratiy

nomi berilgan. Miskin, “Qo‘shchinor”, “Anorzor”, “Shahriston”, Jomiy, “Iftixor”, “Registon” mahallalari bilan chegaradosh.

G‘ayratiy (taxallusi; asl ismi Abdurahim Abdullayev, 1902–1976) – o‘zbek shoiri, dramaturg va tarjimon. G‘ayratiy ijodi o‘zbek adabiyotining XX asr boshlaridagi rivojiga katta hissa qo‘shgan va uning she‘rlari hamon dolzarb hisoblanadi.

G‘ALABA – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1986-yilda tashkil topgan. “Tabassum”, “Umid”, “Shon-shuhrat”, “Yuqori Beshqo‘rg‘on”, “Nihol”, “Tepaguzar” mahallalari bilan chegaradosh.

G‘alaba – bu so‘z “yengish, muvaffaqiyat qozonish, zafar” degan ma‘nolarni bildiradi. G‘alaba faqat jismoniy g‘oliblik emas, balki ma‘naviy, intellektual va ijtimoiy zafarni ham ifodalovchi so‘zdir.

G‘ANI A‘ZAMOV – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. Mahalla tarixi XX asrning 50-yillaridan boshlanadi. 1958-yildan uy-joy qurish ishlari boshlangan va Abdulla Nabiyeov mahallasi tashkil qilingan. 2003-yili O‘zbekiston xalq artisti G‘ani A‘zamov nomi berilgan. “Oltinsoy”, “Guruchariq”, “Taraqqiyot”, “Zamondosh”, “Bo‘stonobod”, “Qichqiriq” mahallalari bilan chegaradosh.

G‘ani A‘zamov (1909–2001) – O‘zbekiston xalq artisti, teatr va kino san‘atining taniqli aktyori. G‘ani A‘zamov 1909-yilning 7-yanvar kuni Toshkent shahrida tug‘ilgan. Uning aktyorlik faoliyati 1930-yili Hamza nomidagi drama teatri (hozirgi O‘zbek Milliy akademik drama teatri)da boshlangan. O‘zining 60 yillik ijodiy faoliyati davomida G‘ani A‘zamov buyuk ustozlar qo‘lida doimiy ravishda san‘at sirlarini o‘rganib kelgan. O‘z ustida tinimsiz ishlashi va ijodiy izlanishlari natijasida mukammal obrazlar yaratishga erishib, tomoshabinlarning mehriga sazovor bo‘lish barobarida, o‘zbek teatr san‘atining ulkan namoyandalari qatoridan mustahkam o‘rin egallagan. 1961-yilda “O‘zbekiston xalq artisti” faxriy unvoniga sazovor bo‘lgan va bir necha orden va medallar bilan mukofotlangan. 2001-yilda Toshkentda vafot etgan.

GEOLOGLAR – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga o‘tkazilgan. Eski nomi – “Taraqqiyot”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Geologlar” deb qayta nomlangan. “Geofizika”, “Yalang‘och”, “Jasorat”, “Gulsanam”, “Chimyon”, “Temuriylar”, Humoyun mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi “geolog” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, geologiya sohasi mutaxassisligini bildiradi. Bu nom mahalla hududida geologiya bilan bog‘liq tashkilotlar yoki obyektlarning mavjudligi bilan bog‘liq.

GEOFIZIKA – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. “Zakovat”, “Alisherobod”, “Jasorat”, “Yalang‘och”, “Beshkapa”, “Geologlar”, “Chimyon”, Humoyun mahallalari bilan chegaradosh.

Geofizika – yer sharining umumiy fizik xossalarini, uning qattiq, suyuq va havo qatlamlaridagi jarayonlarni o‘rganadigan fanlar majmuidir. Yerning geo-

logik tuzilishini o'rganishda, ayniqsa, neft va gaz konlarini qidirib topishda geofizik qidiruv usullari katta ahamiyatga ega.

O'zbekistonda geologiya-qidiruv ishlari hajmining ortishi 1957-yili ixtisoslashtirilgan "O'zbekiston geofizika tresti"ni, hozirgi "O'zbekgeofizika" aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bu Respublika hududida keng ko'lamli va maqsadli geofizik tadqiqotlar olib borishga xizmat qildi. 1995-yilgacha "O'zbekiston geofizika tresti" Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tarkibida faoliyat yuritgan. 1996-yilda korxona "O'zbekgeofizika" aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilib, "O'zbekneftgaz" xolding kompaniyasi tarkibiga kirdi. 2019-yildan "O'zbekgeofizika" AJ Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tarkibida faoliyat yuritmoqda.

"O'zbekgeofizika" aksiyadorlik jamiyati mutaxassisleri va xodimlari uchun dastlab shu mahalla o'rnida uy-joylar qurilgan va shu sababli mahalla "Geofizika" deb nomlangan.

GOSPITAL – Mirobod tumanidagi daha nomi. Abdulla Avloniy mahallasida joylashgan.

Gospital (Госпитальный) – bu nom Mirobod bozori (ilgari Gospital bozori) atroflarini rekonstruksiya qilish natijasida paydo bo'lgan. Avvaliga "Госпитальный" loyiha nomi sifatida belgilangan bo'lsada, rekonstruksiya tugallangandan va yangi turar joylar hamda boshqa obyektlar qurilgandan so'ng, bu nom o'zgarishsiz qolgan. Ushbu nom 1868-yili Toshkentdagi birinchi tibbiyot muassasasi sifatida tashkil etilgan ikkinchi toifali Toshkent harbiy gospitali bilan bog'liq. Gospital Госпитальная ko'chasida joylashgan bo'lib, bu ko'cha 1924-yili Kafanov ko'chasi deb nomlangan. Hozirgi kunda esa uning nomi Avliyoota ko'chasi deb ataladi.

Gospital (lotincha *hospitalis* – "mehmondo'st", "iltifotli") – harbiy xizmatchilarga statsionar davolash yordami ko'rsatish uchun mo'ljallangan tibbiyot muassasasi.

GO'ZAL – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2010-yil 29-avgustdagi 96-II-son qarori va Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 24-sentyabrdagi 213-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 2010-yilda tumanga qo'shilgan yangi mahalla. "Bog'bon", "Olmos", "Donishmand", "Qalqon", "Dilbog'", "Tong", "Uchchinor", "Iltifot", "Parvoz", Al-Buxoriy, "Shohsanam" mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi o'zbek tilida "chiroyli, latofatli, dilbar" ma'nolarini bildiradi. "Go'zal" – nafaqat tashqi chiroy, balki ma'naviy nafosat va inson ruhiyatining yuksakligini ham ifodalovchi so'zdir.

GUZAR – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda "Guzar" nomi bilan tashkil topgan. "Xuroson", "Tinchlikobod", Lutfiy, "Qo'rg'ontepa", Cho'ponota, "Bog'iston", "Ko'hna Cho'ponota", "Ko'tarma" mahallalari bilan chegaradosh.

Guzar so'zi tojikcha bo'lib, *guzashtand* – "o'tmoq" fe'lining hozirgi zamon

shaklidir. Aholi turar joy nomlari tarkibida mazkur soʻz mahalla maʼnosini ifoda etadi. Hozir, koʻpincha, *guzar* deyilganda, mahallaning markazi – odamlar yigʻiladigan joy, doʻkon, choyxona va shunga oʻxshash boshqa ijtimoiy obyektlar boʻlgan obod joy tushuniladi.

GUZARBOSHI – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. Mahalla XX asr boshlarida tashkil topgan, ilgari “Qilbelbogʻ”, “Ittifoq” nomlari bilan atalgan. 1999-yilda akademik Obid Sodiqov va “Ittifoq” mahallalari toʻlaligicha, “Achaobod”, “Tepa”, “Chimboy”, “Qoʻshtut”, Shoshiy, Hastimom mahallalarining bir qismi qoʻshilishidan “Guzarboshi” mahallasi vujudga kelgan. Guzarboshi – yoʻl boshi degan maʼnoni anglatadi. Shu yerdan Sagʻbon darvozasi orqali Qozogʻistonning janubiy viloyatlariga yoʻl ketgan. “Chinniobod”, “Achaobod”, “Guruchariq”, Hazrati Imom, “Qoʻshtut”, Abu Bakr Shoshiy, “Zarhal” mahallalari bilan chegaradosh.

GULBOGʻ – Bektemir tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanidan Bektemir tumaniga oʻtkazilgan. Iykota, Abay, Husayn Boyqaro, “Ustozlar”, “Zabardast” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi oʻzbek tilida “gul” va “bogʻ” soʻzlaridan tashkil topgan boʻlib, “*istirohat bogʻi, gul ekilgan bogʻ, gulzorli bogʻ, guliston*” maʼnolarini ifodalaydi.

GULBOZOR – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Tarixiy manbalarga koʻra, “Gulbozor” mahallasi Toshkentning qadimiy qismlaridan biri boʻlib, “Chorsu” bozori va Shayxontohur dahasi bilan bogʻliq boʻlgan. Bu esa uning tarixiy savdo va madaniy markaz sifatida shakllanganini koʻrsatadi. Aholisi oʻzbeklar boʻlib, hunarmandchilik (tunukasozlik, boʻz toʻqish), dehqonchilik (mahalla aholisining dehqonchilik yerlari va bogʻlari Nazarbek, Qorasuv, Choʻponota mavzellarida boʻlgan), savdo bilan shugʻullanishgan. Uchta masjid, bir necha rasta, 2 qavatli mehmonxona, doʻkonlar boʻlgan. Germaniyaning “Zinger” firmasi tikuv mashinalari shu yerda sotilgan (XX asr boshlari). Arxeologik maʼlumotlarga koʻra, bu mahalla oʻrnida IX–XII asrlarda Binkatning arki va shahristoni joylashgan boʻlib, aholi zich yashagan. Mahalla “Gulobod”, “Chorsu”, Hastimom, Hofiz Koʻhakiy, “Eskishahar”, “Chaqaq”, “Olmazor”, “Xadra” mahallalari bilan chegaradosh.

GULZOR – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1955-yilda tashkil topgan. 1979–96-yillar Hamza nomi bilan atalgan. 1996-yildan hozirgi nomda. “Chuqursoy”, “Gulsaroy”, Ibrohimota, “Ahil”, “Elparvar”, “Yangi Toshkent” mahallalari bilan chegaradosh.

“Gulzor” mahallasidan Qorasaroy darvozasiga boruvchi Buyuk ipak yoʻli oʻtgan. Shu sababli, bu mahallada savdo-sotiq, hunarmandchilik, bogʻdorchilik, dehqonchilik yaxshi rivojlangan. Mahalla aholisi Hasanboy arigʻi suvidan isteʼmol qilib kelgan, yerlari unumdor boʻlgan.

“Gulzor” mahallasi nomi uzoq oʻtmish bilan bogʻliq boʻlib, bu joylarda 1920–1940-yillarda Qorasaroy, Chuvalachi, Qumloq, Hastimom hududida yashovchi bir nechta xonadonlarning bogʻlari boʻlib, bogʻda va bogʻ atroflarida

juda ko‘p gullar ekilgan. Mahalla hududi xushmanzara, qizil gullarga boy bo‘lgani uchun, bahorda gul sayllari o‘tkazilgan, unda o‘zbek milliy kurashi bo‘yicha polvonlar bellashgan. O‘tgan asrning 20–30-yillarida mahallaning polvonlaridan Rahim polvon, Mahkam polvon, Tojivoy polvonlarning milliy kurash bo‘yicha ko‘kraklari yerga tekkan emas.

Bu hududda Oxunboboyev nomidagi kolxoz tashkil bo‘lganda, kolxozga tegishli bo‘lgan bir necha gektar yerda atirgul maydonlari bo‘lib, kolxozga atirgul ko‘chatlari va gullar yetkazib berilgan. “Gulzor” mahallasining eski idorasi mazkur kolxoz tomonidan ajratilgan yerda 1950–1960-yillarda hashar yo‘li bilan Qodirota Xoliqov boshchiligida qurilgan.

Gulzor toponimining tarkibi ikki komponent: *gul* so‘zi va *-zor* so‘z yasovchi qo‘shimchalarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. *Gul* – ziynat uchun ekiladigan yoki o‘zi o‘sadigan gulli o‘simliklar, chechaklar. Demak, *Gulzor* – “*gullar bilan ishg‘ol etilgan yer*”, “*gulshan*”, “*chamanzor*”, “*gul ekilgan obod joy*” degan ma’nolarni anglatadi.

GULZOROBOD – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga o‘tkazilgan. Eski nomi – “Gulzor-1”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Gulzorobod” deb qayta nomlangan. Avayxon, “Sarbon”, “Yangi Avayxon”, “Ko‘hna Mevazor”, “Temuriylar” mahallalari bilan chegaradosh.

Xalq etimologiyasiga ko‘ra, mahallada gulzorlar ko‘p bo‘lganligi sababli shunday nomlangan. Uning tarkibi ikki komponent: *gul* so‘zi va *-zor* so‘z yasovchi qo‘shimchalarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. *Gul* – ziynat uchun ekiladigan yoki o‘zi o‘sadigan gulli o‘simliklar, chechaklar. *Obod* – ba’zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo‘shilib joy nomini yasaydigan, “obodonlashtirilgan”, “o‘zlashtirilgan”, “gullab-yashnagan”, “go‘zal” ma’nosidagi so‘z. Demak, Gulzorobod – “*gullar bilan ishg‘ol etilgan yer*”, “*gulshan*”, “*chamanzor*”, “*gul ekilgan obod joy*” degan ma’nolarni bildiradi.

GULISTON – Chilonzor tumanidagi mahalla va dahaning nomi. Mahalla Al-Xorazmiy, “Bekto‘pi”, “Bahoriston”, Alixonto‘ra Sog‘uniy mahallalari bilan chegaradosh. Bunga qadar “Moskva” kolxoziga qaragan.

Guliston dahasi “Guliston”, “Bahoriston” mahallalarida joylashgan. *Gul* so‘zi joy nomlari tarkibida ko‘p uchraydi va toponimlar yasashda ancha faol qo‘shimcha hisoblanadi. Cho‘l, dasht yoki umuman o‘zlashtirilmagan joyda tashkil qilingan obod, yashnagan, bog‘-rog‘lari ko‘p joy – Guliston. O‘tgan asrda bu nom yangidan o‘zlashtirilgan joylarda tashkil etilgan aholi punktlariga ko‘p marotaba berildi. Hozirda *Guliston*, *Bo‘ston* kabi nomlarni respublikamizning barcha mintaqalarida uchratish mumkin. Joyning obodlik belgisi bo‘lgan *guliston* so‘zi geografik obyektlarni nomlash qonuniyatlari talabiga to‘la javob berganligi sababli atoqli otga aylangan.

GULOBOD – Shayxontohur tumanidagi mahalla va mavzening nomi. Mahalla 1993-yilda tashkil topgan. Bunga qadar “Moskva” kolxoziga qaragan. Hududida

qadimdan Kaykovus arig'idan 3 tegirmonga yaqin suv oqqan, suv bo'yidagi aholi bog'lari, hovlilariga turli atirgul navlari ekib, gulchilikdan ro'zg'or tebratishgan. Aksariyat xonadonlarning 20-30 sotixli gulzorlari bo'lgan. Mavze, mahalla va ko'cha shu bois "Gulobod" deb atalib kelingan. Mahalla Chustiy, "Obinazir", "Eskishahar", "Chorsu", "Sarxumdon", "Gulbozor", "Bog'ko'cha" mahallalari bilan chegaradosh.

Gulobod mavzesi "Sarxumdon", "Obinazir", "Kattahovuz" mahallalari o'rni-da tashkil etilgan va Beruniy, Laylito'g'on, Ko'kcha Darvoza va Gulobod ko'chalari oralig'ida joylashgan. Qurilish ishlari "ToshkentboshplanLITI" instituti ishlab chiqqan loyiha bo'yicha 1975–76-yillarda boshlangan. "Obinazir", "Gulobod", "Sarxumdon" mahallalarida joylashgan.

GULSANAM – Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla nomi. 1991-yilda tashkil topgan. Buyuk shoir Bobur nomi bilan atalgan. Hududdagi asosiy ko'chalardan biri nomi bilan uyg'unlashtirish maqsadida, 2016-yilda "Gulsanam" deb qayta nomlangan. "Katta Qorasuv", "Geologlar", "Chimyon", "Temuriylar" mahallalari bilan chegaradosh.

"Gulsanam" – nafosat, noziklik va go'zallikni ifodalovchi so'z. "*Gul*" – chiroyli, xushbo'y, nafis o'simlik (gul). "*Sanam*" – latofatli, go'zal ayol. Demak, "Gulsanam" – gul kabi nafis va sanam kabi jozibali ayol ma'nosini beradi.

GULSAROY – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1974-yil 20-oktyabrda "Do'stlik" nomi bilan tashkil topgan. Bu joydan o'tadigan asosiy ko'cha nomi bilan uyg'unlashtirish hamda takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda "Gulsaroy" deb qayta nomlangan. Ibrohimota, Miskin, Islomota, "Chuqursoy", "Taraqqiyot", "Gulzor" mahallalari bilan chegaradosh.

"Gulsaroy" – nafosat, go'zallik va fayzli muhitni ifodalovchi toponim bo'lib, ikki qismdan tashkil topgan: "gul" va "saroy". "Gul" – go'zallik, nafislik va latofat timsoli bo'lgan o'simlik. "Saroy" – keng, fayzli va obod maskan. Mahalla nomi gullar bilan bezatilgan go'zal maskanni, tabiat go'zalligi va obod muhitni anglatadi.

GULSHANOBOD – Yangiheyot tumanidagi mahalla nomi. Sergeli tumanidagi "Humo" mahallasining hududiy chegaralarini qayta ko'rib chiqish hisobiga tashkil etilgan yangi mahalla. 2021-yilda Yangiheyot tumaniga o'tkazilgan. "Yangiheyot", "Olchazor", "Xushnud", "Yangi Darxon", "Oriyat", "Marhamat" mahallalari bilan chegaradosh.

Gulshan – "gullar bilan to'la bog', go'zal gulzor" degan ma'nolarni anglatadi. Obod – "rivojlangan, chiroyli va yashash uchun qulay joy" ma'nosiga ega. Shu sababli, Gulshanobod so'zi "gullar bilan bezalgan, obod va go'zal joy" degan ma'nolarni bildiradi.

GURUCHARIQ (Gurunchariq) – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. Toshkentning qadimgi mahallalaridan biridir. Mahalla aholisining aksariyati Qichqiriq anhuri atrofida istiqomat qilishgan. "Achaobod", "Taraqqiyot", "Chinniobod",

“Qorasaroy”, “Guzarboshi”, Hazrati Imom, “Chimboy”, “Zamondosh”, G‘ani A‘zamov mahallalari bilan chegaradosh.

Rivoyatlarga ko‘ra, o‘tmishda Kaykovus kanalining suvi toshib, o‘z yo‘nalishini o‘zgartirib, jarliklarga oqa boshlagan paytda, aholi uni to‘g‘ri yo‘lga burib yuborgan. Lekin Qumloq guzarining yozgi choyxonasi yonidan sizib, jildirab chiqqan suv o‘z yo‘lini Qorasaroy ko‘chasi tomon burib, shu yerdagi Qichqiriq anhoriga borib quyilgan. Ariqning bir qancha irmoqlari “Guruchariq” mahallasi hududidan ham oqib o‘tgan. Bu kichik ariq suvi VI–VII asrlardan beri oqib kelgan. Shu sababli odamlar “beranj” deb nom berishgan. Bu nom asrlar osha beranj, birinchi, gurunch, guruchariq shaklini olgan.

Boshqa manbalarga ko‘ra, mahalla “Guruchariq” nomini olishiga sabab, qadimdan Qorasaroy hududida karvonsaroy mavjud bo‘lgan. Turli yurtlardan kelgan savdogarlar ushbu karvonsaroyda to‘xtab o‘tishgan. Savdogarlarning yuk xaltalaridan to‘kilgan sholi, guruchlar suvlarda oqib kelib, mahalla hududidagi ariqlarda unib o‘sgan. Shundan so‘ng mahalla “Guruchariq” deb atala boshlagan.

DAVLATOBOD – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1965-yilda tashkil topgan. Jurjoni mahallasidan ajralib chiqqan. 1965–2000-yillarda Habib Abdullayev nomi bilan atalgan. 2005-yil 14-iyundan hozirgi nomda. “Chamanzor”, Jurjoni, “Katta Cho‘ponota”, Abdulla Qodiriy, “Latifguzar” mahallalari bilan chegaradosh.

Mazkur *Davlatobod* toponimi *davlat* va *obod* so‘zlari qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Apellyativning birinchi qismi *Davlat* forscha so‘z hisoblanib, “boylik, farovonlik, qudrat” yoki “mamlakat, hukumat” ma’nolarini anglatadi. *Obod* – “rivojlangan, yashash uchun qulay va chiroyli joy” degan ma’noni bildiradi. Shu sababli, *Davlatobod* so‘zi “farovon va obod mamlakat, yurt” yoki “rivojlangan, boy hudud” degan ma’nolarga ega.

DAMARIQ – Yakkasaroy tumanidagi mahalla nomi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng, 1953-yilda Rossiyadan ko‘chib kelgan rus aholisi ko‘pchilikni tashkil etgan. 1958-yildan “Andijon” mahallasi deb atalgan, chunki shu davrda Andijon viloyatidan ishchi bo‘lib kelib, aksariyati shu mahallada yashab qolishgan. 1984–1993-yillarda “O‘zbekiston SSR 60 yilligi” deb atalgan. 1994-yildan buyon hozirgi nomda. Mahalla hududidan Damariq arig‘i oqib o‘tgani uchun, mahalla shunday nomlangan. Abdulla Qahhor, Hamid Sulaymonov, “Armug‘on”, “Zaminobod”, Bobur, “Muhandislar”, “Baynalmilal”, “Mirobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Damariq – mazkur suv obyekti suvning oqish holati (harakati) motivatsiya-si asosida nomlangan. Bunday nom tarkibidagi *dam* leksemasi ko‘chma ma’noli bo‘lib, suvning “*dimlanib, sekin oqish*” holatini anglatadi. *Dam* – tortishish kuchi emas, “*tortish*” ma’nosini ifodalaydigan geografik termin bo‘lib, *ariq* so‘zi bilan birgalikda qo‘llaniladi. *Dam, Damariq* gidronimlari “*suvi dimlanib, sekin oqadigan ariq*” degan gidronimik ma’noga ega.

DARYOBO‘YI – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 1968-yilda “Bahor” nomi bilan tashkil topgan. Bu joydagi asosiy ko‘cha nomi bilan uyg‘unlashtirish hamda takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Daryobo‘yi” deb qayta nomlangan. “Farog‘atli”, “Quruvchilar”, Xo‘ja Uchqun, “Fayzli”, “Binokor” mahallalari bilan chegaradosh.

“Daryobo‘yi” nomi o‘zbek tilida “daryo” (katta suv oqimi) va “bo‘yi” (qirg‘oq yoki yon) so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, “daryo qirg‘og‘i” yoki “daryo yonidagi joy” ma‘nosini anglatadi. Bu nom mahalla hududining daryo qirg‘og‘iga yaqin joylashganligini ifodalaydi.

DARXON – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 1956-yilda tashkil etilib, mahalla hududidan oqib o‘tuvchi “Darxonariq” nomi bilan atalgan. “Bog‘ibo‘ston”, “Sayram”, “Boyqo‘rg‘on”, “Oqqo‘rg‘on”, Hamid Olimjon, “Yangi Olmachi”, “Oydin”, Mirzakalon Ismoiliy mahallalari bilan chegaradosh.

Darxonariq – Toshkent viloyati va shahridan o‘tuvchi Salor kanalining hozirgi temir yo‘l ko‘prigidan yuqoriroqda o‘ng qirg‘og‘idan boshlanuvchi kanal. Qadimiy nomi – Tarxon Sayyod arig‘i. 1950-yillar oxirida yuqori o‘zani tekislab yuborilgach, qolgan qismi Oqqo‘rg‘on kanalining chap shoxobchasiga aylantirilgan. Asosan shimoli-sharqdan janubi-g‘arbga oqadi.

DEGREZ – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1966-yildagi Toshkent zilzilasidan so‘ng hozirgi Uchtepa tumani hududida Qurbaqaobod mavzesida tashkil topgan. Aholisi qadimgi “Degrez” mahallasidan chiqqanlar bo‘lishgan. Dastlab Kirov, keyinchalik Abror Hidoyatov deb nomlangan. 2005-yildan hozirgi nomda. “Ko‘kcha”, “Ipakchi”, “Bog‘ichinor”, Shofayzi, “Nishabariq”, “Shofayzibog” mahallalari bilan chegaradosh.

“Degrez” mahallasi aholisi asosan hunarmandchilik (degrezlik) bilan shug‘ullanishgan. Degrez toponimi “qozon quyuvchi, qozon ustasi” degan ma‘nolarni anglatadi. Degrezlar cho‘yan, jez, abjush (haftjush) – “yetti qotishma”dan qozon va boshqa har xil uy-ro‘zg‘or asboblari yasashgan, “qozonchi”, “quyma temirdan qozon quyuvchi usta” ma‘nosida qayd etilgan. Kasb-hunar nomi oykonimga o‘tgan.

DIYOR – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda “Nafosat” mahallasidan ajralib chiqqan yangi mahalla. “Dilobod”, Lutfiy, “Nafosat”, “Qatortol”, “Qatortol-1”, Cho‘ponota, “Katta Navbahor” mahallalari bilan chegaradosh.

“Diyor” so‘zi o‘zbek tilida “yurt”, “vatan” yoki “mamlakat” ma‘nolarini anglatadi. Mahalla nomi ushbu hududning ahamiyati yoki tarixiy xususiyatlariga ishora qiladi.

DIYOROBOD – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. Al-Xorazmiy mahallasidan ajralib chiqqan yangi mahalla. “Yangiyo‘l”, Al-Xorazmiy, Alixonto‘ra Sog‘uniy mahallalari bilan chegaradosh.

“Diyorobod” tinchlik, fayz va obodonlikni ifodalovchi so‘z bo‘lib, ikki qismdan tashkil topgan: “diyor” (yurt, vatan) va “obod” (rivojlangan, obod) va “rivojlangan yurt” yoki “obod vatan” ma‘nolarini anglatadi.

DIYDOR – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla dastlab “Qovunchi” deb nomlangan. Mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Diydor” deb qayta nomlangan. “Katta Qa’ni”, “Yangiyo’l”, “Qoziguzar”, “Foziltepa”, Alixonto’ra Sog’uniy mahallalari bilan chegaradosh.

“Diydor” – fors-tojik tilidan o’zbek tiliga o’tgan so’z bo’lib, “uchrashuv, ko’rishish, yuzma-yuz kelish” degan ma’nolarni bildiradi. “Diydor” – nafaqat oddiy uchrashuv, balki qadrdonlar bilan yuzlashish va sog’inch qondirish ramzi bo’lgan so’zdir.

DILBOG’ – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1986-yilda bahor faslida tashkil topganligi uchun “Bahor” mahallasi deb atalgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Dilbog’” deb qayta nomlangan. “Go’zal”, “Iltifot”, “Parvoz”, “Barkamol” mahallalari bilan chegaradosh.

“Dilbog’” so’zi o’zbek tilida “dil” (yurak, qalb) va “bog’” (gulzor, yashil va fayzli makon) so’zlaridan tashkil topgan bo’lib, “qalb bog’i” ma’nolarini anglatadi. “Dilbog’” – inson qalbi va ruhiyatini nafasat bilan bog’lovchi, muhabbat va mehr-oqibatni ifodalovchi so’z.

DILBULOQ – Yakkasaroy tumanidagi mahalla nomi. 2015-yilda “Qushbegi” mahallasi negizida tashkil etilgan yangi mahalla. “Qushbegi”, “Boshliq”, “Yakkasaroy”, “To’qimachi”, “Muhandislar” mahallalari bilan chegaradosh.

“Dilbuloq” – inson qalbi va ruhiy tarovati bilan bog’liq, poklik va sof muhabbatni ifodalovchi so’z. “Dilbuloq” so’zi o’zbek tilida “dil” (yurak, qalb, insonning ichki dunyosi) va “buloq” (sof, tiniq va hayotbaxsh suv manbai) so’zlaridan tashkil topgan bo’lib, “yurak bulog’i” yoki “muhabbat va sadoqat manbai” ma’nolarini mujassam etadi.

DILOBOD – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 2005-yilda “Xalqlar do’stligi” mahallasidan ajralib chiqqan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Dilobod” deb qayta nomlangan. “Xalqlar do’stligi”, “Nafosat”, “Qatortol”, “Qatortol-1”, “Katta Navbahor”, “Beshchinor”, “Diyor” mahallalari bilan chegaradosh.

“Dilobod” so’zi o’zbek tilida “dil” (yurak, qalb) va “obod” (rivojlangan, obod, go’zal, fayzli) so’zlaridan tashkil topgan bo’lib, “yurak obodligi, shodligi” ma’nolarini anglatadi. “Dilobod” – inson qalbining fayzli, shod va baxtli ekanligini ifodalovchi so’zdir.

DONISHMAND – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1967-yilda tashkil topgan. Mahalla hashar yo’li bilan bunyod etilgan. “Go’zal”, “Olmos”, Nodira, “Iltifot”, “Oydinko’l”, “Shohsanam” mahallalari bilan chegaradosh.

“Donishmand” – fors-tojik tilidan o’zbek tiliga kirgan so’z bo’lib, “donish” (aql, bilim, hikmat) va “mand” (ega, sohib) qo’shimchasidan tashkil topgan. Bu so’z ko’plab ma’naviy-ma’rifiy asarlarda ziyrak, tajribali va hikmatli insonlarga nisbatan ishlatiladi. Demak, “Donishmand” – bilim va hayotiy tajriba egasi bo’lgan, aqlli va hikmatli shaxsni ifodalovchi so’zdir.

DO'MBIROBOD – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 2003-yilda “Kichik Do‘mbirobod” nomi bilan tashkil etilgan. Joyning tarixiy nomini tiklash maqsadida, 2007-yilda “Do‘mbirobod” deb qayta nomlangan. “Katta Do‘mbirobod”, “Gavhar”, “Tirsakobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi o‘z tarixiga ega. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida bu hududdan Qonqus, Shirin, Darxon ariqlari oqib o‘tgan bo‘lib, shahardagi “Beshyog‘och”, “Guliston”, “Chaqaq” mahallalarining aholisi bu yerlarni obod etib, bog‘-hovlilar barpo etishgan.

Ushbu tarixiy nomning kelib chiqishi chuqur o‘rganilmagan. Rivoyat qilinishicha, Mirsalim (Mirsoat) ismli qassob bu yerlarga birinchilardan bo‘lib kelib, daraxtlar ekkan, choyxona tashkil qilgan. U kishi quvnoq va qorni do‘mbiradek kattaligi uchun laqabi “do‘mbira” bo‘lgan. Bu yerda barpo etilgan qishloqni ham xalq Do‘mbirobod deb atay boshlagan.

Mutaxassislarining fikriga ko‘ra, ushbu nom qadimda joyni obod qilgan shaxsning ism (laqabi)dan yoki chorlov maqsadida chalingan do‘mbiradan kelib chiqqan.

DO‘STLIK – Yangiheyot tumanidagi mahalla va dahalarning nomi. Sergeli tumanidagi mahallalarning hududiy chegaralarini qayta ko‘rib chiqish hisobiga 2021-yilda Yangiheyot tumaniga o‘tkazilgan. “Charog‘on”, “Toshkent”, “Zarbdor”, “Xushnud” mahallalari bilan chegaradosh.

Do‘stlik dahalari tumanning janubi-g‘arbiy qismida, Do‘stlik, Qo‘rg‘ontepa va Birodarlik ko‘chalari oralig‘ida joylashgan. Dahalar Toshkent shahrini rekonstruksiya va obod qilish davlat loyihalash instituti loyihalari asosida 1972–80-yillarda qurilgan. Do‘stlik-1 dahasi “Zarbdor” mahallasida, Do‘stlik-2 dahasi “Charog‘on”, “Do‘stlik” mahallalarida joylashgan.

Do‘stlik so‘zi ijtimoiy-axloqiy va psixologik tushuncha. O‘zaro hurmat, manfaatlarining umumiyliigi, yaqinlik, bir-birini tushunishga asoslangan kishilar o‘rtasidagi munosabat shaklini ifodalaydi. Do‘stlik millat va xalqlar o‘rtasidagi ijobiy aloqalarda ham o‘z ifodasini topadi. Mahalla va dahalarda turli millat vakillari totuvlikda yashab kelayotgani bois shu nom bilan atalgan.

DO‘STOBOD – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1947-yilda tashkil topgan. Mahallada asosan Rossiyadan ko‘chib kelgan rus millati vakillari yashashgan, keyinchalik o‘zbeklar aholining asosiy qismini tashkil etgan. 1992-yilda “Do‘stlik” nomi berilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Do‘stobod” deb qayta nomlangan. “Fidoyilar”, “Oltintepa”, “Olmachi”, “Istiqlol”, “Boyqo‘rg‘on”, “Ko‘hna Mevazor”, “Mashinasozlar” mahallalari bilan chegaradosh.

“Do‘stobod” – do‘stlik, hamjihatlik, birdamlik va tinchlikka asoslangan fayzli obod maskanni ifodalovchi so‘z. Bu nom mahalla hududi do‘stlik asosida qurilgan, hurmat va o‘zaro ishonch ustuvor bo‘lgan muhitga ega ekanligini ifodalaydi.

YORQINHAYOT – Yangihayot tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda Sergeli tumanida tashkil topgan. 2021-yilda Yangihayot tumaniga o'tkazilgan. Yorqin hayotga intilib yashash lozim degan ma'noda "Yorqinhayot" deb nomlangan. "Olchazor", "Xushnud", "Charog'on", "Chorbog'" mahallalari bilan chegaradosh.

"Yorqinhayot" – umid, taraqqiyot va yorqin kelajak timsoli bo'lgan chiroyli va ilhomlantiruvchi nomdir. "Yorqin" – nurli, porloq, ajoyib, jozibador ma'nolariga ega. "Hayot" – tiriklik, yashash, mavjudlik. Qo'shma shaklda "Yorqinhayot" – porloq, nurli va ma'noli hayot deganni bildiradi.

YOSH AVLOD – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga o'tkazilgan. Eski nomi – "Iqbol". Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda "Yosh avlod" deb qayta nomlangan. "Bilimdon", "Bunyodkor", "Uysozlar", "Yangiqo'rg'on", "Behizor", "O'rtamasjid", "Parvona", "Mumtoz" mahallalari bilan chegaradosh.

"Yosh avlod" – kelajak bunyodkori bo'lgan yangi avlodni, umid va istiqbol ramzini ifodalovchi so'zdir. Etimologiyasi: "Yosh" – yoshlik, navqironlik, kuch-g'ayrat. "Avlod" – avlod-ajdod, kelajak vorislari. Yosh avlod – umid va istiqbol timsoli, millatning ertasi, taraqqiyot va rivojlanish manbaidir.

YOSHLIK – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1981-yildan rassom O'rol Tansiqboyev nomi bilan atalgan. 1997-yildan hozirgi nomda. "Chamanbog'", "Olimpiya", "Mustaqil yurt" mahallalari bilan chegaradosh.

"Yoshlik" – navqironlik, kuch-g'ayrat va umidga to'la hayot davrini ifodalovchi so'zdir. Etimologiyasi: "yosh" – yangi, navqiron, o'sib kelayotgan, "lik" – holat, xususiyatni bildiruvchi qo'shimcha. Bu nom hududning kelajakka yo'nalganligini, rivojlanish va yangiliklar sari intilayotganini anglatadi.

JALOYIR – Yangihayot tumanidagi mahalla nomi. Xo'ja Uchqun, "Bino-kor", "Yangi Gulzor", "Nurliyo'l" mahallalari bilan chegaradosh.

Respublikamizning turli viloyatlarida shu nomli aholi punktlari mavjud. Jaloyir – turk-mo'g'ul qabilalari ittifoqi, urug' nomi, etnonim. Tarixiy manbalarga ko'ra, jaloyirlar XII asrda hozirgi Sibir hududida yashab kelishgan. XII asr oxirlari – XIII asr boshlarida Yettisuv va O'rta Osiyoga, jumladan hozirgi O'zbekiston hududiga ko'chib o'tishgan. Jaloyirlar o'zbek, qoraqalpoq, qozoq va qirg'iz xalqlari tarkibiga kirishgan. 1926-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston hududida 25 ming jaloyirlar, asosan Toshkent, Buxoro, Jizzax, Samarqand, Navoiy va Xorazm viloyatlari hududida yashashgan. Mahalla nomi shu urug' nomidan olingan.

JANGGOH – Shayxontohur tumanidagi mahalla va mavzening nomi. "Janggoh" (Jangob) mahallasi qadimiy Janggoh hududining bir qismida joylashgan Toshkentning eski mahallalaridan biri bo'lib, "Eskijo'va", "G'ishtmasjid", "Xadra", "Chuqurqishloq" mahallalari bilan chegaradosh bo'lgan. 1994-yilda yangidan

tashkil etilgan mahalla “Yangi Sebzor”, Kohota, Hastimom, “Shayxontohur”, “O‘rda”, “Xadra” mahallalari bilan chegaradosh.

Janggoh mavzesi Shayxontohur tumanining markaziy qismida, Zulfiyaxonim, Abay, Abdulla Qodiriy va Sebzor ko‘chalari oralig‘ida joylashgan. Mavze 1966-yildagi Toshkent zilzilasidan so‘ng buzilgan eski uylar va tor ko‘chalar o‘rnida Toshkent shahrini rekonstruksiya va obod qilish davlat loyihalash instituti loyihalari asosida qurilgan. Eski nomi – Markaz-15 (S-15) mavzesi. 2000-yildan “Janggoh” nomida.

S.Qorayevning fikricha, Toshkentning to‘rt dahasi polvonlari shu yerda kurashib, jang qilishar ekan. Shuningdek, Toshkent tarixining chorhokimlik davrida (XVII–XVIII asrlar) bu yerda dahalar o‘rtasida g‘oliblik (gegemonlik) uchun to‘qnashuvlar ham bo‘lib turgan. Shundan joy Janggoh deyilgan.

Muhammad Solihxo‘ja Toshkandiyning “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida keltirilishicha, Shayxontohur dahasida Yunusxo‘ja, Beshyog‘och dahasida Doniyorxo‘ja, Ko‘kcha dahasida Isoqxo‘ja va Sebzor dahasida Shohbek (Shobek) lar hokimlik qilishgan. Daha hokimlarining o‘zaro nizolari kuchayib, ko‘pincha to‘qnashuvlarga sabab bo‘lgan. Bunday paytlarda shahar markazidan oqib o‘tadigan Labzak suvining ikki tarafi jang maydoniga aylangan. Hozirgi Abdulla Qodiriy nomidagi istirohat bog‘idan oqib o‘tadigan Labzak suvi Jangob, suvning ikki tomonidagi maydon esa Janggoh, ya’ni “jang maydoni” nomi bilan tanilgan.

Ayrim olimlarning fikricha, mahalla va ariqning Janggoh va Jangob deb nomlanishiga 1784-yilda Shayxontohur dahasi hokimi Yunusxo‘ja tomonidan yakka hokimlikni qo‘lga kiritishda bo‘lgan hal qiluvchi jang sababchidir.

JARARIQ – Shayxontohur tumanidagi mahalla va mavzening nomi. “Jarariq” qadimgi mahallalardan biri bo‘lib, qariyb 200-yil avval tashkil topgan. “Zafarobod”, “Ilg‘or”, “Obinazir”, “Ko‘kcha”, “Yangishahar”, “Tinchlik” mahallalari bilan chegaradosh.

Jarariq mavzesi “Katta Jarariq”, “Yangi Jarariq” mahallalarida joylashgan. Mahalla nomi shu hududdan oqib o‘tadigan Jarariq anhuri nomidan olingan. “Jarariq” gidronimi relyef bilan bog‘liq bo‘lib, “jarlikda hosil bo‘lgan ariq”, “jardan oqib o‘tgan ariq” ma’nolariga ega.

JARBOSHI – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga o‘tkazilgan. Mahalla “Alisherobod”, “Chingeldi”, “Tashisti”, “Ijodkor” mahallalari bilan chegaradosh.

Toponimikada boshi, labi, tagi, yuqori, quyi, o‘rta kabi terminlar yordamida hosil bo‘lgan joy nomlari odatda obyektning geografik o‘rnini bildiradi. Ma’lumki, Toshkent yetti qiru-yetti o‘rda joylashgan degan ibora bor. Bu holat joy nomlarida aks etgan: Jarariq, Jarko‘cha, Oltintepa, Sho‘rtepa, Kuloltepa, Oqtepa, Ganchtepa kabi joy nomlari shaharning qir, balandlik joylariga to‘g‘ri keladi.

Jar – chuqur soylik, chuqurlik. Jarboshi – jarli, tepali, notekis joy, past-baland yerning boshlanishi, boshi demakdir.

JARBULOQ – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. Dastlab Usmon Yusupov nomi bilan tashkil etilgan. Mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2015-yilda “Jarbuloq” deb qayta nomlangan. “Qoryog‘di”, “Sharq guli”, “O‘tkir”, “Istirohat”, Ibrat mahallalari bilan chegaradosh.

Tabiiy geografik jarayonlar (yomg‘ir, sel, toshqin, zilzila, yer ko‘chishi, o‘pirilishi va boshqalar) natijasida yerning yuza qismida hosil bo‘lgan o‘yiq, yoriq, kesik joy jar deyiladi. Jar, asosan, yumshoq jinslardan tuzilgan baland tekisliklarda, tog‘ etagi qiyaliklarida, relyefi notekis joylarda ko‘proq kuzatiladi. Jar – chuqurlik, jarlik yoki pastqam joy ma‘nosini ham anglatadi. Buloq – buloq, chashma, yer ostidan otilib chiqadigan suv manbai. Shu sababli, Jarbuloq so‘zi “jarlik yoki pastqam joyda joylashgan buloq”, ya‘ni chuqurlikda joylashgan suv manbai degan ma‘nolarni bildiradi.

JARQO‘RG‘ON – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1994-yilda mahalla hududidan o‘tgan ko‘cha nomi berilgan. Jarqo‘rg‘on ko‘chasi o‘troq aholi ko‘chib kelishi munosabati bilan 1940-yillar atrofida tashkil topgan. Uning nomlanishi Surxondaryo viloyatidagi joy nomidan olingan. “Yangidavr”, “Beshbola”, “Asalobod”, “Oquy”, “Xosiyatli” mahallalari bilan chegaradosh.

Jar – yerning yuza qismida hosil bo‘lgan o‘yiq, yoriq, kesik joy. Qo‘rg‘on – yer sathidan ko‘tarilgan joyda tevaragi devor bilan o‘rab olingan, darvozali qal’a, istehkom. Ta’kidlash joizki, qo‘rg‘on qurish xalqimizning o‘troq hayotga ko‘chish ma’naviyati va shaharsozlik qadriyatlari bilan bog‘liq. Dastlab atrofi devor bilan o‘ralgan aylana, to‘rtburchak tarzidagi imorat qo‘rg‘on deyilgan. So‘ngra devorini baland, qalin, mustahkam va mahobatli, bir darvozali qilib qurishgan. Ilk o‘rta asrlarda mudofaa maqsadida qo‘rg‘onlar tevaragida xandaq qazilib, suv bilan to‘ldirilgan.

Shu sababli, Jarqo‘rg‘on so‘zi “jarlik yonida yoki yaqinida joylashgan qo‘rg‘on (qal’a, istehkom)” degan ma‘noni anglatadi.

JASORAT – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga o‘tkazilgan. Eski nomi – “Vatanparvar”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Jasorat” deb qayta nomlangan. Alisherobod, “Geofizika”, “Jasorat”, “Geologlar”, “Temuriylar” mahallalari bilan chegaradosh.

“Jasorat” – qo‘rqmaslik, iroda va shijoatni ifodalovchi, mard insonlarga xos fazilatni anglatuvchi so‘zdir. Bu nom mahalla aholisi orasida mardlik va qahramonlik kabi fazilatlarni ulug‘lash maqsadida tanlangan.

JIYDALI – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1998-yil dekabrda “Shifokorlar” mahallasidan ajralib chiqqan va Bahouddin Naqshbandiy nomi berilgan. Joyning tarixiy nomini tiklash maqsadida, 2011-yilda “Jiydali” deb qayta nomlangan. “Olimpiya”, “Shifokorlar”, Xislat, “Chamanbog‘”, Beruniy mahallalari bilan chegaradosh.

Mazkur tomonim “jiyda” so‘zi hamda “-li” affiksining qo‘shilishidan tashkil topgan. “Jiydali” so‘zi o‘zbek tilida “jiyda” (Yelayeagnus) daraxti bilan bog‘liq

bo‘lib, *jiyda daraxti ko‘p o‘sadigan joyda barpo qilingan qishloq* yoki *jiyda daraxti bilan o‘ralgan maydon, dala* kabi ma’nomlarni ifodalaydi.

JOMIY – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. Mahalla 1930–31-yillarda shakllangan bo‘lib, 1955–56-yillarda shahar gulzorining hududi fuqarolarga yer uchastkasi tarzida bo‘lib berilganidan so‘ng, mahalla avval “Ayrilish”, keyinchalik “Ko‘mirxona” nomlari bilan atalgan. 1966-yilda o‘zbek xalqining mutafakkir shoiri Alisher Navoiy tavallud topganining 525 yilligi arafasida uning yaqin do‘sti va ustози, fors-tojik shoiri, naqshbandiylik tariqatining yirik vakili Abdurahmon Jomiyni ulug‘lab, uning nomi qo‘yilgan. “Turkqo‘rg‘on”, “Yangiariq”, Miskin, G‘ayratiy, “Iftixor” mahallalari bilan chegaradosh.

JO‘NARIQ – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 1967-yilda buyuk mutafakkir, she‘riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy nomi bilan tashkil topgan. Shu joydan o‘tadigan qadimiy ariq nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, 2016-yilda “Jo‘nariq” deb qayta nomlangan. “Yuqori Darxon”, “Tirsakobod”, “Beshqo‘rg‘on”, “Choshtepa”, “Qubaytepa”, “Yangi Choshtepa”, “No‘g‘oyqo‘rg‘on”, “Yakka-saroy”, “Yangi Darxon” mahallalari bilan chegaradosh.

Jo‘nariq – Salor va Qorasuvning tarmog‘i bo‘lgan bu ariq Sergeli tumanidagi Shoshtepa va uning atrofini suv bilan ta‘minlab turgan. Hozirgi paytda Buxoro va Samarqand viloyatlarida ariq, ba‘zan kichikroq kanal ham “Jo‘y” deb ataladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bu so‘zning kichraytirilgan shakli – “Jo‘yak” saqlanib qolgan. XVI asrlarda shahar doirasidagi suv tarmoqlarining ayrimlari Juyi ariq (tojikcha), ya‘ni “shahar arig‘i” deyilgan. Bu atama xalq tilida Jo‘nariq bo‘lib ketgan degan fikrlar bor. Jo‘nariq so‘zi “tekis hududdagi suv yo‘li” degan ma‘noni ham anglatadi.

JO‘RABEK – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1945-yilda tashkil topgan va Jo‘rabek nomi berilgan. “Oltinko‘l”, “Qorasuv”, “Tong yulduzi”, “Ma‘rifat”, “Boysun”, Furqat, Muxtor Ashrafiy, “Shirinobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Jo‘rabek, Jo‘rabek dodxoh Qalandar o‘g‘li (taxminan 1840–1906) – harbiy arbоб, ma‘rifatparvar, general (1901) bo‘lgan. 1852–1853-yillardan amir Nasrullo xizmatida. 1856-yili Jo‘rabek Kitob begi Olloyorbek xizmatiga yuborilgan. 1870–1906-yillarda Jo‘rabek Toshkentda yashab, o‘lka ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etgan.

Jo‘rabek ilm-ma‘rifatga katta ahamiyat bergan. Sharq qo‘lyozmalarining, xususan nodir asarlarning boy kutubxonasiga ega bo‘lgan. Toshkent shahar Dumasining (1895) a‘zosi edi. Jo‘rabek yashagan hududda uning nomi bilan masjid, qabriston mavjud. Jo‘rabekning dala hovlisi ham shu yerda bo‘lib, keyinchalik u mahalla idorasiga aylantirilgan.

JURJONIY – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1963-yilda tashkil topgan. Mahallaning nomi Amir Temur davrida yashab o‘tgan yirik mutakallim, faylasuf, shoir va munajjim Abulhasan Ali ibn Muhammad Sayid Sharif Jurjoniy

(1339–1413) sharafiga qo'yilgan. "Davlatobod", "Ko'kcha-Oqtepa", "Katta Cho'ponota", Abdulla Qodiriy mahallalari bilan chegaradosh.

Jurjoniyy Astrobod yaqinidagi Tagu shahrida tug'ilgan. Astrobodda ta'lim olgan, mudarrislik faoliyati bilan shug'ullangan. Taxminan 1374-yilda Sheroz shahriga kelgan, shahar Amir Temur tomonidan egallangach (1387), Samarqandga ko'chib ketib, bu yerda yashagan, yigirma yilga yaqin Amir Temur saroyida ijod qilgan. Amir Temur vafotidan so'ng (1405) Sherozga qaytib, shu yerda vafot etgan. Jurjoniyy "Mavoqif al-Ijjiyga sharh" va falsafiy atamalar lug'ati – "at-Ta'rifat" kitoblarining muallifidir.

ZABARDAST – Bektemir tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumanidan shahar hududiga o'tkazilgan. Eski nomi – "Yangihayot". Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda "Zabardast" deb qayta nomlangan. "Ustozlar", "Nurliyo'l", "Gulbog'" mahallalari bilan chegaradosh.

"Zabardast" kuch-qudratga, shijoat va matonatga ega bo'lgan insonni ifodalovchi so'zdir. U adabiyotda qahramonlik, qudrat va yoshlar uchun namuna sifatida tasvirlanadi. Bu nom mahalla aholisi orasida sportchilar ko'p bo'lganligi hamda kelajakda yoshlarni aqlli, jismonan baquvvat, zabardast insonlar bo'lishi uchun, kuch va qudrat kabi fazilatlarni ulug'lash maqsadida tanlangan.

ZAKOVAT – Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga o'tkazilgan. Eski nomi – "Bog'ishamol". Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda "Zakovat" deb qayta nomlangan. "Iqtidor", "Alisherobod", "Pastkiyuz", "Geofizika", "Beshkapa", "Ijodkor" mahallalari bilan chegaradosh.

"Zakovat" so'zi o'zbek tilida "aql-zakovat", "ziyraklik" ma'nolarini anglatadi. Bu nom mahalla aholisi orasida bilimdonlik va zukkolik kabi fazilatlarni ulug'lash maqsadida tanlangan.

ZAMINOBOD – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1958-yilda tashkil topgan. Mahallada turli millat vakillari totuvlikda yashab kelayotgani bois "Do'stlik" deb atalgan. Shu joydagi asosiy ko'chalardan biri nomi bilan uyg'unlashtirish hamda takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda "Zaminobod" deb o'zgartirilgan. "Armug'on", "Temiryo'ldchilar", "Oltinvodiy", "Uchuvchilar", "Damariq", "Birodarlik", "Baynalmilal" mahallalari bilan chegaradosh.

"Zaminobod" so'zi o'zbek tilida "zamin" (yer) va "obod" (ravnaq topgan, gullab-yashnagan) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, "gullab-yashnagan yer" ma'nosini bildiradi.

ZAMONDOSH – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 2022-yilda "Chimboy" mahallasidan ajralib chiqqan yangi mahalla. "Guruchariq", "Allon", "Chimboy", G'ani A'zamov, "Istiqbol", "Bo'stonobod", "Ziyo", "Universitet" mahallalari bilan chegaradosh.

"Zamondosh" so'zi ko'pincha adabiyot va tarixda bir davrda yashagan va o'z oralarida aloqa va hamkorlikda bo'lgan shaxslarga ishlatiladi. Bu nom mahalla

aholisi orasida hamjihatlik va bir davrda yashash kabi fazilatlarni ulug'lash maqsadida tanlangan.

ZANGIOTA – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Qisman qadimiy Zangiota mahallasi o'rnida joylashgan. Rivoyatlarga ko'ra, Zangibuva (Zangiota) shu mahallada tavallud topib, shu yerda yashagan, so'ngra Zangiota qishlog'iga ko'chib ketgan. Mahalla 1992-yil fevraldan hozirgi nomda. “Kattabog'”, “Samarqand Darvoza”, “Eshonguzar”, Suzukota mahallalari bilan chegaradosh.

Zangiotaning asl ismi Oyxo'ja ibn Toshxo'ja bo'lgan. XIII asrda yashab o'tgan buyuk avliyo, hakim bo'lgan, tasavvufni targ'ib qilgan. Ahmad Yassaviyning ustози Arslonbob eshonning avlodi (avarasi). Qora tanli bo'lgani uchun zangi (zanji) deyishgan. El-yurt molini boqib, podachilik bilan shug'ullangan. Rivoyat qilishlaricha, uning qaramog'idagi mollar yaylovda o'tlab, kechqurun uyga qaytishda kishilarning ekinzorlariga kirmas, o't-o'landan bir chimdim ham yemas ekan, shu sababli chorvadorlar Zangiotani o'z pirlari deb hisoblashgan.

ZARAFSHON – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 2015-yilda “O'rikzor” mahallasidan ajralib chiqqan yangi mahalla. Hududdagi asosiy ko'chalardan biri nomi bilan uyg'unlashtirish maqsadida “Zarafshon” deb nomlangan. Ibn Sino, “Shaftolizor”, “O'rikzor”, Xurshid, Yusuf Sakkokiy, “O'tkir”, “Zulfizar”, “Quyi Darxon”, “Uchtepa”, “Istirohat”, “Ko'rkamobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Zarafshon so'zi forsa *zar* – “oltin”, *afshon* – “sochiluvchi, tarqaluvchi” ma'nolarini anglatadi va Zarafshon daryosi nomi bilan bog'liq. Ilk va o'rta asrlarda daryoning quyi oqimida qumdan oltinni yuvish ishlari bilan qadimdan shug'ullanishgan. XIX asrning 30-yillarida ham buni ko'rish mumkin edi, maxsus oltin ishlab chiqaruvchilar quyoshda zar sochib turgan tillalarni qo'yning terisi bilan tozalab ish olib borishgan. Ba'zilar daryo bunday nomni maydonlarni sug'orish ma'nosiga ham ega bo'lganligidan olgan, deb ta'kidlashadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning qizi Gulbadanbegimning “Humoyun-noma” asaridagi Zarafshon bog'i haqidagi hikoyaga ko'ra, bu nom XVI asrda ham mashhur bo'lgan (S.Azimdjanova, 1977). Daryoning Zarafshon deb atalishi to'g'risidagi afsonalardan birini K.F. Butenev quyidagicha keltiradi: “...makedoniyalik Iskandar daryoning yuqori qismida oltindan to'g'on qurdirib, suvni bog'lagan. Oltin to'g'ondan oqib o'tgan suv uni yuvib, mayda oltin zarrachalarini o'zi bilan quyiga olib borgan”. Shuning uchun daryo “Zarafshon”, ya'ni “*oltin keltiruvchi*” nomini olgan, – deydi u (Butenev 1842). Ba'zi olimlar Zarafshon daryosining etimologiyasini daryo suvining hayotbaxsh ahamiyatiga ham bog'lashadi.

ZARBDOR – Yangihayot tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda “Do'stlik” mahallasidan ajralib chiqqan “Iqbol” nomidagi yangi mahalla. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Zarbdor” deb qayta nomlangan. “Fayzli”, “Toshkent”, “Yo'ldosh”, “Charog'on”, “Chorbog'”, “Do'stlik” mahallalari bilan chegaradosh.

“Zarbdor” so'zi ishni tez va ortig'i bilan bajaradigan hamda boshqalarga har jihatdan namuna bo'ladigan xodim, ishlab chiqarish ilg'ori degan ma'noni bildiradi.

di. Shuningdek, bu soʻzni jadal surʼatlar bilan ishlaydigan yoki ish olib boradigan va shiddatli, kuchli zarba yetkazish uchun belgilangan yoki tayyorlangan maʼnolarida ham tushunish mumkin. Bu nom mahalla aholisi orasida faollik va ilgʻorlik kabi fazilatlarini ulugʻlash maqsadida tanlangan.

ZARGARLIK – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 2015-yilda “Xuroson” mahallasidan ajralib chiqqan yangi mahalla. Hududdagi 1972-yilda tashkil topgan Zargarlik koʻchasining nomi bilan uygʻunlashtirish maqsadida shunday atalgan. “Xuroson”, “Tepaqoʻrgʻon”, “Vatan”, “Tinchlikobod”, “Shirin” mahallalari bilan chegaradosh.

Zargarlik – badiiy hunarmandlik sohasi: oltin, kumush, mis, qalay kabi rangli metallardan zeb-ziynat buyumlari (taqinchoqlar), bezak buyumlari yasash kasbi hisoblanadi.

ZARQOʻRGʻON – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda “Noʻgʻoyqoʻrgʻon” nomi bilan tashkil topgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Zarqoʻrgʻon” deb qayta nomlangan. “Botirma”, “Naqqoshlik”, “Fidokor”, “Qozirabot”, “Navbahor” mahallalari bilan chegaradosh.

Mazkur toponim *zar* va *qoʻrgʻon* qismlaridan iborat. *Zar* – oltin, tilla maʼnosini anglatadi. *Qoʻrgʻon* – geografik nomlar tarkibida koʻp marta takrorlanadigan soʻz boʻlib, atrofi devor bilan oʻralgan mustahkam *istehkom*, *qalʼa*, *shahar*, *hovli*, *dala hovli*, *qoʻra* maʼnolarini bildiradi. Demak, “Zarqoʻrgʻon” nomi “oltin qalʼa” yoki “oltin shahar, qishloq” maʼnosini anglatadi va mahalla hududining tarixiy yoki madaniy ahamiyatini ifodalaydi. Qachonlardir oltin tanga topilgan qoʻrgʻonlar ham shunday nomlangan.

ZARHAL – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 2022-yilda “Qoʻshut” mahallasidan ajralib chiqqan yangi mahalla. Abu Bakr Shoshiy, Hofiz Koʻhakiy, “Eskishahar”, “Guzarboshi”, “Zarhal”, “Chigʻatoy Darvoza” mahallalari bilan chegaradosh.

“Zarhal” soʻzi oʻzbek tilida “oltin suvi yuritilgan” yoki “oltin bilan bezatilgan” maʼnolarini anglatadi. “Zarhal” – nafislik, chiroy va boylik timsoli boʻlgan, yaltiroq va oltinsimon rangdagi narsalarni ifodalovchi soʻzdir. U adabiyotda va hayotda zeb-ziynat va shukuhni aks ettiradi.

ZAFAROBOD – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla dastlab Sh.Shoyusupov nomi bilan tashkil etilgan. Mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2009-yilda “Zafarobod” deb qayta nomlangan. “Orzu”, “Boʻston”, “Eski Jarariq”, “Ipakchi”, “Jarariq”, “Koʻkcha”, Huvaydo, “Oʻzbekiston”, “Tinchlik” mahallalari bilan chegaradosh.

“Zafarobod” nomining tarkibi ikkita soʻz – *zafar* va *obod* soʻzlaridan iborat. *Zafar* arabcha soʻz boʻlib, “*gʻalaba*”, “*yutuq*”, “*muvaqqafiyat*” degan maʼnolarni anglatadi. Oykonimning ikkinchi komponenti – *obod* soʻzi esa baʼzi otlarga yoki ayrim sifatlarga qoʻshilib joy nomini yasaydigan, “*obodonlashtirilgan*”, “*oʻzlashtirilgan*”, “*gullab-yashnagan*” maʼnosidagi

affiks sanaladi. *Zafarobod* – *g'alabalar, yutuqlar, muvaffaqiyatlar evaziga obod etilgan maskan, joy* demakdir.

ZIYO – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1998-yil dekabrda “Yoshlik” talabalar shaharchasi hududida tashkil qilingan. Dastlab “Muhandis” mahallasi deb atalgan, keyinchalik “Ziyo” nomi berilgan. “Bo‘stonobod”, “Istiqbol”, “Zamondosh”, “Shodiyona”, “Ziyokor”, Mirzo G‘olib, “Olimpiya”, “Allon”, “Universitet” mahallalari bilan chegaradosh.

“Ziyo” – inson qalbi va jamiyat uchun hayotiy muhim bo‘lgan yorug‘lik, ma‘rifat, haqiqat va ezgulikni ifodalovchi mazmunli va ramziy so‘zdir. U moddiy va ma‘naviy ma‘nolarda keng qo‘llaniladi. “Ziyo” bilim, aql, ma‘naviy ravshanlik ma‘nosida ham ishlatiladi.

ZIYOKOR – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 2020-yilda “Ziyo”, “Universitet” mahallalarining hududiy chegaralarini qayta ko‘rib chiqish hisobiga yangi tashkil etilgan mahalla. Mirzo G‘olib, “Ziyo”, “Universitet” mahallalari bilan chegaradosh.

“Ziyokor” termini fors tili orqali o‘zlashgan bo‘lib, u “*O‘zbek tilining izohli lug‘ati*”da “*ilm tarqatuvchi, ma‘rifatparvar, bilim targ‘ib qiluvchi*” ma‘nolarini bildiradi. Bu nom mahalla aholisi orasida ilm-fan va ma‘rifatga bo‘lgan katta e‘tiborni ifodalaydi.

ZIYOLILAR – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Zangiota tumanidan shahar hududiga o‘tkazilgan. Eski nomi – “Fayzli”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Ziyolilar” deb qayta nomlangan. “Eski Jaloyir”, “Sultonobod”, “Ko‘hna Qumariq” mahallalari bilan chegaradosh.

“Ziyolilar” – jamiyatda ma‘rifat, bilim va madaniyatni tarqatuvchi, ruhiy-ma‘naviy yetakchi hisoblangan ziyoli shaxslar toifasidir. Ziyolilar jamiyatda ustoz, yozuvchi, shoir, olim, murabbiy, san‘atkor kabi ma‘naviy yetakchilardir. Ularning ta’siri tarix, madaniyat, til, an‘ana va milliy o‘zlikning saqlanishida katta ahamiyatga ega. Bu nom mahalla aholisi orasida ilm-fan va ma‘rifatga bo‘lgan e‘tiborni ifodalaydi.

ZIYONUR – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1994-yilda “Olmazor” nomi bilan tashkil etilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Ziyonur” deb qayta nomlangan. “Tolariq”, “Xalqobod”, “Fayziobod”, “Qo‘shqo‘rg‘on”, “Yuksalish” mahallalari bilan chegaradosh.

“Ziyonur” so‘zi o‘zbek tilida “ziyo” (nur, yorug‘lik, ma‘rifat) va “nur” (yorug‘lik, ravshanlik, ezgulik manbai) so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, ma‘nosi “ma‘rifat nuri”, “yorug‘lik sochuvchi ilm” yoki “ma‘naviy yorug‘lik”ni anglatadi. Ikkala so‘z ham nur va yorug‘likni bildirgani bois, “Ziyonur” ma‘naviy ravshanlik, qalb nuri, ilm va haqiqat bilan charog‘on bo‘lgan holatni ifodalaydi.

ZIYNAT – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 1995-yilda Bobur nomi bilan tashkil etilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda

“Ziynat” deb qayta nomlangan. “Madadkor”, “Yangi Sergeli”, “Mash’al”, “Ezgulik”, “Sohibqiron”, “Yangiturmush”, “Humo”, “Sofdil” mahallalari bilan chegaradosh.

“Ziynat” so‘zi o‘zbek tilida “bezak”, “go‘zallik” yoki “ziynat” ma’nolarini anglatadi. “Ziynat” – moddiy va ma’naviy jihatdan inson, jamiyat va muhitga chiroy, nafasat va ko‘rkamlik baxsh etadigan mazmunli so‘zdir. U go‘zallik, bezak va qalb yorug‘ligining timsolidir. Adabiyot va xalq og‘zaki ijodida “ziynat” so‘zi ko‘pincha yurakdan chiqqan mehr, samimiyat, muhabbat, inson qalbidagi poklik va go‘zallik bilan bog‘langan holda ishlatiladi.

ZILOLA – Bektemir tumanidagi mahalla nomi. 1991-yilda tashkil topgan. Mahalla hududi Suv xo‘jaligi vazirligiga qarashli “Suv mash” zavodining ishchi va xizmatchilari iltimosiga binoan “Zilola” deb atalgan. “Chashma”, “Iqbol”, Iykota, “Mirishkor”, “Majnuntol”, “Rohat” mahallalari bilan chegaradosh.

“Zilola” – tiniq suv, musaffo osmon, poklik va beg‘ubor go‘zallikni anglatuvchi so‘z. Zilola – xiralikdan, kirdan xoli bo‘lgan sof holat. Bu so‘z ko‘pincha suvga, osmonga yoki qalb pokligiga nisbatan ishlatiladi.

ZULFIZAR – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 2005-yilda mahallaga “Zulfizar” nomi berilgan (Zulfizar o‘zbek xalq eposi qahramonlaridan biri hisoblanadi). Zulfizar o‘zbek xalq eposida jasoratli va go‘zal qahramon sifatida tasvirlangan. Mahallaga ushbu nomning berilishi hududning madaniy merosi va an‘analariga hurmat ifodasidir. Xurshid, “Beshqayrag‘och”, “Zarafshon”, “O‘tkir” mahallalari bilan chegaradosh.

IBN SINO – Shayxontohur tumanidagi mahalla va mavzelarning nomi. 1985-yillargacha mahalla hududi jamoa xo‘jaligiga qarashli uzumzor bo‘lgan. 1985–87-yillarda jamoa xo‘jaligi tarqatilib, 1989-yil Ibn Sino-1 mavzesi barpo etilgan. 1993-yilda mavze negizida Ibn Sino mahallasi tashkil topgan. “Shaftolizor”, “Ipakchi”, “Zarafshon”, “Shodlik”, “Eski Jarariq”, “Yangi Jarariq” mahallalari bilan chegaradosh.

Hozirda Ibn Sino-1 (Ibn Sino mahallasida) va Ibn Sino-2 (“Shodlik” mahallasida) mavzelari mavjud.

Mahalla va mavze nomi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali (980–1037) – jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan, g‘arbda Avitsenna nomi bilan mashhur bo‘lgan O‘rta Osiyolik buyuk qomusiy olim sharafiga qo‘yilgan.

IBRAT – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1966-yilda tashkil topgan, dastlab “Shirinqudug‘”, Fayzulla Xo‘jayev nomlari bilan atalgan. Aholisi, asosan, “Zanjirlik” mahallasi fuqarolaridan iborat bo‘lgan. 2004-yildan hozirgi nomda. Mahalla hududida Burhoniddin Marg‘inoniy jome masjidi mavjud. Mahalla tumandagi “Beshqayrag‘och”, “O‘tkir”, “Jarbuloq”, “Sharq guli”, “Sharq yulduzi”, Xondamir mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi Is'hoqxon To'ra Ibrat (1862–1937) – ma'rifatparvar shoir, zabardast tilshunos, tarixshunos olimning sharafiga qo'yilgan.

IBROHIMOTA – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1980-yilda tashkil topgan. Mahalla hududida me'moriy yodgorlik – Ibrohimota maqbarasi (XV–XVII asrlar) bo'lganligi sababli shu nom bilan atalgan. Mahalla Miskin, “Gulsaroy”, “Taraqqiyot”, “Turkiston”, “Gulzor”, “Ahil”, “Tiklanish”, “Hamkorobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Ibrohimota – buyuk mutasavvuf, Xoja Ahmad Yassaviyning otalari bo'lib, hozirda mahalla, mahalla hududidagi qabriston va masjid u zotning nomi bilan ataladi.

IJODKOR – Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga o'tkazilgan. Eski nomi – “Barkamol”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Ijodkor” deb qayta nomlangan. Mahalla tumandagi “Alisherobod”, “Chingeldi”, “Iqtidor”, “Zakovat”, “Jarboshi” mahallalari bilan chegaradosh.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da ijodkor so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: “Ijod etuvchi, yuzaga keltiruvchi, yaratuvchi; yaratilgan narsa egasi” (O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild, 176-bet).

IZZATLI – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Zangiota tumanidan shahar hududiga o'tkazilgan. Eski nomi – “Nurafshon”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Izzatli” deb qayta nomlangan. “Sadoqat”, “Kengmakon”, “Xonobod”, “Nomdanak” mahallalari bilan chegaradosh.

“Izzatli” – hurmat-ehtiroimga sazovor, qadrli va obro'li degan ma'nolarni ifodalovchi chiroyli va mazmunli so'zdir. “Izzatli” nomi bilan atalgan hudud – tinch, odobli, muruvvatli odamlar yashaydigan joy tasavvurini uyg'otadi.

IYKOTA – Bektemir tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanidan shahar hududiga o'tkazilgan. Mahalla nomi Yuqori Chirchiq tumanida joylashgan Iykota ziyoratgohi nomidan olingan. Abay, “Majnuntol”, “Iqbol”, “Zilola”, “Gulbog” mahallalari bilan chegaradosh.

Iykota – taxminan XVI–XVII asrlarda yashab o'tgan, yassaviya tariqatining namoyandalaridan biri bo'lgan mo'tabar zot bo'lib, xoki poylari shu joyda – Iykota mahallasida joylashgan.

IQBOL – Bektemir tumanidagi mahalla nomi. Suvsoz-1 va Suvsoz-2 mavzellarida joylashgan. 1996-yilda tashkil topgan. Dastlab mahallada asosan yosh oilalar yashaganligi, ularning hayoti istiqbolli bo'lishi sharafiga “Istiqbol” deb atalgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Iqbol” deb qayta nomlangan. Iykota, “Mirishkor”, Abay, “Chashma”, “Zilola” mahallalari bilan chegaradosh.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da iqbol so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: “Baxtli taqdir, porloq kelajak, baxt, omad, peshvoz chiqish” (O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild, 263-bet).

IQTIDOR – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga o‘tkazilgan. Eski nomi – “Do‘stlik”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Iqtidor” deb qayta nomlangan. “Chingeldi”, “Ijodkor”, “Zakovat” mahallalari bilan chegaradosh.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da iqtidor so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi: “Kuch-qudrat, qodirlik; qobiliyat” (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II jild, 264-bet).

ILG‘OR – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Mahallaga 1955-yilda “Ilg‘or” nomi berilgan. 1970-yilda undan Alisher Navoiy mahallasi ajralib chiqqan. “Quyosh”, Chustiy, “Jarariq”, “Obinazir”, “Tinchlik”, “Bog‘ko‘cha” mahallalari bilan chegaradosh.

Mazkur so‘zga *“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da* quyidagicha ta’rif beriladi: a) qo‘shinning oldingi qismi, avangardi; b) ishda, taraqqiyotda oldinda boruvchi, peshqadam; v) taraqqiyot, rivojlanishga, olg‘a siljishga xizmat qiluvchi, yangilikka boshlovchi” (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II jild, 201-bet).

ILTIFOT – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla dastlab Sobir Rahimov nomi bilan atalgan, 2011-yilda mahalla nomini hududdan o‘tadigan asosiy ko‘cha nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida “Iltifot” deb qayta nomlangan. “Go‘zal”, Nodira, “Donishmand”, “Dilbog‘”, “Barkamol” mahallalari bilan chegaradosh.

Iltifot (arab. aylanmoq, inoyat ko‘rsatmoq, lutf qilish, e’tibor) – mehr-oqibat, g‘amxo‘rlik, yaxshi munosabatga asoslangan insoniy fazilatni ifodalovchi tushuncha.

INOQOBOD – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1976-yildan “Bahor” mahallasi deb atalgan (bungacha bu joylar Vesna ko‘chasi deb nomlangan). Hududdagi asosiy ko‘chalardan biri nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, 2016-yilda “Inoqobod” deb qayta nomlangan. Abdurauf Fitrat, “Istiqlolobod”, “Tong yulduzi”, Furqat, “Yangizamon” mahallalari bilan chegaradosh.

“Inoqobod” termini o‘zbek tilida “inoq” (do‘stona, ahil) va “obod” (ravnaq topgan, gullab-yashnagan) so‘zlaridan tashkil topgan. Bu nom yashashga qulay, obod, taraqqiy etgan joy, ahil va totuv odamlar yashaydigan obod joy ma’nosini anglatadi. “Inoqobod” tinchlik, totuvlik va do‘stona muhitni ifodalovchi chiroyli nom bo‘lib, ko‘pincha ahil-inoq yashaydigan joylar uchun qo‘llaniladi.

IPAKCHI – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. 1967-yilda tashkil topgan. 1956-yil shu hududga O‘rta Osiyo ipakchilik instituti ko‘chib kelgan, hududdagi aksariyat fuqarolar institutga ishga kirishgan, mahalla nomi shundan kelib chiqqan. “Eski Jarariq”, “Zafarobod”, “Shaftolizor”, “Bog‘ichinor”, Ibn Sino, “Ko‘kcha”, “Degrez”, “Bekobod” mahallalari bilan chegaradosh.

IRRIGATOR – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mavze nomi. Hamid Olimjon mahallasida joylashgan.

Irrigatsiya – (lot. *irrigatio* – suv qo‘yish, sun‘iy sug‘orish) – suvsiz yerlarga suv chiqarish, dalalarni, ekin maydonlarini sug‘orish ishlari. Irrigator – suv chiqarish ishlari mutaxassisidir.

ISLOMOBOD – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1998-yilda tashkil topgan. “Sobirobod”, Hasanboy, “Tiklanish”, “Uchqahramon” mahallalari bilan chegaradosh.

“Islomobod” – mustaqillik davri mahsuli hisoblangan mazkur toponim islom dini, islom diniga e’tiqodli kishilar yashaydigan obod manzil, hudud, qishloq kabi ma’nolarda qo’llanilgan.

ISLOMOTA – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1985-yilda tashkil topgan. Mahallaga uning faollaridan biri Islomota nomi berilgan. “Oltinsoy”, “Chuqursoy”, “Gulsaroy”, “Taraqqiyot”, “Qichqiriq” mahallalari bilan chegaradosh.

ISTIQBOL – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1994-yilda tashkil topgan. “Paxta”, “Zamondosh”, “Shodiyona”, “Bo’stonobod”, “Ziyo” mahallalari bilan chegaradosh.

Shahar kengayishi munosabati bilan qamishzor bo‘lib yotgan dahaga uylar qurilib, 1972-yildan aholi ko‘chib kelib yashay boshlagan. 1994-yildan shu nom bilan ataladi. “Istiqbol” so‘zi *porloq kelajak, farovon hayot kechirish umidi* ma’nolarini ifodalaydi.

ISTIQLOL – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 2005-yilda Mavlono Rियोziy dahasi aholisi soni oshganligi sababli, “Mustaqillik” (hozirgi “Semurg”) mahallasi ikki qismga ajralgan. “Olmachi”, “Oltintepa”, “Boyqo‘rg‘on”, “Semurg”, “Do‘stobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Mustaqillik yillaridan atalgan mazkur so‘zga “*O‘zbek tilining izohli lug‘ati*”-da shunday ta’rif beriladi: “*Inson, millat, davlatning boshqalarga tobe bo‘lmay, o‘z erki bilan yashashi, o‘zini o‘zi idora etishi; mustaqillik, erkinlik*” (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II jild, 239-bet).

ISTIQLOLOBOD – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda tashkil topgan. Mahalla Bexterev (hozirgi Eski Sariko‘l) va Sariko‘l ko‘chalari oralig‘ida yangi qurilgan ko‘p qavatli 8-uyni o‘z ichiga olgan. Bu mavze respublikamizning istiqlolga erishgan yili qurilganligi sababli, mahallaga “Istiqlol” nomi berilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Istiqlolobod” deb qayta nomlangan. Banokatiy, “Temiryo‘lchilar”, “Navro‘z”, “Tong yulduzi”, “Baynalmilal”, “Inoqobod”, “Yangizamon” mahallalari bilan chegaradosh.

Obod – ba’zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo‘shilib joy nomini yasaydigan, “obodonlashtirilgan”, “o‘zlashtirilgan”, “gullab-yashnagan”, “qulay va shinam joy, hudud” ma’nosidagi so‘zdir.

ISTIROHAT – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1966-yil avgustdan tashkil topgan. 2005-yilgacha Furqat mahallasi deb atalgan. 2005-yildan hozirgi nomda. Bu mahalla dastlab Shayxontohur tumanidagi telemarkaz binosi hududida joylashgan. Zilzila tufayli mahalla aholisi sobiq Oktyabr, hozirgi Bekobod dahasiga ko‘chib kelishgan. “Qoryog‘di”, “Shaftolizor”, “Bekobod”, “Zarafshon”, “O‘tkir”, “Jarbuloq” mahallalari bilan chegaradosh.

Istirohat – arabcha soʻz boʻlib, “dam olish”, “hordiq chiqarish”, “tinchlantirish” degan maʼnolarni anglatadi. Oʻzbek tilida bu soʻz jismoniy va ruhiy dam olish, sokinlik, erkin vaqtni mazmunli oʻtkazish kabi tushunchalar bilan bogʻliq. Bu nom ostidagi har qanday joy odamlarda xotirjamlik, halovat va sogʻlom muhit tasavvurini uygʻotadi.

ITTIFOQ – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 1978-yilda tashkil etilgan, shu yili yangi uylarga aholi koʻchib kelib, mahalla ahlining ittifoq boʻlib yashashidan kelib chiqib “Ittifoq” deb nomlangan. “Sugʻdiyona”, “Nurhayot”, “Nilufar”, “Fayzli”, Al-Fargʻoniy, “Sofdil” mahallalari bilan chegaradosh.

IFTIXOR – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1953-yilda tashkil etilgan boʻlib, ilgari “2-Kislovodskiy” nomi bilan atalgan. 1975-yilda “Oqibat” nomi berilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Iftixor” deb qayta nomlangan. “Shahrison”, Jomiy, Gʻayraty, “Xiyobontepa”, “Yangiariq”, “Minor”, “Otochpar-1”, Usta Shirin mahallalari bilan chegaradosh.

Iftixor soʻzi arabcha soʻz boʻlib, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da shunday izohlanadi: “Faxrlanish, maqtanish, shon-sharaf hissi, faxr” (Oʻzbek tilining izohli lugʻati. II jild, 245-bet). Ulugʻ bir narsaga daxldorlikdan faxrlanish, quvonish, gʻururlanish tuygʻulari bilan bogʻliq tushuncha.

YOʻLAYRIQ – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1987-yilda tashkil etilgan va “Shodlik” nomi bilan atalgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Yoʻlayriq” deb qayta nomlangan. “Sobirobod”, “Nurmakon”, “Bogʻieram”, “Kulolqoʻrgʻon”, “Uchqahramon”, “Mingchinor”, “Bogʻishamol” mahallalari bilan chegaradosh.

Ayri, ayriq – “ikkilangan”, “ikki choʻqqisi bilan” maʼnosini ifodalaydigan geografik terminlar bor. Yoʻlayriq – yoʻl ikkiga ajraladigan joy maʼnosini ifodalaydi.

YOʻLDOSH – Yangiheyot tumanidagi mahalla, mavze va dahalarning nomi. Sergeli tumanidagi mahallalarning hududiy chegaralarini qayta koʻrib chiqish hisobiga “Yoʻldosh” mahallasi 2021-yilda Yangiheyot tumaniga oʻtkazilgan. Mahalla “Fayzli”, “Viqor”, “Zarbdor”, “Charogʻon”, “Chorbogʻ”, Al-Fargʻoniy mahallalari bilan chegaradosh.

1966-yilgi Toshkent zilzilasidan soʻng, Toshkentning janubiy chekka qismida tabiiy ofat natijasida uy-joylari vayron boʻlgan aholi uchun yogʻochdan bir va ikki qavatli uylar jadal surʼatlar bilan qurila boshlangan. Bu binolar 100 ming kvadrat metr maydonni egallagan. Ushbu mavzega Sputnik (“Yoʻldosh daha” maʼnosida) deb nom berilgan. Mahalla nomi mavze nomidan olingan.

Yoʻldosh-18 mavzesi dastlab Yoʻldosh-17 deb atalgan. Joydagi Ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi 4-, 6-, 7-, 8-, 9 -sonli koʻp qavatli uylar 17-mavzega bogʻliq boʻlmagani uchun, mavze nomlarini tartibga keltirish maqsadida, 2009-yilda Yoʻldosh-18 deb qayta nomlangan. Xurshid mahallasida joylashgan. Tumanda 19 ta Yoʻldosh nomli dahalar mavjud.

KAYKOVUS – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 2022-yilda “Namuna” mahallasidan ajralib chiqqan yangi mahalla. “Namuna”, “Xonchorbogʻ”, “Qorasaroy”, “Yuqori Sebzor” mahallalari bilan chegaradosh.

Unsurulmaoliy Kaykovus ibn Iskandar hijriy 412-yil (milodiy 1021–1022) da tugʻilgan. U Kaspiy dengizining janubiy qirgʻoqlarida yashagan “gilon” qabilasidan boʻlgan. Bobosi Shamsulmaoliy Qobus qahri qattiq, biroq oʻqimishli amaldorlardan edi. Kaykovus ziyoli kishilardan boʻlib, musiqa va tibbiyot ilmi-da ancha muvaffaqiyatlar qozondi, pand-nasihati tarzida bitilgan “Qobusnoma” asari bilan mangu boʻlgan. Kaykovus qatoridan oʻrin oldi. X–XI asrlarda fors shoiri Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asarida yozilishicha, Kaykovus eron shohlaridan biri boʻlgan. Mahalla nomi shu kishiga nisbat berilib, Kaykovus deb atalgan kanal nomi bilan bogʻliq.

KAMOLON – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Beshyogʻoch dahasidagi qadimiy mahalla boʻlib, Xoʻjakoʻcha va Fuqaro koʻchalariga boʻlingan. Qariyb 200 ta xonadon yashagan. Aholisi, asosan, hunarmandchilik, savdo-sotiq, shahar tashqarisidagi yerlari (Novza, Qozirabot, Doʻmbirobod, Qonqus mavzelari)da dehqonchilik bilan shugʻullangan. Shahar darvozalaridan biri – Kamolon darvoza shu mahallada joylashgan. “Beshyogʻoch”, “Kattabogʻ”, “Yangiobod”, “Yangi Kamolon”, “Eshonguzar”, “Kamolon Darvoza” mahallalari bilan chegaradosh.

“Kamolon” toponimi haqida turli fikrlar mavjud. “Kamolon” soʻzining aynan lugʻaviy maʼnosi – komil insonlar yashaydigan yer. Muhammad Solihxoʻja “Tarixi jadidayi Toshkand”da mahalladagi darvozani Kamondaron deb ataydi (XIV asr oxiri) va Kamondaronlar (turkman oʻgʻuz-uchuq qabilalar uyushmasi) qabilasining bir toifasiga mansub deydi.

“Kamolon” toponimi haqida keyingi fikrga koʻra, bu soʻz “Kamondaron”, yaʼni “kamonchilar mahallasi” maʼnosini beradi. Maʼlumki, qadimda Choch oʻzining kamoni, kamonchi ustalari bilan dunyoga mashhur boʻlgan. “Hudud ul-olam”da (X asr) “Choch – bu katta viloyat, xalqi jangovar va saxiydir. U yerda kamon va oʻq-yoy yasaladi”, – deb qayd etilgan. Shoshda yasalgan kamon oʻsha vaqtlarda butun Sharqda “Kamoni Shoshiy” nomi bilan mashhur boʻlib, uning uzoqqa otilishi va nishonga aniq tegishi Sharq mualliflarining asarlarida taʼriflangan. Mana shu ustalar yashaydigan mahalla Kamondaron deb atalgan. Choch kamonlari xorijiy davlatlarga ham sotilgan. Tarixiy maʼlumotlarga koʻra, buyuk Sohibqiron Amir Temur Toshkentda boʻlganida “Kamolon” mahallasida yasalgan kamonlarning puxtaligiga tan berib, oʻz qoʻshinlarini u bilan taʼminlashga buyruq bergan.

KAMOLON DARVOZA – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. 2015-yilda “Yangiobod” mahallasidan ajralib chiqqan yangi mahalla. “Beshyogʻoch”, “Charx Kamolon-2”, “Yangiobod”, “Charx Kamolon-1”, “Kamolon”, “Charx Kamolon-3”, “Charxnovza” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi shahar darvozalaridan biri – Kamolon darvozasi nomidan olingan.

KAMOLOT – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 1996-yilda Yalang‘ochota nomi bilan tashkil topgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Kamolot” deb qayta nomlangan. “Shalola”, “Katta Yalang‘ochota”, “Yangi Kamolot” mahallalari bilan chegaradosh.

Kamolot (arabcha kamol, komil, mukammal – to‘kislik, bekam-u ko‘stlik, yuksak natija, yetuklik) – insonlar o‘rtasida jismoniy va ruhiy yetuklikning yuksak darajasini ifoda etish bilan birga hayotdagi har qanday mukammal hodisa, ish va harakatga nisbatan ham qo‘llanadigan tushuncha. Shunga ko‘ra, kamolotni insonning bir yoki bir necha sohalarda yoxud munosabatlarda yaqqol ko‘zga tashlanadigan, boshqalarnikidan ijobiy jihatlari bilan keskin farq qiladigan, o‘zgalar tomonidan yuksak e‘tirof etiladigan ma‘naviy yoki jismoniy yetuklik darajasi deb ta‘riflash mumkin.

KATTA DO‘MBIROBOD – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1957-yilda tashkil etilgan. 2003-yil bu mahalladan “Kichik Do‘mbirobod” mahallasi ajralib chiqqan (2007-yildan mazkur mahalla “Do‘mbirobod” mahallasi deyiladi). “Gavhar”, “Tirsakobod”, “Yakkabog‘”, “Naqqoshlik”, “Katta Qozirabot”, “Do‘mbirobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Toponimning birinchi komponenti – *katta* so‘zi “*ulkan*”, “*zo‘r*” degan ma‘nolarni bildiradi va qishloq, mahalla joylashgan hududning ko‘lamini (kattaligini) anglatadi.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, Do‘mbirobod nomi qadimda joyni obod qilgan shaxsning ismi (laqabi)dan yoki chorlov maqsadida chalingan do‘mbiradan kelib chiqqan.

KATTA JARARIQ – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. 1991-yilda “Oqtepa” nomi bilan tashkil topgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Katta Jarariq” deb qayta nomlangan. “Yangi Beltepa”, “Eski Jarariq”, “Shodlik”, “O‘zbekiston”, “Yangi Jarariq”, “Beltepa” mahallalari bilan chegaradosh.

Toponimning birinchi komponenti – *katta* so‘zi “*ulkan*”, “*zo‘r*” degan ma‘nolarni bildiradi va qishloq, mahalla joylashgan hududning ko‘lamini (kattaligini) anglatadi.

“Jarariq” gidronimi relyef bilan bog‘liq bo‘lib, “jarlikda hosil bo‘lgan ariq”, “jardan oqib o‘tgan ariq” ma‘nolarini bildiradi.

KATTA QA‘NI – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1987–91-yillardan “Katta Qa‘ni” mahallasi deb atalgan. “Qoziguzar”, “O‘rikzor”, “Nurobod” mahallalari va Algoritm mavzesi bilan chegaradosh bo‘lgan. Mahalla hududi Toshkent shahriga qo‘shilguncha Zangiota tumani Katta Qa‘ni qishlog‘i deb yuritilgan. Bugungi kunda “Diydor”, “Yangiyo‘l”, “Nurobod”, “Qoziguzar”, “Foziltepa”, “Hamdo‘st”, “Katta Cho‘ponota” mahallalari bilan chegaradosh.

“Qa’ni” atamasi, aslida qadimiy turkiy qabilalardan “qangli”ning buzilgan shakli hisoblanadi. Mahalla hududidagi Foziltepa arxeologik yodgorligi (IV–VIII asrlar) tarixiy manbalarda Qang’liqo’rg’on nomi bilan qayd etilgan. Qishloq, keyinchalik mahalla nomi shundan olingan.

KATTA QOZIRABOT – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1989-yilda tashkil topgan. “Katta Do’mbirobod”, “Naqqoshlik”, “Gavhar”, “Yakkasaroy”, “Qozirabot”, “Meros” mahallalari bilan chegaradosh.

Manbalarga ko’ra, 1892-yilda shaharda vabo tarqalishi munosabati bilan shahar qabristonlari yopilib, shahar tashqarisida yangi qabristonlar ochilgan. Beshyog’och dahasi qozisi Said Boqijon (Baqo) yangi qabriston uchun yer sotib olish maqsadida mahalliy boylardan mablag’ to’plagan va katta hashar uyushtirib, bu yerlarni obod qilgan. Xususan, shiypn, choyxona, savdo va hunarmandchilik do’konlari qurilgan. Mahalla va shu yerdagi qabriston nomi aynan shu shaxs nomi bilan atalgan.

Rabot (ravot) – arabcha so’z bo’lib, VIII–IX asrlarda o’zbek, fors, tojik tillariga o’zlashgan. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida karvonsaroy, musofirxona, o’zga yurtidan kelgan kishilar istiqomat qiladigan saroy rabot deyilgan. Alisher Navoiy asarlarida rabot – karvonsaroy, musofirxona tarzida keladi.

Rabotlar XVII–XVIII asrlarda yirik aholi punktlari yonida, bozor atroflarida va savdo yo’llaridagi bekatlarda qurilgan. XIX asrda to’rtburchak shaklida qurilgan, bitta darvozasi bo’lgan qo’rg’onlar ravot deb atalgan. Ravot so’zining qo’rg’on ma’nosi ham bo’lgan. Yuqoridagilarga asoslanib, Beshyog’och dahasi qozisi Said Boqijon (Baqo) tomonidan bunyod etilgan rabot, ya’ni karvonsaroy, musofirxona deb izohlasa bo’ladi.

KATTA QORASUV – Mirzo Ulug’bek tumanidagi mahalla nomi. 1979-yilda tashkil topgan. Mahalla dastlab “Do’slik”, 1991-yildan Oybek nomi bilan atalgan. 2005-yildan hozirgi nomda. Shukur Burhonov, “Gulsanam”, “Sho’rtapa”, “Sultoniya”, “Chimyon”, “Temuriylar”, Alisher Navoiy mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla hududidan Katta Qorasuv kanali oqib o’tganligi uchun shunday atalgan. Gidronimiyada *qora* – yer osti, sizot suvi ma’nosini bildiradi. Qorasuv – yilning barcha fasllarida bir xil miqdordagi suvni bildiradi.

KATTA QO’YLIQ – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda tashkil topgan. Mahalla o’rnida dastlab Toshloq ko’chasi bo’lib, undagi uylarda Koreyadan deportatsiya qilingan koreys millatiga mansub fuqarolar yashashgan. 1993–2009-yillarda Mirzo Ibrohim mahallasi deb atalgan, 2009-yil aprel oyidan hozirgi nomda. Nom shu atrofda yashagan va asosan chorvachilik bilan shug’ullangan *qo’yli (qo’yliq)* o’zbek qabilasi nomidan kelib chiqqan. “Nurafshon”, Barotxo’ja, “Qo’yliqobod”, “O’rtamasjid”, “Mumtoz”, Qo’yliqota mahallalari bilan chegaradosh.

KATTA NAVBAHOR – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda “Navbahor” mahallasidan ajralib chiqqan. “Novza”, “Xalqlar do‘stligi”, “Qator-tol”, “Dilobod”, “Qozirabot”, “Diyor”, “Ko‘tarma”, “Navbahor” mahallalari bilan chegaradosh.

Navbahor termini bilan ataladigan joylar Respublikamizning ko‘p hududlarida uchraydi va *“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “erta, ilk bahor, bahorning boshi”* ma‘nolarini ifodalaydi (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, III jild, 6-bet).

KATTA OQTEPA – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. 1950-yilgacha Titov, 1950–59-yillarda “Charxnovza”, 1959-yildan Cho‘ponota deb atalgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Katta Oqtepa” deb qayta nomlangan. Mannon Uyg‘ur, Lutfiy, “Ko‘kcha Darvoza”, “Paxtakor”, Olim Xo‘jayev, “Charx Kamolon-3”, “Oqlon”, “Charxnovza” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla hududida Chilonzor Oqtepesi arxeologik yodgorligi mavjud, mahalla nomi shundan olingan. Chilonzor Oqtepesi – arxeologik yodgorlik (IV–VIII asrlar, X–XI asrlar). Toshkentning janubi-g‘arbiy qismida, Bo‘zsuv anhoiri bo‘yida joylashgan. 1940-yili A.I. Terenokkin qayd etgan; 1960-yilda A.S. Shiller va Y.F. Buryakov, 1969–71-yillarda Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi tekshirgan. Chilonzor Oqtepesi balandligi 15 metrli tepalik bo‘lib, atrofida umumiy maydoni 60x75 kvadrat metr keladigan qadimiy qishloq xarobasi qoldiqlari joylashgan.

KATTA OLMAZOR – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1979-yilda “Olmazor” nomi bilan tashkil topgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Katta Olmazor” deb qayta nomlangan. “Beshyog‘och”, “Olmazor” mahallalari bilan chegaradosh.

Olmazor atamasi olma so‘ziga -zor affiksini qo‘shish orqali hosil qilingan bo‘lib, “olma daraxti ko‘p ekilgan yer, maydon, olma bog‘i” ma‘nolarini anglatadi. O‘tmishda bu hududda katta mevali bog‘lar, olmazorlar bo‘lib, ular shahar bo‘ylab dong taratgan. Shu sabab bu hudud Olmazor nomini olgan.

KATTA OLTINTEPA – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 1987-yilda tashkil topgan. Dastlab “Oltintepa-5” deb atalgan, 2005-yildan “Bo‘zariq” deb nomlangan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish hamda mahallaning tarixiy nomini tiklash maqsadida, 2011-yilda “Katta Oltintepa” deb qayta nomlangan. Avayxon, “Oltintepa”, “Minglola”, “Alpomish”, “Podshobog‘”, Alisher Navoiy mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla Oltintepa arxeologik yodgorligi nomi bilan atalgan. Oltintepaning manzilgohi 1927-yilda N.G. Malliskiy tomonidan “mauza” nomi bilan eslab o‘tilgan. 1957-yilda yodgorlik arxeolog Y.F. Buryakov tomonidan tekshirilgan. O‘rganilgan materiallar milodiy IV–VII va X–XIV asrlarga to‘g‘ri keladi.

KATTA XIRMONTEPA – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1996-yilda tashkil topgan. Mahalla hududida mevali daraxtlar, ekinzorlar ko‘p bo‘lgan. Nomi shulardan olinadigan mo‘l hosilga nisbatan qo‘llanilgan.

“Xayrobod”, “Sharq tongi”, “Xirmontepa”, “Yakkatut”, “Hamdo‘st”, “Shirin” mahallalari bilan chegaradosh.

KATTA HASANBOY – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 2015-yilda “Sharq haqiqati” mahallasi negizida tashkil etilgan. “Sharq haqiqati”, Hasanboy, “Ahil”, “Hamkorobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi Katta halqa yo‘li, Hasanboy ko‘chasi va Qoraqamish kanali oralig‘ida joylashgan Hasanboy dahasi nomidan olingan. Qadimda shaharga kirib keluvchi karvon yo‘llari shu yerdan o‘tgan. Daha hududi, asosan, bog‘ va ekinzorlardan iborat bo‘lgan, Toshkent tumani jamoa xo‘jaligi tasarrufida bo‘lgan. Mustaqillik yillari shahar tarkibiga kiritilgan. Dahada “Islomobod”, Beruniy, “Sharq haqiqati”, “Guliston”, Hasanboy mahallalari tashkil etilgan. Daha nomi Toshkent viloyatining Hasanboy qishlog‘i nomidan olingan. Shaxs ismi bilan bog‘liq joy nomi.

KATTA CHILONZOR-1 – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. XX asrning 50-yillarigacha bu hudud bog‘lardan iborat bo‘lgan. 50-yillarning oxiri – 60-yillarda ko‘p qavatli uylar qurila boshlagan. 1966-yildagi Toshkent zilzilasidan so‘ng turli millat vakillari ko‘chib kelishgan. “Katta Chilonzor-2”, “Katta Chilonzor-3”, “Chilonzor”, Muqimiy, “Rakat” mahallalari va janubdan Bo‘rijar arig‘i bilan chegaradosh.

Mazkur nomning kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar mavjud. Chilonzor toponimi “chilon” va “zor” so‘zlaridan iborat bo‘lib, “chilon jiyda o‘sadigan bog‘” ma‘nosini bildiradi. Biroq, N.G. Malliskiy Chilonzor Chinorzordan – “chinorlar o‘sadigan bog‘”dan kelib chiqqan deydi. Chilonzor chilon (jiyda) – unabi, (zor – biror narsaga to‘lib-toshgan joy) dan kelib chiqqan ham bo‘lishi mumkin.

KATTA CHILONZOR-2 – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1992-yil 28-martda tashkil topgan. Mahalla 2-mavzeda joylashganligi sababli mazkur nom bilan atalgan. “Katta Chilonzor-1”, “Katta Chilonzor-3”, “Chilonzor”, “Qozirabot”, Muqimiy, “Meros” mahallalari bilan chegaradosh.

KATTA CHILONZOR-3 – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. Bo‘zsuv kanali bo‘yida joylashgan bo‘lib, 1991-yilda tashkil etilgan. 1966-yildagi Toshkent zilzilasidan so‘ng ko‘p qavatli uylar qurila boshlangan. 1992-yilda “Chilonzor” mahallasidan ajralib chiqqan. “Katta Chilonzor-1”, “Katta Chilonzor-2”, “Novza”, “Chilonzor”, “Qozirabot” mahallalari bilan chegaradosh.

KATTA CHO‘PONOTA – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. Bo‘zsuv kanali bo‘yida joylashgan. 1924-yilda Cho‘ponota nomi bilan tashkil etilgan. Mahalla nomi cho‘pon-ota, avliyo, cho‘ponlar homiysi – Cho‘ponota nomidan olingan. O‘rta asrlarda mahalla hududidagi qabriston atrofida karvonsaroy, choyxona, baqqollik do‘konlari bo‘lgan. Keyinchalik sho‘rolar davridagi kolxozlashtirish jarayonida yerlar birlashtirilib, suv bo‘yidan ko‘chirilgan. 1966-yildagi Toshkent zilzilasidan so‘ng aholi ko‘chirilib, o‘rniga 13-, 14-, 15-, 21-, 22-mavzelar tashkil etilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, mahallaning tarixiy

nomini saqlab qolgan holda, 2022-yilda “Katta Cho‘ponota” deb qayta nomlangan. “Birlik”, “Nurobod”, Lutfiy, “Chamanzor”, “O‘rikzor”, “Ko‘kcha-Oqtepa”, “Katta Qa‘ni”, Jurjoniy, “Bog‘obod”, “Davlatobod”, “Paxtakor”, “Bog‘iston”, “Foziltepa”, Yusuf Sakkokiy, “Nayman” mahallalari bilan chegaradosh.

KATTA YALANG‘OCHOTA – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 1994-yilda tashkil topgan bo‘lib, dastlab “Turkiston” mahallasi deb yuritilgan. 2005-yildan buyon hozirgi nom bilan ataladi. “Kamolot”, “Bahor”, “Shahriobod”, “Posira”, “Bog‘imaydon”, “Shalola”, “Yalang‘och” mahallalari bilan chegaradosh.

Yalang‘ochota – o‘tmishda turkiy xalqlarda shamol homiysi. Etnograf A. Divayev (1855–1933) keltirgan ma‘lumotga ko‘ra shamol chaqirish marosimida ijro etiladigan qo‘shiqda shamol homiysi sifatida Yalang‘ochotaga murojaat etilgan. Yalang‘ochotaga e‘tiqod qilish Toshkent atroflari va Janubiy Qozog‘istonda yashovchi o‘zbeklar orasida keng tarqalgan.

KATTA YANGIOBOD – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – M.Mirsharapov. Yangiobod aholi maskanida tashkil etilgan ilk mahallalardan biri bo‘lgani uchun, 2010-yilda “Katta Yangiobod” deb qayta nomlangan. Nodira, “Bunyodkor”, “Yangidavr”, “Yanginur”, “Oydinko‘l”, “Behizor”, “Tarnovboshi”, “Shohimardon”, “Xosiyatli” mahallalari bilan chegaradosh.

Yangiobod – *“yangi o‘zlashtirilgan yer”, “obodonlashtirilgan maskan”* ma‘nosini anglatadi. Geografik nom tarkibidagi *obod* so‘zi – tojikcha *“ob – suv, obod – suvli, suv yetarli joy”* degan ma‘nolarni bildiradi. Bu so‘z shahar, qishloq, umuman, aholi manzilgohlariga nisbatan ishlatiladi. Asosiy ma‘nosi *“gullagan”* demakdir.

KATTABOG‘ – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. 1936-yildan rasman shu nomda. Zangiota, “Yangiobod”, “Samarqand Darvoza”, “Eshonguzar”, “Kamolot” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla aholisi qadimdan bog‘dorchilik bilan mashg‘ul bo‘lib, mahalla bog‘larida mirishkor bog‘bonlar tomonidan yetishtirilgan olma, o‘rik, shaftoli, uzum kabi mevalar “Chorsu” bozorida sotilgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi katta-katta bog‘-rog‘lar hisobiga mahalla shu nom bilan atalgan.

KATTAHOVUZ – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. 1-shahar klinik kasalxonasi yonida joylashgan bo‘lib, 1961-yilda tashkil topgan. 1995-yildan hozirgi nomi bilan ataladi. “Samarqand Darvoza”, “Chorsu”, “Yangishahar”, “Sarxumdon”, “Oqlon”, Suzukota mahallalari bilan chegaradosh.

Mahallada katta hovuz bo‘lgan (uning nomlanishi shundan kelib chiqqan).

KENGMAKON – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Zangiota tumanidan shahar hududiga o‘tkazilgan. Eski nomi – “Istiqlol”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish hamda mahallaning tarixiy nomini tiklash maqsadida, 2022-yilda “Kengmakon” deb qayta nomlangan. “Eshonbuloq”, “Sadoqat”, “Izzatli”, “Madaniyat”, “Birdamlik”, “Yangi Qo‘yliq”, “Nomdanak” mahallalari bilan chegaradosh.

Kengmakon – *keng* (ichi, ich hajmi, sig‘imi, sathi katta, tarqalish, qamrov doirasi katta, ko‘p narsani o‘z ichiga olgan) va *makon* (doimiy, davriy turar joy, hudud, maskan) so‘zlarining birikishidan hosil bo‘lgan atamadir.

KICHIK XIRMONTEPA – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 2004-yil dekabrda “Xirmontepa” mahallasidan ajralib chiqqan. Mahalla hududida mevali daraxtlar, ekinzorlar ko‘p bo‘lgan. Mahallaning nomi o‘sha mevalardan olinadigan mo‘l hosilga nisbatan qo‘llanilgan. “Botirma”, “Mehrjon”, “Xirmontepa”, “Shuhrat”, “Bo‘rijar”, “Shirin” mahallalari bilan chegaradosh.

Toponim tarkibidagi birinchi komponent – *kichik* so‘zi mahallaning en va bo‘y ko‘lami unchalik keng emasligini, maydoni *katta* komponentli mahallaga nisbatan kichikroq ekanligini bildiradi.

KONSTITUTSIYA – Yakkasaroy tumanidagi mahalla nomi. Mahalla XIX–XX asrlarda “Guberbog‘”, “Rakat”, “Turkiston” kabi nomlar bilan atalgan. 1991-yilda “Konstitutsiya” nomi berilgan. “Tepa”, Yunus Rajabiy, “Rakatboshi”, “Bog‘saroy”, Abdulla Qahhor, Hamid Sulaymonov, “Belariq”, “Muhandislar”, Shohjahon mahallalari bilan chegaradosh.

KOHOTA – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. 1995-yilda “Faol”, “Sanoat”, Kohota, “Qahramon” mahallalarining birlashuvidan tashkil topgan. “Taxtapul”, “Labzak”, “Janggoh”, “Shayxontohur”, “Chilto‘g‘on”, “Yuqori Sebzor”, “Yangi Sebzor” mahallalari bilan chegaradosh.

Sharqshunos A.Nosirovning “Toshkent mashoyixlari” mavzusida to‘plagan materiallaridagi ma‘lumotlarga qaraganda, Kohotaning asl ismi Said Kamoliddin Shomiy bo‘lgan. Muhammad Solihxo‘ja Toshkandiyning (XIX asr) yozishicha, Kohota Xoja Ahmad Yassaviy sulukiga mansub shayxlardan bo‘lgan. Mahalla shu kishi nomiga nisbat berilib, Kohota deb nomlangan. Mahalla hududida Kohota Buzruk jome masjidi joylashgan.

KO‘KSAROY – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda “Mustaqillik” nomi bilan tashkil etilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2005-yilda “Ko‘ksaroy” deb qayta nomlangan. “O‘rikzor” mahallasi bilan chegaradosh.

Mahallaning bunday deb atalishi Toshkent tumanidagi Ko‘ksaroy qishlog‘i nomidan olingan. Saroy qabilasining bir tarmog‘i – ko‘ksaroydir.

KO‘KCHA – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Shaharning qadimiy mahallalaridan biri hisoblanadi. Yangi mahalla 1950-yillarda tashkil topgan. “Jarariq”, “Ipakchi”, “Zafarobod”, “Ko‘kcha Darvoza”, “Degrez”, “Yangishahar”, Shofayzi, “Oqlon”, “Shofayzibog‘” mahallalari bilan chegaradosh.

“Ko‘kcha” atamasi dastlab XIV asr oxiridagi Toshkent darvozalari ro‘yxatida keltirilganligi tarixchi Muhammad Solihxo‘ja Toshkandiyning “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida qayd etilgan. Mazkur nom ba‘zi tadqiqotchilar fikricha “kohcha” – qal‘acha nomidan, boshqa bir tadqiqotchilar fikricha esa “ko‘hcha” – tog‘cha, tepalik, balandlik nomidan olingan.

Tarixchi olim A.R. Muhammadjonovning fikriga ko‘ra, “ko‘kcha” so‘zi aslida “*kohicha*” so‘zining o‘zgartirilgan shakli, “*kohicha*”, “*kohak*” so‘zi “*qal’acha*” degan ma’nolarni anglatadi va bu yerda o‘rta asrlarda harbiy qal’a bo‘lganidan dalolat beradi. Mahalla aholisi asosan ko‘nchilik, kosibchilik va to‘qimachilik, mavzelarda dehqonchilik bilan shug‘ullanishgan.

KO‘KCHA DARVOZA – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. 1932-yilda “2-Oqlon” nomi bilan tashkil topgan. 1950-yilda “Avangard”, 1993-yilda “Navro‘z”, 1998-yildan “Islomobod” deb atalgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Ko‘kcha Darvoza” deb qayta nomlangan. “Ko‘kcha”, Mannon Uyg‘ur, Olim Xo‘jayev, Shofayzi, “Katta Oqtepa”, “Oqlon” mahallalari bilan chegaradosh.

Ko‘kcha darvozasining nomi XX asr boshigacha saqlangan. Ko‘kcha darvozasi shaharning g‘arbiy devoriga qurilgan va undan Qoraqamish va Samarqand tomonga yo‘l ketgan.

KO‘KCHA-OQTEPA – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1937-yilda tashkil topgan, dastlab “Yakka xo‘jalik”, Ikkinchi jahon urushidan so‘ng “Oqtepa mahalla” nomi berilgan. 2005-yildan Ko‘kcha Oqtepasi arxeologik yodgorligi nomi bilan ataladi. Jurjoniy, “Sharq yulduzi”, “Paxtakor”, “Nishabariq”, “Katta Cho‘ponota”, Abdulla Qodiriy mahallalari bilan chegaradosh.

Ko‘kcha Oqtepasi – arxeologik yodgorlik (VI–XI asrlar). Toshkentning janubi-g‘arbiy qismida, Ko‘kcha arig‘i bo‘yida joylashgan. 1927-yili N.G. Malliskiy tomonidan qayd etilgan. 1968-yilda Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi tekshirgan. Qo‘rg‘onning balandligi 5 metrga yaqin bo‘lgan. Tepalikning do‘ng qismi ostidan xom g‘isht va paxsadan barpo qilingan imorat qoldiqlari (VI–VIII asrlar), manzilgohdan shu davrga oid turli sopol idishlar, sopol ostadon topilgan. Ko‘kcha Oqtepada hayot X–XI asrlargacha davom etgan.

KULOLQO‘RG‘ON – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. Ilgari bu hudud “Kulolqo‘rg‘on” va “Ahil” mahallalariga tegishli bo‘lgan. 1995-yilda ikki mahalla qo‘shilib, “Kulolqo‘rg‘on” nomini olgan. “Bog‘ieram”, Yunusota, “Yo‘layriq”, “Muruvvat”, “Barhayot”, “Yangibog‘”, “Uchqahramon” mahallalari bilan chegaradosh.

Kulol forscha so‘z bo‘lib, “loydan turli sopol idishlar, buyumlar tayyorlaydigan hunarmand” ma’nolarini beradi. Kulolqo‘rg‘on – “kulollar yashaydigan istehkom, qal’a, shahar” ma’nolarini ifodalaydi. Shunday ekan, ushbu maskanda hunarmandlar istiqomat qilishi kasb-hunar terminini oykonimga ko‘chishiga asos bo‘lgan.

KO‘RKAM – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda “Beshchinor” mahallasidan ajralib chiqqan. “Novza”, “Xalqlar do‘stligi”, “Charx Kamolon-2”, “Charx Kamolon-3”, “Beshchinor” mahallalari bilan chegaradosh.

“Ko‘rkam” – “zebo, go‘zal, nazarni tortuvchi, shinam va jarangdor” ma’no-larga ega so‘z bo‘lib, ko‘p hollarda tashqi qiyofa yoki muhitning diqqatga sazovor

chiroyni ifodalaydi. Bu nom orqali hududning go‘zal muhiti, tinchligi va qulayligi ta’riflanadi.

KO‘RKAMOBOD – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – Yoziqul Xudoyberdiyev. 2005-yildan hozirgi nomda. “Taqachi”, “Oqmasjid”, “Zarafshon”, “Hojiobod”, “Uchtepa”, “Quyi Darxon” mahallalari bilan chegaradosh.

Ko‘rkamobod – “yangidan bunyod qilingan chiroyli, go‘zal aholi yashash maskani, yangi o‘zlashtirilgan yerda qurilgan qo‘rg‘on” ma’nolarini ifodalaydi.

KO‘TARMA – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1964-yilda tashkil etilgan. Mahalla nomi sobiq Ko‘tarma jamoa xo‘jaligi nomidan kelib chiqqan. Bu hududdagi jamoa xo‘jaligi balandlikda joylashgani sababli Ko‘tarma deb atalgan. Keyinchalik jamoa xo‘jaligi tarqatilib, uning o‘rnida ko‘p qavatli uylar qurilgan. “Guzar”, “Fidokor”, “Qatortol”, “Qo‘rg‘ontepa”, Cho‘ponota, “Katta Navbahor”, “Navbahor” mahallalari bilan chegaradosh.

KO‘HNA QUMARIQ – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Zangiota tumanidan shahar hududiga o‘tkazilgan. Eski nomi – “Qumariq”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, mahallaning tarixiy nomini saqlab qolgan holda, 2022-yilda “Ko‘hna Qumariq” deb qayta nomlangan. “Qo‘shqo‘rg‘on”, “Eski Jaloyir”, “Sultonobod”, “Qumariq”, “Asrobod”, “Ziyolilar”, “Qubaytepa”, “Qut-baraka”, “Sug‘diyona” mahallalari bilan chegaradosh.

Ko‘hna so‘zi “qadimiy” ma’nosini beradi. Qumariq termini tarixiy nom hisoblanib, u bir-biri bilan birlashmaydigan, mayda zarralardan tashkil topgan cho‘kindi tog‘ jinsi ma’nosini bildiruvchi *qum* va *ariq* (suv yo‘li) so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan bo‘lib, qumdan kesib o‘tgan ariq ma’nosini ifodalaydi.

Boshqa bir fikrga ko‘ra, Qumariq – qum bor joydagi ariq. Xum so‘zining o‘zgargan shakli qum. Oqar suv taqchil hududlarda band (to‘g‘on)ga qum qo‘yib, tagi va og‘zi bir xil hajmdagi xum orqali ariqlarga o‘lchab berilgan. Xum, ko‘za, mo‘ndi kabi sopol idishlar, quvurlar o‘lchov birligi va asbobi hisoblangan. Qumariq, asli Xumariq, suvi xumda o‘lchanib oqizilgan ariq va shunday ariq bo‘yida yoki quyisidagi qishloq.

KO‘HNA MEVAZOR – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga o‘tkazilgan. Eski nomi – “Mevazor”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, mahallaning tarixiy nomini saqlab qolgan holda, 2022-yilda “Ko‘hna Mevazor” deb qayta nomlangan. Ko‘hna so‘zi “qadimiy” ma’nosini beradi. “Gulzorobod”, “Do‘stobod”, Amir Temur, “Yangi Avayxon”, “Fidoyilar”, “Oltintepa”, Avayxon mahallalari bilan chegaradosh.

KO‘HNA CHO‘PONOTA – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1988-yilda tashkil topgan bo‘lib, dastlab “Do‘stlik” mahallasi deb atalgan, 2005-yildan shu nomda. “Xuroson”, “Tinchlikobod”, “Farhod”, “Bog‘obod”, “Guzar”, “Bog‘iston” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi cho‘pon-ota, avliyo, cho‘ponlar homiysi – Cho‘ponota nomi-dan olingan. Mahallada Cho‘ponota masjidi va qabristoni joylashgan.

LABZAK – Shayxontohur tumanidagi mahalla va mavzening nomi. Mahalla o‘tmishda “Sirli masjid”, sho‘rolar davrida “Bahor” nomi bilan atalgan, keyinchalik “Izvestiya” mahallasi “Bahor” mahallasi bilan birlashib, hozirgi “Labzak” mahallasi tashkil qilingan. Mahalla hududi Labzak arig‘i bo‘yida joylashganligi sababli Labzak – “zaxkash suv bo‘yi” deb nomlangan. Mahalla hududida shaharning Labzak darvozasi bo‘lgan. “Taxtapul”, Kohota, “Minor”, “Matonat”, “Shayxontohur”, “O‘rda” mahallalari bilan chegaradosh.

Labzak mavzesi Shayxontohur tumanining markaziy qismida, Abdulla Qodiriy, Abay, Labzak, Zulfiyaxonim ko‘chalar oralig‘ida joylashgan. Eski nomi – Markaz-13 (S-13) mavzesi. 1966-yildagi Toshkent zilzilasidan so‘ng Toshkent shahrini rekonstruksiya va obod qilish davlat loyihalash instituti loyihalari asosida yakka tartibdagi eski, buzilgan uy-joylar, kichik tor ko‘chalar o‘rniga qurilgan.

Labzak forscha “lab” – “bo‘yi”, “chekkasi” va arabcha “zax” – “nam, zax yer” so‘zlaridan tashkil topgan, ya‘ni “zax yer”, “zax ariqning bo‘yi”, “zovur” degan ma‘nolarni anglatadi.

LATIFGUZAR – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1966-yildagi Toshkent zilzilasidan zarar ko‘rgan aholini uy-joy bilan ta‘minlash maqsadida tashkil etilgan. 2002-yildan buyon hozirgi nomda. “Taqachi”, Hayratiy, “Hojiobod”, Abdulla Qodiriy, “Chamanzor”, “Davlatobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Latif – muloyim, pok, pokiza, xushro‘y yoki rahmdil, mehribon ma‘nolarini beradi. Guzar esa shahar, qishloq va mahallalarda ko‘chalar kesishgan chorrahalarda joylashgan, savdo va xizmat ko‘rsatish rastalari bo‘lgan gavjum, serqatnov, obod joydir.

LASHKARBEGI – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 1983-yilda tashkil topgan bo‘lib, eski nomi – Amir Temur. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2005-yilda “Lashkarbegi” deb qayta nomlangan. Bu nom aslida Qo‘qon xonligi davrida Toshkent noibi (hokimi) bo‘lgan Lashkar qushbegi ismining buzilgan shakli hisoblanadi. “Asaka”, “Buyuk Turon”, “Nur”, “Mustaqillik”, Hamid Olimjon mahallalari bilan chegaradosh.

Lashkar qushbegi, G‘ulomshoh (?–1842) – Toshkent hokimi (1810–40), Chitrol viloyatidan chiqqan eroniy qullardan. Qo‘qon xonligi davrida yuqori lavozimlarni egallagan. 1809-yilda Olimxon Toshkentni bosib olgach, Lashkar qushbegini devonbegi lavozimida shahar hokimi etib tayinlagan. Xon unga qushbegi (harbiy qo‘shin boshlig‘i) mansabini bergan. 1816-yili Turkiston shimolining Umarxon tomonidan egallanishida Lashkar qushbegi katta rol o‘ynagan. Lashkar qushbegi o‘z qo‘shini bilan 1818-yilda Umarxonning O‘ratepa va Jizzaxga (1819) qilgan yurishida qatnashgan. 1830-yili sentyabrda Lashkar qushbegi 15 ming qo‘shini bilan Muhammad Alixonning Qashqarga qilgan yurishida ishtirok etgan. Qo‘qon qo‘shini Sharqiy Turkistondagi Yangi Hisor, Yorkend, Xo‘tan shaharlar-

rini egallab, Oqsuv va Uchturfonga qadar yetishgan, ko‘p qiyinchiliklardan so‘ng Qashqar viloyatidagi Gulbog‘ni qamal qilishgan. Uch oy davom etgan qamaldan so‘ng, ko‘p sonli Xitoy qo‘shini yaqinlashayotganidan xabar topgan qo‘qonliklar 70 ming qashqarlikni o‘zlari bilan olib qaytishgan. Lashkar qushbegi ularning bir qismini Toshkentga keltirib joylashtirgan (shaharning “Qashqar” mahallasi nomi shundan kelib chiqqan). 1835-yili Lashkar qushbegiga beklarbegi unvoni berilgan.

Lashkar qushbegi davrida Toshkentda keng ko‘lamda obodonchilik, qurilish ishlari amalga oshirilgan (Beklarbegi madrasasi, Qo‘qon o‘rdasi, Lashkar qushbegi saroyi va boshqalar qurilgan). Yangi mahallalar (“Qashqar”, “Qushbegi”, “Devonbegi” va boshqalar) vujudga kelgan. Toshkentning sharqiy qismi (Qo‘yliq darvozasidan Taxtapul darvozasigacha bo‘lgan yerlar) shaharga qo‘shib olingan va bu joy Yangi shahar nomiga ega bo‘lgan. Shahar mudofaa devorlari ta‘mir-lanib, yangi darvozalar (Qashqar, Qo‘qon, Qo‘ymas) o‘rnatilgan, shahar hududi kengaytirilgan. Lashkar qushbegi Anhor kanalining chap sohilida yangi o‘rda qurdirgan.

LOLAZOR – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda tashkil topgan. Eski nomi – “Bog‘ishamol”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Lolazor” deb qayta nomlangan. “Bog‘saroy”, “Farovon”, “Afrosiyob”, Hamid Sulaymonov, Oybek, Abdulla Avloniy mahallalari bilan chegaradosh.

“Lolazor” termini “lolasi ko‘p, lola ochilib yotgan joy” degan ma‘nolarni beradi.

LUTFIY – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1958-yilda tashkil topgan. Dastlab “Qurilish”, 1992-yildan esa Lutfiy nomini olgan. Cho‘ponota, “Qator-tol-1”, “Charx Kamolon-3”, Olim Xo‘jayev, “Bog‘zor”, “Diyor”, “Bog‘iston”, “Guzar”, “Paxtakor”, “Katta Oqtepa”, “Katta Cho‘ponota”, “Chilonzor-Oqtepa”, “Charxnovza” mahallalari bilan chegaradosh.

Lutfiy (1366 – Hirot – 1465), Mavlono Lutfiy – o‘zbek shoiri, orif va muta-fakkir. O‘z zamonining “malik ul-kalomi”. Yaqin vaqtlargacha Lutfiyning tavallud topgan va vafot etgan joyi Hirotning Deqikanor mavzei deb ko‘rsatib kelingan. Shayx Ahmad Taroziyning Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlab yozilgan “Funun ul-balog‘a” asari topilgach, undagi “ma‘dan ul-latoyif Lutfiyi Shoshiy” jum-lalariga asoslanib, Lutfiyning ona vatani Toshkent bo‘lgan, degan fikr ham ilgari surildi.

Lutfiyning hayot yo‘li singari, ijodiy taqdiri ham juda ibratli. U 99 yil umr kechirgan. Umrining asosiy qismi o‘qish, o‘rganish va badiiy ijod mehnati bilan o‘tgan. Lutfiy ham zohiriy-dunyoviy, ham diniy-tasavvufiy ilmlarni chuqur egal-lagan. Davr va zamoniga ochiq nazar bilan qarashga qodir, haqiqat va ma‘rifatga sodiq ijodkor edi. Navoiy so‘zi bilan aytganda, u “forsiy va turkiyda naziri yo‘q” shoir bo‘lgan.

Lutfiy garchi o‘z ona tili – turkiy tilda yaratilgan she‘rlari bilan mashhur-likka erishgan bo‘lsa-da, forsiyda ham o‘zining shoirlik iqtidori va mahoratiga

ko'pchilikni iqror eta olgan. Ikkinchidan, Lutfiy she'riyat bilan tariqatni, majoz bilan haqiqatni uyg'unlashtirgan edi. Ammo u so'nggi nafasigacha shoirlik burchi va ilhomiga sobit qolib, o'zbek she'riyati xazinasini biri biridan qimmatli nazm durdonalari bilan boyitdi. Shu bilan bir qatorda, shoirlik nechog'lik "ma'ruf va mashhur" bo'lmasin, "darveshlik tariqini dag'i ilikdan" (Navoiy) chiqarmagan edi. Xuddi shu narsa uning nafaqat o'z zamondoshlari va ijod ahli orasida, balki davr hukmdorlari oldida ham yuqori mavqega ko'tarilishiga bir asos bo'lgan.

MADADKOR – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 1989-yilda Guliston nomi bilan tashkil topgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda "Madadkor" deb qayta nomlangan. "Yangi Sergeli", "Ziynat", Habibiy, "Mehrigiyo", "Ezgulik", "Yangiturmush", "Humo" mahallalari bilan chegaradosh.

Madadkor – "madad qiluvchi, madad beruvchi, yordam, ko'mak ko'rsatuvchi" degan ma'nolarni anglatadi.

MADANIYAT – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 1999-yilda tashkil topgan. "Kengmakon", "Qo'shqo'rg'on", "Birdamlik", "Yangi Qo'yliq", "Xalqobod" mahallalari bilan chegaradosh.

"Madaniyat" – jamiyatning ma'naviy taraqqiyotini belgilaydigan asosiy ustun. U inson qalbida go'zallik, odob, ilm va birdamlikka intilish hissini uyg'otadi. Shuning uchun bu so'z chuqur ma'nosi, ta'sirchanligi va ijobiy ruhiyati bilan nom va qadriyat sifatida ham yuqori ahamiyatga ega. Bu nom hududning ma'naviy hayotga boy, odobli, faol va ilmli jamiyat ekanligini ifoda etadi.

MAJNUNTOL – Bektemir tumanidagi mahalla nomi. 1991-yilda tashkil topgan. Manzarali majnuntol daraxti nomi bilan atalgan. Iykota, "Zilola", "Rohat" mahallalari bilan chegaradosh.

Majnuntol – toldoshlar oilasiga mansub yorug'savar daraxt. Shoxlari uzun, ingichka bo'lib, ko'pincha pastga osilib turadi. Mart-aprelda gullaydi. Majnuntol manzarali daraxt sifatida ko'p o'stiriladi. Sho'rlanishga chidamsiz, namlikni juda yaxshi ko'radigan, sovuqqa chidamli daraxt. O'zbekistonning barcha viloyatlarida (sho'rlangan tuproqlardan tashqari) sug'orish sharoitlari yaxshi yerlarda ekish mumkin.

MANZARA – Yunusobod tumanidagi mavze nomi. 2021-yilda tashkil topgan. "Otchopar-2" mahallasida joylashgan. "Manzara" – tabiat yoki atrof-muhitning ko'zga ko'ringan go'zal, ta'sirli, diqqatni tortuvchi ko'rinishi. Bu so'z ko'proq vizual tasvir, tabiatning yoki biror joyning tashqi ko'rinishiga nisbatan ishlatiladi.

MANNON UYG'UR – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. 1956-yilda tashkil topgan. "Ko'kcha Darvoza", "Paxtakor", Shofayzi, "Katta Oqtepa" mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla taniqli o'zbek teatri arbobi, rejissyori, aktyori, dramaturgi, O'zbekiston xalq artisti (1932) Mannon Uyg'ur sharafiga shunday nomlangan.

Mannon Uyg‘ur, Uyg‘ur – (taxallusi; asl ism-sharifi Abdumannon Majidov). 1897-yili 11-oktyabrda Toshkentda tug‘ilgan, 1955-yili 15-oktyabrda vafot etgan. Yevropa shaklidagi o‘zbek teatr san’ati va hozirgi O‘zbek Milliy akademik drama teatri (sobiq Hamza nomidagi teatr) asoschilaridan.

MARKAZ-12 – Shayxontohur tumanidagi mavze nomi. “Labzak” mahalla-sida joylashgan. Bu mavze rivojlangan infratuzilmasi va qulay joylashuvi bilan ajralib turadi.

Markaz – turar joy massivi loyihalashtirilgan markaziy hudud tarkibiga kirgan. Shahar markazi bo‘ylab joylashgan, “M” (markaz) indeksli mikrorayonlardan tashkil topgan. Loyihalash va qurilish ishlari 1966-yildan boshlangan. Me’morlik-planlashtirish yechimining asosi: shaharni planlashtirish bilan bog‘liq holda loyihalashtirilgan markaziy tumanning zamonaviy tuzilmasini tashkil etish; eski va yangi shahar markazlarini birlashtirish; aholiga har tomonlama xizmat ko‘rsatishning yaxlit tasnifiga asoslangan jamoat binolari kompleksini yaratish; transport va turar joy hududlarini bo‘lib chiqishdan iborat. “Markaz”da 4, 5, 9, 12, 16, 20 qavatli turar joy binolari qurilgan. Ko‘p qavatli uylar qurish jarayonida loyihadagi bo‘laklarga shartli ravishda tartib raqami berilgan va ular keyinchalik joy nomi bo‘lib qolgan.

MARHAMAT – Yangiheyot tumanidagi mahalla nomi. “Humo” mahallasi negizida tashkil etilgan. “Yangiturmush”, “Humo”, “Gulshanobod”, “Olchazor”, “Mash‘al”, “Yangiheyot” mahallalari bilan chegaradosh.

Marhamat mahallasi nomi o‘zbek tilidagi “marhamat” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u mehribonlik, iltifot, yaxshilik qilish, qo‘llab-quvvatlash kabi ma’nolarni anglatadi. Ushbu nom mahalla aholisi orasidagi o‘zaro yordam va hamjihatlikni, yaxshi qo‘shnichilikni ifodalash maqsadida tanlangan.

MATONAT – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1966-yili Toshkent zilzilasi paytida xalqimiz namoyish etgan buyuk matonat ramzi sifatida shu hudud-ga “Matonat” yodgorlik majmuasi o‘rnatilgan. 1988-yildan mahalla “Matonat” deb nomlanadi. “Minor”, Mirzo Ulug‘bek, “Buyuk Turon”, “Qashqar”, “Labzak”, “O‘rda” mahallalari bilan chegaradosh.

MAXMUR – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1973-yili tashkil etil-gan va o‘zbek mumtoz adabiyoti namoyandasi Maxmur (?–1844) nomi berilgan. “Alimkent”, “Fazogir”, “Asalobod”, “Aviasozlar”, Ahmad Yassaviy, “Yashno-bod” mahallalari bilan chegaradosh.

Maxmur taxallusi bilan qalam tebratgan Mahmud Mulla Shermuhammad o‘g‘li XIX asr birinchi yarmi o‘zbek mumtoz adabiyotining eng yirik namoyandalaridan biridir. Shoir Mulla Shermuhammad Akmal Ho‘qandiyning o‘g‘li. Qo‘qondagi Madrasayi Mirda tahsil olgan. Maxmur – zullisonayn shoir edi. Fors tili va she‘riyatini mukammal bilgan. Uning merosida Sharq she‘riyatining mulamma va shiru shakar turlarining namunalari mavjud. Maxmur ijodiy faoliyati o‘zbek mumtoz adabiyotida tanqidiy yo‘nalishning, ayniqsa, hajviyotning taraqqiyotida navbatdagi yuqori bosqich bo‘ldi. Maxmurning

hajviy she'rlar devoni saqlangan. Unda 69 asar (3417 misra) jamlangan, lirik asarlari esa bayozlarda uchraydi. Maxmur adabiy merosi keyingi davrlar qalam ahli, xususan, hajvgo'ylar ijodiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan.

MASHINASOZLAR – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda tashkil topgan. “Mashinasozlar” metro bekati yonida joylashgani uchun shunday nomlangan. “Do'stobod”, “Boyqo'rg'on”, “Fidoyilar”, Cho'lpon mahallalari bilan chegaradosh.

“Mashinasozlar” nomi o'zbek tilida “mashina yasovchilar” yoki “mashina ishlab chiqaruvchilar” ma'nosini anglatadi.

MASH'AL – Yangihayot tumanidagi mahalla nomi. “Olchazor” mahallasidan ajralib chiqqan. Eski nomi – Ibrat. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Mash'al” deb qayta nomlangan. “Ziynat”, “Nilufar”, “Olchazor”, “Navqiron”, “Humo”, “Sofdil”, “Marhamat” mahallalari bilan chegaradosh.

“Mash'al” so'zi o'zbek tilida “chiroq, shamchiroq, mayoq” ma'nolarini bildiradi. Ko'chma ma'nolarda esa – yo'l ko'rsatib turadigan, mehnat-faoliyatida o'rnak bo'lgan ilg'or shaxs, xo'jalik va shu kabilarni ifodalaydi. Bu nom mahalla aholisi tomonidan yorug'lik, umid va yo'l ko'rsatuvchi ramz sifatida tanlangan.

MA'RIFAT – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1950-yilda tashkil topgan. 2005-yilda mahalla hududidan “Taraqqiyot” mahallasi ajralib chiqqan. “Tong yulduzi”, Cho'lpon, “Fidoyilar”, “O'qchi-Olmazor”, “Qadriyat”, Jo'rabek, “Shirinobod”, Ahmad Yassaviy mahallalari bilan chegaradosh.

“Ma'rifat” so'zi o'zbek tilida “bilim”, “ma'lumot” yoki “ta'lim” ma'nolarini anglatadi. Bu nom mahalla aholisi orasida ilm-fan va ta'lim-tarbiya qadriyatlariga e'tibor qaratilganligini ifodalaydi.

MEVAZOR – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1961-yilda tashkil topgan. Mahalla fuqarolari, asosan, hozirgi “Novza” mahallasi yoxud “Bo'rijar” mahallasidan ko'chib kelishgan aholidan tarkib topgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mahalla hududida Eski shahardagi “Zaxariq” mahalla aholisining dala hovlilari bo'lib, Bo'rijar deb atalgan. Dastlabki qurilish ishlari 1959-yilda boshlangan. Mahallaning asosiy hududi mevazor bog'lar bo'lgani uchun “Mevazor” nomini olgan. “Bo'rijar”, “Naqqoshlik”, “Yakkabog'”, “Qatortol-2” mahallalari bilan chegaradosh.

MEROS – Yakkasaroy tumanidagi mahalla nomi. 1980-yilda tashkil topgan. Eski nomi – “Yakkasaroy-2”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Meros” deb qayta nomlangan. “Katta Qozirabot”, “Qozirabot”, Muqimiy, “Yakkasaroy”, “To'qimachi”, “Katta Chilonzor-2” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi ajdodlardan avlodlarga qolgan ilmiy, adabiy, madaniy boylikni ifodalaydi.

MEHNATOBOD – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 2015-yilda “Ittifoq” mahallasi negizida tashkil etilgan. “Oqtepa”, “Qadrdon”, “Shoshtepa”, “Beg'ubor” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi “mehnat” va “obod” soʻzlarining qoʻshilishidan hosil boʻlgan, “mehnat bilan obod qilingan joy” maʼnosini anglatadi.

MEHRJON – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1992-yilda tashkil topgan. “Botirma”, “Kichik Xirmontepa”, “Boʻrijar”, “Fidokor”, “Tepaqoʻrgʻon”, “Shirin” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi “mehr” va “jon” soʻzlarining qoʻshilishidan hosil boʻlib, “mehrli”, “muruvvatli”, “himmatli” maʼnolarini bildiradi va mahalla aholisi orasida mehr-muhabbat va hamjihatlikni ifodalaydi.

MEHRIGIYO – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 1994-yilda tashkil topgan. Eski nomi – Shukur Burhonov. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Mehrigiyo” deb qayta nomlangan. “Yangi Bunyodobod”, “Qut-baraka”, “Madadkor”, Habibiy, “Ezgulik” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi oʻzbek tilidagi “mehr” (sevgi, ehtirom) va “giyo” (giyoh, oʻsimlik) soʻzlari qoʻshilmasidan kelib chiqqan. Bu nom “mehr” soʻzi bilan bogʻliq boʻlib, mahalla aholisi orasida bir-biriga nisbatan mehribonlik, samimiyat va hamjihatlikni ifodalaydi. “Giyo” soʻzi oʻsimlik yoki tabiat bilan bogʻliq boʻlib, bu mahallaning tabiatga yaqin yoki yashil hududda joylashganligini anglatadi. Bu nom, umuman olganda, mahallaning ijtimoiy va ekologik muhitini yoki uning madaniy merosini ifodalaydi.

MINGLOLA – Mirzo Ulugʻbek tumanidagi mahalla nomi. 1984-yil 21-martda koʻp qavatli uylardan tashkil topgan. Eski nomi – “Navroʻz”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Minglola” deb qayta nomlangan. “Katta Oltintepa”, Avayxon, “Yangi Avayxon”, Alisher Navoiy mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi oʻzbek tilidagi “ming” (ming) va “lola” (lola) soʻzlarining qoʻshilishidan hosil boʻlib, “mingta lola” yoki “minglab lolalar kabi goʻzal” degan mazmunni ifoda etadi. Bu nom mahalla aholisi tomonidan nafosat, goʻzallik, koʻrkamlikni ifodalash uchun tanlangan.

MINGOʻRIK – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1992-yilda tashkil topgan. Oybek, “Qashqar”, “Toʻytepa”, “Afrosiyob”, “Movarounnahr”, Sharof Rashidov mahallalari bilan chegaradosh.

Mahallaning nomi Mingoʻrik arxeologik yodgorligidan olingan. Mingoʻrik – qadimiy shahar xarobasi qoldigʻi (I–XIII asrlar). Mahalliy aholi oʻrtasida u Afrosiyob tepaligi nomi bilan ham mashhur boʻlgan. Toʻrtburchak arkka yondoshgan minora-qasr va shahristonning tepalikka aylangan hududidan iborat. XIX asrga oid shahar xaritasida maydoni 30-35 ga ekanligi koʻrsatilgan. Toshkent temir yoʻl vokzali yaqinida, Salor kanali sohilida joylashgan; shahar xarobasi oʻrnida XIX asrda katta oʻrikzor boʻlganligi uchun shunday nom bilan atalgan.

MINGCHINOR – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1991-yilda tashkil topgan boʻlib, eski nomi – “Chinor”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Mingchinor” deb qayta nomlangan. “Nurmakon”, “Yoʻlayriq”, “Bogʻishamol”, “Billur” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi “ming” va “chinor” soʻzlarining qoʻshilishidan hosil boʻlgan. *Ming* – bu soʻz koʻpincha sonni bildiradi va koʻplab narsalar yoki kattalikni ifodalash uchun ishlatiladi. *Chinor* – qadimiy va ulkan daraxt boʻlib, Oʻzbekistonda azaldan obodlik va bardavomlik timsoli sifatida qadrlanadi. Chinor daraxti uzoq umr koʻrishi va qalin soya berishi bilan mashhur. “Mingchinor” – “sanoqsiz, koʻp chinor” maʼnolarini ifodalaydi.

MINOR – Yunusobod tumanidagi mahalla va mavzening nomi. 1966-yilgi Toshkent zilzilasi tufayli mahalladagi barcha imoratlar yaroqsiz holga kelgan. Shundan soʻng bir qavatli uylar oʻrniga koʻp qavatli uylar qurilgan. Mirzo Ulugʻbek, “Taxtapul”, “Xiyobontepa”, “Turkqoʻrgʻon”, “Buyuk Turon”, “Matonat”, Shayx Shibliy, “Labzak”, “Iftixor”, Usta Shirin mahallalari bilan chegaradosh.

Mavzening eski nomi – Markaz-6 (S-6). 2000-yilda joyning tarixiy nomini tiklash maqsadida, Minor mavzesi deb qayta nomlangan. “Minor” mahallasida joylashgan.

Mahalla hududida 1994-yilda qurilgan 90-uy oʻrnida yagona minora boʻlganligi sababli shunday deb atalgan. Minor – biror binoga qoʻshib yoki alohida qurilgan, mezana shaklidagi baland inshoot.

MIRZAKALON ISMOILIY – Mirzo Ulugʻbek tumanidagi mahalla nomi. Mahalla 1992-yilda tashkil topgan. “Yangi Olmachi”, Hamid Olimjon, “Boyqoʻrgʻon”, “Asaka”, “Darxon”, Choʻlpon mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla oʻzbek adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri, yozuvchi, dramaturg, tarjimon va jamoat arbobi Mirzakalon Ismoiliiy (1908–1986) sharafiga shunday nomlangan. U oʻz davri oʻzbek adabiyoti va madaniyatida muhim rol oʻynagan. Mirzakalon Ismoiliiy oʻz asarlarida xalq hayotini, ijtimoiy va maʼnaviy masalalarni yoritishga intilgan.

MIRZO GʻOLIB – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. “Olimpiya”, “Ziyor-kor”, “Boʻston”, “Chigʻatoy-Oqtepa”, Beruniy, “Ziyo”, “Oʻzbekiston”, “Universitet” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi Sharq adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri, shoir, faylasuf, tarixchi, lugʻatshunos olim, urdu va fors tillarining klassik adabiyotida muhim oʻrin tutgan Mirza Asadulloh Xon Gʻolib (1797–1869) nomi bilan bogʻliq. Mirzo Gʻolibning sheʼrlari insoniy his-tuygʻularni, sevgi, qaygʻu va hayot falsafasini chuqur ifoda etishi bilan ajralib turadi.

MIRZO ULUGʻBEK – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1924–25-yillarda tashkil topgan boʻlib, “Oqqoʻrgʻon”, “1-kvartkom” nomlari bilan yuritilgan. 1984-yilda mahalla hududida Oʻzbekistonda yagona Astronomiya ilmiy-tadqiqot instituti joylashganligi tufayli mahallaga buyuk oʻzbek astronomi, matematik va davlat arbobi Mirzo Ulugʻbek (1394–1449) nomi berilgan. “Minor”, “Buyuk Turon”, “Matonat”, Firdavsiy, Shayx Shibliy, “Oqqoʻrgʻon”, Hamid Olimjon, “Oydin” mahallalari bilan chegaradosh.

MIRISHKOR – Bektemir tumanidagi mahalla nomi. 1991-yilda tashkil topgan. Abay, Husayn Boyqaro, “Nurafshon”, “Olmos”, “Yangiqo‘rg‘on”, “Tarnovboshi”, “Iqbol”, “Zilola”, “Rohat” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahallaning nomi qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lib, u yerda yashovchi aholi yoki tarixiy faoliyat haqida ma‘lumot beradi. “Mirishkor” so‘zi o‘zbek tilida dehqonchilik va yer ishlash bilan shug‘ullanuvchi kishilarni bildiradi. Bu atama qadimdan hosildor yerlarni o‘zlashtirib, dehqonchilik qilgan, ekin ekkan insonlar uchun ishlatilgan.

MIROBOD – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. Joyning tarixiy nomi bilan atalgan. “Yangi Mirobod”, Abdulla Avloniy, “Damariq”, “Baynalmilal”, Hamid Sulaymonov mahallalari bilan chegaradosh.

“Mir” – arabcha “amir” yoki “rahbar” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu odamlar yoki yer ustidan boshqaruvni anglatadi. “Obod” – forsha so‘z bo‘lib, “yashnagan”, “ravnaq topgan” yoki “farovon joy” degan ma‘nolarni bildiradi.

XIX asrning boshida Qo‘qon xoni Toshkentni bosib olgandan keyin shahar hududi birmuncha kengaygan. Qo‘qon xonining sobiq o‘rdasiga qarashli Anhor bilan Salor o‘rtasida “Qashqar”, “Mingo‘rik”, “Mirobod” kabi mahalla va mavzelar vujudga kelgan. Yangi joylardagi tub aholi siqishtirilib, bu yerlar deyarli boshqa joylardan ko‘chib kelganlarga, jumladan, Mirobod hududi Qo‘qon xonligining yuqori imtiyozli mirlariga bo‘lib berilgan.

MISKIN – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. Mahalla 1930-yilda tashkil topgan.

1932–1940-yillarda “Ayrilish”, 1942–1943-yillarda “Qizil Partizan”, 1943–1978-yillarda “Ko‘mirxona” nomi bilan yuritilgan. 1978-yildan shoir Miskin nomi bilan atala boshlangan. “Chilto‘g‘on”, “Xonchorbog‘”, Ibrohimota, “Gulsaroy”, “Taraqqiyot”, “Turkiston”, “Taxtapul”, “Turkqo‘rg‘on”, G‘ayraty, Jomiy, “Registon” mahallalari bilan chegaradosh.

Miskin – (taxallusi; asl ism-sharifi G‘ulomxalil Toshmuhammad o‘g‘li), shoir. Miskin 1880-yilda Toshkentda tug‘ilgan. Balandmachitdagi maktabda, so‘ng Ko‘kaldosh madrasasida o‘qigan. 12 yoshidan “Miskin” taxallusi bilan ilm-ma‘rifatni targ‘ib qilib, zulm va zo‘rlilik, bid‘at va xurofotni qoralagan. Miskin 1937-yilda Toshkentda vafot etgan, so‘nggi 1932–1935-yillarda shu mahallada yashagan.

Miskin mahallasi Olmazor tumanining o‘ziga xos tarixiy va madaniy qismi hisoblanadi. Mahalla qadimiy Toshkent ruhini aks ettiruvchi ko‘chalar, eski uy-lar va mahalla hayotining an‘anaviy qadriyatlarini saqlab keladi. Shu bilan birga, zamonaviy infratuzilmalar ham rivojlangan.

MOVAROUNNAHR – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – Yo‘ldosh Oxunboboyev. Shu yerdan o‘tadigan asosiy ko‘cha nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, 2008-yilda “Movarounnahr” deb qayta nomlangan. “Mingo‘rik”, “To‘ytepa”, Oybek, “Salor”, Cho‘lpon mahallalari bilan chegaradosh.

“Movarounnahr” arab tilidan tarjima qilinganda, “daryoning narigi tomoni” degan ma’noni anglatadi. Bu nom Amudaryo va Sirdaryo oralig’idagi keng tarixiy hududni bildiradi. O’rta asrlarda Markaziy Osiyoning ilm-fan, madaniyat va iqtisodiy markazi bo’lgan.

MOYARIQ – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 2006-yil 9-fevralda tashkil etilgan. Mahallaga uning tarixiy nomi berilgan. “Ahil”, “Nihol”, “Umid”, “Elparvar”, “Yangi Toshkent” mahallalari bilan chegaradosh.

“Moy” qadimgi turkiy tillarda “yog’”, ya’ni boylik yoki unumdorlikni anglatgan. Shuningdek, bu so’z suyuqlik, suv bilan bog’liq ma’noda ham ishlatilgan. “Ariq” esa sug’orish tizimini, ya’ni ariq yoki kanalni bildiradi. Shunday qilib, “Moyariq” nomi “unumdor suv yo’li” yoki “boy ariq” ma’nosini anglatadi. Bu hudud tarixda suv manbalariga yaqin joylashgani va sug’orma dehqonchilik uchun muhim ahamiyatga ega bo’lgani tufayli shunday atalgan.

MOHINUR – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – Bobooxun Salimov. “Uchchinor”, “Tuzel”, “Tong”, “Vatandosh”, Al-Buxoriy, Amir Temur mahallalari bilan chegaradosh.

“Moh” – qadimgi forsiy va turkiy tillarda “oy” ma’nosini anglatadi. “Nur” – “yorug’lik”, “ziyo” yoki “nur” degan ma’nolarni beradi. “Mohinur” – “oyni nuri” yoki “oyday nurli” ma’nolarini ifodalaydi. Bu nom, mahallaning osoyishta va chiroyli joy ekanligini ifodalash uchun qo’yilgan.

MOHIRLAR – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga o’tkazilgan. Eski nomi – Ibrat. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Mohirlar” deb qayta nomlangan. “Tashisti”, “Arg’in”, “Mohirlar”, “Hilol”, “Tovkentepa” mahallalari bilan chegaradosh.

“Mohir” so’zi “yuksak mahoratga ega bo’lgan”, “mahorat qozongan”, “usta”, “malakali”, “chaqqon” degan ma’nolarni ifodalaydi.

MUQIMIY – Yakkasaroy tumanidagi mahalla nomi. 1950-yillarda tashkil topgan. Mahalla taniqli o’zbek shoiri va ma’rifatparvari Muhammad Aminxo’ja Muqimiy (1850–1903) sharafiga nomlangan. “Chilonzor”, “Rakat”, “To’qima-chi”, “Katta Chilonzor-1”, “Meros”, “Katta Chilonzor-2” mahallalari bilan chegaradosh.

Muqimiy XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida yashagan taniqli shoirdir. U o’zining satirik she’rlari, xalqchil asarlari va ma’rifatparvarlik faoliyati bilan mashhur. Shoir o’z asarlarida ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik va jaholatni keskin tanqid qilgan. Uning ijodi xalq ma’naviyatini boyitgan, shu sababli ko’plab ko’cha, mahallalar va boshqa obyektlar uning nomi bilan atalgan.

MUMTOZ – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – Muqimiy. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Mumtoz” deb qayta nomlangan. “Qo’yliqobod”, “O’rtamasjid”, “Parvona”, “Uysozlar”, “Katta Qo’yliq”, Barotxo’ja, “Yosh avlod” mahallalari bilan chegaradosh.

“Mumtoz” arabcha soʻz boʻlib, “aʼlo darajali”, “mashhur”, “saralangan”, “noyob”, “eng yaxshi” degan maʼnolarni anglatadi. Bu soʻz, odatda, klassik va yuqori darajadagi narsalarni ifodalashda ishlatiladi. Mumtoz soʻzi koʻpincha sanʼat, adabiyot va madaniyatga nisbatan ishlatilib, uning qadrliligi va oʻlmas ekanligini, millatning shon-shuhrati va faxri hisoblanishini bildiradi.

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da mumtoz soʻzi shunday izohlanadi: “Biror fazilatli, yaxshi tomoni bilan boshqalardan ajralib turadigan, afzalliklarga ega boʻlgan; yetuk, sara”. (Oʻzbek tilining izohli lugʻati. II jild, 638-bet).

MUNAVVARQORI – Mirzo Ulugʻbek tumanidagi mahalla nomi. 1957-yilda tashkil topgan. Ilgari “Fayziobod” mahallasi deb atalgan, 2005-yildan hozirgi nomda ataladi. Oʻzbek maʼrifatparvari Munavvarqori Abdurashidxonov nomiga qoʻyilgan. “Azamat”, “Uygʻonish”, “Shalola”, “Beshkapa”, “Ahillik”, “Feruza”, “Traktorsozlar” mahallalari bilan chegaradosh.

Oʻrta Osiyo jadidchilik harakatining yoʻlboshchisi, XX asr oʻzbek milliy matbuoti va yangi usuldagi milliy maktab asoschisi, yangi milliy teatr tashkilotchilaridan biri, adib, shoir, murabbiy, muharrir, maʼrifatparvar, jamoat arbobi Munavvarqori Abdurashidxon oʻgʻli 1878-yilda Toshkent shahrining Shayxontahur dahasi “Darxon” mahallasida mudarris oilasida tugʻilgan.

Munavvarqori ijtimoiy-pedagogik faoliyat bilan birga badiiy ijod bilan ham shugʻullangan. Uning ixcham hikoyalari, talaygina sheʼrlari oʻsha davrdagi matbuot va oʻzi tuzgan hamda yozgan darsliklarga kiritilgan. Shuningdek, u oʻtkir publitsist adib sifatida ham tanilgan. Maqolalarida inson va jamiyat, din va dindorlik, axloq, mustamlakachilik va hurriyat, ziyolilik, uyushma, tashkilot, davlat idorasi masalalariga alohida eʼtibor qaratgan.

U 1929-yil 6-noyabrda qamoqqa olinib, Moskva shahridagi Butirka qamoqxonasida qatl qilingan va Vagankovo qabristoniga dafn etilgan. 1991-yilda rasman reabilitatsiya qilingan.

MURUVVAT – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 2005-yil 26-aprelda “Oʻzbekiston mustaqilligi” mahallasining 3 qismga boʻlinishi natijasida tashkil etilgan boʻlib, shu yili may oyida yozuvchi Oybek nomi berilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Muruvvat” deb qayta nomlangan. Yunusota, Ahmad Donish, “Kulolqoʻrgʻon”, “Bobodehqon”, “Barhayot”, “Halqabogʻ” mahallalari bilan chegaradosh.

“Muruvvat” soʻzi arabcha soʻz boʻlib, “mehribonlik”, “odamgarchilik”, “olijanoblik”, “saxiylik”, “yaxshilik qilish” maʼnolarini anglatadi. Ushbu nom mahalla ahlining hamjihatligi, oʻzaro yordam koʻrsatish kabi qadriyatlarini bilan bogʻliq.

MUSAFFO – Bektemir tumanidagi mahalla nomi. Toshkent viloyati Oʻrta Chirchiq tumanidan shahar hududiga oʻtkazilgan. Eski nomi – “Nurafshon”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Musaffo” deb qayta nomlangan. “Oltintopgan”, “Sohil”, Xoʻja Uchqun, “Nurliyoʻl” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi mahalliy muhitning pokligi, tozaligi, osoyishtaligi bilan bog'liq. "*O'zbek tilining izohli lug'ati*"da musaffo so'zi shunday izohlanadi: "juda ham sof, beg'ubor"; "toza, pok". (O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild, 648-bet).

MUSTAQIL YURT – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1995-yilda "Yoshlik" mahallasi ikkiga bo'linishi natijasida tashkil topgan. Mahalla hududining tarixiy nomi "Kulobod" bo'lgan. Mustaqillikning 5 yilligi arafasida "Mustaqillik" nomi berilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda "Mustaqil yurt" deb qayta nomlangan. "Shodiyona", "Chamanbog'", "Shon-shuh-rat", "Olimpiya", "Yuqori Beshqo'rg'on", "Tepaguzar", "Yoshlik" mahallalari bilan chegaradosh.

"Mustaqil yurt" – milliy istiqlolni ifoda etuvchi nomlardan biri, mahalla ahli o'zining ramziy ma'nosi orqali yurt mustaqilligini e'tirof etish va abadiylashtirish maqsadida tanlagan.

MUSTAQILLIK – Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla nomi. 1992-yilda tashkil topgan. 2005-yilgacha "Mustaqillik" deb atalgan, 2005-yildan "Xorazm" nomida bo'lgan. Tarixiy nomini qaytarish maqsadida, "Mustaqillik" deb qayta nomlangan. Mahalla "Asaka", "Shahrisabz", "Oqibat", "Nur", "Qashqar", "Buyuk Turon", "Lashkarbegi" mahallalari bilan chegaradosh.

"Mustaqillik" nomi xalqning ozodlikka bo'lgan intilishlarini, mustaqil davlatning barpo etilganligini va ushbu yutuqning ahamiyatini ifodalaydi.

MUXTOR ASHRAFIY – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. Mahallaga mashhur kompozitor Muxtor Ashrafiy nomi berilgan. "Qorasuv", "Boysun", "Beshbola", "Asalobod", "Oquy", "Oltinko'l", Jo'rabek, Ahmad Yassaviy mahallalari bilan chegaradosh.

O'zbekiston xalq artisti, professor, kompozitor, dirijyor, pedagog Muxtor Ashrafiy 1912-yil 11-iyunda Buxoroda mashhur dutorchi, xalq hofizi Ashrafjon hofiz oilasida dunyoga kelgan. 7 yoshidan boshlab o'zbek xalq cholg'u asboblari chala boshlagan. Musiqiy saboqlarni u dastlab Buxoro musiqa texnikumida (1928-yil), so'ng Samarqand musiqa va xoreografiya institutida (1928–30-yillar) olgan. 1934–36-yillarda Moskva konservatoriyasining S.N. Vasilenko va B. Shixter sinflarida tahsil olgan. 1941–44-yillarda M.Shteynbergdan musiqa sirlarini o'rganishni davom ettirgan. 1948-yilda hozirgi Sankt-Peterburg konservatoriyasining dirijyorlik fakultetini tugatgan. Muxtor Ashrafiy rahbarlik faoliyatini 1929–30-yillarda Samarqand radiosining badiiy tahririyatida boshlagan: 1930–1947-yillarda musiqa bo'limining boshlig'i va bosh dirijyor, 1943-yildan boshlab esa Alisher Navoiy nomidagi Opera va balet teatrida direktor lavozimlarida ishlagan. 1947–62-yillarda Toshkent konservatoriyasining opera kafedrasiga tayyorgarlik kursida kafedra mudiri hamda Opera va balet teatrining bosh dirijyori sifatida faoliyat olib borgan. 1964–66-yillarda Samarqand Opera va balet teatrida direktor, badiiy rahbar, bosh dirijyor bo'lgan. 1971–1975-yillarda Toshkent kon-

servatoriyasining rektori etib tayinlangan. Muxtor Ashrafiy S.N. Vasilenko bilan hamkorlikda 1939-yili birinchi o'zbek operasi "Bo'ron"ni yaratgan.

Muxtor Ashrafiy hayotining aksariyat qismini Toshkentda o'tkazgan. Musiqachi yashagan uy muzeyga aylantirilgan.

MUHANDISLAR – Yakkasaroy tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – Usmon Nosir. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda "Muhandislar" deb qayta nomlangan. "Armug'on", Bobur, "Dilbuloq", "Damariq", "Konstitutsiya", "Boshliq", Abdulla Qahhor, "Rakat", "To'qimachi", Shohjahon mahallalari bilan chegaradosh.

"Muhandislar" nomi bu joyda muhandislik sohasida ishlaydigan mutaxassislarning ko'p bo'lganligini yoki bu hududda texnika va sanoat obyektlarining joylashganligini anglatadi.

NAVBAHOR – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1992-yilda tashkil topgan. Sho'rolar davrida mahalla hududi "Qorasuv" jamoa xo'jaligi yerlaridan iborat bo'lgan. 1966-yildagi Toshkent zilzilasi bilan so'ng mahalla hududida 8 ta ko'p qavatli binolar qurilgan. Jamoa xo'jaligiga qarashli "Navbahor" choyxonasi qayta qurilib, mahallaga "Navbahor" nomi berilgan. "Ko'tarma", "Fidokor", "Qozirabot", "Naqqoshlik", "Qo'rg'ontepa", "Zarqo'rg'on", "Katta Navbahor" mahallalari bilan chegaradosh.

"Navbahor" so'zi ikki qismdan tashkil topgan: "nav" va "bahor". "Nav" – fors tilidan olingan bo'lib, "yangi" ma'nosini anglatadi. "Bahor" – fors tilida "gul", "gulzor" yoki "bog" ma'nolarini bildiradi. "Navbahor" so'zi umumiy ma'noda "yangi gulzor" yoki "yangi bog" degan mazmunni ifoda etadi.

NAVQIRON – Yangiheyot tumanidagi mahalla nomi. 1982-yilda tashkil topgan bo'lib, dastlab "Sergeli-1" nomi bilan yuritilgan, 1987-yilda umumxalq Navro'z bayrami munosabati bilan "Navqiron" nomi berilgan. 2021-yilda Sergeli tumanidan Yangiheyot tumaniga o'tkazilgan. "Nilufar", "Viqor", "Olchazor", "Mash'al", "Chorbog", "Sofdil" mahallalari bilan chegaradosh.

*"O'zbek tilining izohli lug'ati"*da navqiron so'zi shunday izohlanadi: "Avji kuch-quvvatga to'lgan, qirchillama, yosh; tik qomatli, baland". (O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild, 8-bet).

Yangiheyot tumani Toshkent shahrining yangi tashkil etilgan tumanlaridan biri bo'lib, undagi "Navqiron" nomi hududning yangiligi, umidbaxshligi va yosh avlodga bo'lgan e'tibor bilan bog'liq ramziy ma'noni anglatadi.

NAVNIHOL – Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – Fayzulla Xo'jayev. Joydagi shu nomli ko'cha bilan uyg'unlashtirish maqsadida, 2012-yilda "Navnihol" deb qayta nomlangan. Habib Abdullayev, "Olimlar", "Oliyhimmat", "Posira", "Bo'z", "Bog'ibo'ston", "Obod", "Shahriobod" mahallalari bilan chegaradosh.

*"O'zbek tilining izohli lug'ati"*da navnihol so'zi shunday izohlanadi: "Yangi o'tkazilgan yoki unib chiqqan ko'chat; yosh daraxt; yangi tug'ilgan, paydo bo'lgan, yosh". (O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild, 7-bet).

Bu nom ko‘pincha yosh avlodni, umidli yoshlarni yoki yangi boshlangan ishlarni ifodalash uchun qo‘llaniladi.

NAVRO‘Z – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda tashkil topgan. “Temiryo‘lchilar”, Banokatiy, “Istiqlolobod”, “Yangizamon” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi “navro‘z” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu atama fors tilidan olingan va “yangi kun” degan ma‘noni anglatadi. Navro‘z Sharq xalqlari, xususan, o‘zbek xalqining azaliy va milliy bayramlaridan biri bo‘lib, tabiatning uyg‘onishi, yangi hayot boshlanishi, tinchlik va farovonlik ramzi sifatida nishonlanadi.

NAVRO‘ZOBOD – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – “Navro‘z”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Navro‘zobod” deb qayta nomlangan. “Fidoyilar”, “Birlashgan”, “Qadriyat”, Amir Temur, “Yashnobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi “navro‘z” va “obod” so‘zlarining birikishidan hosil bo‘lgan. Navro‘z so‘zi “yangi kun”, “bahor chog‘i, bahor” degan ma‘nolarni anglatadi. Obod – ba‘zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo‘shilib joy nomini yasaydigan, “obodonlashtirilgan”, “o‘zlashtirilgan”, “gullab-yashnagan”, “qulay va shinam joy, hudud” ma‘nosidagi so‘zdir.

NAYMAN – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1972-yilda tashkil topgan. 1992-yildan “Istiqlol”, 2005-yildan hozirgi nom bilan atalgan. “Vatan”, “Birlik”, “Nurobod”, “Farhod”, “Katta Cho‘ponota” mahallalari bilan chegaradosh.

“Nayman” atamasi qabila nomidan olingan. “Nayman” – etnik guruh bo‘lib, o‘zbek millatining tarkibiga kirgan urug‘lardan birining nomi. Shuningdek, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, no‘g‘oy, oltoy va boshqa turkiy xalqlar tarkibida naymanlar yirik qabila, qabila uyushmasi sanalgan. Bu qabila vakillarining O‘zbekiston hududiga kelishi manbalarda XV asrning oxiri – XVI asrning boshlarida deb qayd qilingan. Tarixning guvohlik berishicha, Temuriylar sulolasining hukmronligi tugagach, ko‘chmanchi o‘zbeklar o‘troqlasha boshlagach, nayman nomida qishloqlar paydo bo‘lgan. Akademik V.V. Bartold “*nayman*” so‘zi mo‘g‘ulcha bo‘lib, “*sakkiz*” ma‘nosida ekanligi, demak, ushbu xalq sakkiz tarmoq (urug‘)ga bo‘linishini ko‘rsatadi.

NAQQOSHLIK – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1992-yilda tashkil etilgan. Mahalla hududida ilgari mohir o‘ymakor, naqqosh, chilangar ustalar yashashgan, uning nomi shundan kelib chiqqan. “Yakkabog‘”, “Zarqo‘rg‘on”, “Botirma”, “Katta Do‘mbirobod”, “Qatortol-2”, “Katta Qozirabot”, “Mevazor”, “Qozirabot”, “Navbahor” mahallalari bilan chegaradosh.

Naqqoshlik – amaliy san‘atning qadimiy va murakkab sohasi bo‘lib, turli yuzalarga (qog‘oz, mato, yog‘och, metall va boshqalar) naqsh chizish, o‘yish yoki bezash bilan shug‘ullanadigan kasbdir. Naqqoshlar o‘z ishlarida gul, geometrik shakllar va islomiy naqshlar kabi elementlardan foydalanib, badiiy bezaklar yaratishadi. O‘rta Osiyo hududida naqqoshlik san‘ati qadimdan rivojlangan bo‘lib,

arxeologik qazilmalar natijasida topilgan me'moriy yodgorliklar va artefaktlar bu san'atning boy tarixiy merosga ega ekanligini ko'rsatadi.

NAMUNA – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. Mahalla 1998-yilda Hasanboy, “Birlik”, “Kaduvod”, Nodira, “Qahramon”, “Namuna” va “Hovuzbo‘yi” qadimiy mahallalar birlashuvidan tashkil topgan. Hastimom, “Qorasaroy”, Hazrati Imom, “Yuqori Sebzor”, “Yangi Sebzor”, “Sebzor”, “Kaykovus” mahallalari bilan chegaradosh.

“Namuna” so‘zi o‘zbek tilida “ibrat”, “o‘rnak”, “andaza” ma’nolarini anglatadi. Shu sababli, mahalla namunali, tartibli va namunaviy hayot tarziga ega hudud sifatida shunday nomlangan. Mahalla hududida qadimiy obidalaridan Ko‘ktunliota maqbarasi joylashgan.

NAFOSAT – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – “Mavze-8”. Mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Nafosat” deb qayta nomlangan. “Qatortol-1”, “Dilobod”, “Beshchinor”, “Diyor” mahallalari bilan chegaradosh.

“Nafosat” nomi ko‘pincha yuqori madaniyat, estetik go‘zallik, nafislik, latofat, o‘ziga xoslik va insonlarni birlashtiruvchi muhitni hamda narsa va hodisalarning tashqi ko‘rinishidagi alohida mukammallikni, mutanosiblikni ifodalaydi.

NILUFAR – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. “Ittifoq” mahallasining ikkiga bo‘linishi munosabati bilan 1999-yilda tashkil etilgan. “Viqor”, “Ittifoq”, “Mash’al”, “Navqiron”, Al-Farg‘oniy, “Sofdil” mahallalari bilan chegaradosh.

“Nilufar” – qadimiy fors tilidan olingan bo‘lib, “lotos” yoki “suv lolasi” ma’nolarini anglatadi. Bu so‘z o‘zbek, turk, fors va boshqa ko‘plab madaniyatlarda qo‘llaniladi. Sanskritcha “Nilotpala” “ko‘k lotos” ma’nosini anglatadi va fors tiliga shu shaklda o‘tgan. Nilufar guli ko‘plab madaniyatlarda nafosat, poklik va qayta tug‘ilish ramzi hisoblanadi. Mahalla nomi orqali uning yashash muhitidagi go‘zallik va tabiiy o‘sishni ta’kidlash maqsad qilingan.

NIHOL – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 2004-yili “Moyqo‘rg‘on” mahallasi “G‘alaba” mahallasidan ajralib chiqqanligi, yosh mahalla bo‘lgani sababli “Nihol” deb nom olgan. “Moyariq”, “Yuqori Beshqo‘rg‘on”, “Umid”, “G‘alaba” mahallalari bilan chegaradosh.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da nihol so‘zi shunday izohlanadi: “Yosh novda yoki ko‘chat; yangi unib chiqqan o‘simlik, ekin; murg‘ak, kurtak”. (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II jild, 44-bet).

NISHABARIQ – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. O‘tmishda Kaykovus kanalidan chiqarilgan “Nishab quloq” tarmog‘i orqali adirliklardan iborat bo‘lgan ushbu hudud obod qilinib, bog‘ va ekinzorlar, yakka xo‘jalik qo‘rg‘onlari bunyod etilgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mavze, so‘ngra sho‘rolar davrida mahalla “Nishab quloq” deb atalgan. Quloq – ariqning tarmoqlangan joyi. 1966–93-yillarda “Iqtisod”, 1993–2005-yillarda Abdulhay Tojiyev, 2005-yildan buyon “Nishabariq” nomi bilan ataladi. “Sharq yulduzi”, “Qoryog‘di”, “Ko‘kcha-

Oqtepa”, “Bog‘ichinor”, Xondamir, “Paxtakor”, “Degrez”, “Shofayzibog‘”, Abdulla Qodiriy mahallalari bilan chegaradosh.

“Nishabariq” – adirlikning yoki tepalikning nishab joyidan o‘tgan ariq demakdir.

NOVZA – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. XIX asr oxirida Bo‘zsuv kanali irmog‘iga to‘g‘on qurilib, balandlikdagi bo‘sh yotgan yerlarda bog‘-rog‘lar yaratilib, ekinzor dalalarga nov orqali suv chiqarilgan. Shu munosabat bilan ushbu yaqin-atrofdagi yerlar va mahalla “Novza” deb atalgan. “Charx Kamolon-1”, “Chilonzor”, “Katta Chilonzor-3”, “Katta Navbahor”, “Xalqlar do‘stligi”, “Charx Kamolon-2”, “Ko‘rkam”, “Qozirabot” mahallalari bilan chegaradosh.

Mazkur toponim ikki qismdan tashkil topgan: forscha “nav” – yangi va “zax” – ariq, ya’ni “yangi qazilgan ariq”.

NODIRA – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1968-yilda tashkil topgan. Mashhur shoira Nodira nomi bilan atalgan. “Donishmand”, “Katta Yangiobod”, “Iltifot”, “Oydinko‘l”, “Barkamol”, “Beshariq”, “Shohimardon”, “Xosiyatli” mahallalari bilan chegaradosh.

Nodira – (taxallusi; ismi – Mohlaroyim) (1792–1842) – XIX asrning birinchi yarmida yashab, ijod etgan mashhur shoira, davlat arbobi, madaniyat va adabiyot homiysidir. Shoira 1792-yili Andijon hokimi Rahmonqulbiy oilasida tavallud topgan. Uning onasi Oyshabegim ma’rifatli ayol bo‘lgan. O‘zining oilaviy silsilasiga ko‘ra Bobur nasliga mansub bo‘lib, shoiraning ota-onasi ham o‘z davrining e’tiborli kishilari edilar.

Nodira o‘zbek mumtoz adabiyotidagi ulkan bir bosqichning namoyandasidir. Uning she’riyati asosini lirika tashkil etgan. U muhabbat, sadoqat va vafo kuychisidir. Shuningdek, u she’rlarida go‘zallik va sadoqatni, sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, ohu fig‘onlarini kuylagan.

Mohlaroyimdan bizgacha o‘zbek va fors-tojik tillarida “Komila”, “Nodira” va “Maknuna” taxalluslari bilan yaratilgan lirik asarlardan iborat katta meros yetib kelgan.

NODIRABEGIM – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. Hozirgi Nodirabegim mahallasi hududi 1987-yilgacha ikkita mahalla: Nodirabegim va “Ittifoq”dan iborat bo‘lgan. 1987-yildan ular birlashib, Nodirabegim mahallasi bo‘lib tashkil topgan. “Yalang‘och”, Shukur Burhonov, “Sho‘rtepa”, “Alpomish”, “Bahor” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi o‘zbek mumtoz shoirasi, davlat arbobi, madaniyat va adabiyot homiysi Nodirabegim sharafiga qo‘yilgan.

NOMDANAK – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. Toshkent viloyati Zangiota tumanidan shahar hududiga o‘tkazilgan. “Xonobod”, “Kengmakon”, “Xontepa”, “Shukrona”, “Izzatli”, “Qo‘shqo‘rg‘on”, “Sultonobod”, “Birdamlik” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi qadimiy qishloq nomidan olingan. Shu qishloqdan kelib oʻrnashgan aholi mahalla nomini “Nomdanak” deb atagan. Dastlab Muqaddasiy asarida Namudonak tarzida tilga olingan. Toʻgʻrisi, Namdonak boʻlsa, *namdon* – “sernam”, “sersuv”, “suv toʻplanadigan joy” maʼnolarini ifodalab, *-ak* toponim yasovchi qoʻshimcha hisoblanadi.

NOʻGʻOYQOʻRGʻON – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 1800-yilda tashkil topgan. “Yuqori Darxon”, “Qut-baraka”, “Qubaytepa”, “Joʻnariq”, “Bunyodobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Tarixchi X.Boʻriyevaning yozishicha, “Noʻgʻoyqoʻrgʻon” etnotoponimi XIX asrda bu yerga noʻgʻoylarning kelib joylashishi bilan bogʻliq. Povoljye tatarlarini noʻgʻoylar (noʻgʻaylar) deb atashgan; *qoʻrgʻon* – qalʼa, istehkom (toponimlar tarkibida tez-tez “qishloq” koʻrinishida uchraydi). Toshkent Qoʻqon xonligi tomonidan zabt etilganidan soʻng (1810) Toshkentga tatarlar oqimi kirib kelgan. Qoʻqon xoni Madalixon (1822–1842) Toshkentga tatarlarni jalb qilish maqsadida ular uchun katta hududni – Tarxon kanaldan (hozirgi Darxonariq) gʻarbdan Qorasuvgacha, sharqdan janubdagi Sovuqbuloqqacha, shimoldan Salor arigʻigacha barcha turdagi soliqlardan ozod qilingan yerlarni bergan.

NUR – Mirzo Ulugʻbek tumanidagi mahalla nomi. 1983-yili tashkil qilinib, 1993-yilgacha “Navroʻz” deb atalgan. 1993-yili u “Nur” mahallasi bilan birlashgan va Abulqosim Firdavsiy deb atalgan. 2006-yil sentyabrdan hozirgi nomda atab kelinadi. “Asaka”, Choʻlpon, “Oqibat”, “Lashkarbegi”, “Toʻytepa”, “Mustaqillik” mahallalari bilan chegaradosh.

“Nur” – arabcha soʻz boʻlib, “yogʻdu”, “ziyo”, “ravshanlik” maʼnolarini anglatadi. Shuningdek, baxtli, omadli, tolei baland kabi maʼnolarni ham ifodalaydi.

NURAFSHON – Bektemir tumanidagi mahalla nomi. Mahalla 2005-yilgacha “Obod” nomi bilan yuritilgan, 2005-yilda joydagi asosiy koʻcha nomi bilan uygʻunlashtirish uchun hamda takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, “Nurafshon” deb qayta nomlangan. Mahalla hududida Qoʻyliqota maqbarasi joylashgan. Shu sababli Qoʻyliqota mahallasi ham deyiladi. “Mirishkor”, Husayn Boyqaro, “Eshonbuloq”, “Bektemir”, “Oltintopgan”, “Farogʻatli”, “Sadoqat”, “Katta Qoʻyliq”, “Yangiqoʻrgʻon”, “Oʻrtamasjid”, Qoʻyliqota mahallalari bilan chegaradosh.

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da “nurafshon” soʻzi “Nur sochuvchi, nur tarqatuvchi, nurli, porloq” maʼnolarini ifodalaydi. (Oʻzbek tilining izohli lugʻati. II jild, 66-bet).

Bu nomga, shuningdek, insonlar orasidagi iliqlik, doʻstlik va ahillikni ifodalovchi ramz sifatida qaralishi mumkin.

NURLIYOʻL – Bektemir tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Oʻrta Chirchiq tumanidan shahar hududiga oʻtkazilgan. Eski nomi – “Bektemir”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda

“Nurliyo‘l” deb qayta nomlangan. “Sohil”, “Ustozlar”, “Musaffo”, “Zabardast”, “Yangi Gulzor”, “Jaloyir”, Xo‘ja Uchqun mahallalari bilan chegaradosh.

Mazkur termin arabcha *nur* so‘ziga o‘zbekcha *-li* qo‘shimchasini hamda *yo‘l* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil qilingan nomdir. “Nurli” so‘zi “yorug‘”, “yori-tilgan”, “yorug‘likka ega”, “nurga to‘la” degan ma‘nolarni bildiradi, “yo‘l” esa odatda harakat yo‘li yoki istiqbolni anglatadi.

Mahalla nomi yorug‘lik va nurga to‘la yo‘l ma‘nosini anglatib, insonning yorug‘ kelajakka intilishi va to‘g‘ri yo‘lda yurishiga ishora qiladi.

NURMAKON – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 2015-yilda “Chinor” mahallasi negizida tashkil etilgan. “Sobirobod”, “Yo‘layriq”, “Astrobod”, “Ming-chinor”, “Billur” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi “nurmakon” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu so‘z o‘zbek tilida “nur” va “makon” so‘zlaridan tashkil topgan. “Nur” so‘zi “yorug‘lik” yoki “nur” ma‘nolarini anglatadi, “makon” esa “joy”, “hudud”, “maskan” ma‘nolarini bildiradi. “Nurmakon” so‘zi umumiy ma‘noda “nurli makon”, ya‘ni “yorug‘ joy” yoki “nurga to‘la maskan” degan mazmunni ifoda etadi.

NUROBOD – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. Mahalla hududi avval Katta Qa‘ni qishlog‘ining bir qismi bo‘lgan. Mahalla yaqinida joylashgan Foziltepa arxeologik yodgorligi ilk o‘rta asrlarda bu yerlarda qishloq bo‘lganidan dalolat beradi. 2005-yilgacha “Yangihayot” mahallasi deyilgan. 2005-yildan hozirgi nomda ataladi. “Vatanparvar”, “Farhod”, “Katta Qa‘ni”, “Vatan”, “Nayman”, “Hamdo‘st”, “Katta Cho‘ponota” mahallalari bilan chegaradosh.

Ushbu nom arabcha “yorug‘lik” ma‘nosini bildiruvchi *nur* va forscha “odam yashaydigan, ishlov berilgan” ma‘nolarini ifodalovchi *obod* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan toponimdir. “Nurobod” so‘zi umumiy ma‘noda “nurli, obod joy”, ya‘ni “yorug‘ va go‘zal maskan” degan mazmunni ifoda etadi.

NURHAYOT – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 1980-yilda tashkil topgan. Eski nomi – “Yangihayot”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Nurhayot” deb qayta nomlangan. “Saxovat”, “Sug‘diyona”, “Fayzli”, “Ittifoq”, Al-Farg‘oniy mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi “nurhayot” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu so‘z o‘zbek tilida “nur” (yorug‘lik) va “hayot” (yashash, mavjud bo‘lish, tiriklik, umr) so‘zlaridan tashkil topgan. “Nurhayot” nomi mahallaning yorug‘, tinch va farovon hayotini ifodalash uchun tanlangan.

OBINAZIR – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Toshkentning qadimgi mahallalaridan hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar (S.Qorayev va boshqalar) mahalla nomi “Yobu” – turkiy qabila, urug‘ nomidan olingan deb hisoblashadi. Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asarida qayd etilishicha, Amir Temur 1390–91-yillarda Toshkentda bo‘lib, Shayx Zayniddinbobo maqbarasini bunyod ettirayotgan paytda, Kaykovus kanalidan qabrston tomonga ariq qazdirgan va uni Shayx Zayniddinboboga nazir qilgan. Obi nazir – nazir qilingan suv

demakdir. Xoja Ahror Valiy manoqiblarida (“Rashahot” va boshqalar) bitilishi-cha, Zayniddinbobo ziyoratiga kelib astoydil Allohndan farzand tilagan befarzand oilalar murodlariga yetishgan. Obinazir arig‘i muqaddas sanalgan, uning suvi ko‘pgina dardlarga davo bo‘lgan. Mahalla XIV asr oxiri – XV asr boshlarida mana shu ariq bo‘yida vujudga kelgan. “Jarariq”, “Ilg‘or”, “Gulobod”, “Yangishahar”, “Sarxumdon”, “Bog‘ko‘cha” mahallalari bilan chegaradosh.

OBOD – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1941-yilgacha Oqqo‘rg‘on arig‘i oqib o‘tishi munosabati bilan “Oqqo‘rg‘on” mahallasi deb yuritilgan. 1941-yildan “Obod” mahallasi deb nomlangan. “Oqtepa”, “Otchopar-2”, “Bog‘ibo‘ston”, “Posira”, “Navnihol” mahallalari bilan chegaradosh.

“Obod” – forscha so‘z bo‘lib, “yashnagan”, “ravnaq topgan” yoki “farovon joy” degan ma‘nolarni bildiradi.

OYBEK – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda tashkil topgan. Mahalla hududida yozuvchi Oybek oilasi bilan istiqomat qilgan. Shu munosabat bilan mahallaga Oybek nomi berilgan. “Afrosiyob”, “Movarounnahr”, “Salor”, Abdulla Avloniy, “Mingo‘rik”, “Lolazor”, “Farovon” mahallalari bilan chegaradosh.

Oybek (taxallusi; asl ism-sharifi Musa Toshmuhammad o‘g‘li; 1905.10.1 – Toshkent – 1968.1.7) – XX asr o‘zbek adabiyotining eng yirik namoyandasi, atoqli adib, shoir, olim, davlat va jamoat arbobi. Oybekning el-yurt oldidagi xizmatlari munosib baholanib, unga O‘zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti, “Buyuk xizmatlari uchun” unvonlari berilgan. Oybekning o‘lmas asarlari ma‘naviy xazinamizdan mustahkam o‘rin olgan va umumxalq mulki bo‘lib qolgan.

OYDIN – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. “Oqqo‘rg‘on”, Firdavsiy, “Sayram”, “Darxon”, “Yangitarnov”, “Bog‘ibo‘ston”, Mirzo Ulug‘bek mahallalari bilan chegaradosh.

“Oydin” – *“oysimon, oy bilan yoritilgan”*, ko‘chma ma‘noda – *“yorug‘, aniq”* ma‘nolarni anglatadi. “Oydin” so‘zi yorug‘lik va ravshanlikni ifodalaydi.

OYDINKO‘L – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1966–1967-yillarda Xudoyberdiyev mahallasi tarkibida bo‘lgan. 1968–2008-yillarda Yoqub Aliyev mahallasi deb yuritilgan. 2008-yil 2-sentyabrdan “Oydinko‘l” mahallasi deb ataladi. “Yanginur”, Nodira, “Katta Yangiobod”, “Donishmand”, “Shohsanam”, “Shohimardon” mahallalari bilan chegaradosh.

“Oydinko‘l” so‘zi ikki qismdan iborat: “oydin” va “ko‘l”. “Oydin” – o‘zbek tilida “toza”, “ravshan”, “yorug‘” ma‘nolarini anglatadi. “Ko‘l” – “suv havzasi”, “ko‘lmak” degan ma‘nolarni bildiradi. “Oydinko‘l” so‘zi “toza suv havzasi” yoki “ravshan ko‘l” degan ma‘nolarni ifoda etadi.

OQIBAT – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda tashkil topgan. “To‘ytepa”, “Nur”, “Shahrisabz”, “Mustaqillik” mahallalari bilan chegaradosh.

“Oqibat” – “qadrdonlik, do‘stlik tuyg‘usi, mehr, muhabbat va shundan kelib chiqadigan yaxshi munosabat; muruvvat” degan ma‘nolarni bildiradi.

O‘zbekiston xalq yozuvchilari va shoirlari Asqad Muxtor, Mirmuhsin, Normurod Narzullayev, akademik Sodiq Azimov, O‘zbekiston xalq artisti Saodat Qobulova va boshqalar shu mahallada yashashgan.

OQQO‘RG‘ON – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. “Darxon”, Mirzo Ulug‘bek, Firdavsiy, Hamid Olimjon, “Oydin” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahallaning tarixi Toshkentning Oqqo‘rg‘on mavzesi tarixi bilan bog‘liq. Oqqo‘rg‘on – qadimgi Toshkentning atrofidagi mavzelardan biri bo‘lgan, shaharning sharqiy chekkasida, Shibli arig‘idan sharqda joylashgan. Sharqiy chegarasi Salor kanaliga qadar bo‘lgan. Mavzening janubiy qismi tarixiy manbalarda “Chimrabot” deb atalgan. U shahardan Parkentga boradigan karvon yo‘lida joylashgan. Oqqo‘rg‘on hududi Oqqo‘rg‘on va Darxon (Darxonotasoy) ariqlaridan sug‘orilgan. Mahalliy aholi quduq suvlaridan ham foydalangan. Mavzening yer yuzasi sharqqa tomon zinapoyasimon pasayib borgan, ayrim tepaliklar ham bo‘lgan.

O‘rta asr vaqf hujjatlarida Oqqo‘rg‘on yerlari Xoja Ahrorga qarashli bo‘lgan. Hujjatda Salor nomi Rudak (daryocha) deb bitilgan. Keyinchalik XIX asr 2-yarmiga qadar Xoja Ahror madrasasining vaqf yerlari hisoblangan. XIX asr 1-choragida shaharning shu mavzega qaragan darvozasi ham Oqqo‘rg‘on darvozasi (1830-yillardan esa Qashqar darvozasi) deb atalgan.

Mustaqillik davrida Oqqo‘rg‘on hududidan Kichik halqa yo‘li o‘tib, yana ham obodonlashgan. Hozir Oqqo‘rg‘on mavzesi o‘rnida “Oqqo‘rg‘on”, Ulug‘bek, “Darxon” va boshqa mahallalar mavjud.

OQLON (Oqilon) – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. “Oqilon” degani arabchadan oqillar, ya‘ni donolar, aqllilar deganidir. Mahalla bunday nomlanishiga sabab, Shayx Zayniddinbobo shu yerda yashab faoliyat yuritib, odamlarga ilm ulashganliklaridir. Shayxning zavjalari shu mahallalik Daryo Dilbekach bo‘lib, oqila ayol sifatida tanilgan. Shu kishi va ularning shogirdlariga nisbat qilib bu yer “Oqillar” deya nomlana boshlangan. Mahalla shu bois “Oqilon”, ya‘ni oqillar makoni nomini olgan. “Ko‘kcha”, “Ko‘kcha Darvoza”, “Samarqand Darvoza”, “Yangishahar”, “Katta Oqtepa”, Olim Xo‘jayev, “Kattahovuz” mahallalari bilan chegaradosh.

OQMASJID – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. Xurshid, “Beshqayrag‘och”, “Quyi Darxon”, “Taqaqchi”, “Ko‘rkamobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Qadimiy mahallalardan bo‘lib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Shayxontohur dahasida joylashgan. 1955-yildan Maksim Gorkiy nomi bilan atalgan. 1966-yildagi Toshkent zilzilasidan so‘ng mahalla aholisiga Toshkent tumanidagi (Nazarbek) Kuybishev kolxozi yeridan joy berilgan va Oqmasjid deb nomlangan (1991).

XVII–XIX asrlarda Buxoro xonligida qurilgan masjidlar oqmasjid deb atalgan. “Oq” umumturkiy soʻzlardan biri boʻlib, “qor, sut, paxta rangidagi, oq tusga moyil” maʼnolarini bildiradi. Shu bilan birga, oq rang xonlikka qarashli ekanligiga, hajman kattaligiga ishora.

“Oqmasjid” – “katta masjid”, yana “hukmdorlar tomonidan qurilgan masjid” maʼnosida (Nafasov T. Oʻzbekiston toponomlarining izohli lugʻati. Oʻqituvchi, 1988: 147 b.).

OQTEPA – Shayxontohur tumanidagi daha nomi. Olim Xoʻjayev mahallasida joylashgan. Oqtepa kanali dahani Chilonzor tumanidan ajratib turadi. Tarixiy Chilonzor Oqtepasi atamasidan kelib chiqib mazkur nom bilan yuritiladi. 1982–83-yillarda Toshkent shahrini rekonstruksiya qilish va obod qilish davlat loyihalash instituti loyihasi asosida dahada 2 ta 9 qavatli, 29 ta 4 qavatli uy-joylar qurilgan. Dahada tarixiy ahamiyatga ega tepalik mavjud. Bugungi kunda Oqtepa dahasida renovatsiya dasturi amalga oshirilmoqda.

OQTEPA – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. “Obod”, “Otchopar-2”, “Mehnatobod”, “Yunusobod”, “Qadrdon” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla Yunusobod Oqtepasi arxeologik yodgorlik nomi bilan ataladi. Yunusobod Oqtepasi – arxeologik yodgorlik, shahar xarobasi (V–XIII asr boshi). Toshkentning shimoli-sharqiy qismida, Oqtepa kanali boʻyida joylashgan. Dastlab, 1886-yilda V.P. Nalivkin qayd qilgan. 1940–41-yillarda A.I. Terenojkin qisman qazishmalar olib borgan. 1975- va 1977–83-yillarda Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi oʻrgangan. Janubiy tomoni balandroq tepalik koʻrinishidagi ark va qishloq (100 ga)dan iborat. Ark xarobalari (86x180 m) shimoldan janub tomonga choʻzilgan va qishloqdan chuqur jarlik (ark atrofidagi xandaq oʻrni) bilan ajratilgan. Arkka yondoshgan keng hovli va uning janubiy qismida ark xarobalari joylashgan boʻlib, qazish vaqtida xom gʻisht va paxsadan qurilgan, meʼmoriy jihatdan yaxshi saqlangan binolar qoldiqlari ochildi. Yunusobod Oqtepasi VII–VIII asr boshida yashagan chochlik yirik zodagonning qasrli chorbogʻi, saroyi boʻlganidan dalolat beradi. Yodgorlikdagi hayot VIII asr 2-yarmida qayta jonlangan, IX–XII asrlarda esa u Binkat viloyatining mustahkamlanmagan qishloqlaridan boʻlib, XIII asr boshida moʻgʻullar istilosi davrida inqirozga uchragan.

OQUY – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1956-yilda tashkil topgan. “Jarqoʻrgʻon”, “Uchuvchilar”, “Qorasuv”, “Qoʻshqoʻrgʻon”, “Yangidavr”, “Beshbola”, “Sarikoʻl”, Muxtor Ashrafiy, “Fayziobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Keksalarning soʻziga koʻra, Rossiyadan koʻchib kelgan Chyotkin familiyalı rus kishisi hozirgi Tolariq kanali boʻyida uy, tegirmon va karvonsaroy qurgan, soʻngra Chirchiq boʻyida kichik ohak ishlab chiqarish sexi ochib, Oʻzbekistonda birinchi boʻlib oʻzining uyi, tegirmoni va karvonsaroyini ohak bilan suvagan. Shundan soʻng oʻsha atrofdagi xonadonlar uning ohagidan foydalangan. Shu sabab boʻlib, savdogarlar va sayyohlar belgi sifatida Toshkentdagi Oquy karvonsaroyida, tegirmonida uchrashishni belgilashgan. Joyning nomi shundan kelib chiqqan.

O'sha vaqtda Tolariqdan temir yo'lgacha bo'lgan ko'cha nomi ham Oquy deb atalgan. Bu hududda 1955-yilgacha aholi siyrak bo'lib, kolxoz yerlari bo'lgan. 1956-yildan mahalla maqomi berilgan.

OLIYHIMMAT – Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla nomi. 2015-yilda tashkil topgan. "Navnihol" mahallasidan ajralib chiqqan yangi mahalla. Hududdagi asosiy ko'chalardan biri nomi bilan uyg'unlashtirish maqsadida, "Oliyhimmat" deb atalgan. "Sayram", "Bo'z", "Bog'ibo'ston", "Olimlar", "Navnihol" mahallalari bilan chegaradosh.

Oliyhimmat – "himmati baland, kimsaga himmatini, yaxshilikni ayamaydigan; saxovatli" ma'nolarini anglatadi.

OLIM XO'JAYEV – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. 1936-yilda Oqtepa hududidagi Cho'ponota mahallasi tarkibiga kirgan. Lutfiy, "Ko'kcha Darvoza", "Samarqand Darvoza", "Charx Kamolon-3", "Katta Oqtepa", "Oqlon", "Charxnovza" mahallalari bilan chegaradosh.

O'zbekiston xalq artisti Olim Xo'jayev shu mahalladan Oliy Kengash deputatligiga saylangan va uning tashabbusi bilan mahalla hududida 157-o'rta maktab, 241-bolalar yasli-bog'chasi qurilgan, shuningdek, ko'cha va uy-joylar qurilishiga yordam ko'rsatgani bois Cho'ponota mahallasining bir qismi ajratilib, yangi mahallaga Olim Xo'jayev nomi berilgan.

OLIMLAR – Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda tashkil topgan bo'lib, dastlab Ibrohim Mo'minov nomidagi "Olimlar" mahallasi deb atalgan. Habib Abdullayev, "Alpomish", "Oliyhimmat", "Bo'z", "Bahor", "Navnihol" mahallalari bilan chegaradosh.

Mahallada ko'plab davlat va fan arboblari, jumladan I.Mo'minov, M.M. Xayrullayev, K.A. Zufarov, A.Q. Valiyev, K.Ahmedov va boshqalar yashab o'tishgan.

OLIMPIYA – Olmazor tumanidagi mahalla va mavzening nomi. Mahalla 2006-yilda tashkil topgan. "Jiydali", Mirzo G'olib, "Shodiyona", "Chamanbog'", Beruniy, "Yoshlik", "Ziyo", "Mustaqil yurt" mahallalari bilan chegaradosh.

1975-yilda Olmazor (Sobir Rahimov) tumanida "Moskva – 80" olimpiadasida qatnashuvchi velosport sportchilari tayyorgarlik ko'rishi uchun o'sha paytlarda O'rta Osiyoda yagona bo'lgan velotrek maydoni va sportchilar yashashi uchun muljallangan "Olimpiya" mehmonxonasi qurilgan. Mehmonxona atrofida 10 ta ko'p qavatli uylardan iborat bo'lgan Olimpiya mavzesi qurilib foydalanishga topshirilgan va "Olimpiya" mahallasi deb nomlangan. Keyinchalik, 1977-yilda qo'shni hududda 6 ta ko'p qavatli uylardan tashkil topgan Chimboy mavzesi qurilgan va 160 ta hovli-joyli uylardan yer ajratilib Asqar Ubaydullayev nomidagi mahalla tashkil qilingan. 2004-yilning oxiriga kelib "Olimpiya" mahallasining nomi marhum mahalla raisi nomini abadiylashtirish maqsadida Turob Rasulov deb o'zgartirilgan. 2006-yilga kelib, Turob Rasulov va Asqar Ubaydullayev nomidagi

mahallalar birlashtirilib, “Olimpiya” mahallasi deb qayta nomlangan. Akademik Matyoqub Qo‘shjonov, bolalar shoiri Quدرات Hikmat va yana bir qancha taniqli insonlar shu mahallada yashab o‘tishgan.

Olimpiya dahasi Damariq va Qoraqamish kanallari hamda Muxbir va Qamar-niso ko‘chalari oralig‘ida joylashgan. Daha “Tashgiprogor” instituti tomonidan ishlab chiqilgan loyiha asosida qurilgan. 2023-yilda Olimpiya dahasi Olimpiya mavzesi deb o‘zgartirilgan.

OLMAZOR – Chilonzor tumanidagi daha nomi. “Beshyog‘och” va “Katta Olmazor” mahallalarida joylashgan. Daha 1970–72-yillarda “Xalqlar do‘stligi” (“Istiqlol”) san‘at saroyi qurilishi bilan Olmazor va Furqat ko‘chalari oralig‘ida joylashgan eski, talab darajasiga javob bermaydigan uy-joylarni buzib, o‘rniga “ToshboshplanLITI” instituti loyihasi asosida qurilgan.

O‘tmishda bu hududda katta mevali bog‘lar, olmazorlar bo‘lib, ular shahar bo‘ylab dong taratgan. Shu sababli bu hudud hozirgacha Olmazor deb ataladi.

OLMAZOR – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Toshkentning qadimiy mahallasi hududida joylashgan. 1991-yilda yangidan tashkil qilingan. “Katta Olmazor”, “Beshyog‘och”, “Chaqaq”, “Gulbozor”, “O‘qchi”, “Xadra” mahallalari bilan chegaradosh.

Mazkur nom olma so‘ziga *-zor* affiksini qo‘shish orqali hosil qilingan. Olmazor – “olma daraxti bilan band yer, maydon; olma bog‘i” ma‘nosini anglatadi.

OLMACHI – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Toshkentga Rossiyadagi yirik sanoat korxonalari ko‘chirilgan. 1942-yil Toshkent traktor zavodi ishga tushgan, uning ishchi-xodimlari uchun hozirgi mahalla hududidan yer ajratilgan. Qisqa vaqt ichida uy-joylar qurilib, ma‘muriy organ – kvartkomlar tashkil topgan. Mustaqillik yillarida mahallaga “Bo‘z-8” nomi berilgan, 2007-yildan hozirgi nomda ataladi. “Istiqlol”, “Oltintepa”, “Podshobog‘”, “Semurg‘”, “Do‘stobod”, “Yangi Olmachi”, “Turon” mahallalari bilan chegaradosh.

OLMOS – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 2010-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanidan qo‘shilgan yangi hudud. “Mirishkor”, “Go‘zal”, “Bog‘bon”, “Donishmand”, “Qalqon”, “Tarnovboshi”, “Shohsanam” mahallalari bilan chegaradosh.

Namangan viloyatining Chust tumanidagi Olmos qishlog‘idan bir guruh odamlar ko‘chib kelib, mahalla yerlarida dehqonchilik bilan shug‘ullanishgan. Qulupnay, bodring yetishtirib, shahar aholisini ta‘minlashgan. Mahalliy aholi ularni “olmosliklar” deb atagan. Mahalla nomi shundan kelib chiqqan. Shu bilan birga, o‘zbeklarning qipchoq urug‘i tarkibida olmos (o‘lmas) degan urug‘ qayd etilgan.

OLOY – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mavze nomi. Mustaqillik mahallasida joylashgan. Mavzening bir qismi Yunusobod tumanidagi “Buyuk Turon” mahallasini ham kesib o‘tadi.

Dastlab mavze Markaz-2 (S-2) deb atalgan. 2000-yilda joydagi “Oloy” bozori nomi bilan uygʻunlashtirish maqsadida, Oloy deb qayta nomlangan.

Oloy dehqon bozori – Toshkentning eng mashhur va eski bozorlaridan biridir. Bozorga 1928-yilda asos solingan. “Oloy” bozori tarixi juda uzoq, yaʼni Markaziy Osiyo yerlaridan “Buyuk ipak yoʻli” oʻtgan davrlarga borib taqaladi. Oloy soʻzi Qirgʻizistondagi “Oloy” vodiysi va togʻi nomidan kelib chiqqan.

XII–XIX asrlarda Oloy togʻi yonbagʻirlari savdo-sotigʻi bilan mashhur boʻlgan. Xususan, mahalliy aholi, shu yerlarda yashagan qozoq, qirgʻiz, oʻzbek va tojik xalqlari savdo qilishgan. Ular ziravorlar, kulolchilik buyumlari, shoyi matolar, meva hamda sabzavotlar savdosi bilan mashgʻul boʻlishgan. Shu davrlardayoq yevropacha qurilish tipidagi bozor shakllana boshlagan va “Oloy” bozori mamlakatdagi eng ommabop bozor hisoblangan.

Oloy nomi dastlab XI asrda yashab ijod etgan Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida tilga olingan. Taniqli toponimist E.M. Murzayev shu asarga asoslanib, bu nomning kelib chiqishini sanskritcha “yashash joyi”, “makon” deb izohlaydi. Haqiqatdan ham Oloy vodiysi qadimdan oʻzlashtirilgan, obod etilgan, aholi gavjum boʻlgan vodiylar hisoblanadi.

Zamonaviy turk tilida “oloy” (alay) soʻzining oʻndan ortiq maʼnosi boʻlib, asosan toʻplam, jamoa, guruh maʼnolarida ishlatiladi. Harbiy istilohda “polk” maʼnosida ham ishlatiladi.

OLTINVODIY – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 1930-yilda tashkil topgan. Eski nomi – Usmon Yusupov. 2007-yildan hozirgi nom bilan ataladi. “Qumariq”, “Qushbegi”, “Uchuvchilar”, “Qubaytepa”, “Armugʻon”, “Zaminobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Oltin – sariq-qizgʻish tusli qimmatbaho nodir metall; zar, tilla. Koʻchma maʼnolarda (qimmatli, bebaho) ham ishlatiladi. Vodiy – relyefning uzun choʻzilgan botiq shakli. Fargʻona vodiysi tabiati goʻzal boʻlganligidan “oltin vodiy” deb nisbat berishadi. Mahalla nomi shundan kelib chiqqan.

OLTINKOʻL – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1959-yilda tashkil topgan. Abdurauf Fitrat, “Qorasuv”, Furqat, Muxtor Ashrafiy, “Oltinkoʻl”, Joʻrabek mahallalari bilan chegaradosh.

Oltinkoʻl soʻzi “oltin” (qimmatbaho metall, boylik ramzi) va “koʻl” (tabiiy suv havzasi) soʻzlarining qoʻshilishidan hosil boʻlgan toponim. Oltinkoʻl – aynan “*oltin koʻl*”, “*oltin suvli koʻl*” (bizningcha, suvning oltin rangli boʻlgani uchundir).

OLTINSOY – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1994-yilda tashkil topgan va “Navbahor” nomi bilan atalgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Oltinsoy” deb qayta nomlangan. Islomota, “Taraqqiyot”, Gʻani Aʼzamov, “Qichqiriq” mahallalari bilan chegaradosh.

Nom tarkibi *oltin* va *soy* soʻzlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – *oltin* soʻzi – *sariq-qizgʻish tusli qimmatbaho nodir metall*ni, *zar, tillani* bildiradi. Apellyativning ikkinchi komponenti – *soy* termini “*kichik daryo*”, “*oqar suv*”, “*suv*

yo'li", "vodiy", "suv oqadigan pastlik" degan ma'nolarda mamlakatimizning bir qancha hududlarida joy nomlarini hosil qiladi.

Toponimist T.Nafasov esa *soy* so'zi (termini)ga quyidagicha ta'rif beradi: "Soy – ikki tomoni qirsimon cho'ziq balandlik bilan o'ralgan, o'rtasi vodiy bo'lgan sayhonlik. Soy – bahor oylarida yog'in suvlari oqadigan, yozda qurib qoladigan, kichik o'zanli oqar suv". Demak, Oltinsoy – "*suvi oltinga teng soy*" ma'nosidadir.

OLTINTEPA – Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla nomi. 1987-yilda tashkil etilgan. Ilgari kosmonavt Vladimir Jonibekov nomi bilan atalgan. 2016-yilgacha "Oltintepa-10" nomida ham bo'lgan. Mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda "Oltintepa" deb qayta nomlangan. "Olmachi", "Istiqlol", "Katta Oltintepa", Avayxon, "Podshobog'", "Do'stobod", "Ko'hna Mevazor" mahallalari bilan chegaradosh.

Tuman hududida joylashgan Oltintepa arxeologik yodgorligi nomi bilan atalgan. Oltintepa katta mustahkam hududga ega bo'lgan aholi punkti bo'lgan, shaharning sharqiy chekkasida Qorasuv kanalining o'ng qirg'og'ida joylashgan.

Oltintepaning manzilgohi 1927-yilda N.G. Malliskiy tomonidan "mauza" nomi bilan eslab o'tilgan. 1957-yilda yodgorlik arxeolog Y.F. Buryakov tomonidan tekshirilgan. O'rganilgan materiallar milodiy IV–VII va X–XIV asrlarga to'g'ri keladi. Oltintepada hali yirikroq arxeologik qazishmalar olib borilgani yo'q. Hozirda arxeologik yodgorlik yopiq hudud.

OLTINTOPGAN – Bektemir tumanidagi mahalla va mavzening nomi. Mahalla 1996-yilda tashkil topgan. Eski nomi – Olim Ashirov. Aviahalokatga uchragan "Paxtakor" futbol jamoasi a'zosi Olim Ashirov nomi bilan atalgan. Hududdan o'tadigan asosiy ko'cha nomi bilan uyg'unlashtirish maqsadida, 2012-yilda "Oltintopgan" deb qayta nomlangan. "Nurafshon", "Sohil", "Bektemir", "Musaffo", "Farog'atli", Xo'ja Uchqun mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nuroniylarining gapiga ko'ra, Oltintopgan nomining kelib chiqishiga sabab, Chirchiq daryosi bo'yida Toshkent shahridagi bunyodkorlik ishlari uchun kerakli bo'lgan shag'al, qum va boshqa qurilish materiallarini ishlab chiqarish davrida oltin topilgan. Shu sababli ushbu joy mahalliy xalq orasida Oltintopgan nomi bilan atalgan.

Oltintopgan mavzesi 2023-yilda tashkil etilgan.

OLCHAZOR – Yangihayot tumanidagi mahalla nomi. "Temiryo'lchi" mahallasi negizida yangi tashkil etilgan. Hududdagi asosiy ko'chalardan biri nomi bilan uyg'unlashtirish maqsadida, 2015-yilda "Olchazor" deb qayta nomlangan. Sergeli tumanidagi mahallalarning hududiy chegaralarini qayta ko'rib chiqish hisobiga 2021-yilda Yangihayot tumaniga o'tkazilgan. "Gulshanobod", "Mash'al", "Navqiron", "Yorqinhayot", "Xushnud", "Chorbog'", "Humo", "Marhamat" mahallalari bilan chegaradosh.

Olchazor – olcha bog'i, fitonim. Fitonimlar ma'lum hududda tarqalgan o'simlik turlari haqida ma'lumot berish bilan birga, ayrim topoformantlar yordamida

o‘simliklarning oz-ko‘pligi, soni, miqdori haqida ham ma’lumot beradi. O‘simlik turlarining ko‘pligi haqida ma’lumot *ming, to‘p, qator, galazor* kabi so‘zlar yordamida beriladi: Mingchinor, Mingko‘prik, To‘ptarak, Qatortol, Galatut, Chilonzor kabi. Ayrim topoformantlar (-zor, -li, -iston, -ilik) muayyan hududda muayyan o‘simlik turining boshqa turlardan ko‘proq uchrashini bildiradi: Bodomzor, Nayiston, O‘rikli, Olmaliq kabi. Olchazor – olcha ko‘p bo‘lgan joy degan ma’noni beradi.

ORZU – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. Mahalla 1994-yilda tashkil topgan. Eski nomi – “Beruniy maydoni”. Joydagi yirik korxona nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, 2016-yilda “Orzu” deb qayta nomlangan. “Allon”, “Quyosh”, “Bo‘ston”, “Zafarobod”, Huvaydo, “Tinchlik”, “Universitet” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi sobiq “Orzu” charm-attorlik va sport buyumlari ishlab chiqarish korxonasi nomidan olingan. Ushbu korxona Sport buyumlari fabrikasi (1957) va charm-attorlik buyumlari fabrikasi (1961) negizida 1980-yili tashkil etilgan. Ma’nosi “dildagi istak, ezgu umid, intilish”ni bildiradi.

ORIYAT – Yangiheyot tumanidagi mahalla nomi. 2020-yilda “Humo” mahallasi negizida tashkil topgan. Sergeli tumanidagi mahallalarning hududiy chegaralarini qayta ko‘rib chiqish hisobiga 2021-yilda Yangiheyot tumaniga o‘tkazilgan. “Yangi Darxon”, “Gulshanobod”, “Yangiheyot” mahallalari bilan chegaradosh.

Oriyat – inson ma’naviy qiyofasiga xos izzat-nafs, qadr tuyg‘ularini ifodalovchi tushuncha bo‘lib, “or-nomus, izzat-nafs, uyat, sharm, or” ma’nolarini anglatadi.

OTCHOPAR-1 – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1934-yildan “Otchopar” mahallasi deb atalgan, 1970-yildan ikki qismga bo‘lingan. “Otchopar-2”, “Xiyobontepa”, “Yunusobod”, “Shahriston”, “Bo‘zsuv”, “Bodomzor”, “Iftixor” mahallalari bilan chegaradosh.

Otchopar – otlarni sinash, ot chopish va otda mashq qilish, umuman, ot sporti musobaqalarini o‘tkazish uchun maxsus jihozlangan maydon; ippodrom. Mahalla tashkil topmasdan ilgari bu yerda yilqi boqadigan yaylov bo‘lib, to‘y-bayramlar, sayillarda poyga, ko‘pkari, uloq va boshqa musobaqalar uyushtirilgan bo‘lishi mumkin.

OTCHOPAR-2 – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1965-yilda tashkil topgan. 1970-yildan ikki qism (Otchopar-1 va Otchopar-2)ga bo‘lingan. “Oqtepa”, “Obod”, “Otchopar-1”, “Bog‘ibo‘ston”, “Yunusobod”, “Bo‘zsuv” mahallalari bilan chegaradosh.

PARVOZ – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – V.Sives. V. Sives – Chkalov nomidagi aviatsiya zavodining direktori bo‘lgan. Mahalla Aviasozlar mavzesida joylashgani uchun, 2011-yilda “Parvoz” deb qayta nomlangan. “Go‘zal”, “Tong”, “Dilbog‘”, “Vatandosh”, “Barkamol”, “Fazogir”, “Beshariq”, “Birlashgan” mahallalari bilan chegaradosh.

PARVONA – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1987-yilgacha “Qo‘yliq” deb atalgan. 1987-yilda mahalla nomi “Parvona” deb o‘zgartirilgan. “Bilimdon”, “Bunyodkor”, Barotxo‘ja, “Yosh avlod”, “Qo‘yliqobod”, “Chinor”, “Mumtoz” mahallalari bilan chegaradosh.

Parvona – “mehribonlik, xushomadgo‘ylik, mehr-muhabbat, parvarish” ma’nolarini anglatadi. Shu bilan bir qatorda, parvona so‘zi “amir, xon farmoni, yorlig‘i” ma’nosida ham ishlatiladi.

PARKENT – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi daha nomi. “Turon” mahallasida joylashgan. Joydagi asosiy ko‘cha nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, “Parkent” nomi bilan atalgan. Ko‘cha Toshkent viloyatining Parkent tumaniga olib boradigan asosiy yo‘l bo‘lgani va xalq tilida shu nom bilan yuritilgani bois, 1925-yilda Parkent nomi berilgan.

PARKENT-RIYOZIY – Yashnobod tumanidagi mavze nomi. “Istiqlol” mahallasida joylashgan. Parkent nomi shu mavzedagi ko‘cha va bozor nomidan olingan bo‘lib, mazkur toponimlar Toshkent viloyatidagi Parkent shahri nomi bilan bog‘liq. Toponim ikki qismdan iborat: “par” – tog‘ yon bag‘ri, “kent”, aniqrog‘i “kat” – uy, qishloq, shahar. Parkent nomi arab geograflari asarlarida IX–X asrlarda Barskat shaklida tilga olingan. Yoqut Hamaviyning lug‘atida (XII–XIII) qayd qilingan Barskat shahrini V.V. Bartold hozirgi Parkent bo‘lsa kerak, deb hisoblaydi. Bars nomidan olingan degan fikr ham bor. Tarixiy manbalarda Farnakas holida ham uchraydi.

Ba‘zi toponimistlar, masalan, nomshunos Z.Do‘simov ayrim o‘zbek shevalarida parak – “to‘siq, devor” ma’nosini anglatadi, deb hisoblaydi. Mahalliy aholi talaffuzida Parkat ekanligini e’tiborga olib, uning ma’nosini “devor bilan o‘ralgan shahar”, deb izohlash mumkin.

Riyoziy nomi esa shoir, xattot va hofiz Riyoziy Imomuddin (? – Samarqand – 1479) nomi bilan bog‘liq. Riyoziy Samarqand madrasalaridan birida tahsil ko‘rgan. Turkiy va fors tillarida ijod qilgan. Riyoziy haqida ma’lumot, she’rlaridan namunalar “Majolis un-nafois”da uchraydi. Riyoziy yoshligidan she’riyatga qiziqqan, salafлари ijodini qunt bilan o‘rgangan. Ilmi musiqiy, ilmi nujum va boshqa fanlar bilan ham shug‘ullangan. Mumtoz adabiyotning an’anaviy janrlarida turli mavzularda she’rlar yozgan. Navoiy Riyoziy bilan bir necha bor suhbatda bo‘lib, uning ijodiga yuqori baho bergan. Navoiyning yozishicha, u g‘azallar yozish bilan birga xattot, shuningdek, Qur’onni ham yetti qiroat bilan o‘qiy oladigan hofiz bo‘lgan.

PARKENT-SIOLKOVSKIY – Yashnobod tumanidagi mavze nomi. “Do‘stobod” mahallasida joylashgan. Mavze nomining birinchi qismi Parkent shu nomdagi ko‘cha va bozor nomidan olingan. Hozirgi Oltintepa ko‘chasining nomi ilgari Siolkovski deb nomlangan. Konstantin Eduardovich Siolkovski kosmonavtikaning asoschilaridan biri bo‘lgan. Oydagi kraterga Siolkovski nomi berilgan.

PASTKIYUZ – Mirzo Ulugʻbek tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga oʻtkazilgan. “Zakovat”, “Beshkapa”, “Yuzrabot” mahallalari bilan chegaradosh.

“Pastki” geografik joylashuvni, oʻrinni bildiradi, “yuz” – oʻzbeklarning qabilasi. Demak, “Pastkiyuz” – yuz qabilasi vakillari yashaydigan joy.

Yuz qabilasi Oʻzbekistonning asosan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yashagan. Shuningdek, Samarqand, Jizzax va Toshkent hududlarida ham yuz qabilasiga mansub odamlar boʻlgan. Ular tarixan Oʻzbek xonliklari davrida muhim rol oʻynagan va koʻchmanchi oʻzbeklar tarkibidagi asosiy qabilalardan biri hisoblangan.

PAXTA – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1925-yilda tashkil topgan va shu nom bilan atalgan. “Chuqursoy”, “Shodiyona”, “Umid”, “Istiqbol”, “Boʻstonobod”, “Yangi Toshkent”, “Qichqiriq” mahallalari bilan chegaradosh.

Paxta – gʻoʻza oʻsimligining chigit va tolalardan iborat oppoq yumshoq hosili, chigitdan ajratilgan momiq. Toʻqimachilik sanoatida keng qoʻllaniladi, undan turli matolar, iplar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi.

PAXTAKOR – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1957-yilda tashkil topgan. 1956-yili “Paxtakor” stadioni qurilishi munosabati bilan hozirgi mahalla hududidan ularga yer ajratilib, oʻsha yerdan koʻchib kelgan aholi istagi bilan shu nom bilan atalgan. Mannon Uygʻur, Lutfiy, “Koʻkcha-Oqtepa”, Shofayzi, “Katta Oqtepa”, “Nishabariq”, “Katta Choʻponota”, “Shofayzibogʻ” mahallalari bilan chegaradosh.

PODShOBOGʻ – Mirzo Ulugʻbek tumanidagi mahalla nomi. 1960-yilda “Boʻzbozor” mahallasi nomi bilan tashkil topgan. 1991-yildan “Guliston” deb atalgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Podshobogʻ” deb qayta nomlangan. “Katta Oltintepa”, “Oltintepa”, “Buyuk ipak yoʻli”, “Olmachi”, “Alpomish”, “Elobod”, “Yangi Olmachi” mahallalari bilan chegaradosh.

Podshobogʻ soʻzi “podsho” (hukmdor, shoh) va “bogʻ” (bogʻ, bogʻ-rogʻ) soʻzlarining qoʻshilishidan hosil boʻlgan boʻlib, quyidagi maʼnolarga ega: shoh bogʻi, hukmdorga tegishli bogʻ – tarixda podsholar yoki hukmdorlar uchun barpo etilgan bogʻ va bogʻ-rogʻlar shunday nomlangan.

POSIRA – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. “Pasra” deb ham atashgan. “Obod”, “Navnihol”, “Shahriobod”, “Katta Yalangʻochota” mahallalari bilan chegaradosh.

Oʻrta asrlarda katta yer egalari batraklarga vaqtincha foydalanish uchun berilgan yer uchastkasi “posira” deyilgan, keyingi vaqtlarda “tomorqa”, fermer xoʻjaligi aʼzolariga tekkan shaxsiy yer maydoni. Mazkur toponim “kichik ekin maydoni, ozroq ekin ekish” degan maʼnolarni ham anglatadi.

“Pasra” fors tilida “yirik yer egalari kambagʻallarga maʼlum soliq solib ajratilgan yer” maʼnosini bildiradi.

RAKAT – Yakkasaroy tumanidagi mahalla nomi. Mahalla tarixi 1880–90-yillarda “Gubernator” (keyinchalik Kirov, hozirgi Bobur) bog‘i bunyod etilishi bilan bog‘liq. Ba’zi olimlar (A.Muhammadjonov) “Rakat” atamasi Rohikat (“shaharga eltuvchi yo‘l” ma’nosi)dan olingan deb hisoblashadi. 1955-yildan “Rakat-1” mahallasi “Rakat” deb nomlangan. Muqimiy, “Chilonzor”, “To‘qimachi”, “Katta Chilonzor-1”, “Belariq”, “Muhandislar”, Shohjahon mahallalari bilan chegaradosh.

RAKATBOSHI – Yakkasaroy tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – “O‘rikzor”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Rakatboshi” deb qayta nomlangan. “Charx Kamolon-1”, “Beshyog‘och”, Yunus Rajabiy, “Tepa”, “Konstitutsiya”, “Belariq” mahallalari bilan chegaradosh.

“Rakatboshi” mahallasi qadimda Toshkentning suv tizimi bilan bog‘liq hududlardan biri bo‘lgan. Rakat so‘zi hududdagi kanallar va ariq tizimlariga ham ishora qiladi. Chunki o‘tmishda bu hududda dehqonchilik va bog‘dorchilik rivojlangan. Ariq boshida yoki asosiy suv yo‘li yaqinida joylashganligi sababli, unga Rakatboshi nomi berilgan bo‘lishi mumkin.

REGISTON – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda G‘ayratiy mahallasidan ajralib chiqqan. G‘ayratiy, Miskin, “Qo‘shchinor”, “Turkiston”, “Registon” mahallalari bilan chegaradosh.

“Registon” forsha so‘z bo‘lib, “qumli joy”, “ochiq maydon” ma’nolarini anglatadi. Bu so‘z tarixiy jihatdan markaziy shaharlardagi katta maydonlarga nisbatan ishlatilgan. Masalan, Samarqanddagi mashhur Registon maydoni ushbu atamaning eng yorqin namunasidir. Odatda, registon qadim zamonlarda savdosotiq va ijtimoiy tadbirlar o‘tkaziladigan joy sifatida tanilgan.

ROHAT – Bektemir tumanidagi mahalla nomi. 1991-yilda tashkil topgan. Mahalla nomi Rohat ko‘li nomidan olingan. “Zilola”, “Mirishkor”, “Majnuntol” mahallalari bilan chegaradosh.

“Rohat” toponimi 1960-yillarda shakllangan. Toshkent shahrining janubi-sharqiy tomonida, Chirchiq daryosining chap sohilida, Ohangaron yo‘lining o‘ng tomonida 1967-yili “Rohat” dam olish zonasi tashkil etilgan (u davrda mazkur yerlar Toshkent viloyati tarkibida bo‘lgan), maydoni 100 gektar bo‘lgan. Shuningdek, zona ichida 35 gektar maydonga teng Rohat ko‘li ham qazilgan. Bu yerlarda barpo qilingan bog‘da turli manzarali daraxtlar – chinor, shumtol, tuxumak, zarang, akatsiya, tuya, eman va boshqalar o‘sgan. Bog‘ga yaqin hududda “Rohat” mahallasi tashkil qilingan bo‘lib, u Suvsoz mavzesi hududida joylashgan.

“Rohat” so‘zi insonning tinchlik, halovat va qoniqish holatini ifodalaydi.

SADOQAT – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Zangiota tumanidan shahar hududiga o‘tkazilgan. Eski nomi – “Qushbegi”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Sadoqat” deb qayta nomlangan. “Nurafshon”, “Eshonbuloq”, “Farog‘atli”, “Izzatli”, “Kengmakon”, “Xonobod” mahallalari bilan chegaradosh.

“Sadoqat” nomi mahallada yashab oʻtgan Zulfiya Zokirova ismli ayol xotirasini abadiylashtirish maqsadida tanlangan. Bu ayolning besh nafar farzandi Ikkinchi jahon urushi vaqtida urushga ketib, qaytib kelmagan. Ayol beva qolib, oʻgʻillaridan darak boʻlmagan, kelinlari va nabiralari bilan koʻp yillar intizorlik bilan farzandlarini kutgan. Nabiralariga oʻz otalarini oʻrnak qilib koʻrsatib, ularni vatanga sadoqatli qilib tarbiyalagan. Zulfiya aya Zokirova siymosida oʻz farzandlari va oilasiga boʻlgan sadoqat timsolini koʻrish mumkin.

SAYRAM – Mirzo Ulugʻbek tumanidagi mahalla nomi. 1948-yil “Квартальный комитет №27” nomi bilan tashkil topgan. 1993-yilda “Doʻstlik” nomi bilan qayta tashkil etilgan. 2005-yil oktyabr oyidan hozirgi nomda ataladi. “Boʻz”, “Darxon”, “Bogʻiboʻston”, “Buyuk ipak yoʻli”, “Oliyhimmat”, “Yangi Olmachi”, “Oydin” mahallalari bilan chegaradosh.

Sayram – Janubiy Qozogʻistondagi qadimgi shahar va viloyat. Aris daryosi vodiysida (Chimkent shahridan 8 km uzoqlikda) joylashgan. Tarixda Isfijob, Oʻrunkent, Yettikent, Madinat ul-bayzo, Saryom nomlari bilan qayd etiladi.

Amir Temur 1404-yilda Kongildagi katta toʻyda Movarounnahrda sharqdagi hududlarni, jumladan, Sayramni ham Mirzo Ulugʻbekka suyurgʻol qilib maxsus yorliq imzolagan. XV asrda Sayram maʼmuriy jihatdan Temuriylar davlati tarkibida edi. XV asr birinchi yarmida Mirzo Ulugʻbek, ikkinchi yarmida Sulton Abusaid Mirzo, soʻngra uning toʻngʻich oʻgʻli Sulton Ahmad Mirzoning mulki doirasiga kirgan. Keyinchalik Sulton Ahmad Mirzo Sayramni Umarshayx Mirzoga beradi.

Sayram shahri tarixiga bagʻishlangan “Sayramnoma” asarida “har yerda ikki suvning orasida toshloq yer boʻlsa turkiy tili birla saryom derlar” deb sharh berilgan. Ikki suv, daryo orasidagi toshloq joy – saryom yoki sayram. Sayram – birlamchi, saryom – tovushlarning oʻrin almashgan shakli.

SALOR – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1996-yilda tashkil topgan. Tuman hududidan oqib oʻtuvchi Salor kanalining tumanga kirish yoʻli ushbu mahalladan boshlanishi sababli shunday atalgan. “Yangi Mirobod”, Oybek, Abdulla Avloniy, “Tong yulduzi”, Choʻlpon, “Toʻytepa”, “Baynalmilal”, “Movarounnahr” mahallalari bilan chegaradosh.

Salor – Toshkentning sharqiy va janubi-sharqiy qismidan oʻtgan kanal. Salor qadimda Boʻzsuvi boʻyidagi chap sohilidan, hozirgi Salor GESning quyirogʻidan qazilgan. Salorga Boʻrijar, Qorasuv oqovalari ham kelib qoʻshilgan. Natijada Salorning suvi birmuncha koʻpayib, undan Kurkuldak va Niyozboshi ariqlari chiqarilgan. Salor, Kurkuldak va Niyozboshi boʻylarida miloddan avvalgi 1-ming yillik oʻrtalari va miloddan avvalgi I asrlarda vujudga kelgan qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklari koʻp uchraydi. Bu davrda Salor va uning shoxobchalari boʻylarida turli istehkomlar (Qovunchitepa, Qoʻgʻaytepa, Niyozboshtepa va boshqalar) paydo boʻlgan. IV–XI asrlarda Salor boʻyida Mingoʻrik, Binkat, shuningdek, Danfigʻonkat, Shuturkat va boshqa shaharlar vujudga kelgan. Kanal Yunusobod,

Mirzo Ulug‘bek, Yashnobod, Mirobod, Yakkasaroy va Sergeli tumanlari hududidan oqadi.

SAMARQAND DARVOZA – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Hududida shaharning 12 ta asosiy darvozalaridan biri – Samarqand darvozasi joylashgan (nomi shundan). 1917-yil Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng 1962-yilgacha Quburariq (Quvurariq) nomi bilan atalgan. 1962-yilda qadimiy nomi yana qayta tiklangan. Mahalla hududi 1941-yilgacha shaharning asosiy qovun sayli o‘tkaziladigan joyi hisoblangan. Mahalla guzari o‘rnida karvonsaroy bo‘lgan. Guzarning 3 tomonida choyxonalar bo‘lib, ularda san’atkorlar ishtirokida yig‘inlar o‘tkazilgan. Choyxonalar yonidagi baland ustunlarga kerosinli osma chiroqlar o‘rnatilgan. Guzarda dorbozlar, qiziqchilar tomosha qo‘yishgan. 1936–37-o‘quv yilida mahallada ikki qavatli maktab binosi qurilgan.

Keksalarning ma‘lum qilishicha, 1895-yilgacha Samarqand darvozada Toshkentga kiruvchilarni nazorat qiluvchi va o‘lpon (boj) yig‘uvchilar yashashgan. Aholisi, asosan, o‘zbeklar bo‘lib, hunarmandchilik (ko‘nchilik, duradgorlik, aravaszozlik), dehqonchilik (Novza, Cho‘ponota, Qozirabot mavzellarida) bilan shug‘ullangan. Yozuvchi Abdulla Qodiriy shu mahallada yashab ijod qilgan. Hozirda bu mahalla eski Toshkentning tarixiy obidalari, bozor madaniyati va o‘ziga xos ijtimoiy hayoti bilan mashhurdir.

Mahalla “Yangiobod”, “Kattabog‘”, Zangiota, Olim Xo‘jayev, “Kattahovuz”, “Oqlon”, “Charxnovza”, Suzukota mahallalari bilan chegaradosh.

SARBON – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga o‘tkazilgan. Eski nomi – “Gulbog‘”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Sarbon” deb qayta nomlangan. “Alisherobod”, “Gulzorobod”, “Temuriylar” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi tarixiy va etnografik ma‘noga ega. “Sarbon” so‘zi fors-tojik tilidan kirib kelgan bo‘lib, “karvonboshi” yoki “karvon yetakchisi” degan ma‘nolarni anglatadi. Tarixan, Toshkent karvon yo‘llarining markazida joylashgan shahar bo‘lib, savdo va transport tizimida muhim rol o‘ynagan. Karvonlar harakatini boshqaradigan, yo‘llarni belgilaydigan va xavfsizlikni ta‘minlaydigan kishilar sarbon deb atalgan. Sarbonlar karvonlarning muhim qismi bo‘lib, savdo karvonlari Toshkentdan o‘tganida ular bu hududlarda tez-tez bo‘lgan.

“Sarbon” so‘zi “yo‘lboshchi, rahbar, rahnamo” ma‘nolarini ham anglatadi.

SARIKO‘L – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1930-yillarda mahalla o‘rnida Chirchiq daryosi oqib o‘tgan, keyinchalik daryo o‘rnida ko‘l paydo bo‘lgan, uning suvi loyqa sariq rangda bo‘lganligi uchun “Sariqko‘l” deb atashgan. Vaqt o‘tishi bilan ko‘l qurib, o‘rniga daraxtlar ekilgan, atrofida mahalla vujudga kelgan, unga hozirgi nomi berilgan. “Qorasuv”, “Uchuvchilar”, “Oquy”, Banokatiy, Abdurauf Fitrat, “Yangizamon” mahallalari bilan chegaradosh.

SARXUMDON – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Qadimgi mahallalardan biri, qariyb 300 xonadon yashagan. Aholisi, asosan, o‘zbeklar bo‘lib, ko‘nchilik, kosibchilik, sovungarlik, dehqonchilik va bog‘dorchilik (Nishabquloq, Beshqayrag‘och, Xotinko‘prik mavzalarida) bilan shug‘ullangan. Mahalla o‘z nomini hududdagi g‘isht xumdoni (g‘isht ishlab chiqarish pechi)dan olgan. XX asr boshlarida mahallada maktab, uchta masjid, choyxona va baqqollik do‘konlari bo‘lgan. Sho‘rolar davrida, 1975-yilgacha, mahalla Qizil tovush ko‘chasi nomi bilan atalgan. 1975-yilda eski uylar buzilib, o‘rniga yangi ko‘p qavatli binolar qurilgach, Gulobod dahasi shakllangan. 1991-yil 28-aprelda mahalla Sarxumdon tarixiy nomi bilan qayta tashkil qilingan. “Gulobod”, “Chorsu”, “Obinazir”, “Yangishahar”, “Kattahovuz”, Suzukota mahallalari bilan chegaradosh.

SAXOVAT – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 1984-yilda tashkil etilgan. Eski nomi – “Oqibat”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Saxovat” deb qayta nomlangan. “Nurhayot”, “Sug‘diyona”, “Qipchoq” mahallalari bilan chegaradosh.

Saxovat termini arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, *“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da* mazkur so‘z quyidagi ma‘nolarni ifodalashi qayd etiladi: a) “qo‘li ochiqlik, oliyhimmatlik, saxovatlik, saxiylik”; b) “tabiiy boylik; mo‘l hosil; to‘kinlik, mo‘llik” (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. III jild, 464-bet).

“Saxovat” mahallasi nomi insonning oliyjanoblik, saxiylik va boshqalarga yordam berishga tayyorlik kabi fazilatlarini ifodalaydi.

SEBZOR – Olmazor tumanidagi mahalla va mavzening nomi. Mahalla qadimiy Sebzor dahasida joylashgani sababli, 1994-yili shu nom bilan atalgan, eski mahallalar o‘rnida qurilgan yangi ko‘p qavatli binolardan tashkil topgan. “Yangi Sebzor”, “Namuna”, “Yuqori Sebzor” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi hudud tabiati bilan bog‘liq. “Sebzor” – qo‘shma toponim, *“seb”* va *“zor”* qismlardan (forscha *“seb”* – *“olma”*) hosil bo‘lgan bo‘lib, *“olmazor”* degan ma‘noni anglatadi. Ya‘ni Sebzor mavze olmazor, umuman bog‘lari ko‘p yer bo‘lgan. Aholisi asosan hunarmandchilik (kosibchilik, to‘quvchilik, chitga gul bosish va boshqalar), savdo-sotiq, shahar tashqarisidagi yerlarda esa bog‘dorchilik hamda dehqonchilik bilan shug‘ullangan.

Mavze “Sebzor”, “Yangi Sebzor”, “Yuqori Sebzor” mahallalarida joylashgan.

SEVINCH – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 2005-yil 29-aprelda Yunusota mahallasidan ajralib chiqqan mahallaga “Tinchlik” nomi berilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Sevinch” deb qayta nomlangan. Yunusota, Uvaysiy, “Ahilobod”, “Qadrton”, “Bobodehqon”, “Yangibog‘”, “O‘zbekiston mustaqilligi” mahallalari bilan chegaradosh.

“Sevinch” so‘zi o‘zbek tilida “shodlik”, “xursandchilik” yoki “quvonch” ma‘nolarini anglatadi. Mahalla nomi mahalliy aholi o‘rtasida ijobiy muhit yaratish maqsadida qo‘yilgan.

SEMURG' – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1994-yilda tashkil topgan. Eski nomi – “Mustaqillik”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Semurg'” deb qayta nomlangan. “Olmachi”, “Istiqlol”, “Boyqo'rg'on”, “Turon” mahallalari bilan chegaradosh.

Semurg' – sharq xalqlari og'zaki poetik ijodidagi afsonaviy qush obrazi; osmonda uchish, uzoq manzilni yaqin qilish haqidagi asriy orzu-umidlarning ramziy ifodasi. Dastlab Eron mifologiyasida paydo bo'lgan. “Avesto”da senemurg shaklida ishlatilgan. Semurg' o'zbek xalq ertak va afsonalarida ijobiy qahramonning do'sti, himoyachisi, hamrohi, uni “yetti zulmat ichi”dan olib chiquvchi fantastik qush sifatida gavdalanadi. Turkiy xalqlarda Semurg'ning Humo, Anqo, Davlat qushi, Marqumomo, Kuntubulg'on, Bulbuligo'yo va boshqa variantlari bor.

SERGELI – Sergeli va Yangiheyot tumanlaridagi mavzelar nomi. Toshkentning shaharsozlik siyosati doirasida yangi mavzelnarni qurish jarayonida tashkil etilgan va o'zining geografik joylashuviga qarab nomlangan. Loyihalash va qurilish ishlari 1970-yildan boshlangan. 4-9 qavatli turar joy binolari turkumlari orasida yashil zonalar joylashtirilgan.

Mavzelar nomi o'zbek va qozoq xalqlari tarkibiga kirgan *sergeli* (*sergili*) qabilasi nomidan olingan.

SOBIROBOD – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda tashkil topgan. “Nurmakon”, “Yo'layriq”, “Tiklanish”, “Astrobod”, “Islomobod”, “Uchqahramon”, “Billur” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla fuqarosi Sobirota ilgari tashlandiq to'qayzor bo'lgan maydonni obod qilib, daraxtlar o'tkazgani, kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatgani uchun mahallaga uning nomi berilgan.

SOFDIL – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – “Temiryo'lchi”. Toshkent viloyati Zangiota tumanida 1996-yilda tashkil topgan. Mahalladagi O'zgarish dahasida joylashgan 3 ta ko'p qavatli uylarni “O'zbekiston temir yo'llari” kompaniyasi o'z ishchi-xizmatchilariga qurib topshirgani va ularda asosan temir yo'l ishchilari yashayotganligi uchun “Temiryo'lchi” deb nomlangan. Hududdagi asosiy ko'chalardan biri nomi bilan uyg'unlashtirish maqsadida, 2016-yilda “Sofdil” deb qayta nomlangan. “Sug'diyona”, “Ziynat”, “Nilufar”, “Sohibqiron”, “Humo”, “Ittifoq”, “Navqiron”, “Mash'al” mahallalari bilan chegaradosh.

Ushbu mahalla nomi o'zining ma'nosi bilan aholi orasidagi samimiylilik, halollik va poklikni aks ettiradi. “Sofdil” so'zi o'zbek tilida “toza qalbli”, “samimiy” yoki “xolis niyatli” ma'nolarini anglatadi.

SOHIBQIRON – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 1992-yilda Amir Temur nomi bilan tashkil topgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Sohibqiron” deb qayta nomlangan. “Sug'diyona”, “Yangi Sergeli”, “Ziynat”, “Sofdil” mahallalari bilan chegaradosh.

“Sohibqiron” so'zi arab tilida “yulduzlar bir xil joylashuvga kelgan paytda, qiron soatda tug'ilgan buyuk shaxs” yoki “yozuvchi taqdirga egalik qiluvchi qah-

ramon” ma’nolarini anglatadi. Eng mashhur sohibqiron – Amir Temur. Bu sharaflı unvon Temurning buyukligi, harbiy va siyosiy salohiyatini ta’riflash uchun ishlatilgan.

SOHIL – Bektemir tumanidagi mahalla nomi. Toshkent viloyati O’rta Chirchiq tumanidan shahar hududiga o’tkazilgan. Eski nomi – Alisher Navoiy. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Sohil” deb qayta nomlangan. “Bektemir”, “Ustozlar”, “Oltintopgan”, “Musaffo”, “Nurliyo‘l” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi uning geografik joylashuvi bilan bog‘liq bo‘lib, “sohil” so‘zi o‘zbek tilida “daryo yoki suv havzasining bo‘yidagi qirg‘oq” ma’nosini anglatadi.

SUVSOZ (SUVSOZ-1, 2, 3, 4, 5) – Bektemir tumanidagi mavzelar nomi. Abay, “Iqbol”, “Zilola”, “Mirishkor”, “Rohat” mahallalarida joylashgan.

Mazkur hududda 1971-yili “Suv mash” – nasos va suv xo‘jaligi uchun jihozlar yetkazib beruvchi korxona ishga tushirilgan. Shuning uchun daha nomi Suvsoz deb atalgan. 2024-yilda obyekt turi mavzega o‘zgartirilgan.

SUG‘DIYONA – Sergeli tumanidagi mahalla va mavzening nomi. Mahalla dastlab “Obihayot” deb atalgan. Mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Sug‘diyona” deb qayta nomlangan. “Qut-baraka”, “Nurhayot”, “Yangi Sergeli”, “Saxovat”, “Eski Jaloyir”, “Ko‘hna Qumariq”, “Ittifoq”, “Qipchoq”, “Sohibqiron”, “Sofdil” mahallalari bilan chegaradosh.

Sug‘diyona mavzesi 2023-yilda tashkil etilib, Sug‘diyona mahallasida joylashgan.

Sug‘diyona – Markaziy Osiyodagi qadimiy tarixiy hudud. Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida joylashgan bo‘lib, janubi-sharqda Baqtriya, shimoli-g‘arbda Xorazm bilan chegaradosh bo‘lgan. VIII asrning boshlarida bosib olinib, Arab xalifaligining bir qismi bo‘lgan. IX asrdan boshlab Somoniylar davlati tarkibiga kirgan. Hozirgi vaqtda Sug‘dning sobiq hududida O‘zbekiston (Sug‘dionaning markazi Samarqand shahri) va Tojikiston (Sug‘d viloyati hududi) joylashgan.

SUZUKOTA – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Mahalla 1940-yilgacha Suzukota nomi bilan atalgan. So‘ngra “Komintern”, Bauman, “Qahramon”, “Obod” degan nomlar bilan yuritilgan. 1991-yil oxiridan yana hozirgi nom bilan atalgan. Mahalla hududida Suzukota jome masjidi bor. “Sarxumdon”, “Qoratosh”, “Kattahovuz”, “Eshonguzar”, “Chorsu”, Zangiota, “Samarqand Darvoza” mahallalari bilan chegaradosh.

Suzukota nomi bilan mashhur bo‘lgan bu zotning asl ismlari Mustafuqul bo‘lib, ulug‘ valiullohlardan bo‘lgan. Suzukota mashhur Yassaviya tariqati asoschisi Xoja Ahmad Yassaviyning nabirasi, ya’ni qizi Gavhari Hushtojning suyuqli farzandi bo‘lib, 1140-yilda Sayramda tavallud topgan. Ahmad Yassaviy hazratlari bu nevarasini juda yaxshi ko‘rib, doimo “suzugim” (suyukligim) deb ataganlaridan bu nom u zotga taxallus bo‘lib qoladi.

Suzukota voyaga yetganlaridan soʻng, otalari Ahmad al-Qorachiqiy Shayxning tavsiyasiga koʻra, Shosh vohasiga safar qilib, qadim Shosh kentining chekkasidagi bir mahallada muqim yashab qoladilar. Hududdagi kimsasiz, tepalik va jarliklardan iborat boʻlgan yerlarni oʻzlashtirish va obod qilish uchun, Suzukota tugʻilgan yurtidan qorilar, usta-hunarmandlar va yaqin birodarlarini olib kelib, yangi uy-joylar qurdirib, yangi mahallaga asos solgach, ilm va hunarni keng omamaga joriy qilishni boshlab yuboradilar.

Suzukota diniy taʼlim berishdan tashqari, oʻz oʻquvchilaridan albatta biror-bir dunyoviy kasbni egallashni ham talab qilgan. Ushbu majburiyat ularning kelajakdagi farovon oilaviy hayotining kaliti boʻlgan, chunki hunarmandchilik orqali yaxshi daromad topish mumkin edi. Mahallada yashovchi koʻplab hunarmandlar keyinchalik boshqa shaharlarda yashab, ishlay boshladilar va bu mahalla hunarmandlarning birinchi va eng mashhur maskaniga aylandi. Oʻsha ustalarning avlodlari hanuzgacha ushbu mahallada yashab, bobolarining hunarini davom ettirishmoqda.

SULTONIYA – Mirzo Ulugʻbek tumanidagi mahalla nomi. 1979-yilda “Gulzor” nomi bilan tashkil etilgan. Hududdagi asosiy koʻchalardan biri nomi bilan uygʻunlashtirish maqsadida, 2016-yilda “Sultoniya” deb qayta nomlangan. “Yalangʻoch”, “Katta Qorasuv”, Shukur Burhonov, “Shoʻrtepa”, “Chimyon” mahallalari bilan chegaradosh.

Sultoniya – sulton bilan bogʻliq joy, yaʼni Sultonlar qalʼasi yoki Sultonlar shahri maʼnosini anglatadi. Sultoniya – Eronda hukmronlik qilgan Hulokuiylar davlati poytaxti (XIV asr). Shahar qurilishi sulton Argʻun davrida (1284–91) boshlanib, Oʻljoytuxon hukmronligi vaqtida (1304–16) yakunlangan. Sultoniya beshta muhim karvon yoʻllari tutashgan yerda joylashgani tufayli XIV asrda uning ahamiyati kuchaygan. Amir Temur Yaqin va Oʻrta Sharqqa yurishlari chogʻida Sultoniya qarorgoh qurgan. Mirzo Ulugʻbek shu shaharda tugʻilgan. Hozirgi Sultoniya Eronning shimoli-gʻarbida Zanzon va Qazvin shaharlari oraligʻida joylashgan. 2005-yilda YUNESKO Sultoniyani Umumjahon merosi obyektlari roʻyxatiga kiritgan.

SULTONOBOD – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 1970-yillarda tashkil topgan. Toshkent viloyati Zangiota tumanidan shahar hududiga oʻtkazilgan. Eski nomi – “Qorasuv”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Sultonobod” deb qayta nomlangan. “Qoʻshqoʻrgʻon”, “Eski Jaloyir”, “Koʻhna Qumariq”, “Asrobod”, “Xontepa”, “Xonobodtepa”, “Ziyolilar”, “Nomdanak” mahallalari bilan chegaradosh.

Sultonobod nomi mahalla faxri boʻlgan marhum Sultonota Norxoʻjayev nomini abadiylashtirish maqsadida tanlangan. Sultonota mahalla koʻchalarini barpo etishda, suv quvurlarini tortishda, gaz taʼminotini oʻtkazishda oʻzining saʼy-harakatlari bilan nom qoldirgan.

Obod – ba’zi otlarga yoki ayrim sifatlariga qo’shib joy nomini yasaydigan, “obodonlashtirilgan”, “o’zlashtirilgan”, “gullab-yashnagan”, “go’zal” ma’nosi-dagi so’z. Obod so’zi shahar, qishloq, umuman, aholi manzilgohlariga nisbatan ishlatiladi.

SO’LIM – Yashnobod tumanidagi mavze nomi. 2023-yilda tashkil etilgan. “O’qchi-Olmazor” mahallasida joylashgan.

Mavze nomi hududning tabiiy go’zalligi va yashash uchun qulay sharoitlariga ishora qiladi. “So’lim” so’zi o’zbek tilida “chiroyli, go’zal, xushmanzara” ma’no-larini anglatadi. Ushbu nom mavze atrofidagi tabiiy yashil muhit, xushhavo joylar yoki mahallaning umumiy qulayligini ifodalash uchun tanlangan.

TABASSUM – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1974–75-yillarda tashkil topgan. 1993-yil qayta tashkil etilgan. “Shodiyona”, “Umid”, “Tepaguzar”, “G’alaba” mahallalari bilan chegaradosh.

Tabassum mahallasining nomi arab tilidan kelib chiqqan bo’lib, u “kulgi”, “yuz ochish” yoki “quvonch” degan ma’nolarni anglatadi. Bu nom mahalladagi ijobiy muhit, quvonchli va samimiy yashash tamoyillarini ifodalash uchun tanlan-gan.

TAQACHI – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1950-yillarda bu hududda “Oktyabr” kolxozi bo’lib, sholi, bug’doy ekilgan, uzumzor bo’lgan. 1966-yildagi zilziladan so’ng Toshkentning “Oloy” bozori, Shivli mavzeidagi aholiga shu hududdagi yer ajratib berilgan. “Taqachi” mahallasi hozirgi “Ko’rkamobod” mahallasi bilan qo’shib, Oybek mahallasi deb yuritilgan. Keyinchalik mahalla 5 ga bo’linib, 2005-yilda “Taqachi” nomi bilan atala boshlagan. Hayratiy, “Beshqayrag’och”, “Oqmasjid”, “Hojiobod”, “Latifguzar”, “Ko’rkamobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Tarixiy ma’lumotlarga ko’ra, qadimda Toshkentning shimoli-g’arbiy yo’na-lishi bo’ylab shaharga kirib kelayotgan otli karvonlar shu joyda to’xtab, otlariga taqa qoqtirib olganlar. Taqachi nomining kelib chiqishi shundan. Taqachi – taqa yasaydigan va otlarga taqa qoqadigan temirchi ma’nolarini anglatadi.

TARAQQIYOT – Olmazor tumanidagi mahalla va mavzelarning nomi. 1960-yilgacha bu hudud Toshkent tumaniga qarashli bo’lgan. 1960-yilda Toshkent shahri Oktyabr rayoni (hozirgi Shayxontohur tumani) ixtiyoriga o’tgan va yangi tashkil etilgan mahallaga Oxunboboyev nomi berilgan. 2005-yil oktyabrda “yuksalish, olg’a harakatlanish, rivojlanish, o’sish” ma’nosini anglatadigan “Taraqqiyot” nomiga o’zgartirilgan. “Gulsaroy”, “Oltinsoy”, Ibrohimota, “Xonchorbog’”, Miskin, “Qorasaroy”, Islomota, “Guruchariq”, G’ani A’zamov mahallalari bilan chegaradosh.

Tumandagi Taraqqiyot-1, 2, 3, 4 mavzelari “Taraqqiyot” mahallasida joy-lashgan. Mavze nomi jamiyat, iqtisodiyot, fan-texnika va boshqa sohalar-da gi yuksalish va ilgarilash jarayonlarini, hududning ijtimoiy-iqtisodiy o’sishga intilishini ifodalaydi.

TARNOVBOSHI – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1958-yil 1-uy qurish kombinati qurilishi munosabati bilan yerlik aholiga Tarnaushtepaning janubi-sharq tomonidan yer ajratib berilgan. 1966-yildagi Toshkent zilzilasi natijasida 2-uy qurish kombinati qurilishi munosabati bilan shu hududdagi sobiq “Pobeda” kolxozi o‘rnida tashkil etilgan “XXI partsyezd” sovxozi ishchilari uchun yer uchastkalari ajratilishi sababli, “Qozoq mahalla” vujudga kelgan. 1968-yilda mahalla nomi “Tarnovboshi” deb o‘zgartirilgan. “Behizor”, “Yanginur”, “Mirishkor”, “Olmos”, “Katta Yangiobod”, “Yangiqo‘rg‘on”, “Shohsanam” mahallalari bilan chegaradosh.

“Tarnovboshi” so‘zi ikki qismdan tashkil topgan: “tarnov” va “boshi”. “Tarnov” – bu suvni tomdan yerga olib tushish uchun mo‘ljallangan yo‘lakcha, ya’ni yomg‘ir suvlarini oqizish uchun ishlatiladigan qurilma. “Boshi” esa biror narsaning yuqori qismi yoki boshlanishini anglatadi. “Tarnovboshi” so‘zi tarnovning boshlanish qismi yoki uning yuqori qismi ma’nosini bildiradi.

TAXTAPUL – Olmazor tumanidagi mavze nomi. “Chilto‘g‘on” mahallasida joylashgan.

“Taxtapul” – forscha qo‘shma toponim (“taxta” va “pul”), “yog‘ochko‘prik” ma’nosini anglatadi.

TAXTAPUL – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Qadimiy mahalla Sebzor dahasida bo‘lgan. “Teshikqopqa” (Darvishakqopqa), “Tarnovboshi”, Kohota, “Chilto‘g‘on” mahallalari bilan chegaradosh bo‘lgan. Bir chekkasi shahar mudofaa devoriga tutashgan, shahar darvozalaridan biri – Taxtapul darvoza shu yerda bo‘lgan. Mazkur darvozaning nomi Muhammad Solihxo‘ja XIV asr oxiri – XV asr boshi uchun bergan ro‘yxatida ham bor. Darvozaning nomi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida chop etilgan yozma va kartografik manbalarda ham aks etgan. K.Miller ro‘yxatida u “Taxtakus” shaklida yozilgan.

Arxiv materiallariga ko‘ra, mahalla 4 qism (1-Taxtapul, 2-Taxtapul-mo‘g‘ol, 3-Taxtapul, Yuqori Taxtapul)ga bo‘lingan. Ularda jami 446 kishi yashagan. 3 ta mozor (Taxtapul, Ko‘kto‘nliota, Azizlarxo‘ja) bo‘lgan. Aholisi, asosan, o‘zbeklar bo‘lib, savdo-sotiq, shahar tashqarisidagi yerlarida dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanishgan. Toshkentda baqqollik do‘konlari, choyxonalar, 2 tegirmon, juvozxona va boshqalar bor edi (XX asr boshi).

Hozirgi “Taxtapul” mahallasi “Chilto‘g‘on”, Miskin, “Minor”, Kohota, “Turkqo‘rg‘on”, “Labzak” mahallalari bilan chegaradosh. Nomi Kaykovus kanaliga qurilgan yog‘och ko‘prik bilan bog‘liq bo‘lgan. Davlat arbobi Husnitdin Asomov, dorbozchi Erkin Toshkanboyev, Zaripovlar sulolasi, yozuvchi Adham Rahmat shu mahallada yashab o‘tishgan.

TASHABBUS – Yangiheyot tumanidagi mahalla nomi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2019-yil 3-maydagi SQ-418-III-son qarori bilan Toshkent viloyati Zangiota tumanidan Toshkent shahrining Sergeli tumaniga qo‘shilgan hamda Sergeli tumanidagi mahallalarning hududiy chegaralarini qayta

ko'rib chiqish hisobiga Yangihayot tumaniga o'tkazilgan. Habibiy, "Yuqori Darxon", "O'zgarish", "Yangi Darxon", "Yangiturmush", "Yangi Umid" mahallalari bilan chegaradosh.

"Tashabbus" – biror ishga boshlovchi, da'vat etuvchi sa'y-harakat, g'ayrat ma'nolarini anglatadi. Bu nom mahalla aholisining faolligi va tashabbuskorligini ifodalash maqsadida berilgan.

TASHISTI – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1987-yilda jamoatchilik asosida tashkil etilgan. Mahalla nomi qozoq millatiga tegishli qabila nomi bilan atalgan. 2021-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga o'tkazilgan. "Arg'in", "Mohirlar", "Jarboshi" mahallalari bilan chegaradosh.

Isti (qozoqcha *istı*, shuningdek eskirgan *usut*, *isut*) – hozirgi qozoq xalqi tarkibiga kiruvchi Katta juz qabilalaridan biri. Bu haqda birinchi eslatma "Tarixi Faxr-i Mudabbir"da keltirilgan (XIII asr). Isti qabilasi haqidagi keyingi ma'lumotlar 1748-yilga to'g'ri keladi (Katta juz urug'lari ro'yxatida), u yerda 10 urug' orasida "isti uysun" sifatida qayd etilgan. Isti qabilasi 1845-yildagi Katta juz sultonlari, biylari va faxriy qozoqlarining birinchi ro'yxatida ham uchraydi. Bu yerda uning ikki asosiy bo'limi birinchi marta ko'rsatilgan: oyik va tilik. Qabilaning qadimiyligini og'zaki xalq nasabnomalari ishonchli tarzda tasdiqlaydi, ularga ko'ra, Isti ismli qabila asoschisi Baydibekning nabirasi bo'lib, u o'zi afsonaviy Uysunning nevarasi, butun Katta juzning avlodi bo'lgan. Bu yerda istiyarning ajdodlari miloddan avvalgi III asrdan xitoy manbalaridan ma'lum bo'lgan qadimgi usunlar konfederatsiyasi tarkibiga kirganligi aniq ko'rsatilgan.

TEMIRYO'LCHILAR – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. Shimoliy vokzal va aeroport oralig'ida joylashgan. O'tmishda mahalla hududida temir yo'l ustaxonalari bo'lgan, ular keyinchalik "Oktyabr inqilobi" nomli zavodga aylangan. Mahalla hududidan Toshkent-Turkmanboshi temir yo'lining asosiy tarmog'i o'tgan bo'lib, u respublikaning barcha viloyatlarini birlashtirgan. Mahalla markazidan Temiryo'lchilar ko'chasi o'tgan, mahallaning nomi shundan olingan. Mahallaning dastlabki aholisi, asosan, O'rta Osiyo temir yo'l boshqarmasi tizimi ishchi-xizmatchilari bo'lgan. "Navro'z", "Tong yulduzi", "Zaminobod", "Birodarlik", Banokatiy, "Istiqlobobod", "Baynalmilal" mahallalari bilan chegaradosh.

TEMURIYLAR – Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla nomi. Mahalla Toshkent viloyati Orjonikidze rayoniga qarashli sovxoz yerlarida joylashgan bo'lgan. 1966-yilda sobiq "Toshkent traktor zavodi" hududi kengayishi sababli, uy-joyi buzilgan aholiga sovxoz yerlaridan uy-joy qurish uchun yer ajratilgan. 1966–1990-yillarda mahalla "Svobodniy" posyolkasi deb atalgan. 1990-yillardan keyin mahalla hududi ancha kengayib, "Gulzor-3" nomi bilan atala boshlagan. 1993–94-yillarda yangi turar joy binolari qurilgan, shu davrda mahallaga sohibqiron Amir Temur nomi berilgan. Mahalla 2021-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga o'tkazilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda "Temuriylar" deb qayta nomlangan. "Gulzorobod", "Gul-

sanam”, “Geologlar”, “Sarbon”, “Yangi Avayxon”, “Alisherobod”, “Jasorat”, “Katta Qorasuv”, Avayxon, Alisher Navoiy mahallalari bilan chegaradosh.

Temuriylar – 1370–1506-yillarda hukmronlik qilgan yirik va qudratli sulolaning nomi. Amir Temur ibn Taragʻay Bahodir asos solgan. Poytaxti Samarqand va Hirot boʻlgan. Temuriylar davlati kuchli turk (oʻzbek) davlati boʻlib, ular davrida ilm-fan, hunarmandchilik beqiyos rivojlangan. Bu nom mahalla aholisi orasida tarixiy merosni eʼzozlash va milliy qadriyatlarni hurmat qilishni anglatadi.

TEPA – Yakkasaroy tumanidagi mahalla nomi. 1930 yillarda tashkil topgan. Oʻsha davrda mahallada bir necha Oliy Kengash deputatlari yashashgan va shu munosabat bilan “Deputat” mahallasi deb nomlangan. Mahalla hududida oʻtmishda Tepaqoʻrgʻon qalʼasi boʻlganligi sababli, 1992-yildan “Tepa” deb atalgan. Yunus Rajabiy, “Rakatboshi”, “Bogʻsaroy”, “Konstitutsiya” mahallalari bilan chegaradosh.

Taniqli sanʼatkorlar: Razzoq Hamroyev, Botir Zokirov, Saodat Qobulova, akademiklar: Shokir Alimov, Vosit Vohidov, Ahmad Ibrohimov shu mahallada yashashgan.

TEPAGUZAR – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1968-yildan Ahmadjon Nazarov nomi bilan atalgan. 1975-yilda ikki mahalla qoʻshilib, “Obod” nomi berilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Tepaguzar” deb qayta nomlangan. “Shodiyona”, “Shon-shuhrat”, “Yuqori Beshqoʻrgʻon”, “Tabassum”, “Gʻalaba”, “Mustaqil yurt” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi “tepa” (balandlik) va “guzar” (bozor yoki yigʻilish joyi) soʻzlaridan kelib chiqqan boʻlib, bu hududning geografik xususiyatlari yoki tarixiy ahamiyatini ifodalaydi.

Geografik nom tarkibidagi *tepa* soʻzi “doʻnglik”, “tepalik”, “choʻqqi”, “biron narsaning uchi, tepa qismi” degan maʼnolarni anglatadi. Shuningdek, yer sathidan baland, doʻng joy; tepalik, balandlik, biror joy, makonga nisbatan yuqoridagi joy (yer); koʻp miqdorda uyilgan narsalardan hosil boʻlgan balandlik, doʻnglik; paxsadan ishlangan qadimiy inshootlarning xarobalari va ularni toʻldirgan madaniy qatlamlardan hosil boʻlgan doʻnglik ham *tepa* deb ataladi.

Qadimgi turkiy tilda *toʻpu* – kallaning choʻqqisi demakdir. Turkiy tillarda *tepa*, *doʻboʻ*, *depe*, *toʻbe*, *doʻba*, *toʻbu*, tojik tilida *teppa*, oʻzbek shevalarida *teva*, *toʻba* shakllarida talaffuz qilinadi. Bu termin turlicha fonetik shakllarda Kavkaz, Volgaboʻyi, Ural togʻlari atroflari, Qozogʻiston, Oʻrta Osiyo, Sibir, Yaqin Sharq, Bolqon yarimorolida koʻplab toponimlar hosil qilgan. Shu bilan birga *tepa* *teva* – *tuya* shaklini olgan (Tuyaboshi, Tuyaguzar); yoki urugʻ-qabilaning tarmoqlari – toʻp yoki *toʻpa* oʻzgarib *tepa* boʻlib ketgan.

Toponim tarkibidagi *guzar* soʻzi esa shahar, qishloq va mahallalarda koʻchalar kesishgan, chorrahalarda joylashgan, savdo va xizmat koʻrsatish rastalari boʻlgan gavjum, serqatnov, obod joy demakdir.

TEPAQO‘RG‘ON – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. Qo‘rg‘ontepa mahallasidan ajralib chiqqan yangi mahalla. “Fidokor”, “Mehrjon”, “Qo‘rg‘ontepa”, “Zargarlik”, “Shirin” mahallalari bilan chegaradosh.

Tepaqo‘rg‘on – tepalikdagi qo‘rg‘on ma‘nosini anglatadi. Geografik nom tarkibidagi *tepa* so‘zi “do‘nglik”, “tepalik”, “cho‘qqi”, “biron narsaning uchi, tepa qismi” degan ma‘nolarni bildiradi. Atrofi devor bilan o‘ralgan mustahkam hovli qo‘rg‘on deb ataladi. Qo‘rg‘on so‘zining “mozor”, “qal’a”, “istehkom”, “qo‘ra” ma‘nolari ham bor.

TIKLANISH – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1985-yilda Toshkent tumani Oxunboboyev jamoa xo‘jaligi 10-brigadasi nomi bilan tashkil qilingan. 1994-yilda Toshkent shahri Yunusobod tumani tasarrufiga “Guliston” nomi bilan o‘tgan. Ushbu joydagi asosiy ko‘cha nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, 2016-yilda “Tiklanish” deb qayta nomlangan. “Sobirobod”, Ibrohimota, “Turkiston”, Hasanboy, “Astrobod”, “Islomobod”, “Hamkorobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Tiklanish – bu yo‘qolgan yoki zaiflashgan narsaning qayta jonlanishi, yangi quvvat bilan tiriklikka qaytishidir. Bu bahorda tabiatning yashnab ketishi, kasallikdan so‘ng sog‘aygan tananing yana quvvat topishi, yoki millatning o‘z madaniyati va qadriyatlarini qayta tiklab, yanada yuksalishi kabi oliyjanob jarayondir.

TINCHLIK – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. 1935-yilda “12-domkom” nomi bilan tashkil topgan. 1945-yilda Ikkinchi jahon urushi tugaganligi va unda g‘alaba qozonilganligi sharafiga mahalla “Tinchlik” deb atalgan. “Ilg‘or”, “Orzu”, “Jarariq”, “Zafarobod”, “Quyosh” mahallalari bilan chegaradosh.

Tinchlik – bu so‘z o‘zbek tilida jamiyatda, mamlakatda yoki butun dunyoda odamlar o‘rtasida totuvlik, xavfsizlik va osoyishtalik holatini anglatadi. Bu inson uchun eng ulug‘ ne‘matlardan biri hisoblanadi.

TINCHLIKOBOD – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1980-yilda tashkil topgan va “Tinchlik” nomi bilan atalgan. 2005-yildan hozirgi nomda qo‘llaniladi. “Xuroson”, Farhod, “Vatan”, “Guzar”, “Ko‘hna Cho‘ponota”, “Zargarlik”, “Shirin” mahallalari bilan chegaradosh.

“Tinchlikobod” so‘zi “tinchlik va osoyishtalik hukmron bo‘lgan, obod joy”, ya‘ni “xotirjam yashash uchun qurilgan obod maskan” ma‘nosini anglatadi. Bu kabi nomlar yaxshi niyat va tinch hayot tilagi ifodasi sifatida ko‘pincha shaharlar, qishloqlar, mahallalar, ko‘chalarga qo‘yiladi.

TIRSAKOBOD – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. XIX asr oxirida tashkil topgan. 1991-yil “Madaniyat” nomi berilgan. 2005-yildan “Tirsakobod” nomi tiklangan. “Yakkabog‘”, “Gavhar”, “Beshqo‘rg‘on”, “Katta Do‘mbirobod”, “Jo‘nariq”, “Yakkasaroy”, “Do‘mbirobod” mahallalari bilan chegaradosh.

“Tirsak” so‘zining ma‘nosi aniq emas, lekin u egri-bugri joy, burilish yoki geografik shakl bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ayrim hollarda “tirsak” so‘zi inson tanasidagi tirsak bilan bog‘liq bo‘lib, qo‘lning bilak suyagi bilan yelka suyagi

qo‘shiladigan, bukilib burchak hosil qiladigan joyi; narsalarning burchak hosil qilib bukilgan joyi yoki qismini anglatadi.

“Obod” – yashashga qulay, obod qilingan joy, qishloq yoki shahar degan ma’nolarni bildiradi. Tirsakobod – “egri-bugri yoki burilishli joydagi obod qishloq yoki mahalla” degan ma’noni anglatadi.

TOVKENTEPA – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga o‘tkazilgan. “Uchchinor”, “Mohirlar”, “Bog‘bon”, “Hilol” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi “Tov+kent+tepa” so‘zlarining birikishidan kelib chiqqan bo‘lib, “tov” – tog‘, “kent” – shahar va “tepa” – balandlik ma’nolarini anglatadi. Toponim hududning tabiiy geografik xususiyatlarini o‘zida aks ettirib, “tog‘ shah- rining tepasi” yoki “baland joyda joylashgan shahar, qishloq” degan ma’nolarga ega.

Boshqa fikrlarga ko‘ra, mahalla nomi Tovkattepa yodgorligi bilan bog‘liq. Tovkattepa – arxeologik yodgorlik (I–VIII va XI–XV asrlar); markazida qo‘rg‘on bo‘lgan, lekin atrofi mudofaa devori bilan o‘ralmagan manzilgoh. Qal’a va shah- ristondan iborat. Maydoni 6,5 gektar. Tovkattepaning sharqiy chekkasi – Tuzel qishlog‘i hududidadir. Yodgorlik Qovunchi madaniyatiga mansub hisoblanadi. Mingo‘rik yaqinidagi obod joylardan bo‘lgan. 1949-yil A.A. Potapov tomonidan qayd etilgan va o‘sha yili I.Baishev, V.Masson, 1957-yil V.Belousov, Y.Buryakov tekshirishgan. 1970-yilda D.G. Zilper va 1978–79-yillarda Tovkattepa arxeologik ekspeditsiyasi (Sh.Pidayev, O.Papaxristu) stratigrafik qazish ishlarini olib borgan.

TOLARIQ – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1976-yilda “Tolariq” nomi bilan tashkil topgan. “Yangi Qo‘yliq”, “Xalqobod”, “Chinor”, “Ziyonur”, “Yuksalish” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla hududidan Tolariq kanali oqib o‘tganligi bois shunday atalgan. Mazkur kanal Toshkent shahrining Yashnobod, Mirobod, Sergeli tumanlari hududlaridan oqib o‘tadi. 1960-yillarda Tolariq oqib o‘tgan yer maydonlarida keng dalalar, bog‘-rog‘lar, ekinzorlar bo‘lgan va shu joylar uning suvlari bilan sug‘orilgani bois, hududning nomini ham mahalliy aholi “Tolariq” deb atagan. Keyingi yillarda bu yerga sanoat obyektlari qurilib, ekinzorlar qisqarib ketgan bo‘lsa-da, joyning nomi saqlanib qolgan.

TONG – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – “Mustaqillikning 10 yilligi”. 2001-yilda Usmon Nosir mahallasidan ajralib chiqqan. Mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Tong” deb qayta nomlangan. “Go‘zal”, “Vatandosh”, “Mohinur”, “Parvoz”, Al-Buxoriy mahallalari bilan chegaradosh.

“Tong” mahallasi nomi ramziy va poetik ma’noga ega. “Tong” so‘zi yangi kun boshlanishi, yorug‘lik va umidni ifodalaydi.

TONG YULDUZI – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1962-yilda tash- kil etilib, “12-kvartal” deb yuritilgan. 1980-yillardan “Sharq yulduzi” nomida bo‘lgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Tong

yulduzi” deb qayta nomlangan. Cho’lpon, “Ma’rifat”, Furqat, “Temiryo’lchilar”, “Salor”, “Istiqlolobod”, “Baynalmilal”, “Inoqobod”, Jo’rabek mahallalari bilan chegaradosh.

Tong yulduzi – bu sahar qorong’uligini yorib chiqib, kunning boshlanishidan darak beruvchi yorqin yulduz. U umid va yangilanish ramzi bo’lib, zulmat ichra yo’l ko’rsatuvchi nur kabi porlaydi.

ToshGRES – Yunusobod tumanidagi mavze nomi. “Posira” mahallasida joylashgan. Mavze nomi Toshkent GRES – issiqlik elektr stansiyasi bilan bog’liq.

TOSHKENT – Yangihayot tumanidagi mahalla nomi. Mahalla Respublikamiz poytaxti – Toshkent shahri nomi bilan atalgan. “Fayzli”, “Chortoq”, “Zarbdor”, “Xushnud”, “Do’stlik” mahallalari bilan chegaradosh. “Toshkent” nomi obro’li, katta shahar, taraqqiyot markazi sifatida tanilgani uchun, mahalla aholisi ushbu nomni ramziy tarzda yangi qurilgan va obod mahallasiga tanlagan.

TOSHSELMASH – Yashnobod tumanidagi mavze nomi. “Mashinasozlar” mahallasida joylashgan. Mavze hududda joylashgan Toshkent qishloq xo’jaligi mashinalarini ishlab chiqarish zavodi – “Toshselmash” nomi bilan atalgan. Ushbu zavodning to’liq nomi – “Qishloq xo’jaligi mashinasozligi ishlab chiqarish birlashmasi”, “O’zbekmash” konserni birlashmasi tarkibida. Zavodda paxta terish mashinalari, ularning ehtiyot qismlari ishlab chiqarilib, kooperatsiya asosida mahsulotlar, xalq iste’moli buyumlari yetkazib berilishi yo’lga qo’yilgan. U 1927-yil ustaxonalar shaklida tashkil topib, 1931-yildan beri zavod sifatida faoliyat yuritib kelgan. Uzoq yillar davomida aholi o’rtasida ushbu zavod joylashgan hudud uning nomi bilan atalgan.

TRAKTORSOZLAR – Mirzo Ulug’bek tumanidagi mahalla va dahalarning nomi. Mahalla 2005-yil iyunda shu nom bilan tashkil etilgan. Ilgari mahallaga yaqin hududda traktor zavodi mavjud bo’lgan va mahalla aholisining aksariyati mazkur zavodda mehnat qilgan, mahalla nomi shundan kelib chiqqan. “Yuzrabot”, “Ahillik”, “Azamat”, Munavvarqori, “Beshkapa” mahallalari bilan chegaradosh.

Tumanda Traktorsozlar-1, 2, 4 dahalari mavjud bo’lib, “Azamat”, “Ahillik”, “Traktorsozlar”, “Uyg’onish”, “Yuzrabot” mahallalarida joylashgan.

TUZEL – Yashnobod tumanidagi mahalla, daha, mavzelarning nomi. Mahalla 1991-yilda tashkil topgan. Dastlab Mehnat Qahramoni Ikrom Akmalov nomi bilan atalgan. 2009-yil 21-apreldan hozirgi nomda yuritiladi. “Vatandosh”, “Uchchinor”, “Mohinur”, Amir Temur mahallalari bilan chegaradosh.

Tuzel dahasi 1985-yilda ko’p qavatli turar joy binolari qurilishi munosabati bilan tashkil etilgan. Dastlab “G’alabaning 40 yilligi” deb nomlangan. Joyning tarixiy nomini tiklash hamda daha, mavzelar nomini tartibga keltirish maqsadida, 2009-yilda “Tuzel” deb qayta nomlangan.

“Tuzel” tarixiy atama bo’lib, turkiy xalqlarda qadimdan tekislikdan iborat yer maydonlari “tuz yer”, “tuz el” (“keng hudud” ma’nosida ham qo’llaniladi) deyilgan.

Ma'lumki, Toshkent shahri va atrofidagi hududlardagi relyef o'r-qirlar, past-balandliklardan tashkil topgan. Masalan, Tuzel qishlog'i joylashgan hudud ancha tekis keng maydonlarni qamrab olgan. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida "tuz yer" – tekis yer, "tup-tuz yer" – tep-tekis yer, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ham shunday.

TO'YTEPA – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. Dastlab Usmon Yusupov deb nomlangan. Shu joydagi tarixiy To'ytepa nomidagi ko'cha bilan uyg'unlashtirish maqsadida, 2008-yilda "To'ytepa" deb qayta nomlangan. Cho'lpon, "Salor", "Oqibat", "Nur", "Qashqar", "Mingo'rik", "Shahrisabz", "Movarounnahr" mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi Toshkent viloyatidagi To'ytepa shahri (2017-yil 24-avgustdan shahar nomi Nurafshon deb o'zgartirildi) nomidan olingan. Taniqli toponimist H.Hasanovning fikricha, "To'ytepa" toponimining marosim ma'nosidagi "to'y" so'ziga aloqasi yo'q. Kulollar ishlatadigan sopol loyi ham to'y deyiladi. "Sopol gil" deb izohlashga bir qadar asos bor. Ammo Mahmud Koshg'ariy boshqacha izoh bergan: "To'y – askarlarning turar joyi. Xonto'y – xon askargohi". Shunga asoslanib, To'ytepa – "qal'a, qo'rg'ontepa, lashkartepa" ma'nolarida bo'lganligi ehtimolga ancha yaqindir.

Jumladan, Y.F. Buryakov, M.R. Qosimov, O.M. Rostovsevlarning "Toshkent oblastining arxeologik yodgorliklari" kitobida quyidagicha ma'lumot beriladi: "To'ytepadagi Mingtepada, g'isht zavodi o'rnida bir yarim kilometr ga cho'zilgan soztuproqdan qilingan qo'rg'onlar joylashgan. Bu joylar 1928-yilda M.E. Masson tomonidan tekshirilgan. Arxeologik qidiruv chog'ida qazish ishlari o'tkazilgan. Qo'rg'onlarning tarixi birinchi ming yillar o'rtasidagi davrga borib taqaladi".

TO'QIMACHI – Yakkasaroy tumanidagi mahalla nomi. 1960-yillar oxirida tashkil topgan. Muqimiy, "Dilbuloq", "Yakkasaroy", "Rakat", "Meros", "Muhandislar" mahallalari bilan chegaradosh.

1932-yili shu mahalla hududida to'qimachilik kombinati qurila boshlangan va 1934-yildan dastlabki mahsulotni bergan. Asosan ip-gazlamalar va turli iplar ishlab chiqarilgan. 1989-yilga kelib, uning tarkibida 2 ta yigiruv-to'quv, ip yigiruv va pardozlash fabrikalari, mexanika zavodi bo'lgan. Ushbu kombinat 1998-yil 24-fevralda "Toshkent to'qimachilik kombinati" ochiq aksiyadorlik jamiyati sifatida ro'yxatga olingan. Kombinatning asosiy faoliyati ip-gazlama ishlab chiqarishdan iborat bo'lgan. Biroq hozirgi kunda mazkur korxona faoliyati tugatilgan.

Shu bilan birga, Toshkent shahrida to'qimachilik sohasida kadrlar tayyorlash maqsadida 1932-yilda Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti tashkil etilgan. Ushbu institut to'qimachilik va yengil sanoat sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun mahallaga "To'qimachi" nomi berilgan.

TURKISTON – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1989-yilda hashar yo‘li bilan bunyod etilgan. Miskin, Ibrohimota, “Qo‘shchinor”, “Adolat”, “Tiklanish”, “Astrobod”, “Billur”, “Registon” mahallalari bilan chegaradosh.

Turkiston – Markaziy Osiyoning o‘rta asr tarixiy-geografik adabiyotlarda uchraydigan nomi. Manbalarda Turon va Turkiston atamalari o‘rnida qayd etilgan. 639-yil Turonda tuzilgan sug‘d hujjatida O‘rta Osiyo mintaqasining nomi sifatida ishlatilgan. “Turkiston” atamasi “O‘rta Osiyo” va “Movarounnahr” nomlaridan farqli ravishda nafaqat geografik, balki etnogeografik tushunchani anglatib, shuningdek, siyosiy-huquqiy ahamiyatga ham ega bo‘lgan. Arablar istilosidan so‘ng “Turkiston” toponimi o‘zining siyosiy-huquqiy ma‘nosini yo‘qotmagan. Uning siyosiy sarhadlari Shimol va Sharqqa, Arab xalifaligi, Qarluq va Uyg‘ur xoqonliklari bilan chegaradosh bo‘lgan yerlargacha yoyilgan. Ayni mana shu davlatlar endilikda Turkiston nomi bilan arab tarixchi-geograflari asarlarida (VIII–X asrlar) qayd etilgan.

TURKQO‘RG‘ON – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. Mahalla nomi o‘zbeklar tarkibidagi etnik guruh – turklar nomidan olingan bo‘lib, “turklar qo‘rg‘oni” degan ma‘noni anglatadi. O‘tmishda (XIV asr oxiri) Taxtapul darvozasi Turk darvoza deb yuritilgan, uni qo‘riqlash turk urug‘iga mansub soqchilarga topshirilgan. Mahalla XIX asr oxiri – XX asr boshlarida “Turk – yangi shahar” deb atalgan. Mahalla Yunusobod tumani chegarasi o‘zgarishi munosabati bilan 1980-yilda yangidan tashkil etilgan. “Yangiariq”, “Chilto‘g‘on”, Miskin, “Minor”, “Taxtapul”, Jomiy, Usta Shirin mahallalari bilan chegaradosh.

TURON – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 1992-yilda tashkil topgan. “Yangi Olmachi”, “Semurg‘”, “Boyqo‘rg‘on”, “Olmachi” mahallalari bilan chegaradosh.

Turon – turli xil manbalarda turli maqsadlarda va ma‘nolarda ishlatilgan tarixiy-geografik atama. Ayrimlar Turon ma‘nosida Movarounnahr, Turkiston, Markaziy Osiyo hududlarini nazarda tutadilar. O‘rta asrlar adabiyotlarida (Tabariy, Beruniy, Firdavsiy) Eron va Turon hududiy chegaralari Amudaryo orqali belgilanadi. Dastlab Avestoda qayd etilgan “tur” etnonimi keyinchalik Markaziy Osiyo dasht va tog‘ yerlarida yashovchi chorvador aholi bilan bog‘langan. Olimlarning fikriga ko‘ra, “turlar” tushunchasi – bu sakmassagetlarning dastlabki nomi bo‘lishi mumkin.

Ba‘zi tarixchi va geograflarning aytishicha, Turon – bu turklar, turkiy qabilalarning yurti degan ma‘noni bildirib, keyinchalik “Turkiston” tushunchasiga aylangan. Akademik A.Muhammadjonovning fikricha, “Turon” atamasi sug‘dcha – yer, tuproq, dala va dasht kabi ma‘nolarni bildirgan. Shunga ko‘ra, “Turon” toponimi pasttekislik, dala-yu dashtliklar, ya‘ni keng yaylovlar degan ma‘noni anglatgan.

UVAYSIY – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. Mazkur mahallaga 2005-yil 28-aprelda shoir Uvaysiy (1779–1845) nomi berilgan. “Sevinch”, “Qadrdon”, “Bobodehqon”, “Shoshtepa” mahallalari bilan chegaradosh.

O'zbek adabiyoti tarixida muhim o'ringa ega bo'lgan Jahon otin – Uvaysiy XVIII asr oxiri – XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan mashhur o'zbek shoirasidir. Uvaysiy asarlari o'zining latif mazmuni va dilkash badiiyligi bilan davrlar osha muxlislar qalbiga bitmas-tuganmas estetik zavq bag'ishlab kelmoqda. Ular xalq ommasi orasida keng yoyilgan, hofizlar, xonandalar tomonidan maqom va xalq ohanglari bilan hozirgacha kuylanib kelinadi.

O'ZBEKISTON – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. 1985-yilda tashkil topgan. “Yangi Beltepa”, “Katta Jarariq”, “Bo'ston”, “Eski Jarariq”, “Zafarobod”, Mirzo G'olib, “Shifokorlar”, “Chig'atoy-Oqtepa”, “Beltepa” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahallaga mamlakatimiz nomi berilgan. O'zbekiston (rasman: O'zbekiston Respublikasi) – Markaziy Osiyoning markaziy qismida joylashgan mamlakat. Poytaxti – Toshkent shahri. Maydoni – 448,9 ming kv. km. Umumiy aholi soni – 37 552 569 (01.01.2025).

O'ZBEKISTON MUSTAQILLIGI – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1980-yilda “O'zbekiston 50 yilligi” nomi bilan tashkil etilgan. 1991-yildan hozirgi nomda atab kelinadi. “Sevinch”, Yunusota, Ahmad Donish, “Bobodehqon” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi O'zbekiston Respublikasining mustaqillik bayramiga bag'ishlangan bo'lib, bu nom mamlakatimizning mustaqillik va erkinlikka bo'lgan intilishlarini ifodalaydi.

O'ZGARISH – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 1998-yilda tashkil topgan (Habibiy mahallasi tarkibidan ajralib chiqqan). Habibiy, “Yuqori Darxon”, “Bunyodobod”, “Tashabbus” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla qisman shu hududda joylashgan O'zgarish dahasi nomiga moslab qo'yilgan. O'zgarish dahasi ilgari ma'muriy-hududiy jihatdan Toshkent viloyati tarkibida bo'lgan.

“O'zgarish” termini “*O'zbek tilining izohli lug'ati*”da quyidagicha izohlana-di: “Taraqqiyot tarixida yuz beradigan keskin burilish, bir holatdan boshqacha holatga o'tish, o'zgacha holat yuz berishi” (O'zbek tilining izohli lug'ati, V jild, 137-bet).

UYG'ONISH – Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla nomi. 1990-yilda tashkil topgan. Munavvarqori, “Beshkapa”, “Ahillik” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi “uyg'onish” so'zidan olingan bo'lib, bu jamiyat yoki millatning ma'naviy, madaniy yoki intellektual rivojlanishi va tiklanishi jarayonini, o'zgarish va yangilanishni anglatadi.

UYSOZLAR – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1992-yil 12-aprelda “Binokor” nomi bilan tashkil etilgan. Bu nom 1965-yilda tashkil topgan Toshkent 1-uysozlar qo'mitasiga nisbat berilib qo'yilgan. Joydagi asosiy ko'cha nomi bilan uyg'unlashtirish maqsadida, 2016-yilda “Uysozlar” deb qayta nomlangan. “Yosh avlod”, “O'rtnamasjid”, “Mumtoz” mahallalari bilan chegaradosh.

Uysozlar – uylar, binolar va turli inshootlarni qurish, ta'mirlash yoki rekonstruksiya qilish bilan shug'ullanadigan shaxslar, qurilish sohasining asosiy mutaxassislaridir. O'zbekistonda uysozlar jamiyatda hurmatga sazovor kasb egalari hisoblanishadi, chunki ular odamlarga yashash uchun qulay va mustahkam shart-sharoit yaratib beradigan bunyodkorlar sanaladi.

O'QCHI – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Shayxontohur dahasidagi qadimgi mahallaning nomi ham “O'qchi” bo'lgan. “Mergancha”, “Olmazor”, “Tepaqishloq” mahallalari bilan chegaradosh bo'lgan. Toshkent tuproqko'rg'oniga yondoshgan. Bu yerda 100 dan ortiq xonadonlar bo'lgan. Aholisi, asosan, o'zbeklar (600 nafar kishidan ortiq) bo'lib, hunarmandchilik, jumladan, bo'zchilik, qizalish (ot yopig'i) tikuvchiligi, nilchilik (mato ranglash), katta ikki g'ildirakli Qo'qon arava o'qini yasash, degrezlik (cho'yangarlik), savdo-sotiq, shahar atrofidagi mavzelarda, xususan Qorasuv havzasida dehqonchilik (sholikorlik) va bog'dorchilik bilan shug'ullangan. XIX asrning 60–70-yillaridan mahallaning bir qismida mahalliy yahudiy savdogarlarning turar joylari, shahar bozorida esa Juhdrasta paydo bo'lgan. O'qchida bino qilingan 3 masjiddan biri juma, ya'ni Katta masjid nomi bilan yuritilgan. Mahalla guzarida novvoyxona, baqqollik va mo'rcha (hammom) hamda savdo rastasi bo'lgan. O'qchining janubi-sharqida Anhor bo'yida Toshkent shahrining Qo'ymas (Qatag'on) darvozasi joylashgan. Anhorning so'l sohilida qad ko'targan Tali Qo'ymas qo'rg'onini va darvozani Qatag'on va Qiyot urug'iga mansub o'qchi sarbozlar qo'riqlagan. Shu boisdan mahalla O'qchi nomi bilan yuritilgan. Uni kesib o'tgan savdo yo'li O'rko'cha, Qo'ymas (aholi og'zida esa Tuproqko'cha), keyinchalik Toshko'cha deb tilga olingan.

Hozirgi mahalla “Beshyog'och”, “O'rda”, “Olmazor”, “Xadra” mahallalari bilan chegaradosh. Mahallada davlat arbobi Akmal Ikromov, akademiklar: Sodiq Azimov, Sabohat Azimjonova, Karim Shoniyozov, Abdulahad Muhammadjonov, shoira Zulfiya Isroilova, Mehnat Qahramoni, usta Muhammadjon Yoqubov, yozuvchi Asqad Muxtor va boshqalar yashashgan.

O'QCHI-OLMAZOR – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. “Toshkent citi” xalqaro ishbilarmonlik markazi qurilishi munosabati bilan, shu hududda, ya'ni “Olmazor” va “O'qchi” mahallalarida yashovchi fuqarolar Yashnobod tumaniga ko'chirilib, uy-joy bilan ta'minlangan. Shayxontohur tumanidagi nomi bilan uyg'unlashtirish maqsadida, 2019-yil 12-yanvarda “Ma'rifat” mahallasi negizida yangi “O'qchi-Olmazor” mahallasi tashkil etilgan. “Ma'rifat” mahallasi bilan chegaradosh.

ULUG'BEK – Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla nomi. Mahalla nomi buyuk astronom va olim Mirzo Ulug'bek nomidan olingan. Ulug'bek shaharchasida joylashgan.

Mirzo Ulug'bek (asl ismi Muhammad Tarag'ay; 1394–1449) – buyuk o'zbek astronomi va matematigi, davlat arbobi, tarix, she'riyat, musiqa sohalari bilan ham shug'ullangan. Shohruxning o'g'li, Amir Temurning nabirasi. Ulug'bek hukm-

ronligi davrida (1410–1449) Samarqandda Ulug‘bek ilmiy maktabi yaratilgan. U yulduzlar jadvalini (“Ziji Ko‘ragoniy”) tuzgan. Quyosh va Oy harakatlarini to‘g‘ri hisoblagan.

UMID – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1998-yilda tashkil topgan. “Moyariq”, “Nihol”, “Paxta”, “Shodiyona”, “Tabassum”, “G‘alaba”, “Yangi Toshkent” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi “umid” so‘zidan olingan bo‘lib, bu yaxshi natijaga ishonch, kelajakka bo‘lgan intilish va yaxshilikka umidvorlik hissini anglatadi.

UNIVERSITET – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. Mahalla Talabalar shaharchasida joylashganligi va mazkur hududda asosan O‘zMU, TDTU binolari mavjudligi, hududda mazkur universitetlar va TDYU talabalari istiqomat qilganligi sababli, 1999-yil 4-fevraldan ramziy ma’noda shu nom bilan atalgan. “Zamon-dosh”, “Ziyokor”, “Orzu”, “Bo‘ston”, Mirzo G‘olib, “Allon”, “Ziyo” mahallalari bilan chegaradosh.

O‘RDA – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. 1996-yil shu nomda tashkil etilgan. “Beshyog‘och”, Yunus Rajabiy, “Janggoh”, “Shayxontohur”, “Labzak”, “Qashqar”, “Matonat”, “O‘qchi”, “Xadra” mahallalari bilan chegaradosh.

O‘rda – o‘rta asrlardagi shahar qal’asi; Toshkentning harbiy-ma’muriy markazi (IX–XIX asrlar). Dastlab, taxminan hozirgi Eskijo‘va maydoni hududida joylashgan. X asr geograflari (Ibn Havqal, Maqdisiy, Istahriy)ning yozishicha, shahar arki yoki shahriston (ko‘handiz)ning ikki darvozasi, ichida hokim saroyi, zindon bo‘lgan. XV–XVII asrlarda shahar hududining kengayishi munosabati bilan uning janubida – Beshyog‘ochdagi “Qoratosh” mahallasida yangi O‘rda qurilgan. XIX asrda u “Eski O‘rda” nomi bilan mashhur bo‘lgan. O‘rda qal’asi 10 ming askar sig‘ishiga mo‘ljallangan edi (maydoni qariyb 20 gektar). O‘rdada shahar va viloyat hokimi uchun maxsus qo‘rg‘on-qarorgoh joylashgan. Keyinchalik Toshkent uchun qo‘shimcha mudofaa devori qurilishi bilan O‘rda shahar tarkibiga kiritilgan.

O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning turli hududlarida “O‘rda” nomi bilan atalgan joylar odatda qadimgi hukmdor saroylari yoki harbiy qarorgohlar joylashgan hududlarga ishora qiladi.

O‘RIKZOR – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1990-yil 16-sentyabrda tashkil topgan. Mahalla hududida ilgari o‘rik daraxtlari serob bo‘lgan, mahalla nomi shundan olingan. Yusuf Sakkokiy, “Zarafshon”, “Katta Cho‘ponota”, “Ko‘ksaroy” mahallalari bilan chegaradosh.

O‘rikzor – ikki so‘zning qo‘shilmasidan tashkil topgan: o‘rik – O‘zbekistonda keng tarqalgan meva – o‘rik daraxti va uning mevasi. Zor – turkiy tillarda “zor” yordamchi qo‘shimchasi “katta miqdorda yetishtiriladigan joy”, “bog‘”, “maydon” ma’nolarini bildiradi. O‘rikzor – o‘rik daraxtlari ko‘p bo‘lgan bog‘, maydon yoki hudud, ya’ni o‘rik bog‘i degani.

O‘RTAMASJID – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1990-yilgacha “Nurafshon” mahallasi deb atalgan, 1990-yildan hozirgi nomda ataladi. Mahalla

nomi “o‘rtaliqdagi masjid” ma’nosini anglatadi. “Behizor”, “Nurafshon”, “Yosh avlod”, “Qo‘yliqobod”, “Uysozlar”, “Yangiqo‘rg‘on”, “Katta Qo‘yliq”, “Mumtoz” mahallalari bilan chegaradosh.

USTA SHIRIN – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1930–1946-yillarda mahalla hududi 20 gektardan ortiq maydonga ega bo‘lgan bog‘lardan tashkil topgan. Bu bog‘lar asosan shayxontohurliklar, sebzorlik va oqtepaliklarning bog‘ uylari bo‘lgan. O‘sha paytda mahalla nomi Korxojaota (asli Qoraxo‘jaota) bo‘lgan. Ikkinchi jahon urushi tugashi bilan bu bog‘lar xususiy uy-joy qurish uchun aholiga bo‘lib berilgan. 1960-yillar oxiri – 70-yillar boshida mahalla nomi o‘zgartirilib, “1-Kislovodskiy” deb nomlangan. 1992-yilda mahallaga ganch o‘ymakorligi san’atining taniqli namoyandalaridan biri, O‘zbekiston xalq me’mori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Usta Shirin nomi berilgan. “Iftixor”, “Turkqo‘rg‘on”, “Yangiariq”, “Minor” mahallalari bilan chegaradosh.

USTOZLAR – Bektemir tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumanidan shahar hududiga o‘tkazilgan. Eski nomi – “Namuna”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Ustozlar” deb qayta nomlangan. “Sohil”, Husayn Boyqaro, “Bektemir”, “Zabardast”, “Nurliyo‘l”, “Gulbog‘” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomining asosi “ustoz” so‘zi bo‘lib, uning bunday atalishi hududda ta’lim va ilm-fan sohasida faoliyat yurituvchi kishilarning ko‘pligi bilan bog‘liqdir.

O‘TKIR – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1940-yilda tashkil topgan. “Beshqayrag‘och”, “Zarafshon”, “Zulfizar”, “Istirohat”, “Jarbuloq”, Ibrat mahallalari bilan chegaradosh.

Geografik nomning etimologiyasi aniq emas. O‘tkir termini “*O‘zbek tilining izohli lug‘ati*”da quyidagicha izohlanadi: “Yaxshi kesadigan; keskir; uchli; ruhiy va boshqa jihatdan ta’sir darajasi, kuchi yuqori; qobiliyatli, imkoniyati yuqori darajali; yuqori saviyali; kuchli.” (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, I jild, 179-bet).

UCHQAHRAMON – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1988-yilda tashkil etilgan bo‘lib, Davlat avtomobil nazorati xodimlari M.Gashimov, M.Matchonov va O.S. Asqarov o‘z xizmat vazifalarini bajarish paytida fojiali halok bo‘lgani munosabati bilan ularning nomlarini abadiylashtirish maqsadida “Uchqahramon” deb nom berilgan. “Sobirobod”, “Yo‘layriq”, “Islomobod”, “Barhayot”, “Kulolqo‘rg‘on” mahallalari bilan chegaradosh.

UCHTEPA – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1967-yilda tashkil topgan. Mahalla aholisi qadimdan dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan. “Chamanzor”, Yusuf Sakkokiy, “Zarafshon”, “Hojiobod”, “Ko‘rkamobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Uchtepa – ilk o‘rta asr qishloq xarobasi (VI–VIII; X–XV asr boshi), Oqtepa maydonidagi “Mebel” do‘koni o‘rnida joylashgan uchta tepalikdan iborat bo‘lgan. Binkat atrofidagi hunarmandlar yashaydigan qishloq bo‘lib, asosan sopol va

shisha buyumlari bilan shuhrat qozongan. Mo'g'ullar istilosi (XIII asr boshi)dan so'ng, XIV–XV asrlarda hayot qisman tiklangan. 1966-yilgi Toshkent zilzilasidan so'ng shahar va uning atrofida keng qurilish ishlari olib borilishi jarayonida tekislanib tashlangan. Uchtepa nomi shundan kelib chiqqan. Uchtepa – “uchta tepalik”, “uchta baland joy” degan ma'nolarni anglatadi.

UCHUVCHILAR – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. “Qorasuv”, “Qo'shqo'rg'on”, “Sariko'l”, “Oltinvodiy”, “Oquy”, “Zaminobod”, “Birodarlik”, Banokatiy mahallalari bilan chegaradosh.

Mahallaning nomi tumanda mavjud Aviashaharcha (Uchuvchilar shaharchasi) bilan bog'liq.

UCHCHINOR – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga o'tkazilgan. Eski nomi – “Chinor”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Uchchinor” deb qayta nomlangan. “Go'zal”, “Tuzel”, “Bog'bon”, “Tovkentepa”, “Mohinur”, Al-Buxoriy mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla guzari oldida 200 yillik tarixga ega uchta chinor daraxti borligi va chinor daraxti mahalla siymosiga aylangani uchun, mahalla shunday nomlangan.

FAZOGIR – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 2015-yilda “Aviasozlar” mahallasidan ajralib chiqqan. Mahalla nomi tuman hududida faoliyat yuritgan “Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi” bilan bog'liq. “Parvoz”, Maxmur, “Beshariq”, “Birlashgan”, “Asalobod”, “Xosiyatli”, “Aviasozlar” mahallalari bilan chegaradosh.

Fazogir – bu ikki so'zning qo'shilmasidir: *fazo* – arabcha “bo'shliq, osmon, koinot” ma'nolarida qo'llaniladi. Turkiy tillarda asosan osmon, koinot, atrof-muhitdagi keng hududni anglatadi. -gir – o'zbek tilida qo'shimcha sifatida ishlatiladi va “shu narsa bilan bog'liq inson yoki shaxs” ma'nosini beradi.

FAYZIOBOD – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda tashkil topgan. 1955-yilda Toshkent aeroportining kengaytirilishi munosabati bilan, uning atrofidagi qishloqlar ko'chirila boshlangan. Jumladan, “Qizil Qo'yliq” qishlog'i aholisi hozirgi mahalla hududiga ko'chirilib, “Guliston” mahallasi deb atalgan. Keyinchalik mahalla nomi “Fayziobod” deb o'zgartirilgan. “Xalqobod”, “Oquy”, “Bilimdon”, “Qo'shqo'rg'on”, “Bunyodkor”, “Yangidavr”, “Ziyonur”, “Yuksalish” mahallalari bilan chegaradosh.

Fayz – “*ko'rkamlik, jozibadorlik, nur*”, obod – “*suvli, suv yetarli joy, obodon*” ma'nosini anglatadi. Fayzobod – “fayzga to'la joy”, “baraka va farovonlikka boy maskan”, “obodu to'kin joy” deganidir.

FAYZLI – Yangihayot tumanidagi mahalla nomi. Sergeli tumanidan qisman o'tgan “Qipchoq” va “Daryobo'yi” mahallalari qo'shilishi hisobiga 2021-yilda tashkil etilgan. “Quruvchilar”, “Daryobo'yi”, “Xonobodtepa”, “Nurhayot”, Xo'ja Uchqun, “Toshkent”, “Chortoq”, “Ittifoq”, “Binokor”, “Zarbodor”, “Yo'ldosh”, “Qipchoq”, Al-Farg'oniy mahallalari bilan chegaradosh.

“Fayzli” mahallasi nomi o‘zbek tilidagi “fayz” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu so‘z odatda farovonlik, baraka, go‘zallik va totuvlikni ifodalaydi. Sifat yasovchi *-li* qo‘shimchasi “bor”, “ega” degan ma‘noni beradi. Fayzli – barakaga to‘la, to‘kin, yaxshilikka boy, ruhiy ravnaqli, obod va nurli degan ma‘nolarni bildiradi va bu mahallada tinch va barokatli hayot, odamlarning o‘zaro mehr-oqibati alohida qadrlanishini bildiradi.

FAROVON – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1993-yildan 2016-yilgacha “O‘zbekiston” deb yuritilgan. XIX asrning 2-yarmidan Yangi shaharga qaragan. Dastlab “Sapyorlar”, “Gospital”, Kafanov nomlari bilan atalgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Farovon” deb qayta nomlangan. Oybek, “Bog‘saroy”, “Afrosiyob”, At-Termiziy, “Lolazor” mahallalari bilan chegaradosh.

Farovon so‘zi odatda tinchlik, osoyishtalik va farovonlikni anglatadi. Mahalla nomi ushbu hududda yashovchi aholining baxtiyor, obod, tinch, farovon hayot kechirishini ifodalaydi.

FAROG‘ATLI – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 1991-yilda tashkil topgan. 2009-yil fevralgacha “Yoshlik” mahallasi deb atalgan. 2009-yilda mahalla nomi “Xonobod” (Xonobodtepa shahar xarobasi nomidan) deb atalgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Farog‘atli” deb qayta nomlangan. “Nurafshon”, “Oltintopgan”, “Sadoqat”, “Quruvchilar”, “Xonobod”, “Xonobodtepa”, “Daryobo‘yi”, Xo‘ja Uchqun mahallalari bilan chegaradosh.

Farog‘atli so‘zi “*O‘zbek tilining izohli lug‘ati*”da quyidagicha izohlanadi: “Xotirjamlik, osoyishtalik baxsh etuvchi, huzur-halovatli” (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, IV jild, 331-bet). Mahalla nomi ushbu hududda yashovchi aholining tinch va osoyishta hayot kechirishini ifodalaydi.

FARHOD – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. Ushbu mahalla 1992-yildan “Tinchlik” nomi bilan atalgan, 2005-yilda mahalla 2 qismga: “Farhod” va “Tinchlikobod” mahallalariga bo‘lingan. “Bog‘obod”, “Nurobod”, “Birlik”, “Tinchlikobod”, “Vatan”, “Ko‘hna Cho‘ponota”, “Nayman” mahallalari bilan chegaradosh.

Mazkur toponim Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi bosh qahramon Farhod obraziga nisbatan qo‘yilgan joy nomidir.

FERUZA – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi daha nomi. 1991-yilgacha Shimoli-Sharq turar joy massivi deb atalgan. Toshkent – Xo‘jakent temir yo‘l tarmog‘i bilan chegaralanadi. Loyihalash va qurilish ishlari 1966-yilda boshlangan. Loyiha mualliflari – A.S. Aparin, M.Y. Aksenova va boshqalar. Daha nomi feruza (qimmatbaho tosh) nomidan olingan. “Kamolot”, “Yangi Kamolot”, “Katta Yalang‘ochota”, “Feruza”, “Shalola” mahallalarida joylashgan.

FERUZA – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda tashkil topgan. Ilgari Цебеп-Босток (Shimoli-Sharq) mavzesi deb nomlangan. Keyinchalik Feruza (ko‘k-yashil, havorang-yashil rangli qimmatbaho tosh) nomiga o‘zgartirilgan. “Shalola”, Munavvarqori, “Yangi Kamolot” mahallalari bilan chegaradosh.

FIDOYILAR – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 2005-yilda Harbiylar nomi bilan tashkil topgan. Mahallada asosan harbiylar oilalari yashashi bois shunday atalgan. Mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Fidoyilar” deb qayta nomlangan. “Navro‘zobod”, Cho‘lpon, “Ma‘rifat”, “Qadriyat”, “Do‘stobod”, Amir Temur, “Ko‘hna Mevazor”, “Mashinasozlar” mahallalari bilan chegaradosh.

Mustaqillikdan keyin nomlangan *fidoyi* so‘ziga “*O‘zbek tilining izohli lug‘ati*”da quyidagicha izoh beriladi: *Biror kimsa, narsa yoki g‘oyaga astoydil berilgan va ular uchun jondan kechishga ham tayyor; sodiq*” (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, IV jild, 342-bet). Mahalla nomi ushbu hududda yashovchi aholining sadoqatli va fidoyi ekanligini ifodalaydi.

FIDOKOR – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 2015-yilda tashkil topgan. “Xirmontepa” mahallasidan ajralib chiqqan yangi mahalla. “Botirma”, “Mehrjon”, “Qo‘rg‘ontepa”, “Zarqo‘rg‘on”, “Tepaqo‘rg‘on”, “Ko‘tarma”, “Navbahor” mahallalari bilan chegaradosh.

Fidokor termini mustaqillik yillarida nomlangan yangi toponim hisoblanib, u “*O‘zbek tilining izohli lug‘ati*”da “*Biror kimsa, narsa yoki e‘tiqod uchun o‘z jonini fido qiladigan; cheksiz sadoqatli, fidoyi*” degan ma‘nolarni ifodalashi qayd etiladi (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, IV jild, 342-bet).

FIRDAVSIY – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1924-yilda tashkil topgan. 1978-yilda mahallaga shoir Abulqosim Firdavsiy nomi berilgan. “Yangitar-nov”, Mirzo Ulug‘bek, Shayx Shibliy, “Oqqo‘rg‘on”, “Oydin” mahallalari bilan chegaradosh.

Firdavsiy Abulqosim Tusiy (taxm. 934 – Tus sh. – 1030) – fors-tojik shoiri va mutafakkiri. Tus va Nishopur shaharlaridagi madrasalarda tahsil olgan. Zamona-sining barcha asosiy ilmlarini egallab, arab va pahlaviy tillarini chuqur o‘rgangan. O‘z davrining qomusiy olimi bo‘lib yetishgani uchun ham uni hakim deb ulug‘-lashgan.

Eron va Turon xalqlarining qariyb 4 ming yillik tarixi yuksak mahorat bilan qalamga olingan “Shohnoma” ustida Firdavsiy 30 yildan ortiq mehnat qilgan. “Shohnoma” eng qadimiy davrlardan boshlanib, sosoniylar shohi Yazdigard III davrida arablarning Eronga bostirib kirishi bilan yakunlanadi. “Shohnoma” hajmi (60 ming baytni o‘z ichiga oladi), mavzu ko‘lami, obrazlar olami, qahramonlar-niing ko‘p va xilma-xilligi, g‘oyaviy motivlari va ko‘tarilgan masalalar jihatidan jahon adabiyotidagi eng katta epik asar.

FOZILTEPA – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 2015-yilda tashkil topgan. “Katta Qa‘ni” mahallasidan ajralib chiqqan yangi mahalla. “Yangiyo‘l”, “Diydor”, “Katta Qa‘ni”, “Katta Cho‘ponota” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla joyga oid tarixiy yodgorlik nomi bilan atalgan. Foziltepa, Qang‘li qo‘rg‘on – arxeologik yodgorlik; qo‘rg‘onli qishloq xarobasi (milodiy IV–VIII, qisman X–XII asrlar). Toshkentning janubi-g‘arbida, Izzasoy vodiysida joy-lashgan. Foziltepa so‘nggi Qovunchi madaniyati yodgorliklari sirasiga kiradi.

Qo'rg'onli qishloq Mingo'rikdagi Choch shahri tarkibida bo'lgan. Y.G'ulomov rahbarligidagi Toshkent arxeologiya otryadi tomonidan tekshirilgan (1967–68). Foziltepaning saqlanib qolgan balandligi 20 metrga yaqin, uning shimoli-sharqida qishloq bo'lib, uning izlari 250 metrgacha masofada qayd etilgan. Tepalik maydoni 41x35 metr. Foziltepa ilk o'rta asrlarda badavlat dehqon qasr-ko'shki bo'lgan. Tadqiqotlarga ko'ra, qishloq nisbatan tekis yerda vujudga kelgan. Qishloq ancha katta hududni qamrab olgan. VIII asrda vayron bo'lgan, keyinchalik (X–XII asr) hayot biroz jonlangan. Foziltepa o'rnida so'nggi o'rta asrlarda qozoq-qang'lilar-ni kuzatuv joyi bo'lgan degan taxminlar bor.

FURQAT – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda tashkil topgan. “Tong yulduzi”, Abdurauf Fitrat, “Oltinko'l”, “Inoqobod”, Jo'rabek, “Yangizamon” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahallaga taraqqiyparvar shoir, mutafakkir, publitsist Furqat (1859–1909) (taxallusi; asl ism-sharifi Zokirjon Mullo Xolmuhammad o'g'li) nomi berilgan. Furqat mazmunan hayotiy va badiiy barkamol lirikasi, ma'rifatparvarlik yo'nalishidagi yetuk asarlari, shuningdek, jozibali nasri va jangovar publitsistikasi bilan XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi milliy adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan.

XADRA – Shayxontohur tumanidagi mahalla va mavzening nomi. Qadimgi “Xadra” mahallasi “Janggoh”, “Degrez”, “Hovuzbog”, “Gulbozor” va “Sho'rtepa” mahallalari bilan chegaradosh bo'lgan. Mahallada 100 ga yaqin xonadon yashagan. Aholisi, asosan, o'zbeklar bo'lib, mayda savdo va hunarmandchilik, shahar tashqarisidagi yerlarida bog'dorchilik va dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Hozirgi “Xadra” mahallasi 1966-yilga qadar bir qavatli uylar va tor ko'chalardan iborat bo'lgan. 1966-yilgi zilziladan so'ng mahalla hududida ko'p qavatli uylar qurilgan. 1993-yil 30-martda “Xadra” nomi bilan yangitdan tashkil etilgan. “Janggoh”, “Chaqar”, “Gulbozor”, “Shayxontohur”, “Olmazor”, “O'rda”, “O'qchi”, “Yangi Sebzor”, Hastimom mahallalari bilan chegaradosh.

Xadra mavzesi hozirgi Alisher Navoiy, Sebzor, Abdulla Qodiriy va Abay ko'chalari oralig'ida, “Xadra” mahallasida joylashgan. 1966-yilgi Toshkent zilzilasidan so'ng, hududdagi shaxsiy uylari o'rnida ko'p qavatli turar joy binolari bunyod etilgan va Markaz-14 (S-14) mavzesi nomi berilgan. 2000-yilning 23-martidan “Xadra” nomi bilan yuritiladi.

“Xadra” so'zi qo'shma toponim (arabcha “xad” – chegara, forsha “roh” – “yo'l”, “ko'cha”) bo'lib, “yo'lni chekkasi” degan ma'noni anglatadi. “Xadra” toponimi haqida olimlarning turlicha fikrlari mavjud. Jumladan, Y.G'. G'ulomov, H.T. Zarifovlar “xadra” – “xaddi roh” – “yo'lni chekkasi”, “chegarasi”, “shaharning chekkasi” degan ma'nolarni bildiradi, deyishadi. H.Hasanov ham “xadra” – “xon o'rdasining chegarasidagi yo'l” deb sharhlaydi. F.A. Abdullayev esa “xadra” – “notekis”, “past-baland”, “yaroqsiz” ma'nosini bildiradi, deydi (adrang-adra-hadra). A.R. Muhammadjonov “xadra” so'zi “adirli yer”, “yo'lni chekkasidagi yer” ma'nosini anglatishini yozadi. Olimning fikriga ko'ra, qadimda

“Xadra” mahallasining maydoni Registon nomi bilan mashhur bo‘lgan. Demak, “Xadra” mahallasining nomi mahallaning uning notekis, adirli yerda, shaharning chekkasidagi yo‘l bo‘yida joylashganidan dalolat beradi. U taxminan X–XI asrlarda vujudga kelgan. XIV asrga kelib shahar hududi kengaygan va “Xadra” mahallasi yerlari shahar markaziga to‘g‘ri kelgan, biroq uning nomi avvalgidek saqlanib qolgan.

XAYROBOD – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1995-yilda tashkil topgan. Yillar davomida turli nomlar bilan atalib kelingan. Mahallaning hozirgi hududi Xirmontepa dahasining “Zambilchi ko‘cha” qo‘rg‘oni o‘rnida joylashgan bo‘lib, bu yerlar Shayxontahur dahasi aholisining dala hovlilari sifatida shakllangan So‘galliota va “Bo‘rijar” qo‘rg‘onlari bilan yonma-yon bo‘lgan. Oktyabr to‘ntarishidan keyingi yillarda dehqonchilik va bog‘dorchilikni rivojlantirish maqsadida tub aholi maskani paydo bo‘lib, Zambilchi ko‘cha nomini olgan. XX asrning 60-yillari boshlarida shaharni rekonstruksiya qilish natijasida 1964-yilda “Moskva” mahallasi tashkil etilgan. Unga “Ko‘tarma” va “No‘g‘oyqo‘rg‘on” mahallalari aholisi kelib qo‘shilib, mahallaning hozirgi hududi shakllangan. Ko‘chib kelganlarning ko‘pchiligi No‘g‘oyqo‘rg‘ondagi Xayrobod eshon maqbarasi atrofidan bo‘lgani bois 1995-yil mahallaga “Xayrobod” nomi berilgan.

Mahalla “Yakkabog‘”, “Sharq tongi”, “Bekto‘pi”, “Xonto‘pi”, “Katta Xirmontepa”, “Bo‘rijar”, “Yakkatut” mahallalari bilan chegaradosh.

XALQLAR DO‘STLIGI – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1995-yilda tashkil topgan. Mahallaning bunday nomlanishi u joylashgan hududdan bir necha kilometr uzoqda joylashgan “Xalqlar do‘stligi” maydoni va shu nomdagi boshqa inshootlar bilan bog‘liq. Bu nom O‘zbekistondagi turli millat va elatlar o‘rtasidagi do‘stlik va hamjihatlikni ifodalash uchun tanlangan. “Novza”, “Katta Navbahor”, “Ko‘rkam”, “Dilobod”, “Beshchinor”, “Qozirabot” mahallalari bilan chegaradosh.

XALQOBOD – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda tashkil etilgan hamda shu davrdan 2007-yilga qadar Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Abdurahim Shermatov nomi bilan atalgan. 2007-yil 2-avgustdan “Xalqobod” deb atala boshlangan. Mahalla Yangi Qo‘yliq ko‘chasi va Qo‘shqo‘rg‘on tor ko‘chalari oraliq‘ida joylashgan, hududidan Tolariq kanali oqib o‘tadi. “Yangi Qo‘yliq”, “Qo‘shqo‘rg‘on”, “Madaniyat”, “Fayziobod”, “Tolariq”, “Ziyonur” mahallalari bilan chegaradosh.

Bu nom *xalq* va *obod* so‘zlaridan iborat. Toponimning birinchi komponenti – *xalq* so‘zi biror mamlakat yoki davlat aholisini, millat yoki elatni anglatadi. Uning ikkinchi komponenti – *obod* so‘zi ba‘zi otlarga yoki ayrim sifatarga qo‘shilib joy nomini yasaydigan, “*obodonlashtirilgan*”, “*o‘zlashtirilgan*”, “*gullab-yashnagan*” ma‘nosidagi so‘z, affiks. Demak, Xalqobod – “*biror hudud aholisi, millat yoki elat tomonidan o‘zlashtirilgan, obodonlashtirilgan joy*” ma‘nosini anglatadi.

XIYOBONTEPA – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. Oldingi nomlari “Boksyor”, G‘iyos Umarov bo‘lgan. 2006-yil 18-dekabrda hozirgi nomda qo‘l-

laniladi. Mahalla Amir Temur shohko'chasi hamda Bog'ishamol ko'chalari oralig'idagi hududni egallagan. "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasining chap sohil qismi mahalla hududida joylashgan. Mahalla hududidan Bo'zsuv kanali oqib o'tadi. "Minor", "Otchopar-1", Shayx Shibliy, "Bodomzor", "Iftixor" mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi tarixiy yodgorlik nomidan olingan. Xiyobontepa – arxeologik yodgorlik, qishloqqa tutashgan qasr-ko'shk (VII–X asrlar, IX–XIII asr boshi). Toshkentning Eski shahar qismi markazida, Kaykovus kanali bo'yida joylashgan. 1924-yil M.Y. Masson tomonidan qayd etilgan. 1968–69-yillarda Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi tekshirgan. Xom g'ishtdan qurilgan ko'shkning eng baland tagkursi qismi xarobalari saqlangan; uning atrofiga hozir turar joy binolari qurilgan. Qasr binosining xarobalari saqlanmagan. Yuqori madaniy qatlami IX–XII asrlarga mansub bo'lib, o'sha davrda qasr Binkatning ichki rabodi tarkibiga kirgan va uning xarobalari rabod binolari ostida qolib ketgan. Shahar hududi sifatida Xiyobontepa mo'g'ullar istilosiga qadar (XIII asr boshi) mavjud bo'lgan.

XIRMONTEPA – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1996-yilda shu nom bilan tashkil topgan. Tumanning 19-mavzesida joylashgan bo'lib, "Kichik Xirmontepa", "Shuhrat", "Katta Xirmontepa", "Yakkatut", "Hamdo'st", "Shirin" mahallalari bilan chegaradosh.

Toponim quyidagi ikki so'zning birikishidan hosil bo'lgan: *xirmon*+*tepa*. *Xirmon* – yig'ib-terib olingan ekinlar hosilini to'plash uchun ajratilgan joy, maydoncha yoki shunday joyga yanchish, tozalash yoki quritish uchun keltirilgan mahsulot. Ko'p miqdorda to'plab qo'yilgan, uyib tashlangan narsalar ham *xirmon* deb ataladi. *Tepa* so'zi "do'nglik", "tepalik", "cho'qqi", "biron narsaning uchi, tepa qismi" degan ma'nolarni anglatadi. Shuningdek, yer sathidan baland, do'ng joy; tepalik, balandlik, biror joy, makonga nisbatan yuqoridagi joy (yer); ko'p miqdorda uyilgan narsalardan hosil bo'lgan balandlik, do'nglik; paxsadan ishlangan qadimiy inshootlarning xarobalari va ularni to'ldirgan madaniy qatlamlardan hosil bo'lgan do'nglik ham tepa deb ataladi.

Qadimgi turkiy tilda *to'pu* – kallaning cho'qqisi demakdir. Turkiy tillarda *tepa*, *do'bo'*, *depe*, *to'be*, *do'ba*, *to'bu*, tojik tilida *teppa*, o'zbek shevalarida *teva*, *to'ba* shakllarida talaffuz qilinadi. Bu termin turlicha fonetik shakllarda Kavkaz, Volgabo'yi, Ural tog'lari atroflari, Qozog'iston, O'rta Osiyo, Sibir, Yaqin Sharq, Bolqon yarimorolida ko'plab toponimlar hosil qilgan. Shu bilan birga tepa *teva* – *tuya* shaklini olgan (Tuyaboshi, Tuyaguzar); yoki urug'-qabilaning tarmoqlari – to'p yoki *to'pa* o'zgarib *tepa* bo'lib ketgan. Xirmontepa – "hosil to'planadigan balandlik" ma'nosini anglatadi.

XISLAT – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. Mahalla hududi 1976–1992-yillarda ToshDU – ToshPI mavzesi deb atalgan. 1992-yilda mahallaga shoir Xislat nomi berilgan. "Jiydali", "Shifokorlar", "Chig'atoy-Oqtepa", Beruniy mahallalari bilan chegaradosh.

Xislat (asl ism-sharifi Haybatullaxo‘ja Orifxo‘ja o‘g‘li, 05.10.1880 – Toshkent – 06.08.1945) – shoir va tarjimon. O‘zbek mumtoz adabiyotining so‘nggi namoyandalardan biri. 16–17 yoshlarida Toshkent shahri Kesakqo‘rg‘on mahallasidagi madrasaga o‘qishga kirib, arab va fors tillarini mukammal o‘zlashtirgan; o‘zbek, ozarbayjon, turk, fors va arab adabiyotlarini puxta o‘rgangan. 1908–1909-yillarda Navoiy ijodini mutolaa qilib, “Farhod va Shirin” hamda “Layli va Majnun” dostonlarining soddalashtirilgan nasriy nusxalarini tayyorlagan va o‘z hisobidan nashr ettirgan. 1910–1914-yillarda madrasadoshi Sidqiy Xondayliqiy bilan hamkorlikda “Armug‘oni Xislat”, “Hidoyai Xislat”, “Savg‘oti Xislat”, “Tuhfai Xislat” kabi bayozlarini chop ettirgan.

XONDAMIR – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1967-yilda tashkil topgan. 2003-yildan hozirgi nomi bilan ataladi. Beshqayrag‘och, Xondamir va Dilkash ko‘chalari oralig‘ida joylashgan. “Qoryog‘di”, “Sharq guli”, “Sharq yulduzi”, “Nishabariq”, Ibrat mahallalari bilan chegaradosh.

Mahallaning nomlanishi tarixchi va alloma G‘iyosiddin Xondamir nomi bilan bog‘liq. Xondamir G‘iyosiddin Muhammad ibn Xoja Humomuddin ibn Xoja Jaloliddin Muhammad ibn Burhoniddin Muhammad Sheroziy (1473–1476, Hirot – 1534, Mandu; Dehlida dafn etilgan) – tarixchi. Ona tomonidan Mirxondning nabirasi va shogirdi. Otasi temuriylardan Sulton Mahmud mirzoning vaziri bo‘lgan. 10 yoshida Navoiyning kutubxonasida kutubxonachi, 1498-yildan shu kutubxona mudiri bo‘lib ishlagan. 1507–1510-yillarda Shimoliy Afg‘onistonda (Basht qishlog‘ida) adabiy ijod bilan shug‘ullangan. 1510-yilda Xondamir Hirotga qaytib kelgan. 1528-yil Xondamir Hindistonga, Boburiylar poytaxti Agraga, ya‘ni Bobur huzuriga borgan va 1529-yil Boburning Bengaliya va Gang daryosi sohili tomon qilgan yurishida qatnashgan. Bobur vafotidan so‘ng Xondamir uning vorisi Humoyun bilan harbiy yurishlarda ishtirok etgan. Ayni vaqtda u “Humoyunnoma” asarini yozadi. Bu xizmati evaziga unga “Amir ulmuarrixin” unvoni berilgan. Xondamir O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston tarixiga oid muhim asarlar yaratgan va bu bilan jahon madaniyati xazinasiga munosib hissa qo‘shgan.

XONOBOD – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. Toshkent viloyati Zangiota tumanidan 2021-yilda shahar hududiga o‘tkazilgan. Mahalla nomi Xonobodtepa shahar xarobasi nomidan olingan. “Sadoqat”, “Farog‘atli”, “Xontepa”, “Izzatli”, “Xonobodtepa”, “Nomdanak” mahallalari bilan chegaradosh.

Xonobodtepa – qadimiy shahar xarobasi (VI–XIII asrlarning boshi, XVI–XVII asrlar). Toshkent janubida, Chirchiq daryosining o‘ng sohilida, daryodan 0,5 km narida. Shahar xarobasiga oid dastlabki ma‘lumotlar (tafsiloti, topilmalar, rivoyatlar) XIX asr oxiri – XX asr boshida D.M. Grameniskiy, I.T. Poslavskiy asarlarida keltirilgan. O‘tgan asrning 30–60-yillarida M.Y. Masson, V.M. Masson, Y.F. Buryakovlar tomonidan shahar xarobasi o‘rganilgan. 1971–1975-yillarda Xonobodtepa Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi (V.A. Bulatova, L.G. Brusenko, L.L. Rtveladze, E.V. Rtveladze, M.I. Filanovich)

arxeologik qazishmalar o'tkazgan. Shahar xarobasining tarhi kvadrat (530x500 m) ko'rinishda, maydoni taxminan 30 gektar. Sharqiy burchagida ark joylashgan, u shahristondan keng xandaq bilan ajratilgan. Shahriston va ark hududining bir qismi o'rnida hozirgi Xonobodtepa qabristoni joylashgan.

XONOBODTEPA – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Zangiota tumanidan shahar hududiga o'tkazilgan. Mahalla nomi Xonobodtepa shahar xarobasi nomidan olingan. “Eski Jaloyir”, “Sultonobod”, “Farog‘atli”, “Quruvchilar”, “Xonobod”, “Xontepa”, “Fayzli”, “Qipchoq” mahallalari bilan chegaradosh.

“Xonobodtepa” so‘zi “xon tomonidan obod qilingan tepalik” yoki “xonga tegishli bo‘lgan obod, baland joy” degan ma’nolarni ham anglatadi.

XONTEPA – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – “Taraqqiyot”. 2021-yilda Toshkent viloyati Zangiota tumanidan shahar hududiga o'tkazilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Xontepa” deb qayta nomlangan. “Sultonobod”, “Xonobod”, “Xonobodtepa”, “Nomdanak” mahallalari bilan chegaradosh.

“Xon” so‘zi, odatda hukmdor yoki podshoh ma’nosini anglatadi. “Tepa” so‘zi tepalik yoki baland joyni bildiradi. Demak, Xontepa nomi “xonning tepaligi” yoki “xonga tegishli baland joy” degan ma’nolarni anglatadi. Bu nom, ehtimol, tarixiy davrlarda ushbu hududda hukmdorga tegishli bo‘lgan tepalik yoki inshoot mavjudligi bilan bog‘liqdir.

XONTO‘PI – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – “Tinchlik”. Sobiq “Moskva” jamoa xo‘jaligi “Xirmontepa” mahallasida yashovchi aholiga yangi uy-joy qurish uchun yer uchastkalari ajratib berishi natijasida 1969-yilda tashkil topgan. Mahalla nomini tarixiy nom bilan atash maqsadida, 2016-yilda “Xonto‘pi” deb qayta nomlangan. “Xayrobod”, “Sharq tongi”, “Bekto‘pi” mahallalari bilan chegaradosh.

“To‘p” so‘zi aynan “to‘da” ma’nosini bildiradi. Ya’ni, biror maqsad bilan uyushgan kishilar guruhi qadimdan etnografik jihatdan “to‘p // to‘da” deb yuritiladi. Bundan kelib chiqadiki, xonlarga mansub kishilar yashagan maskan *Xonto‘pi* deb nomlanadi. Shu bilan birga, *to‘p*, *to‘pa*, *to‘pi*, *to‘bi*, *to‘por* – etnik birliklarni – qabila, urug‘, patronimlarni ifodalaydigan termin.

XONCHORBOG‘ – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. XX asr boshiga cha Sebzor dahasi mavzelaridan bo‘lgan. Mahalla 1920-yillarda tashkil topgan. Shu davr orasida u “Teshikqopqa”, “Mustaqillik”, “Mevazor”, Zuhridin G‘ulomov, yana “Teshikqopqa” nomlari bilan atalgan. 2007-yil noyabr oyidan hozirgi nomda ataladi. “Chilto‘g‘on”, Miskin, “Qorasaroy”, “Taraqqiyot”, “Yuqori Sebzor”, “Kaykovus” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahallaning bunday atalishi Kaykovus chorbog‘i nomi bilan bog‘liq. XVIII–XIX asrlarda bu nom “Xonchorbog‘”ga aylanib ketgan. Xonchorbog‘ – “xonning to‘rt bog‘i” yoki “to‘rt qismga bo‘lingan xon bog‘i” degan ma’nolarni anglatadi.

Mahalla hududida Teshikqopqa qabristoni mavjud bo‘lib, qadimda qabriston shahar qal‘asi tashqarisida bo‘lgani uchun janozada mayitni olib chiqib dafn etish uchun qal‘a devoriga teshik qilishgan va tashqaridan dushman kirmasligi uchun ushbu teshik qopqoq bilan berkitilgan. Shu bois ushbu joy Teshikqopqa nomi bilan atalgan.

Hozirgi “Xonchorbog” mahallasida atoqli adib Hamid G‘ulom, yozuvchi va tarjimon Ibrohim G‘afurov, shoira Oydin Hojiyeva, yozuvchi Abbos Saidovlar, general Ilyos Azimovlar istiqomat qilishgan. Atoqli adib Hamid G‘ulom 1980-yilda o‘z uyini bolalar bog‘chasiga tuhfa tariqasida topshirgan.

XOSIYATLI – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1969-yilda tashkil topgan. Eski nomi – Alisher Navoiy. Joydagi asosiy ko‘cha nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, 2016-yilda “Xosiyatli” deb qayta nomlangan. “Asalobod”, “Jarqo‘rg‘on”, Nodira, “Katta Yangiobod”, “Bunyodkor”, “Yangidavr”, “Shohimardon”, “Barkamol”, “Beshariq”, “Fazogir” mahallalari bilan chegaradosh.

“Xosiyatli” so‘zi “yaxshi xususiyatga ega”, “ijobiy natija beradigan”, “fazilatli” kabi ma’nolarni anglatadi. O‘zbek madaniyatida “xosiyat” so‘zi baraka, yaxshi niyat va omad bilan bog‘lanadi. Shu sababli, bu nom hududdagi yaxshi sharoitlar, iliq insoniy munosabatlar bilan bog‘liq.

XO‘JA UCHQUN – Yangihayot tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – “Do‘stlik”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2021-yilda Xo‘ja Uchqun deb qayta nomlangan. “Farog‘atli”, “Daryobo‘yi”, “Musaffo”, “Oltintopgan”, “Fayzli”, “Binokor”, “Jaloyir”, “Nurliyo‘l” mahallalari bilan chegaradosh.

Toponimning aniq etimologiyasi ma‘lum emas. Geografik nom tarkibi “xo‘ja” va “uchqun” so‘zlaridan iborat. Toponim tarkibidagi *xo‘ja* forscha so‘z bo‘lib, “xo‘jayin, sohib” ma’nolarini anglatadi. Mazkur termin toponimlar tarkibida ko‘p marta takrorlanadigan va quyidagi bir necha ma’nolarni anglatadigan so‘zdir: 1) sayidlardan keyin turadigan va dastlabki to‘rt xalifa – choryorlarning avlodlari deb hisoblanadigan hukmron tabaqa; 2) biron kimsa yoki narsaning egasi; 3) birinchi bo‘lib islom dinini qabul qilgan kishi. Geografik nom tarkibida mazkur so‘zning uchrashi uning biror martabali tarixiy shaxs nomiga berilganligini anglatadi.

XUROSON – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1963-yilda tashkil topgan. Lutfiy, Farhod va Maqsud Shayxzoda ko‘chalari oralig‘ida joylashgan. “Qo‘rg‘ontepa”, “Tinchlikobod”, “Guzar”, “Ko‘hna Cho‘ponota”, “Zargarlik” mahallalari bilan chegaradosh.

Aslida Xuroson tarixiy o‘lkaning nomi. Ma‘muriy jihatdan XV asrda Temuriylar davlati tarkibida bo‘lgan. Hozirgi Eronning shimoli-sharqi va undan sharqdagi hudud. Movarounnahr va Xuroson ma‘muriy-hududiy jihatdan XV asrning 50-yillarida ma‘lum vaqt va Sulton Abusaid vafotidan (1468) so‘ng uzil-kesil ikkita siyosiy-ma‘muriy birlikka bo‘linib ketgan. Mahallaga mazkur tarixiy viloyatning nomi berilgan.

XURSHID – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. Beshqayrag‘och, Atoiy, To‘qimachi va Katta halqa yo‘li oralig‘ida joylashgan. Mahalla nomi 1965-yildan boshlab shoir, dramaturg Xurshid nomi bilan yuritiladi. Ungacha “Sho‘ro” mahallasi deb atalgan. Mahalla aholisi 1966-yildagi Toshkent zilzilasidan so‘ng ko‘chib kelgan oilalardan tashkil topgan. “Beshqayrag‘och”, “Oqmasjid”, “Zarafshon”, “Zulfizar”, “Quyi Darxon” mahallalari bilan chegaradosh.

Xurshid (taxallusi; asl nomi Shamsiddin Sharafiddinov) (1892. 20.6. – Toshkent – 1960.13.9) – shoir, dramaturg, rejissyor va tarjimon. O‘zbekiston Milliy musiqali drama teatri asoschilaridan biri. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi (1941).

U 1905–1906-yillardan boshlab jadid adabiyotining navqiron namoyandalari-dan biri sifatida qalam tebrata boshlagan. Shu ma’noda u ma’rifatparvarlik ruhida “Eskilik va yangilik” degan dastlabki pyesasini, keyinroq “Orif va Ma’ruf”, “Qora xotin”, “Kichik askar” kabi pyesalarini, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Siyovush”, “Oybonu” singari musiqiy dramalarini yaratgan.

Mohir g‘azalnavis shoir, yetuk dramaturg va tarjimon Xurshidning ijodiy merosi ancha boy, serqirra va sermazmun bo‘lib, u hozir O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Hamid Sulaymonov nomidagi Adabiyot muzeyida avaylab saqlanmoqda.

XUSHNUD – Yangihayot tumanidagi mahalla nomi. “Yorqinhayot”, “Toshkent” mahallalaridan ajralib chiqqan. “Gulshanobod”, “Toshkent”, “Yorqinhayot”, “Olchazor”, “Charog‘on”, “Do‘stlik” mahallalari bilan chegaradosh.

“Xushnud” so‘zi o‘zbek tilida “xursand”, “baxtiyor”, “quvnoq” kabi ma’nolarni anglatadi. Yangihayot tumanidagi “Xushnud” mahallasining nomi ushbu hudud aholisi tinch, baxtli hayot kechirishini ifodalaydi.

QADDRDON – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. Mahalla 1983-yilda tashkil topgan. Eski nomi – “Do‘stlik”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Qaddrdon” deb qayta nomlangan. “Sevinch”, Uvaysiy, “Ahilobod”, “Akbarobod”, “Oqtepa”, “Yunusobod”, “Mehnatobod”, “Beg‘ubor” mahallalari bilan chegaradosh.

“Qaddrdon” – bu so‘z odatda yaqin, qadrli, yaxshi ko‘rilgan, hurmatga sazovor bo‘lgan, do‘stona munosabatlarni bildiradi. “Qaddrdon” nomi mahallaning ijtimoiy hayotini, aholisi o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stona munosabatlar va samimiyligni, bir-birini qo‘llab-quvvatlashini aks ettiradi.

QADRIYAT – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1953-yilda tashkil topgan, ezgu orzu-umidlarga yetishish maqsadida “Umid” nomi berilgan. Joydagi asosiy ko‘cha nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, 2016-yilda “Ko‘ksaroy” deb o‘zgartirilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish uchun, 2022-yilda “Qadriyat” deb qayta nomlangan. “Fidoyilar”, “Alimkent”, “Navro‘zobod”, “Ma’rifat”, Ahmad Yassaviy, “Yashnobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-aхлоqiy, madaniy, ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha.

Qadriyat nomi mahallaning aholisi, uning madaniyati va hayot tarzida yuqori qadriyatlar – ijtimoiy adolat, hurmat, an'analarga e'tibor, o'zaro yordam va ham-jihatlikka asoslanishini bildiradi.

QALQON – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 2022-yilda “Olmos” mahallasidan ajralib chiqqan. “Go'zal”, “Olmos”, “Bog'bon” mahallalari bilan chegaradosh.

Qalqon – bu himoya vositasi bo'lib, janglarda o'zini yoki boshqalarni himoya qilish uchun ishlatilgan. Qalqon so'zi ko'pincha “himoya”, “panoh” yoki “himoyalovchi kuch” ma'nolarida ishlatiladi. “Qalqon” nomi bu mahallada asosan harbiylar istiqomat qilishini inobatga olib, mahalliy aholi tomonidan tanlangan.

QATORTOL – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. Mahalla hududi ilgari daraxtzor bo'lganligi, ayniqsa, tollar serobligi sababli “Qatortol” deb atalgan. Cho'ponota, “Katta Navbahor”, “Dilobod”, “Diyor”, “Ko'tarma” mahallalari bilan chegaradosh.

Qator so'zi turkiy so'z bo'lib, “bir chiziq bo'ylab tizilgan narsalar yoki odamlar to'plami” ma'nosini anglatadi. *Tol* so'zi “tol daraxti”, ya'ni cho'ziluvchan, egiluvchan, suvsevar daraxt turini bildiradi. O'zbek tilida keng tarqalgan va ko'pincha suv yoqalarida, ariqlar bo'yida o'sadi.

“Qatortol” – *qator bo'lib o'sgan tollar*, ya'ni bir chiziqda, ariq yoki yo'l bo'ylab o'sadigan tol daraxtlari. Bu atama ko'p joylarda geografik nom sifatida uchraydi. Shuningdek, odamlar odatda katta va soyali yo'lni, uning ikki yonida tollar bor yo'lni shunday atashadi.

QATORTOL-1 – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. Mahallaga 1959-yilda asos solingan bo'lib, dastlab “Qurilish” mahallasi deb yuritilgan. 1992-yilda hozirgi nomni olgan. Lutfiy, “Nafosat”, “Dilobod”, “Beshchinor”, “Bog'zor”, “Diyor”, “Chilonzor-Oqtepa” mahallalari bilan chegaradosh.

QATORTOL-2 – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1962-yilda tashkil topgan. Yaqin atrofda joylashgan “Qatortol” mahallasining kengaytirilgan yoki yangi qismi sifatida tashkil etilganligiga ishora qiladi. Bu kabi nomlash amaliyoti Toshkent shahri mahallalarida ko'p uchraydi. Mahalla nomi hududning tabiiy geografik xususiyatlari va tarixiga bog'liq bo'lib, mahalliy daraxtlar ramzi sifatida shakllangan. “Botirma”, “Naqqoshlik”, “Bo'rijar”, “Mevazor” mahallalari bilan chegaradosh.

QASHQAR – Yunusobod tumanidagi mahalla va mavzening nomi. 1969-yil 19-aprelda Markaz-4 (S-4) mavzesida “Markaz-4” mahallasi tashkil etilgan. 1990-yil 14-mayda “Qashqar” nomi berilgan. “Beshyog'och”, Yunus Rajabiy, “Matonat”, “Buyuk Turon”, “To'ytepa”, “O'rda”, “Mingo'rik”, “Shahrisabz”, “Mustaqillik”, Sharof Rashidov mahallalari bilan chegaradosh.

Qashqar mavzesi 1990-yilgacha Markaz-4 (S-4) massivi deb atalgan. Joyning tarixiy nomini tiklash maqsadida, 1990-yilda Qashqar deb qayta nomlangan. “Qashqar” mahallasida joylashgan.

Aholisi Qo‘qon xoni tomonidan, asosan, Qashqardan ko‘chirib keltirilgan qashqarliklar bo‘lgani uchun shunday nomlangan. Qashqar darvozasi – Toshkent shahri Shayxontohur dahasining sharqiy tomonida joylashgan. Darvoza nomi XIX asrda Qashqar shahridan bir miqdor aholining Toshkentga ko‘chib kelib o‘rnashib qolganligi bilan bog‘liq.

QIYOT – Yunusobod tumanidagi mavze nomi. “Matonat” mahallasida joylashgan. Mavze 1990-yilgacha Markaz-5 (S-5) mavzesi deb atalgan. Qadimgi mahalla va ko‘cha nomini tiklash maqsadida, 2000-yilda “Qiyot” deb qayta nomlangan.

Qiyot – 92 an‘anaviy o‘zbek qabilalaridan biri. Abulg‘oziy Bahodirxon fikricha, qiyot mo‘g‘ulcha, “tog‘dan oqqan sel” ma‘nosidagi qiyon so‘zining ko‘pligidir. Bu fikrga V.V. Radlov ham qo‘shiladi. S.Qorayev ko‘rsatishicha, *qiyonni*, *qiyanni* (*qiyonli*) urug‘ining etimologiyasi ana shu qiyon so‘zi bilan bog‘liq. Demak, Qiyot oykonimi onomastik konversiya usulida qiyot etnonimidan hosil bo‘lgan, “qiyot urug‘iga mansub kishilar yashaydigan manzil, joy” degan ma‘noni anglatadi.

QIPCHOQ – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 1987-yilda tashkil topgan. Mahalla nomi XVII–XVIII asrlarda shu hududga kelib joylashgan qozoqlarning O‘rta juzga mansub qipchoq urug‘i nomidan olingan. “Quruvchilar”, “Xonobod-tepa”, “Sug‘diyona”, “Saxovat”, “Eski Jaloyir”, “Fayzli” mahallalari bilan chegaradosh.

Qipchoq etnonimining kelib chiqishi haqida Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarlarida ma‘lumotlar keltirilgan: *qipchoq* – “ichi bo‘sh, g‘ovak daraxt” yoki “ichi bo‘sh, g‘ovak daraxt orasida tug‘ilgan bola” (shu boladan tarqagan el). *Qipchoqlar* turkiy xalqlarning eng yirik qabilalaridan bo‘lib, o‘zbek xalqi etnik tarkibidagi asosiy komponentlardan biri hisoblanadi.

Qipchoqlar nafaqat o‘zbek xalqi etnogenezisida, balki qator boshqa turkiy xalqlar – qozoqlar, qirg‘izlar, qoraqalpoqlar, turkmanlar, tatarlar, boshqirdlar, oltoyliklar va Shimoliy Kavkazdagi ayrim xalqlar (no‘g‘oylar, qo‘miqlar, qarachoylar va boshqalar) shakllanishida muhim rol o‘ynagan.

QICHQIRIQ – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1994-yilda Cho‘lpon nomi bilan tashkil topgan. Mahalla hududidan o‘zaniga teskari oqqan va hayqiriqlar ovozi kelgani uchun shunday nomlangan Qichqiriq kanali o‘tganligi tufayli 2005-yildan “Qichqiriq” mahallasi deb atala boshlangan. “Bo‘stonobod”, G‘ani A‘zamov, “Paxta”, Islomota, “Chuqursoy”, “Oltinsoy” mahallalari bilan chegaradosh.

QOZIGUZAR – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1967-yilda tashkil topgan. 1966-yilgi Toshkent zilzilasidan so‘ng Cho‘ponota, “Qang‘li” mahallalaridan ko‘chib kelganlar ko‘pchilikni tashkil etgan. 1997-yildan “Qoziguzar” deb nomlangan. Oktyabr to‘ntarishidan avval Beshyog‘och dahasi qozisi bo‘lgan Abdurahmon qozi sharafiga shunday atalgan. “Diydor”, “Sharq tongi”, “Katta Qa‘ni”, “Sharq”, “Sharaf”, “Hamdo‘st”, “Bahoriston”, Alixonto‘ra Sog‘uniy mahallalari bilan chegaradosh.

Toponim ikki qismdan, ya‘ni “qozi” va “guzar” so‘zlaridan tashkil topgan. *Qozi* (ar.) – diniy unvon, qozi, shariat qonunlari bilan ish yuritgan holda hukm chiqaruvchi, shuningdek, fuqarolik ishini amalga oshiruvchi. Qozilik avloddan avlodga o‘tgan. Qozilar davlatning boshqaruv ishlarida ham faol ishtirok etishgan. Aholi turar joy nomlari tarkibida “guzar” so‘zi mahalla ma‘nosini ifoda etadi. “*O‘zbek tilining izohli lug‘ati*”da “guzar” so‘zi quyidagicha izohlanadi: “Qishloq yoki mahallalarning chorrahalari joylashgan, choyxonalari, qassoblik, baqqollik kabi do‘konlari bo‘lgan obod, gavjum joy; yo‘l” (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, I jild, 516-bet).

QOZIRABOT – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda “Katta Qozirabot” mahallasidan ajralib chiqqan. “Katta Qozirabot”, “Xalqlar do‘stligi”, “Naqqoshlik”, “Novza”, “Katta Chilonzor-3”, “Zarqo‘rg‘on”, “Katta Navbahor”, “Meros”, “Katta Chilonzor-2”, “Navbahor” mahallalari bilan chegaradosh.

Rabot (ravot) – arabcha so‘z bo‘lib, VIII–IX asrlarda o‘zbek, fors, tojik til-lariga o‘zlashgan. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida karvonsaroy, muso-firxona, o‘zga yurtdan kelgan kishilar istiqomat qiladigan saroy rabot deyilgan. Alisher Navoiy asarlarida rabot – karvonsaroy, musofirxona tarzida keladi. Rabotlar XVII–XVIII asrlarda yirik aholi punktlari yonida, bozor atroflarida va savdo yo‘llaridagi bekatlarda qurilgan.

“Qozirabot” nomini Beshyog‘och dahasi qozisi Said Boqijon (Baqo) to-monidan bunyod etilgan rabot, ya‘ni karvonsaroy, musofirxona deb izohlasa bo‘ladi (yana qarang: Katta Qozirabot mahallasi).

QORAQAMISH – Olmazor tumanidagi dahalar nomi. Qurilish ishlari 1966-yilda boshlangan (loyiha mualliflari: T.Gorgadze, T.Kurdiani, D.Karimova va boshqalar). Daha kompozitsiyasida shahar transporti, savdo shoxobchalari, maishiy xizmat korxonalari va muassasalari bilan qulay bog‘lanish ko‘zda tutilgan. Asosiy ko‘chalari: Qoraqamish, Sag‘bon, Oltinsoy, Gulsaroy, Taraqqiyot va boshqalar. “Bo‘stonobod”, “Gulsaroy”, Islomota, “Istiqbol”, “Oltinsoy”, “Tabassum”, “Tepaguzar”, “Umid”, “Chuqursoy”, “Shodiyona”, “Qichqiriq”, “G‘alaba” mahallalarida joylashgan.

Dahalar hududidan oqib o‘tuvchi Qoraqamish kanali nomi bilan atalgan. Qoraqamish kanali Xoja Ahrorning vaqf hujjatlarida Obi Qaroqamish sifatida ilk bor tilga olinadi (О.Д. Чехович. Самаркандские документы. С. 292, 298). Ehtimol, qamishning mo‘l-ko‘lligi tufaylidir.

Qoraqamish – *zich, qora bo‘lib o‘sadigan qamishzor*, ya‘ni juda ko‘p, qattiq, baland qamish o‘sayotgan hudud. Bu nom odatda botqoq, suvli, qamishzor hududlar uchun qo‘llaniladi. Masalan, suvli past tekisliklar, deltalar yoki ko‘l atrofidagi joylar.

QORASAROY – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1998-yil tumandagi 4 ta mahalla – “Rivoj” (1937), Bobur (1935), “Navro‘z” (1941), “Rabot” (1939) mahallalarining birlashuvidan tashkil topgan. Hastimom, “Xonchorbog‘”, “Taraqqiyot”, “Guruchariq”, Hazrati Imom, “Namuna”, “Kaykovus” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi shaharning 12 darvozasidan biri, sobiq “Navro‘z” mahallasi hududida joylashgan Qorasaray darvozasi nomidan olingan. Mahallaning Bobur hududida O‘rta Osiyo musulmonlari diniy idorasining muftiylari Eshon Boboxon ibn Abdumajidxon (1860–1957) va Ziyovuddin ibn Eshon Boboxon (1908–1982) hamda “Rivoj” hududida jamoat arbobi Husniddin Asomov yashab o‘tgan.

O‘zbeklar tarkibiga kirgan qabilalar orasida Saroy qabilasining katta uyushmasi bo‘lib, u bir qancha qabila va urug‘larga bo‘lingan. Jumladan, az-saroy, qorabog‘saroy va qorasaray kabilar. Qorasaray nomi shundan.

QORASUV – Mirobod tumanidagi mahalla, mavze va dahalarning nomi. Mahalla 1996-yilda tashkil topgan, hududidan Qorasuv kanali o‘tganligi sababli shunday atalgan. “Sariko‘l”, “Uchuvchilar”, Muxtor Ashrafiy, “Oquy”, Abdurauf Fitrat, “Oltinko‘l”, Jo‘rabek mahallalari bilan chegaradosh.

Qorasuv dahalari shaharning shimoli-sharqida joylashgan bo‘lib, 1980-yilning 1-yarmidan boshlab, ko‘p qavatli turar joy binolari qurilishi natijasida tashkil etilgan. Qorasuv-1, 2, 3, 4, 6 turar joy dahalari hamda 2023-yilda tashkil topgan Qorasuv-5 mavzesi mavjud. Avayxon, Alisher Navoiy, “Gulsanam”, “Katta Qorasuv”, “Minglola”, “Sultoniya”, “Chimyon”, Shukur Burhonov, “Yangi Avayxon” mahallalarida joylashgan.

Etimologiya jihatidan “Qorasuv” – *qora (quruq emas, chuqur, torik yoki zich) suv* degani bo‘ladi. Bu so‘z ko‘pincha tiniq emas, sho‘r, loyqa, juda tubsiz yoki og‘ir oqimli suv manbasini ifoda qiladi. Geografik jihatdan – daryolar, shoxsuvlar, ko‘llar yoki botqoq suvlar shu nom bilan ataladi.

QORATOSH – Shayxontohur tumanidagi mahalla va mavzening nomi. Mahalla 1993-yil 12-oktyabrda “Qoratosh” nomi bilan yangidan tashkil topgan. Qadimda “Ko‘mirchi” va “Sirli masjid” nomlari bilan atalgan. “Chorsu”, “Chaqar”, “Yangi Kamolon”, “Eshonguzar”, Suzukota mahallalari bilan chegaradosh. Mavze “Qoratosh”, “Chaqar”, “Eshonguzar” mahallalarida joylashgan.

Hozirgi mahalla guzarining orqa tomonida suv tegirmon va moyjuvoz mavjud bo‘lgan. 1995–1996-yillarda mahalladagi eski uylar o‘rnida ko‘p qavatli uylar qurilgan. Respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan mahalla guzari va 1500 o‘ringa ega 324-o‘rta maktab binosi foydalanishga topshirilgan.

Rivoyatlarga ko‘ra, qadimda bir kishi Makkai munavvaradan bir parcha qora tosh olib kelib shu yerga o‘rnatgan va aholi ancha vaqtgacha shu toshni muqaddas sanab kelgan (bu toshning joylashgan yeri taxminan hozirgi P.P. Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi o‘rnida bo‘lgan). Mahalla va mavze nomi shundan kelib chiqqan.

QORYOG‘DI – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. Qadimiy “Qoryog‘di” mahallasi Shayxontohur dahasida joylashgan bo‘lib, mahallada katta jome masjidi va madrasa bo‘lgan. 1966-yilgi Toshkent zilzilasidan so‘ng mahalla aholisining ko‘p qismi Oktyabr mavzesiga ko‘chib kelgan. U davrda mahalla Ulyanov nomi bilan atalgan. 1993-yildan hozirgi nomda. “Bog‘ichinor”, Xondamir, “Sharq guli”, “Bekobod”, “Nishabariq”, “Istirohat”, “Jarbuloq” mahallalari bilan chegaradosh.

Ba‘zi olimlar (A.Muhammadjonov) fikricha, Qoryog‘di X–XI asrlarda shahar (Binkat) tashqarisida vujudga kelgan yangi qishloq (arabcha: al-qaryat-al-Xadisa; nomi shundan) bo‘lgan. XIV asrda shahar kengaygach, Qoryog‘di uning tarkibiga kirgan. Lekin o‘zbeklarda marhum xotirasiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan marosimlardan biri Qoryog‘di deb atalishi ham ma‘lum. Qoryog‘dida mashhur tarixchi Muhammad Solihxo‘ja tug‘ilgan va yashagan. Uning “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida mahalla Qorabog‘di deb qayd etilgan. Aslida Qariyadeh, ya‘ni “qishloq” deb atalib, so‘ngra xalq tilida Qoryog‘di bo‘lib ketgan. Atamashunos S.Qorayevning fikricha – mahalla xotin-qizlarning Qoryog‘di bayrami sharafiga qo‘yilgan. Birinchi marta qor yoqqan kuni kechqurun xotin-qizlar mahallani aylanib chiqib pul, shirinlik yig‘ishar, keyin bir yerga to‘planishib o‘yin-kulgi qilisharkan.

“Qoryog‘di” mahallasida davlat arboblardan Akmal Ikromov, Asadulla Xo‘jayev tavallud topgan.

QUBAYTEPA – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. “No‘g‘oyqo‘rg‘on” mahallasi bo‘linishi hisobiga 2019-yilda yangi tashkil etilgan mahalla. “Yuqori Darxon”, “Qushbegi”, “Jo‘nariq”, “Qumariq”, “Ko‘hna Qumariq”, “Oltinvodiy”, “Qut-baraka”, “No‘g‘oyqo‘rg‘on”, “Yakkasaroy” mahallalari bilan chegaradosh.

“Qubaytepa” nomi joyga oid tarixiy nomlardan biri hisoblanadi. “Qubay” – bu so‘z turkiy kelib chiqishga ega bo‘lib, shaxs nomi sifatida ham ishlatilgan. Ayrim manbalarga ko‘ra, u qadimgi qabilalar yoki tarixiy shaxslar nomi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. “Tepa” – baland joy, tepalik yoki tarixiy qoldiqlar joylashgan hudud ma‘nosini bildiradi. Qubaytepa – “Qubay ismli shaxsga tegishli tepalik” yoki “Qubay qabilasi yashagan baland joy” degan ma‘nolarni anglatadi.

QUYOSH – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1970-yilda Shayxontohur tumanidagi “Ilg‘or” mahallasidan ajralib chiqqan. 1970–2000-yillarda Abdulla Qodiriy, 2000–2001-yillarda “Allon”, 2001-yildan Alisher Navoiy nomi bilan atalgan. Joydagi qadimiy ko‘cha nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, 2016-yilda “Quyosh” deb qayta nomlangan. “Allon”, Chustiy, “Ilg‘or”, “Orzu”, “Chig‘atoy Darvoza”, “Tinchlik” mahallalari bilan chegaradosh.

Quyosh – o‘z ildiziga ko‘ra nur tarqatuvchi, yondiruvchi, hayot baxsh etuvchi osmon jismini anglatadi. Mahalla aholisi mazkur nomni hayot, nur, shifo, baraka ramzi sifatida tanlagan.

QUYI DARXON – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1966-yilda tashkil topgan. Xurshid, “Oqmasjid”, “Zarafshon”, “Ko‘rkamobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Darxon, Tarxon (mo‘g‘ulcha – temirchi, kosib, ozod kishi) – Chingizxon va uning vorislari tomonidan hukmron sinf vakillari, oddiy xalq orasidan chiqib, hokimlarga alohida xizmat ko‘rsatgan kishilarga berilgan unvon. Darxonlik imtiyoziga ega bo‘lgan kishi har qanday soliq va majburiyatlardan ozod qilingan, ulug‘xon huzurida bo‘lish huquqidan ham foydalangan. Undan tashqari, darxonlar jinoyat qilib qo‘yganda ham, bunday jinoyat 9 marta sodir bo‘lguncha javobgarlikka tortilmagan. Darxonlik mo‘g‘ullar, temuriylar va shayboniylar Movarounnahr va Yaqin Sharqda keng tarqalgan. Toshkent shahri toponimikasida “Darxon” toponimining ko‘p uchrashi qadimda shahar zodagonlariga anchagina joylar tarxonlikka ajratilib berilganligidan dalolat beradi. Toshkentdagi ariqlardan biri (Darxonariq yoki Tarxon sayyod arig‘i), mahalla, ko‘chalar Darxon nomi bilan ataladi.

“Darxon” (“tarxon”) – bu so‘z barcha turdagi soliqlar va bojlardan ozod qilingan shaxs ma’nosini bildirsa, “quyi” so‘zi bu yerning pastki yoki quyi qismini anglatadi, ya’ni mahallaning geografik joylashuvini ko‘rsatadi.

QUMARIQ – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. Mahalla 1957-yilda tashkil topgan bo‘lib, aeroport yonida joylashgan. Mahallaning nomi uning hududidan oqib o‘tadigan Qumariq arig‘i nomidan olingan. “Qo‘shqo‘rg‘on”, “Ko‘hna Qumariq”, “Oltinvodiy”, “Asrobod”, “Qubaytepa” mahallalari bilan chegaradosh.

Geografik nomlarda “qum” so‘zi asosan qumli yer, cho‘lsimon maydon, yoki quruq suv oqimi bo‘ylab joylashgan hududni bildirishi mumkin. *Ariq* – kichik daryocha, suv kanali, yo‘naltirilgan sun‘iy yoki tabiiy suv oqimi. Qumariq – qumli yerdan o‘tadigan yoki qumli yer orqali oquvchi ariq. Bu so‘z to‘g‘ridan to‘g‘ri tabiiy-geografik xususiyatni aks ettiradi.

QURUVCHI – Sergeli tumanidagi daha nomi. “Farog‘atli”, “Quruvchilar” mahallalarida joylashgan. Daha nomi asosan shu hududda qurilish sohasiga aloqador tarixiy yoki iqtisodiy faoliyatga bog‘liq holda shakllangan.

Bu daha Sergeli hududida 1966-yilgi Toshkent zilzilasi oqibatlarini bartaraf etish ishlarini amalga oshirish davrida yangi turar joylar qurilishi natijasida barpo qilingan. Zilziladan keyingi yillarda shaharni tiklash ishlariga respublikaning turli viloyatlaridan hamda sobiq Ittifoqning boshqa respublikalaridan Toshkentni tiklash uchun ko‘plab ishchilar, ayniqsa quruvchilar jalb etilgan. Natijada qisqa davr ichida, aniqrog‘i 3,5 yilda, shahar markazi qayta tiklangan, ko‘plab yangi uylar, mavzelar barpo qilingan. Sergelida ham keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan va bunda quruvchilarning alohida ahamiyati bo‘lgan. Ushbu kasb egalari sharafiga Sergelidagi dahaga “Quruvchi” deb nom qo‘yilgan.

QURUVCHILAR – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 2015-yilda “Xonobod” mahallasidan ajralib chiqqan yangi mahalla. Hududdagi daha nomi bilan uygʻunlashtirish maqsadida, “Quruvchilar” deb nomlangan. “Farogʻatli”, “Xonobodtepa”, “Daryoboʻyi”, “Fayzli”, “Qipchoq” mahallalari bilan chegaradosh.

Quruvchi – qurish bilan shugʻullanuvchi shaxs, yaʼni binolar, inshootlar, yoʻllar va boshqa tuzilmalarni yaratuvchi odam.

QUT-BARAKA – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – “Belariq”. Toshkent viloyati Zangiota tumanidan 2021-yilda shahar hududiga oʻtkazilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Qut-baraka” deb qayta nomlangan. “Qubaytepa”, “Yangi Sergeli”, “Bunyodobod”, “Koʻhna Qumariq”, “Yangi Bunyodobod”, “Mehrigiyo”, “Sugʻdiyona”, “Noʻgʻoyqoʻr-gʻon”, “Ezgulik” mahallalari bilan chegaradosh.

Qut-baraka iborasi oʻzbek tilida (va umuman turkiy tillarda) barakot, fayz, roʻzgʻorning toʻkisligi, yaxshilik maʼnolarida ishlatiladi. Qut-baraka – hayotdagi ilohiy quvvat (qut) va zohiriy fayz (baraka)ning birgalikda boʻlishi; yaʼni tana va ruhga fayz, xonadonga toʻkislik, xalqqa tinchlik va omad keltiruvchi holatdir.

QUSHBEGI – Yakkasaroy tumanidagi mahalla va dahaning nomi. XX asrning 50–60-yillarida bu yerlar toʻqayzorlar, qamishzorlar boʻlgan. 1983–1985-yillarda koʻp qavatli uylar qurila boshlangan. Shu davrda “Boshliq” mahallasidan “Qushbegi” mahallasi ajralib chiqqan. 1986-yildan beri shu nomda ataladi. “Dilbuloq”, “Oltinvodiy”, “Qubaytepa”, “Boshliq”, “Yakkasaroy”, “Armugʻon” mahallalari bilan chegaradosh.

Qushbegi dahasi 1980-yilning 1-yarmida tashkil topgan. Dastlab Ivanovlik toʻqimachilar, 1990-yildan esa Qushbegi dahasi deb atalgan. “Dilbuloq”, “Qushbegi” mahallalarida joylashgan.

Qushbegi – amir va xonlar saroyida bosh vazir yoki huquqi vazirga teng boʻlgan yirik amaldor, hokim. Oʻtmishda Qoʻqon xonligi davrida Toshkentni Lashkar qushbegi boshqarganligi maʼlum (1810–42). Undan tashqari, shu davrda Beshyogʻoch dahasining Qushbegi mavzesi shu yerda joylashgan, nomi shundan olingan.

QOʻYLIQ – Mirobod tumanidagi dahalar nomi. Loyihalash va qurilish ishlari 1967-yilda boshlangan (mualliflari: I.Voronina, B.Vaysman, V.Pershin va boshqalar). 1-, 2-, 3-, 4-dahalar Mirobod tumanida, 5-, 6-, 7-mavzelar Sergeli tumanida joylashgan. Turar joylar halqa yoʻli yoqasi va mavzeldagi koʻcha chetlariga joylashtirilgan. Qoʻyliq dahasi oʻrnidagi mavze qadimdan mavjud boʻlgan. Bu yerdan ilgari karvon yoʻli oʻtgan. Chirchiq daryosining shu joyida kechuv boʻlgan. Dahalar “Ziyonur”, “Parvona”, “Tolariq”, “Chinor”, “Yuksalish”, “Yangi Qoʻyliq” mahallalarida joylashgan.

Qoʻyliq atamasi xususida turli fikrlar yuradi. Bular:

– Moʻgʻul sarkardalaridan birining ismi Qoʻyliq boʻlgan. Toshkent uning nazoratida boʻlgan;

– Qo‘yliq-qo‘yiliq, ya‘ni pastlik so‘zining o‘zgargan ko‘rinishi – bu yerlar qo‘y-qo‘zilarga serob joy bo‘lgan. Qo‘yliq bozorida qo‘y-qo‘zilar sotilgan;

– Qo‘yliqda masjid qurdirib imomlik qilgan Hofiz Qo‘yliqiy, ya‘ni Qo‘yliqota nomi bilan bog‘liq degan fikrlar ham bor.

QO‘YLIQ – Sergeli tumanidagi mavzelar nomi. Loyihalash va qurilish ishlari 1967-yilda boshlangan. “Qorasuv” sovxози yerlaridagi mikrorayon 1987-yilda Qo‘yliq deb nomlangan va 5-, 6-, 7-mavzelar tashkil etilgan. Mavzelar “Birdamlik”, “Madaniyat”, “Xalqobod”, “Shukrona” mahallalarida joylashgan.

QO‘YLIQOBOD – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – Qo‘yliqota. Joyning tarixiy nomiga uyg‘unlashtirish maqsadida, 2016-yilda “Qo‘yliqobod” deb qayta nomlangan. Qo‘yliq dahasi bilan tutash bo‘lganligidan shunday atalgan. Barotxo‘ja, “Katta Qo‘yliq”, “O‘rtamasjid”, “Parvona”, “Mumtoz” mahallalari bilan chegaradosh.

Toponimist H.Hasanov Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asariga tayanib, Qo‘yliqni “Qo‘yi – daryoning quyisi, tubi, tekis joyi” deb izohlaydi va haqiqatdan ham shunday: Chirchiq daryosining qayirida, past yeridagi bu joy – “quyilik”, “pastlik” ma‘nosini anglatib, so‘ngra Qo‘yliq bo‘lib ketgan, degan xulosaga keladi.

Toponimist S.Qorayev esa, o‘zbeklarda *qo‘yli* degan urug‘ bo‘lgan, Qo‘yli Qo‘yliq bo‘lib ketgan bo‘lishi mumkin, degan fikrni bildiradi.

QO‘YLIQOTA – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1951-yilda mahallaga Qo‘yliqota nomi berilgan. “Katta Qo‘yliq”, “Nurafshon”, “Eshonbuloq”, Barotxo‘ja mahallalari bilan chegaradosh.

Mahallada o‘rta asrlarga oid maqbara o‘rnida barpo etilgan masjid joylashgan. Dastlab Ahmad Yassaviy avlodlaridan bo‘lgan, Samarqand qozikalonining o‘g‘li Hofiz Qo‘yliqiy maqbarasi bunyod etilgan (XV–XVI asrlar). Rivoyatlarga ko‘ra, u to‘g‘rilik va ezgulikni targ‘ib etib, chorvachilik bilan mashg‘ul bo‘lgan, qo‘ylarni tez ko‘paytirish yo‘llarini yaxshi bilgan. Shu mintaqadagi aholi ham, asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan va Hofiz Qo‘yliqiyning bu boradagi bilimdonligi tufayli, uni avliyo darajasida ko‘rishgan. 1854-yili yo‘l qurilishi natijasida maqbara ziyon ko‘rgan va mahalliy aholi tomonidan Qo‘yliqota qabri hozirgi o‘rniga ko‘chirilgan. 1989-yilda aholi talabiga ko‘ra maqbara qayta ta‘mirlanib, masjid barpo etilgan.

QO‘RG‘ONTEPA – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – “No‘g‘oyqo‘rg‘on”. Mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2005-yilda “Qo‘rg‘ontepa” deb qayta nomlangan. “Fidokor”, “Xuroson”, “Tepaqo‘rg‘on”, “Guzar”, “Ko‘tarma”, “Navbahor” mahallalari bilan chegaradosh.

Qo‘rg‘on – geografik nomlar tarkibida ko‘p marta takrorlanadigan so‘z bo‘lib, atrofi devor bilan o‘ralgan mustahkam *istehkom*, *qal‘a*, *shahar*, *hovli*, *dala hovli*, *qo‘ra* ma‘nolarini bildiradi. *Tepa* – relyefni ifodalovchi geografik termin bo‘lib, yer sathidan baland, yuqori bo‘lgan do‘ng joyga nisbatan ishlatiladi. Qo‘rg‘ontepa – qal‘a joylashgan tepalik yoki tepa ustida qurilgan qo‘rg‘on, mudofaa insho-

oti degani. Bu soʻz koʻpincha tarixiy manbalarda davlat yoki qishloqning muhim strategik nuqtasida joylashgan joyni anglatgan. Qalʼalar odatda baland joylarda qurilgan, chunki bu himoya va kuzatish uchun qulay boʻlgan.

QOʻSHTUT – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1997-yilda sobiq “Qoʻshtut”, “Pichoqchilik”, “Zargarlik”, “Sharshintepa” kichik mahallalari va Hofiz Koʻhakiy mahallasining bir qismini birlashuvidan tashkil topgan. “Achaobod”, “Guzarboshi”, Abu Bakr Shoshiy, “Zarhal”, “Chigʻatoy Darvoza” mahallalari bilan chegaradosh.

Qoʻsh – “*ikkita, juft*” maʼnosini beradi. Tut daraxti (lot. *Morus*) – ipakchilikda muhim oʻrin tutadi (tut bargi pilla uchun asosiy ozuqa). Oʻzbek madaniyatida tut daraxti qadrli, shifobaxsh daraxt sifatida maʼlum. Qoʻshtut – “ikkita (yoki koʻp) tut daraxti bor joy”, yoki “juft tut daraxti bilan mashhur yer” degan maʼnolarni beradi. Bu soʻz odatda tabiiy bogʻdorlik, daraxtzorlar, yashil maskan sifatida tanilgan joylarga qoʻyiladi.

QOʻSHCHINOR – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1982-yildan beri shu nom bilan ataladi. “Turkiston”, “Anorzor”, “Adolat”, Gʻayratiy, “Registon” mahallalari bilan chegaradosh.

Qoʻsh – “*ikkita, juft*” maʼnosini beradi va joy nomlarida “ikkita bir xil narsa bor joy”, “ikkitasi birga turgan joy” degan maʼnoda ishlatiladi. Chinor – katta, shox-shabbaga boy, ulkan daraxt turi (*Platanus orientalis* – Sharqiy chinor). Qoʻshchinor – “ikkita (katta) chinor daraxti bor joy”, yoki “juft chinor ostidagi maskan” degan maʼnolarni beradi, yaʼni bu nom ikkita mashhur chinor daraxti, yoki chinorlar soyasida joylashgan qishloq, bogʻ yoki maskanni anglatishi mumkin. Bu soʻz tabiiy va maʼnaviy jihatdan obod, soyali, qadrli joyni ifoda etadi.

QOʻSHQOʻRGʻON – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 1878-yilda tashkil topgan. “Sultonobod”, “Qumariq”, “Koʻhna Qumariq”, “Asrobod”, “Shukrona”, “Uchuvchilar”, “Madaniyat”, “Birdamlik”, “Oquy”, “Xalqobod”, “Nomdanak”, “Fayziobod”, “Ziyonur” mahallalari bilan chegaradosh.

Qoʻsh soʻzi “ikkita, birga qoʻshilgan, qoʻshaloq” degan maʼnolarni anglatadi. Oykonimning ikkinchi tarkibiy qismi sanalgan *qoʻrgʻon* leksemasi esa “oʻrta asrlarda qalin va baland mudofaa devori bilan oʻrab qurilgan joy, shahar, qalʼa” degan maʼnolarni anglatadi. Bundan tashqari, qishloq, shahar maʼnolarida ham qoʻllanadi.

HABIB ABDULLAYEV – Mirzo Ulugʻbek tumanidagi mahalla nomi. 1993-yil dekabrda tashkil topgan. Unga taniqli oʻzbek geolog olimi, davlat va jamoat arbobi, Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1947), geologiya-mineralogiya fanlari doktori (1946) Habib Abdullayev nomi berilgan. “Bogʻimaydon”, “Olimlar”, “Bahor”, “Navnihol”, “Shahriobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Habib Abdullayev Oʻzbekiston Fanlar akademiyasining 1956–1962-yillardagi prezidenti. H.Abdullayev 1959-yilda ruda paydo boʻlishining granitoid intruziyalar bilan genetik bogʻliqligi sohasidagi ilmiy ishi uchun yuksak mukofot

bilan taqdirlangan. U endogen ruda hosil bo'lishi nazariyasini rivojlantirgan. 130 dan ortiq ilmiy asar (jumladan, 7 ta monografiya) yozgan. Habib Abdullayev O'zbekistondagina emas, balki butun O'rta Osiyodagi geologik ishlab chiqarishda, ilmiy muassasalar va oliy o'quv yurtlarida ishlaydigan katta jamoani birlashtirgan ilmiy maktabning tashkilotchisi va rahbari bo'lgan. Ilmiy maktab olimlari Tyanshan tog'laridagi jinslar asosida petrologiya va metallogeniya masalalarini hal qilish sohasida birgalikda ish olib borishdi. Habib Abdullayev 1950-yildan umrining oxirigacha mineralogiya jamiyati O'zbekiston bo'limini boshqardi. 1960-yildan Fransiya geologiya va Buyuk Britaniya Qirollik mineralogiya jamiyatlarining a'zosi. 1970-yilda olimga Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti berilgan.

HABIBIY – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 1992-yilda tashkil topgan. Mahalla O'zbekiston xalq shoiri Habibiy nomi bilan atalgan. “Madadkor”, “Bunyodobod”, “Yangi Bunyodobod”, “Mehrigiyo”, “Tashabbus”, “O'zgarish” mahallalari bilan chegaradosh.

Habibiy (taxallusi; asl ismi Zokirjon Xolmuhammad o'g'li), (1890-yil, Paxtaobod tumani – 1980-yil 16-aprel, Toshkent) – O'zbekiston xalq shoiri (1974). O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi (1970). 1936-yildan Qo'qon va Andijondagi madrasalarda tahsil olgan. Habibiyning g'azalnavislik ijodi mazkur adabiy muhitda shakllanib borgan. Navoiy, Fuzuliy, Muqimiy, Furqat asarlarini mutolaa qilib, aruz vaznini o'rgangan va ularga ergashib she'r yozgan, Sharq adabiyoti an'analari davom ettirgan. 1974-yilda “O'zbekiston xalq shoiri” unvoni bilan taqdirlangan.

HAZRATI IMOM – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. Mahalla O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillarida tashkil etilganligi sababli, “Istiqlol” nomi bilan 1993-yilda tashkil etilgan. Hududdagi tarixiy yodgorlik nomi bilan uyg'unlashtirish maqsadida, 2016-yilda Hazrati Imom deb qayta nomlangan. Mahalla Toshkentning Eski shahar qismida joylashgan “Rabot”, “Yakkacho'p”, “Yov” va “Mozorxon” kichik mahallalarning qo'shilishidan tashkil topgan. Mahalla hududidan qadimiy Kaykovus kanali oqib o'tgan. Hastimom, “Guzarboshi”, “Guruchariq”, “Qorasaroy”, “Namuna”, Abu Bakr Shoshiy mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla hududida Imom Buxoriy nomidagi Islom instituti, O'zbekiston musulmonlari diniy idorasiga qarashli nashriyot joylashgan. Mustaqillik yillarida Hastimom majmuasini tubdan qayta qurish jarayonida Hazrati Imom mahallasi-ning yangi guzari ham barpo etilgan.

HAYRATIY – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1992-yilda “Beshqayrag'och” mahallasidan ajralib chiqqan. Mahalla XIX–XX asrlarda (1870–1964) yashab ijod etgan shahrixonlik shoir va huquqshunos Mulla Soli Hoshim o'g'li – Hayratiy nomi bilan ataladi. “Taqaqi”, “Latifguzar”, Abdulla Qodiriy va “Beshqayrag'och” mahallalari bilan chegaradosh.

HALQABOG‘ – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1980-yildan “Umid” nomida bo‘lgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Halqabog‘” deb qayta nomlangan. “Barhayot”, “Bobodehqon”, “Muruvvat” mahallalari bilan chegaradosh.

“Halqa” so‘zi doira shaklidagi, doirasimon, aylana ma’nosini anglatadi. “Bog‘” – yashil maydon, mevazor, chamanzor, bo‘ston; gullab-yashnab turgan obod joy; gulshan ma’nolarini ifodalab, bog‘dorchilik bilan bog‘liq joyni bildiradi. Demak, Halqabog‘ – “aylana shaklidagi bog‘” yoki “atrofi o‘ralgan bog‘”.

HAMDO‘ST – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 2015-yilda “Nurobod” mahallasidan ajralib chiqqan yangi mahalla. “Vatanparvar”, “Qoziguzar”, “Nurobod”, “Sharq tongi”, “Xirmontepa”, “Katta Qa’ni”, “Katta Xirmontepa”, “Shirin” mahallalari bilan chegaradosh.

Hamdo‘st so‘zi “birgalikda”, “ittifoqdosh”, “bir-biriga ko‘maklashuvchi” yoki “o‘zaro do‘stlik” ma’nolarini anglatadi. Mahalla nomi hudud aholisi o‘rtasidagi birdamlik va do‘stlikni ifodalash uchun tanlangan.

HAMID OLIMJON – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 1977-yilda Hamid Olimjon metro bekati ochilishi munosabati bilan mahallaga taniqli o‘zbek shoiri, adabiyotshunosi, olimi va jamoat arbobi Hamid Olimjonovich Azimov (Hamid Olimjon) (1909.12.12, Jizzax – 1944.3.7, Toshkent) nomi berilgan. 1993-yilda “Yangi Darxon” va Hamid Olimjon mahallalari birlashtirilib, shu nom qoldirilgan. “Asaka”, “Darxon”, Mirzo Ulug‘bek, “Oqqo‘rg‘on”, “Buyuk Turon”, “Lashkarbegi”, Mirzakalon Ismoilov mahallalari bilan chegaradosh.

HAMID SULAYMONOV – Yakkasaroy tumanidagi mahalla nomi. Nukus, Mirobod, Glinka va Shota Rustaveli ko‘chalari oralig‘ida joylashgan. “Damariq”, Abdulla Qahhor, Abdulla Avloniy, “Bog‘saroy”, “Konstitutsiya”, “Baynalmilal”, “Mirobod”, “Lolazor” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, o‘zbek adabiyotshunosi, matnshunosi, Beruniy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati, filologiya fanlari doktori, professor Hamid Sulaymonovich Sulaymonov (1910–1979) nomiga qo‘yilgan.

Hamid Sulaymonovning asosiy ilmiy faoliyati Alisher Navoiy lirikasining tekstologik tadqiqotlariga bag‘ishlangan. Navoiy qo‘lyozmalari bibliografiyasini tuzgan va shoirning “Badoye ul-bidoya”, “Navodir un-nihoya” devonlari qo‘lyozmalarini topib, ular shoir tomonidan tuzilganligini isbotlagan. “Xazoyin ul-maoniy” tanqidiy matnini tuzgan va nashrettirgan. “Devoni Foni” qo‘lyozmalarini (Fransiyadan) topib, fotonusxa asosida nashr ettirgan. Hofiz Xorazmiyning 2 jildli “Devon” fotonusxasini Haydarobod (Hindiston)dan Toshkentga olib kelib, so‘zboshi yozib chop ettirgan.

HAMKOROBOD – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1994-yilda tashkil etilgan bo‘lib, buyuk mutafakkir Beruniy nomi berilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2012-yilda “Hamkorobod” deb qayta nomlangan.

Ibrohimota, “Katta Hasanboy”, Hasanboy, “Ahil”, “Tiklanish” mahallalari bilan chegaradosh.

Geografik nom ikkita soʻz – *hamkor* va *obod* komponentlaridan tashkil topgan. Toponim tarkibidagi *hamkor* soʻzi “ish, faoliyatda oʻzaro koʻmakdosh”, “oʻzaro yordam”, “bamaslahatlik bilan ishlovchi” kabi maʼnolarni ifodalaydi.

Geografik nom tarkibidagi *obod* – “oʻzlashtirilgan”, “obodonlashtirilgan” maʼnosidagi soʻz-affiks. Bu soʻz shahar, qishloq, umuman, aholi manzilgohlariga nisbatan ishlatiladi. Asosiy maʼnosi “*gullagan*” demakdir.

HASANBOY – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – Sh.Qozoqboyev. Joyning tarixiy nomini tiklash maqsadida, 2009-yilda Hasanboy deb qayta nomlangan. Mazkur nom Toshkent viloyati Toshkent tumanidagi Hasanboy shaharchasi nomidan olingan. “Katta Hasanboy”, “Sharq haqiqati”, “Tiklanish”, Islomobod, “Hamkorobod” mahallalari bilan chegaradosh.

HASTIMOM – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1998-yilda Eski shahar hududida yangi binolar barpo etilishiga oid binokorlik ishlari olib borilishi natijasida “Zarbdor”, “Oxunguzar”, “Zarqaynar”, “Erkin”, “Qurilish” mahallalari hududlari birlashtirilib, yagona Hastimom mahallasi tuzilgan. Hofiz Koʻhakiy, “Qorasaroy”, Hazrati Imom, “Namuna”, “Yangi Sebzor”, Abu Bakr Shoshiy, “Janggoh”, “Gulbozor”, “Xadra” mahallalari bilan chegaradosh.

Hastimom mahallasi nomi uzoq oʻtmishga borib taqaladi, yaʼni Abu Bakr Muhammad Ibn Qaffol Shoshiy (904–976) xotirasi bilan bogʻliq. U zot oʻz davri-ning mashhur muhaddisi, adibi va shoiri boʻlgan. Zamondoshlari orasida al-Kabir, yaʼni Ulugʻ Imom va Hazrati Imom nomlari bilan mashhur boʻlgan. U oʻz zamonasining mashhur qulfsuz ustasi nomini olgan.

Ushbu mahalla hududida Qaffol Shoshiy qabri atrofida shakllangan Hazrati Imom (Hastimom) majmuasi joylashgan boʻlib, bu majmua XVI–XX asrlarga oid meʼmoriy yodgorliklardan iborat. Majmua oʻz ichiga Moʻyi Muborak madrasasi, Qaffol Shoshiy maqbarasi, Baroqxon madrasasi, Hazrati Imom jome masjidi, Tillashayx va Namozgoh jome masjidleri, Imom al-Buxoriy Islom institutini qamrab oladi.

Mahallada “Oxunguzar” va “Laylak” masjidleri joylashgan boʻlib, bu masjidlar ham oʻzbek xalqining madaniy merosi hisoblanadi. Hazrati Imom nomining xalq tiliga moslashuvidan olingan Hastimom” nomi mahallaga berilgan.

HILOL – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga oʻtkazilgan. 1981-yilda “Bahor” nomi bilan tashkil topgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Hilol” deb qayta nomlangan. “Argʻin”, “Mohirlar”, “Bogʻbon”, “Tovkentepa” mahallalari bilan chegaradosh.

Toponimni hosil qilgan “hilol” soʻzi arab tilidan olingan boʻlib, “yangi oy” yoki “yangi oy bosqichi” degan maʼnolarni anglatadi. Madaniyatda hilol koʻpincha umid, yangi boshlanish, poklik, ezgulik, nur ramzi sifatida qoʻllanadi.

HOJIOBOD – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1966-yilda tashkil topgan bo‘lib, dastlab G‘afur G‘ulom nomi bilan atalgan. 2006-yildan buyon hozirgi nom bilan ataladi. “Chamanzor”, “Uchtepa”, “Taqachi”, “Latifguzar”, “Ko‘rkamobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla aholi ichida haj safariga boruvchi fuqarolar ko‘p bo‘lganligi uchun shunday atalgan.

Geografik nom ikkita so‘z – *hoji* va *obod* komponentlaridan tashkil topgan. Toponim tarkibidagi *hoji* so‘zi “Ka‘bani ziyorat etgan, haj qilgan odam” ma‘nosini ifodalaydi. Hojiobod – “Hojilar (haj qilganlar) yashaydigan yoki asos solgan obod joy” deganidir.

HOFIZ KO‘HAKIY – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. Sag‘bon va Zarqaynar ko‘chalari oralig‘ida joylashgan. 1996-yilgacha “Kommuna” deb atalgan, 1996-yildan mashhur alloma Hofiz Ko‘hakiy sharafiga shunday nomlangan. Hastimom, “Eskishahar”, Abu Bakr Shoshiy, “Zarhal”, “Gulbozor” mahallalari bilan chegaradosh.

Toshkentda yashab ijod etgan Hofiz Ko‘hakiy o‘z zamonasining iqtidorli olimi va tarixchisi bo‘lgan. U mashhur o‘zbek olimi Ulug‘bekning (1394–1449) shogirdi Ali Qushchining (XV) nabirasidir. Hofiz Ko‘hakiy parkentlik Kamoliddinning o‘g‘li bo‘lib, to‘liq ismi Sulton Muhammaddir. Hofiz Ko‘hakiy xalq o‘rtasida Hofiz Ko‘ykiy nomi bilan mashhur bo‘lgan. U tarix, arab tili va grammatikasi, mantiq, huquqshunoslik va diniy ilmlar bilan shug‘ullangan, bu borada qator asarlar tasnif etgan.

Mahalla hududida Hofiz Ko‘hakiy majmuasi joylashgan.

HUVAYDO – Shayxontohur tumanidagi mahalla va mavzening nomi. Mahalla 1962-yilda tashkil topgan. Huvaydo, Eshon Boboxonov, Al-Xorazmiy, Beruniy va Mahtumquli ko‘chalari oralig‘ida joylashgan. Mahalla nomi XVIII asrda yashagan shoir, tasavvuf she‘riyatining yirik vakili Xo‘janazar G‘oyibnazar o‘g‘li Huvaydo (1704 – O‘sh shahri – 1780/81, Farg‘ona viloyati Chimyon qishlog‘i) sharafiga qo‘yilgan. “Orzu”, “Bo‘ston”, “Zafarobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Huvaydo mavzesi “Bo‘ston” mahallasida joylashgan.

Mahallada O‘zbekiston xalq shoiri Po‘lat Mo‘min, O‘zbekiston xalq shoiri, “O‘zbekiston Qahramoni” Erkin Vohidov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, tibbiyot fanlari doktori, professor Manzura Hamidova istiqomat qilishgan.

HUMO – Yangihayot tumanidagi mahalla nomi. 2019-yilda Toshkent viloyati Zangiota tumanidan Toshkent shahrining Sergeli tumaniga qo‘shilgan hamda Sergeli tumanidagi mahallalarning hududiy chegaralarini qayta ko‘rib chiqish hisobiga 2021-yilda Yangihayot tumaniga o‘tkazilgan. “Madadkor”, “Ziynat”, “Yangiturmush”, “Olchazor”, “Mash‘al”, “Humo”, “Sofdil”, “Marhamat” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi o‘zbek madaniyati va tarixi bilan bog‘liq bo‘lib, undagi asosiy ramzlardan biri – Humo qushidan kelib chiqqan. Humo qushi o‘zbek xalqining

qadimiy e'tiqodlarida va madaniyatida omad, baxt, yuksalish va erkinlik ramzi sifatida e'tirof etiladi.

HUMOYUN – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla va dahaning nomi. Mahalla 1993-yilda tashkil topgan. Boburiylar sulolasidan bo‘lgan podshoh Humoyun Mirzo nomi bilan atalgan. “Geologlar”, “Geofizika”, “Yalang‘och”, Ahmad Yugnakiy, “Beshkapa”, Al-Forobiy mahallalari bilan chegaradosh.

Humoyun dahasi 1970-yilning 2-yarmida tashkil topgan. 1990-yillargacha turli nomlar bilan atalgan. Humoyun mahallasida joylashgan.

Humoyun (1508.6.3. – 1556.27.1.) – Boburiylar davlati hukmdori (1530–40, 1555–56). Humoyun otasi Boburning Hindistondagi mulklariga ega bo‘lgan va Hindistonda bir necha ma’muriy islohotlar o‘tkazgan. Uning davrida Mir Sayid Ali boshchiligidagi miniatyura maktabi yuzaga kelgan. Humoyun fors va turkiy tillarda she’rlar yozgan. Akbar tomonidan Dehli shahrida Humoyun maqbarasi qurilgan. XVI asrda Gulbadanbegim Bobur va akasi Humoyun haqida “Humoyun-noma” asarini yozgan.

HUSAYN BOYQARO – Bektemir tumanidagi mahalla nomi. Mahalla 1992-yilda tashkil topgan. 2005-yilgacha “Ma’rifat” mahallasi deb atalgan. Joydagi Toshkent viloyatining O‘rta Chirchiq tumaniga qarashli Bektemir qo‘rg‘onining kengayishi va sanoat korxonalari qurilishi munosabati bilan tashkil topgan asosiy Husayn Boyqaro ko‘chasi nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, 2005-yilda Husayn Boyqaro deb qayta nomlangan. Mahalla hududidan Bektemir kanali oqib o‘tadi. “Mirishkor”, Abay, “Nurafshon”, “Bektemir”, “Ustozlar”, “Gulbog‘” mahallalari bilan chegaradosh.

Husayn Boyqaro, Husayniy (to‘liq nomi Husayn ibn Mirzo Mansur binni Mirzo Boyqaro) (1438 – Hirot – 1506) – Xuroson hukmdori (1469–1506), shoir. XV asrning o‘zbek mumtoz adabiyotining namoyandalaridan. Temuriylardan Umarshayx mirzoning evarasi. Onasi Feruzabegim temuriylardan Mironshohning nabirasi. Husayn Boyqaro, Bobur ta’riflaganidek, ikki tomonlama ulug‘ (“karim ut-tarafayn”) bo‘lgan.

HUSNIOBOD – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1975-yilda tashkil topgan. Mahalla Ahmad Donish ko‘chasi va Amir Temur shohko‘chasi oralig‘ida joylashgan. “Bog‘ishamol”, “Billur”, “Yunusobod”, “Adolat”, “Akbarobod”, “Anorzor” mahallalari bilan chegaradosh.

“Husniobod” mahallasi nomining kelib chiqishi “husn” va “obod” so‘zlari-ning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. *Husn* arabcha so‘z bo‘lib, *ko‘rk, chiroy; go‘zal-lik, latofat; yaxshi sifat, xislat* kabi ma’nolarni bildiradi.

Mazkur o‘rinda Husniobod toponimi go‘zal va obod joy, o‘lka, hudud kabi ma’nolarni ifodalaydi.

CHAQAR – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Chorsu dahasida joylashgan. 2003-yildan beri hozirgi nomida qo‘llaniladi. Navoiy, Beshyog‘och, Qoratosh va Furqat ko‘chalari oralig‘ida joylashgan. “Chorsu”, “Beshyog‘och”,

“Gulbozor”, “Yangi Kamolon”, “Qoratosh”, “Olmazor”, “Xadra” mahallalari bilan chegaradosh.

Shaharning qal’a devoridan tashqarisidagi istehkom *chaqar* deyilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur bunday deydi: “Temurbekning nabirasi Jahongir Mirzoning o’g’li Muhammad Sulton Mirzo Samarqandning tosh (ya’ni taqi) qo’rg’onida (chaqardur) bir madrasa solibdur”. A.Muhammadjonov Toshkentdagi Chaqar toponimi o’rta asrlardagi Samarqandning mahallalaridan Jakardizaga o’xshash chokar “harbiy xizmatchi” so’zidan tarkib topgan deydi; o’sha paytlarda bu so’z chokir (arabnavis mualliflarda shokir) shaklida qayd qilingan va k (kof) harfi bilan yozilgan.

Turkiy-arabiy va forsiy lug’atda “Chaqaq shahar devoridan tashqaridagi shunday joyki, unda qo’rg’on atrofi mustahkam o’rab olingan” deyilgan.

S-D. Nominxanov *Chaqaq* toponimini mo’g’ullarning urug’ nomi bilan atalgan, deydi. Mo’g’ullarning *chaxar/staxar* degan qabilasi bo’lganligi haqida ham ma’lumotlar mavjud.

CHAMANBOG’ – Olmazor tumanidagi mahalla va mavzening nomi. Mahalla 1994-yilda tashkil topgan va Ahmad Yassaviy nomi berilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Chamanbog’” deb qayta nomlangan. “Jiydali”, “Olimpiya”, “Yuqori Beshqo’rg’on”, “Yoshlik”, “Mustaqil yurt” mahallalari bilan chegaradosh.

Mavze 2023-yilda tashkil topgan va “Jiydali”, “Chamanbog’” mahallalarida joylashgan.

Mahalla va mavze nomi “*chaman*” va “*bog*” so’zlarining birikishidan tashkil topgan bo’lib, “gullarga burkangan bog’” yoki “gulli bog’” ma’nosini anglatadi. Yoppasiga gullagan ko’kalamzor, gulzor *chaman* deb ataladi. Bu nom mahalla hududining ko’rkamligi va yashilligi bilan bog’liq.

CHAMANZOR – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1967-yilda “Yangi-obod” nomi bilan tashkil etilgan. 2004-yildan hozirgi nom bilan ataladi. “Davlat-obod”, Yusuf Sakkokiy, “Hojiobod”, “Katta Cho’ponota”, “Uchtepa”, “Latifguzar” mahallalari bilan chegaradosh.

Yoppasiga gullagan ko’kalamzor, gulzor *chaman* deb ataladi. Toponim tarkibidagi *-zor* qo’shimchasi ko’plik affiksi hisoblanadi. Chamanzor – “*gulzorga to’la, go’zal yashil hudud*” yoki “*gul va ko’kalamzor joy, tabiiy bog’dek makon*”.

CHAROG’ON – Yangiheyot tumanidagi mahalla nomi. Respublika mustaqilligining bir yilligi munosabati bilan 1992-yilda “Mustaqillik” nomi berilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Charog’on” deb qayta nomlangan. 2021-yilda Sergeli tumanidan Yangiheyot tumaniga o’tkazilgan. “Yorqinheyot”, “Zarbdor”, “Xushnud”, “Yo’ldosh”, “Chorbog’”, “Do’stlik” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi o’zbek tilidagi “charog’on” so’zidan olingan bo’lib, “yorug’”, “nurli”, “ravshan yoritilgan”; “yashnagan, obod” ma’nolarini anglatadi.

CHARX KAMOLON-1 – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. Toshkentning qadimiy mahallalaridan bo‘lib, 1953-yilgacha “Novza”, “Qozirabot” deb nomlangan. 1954-yildan buyon hozirgi nom bilan ataladi. “Chilonzor”, “Novza”, “Beshyog‘och”, “Charx Kamolon-2”, “Rakatboshi”, “Belariq”, “Kamolon Darvoza” mahallalari bilan chegaradosh.

“Kamolon” atamasi haqida turli fikrlar mavjud. “Kamolon” so‘zining aynan lug‘aviy ma‘nosi – komil insonlar yashaydigan yer. Muhammad Solihxo‘ja “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida mahalladagi darvozani Kamondaron deb ataydi (XIV asr oxiri) va Kamondaronlar (turkman o‘g‘uz-uchuq qabilalar uyushmasi) qabilasining bir toifasiga mansub deydi. “Kamolon” atamasi haqida 3-fikrga ko‘ra, bu so‘z “Kamondaron”, ya‘ni “kamonchilar mahallasi” ma‘nosini beradi. Ma‘lumki, qadimda Choch o‘zining kamoni, kamonchi ustalari bilan dunyoga mashhur bo‘lgan. “Hudud ul-olam” asarida (X asr) “Choch – bu katta viloyat, xalqi jangovar va saxiydir. U yerda kamon va o‘q-yoy yasaladi“, deb qayd etilgan. Shoshda yasalgan kamon o‘sha vaqtlarda butun Sharqda “Kamoni Shoshiy” nomi bilan mashhur bo‘lib, uning uzoqqa otilishi va nishonga aniq tegishi Sharq mualliflarining asarlarida ta‘riflangan. Mana shu ustalar yashaydigan mahalla “Kamondaron” deb atalgan. Choch kamonlari xorijiy davlatlarga ham sotilgan. Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, buyuk sohibqiron Amir Temur Toshkentda bo‘lganida “Kamolon” mahallasida yasalgan kamonlarning puxtaligiga tan berib, o‘z qo‘shinlarini u bilan ta‘minlashga buyruq bergan. Charx Kamolon – “Kamolonning atrofi” mazmunini bildiradi.

CHARX KAMOLON-2 – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. O‘tmishda mahalla o‘rnida juda katta bog‘ bo‘lgan. 1961-yilda Muqimiy ko‘chasining qurilishidan so‘ng “Novza” mahalla deb yuritilgan. 1954-yildan “Charx Kamolon” mahallasi deb atala boshlangan. Keyinchalik bu mahalla kattalashib, aholi soni ko‘payib ketgach, uch qism (1-, 2-, 3-Charx Kamolon)ga bo‘lingan. “Charx Kamolon-1”, “Novza”, “Beshyog‘och”, “Ko‘rkam”, “Charx Kamolon-3”, “Kamolon Darvoza” mahallalari bilan chegaradosh.

CHARX KAMOLON-3 – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1950-yillarda shahar aholisi bog‘ hovlilari fuqarolarga bo‘lib berilishi natijasida mavze aholisi ko‘payib borgan. 1963-yilda Chilonzor tumani tashkil etilishi tufayli, uning chegarasi qayta qurilib Shayxontohur tumanida “Kamolon” mahallasi, Chilonzor tumanida esa “Charx Kamolon” mahallasi tashkil topgan. Aholisi ko‘payib borgan, uchga bo‘lingan. 1964-yildan mahalla “Charx Kamolon-3” deb atala boshlangan. Lutfiy, “Charx Kamolon-2”, “Ko‘rkam”, Olim Xo‘jayev, “Beshchinor”, “Katta Oqtepa”, “Kamolon Darvoza”, “Chilonzor-Oqtepa”, “Charxnovza” mahallalari bilan chegaradosh.

CHARXNOVZA – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Mahalla hududida 1936-yil Cho‘ponota mahallasi tashkil topgan. Keyinchalik u uch qismga (Cho‘ponota, Olim Xo‘jayev, “Novza”) bo‘lingan. Mahalla hududidan katta nov arig‘i o‘tgani bois “Novza” deb yuritilgan, “Oqtepa Novza” mahallasi deb ham

atalgan. Joydagi tarixiy ko'cha nomi bilan uyg'unlashtirish maqsadida, 2016-yilda "Charxnovza" deb qayta nomlangan. Mahalla Samarqand Darvoza va Gulxaniy ko'chalari, Zax arig'i va Sifon Oqtepa kanali oralig'ida joylashgan. "Kamolon Darvoza", "Katta Oqtepa", Olim Xo'jayev, "Charx Kamolon-3", Lutfiy, "Samarqand Darvoza", "Yangiobod" mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi o'zbek tilidagi "charx" (aylanma, yon atrof, gir aylana) va "novza" (nov orqali suv chiqarilib, yangi ariqdan obod qilingan yashil joy) so'zlaridan tashkil topgan. Qadimda joydan o'tadigan Bo'zsuv kanali irmog'iga to'g'on qurilib, balandlikdagi bo'sh yotgan yerlarda bog'-rog'lar yaratilib, ekinzor dalalarga nov (to'g'on) orqali suv chiqarilgan. Shu munosabat bilan bu joy va uning yaqin-atrofdagi yerlar va mahalla "Novza", ya'ni nov orqali suv chiqarilib, yangi ariqdan (*zax* -ariq) obod qilingan joy (Novza – Yangiariq) deb atalgan. Charxnovza – "Novzaning atrofi" mazmunini bildiradi.

CHASHMA – Bektemir tumanidagi mahalla nomi. 1996-yilda tashkil topgan. 1996-yilgacha qo'shni Abay mahallasi bilan birga bo'lgan, keyinchalik, asta-sekin aholi soni ko'paygach, Abay mahallasidan ajralib chiqqan. Abay, "Iqbol", "Zilola" mahallalari va Suvsoz-1 mavzesi bilan chegaradosh.

Yer ostidan chiqayotgan suv manbayi va uning suvi *chashma* deb ataladi. Forscha-tojikchada *chashma* so'zi yer ostidan sizib chiqishi uchun yo'li ochilib, tevaragiga tosh terilib, yog'och qo'yilib yoki boshqa narsalar bilan moslangan suv manbasi, yirik buloqni anglatadi.

CHIG'ATOY DARVOZA – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. Avvalgi nomi – "Yangi turmush". 1991-yilda "Chig'atoy Darvoza" nomi bilan atalgan. "Chimboy", "Qo'shtut", Chustiy, "Achaobod", "Eskishahar", "Allon", "Quyosh", "Zarhal" mahallalari bilan chegaradosh. Mahalla hududida "Safoboyota" masjidi joylashgan.

Bunday nomning kelib chiqishi O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoy (XIV asr)ning ismi bilan bog'liq. Ma'lumki, XIII asrda Chingizxon o'g'illariga o'z saltanatini taqsimlab, Markaziy Osiyo yerlarini ikkinchi o'g'li Chig'atoyga bergan va keyinchalik mazkur hudud Chig'atoy ulusi deb atalgan. Keyinroq ushbu atqli otadan Amir Temurning buyrug'i bilan Toshkent shahri devorlari tiklanib, unda 12 ta darvoza bunyod etilgan. Darvozalarning biri xonning sharafiga "Chig'atoy darvozasi" deb nomlangan. Mazkur darvoza nomi Muhammad Solihxo'janing ikkala ro'yxatida ham keltirilgan. Chig'atoy darvozasining nomi XX asr boshlarida mahallalar nomlarida ham uchraydi: "Chig'atoy-tepa", "Chig'atoy-chaqar", "Chig'atoy-Yangi shahar".

CHIG'ATOY-OQTEPA – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1992-yil Abduqahhor Ibrohimov mahallasi va Hayitboy Toshmuhamedov mahallasining qo'shilishi natijasida "Chig'atoy-Oqtepa" mahallasi tashkil topgan. Nomi Chig'a-

toy Oqtepasi arxeologik yodgorligidan olingan. Xislat, Mirzo G‘olib, “Shifokorlar”, Beruniy, “O‘zbekiston”, “Beltepa” mahallalari bilan chegaradosh.

Chig‘atoy Oqtepasi – arxeologik yodgorlik, istehkomli qishloq xarobasi (V–VIII asrlar, X–XII asrlar). Toshkentning shimoli-g‘arbida, Kaykovus kanali bo‘yida joylashgan. 1927-yil N.G. Malliskiy va 1940-yilda M.E. Vorones qayd etgan, 1968-yilda Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi tekshirgan. Tik yonbag‘irli tepalik shaklida saqlangan arki xarobasining diametri 30 metr, balandligi 6–8 metr bo‘lib, atrofida mustahkam mudofaa devori bilan o‘ralmagan qishloq joylashgan. Hozirgi Chig‘atoy Oqtepasi atrofi tekislab tashlangan va zamonaviy imoratlar qurilgan.

CHILONZOR – Uchtepa va Chilonzor tumanlaridagi mavzelar nomi. Mavzelarining soni bugungi kunda – 34 ta (Uchtepada – 14 ta, Chilonzorda – 20 ta). Chilonzorda qurilish ishlari 1956-yilda boshlangan. Mavzelar qishloq yerlari va xususiy xonadonlarning ekinzor va bog‘lari o‘rnida vujudga kelgan. Asosan, 4 va 9 qavatli turar joy binolari qurilgan. 1966-yildagi Toshkent zilzilasidan keyin mavzelarga ko‘plab yirik panelli uylar qurilgan. Chilonzor toponimi “*chilon*” (jiyda) – unabi va “*zor*” (zor – biror narsaga to‘lib-toshgan joy) so‘zlaridan iborat bo‘lib, “*chilon jiyda o‘sadigan bog‘*” ma‘nosini anglatadi.

CHILONZOR – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. Mahalla Toshkentning qadimgi mahallalaridan biri bo‘lib, taxminan 1934-yilda tashkil topgan. Avval bu hududda shu yerlik aholining dala hovlilari bo‘lgan, ayrim xonadon egalari astasekin o‘z dala hovlilarida qishlab qolishlari natijasida 1934-yilda mahalla tashkil etilgan. Mahalla asosiy aholisining oldingi uy-joylari Eski Beshyog‘och dahasida bo‘lgan. Mahalla hududidagi qabristonda Chilonzorota (Ilonota, Jilonota) qabri ustiga qabrtosh o‘rnatilgan. Rivoyatlarga ko‘ra, Jilonota tabobatdan yaxshi xabardor inson bo‘lib, shifobaxsh o‘simliklar, jumladan, “chilonjiyda” (bu o‘simlik mevasi qon bosimi kasalligiga davo hisoblanadi) daraxtlari bilan burkangan bog‘barpo qilgan.

Boshqa ma‘lumotlarga ko‘ra, bu hududda chilonjiyda ko‘p o‘stirilgani bois shu nomni olgan. Chilonzor toponimi “*chilon*” (jiyda) – unabi va “*zor*” (zor – biror narsaga to‘lib-toshgan joy) so‘zlaridan iborat bo‘lib, “*chilon jiyda o‘sadigan bog‘*” ma‘nosini anglatadi.

Mahalla “Charx Kamolon-1”, “Novza”, “Katta Chilonzor-3”, Muqimiy, “Rakat”, “Katta Chilonzor-1”, “Belariq” mahallalari bilan chegaradosh.

CHILONZOR-OQTEPA – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. XIX asr boshlarida tashkil topgan. Bo‘zsuv kanali bo‘yida joylashgan Chilonzor Oqtepasi arxeologik yodgorlik nomi bilan Oqtepa deb atalgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2023-yilda tarixiy joy nomini saqlab qolgan holda “Chilonzor-Oqtepa” deb qayta nomlangan. “Beshchinor”, “Bog‘zor”, Lutfiy, “Qatortol-1”, “Charx Kamolon-3” mahallalari bilan chegaradosh.

Chilonzor Oqtepesi – IV–XI asrlar arxeologik yodgorligi. 1940-yilda mazkur mahalla hududidagi tepalik nomini A.I. Terenojkin qayd etgan; 1960-yilda A.S. Shiller va Y.F. Buryakov, 1969–1971-yillarda Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi mazkur hududlarni ilmiy tekshirgan. Chilonzor Oqtepesi balandligi 15 metrlik tepalik bo‘lib, atrofida umumiy maydoni 60x75 m² keladigan qadimgi qishloq xarobasi qoldiqlari joylashgan. Tepalikda olib borilgan qazishmalar natijasida undagi imoratlar ustma-ust xom g‘isht va paxsadan solingani ma’lum bo‘ldi.

Bu joy VII–VIII asrlarda Choch viloyati markazi (Mingo‘rik deb atalmish arxeologik yodgorligi)ning atrofida joylashgan istehkomlaridan biri bo‘lib, gavyum bo‘lgan yirik ziyoratgohlardan hisoblangan. Arab xalifaligi istilosidan so‘ng bu yer bir qancha vaqt zardushtiylik udumlari bo‘yicha dafn etish joyi sifatida xizmat qilgan, so‘ngra xarobaga aylangan. Bu yerda kichik qishloq shakllangan davrda (X–XI asrlar) xarobalar atrofida hayot tiklangan.

CHILTO‘G‘ON – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. Asli nomi “Chilcho‘pto‘g‘on” bo‘lib, “qirqta yog‘ochdan yasalgan to‘g‘on” ma’nosida, Sebzor dahasidagi qadimiy mahalla. “Uchko‘cha”, “Taxtapul”, “Tarnovboshi” mahallalari bilan chegaradosh bo‘lib, bir qismi shahar chekkasiga borib taqalgan. O‘rta asrlarda shu yerda Kaykovus kanali ustiga qurilgan. Sebzor dahasi va uning atrofini suv bilan ta’minlovchi suvayirg‘ich – bosh to‘g‘on bo‘lgan. Hozirgi vaqtda bu yerda muhandislik tipidagi Taxtapul suv taqsimlovchi inshoot barpo etilgan. 1930–1932-yillarda mahalla “Qizil partizan”, 1954–1956-yillarda “Yangi hayot” nomlari bilan atalgan. 1998-yilda mahallaga mahalla faoli Abduvali Abduqayumov nomi berilgan. U ketmon bilan yer qazib, ariq chiqarib, Kaykovus kanali orqali mahallaga ichimlik suvi olib kirgan. 2008-yil 17-iyuldan mahalla hozirgi “Chilto‘g‘on” nomi bilan atalib kelinmoqda. Mahalla hududida Iskandar jome masjidi joylashgan.

Mahalla Miskin, “Xonchorbog‘”, “Yuqori Sebzor”, Kohota, “Taxtapul”, “Turkqo‘rg‘on” mahallalari bilan chegaradosh.

CHIMBOY – Olmazor tumanidagi mahalla va dahaning nomi. Mahalla 1931–1940-yillarda tashkil topgan. “Achaobod”, “Guruchariq”, “Allon”, “Zamondosh”, “Chig‘atoy Darvoza” mahallalari bilan chegaradosh.

Chimboy dahasi “Olimpiya” mahallasida joylashgan.

Toponim tarkibi “chim” va “boy” so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, undagi *chim* so‘zi urug‘ nomi, etnonimni anglatadi. Undan “chimboy” etnonimi hosil bo‘lgan. So‘ngra etnonimdan toponim vujudga kelgan: chim+boy > chim boy > chimboy > Chimboy. “Chim urug‘i vakillari yashagan joy” degan ma’no Chimboy toponimining ma’nosini ifodalaydi.

Mahalliy oqsoqollarning fikriga ko‘ra, o‘tmishda Sag‘bon mozorining ro‘parasidan boshlab Sag‘bon ko‘chasining g‘arb tomoni katta jarlik bo‘lib, bu yerlar chimga boy bo‘lgan. Shaharni obodonlashtirish uchun chim shu yerdan olib ketilgan, mahalla nomi shundan olingan.

Respublikamizning ko‘plab hududlarida shu nomdagi geografik obyektlar mavjud (masalan, Samarqand viloyatida Chimboy, Chimboyobod; Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida Chimboyariq, Chimboytepa; Yakkabog‘ tumanida Chimboytepa; Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi tuman va shahar). Bu esa toponim arealining kengligi va u aynan urug‘ nomi ekanligini asoslashga dalil bo‘ladi.

CHIMYON – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 1986-yilda tashkil topgan. Ijtimoiy hayotda tarixiy o‘zgarishlar ro‘y berayotganligi sababli “Yangi-hayot” nomi bilan atalgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Chimyon” deb qayta nomlangan. “Geofizika”, “Yalang‘och”, “Katta Qorasuv”, “Sultoniya”, “Gulsanam”, “Geologlar” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi o‘zbek tilidagi “chimyon” so‘zidan olingan bo‘lib, “yashil maydon” yoki “bog‘” ma‘nosini anglatadi. Bu nom mahalla hududining tabiiy go‘zalligi va yashil maydonlari bilan bog‘liq.

O‘zbek tilida Chimyon – “chim”, “qir” deb yoziladi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” (XI asr) asarida chumgan o‘tzor, shirin ajriq; chung‘on – qir ma‘nolarida qo‘llanilgan. Chimyon aslida Chimgan bo‘lib, o‘tzor, yashil vodiya degan ma‘noni anglatadi. Chimyon Chashmadamiyon yoki Chilkon so‘zlaridan olingan. Chashmadamiyon “suv (buloq) ko‘p”, Chilkon esa “konlari ko‘p” joy demakdir.

Mahalliy xalq Chimyonni *chimzor* ma‘nosidagi *chimyon* so‘zidan kelib chiqqan deydi. Lekin Chimqo‘rg‘on, Chimkent kabi bir qancha nomlar “chem”, ya‘ni “qo‘rg‘on” so‘zidan kelib chiqqan, degan fikrlar ham bor.

Sug‘dda chim (chem) so‘zi hozir ham “qo‘rg‘on, qal’a” ma‘nosida ishlatiladi. Chim (Chem) – ihota, to‘siq, g‘ov ma‘nosini anglatib, ayniqsa, respublikamiz janubida Chim komponentli toponimlar ko‘p uchraydi.

Chim – yerdan o‘rib olib, oftobda quritiladigan o‘t, deb izohlangan. Shuningdek, chimyon ikki komponentli hisoblanadi, ya‘ni chim (ildiz, tomirlari zich o‘rnashishi sababli qalin bo‘lib o‘sadigan o‘t-o‘lan) va -yon affiksi. Chimyon – o‘t-o‘lan qalin o‘sgan joy degan ma‘nolarni ham anglatadi. Chunki xalq tilida chim o‘t (past bo‘yli, zich bo‘lib o‘sgan o‘t) birikmasi mavjud, degan fikrlar ham bor.

CHINGELDI – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Qibray tumanidan shahar hududiga o‘tkazilgan. “Iqtidor”, “Jarboshi”, “Ijodkor” mahallalari bilan chegaradosh.

Qozoqlarning suvan qabilasining bir urug‘i jingeldi deb atalgan. *Jankeldi-Jing‘ildi* (*jing‘il* – yulg‘unning shoxlari) so‘zining dialektal variantidir. Aniqrog‘i, *Jangeldi* – etnonim, qozoqlarning *uak* qabilasida *jangeldi* urug‘i mavjud (M.C. Муканов. Этнический состав и расселение казахов Среднего Жуза. Алма-Ата, 1974. С. 66); qozoqlarning Alimuli qabilasida (H.A. Аристов. Заметки этнической истории. С. 380), shuningdek, turkmanlarning Gyoklen qabilasida (Д.М. Овезов. Население долины Чандыра и среднего течения Сумбара. Ашхабад, 1976. С. 45) ham Jangeldi urug‘i qayd etilgan.

“Boburnoma” asarida *jangal* soʻzi “*oʻrmon*” maʼnosini ifodalaydi (“Boburnoma”. – T., 1960. – 340, 345-bet). Qiziqarli tomoni shundaki, Bobur toʻqay soʻzini hozirgidagiday *chakalakzor* maʼnosida qoʻllamagan, toʻgʻri maʼnoda “*daryoning nurlanishi*” deb qoʻllagan (“Boburnoma”. – T., 1960. – 420-bet). “Boburnoma”da muallif tomonidan *oʻrmon toʻtisi jangaliy toʻti* deb nomlangan (“Boburnoma”. 1960. – 337-bet).

CHINNI OBOD – Olmazor tumanidagi mahalla va mavzelarning nomi. Mahalla 2022-yilda “Guruchariq” mahallasidan ajralib chiqqan. “Achaobod”, “Guruchariq”, “Guzarboshi” mahallalari bilan chegaradosh.

Chinniobod-1, Chinniobod-2, Chinniobod-3 mavzelari ham 2022-yilda tashkil etilgan va “Chinniobod” mahallasida joylashgan.

“Guruchariq” mahallasi hududida 1952-yilda Chinni zavod binosi qurilgan boʻlib, unda 6 mingdan ziyod ishchi mehnat qilgan. Soʻnggi yillarda zavod faoliyati toʻxtatilib, tashlandiq va qarovsiz holatga kelib qolgan. Ushbu joylarda zamonaviy yangi koʻrinishdagi koʻp qavatli uylar qurilib, obod joylarga aylantirilgan va yangi qurilgan uylar aynan yangi tashkil etilgan “Chinniobod” mahallasi hududida joylashgan. Shu bilan birga, mahallaning tub aholisi qadimdan kulolchilik kasbi bilan shugʻullangan, mahalla nomi shundan.

Toponimning tarkibi “*chinni*” va “*obod*” soʻzlaridan iborat. Turli roʻzgʻor buyumlari, yodgorliklar, izolyatsion ashyolar tayyorlash uchun ishlatiladigan oq loy *chinni* deb ataladi.

Geografik nomning tarkibidagi *obod* soʻzi esa “*koʻrkam binolar, chiroyli koʻchalar, bogʻ-u rogʻlar bilan goʻzallik kasb etgan, gullab-yashnagan*”, “*oʻzlashtirilgan, obodonlashtirilgan*” kabi maʼnolarni ifodalaydi.

CHINOR – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1976-yilda tashkil topgan. 1970-yillarda mahalla hududi obodonlashtirilib, chinor daraxtlari ekilib koʻkalamzorlashtirilgan. Mahalla nomi shundan kelib chiqqan. “Tolariq”, “Parvona”, “Yangi Qoʻyliq”, “Bilimdon”, “Eshonbuloq”, Barotxoʻja, “Yuksalish” mahallalari bilan chegaradosh.

Chinor toponimi ming yil umr koʻradigan sersoya katta daraxt nomi. Demak, fitonimdan toponim hosil qilingan.

CHORBOGʻ – Yangi hayot tumanidagi mahalla nomi. 2015-yilda Sergeli tumanida “Yorqinhayot” mahallasidan ajralib yangi tashkil etilgan “Hayotobod” mahallasi. Mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Chorbogʻ” deb qayta nomlangan. 2021-yilda Yangi hayot tumaniga oʻtkazilgan. “Charogʻon”, “Viqor”, “Navqiron”, “Yorqinhayot”, “Zarbdor”, “Olchazor”, “Yoʻldosh” mahallalari bilan chegaradosh.

Toʻrtburchak shaklidagi, shahar chetidagi katta bogʻ yoki tok, mevali va xushmanzara daraxtlar hamda polizdan iborat boʻlgan bogʻ shunday nomlangan. Bu nom mahalla hududining goʻzalligi va yashil maydonlari bilan bogʻliq.

Geografik nomni hosil qilgan *chorbogʻ* soʻzi fors-tojikcha boʻlib, aynan “*Toʻrt bogʻ*”, “*Toʻrt tomoni bogʻ boʻlgan uy yoki qoʻrgʻon*”, “*Toʻrt tomoni devor*”

bilan o'ralgan bog'', *“dala hovli”*, *“tokzor”*, *“mevali bog''*, *“park (tabiiy istirohat bog'i)”* va *“poliz”* kabi ma'nolarni anglatadi.

XIV–XV asrlarda Amir Temurning Samarqandda 12 ta bog'i – chorbog'i bo'lgan. Bog'larda hashamatli ko'shklar qurilgan. XV–XVI asrlarda chorbog'lar boy yer egalariining mulki hisoblangan. Ba'zan shaharning ikki tomoniga teraklar ekilgan bosh xiyoboni *chorbog'* deyilgan.

Hozir ko'p joylarda gir atrofi devor bilan o'ralgan har qanday bog', shuningdek shahar chekkasidagi bog'lar *chorbog'* (*chorvoq*) deyiladi. Farg'ona vodiysida *chorvoq* degan urug' bo'lgan.

CHORSU – Shayxontohur tumanidagi mahalla va mavzening nomi. “Chorsu” Beshyog'och dahasining qadimiy mahallalaridan biridir. Mahalla sifatida XI asrda vujudga kelgan. 1994-yil sentyabrda qayta tashkil etilgan. “Gulobod”, “Eskishahar”, “Kattahovuz”, “Eshonguzar”, “Chaqaq”, “Sarxumdon”, “Gulbozor”, “Qoratosh”, Suzukota mahallalari bilan chegaradosh.

Chorsu mavzesi Samarqand Darvoza va Ko'kcha Darvoza ko'chalari oralig'ida, “Chorsu” mahallasida joylashgan.

O'rta asrlarda Toshkent shahri ko'chalarining ikki tomoni bozor-rastalardan iborat bo'lib, ko'chalar g'arbdan sharqqa va janubdan shimolga cho'zilgan. Ko'chalar kesishgan joydagi gumbazli bozor “chorsu” deb atalgan.

Mahalla hududida Toshkent buloqlaridan eng mashhuri *Ukkosha bulog'i*, Toshkent hammomlaridan eng yirigi va shifobaxshligi bilan ajralib turadigan *Badalmat hammomi* bo'lgan. Ukkosha bulog'ining suvi shifobaxsh hisoblanganligi uchun bu yerga maxsus shiypon qurilgan va suv olib ichish uchun zarang kosalar qo'yilgan. Yozning issiq kunlarida meshkopchilar bu buloq suvidan olib “Chorsu” bozorida sotib yurishgan.

Toponimist S.Qorayev ma'lumotiga ko'ra, Chorsu qadimiy so'z bo'lib, zar-dushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da *chovursuq* chovrusuk (*“to'rt tomonlama”*) shaklida uchraydi va “bozor” ma'nosini anglatadi. Keyinchalik bu so'z “choharsu” va nihoyat “chorsu” shaklini olgan va “gumbazli bozor” ma'nosini anglatgan.

Sug'dlar o'z bozorlarini “*vacharn*” (ba'zan metatezaga uchragan “*varchan*” shakli qo'llangan) deb atashgan (mazkur so'z hozirgi tilimizda juft holda qo'llanadigan “bozor-o'char” so'zining ikkinchi qismida uchraydi). O'rta asr arab mualliflari Markaziy Osiyo bozorlarini “*suq*”, ko'plikda “*asvok*” deb, forslar esa “*bozor*” deb atashgan. Bundan tashqari, tarixiy asarlarda *chorbozor* yoki *chorsuq* so'zi ham uchraydi (arabcha suq – bozor). Shunday qilib, ko'chalar kesishgan joydagi bozor maydoni, ya'ni markaziy gumbaz *chorsu* deb atala boshlagan.

CHORTOQ – Yangiheyot tumanidagi mahalla nomi. Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanidan o'tgan. “Fayzli”, “Toshkent” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomini hosil qilgan chortoq so'zi “to'rt toqli gumbaz”, “boloxona”, “qorovulxona (chordoq)” ma'nolarini anglatadi. H.Hasanov bu nomni quyida-

gicha talqin etadi: “Chortoq toponimi “to‘rt tog‘” deb izohlanadi, lekin bunday emas. To‘rt gumbazli (to‘rt toqisi bo‘lgan) inshoot (ark, qo‘rg‘on, qorovulxona) *Chortoq* deyilgan. Ba‘zan qo‘rg‘onning to‘rt tomonida turadigan qorovulxonalar (baland minoralar) ham Chortoq deb atalgan”. Demak, joy o‘rtasida baland ark, qorovulxona bo‘lganligi bois shunday atalgan.

S.Qorayev esa toponimni quyidagicha izohlagan: “Chortoq oykonimi ikki so‘zdan – *chor* (to‘rt) va *toq* (ark, gumbaz) so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, “to‘rt go‘shali”, “gumbaz” demakdir, toq so‘zi Markaziy Osiyodagi eng qadimgi me‘morchilik termini bo‘lib, “*arkli bino*” ma‘nosini anglatadi. Peshtoq (imoratning oldi tomonidagi toq), toqi ravoq (hashamatli saroy). Chortoq so‘zlari ana shu iboralardan tarkib topgan. Ayvon, boloxona, qorovulxona ham *chortoq* deyilgan”.

Mashhur sharqshunos olim, yirik tarixchi Vasiliy Grigoryevich Yanning ko‘rsatishicha, Markaziy Osiyoning O‘zbekiston qismini o‘zida erkin massagetlar, sug‘dlar, saklar mingdan ortiq sun‘iy tepalar ko‘tarib, undan qorovulxona sifatida foydalanganlar.

T.Nu‘monov va B.Turdaliyevlar Chortoq astionimi haqida quyidagi fikrlarni bildirishadi: “Chortoq – bu fors-tojikcha so‘zga aloqador bo‘lib, *choxar* – to‘rt, *toq* – *ustun*, ya‘ni to‘rt ustun ustiga qurilgan qorovulxona, *chayla* ma‘nosini anglatgan”.

CHOSHTEPA – Yangihayot tumanidagi mahalla nomi. 1966-yilda tashkil etilgan, eski nomi “G‘ishtko‘prik” bo‘lgan. Sergeli tumanidan 2021-yilda Yangihayot tumaniga o‘tkazilgan. “Beshqo‘rg‘on”, “Jo‘nariq”, “Yangi Chosh-tepa”, “Yangi Darxon” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi Shoshtepa shahar xarobasi nomidan olingan. Shoshtepa – arxeologik yodgorlik, tashqi va ichki qishloq hamda baland ark – qal‘adan iborat shahar xarobasi (miloddan avvalgi IX asr – milodiy XVI asr). Jo‘n kanali bo‘yida (Choshtepa ko‘chasida) joylashgan. Shoshtepa maydoni 25 gektarga yaqin. Yonbag‘irlari tik bo‘lgan tepalik ko‘rinishidagi dastlabki qishloq (150x120 m) istehkomli bo‘lib, arkni ham o‘z ichiga olgan, ark bilan qishloqni Jo‘n kanali ajratib turgan. Quyi madaniy qatlamdan Burganli madaniyati (miloddan avvalgi IX–VI asrlar)ga oid o‘troq dehqonlar qishlog‘ining qoldiqlari topilgan. Dastlab Turkiston arxeologiya havaskorlari to‘garagi a‘zolari tomonidan qayd etilgan, N.P. Ostroumov arxeologik qazishmalar o‘tkazgan (1896), G.V. Grigoryev tekshirgan (1934), N.I. Krashennikova (1956), F.Dadaboyev (1970) arxeologik kuzatishlar olib borishgan, 1978-yildan Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan o‘rganilgan.

Toponimning qadimgi shakli sug‘dcha “choch” (yoki “chosh”) so‘zlaridan olingan va “Tosh uyumi”, “Tosh qo‘rg‘on” ma‘nolarini anglatadi. Buyuk ipak yo‘lida tashkil topgan va uning nomi qadimgi xitoy manbalarida “Chjeshi” bo‘lib, “Tosh qo‘rg‘on” degan ma‘noni anglatadi, ya‘ni mahalliy atalishidan tarjima qilib berilgan.

Forsiy adabiyotlarda Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma” asaridan boshlab, shahar nomi “Choch” shaklida uchraydi va nazmlarda “Kamoni chochiy” (“Chochiy kamon”) ko‘p eslatiladi. Arablar shaharni bosib olgach, arab tilida “ch” tovushi bo‘lmagani sababli, arab yozuvidagi manbalarda “Choch” o‘rniga “Shosh” yozildi va ushbu shakldagi toponim arab, fors va turkiy tillarda yozilgan arab yozuvidagi yozma merosdan keng o‘rin oldi. Biroq hozirda yana “Chosh” shaklida yuritila boshlangan.

CHUQURSOY – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. Bu hududning relyefi tuzilishidan kelib chiqib, 1985-yillarda “Chuqursoy” mahallasi deb nomlangan. Mahalla janubidan Damariq va Qoraqamish kanallari oqib o‘tadi. Islomota, “Gulsaroy”, “Gulzor”, “Paxta”, “Yangi Toshkent”, “Qichqiriq” mahallalari bilan chegaradosh.

Ushbu mahalla nomi “*chuqur*” va “*soy*” so‘zlarining birikishidan hosil bo‘lgan. Toponimni hosil qilgan *chuqur* so‘zi “*o‘yilgan past joy, o‘yiq, pastqam yer*” ma‘nolarini anglatadi. Geografik nom tarkibidagi *soy* termini “*kichik daryo*”, “*oqar suv*”, “*suv yo‘li*”, “*vodiy*”, “*suv oqadigan pastlik*” degan ma‘nolarda mamlakatimizning bir qancha hududlarida joy nomlarini hosil qiladi.

Tajribali toponimist T.Nafasov esa *soy* so‘zi (termini)ga quyidagicha ta’rif beradi: “Soy – ikki tomoni qirsimon cho‘ziq balandlik bilan o‘ralgan, o‘rtasi vodiy bo‘lgan sayxonlik. Soy – bahor oylarida yog‘in suvlari oqadigan, yozda qurib qoladigan, kichik o‘zanli oqar suv”. “Chuqursoy” – gidroobyektning joylashgan holatini ko‘rsatuvchi atama sanaladi.

CHO‘LPON – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1992-yilda tashkil topgan. Mahallaning nomi shoir Cho‘lpon sharafiga qo‘yilgan. “Tong yulduzi”, “Ma‘rifat”, “Fidoyilar”, “Asaka”, “To‘ytepa”, “Boyqo‘rg‘on”, “Salor”, “Nur”, “Movarounnahr”, “Mashinasozlar”, Mirzakalon Ismoilij mahallalari bilan chegaradosh.

O‘zbek xalqining XX asrda yetishib chiqqan ulug‘ siymolaridan biri Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon (Yunusov) 1897-yilda Andijon shahrida tug‘ilgan. Dastlab madrasada (1908–1912), so‘ngra rus-tuzem maktabida (1912–1914) tahsil olgan. Cho‘lponning ijodi 1913–1914-yillardan boshlangan bo‘lib, u avval “Qalandar”, “Mirzaqalandar”, “Andijonlik” va nihoyat Cho‘lpon (“Tong yulduzi”) taxallusi bilan ijod qildi. U ham shoir, ham nosir, ham dramaturg sifatida o‘z xalqi adabiyoti ravnaqiga salmoqli hissa qo‘shdi. Uning tarjimasidagi U.Shekspirning “Hamlet” tragediyasi o‘zbek tarjima san’atining shoh namunasi hisoblanadi.

Cho‘lpon ham Fitrat va Abdulla Qodiriylar kabi qatag‘onlik davrining qurboni bo‘lgan. U 1937-yilning 14-iyulida qamoqqa olinib, 1938-yilning 4-oktyabrida otib tashlangan. Vafotidan so‘ng Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti (1991) va “Mustaqillik” ordeni (1999) berilgan.

CHO‘PONOTA – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1962-yili hozirgi mahalla hududida O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati qoshida korxona qurilgan. So‘ngra 1964-yili jamiyat tomonidan ko‘zi ojiz nogironlar yashaydigan 4 qavat-

li turar joy binosi va korxona yotoqxonasi qurib bitkazilgan. Ana shu uylar va jamiyat asosida 1965-yili “Cho‘ponota” mahallasi tashkil topgan. Keyinchalik ko‘p qavatli uylar qurilib mahalla kengaygan. Mahalla nomi cho‘ponlar homiysi Cho‘ponota nomidan olingan. Lutfiy, “Qatortol”, “Diyor”, “Bog‘iston”, “Guzar”, “Ko‘tarma” mahallalari bilan chegaradosh.

CHUSTIY – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 1994-yilda tashkil topgan. Beruniy hamda Nurafshon shohko‘chalari oralig‘ida joylashgan. Shoir Chustiy shu hududda yashab, ijod qilgan. Mahallaga shoirning nomi berilgan. “Eskishahar”, “Quyosh”, “Ilg‘or”, “Gulobod”, “Chig‘atoy Darvoza”, “Bog‘ko‘cha” mahallalari bilan chegaradosh.

Shoirning asl ismi Nabixon Xo‘jayev bo‘lib, u 1904-yil 20-fevralda Chust shahrida to‘quvchi oilasida tug‘ilgan. Chustiy Alisher Navoiyning yubileyi munosabati bilan 1939-yili Toshkentga ishga chaqiriladi va buyuk shoir ijodini jamlash, o‘rganish, nashr etish ishlarida faol ishtirok etadi. Chustiy asosan mumtoz she‘riyat yo‘lida ijod qilib, g‘azal, muxammas, musaddas, murabba‘, ruboiy, tuyuq, masnaviylar yozgan. Chustiy o‘zbek mumtoz she‘riyatining ulkan namoyandalari Navoiy, Fuzuliy, Nodira, Furqat va boshqa ijodkorlarning an‘analarini davom ettirish bilan birga ularning eng yaxshi g‘azallariga taxmislar bog‘lagan. Shuningdek, u mumtoz va zamonaviy fors adabiyotining mashhur vakillari Sa‘diy, Hofiz, Xusrav Dehlaviy, Sobir Termiziy, Mirzoda Ishqiy, Ja‘far Iftixor, Parvin E‘tisomiy va boshqa adiblarning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

SHAYX SHIBLIY – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. Mashhur mutasavvuf Shayx Shibliy nomi bilan atalgan. “Xiyobontepa”, “Yangitarnov”, “Minor”, Mirzo Ulug‘bek, Firdavsiy, “Bo‘zsuv”, “Bodomzor” mahallalari bilan chegaradosh.

Shayx Shibliy (861–946) – islom dunyosining mashhur tasavvuf olimlaridan biri bo‘lib, to‘liq ismi Abu Bakr Dulaf ibn Jahdar ash-Shibliydir. U IX–X asrlarda yashagan va tasavvuf ta‘limotining rivojlanishiga o‘zining katta hissasini qo‘shgan.

SHAYXONTOHUR – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Dastlab “Kenja” mahallasi deb yuritilgan. 1994-yildan hozirgi nom bilan ataladi. Shayx Xovandi Tohur maqbarasi yaqinida joylashgani tufayli shunday atalgan. Kohota, “Janggoh”, “Labzak”, “O‘rda”, “Xadra” mahallalari bilan chegaradosh.

Shayx Xovandi Tohur maqbarasi (XV asr o‘rtalari, XIX asr) taniqli diniy arbob, ulamo vafot etganidan so‘ng avliyo darajasida ulug‘langan Shayx Xovandi Tohur (Tahur) sharafiga barpo etilgan. U tog‘liq Bog‘iston qishlog‘ida Shayx Hasan Bulg‘oriyning shogirdi bo‘lmish Shayx Umar Bog‘istoni xonadonida tavallud topgan. Bu oila sulolaviy olimlar va tasavvuf tariqatlari vakillari bilan qizg‘in muloqot qilib kelgan katta yer egalari xonadoni bo‘lgan.

Mahalliy aholi orasida keng tarqalgan rivoyat va afsonalarga qaraganda, avliyoning nomi kabutar qanotlari potirlashi (at-Tahur) bilan monandlashtirilgan

– ota-onasi maqbara boshiga chaqaloqni olib kelishganda Shayx Zayniddin Quyi Orifoniy mozoridan kabutar gurra-gurra osmonga ko‘tarilgan ekan. Maqbara bir necha marta qayta qurilgan, dastlab barpo etilgan imoratdan faqatgina poydevori saqlanib qolgan, xolos. Maqbara bunyod etilishi homiysi mashhur Xoja Ahror Valiy – Shayx Xovandi Tohurning evarasi bo‘lgani ham mustasno emas. Me‘moriy-arxeologik tadqiqotlar natijasi o‘laroq eng qadimgi bino go‘rxona bo‘lganligi, keyinchalik uning yonidan peshtoqli ziyoratxona qurilgani aniqlangan. Bundan tashqari, majmuaning yer usti qismi, chamasi XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida qayta ta‘mirlangan. 1910–1912-yillarda esa maqbara namanganlik Shayx Hojimat eshon mablag‘i hisobidan ta‘mirlangan, gumbaziga metall parchinlar qoplangan.

SHALOLA – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 1957-yilda tashkil topgan. 2005-yilgacha “O‘zbekiston” mahallasi deb atalgan. 2005-yildan hozirgi nom bilan ataladi. “Yalang‘och”, Munavvarqori, “Beshkapa”, “Feruz”, “Kamolot”, “Katta Yalang‘ochota”, “Yangi Kamolot” mahallalari bilan chegaradosh.

“*Tepadan zarb bilan sharillab tushadigan suv*” ma‘nosidagi badiiy “shalola” termini geografik adabiyotlarda “*sharshara*” shaklida qabul qilingan.

SHARAF – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 2008-yilda tashkil topgan. “Qoziguzar”, “Sharq tongi”, “Sharq”, “Bahoriston” mahallalari bilan chegaradosh.

Toponimni hosil qilgan “sharaf” so‘zi arabcha bo‘lib, “*faxr*”, “*obro‘*”, “*hurmat*”, “*iftixor*” degan ma‘nolarni anglatadi.

SHARQ – Chilonzor tumanidagi mahalla va dahaning nomi. Mahalla 1988-yilda tashkil topgan. Dastlab “Qizil Sharq” deb atalgan. 2000-yildan hozirgi nom bilan yuritiladi. “Sharq tongi”, “Qoziguzar”, “Sharaf” mahallalari bilan chegaradosh.

Sharq dahasi “Sharq”, “Sharq tongi”, “Sharaf” mahallalarida joylashgan.

Toponimni hosil qilgan *sharq* so‘zi “dunyoning to‘rt tomonidan biri, g‘arbga qarama-qarshi bo‘lgan tomon, quyosh chiqadigan tomon, kunchiqish”ni bildiradi.

SHARQ GULI – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1966-yildagi zilziladan so‘ng qurilgan. 1968-yilda aholi sonining ko‘payishi hisobiga Usmon Yusupov mahallasidan ajralib chiqib, “Sharq guli” nomi bilan atalgan. “Qoryog‘di”, Xondamir, “Jarbuloq”, Ibrat mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi shu hududdagi “Sharq guli” badiiy buyumlar ishlab chiqarish birlashmasi nomidan olingan. Mahalla ayollarining ko‘pchiligi kasanachilik bilan shug‘ullanishgan.

SHARQ TONGI – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. Sho‘rolar davrida jamoa xo‘jaligining dala shiyponi bo‘lgan. 2003-yilgacha “Qizil Sharq-2” mahallasi deb atalgan. 2003-yildan hozirgi nom bilan ataladi. Ushbu mahalla hududida asosan dehqonlarning dala hovlilari bo‘lib, 1966-yildagi zilziladan so‘ng yakka tartibda imorat qurish uchun aholiga yer ajratib berilgan. “Sharq”, “Xayrobod”, “Bekto‘pi”, “Xonto‘pi”, “Katta Xirmontepa”, “Qoziguzar”, “Sharaf”, “Hamdo‘st”, “Bahoriston” mahallalari bilan chegaradosh.

“Sharq tongi” – bu mehnatkash insonlarning yangi kunga bo‘lgan intilishi, sa’y-harakatlarining boshlanishidir. U oydin osmon, musaffo havo va tabiatning uyg‘onishi orqali insonning yangi maqsadlar sari yo‘l olishini anglatadi.

SHARQ HAQIQATI – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1964-yildan jamoa xo‘jaligi nomi bo‘lgan va keyinchalik tashkil etilgan mahallaga ham shu nom berilgan. “Katta Hasanboy”, Hasanboy mahallalari bilan chegaradosh.

“Sharq haqiqati” iborasi Sharq mutafakkirlarining ma’naviy merosi, ularning haqiqat va bilimga bo‘lgan intilishlarini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Shuningdek, bu ibora Sharq xalqlarining haqiqatga bo‘lgan qarashlari, falsafiy va ma’naviy merosini ifodalashda ham qo‘llanilishi mumkin. O‘tgan asrning 30-yillarida Toshkentda chop etilgan “Sharq haqiqati” gazetasi mavjud bo‘lgan. Bu gazeta o‘sha davrdagi ijtimoiy va madaniy hayot haqida ma’lumotlar bergan. Masalan, Quddus Muhammadiyning ijodi dastlab shu gazetada chop etilgan.

SHARQ YULDUZI – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1967-yilda aholi sonining ko‘payishi hisobiga Ibrat mahallasidan ajralib, shu nomda tashkil etilgan. “Ko‘kcha-Oqtepa”, Xondamir, “Beshqayrag‘och”, “Nishabariq”, Abdulla Qodiriy, Ibrat mahallalari bilan chegaradosh.

“Sharq yulduzi” atamasi turli ma’nolarni ifoda qilishi mumkin:

Sharq yulduzi aksar hollarda Venera sayyorasiga ishora qiladi, chunki u tongda quyosh chiqishidan avval yorqin porlab turishi bilan mashhur. U “Subh yulduzi” yoki “Tong yulduzi” deb ham ataladi.

“Sharq yulduzi” iborasi ko‘pincha umid, yo‘l ko‘rsatuvchi mayoq yoki rahnamoni anglatadi. U ko‘p she’riy asarlarda ilhom manbai sifatida tasvirlanadi. Tarixiy ma’noda “Sharq yulduzi” atamasi sharq xalqlari madaniyati, san’ati yoki ma’naviyatining ravnaqiga ishora qilib, buyuk shaxslar yoki e’tiborli voqealarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin.

SHAROF RASHIDOV – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. Mahalla nomi taniqli davlat arbobi va yozuvchisi Sharof Rashidov sharafiga berilgan. “Qashqar”, “Mingo‘rik”, “Afrosiyob”, Yunus Rajabiy mahallalari bilan chegaradosh.

Sharof Rashidovich Rashidov (6-noyabr (24-oktyabr eski hisob bo‘yicha) 1917 – 31-oktyabr 1983) – taniqli adib, yirik davlat arbobi. Sharof Rashidov katta mavqega ega shaxs bo‘lib, uzoq vaqt mamlakatni boshqargan. U to‘qqiz yil O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumiga, salkam yigirma besh yil O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasiga rahbarlik qilgan. U o‘zining 66 yillik umrining yarmidan ko‘pini bevosita respublikani boshqarishga sarflagan.

Rashidovning ijodi 30-yillarning ikkinchi yarmida boshlangan. U dastlab she’riyatda qalam tebratib, “Samarqand kuylari” nomi bilan birinchi she’riy to‘plamini e’lon qilgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan she’rlari 1945-yilda “Qahrim” to‘plamida chop etilgan. Adibning “G‘oliblar”(1953) qissasi 1972-yilda qayta ishlanib, “G‘oliblar” romani sifatida nashr etiladi. “Bo‘rondan kuchli” (1958), “Qudratli to‘lqin” (1964) romanlari yaratiladi. Ijodkorning “Kashmir

qo'shig'i" (1956), "Komde va Mudan" (1959) kabi lirik qissalari va "Koinot" (1960) kabi kinoqissasi an'anaviy Sharq dostonchiligi uslubida bitilgan bo'lib, yoshlik, bahor, go'zallik, hayot nashidasi madhiga bag'ishlangan. Adib hayotining so'nggi yillarida yaratgan "Dil amri" qissasi urush yillarida Belorus zaminida kechgan jangchilarning g'alaba yo'lida olib borgan hayot-mamot kurashi tasviriga bag'ishlangan. 1981–1983-yillarda adibning besh jildlik asarlari rus va o'zbek tillarida chop etilgan.

Sharof Rashidov Toshkentdagi "Xalqlar do'stligi" san'at saroyi me'moriy majmuasi uchun qurilish g'oyasining muallifi va ijodiy rahbari sifatida vafotidan so'ng Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti bilan taqdirlangan (1994). Jizzax viloyatidagi tuman, Toshkent va Jizzax shahridagi ko'chalar, maktablar, mahallalarga uning nomi berilgan.

SHAFTOLIZOR – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 2006-yilda tashkil topgan. Ibn Sino, "Ipakchi", "Bekobod", "Zarafshon", "Istirohat" mahallalari bilan chegaradosh.

Respublikamizda o'simlik va daraxt nomlari bilan ataladigan aholi manzil-gohlari ko'p. Bunday fitooykonimlar tarkibidagi *-zor* qo'shimchasi ma'lum turdagi o'simlikni shu yerda keng tarqalganligini bildiradi. Shaftolizor nomi o'zbek tilida *shaftoli bog'i* yoki *shaftoli yetishtiriladigan* joy ma'nolarini anglatadi.

SHAHRIOBOD – Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 1992-yilda tashkil topgan. Habib Abdullayev, "Navnihol", "Posira", "Bog'imaydon", "Katta Yalang'ochota" mahallalari bilan chegaradosh.

Mahallaning "Shahriobod" nomi fors tilidagi "*shahar*" va "*obod*" (ravnaq topgan, gullab-yashnagan) so'zlaridan tashkil topib, "*gullab-yashnagan shahar*" ma'nosini anglatadi.

SHAHRISABZ – Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – "Yoshlik". Ushbu joydagi asosiy ko'cha nomi bilan uyg'unlashtirish maqsadida, 2005-yilda "Shahrisabz" deb qayta nomlangan. "Oqibat", "Qashqar", "To'ytepa", "Mustaqillik" mahallalari bilan chegaradosh.

Toponimning ma'nosi borasida quyidagi ma'lumotlar juda qimmatlidir: "...bahorlar sahrosi va shag'ri va bomi va tomi ko'b, sabz bo'lur uchun Shahrisabz ham derlar" (Z.M. Boburning "Boburnoma" asaridan). Tavsifdan ma'lumki, tabiiy belgilari va fazilatleri mahallaning nomlanishiga asos bo'lgan. Shahrisabz – "*bog'-u bog'otlari, daraxtlari, ko'kat-u poliz ekinlari, o't-o'lanlari bisyor shahar*" ma'nosini anglatadi.

Shahrisabz – O'zbekistonning Qashqadaryo viloyatida joylashgan qadimiy shahar bo'lib, boy tarixiy va madaniy merosi bilan mashhur. Shahar nomi fors tilidan olingan bo'lib, "yashil shahar" ma'nosini anglatadi. Shahar avvallari Kesh nomi bilan ma'lum bo'lgan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Shahrisabzga miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalarida asos solingan. 1351-yilda zarb etilgan kumush tangalarda "Shahrisabz" nomi uchraydi. Sharafiddin Ali Yazdiy (XV asr)

shahar to'g'risida: "Shahrisabz, uni turkiylar Kesh deb ataydilar" deb yozgan. Shahrisabz yaqinidagi Xoja Ilg'or qishlog'i (hoz. Yakkabog' tumani hududi)da Sohibqiron Amir Temur tavallud topgan. Shahrisabz o'sha davrda "Qubbatulilm valadab" nomi bilan yuritilgan. Xusrav Dehlaviy, Bedil, Mirzo G'olib kabi allomalarning ota-bobolari Shahrisabzda tug'ilgan. Amir Temur davrida shahar ko'plab me'moriy yodgorliklar bilan boyitilgan. Bugungi kunda ham Shahrisabzda ko'plab tarixiy obidalar saqlanib qolgan. Shuningdek, Shahrisabzning tarixiy markazi YUNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, uning madaniy ahamiyatini yanada oshiradi.

SHAHRISTON – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. Mahalla avval Karl Marks, so'ng Sharifxo'ja Mansurxo'jayev, 2006-yildan "Shahrison" nomi bilan atalgan. "Otchopar-1", "Anorzor", "Yunusobod", G'ayratiy, "Iftixor" mahallalari bilan chegaradosh.

Shahrison so'zi fors-tojik tilidan o'zbek tiliga o'tgan bo'lib, "shahar" va "-iston" (joy, yurt) qismlaridan tashkil topgan. Qadimgi shahar markazi – o'rta asrlarda shaharlarda shahrison deb atalgan markaziy qism bo'lgan, bu yerda hukumat binolari, bozorlar va asosiy aholi yashaydigan hudud joylashgan.

Mustahkamlangan shahar – shahrison atamasi ba'zan qal'a devorlari bilan o'ralgan shaharning ichki qismini ham anglatgan.

SHIMOLIY OLMAZOR – Olmazor tumanidagi daha va mavzelarning nomi. Shimoliy Olmazor dahasi "Xonchorbog'" mahallasida, Shimoliy Olmazor-1 va Shimoliy Olmazor-2 mavzelari (2023) Miskin mahallasida joylashgan.

Bu nomning kelib chiqishi hududning tabiiy geografik xususiyatlari bilan bog'liq. Obyektlar joylashgan hudud qadimda Toshkent mudofaa devorining tashqarisida bo'lgan. Xalq tilida ushbu joylar Xonchorbog', so'ng Shimoliy Olmazor nomlari bilan yuritilgan.

"Olmazor" so'zi o'zbek tilida "*olma bog'i*" ma'nosini anglatadi va bu joy tarixan olma bog'lari bilan mashhur bo'lganligini ko'rsatadi. "Shimoliy" so'zi esa geografik obyektlar shaharning shimoliy qismida joylashganligini ifodalaydi.

SHIRIN – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. 1966-yildagi Toshkent zilzilasidan so'ng paydo bo'lgan. Mahalla nomi Alisher Navoiyning "Xamsa"sidagi "Farhod va Shirin" dostoni qahramoni nomidan olingan. "Zargarlik", "Hamdo'st", "Katta Xirmontepa", "Vatanparvar", "Tepaqo'rg'on", "Vatan", "Tinchlikobod", "Mehrjon", "Kichik Xirmontepa", "Xirmontepa" mahallalari bilan chegaradosh.

SHIRINOBOD – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. Mahalla 1988–2000-yillarda "Pulemas", 2000–2005-yillarda "Ma'rifat", 2016-yilgacha "Taraqqiyot" nomlari bilan atalgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda "Shirinobod" deb qayta nomlangan. "Ma'rifat", "Boysun", Jo'rabek, Ahmad Yassaviy mahallalari bilan chegaradosh.

Shirinobod nomi "*shirin*" (*ta'mi yoqimli, mazali, lazzatli, totli, shirali*) va "*obod*" (*ravnaq topgan, gullab-yashnagan*) so'zlarining birikishidan tashkil topgan. Bu nom hududning yoqimli va farovon joy ekanligini ifodalaydi.

Shu bilan birgalikda, o‘zbek xalqi tarkibida *shirin* deb ataluvchi urug‘ nomi, etnonim mavjudligi aniqlangan. Demak, *Shirinobod* – “*shirin urug‘i vakillari yashaydigan joy*” degan ma’noni anglatadi.

Shirin qabilasi turkiy xalqlar etnogenezida ishtirok etgan komponent sifatida tez-tez tilga olinadi. Jumladan, Qrim xonligida mamlakat siyosiy hayotida yetakchi rol o‘ynagan yuqori tabaqa vakillari orasida “Barin”, “Arg‘in”, “Sejeut”, “Mang‘it”, “Yashlov” qabilalari sardorlari qatori Shirin qabilasi vakillari ham faol ishtirok etgan (N.Nekrasov, 1988: 22).

O‘zbek toponimiyasida *Shirin* nomi yozma manbalardan o‘rta asr vaqf hujjatlarida uchraydi. Sayfiddin Boxarziyning nevarasi shayx Yahyoning vaqfnomasida (1326) Shirin kanali va qishlog‘i nomlari tilga olinadi.

Ayrim ilmiy manbalarda *shirin* so‘zi etnonim sifatida ham qayd etilib, turkiy xalqlar tarkibida uchrovchi qadimiy komponentlardan biri ekanligi ta’kidlanadi. Shirin nomi etnonim sifatida keyingi asrlarda unutilgan. Ammo geografik nom shaklida turkiy xalqlar yashayotgan hududlarda keng uchrashi bu nom arealining katta ekanligini ko‘rsatadi.

SHIFOKORLAR – Olmazor tumanidagi mahalla va mavzelarning nomi. Mahalla 1994-yil 10-aprelda Amir Temur nomi bilan tashkil etilgan. Joydagi Shifokorlar shaharchasi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, 2005-yilda “Shifokorlar” deb qayta nomlangan. Mahallada Toshkent tibbiyot akademiyasi va akademiyaning klinikalarida o‘z faoliyatini olib borayotgan tibbiyot xodimlari istiqomat qilganligi sababli ham shunday nomlangan. Katta halqa yo‘li, Forobi, Qamarniso, Allomalar va Shifokorlar ko‘chalari oralig‘ida joylashgan. “Jiydali”, Xislat, “Chig‘atoy-Oqtepa”, “O‘zbekiston”, “Beltepa” mahallalari bilan chegaradosh.

Shifokorlar-1 (sobiq TashGosMI dahasi) hamda Shifokorlar-2 mavzelari “Shifokorlar” mahallasida, Shifokorlar-3 mavzesi “Jiydali” mahallasida, Shifokorlar-4 (sobiq ToshGU – ToshPI dahasi) hamda Shifokorlar-5, 6-mavzelari Xislat mahallasida joylashgan.

SHODIYONA – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1970-yilda “Qoraqamish 2/5” mahallasi nomi bilan tashkil etilgan. 1992–2016-yillarda “Shodlik” nomi bilan yuritilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Shodiyona” deb qayta nomlangan. Mahalla hududidan Damariq kanali oqib o‘tadi. “Olimpiya”, “Paxta”, “Umid”, “Tepaguzar”, “Tabassum”, “Istiqbol”, “Ziyo”, “Mustaqil yurt” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi “shodiyona” so‘zi bilan atalgan bo‘lib, bu so‘z “*shod-xurramlik*”, “*quvonchli bayram*” yoki “*tantana*” ma’nolarini anglatadi.

SHODLIK – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. 1993-yilda tashkil topgan. “Yangi Beltepa”, “Katta Jarariq”, Ibn Sino, “Eski Jarariq”, “Yangi Jarariq” mahallalari bilan chegaradosh.

Mustaqillik yillarida qo'yilgan nom bo'lib, mazkur so'z "*O'zbek tilining izohli lug'ati*"da "*shod-xurram holat, xursandlik, sevinch, quvonch*" ma'nolarini ifodalashi qayd etiladi (O'zbek tilining izohli lug'ati, IV jild, 591-bet).

SHON-SHUHRAT – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – "Shuhrat". Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda "Shon-shuhrat" deb qayta nomlangan. "Yuqori Beshqo'rg'on", "Tepaguzar", "G'alaba", "Mustaqil yurt" mahallalari bilan chegaradosh.

Toponim tarkibidagi "*shon*" so'zi "*erishilgan hurmat*", "*obro*", "*sharaf*", "*shavkat*" ma'nolarini anglatadi. Geografik nom tarkibidagi "*shuhrat*" so'zi ham *shon* so'zining ma'nodoshi bo'lib, "*dong, dovrug*" ma'nolarini bildiradi.

SHOFAYZI – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. 1999-yilda Kamoliddin Behzod va "Sharq" mahallalarining birlashtirilishi natijasida shu nomda tashkil etilgan. Mannon Uyg'ur, "Ko'kcha", "Ko'kcha Darvoza", "Paxtakor", "Degrez", "Shofayzibog'" mahallalari bilan chegaradosh.

Shofayzi – kishi ismi, ya'ni antroponim. Shofayzi ismli kishi kanaldan quloq ochib suv chiqargan, mahallaga shu insonning nomi berilgan.

SHOFAYZIBOG' – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 1963-yilda tashkil topgan. 1966-yilgi zilziladan so'ng shaharning "Degrez", "Gulbozor", "Qashqar" mahallalaridan aholi shu joyga ko'chib kelgan. Dastlab degrezlik shoira Oydin Sobirova sharafiga Oydin Sobirova mahallasi deb atalgan. Mahalla aholisi ko'paygach, 3 qism ("Shofayzibog'", "Degrez", "Nishabariq") ga bo'lingan (2005). "Ko'kcha", "Paxtakor", "Degrez", Shofayzi, "Nishabariq" mahallalari bilan chegaradosh.

Shofayzibog' – Shofayzi ismli shaxs tomonidan bunyod etilgan bog' demakdir.

SHOHJAHON – Yakkasaroy tumanidagi mahalla nomi. 2015-yilda "Rakat" mahallasi negizida tashkil etilgan. Bobur, Shota Rustaveli, Shohjahon va Rakat ko'chalari oralig'ida joylashgan. Hududdagi asosiy ko'chalardan biri nomi bilan uyg'unlashtirish maqsadida, boburiylar avlodining yirik vakili Shohjahon nomi bilan atalgan. "Belariq", "Konstitutsiya", "Muhandislar", Abdulla Qahhor, "Rakat" mahallalari bilan chegaradosh.

Shoh Jahon (1592.05.01, Lohur – 1666.22.01, Agra) – boburiylar saltanati hukmdori (1627–58). Asl ismi Shahobiddin Muhammad Xurram (taxt nomi Shoh Jahon I, 1628-yilgacha Shoh Jahon Bahodir mansabi bilan Shohzoda Xurram Baxt Bahadur-Mirza deb nomlangan); Toj Mahal qurilishi bilan o'z nomini abadiylashtirgan Boburiylar imperiyasining podshohi (1627–1658). Jahongirshohning uchinchi o'g'li. 1616-yil Dekan (to'g'rirog'i – Dakan)dagi g'alabasidan so'ng Shoh Jahon nomini olgan.

Shoh Jahon poytaxtni Agradan Dehliga ko'chirgan. Bu davrda adabiyot, san'at, musiqa va boshqa fanlar rivoj topgan. Shoh Jahon bir qancha muhtasham obidalarni bunyod ettirgan – Agrada "Tojmahal", "Qizil qal'a", Dehlida Jome masjid, Lohurda Shalimar bog'i va boshqalar. Shoh Jahon Tojmahal maqbarasida xotini Mumtoz Mahal yoniga dafn etilgan.

Shoh Jahon nomi “shoh” – *podshoh* va “jahon” – *dunyo* soʻzlaridan tashkil topgan boʻlib, “*dunyo podshohi*” maʼnosini anglatadi.

SHOHIMARDON – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 1967-yilda tashkil topgan. 1966-yildagi Toshkent zilzilasidan soʻng fuqarolarga uy-joy qurish uchun shu hududdan yer ajratib berilgan. Mahalla ahli bu yerlarni gulistonga aylantirish orzusida “Guliston” deb atagan. Joydagi asosiy koʻcha nomi bilan uygʻunlashtirish maqsadida, 2016-yilda “Shohimardon” deb qayta nomlangan. Nodira, “Katta Yangiobod”, “Oydinkoʻl”, “Xosiyatli” mahallalari bilan chegaradosh.

Shohimardon nomining “*jasur kishilar shohi*”, “*mardlar shohi*” talqinlari mavjud. Mahalla joylashgan hudud Fargʻona vodiysidan Toshkentga kirib kelish yoʻlida joylashganligi sababli hududda vodiydagi toponimlar tez-tez takrorlanadi. Mazkur toponim diniy nomlar sirasiga kirib, Mardon-Ali nomi bilan bogʻliq degan rivoyatlar bor. Shohimardon forschadan aynan tarjima qilinganda “*erkaklar podshohi, zoʻri, pahlavoni*” degan maʼnolarni bildiradi.

SHOHSANAM – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 1966-yildagi Toshkent zilzilasidan soʻng tashkil etilgan. Mahalla aholisi asosan zilzila markazi “Qashqar” mahallasidan koʻchib kelgan aholidan iborat boʻlgan. Joydagi asosiy koʻcha nomi bilan uygʻunlashtirish maqsadida, 2016-yilda “Shohsanam” deb qayta nomlangan. “Tarnovboshi”, “Yanginur”, “Goʻzal”, “Olmos”, “Donishmand”, “Oydinkoʻl” mahallalari bilan chegaradosh.

“Shohsanam” – bu soʻz odatda nafis goʻzallik, noziklik va latofat ramzi sifatida ishlatiladi. U turli kontekstlarda har xil maʼnolarni anglatishi mumkin:

“Shohsanam” – bu goʻzallik va nafosatning choʻqqisi sifatida tasvirlanadigan obraz boʻlib, koʻpgina xalq qoʻshiqlari, dostonlar va sheʼrlarda muhabbat timsoli sifatida keltiriladi. U shohona va zebo goʻzalning ramzi sifatida ijodkorlar tomonidan koʻp qoʻllaniladi.

SHOSHTIPA – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. Mahalla hududida IV asrga mansub tepalik bor, shu sababdan dastlab “Choshtipa” deb atalgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Shoshtipa” deb qayta nomlangan. Uvaysiy, “Bobodehqon”, “Mehnatobod”, “Begʻubor”, “Yurtobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Choshtipa – arxeologik yodgorlik, qishloqqa tutashgan qasr-koʻshk (VII–VIII asrlar). Toshkentning shimoli-gʻarbiy qismida, Yunusobod-17 mavzesi hududida joylashgan. Tepalik qishloqdan xandaq bilan ajratilgan. Hozirda tepaning bir qismi saqlanib, atrofi zamonaviy turar joy binolari bilan oʻralgan.

SHUKRONA – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – Jomiy. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Shukrona” deb qayta nomlangan. Xonobodtepa, Qoʻshqoʻrgʻon va Qoʻshqoʻrgʻon-4 tor koʻchalari oraligʻida joylashgan. “Qoʻshqoʻrgʻon”, “Birdamlik”, “Nomdanak” mahallalari bilan chegaradosh.

Shukrona nomi arab tilidagi “*shukron*” – *rahmat* soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “*minnatdorchilik*” maʼnosini anglatadi. Shukrona – qanoat va mamnunlik, shukur qilish ifodasi.

SHUKUR BURHONOV – Mirzo Ulugʻbek tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 1966-yilda tashkil etilgan. Ilgari “Madaniyat” mahallasi deb nomlangan. 1993-yildan Oʻzbekiston xalq artisti Shukur Burhonov nomi bilan ataladi. Nodirabegim, “Katta Qorasuv”, “Shoʻrtepa”, “Alpomish”, “Sultoniya”, Alisher Navoiy mahallalari bilan chegaradosh.

Shukur Burhonov (1910.15.9, Toshkent – 1987.14.8.) – Oʻzbekiston xalq artisti (1940). 1928-yildan Hamza teatrida ishlagan. Shukur Burhonov oʻzbek kino sanʼati taraqqiyotiga katta hissa qoʻshgan. U yaratgan Qorabotir (“Tohir va Zuhra”), Gʻofir (“Boy ila xizmatchi”), Qalandarov (“Sinchalak”), Mirzo Ulugʻbek (“Ulugʻbek yulduzi”), Matniyoz (“Uzoq-yaqin yillar”), Husan ota (“Bardosh”) kabi rollari rang-barangligi, ijro mahorati, obraz talqinining mukammalligi bilan jahon kino sanʼatida yuqori baholangan. Hamza nomidagi Oʻzbekiston Davlat mukofoti laureati (1964).

SHUHRAT – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 2015-yilda “Noʻgʻoy-qoʻrgʻon” mahallasidan ajralib chiqqan yangi mahalla. “Kichik Xirmontepa”, “Xirmontepa”, “Boʻrijar”, “Yakkatut” mahallalari bilan chegaradosh.

“Shuhrat” soʻzi “*Oʻzbek tilining izohli lugʻati*”da “*mashhurlik, taniqlilik; shon, dovruq; katta xizmat, isteʼdod, odamiylik va shu kabilar evaziga qozoniladigan obroʻ*” maʼnolarini ifodalashi qayd etiladi (Oʻzbek tilining izohli lugʻati, IV jild, 10-bet).

SHOʻRTEPA – Mirzo Ulugʻbek tumanidagi mahalla nomi. Mahalla nomi Shoʻrtepa qishloq xarobasi nomidan olingan. Nodirabegim, “Yalangʻoch”, “Katta Qorasuv”, Shukur Burhonov, “Sultoniya” mahallalari bilan chegaradosh.

Shoʻrtepa – arxeologik yodgorlik (VII–VIII asrlar, qisman X–XII asrlar, XV asr), arkl qishloq xarobasi. Toshkentning shimoli-sharqiy qismida, Qorasuvdan Tovkat arigʻi ajralib chiqqan yerda joylashgan. Balandligi 7 metrli ark va unga tutash qishloq xarobasining bir qismi saqlangan. 1887-yil N.P. Ostroumov qazilma ishlari olib borgan. 1949-yil I.Baishev va V.M. Masson arxeologik yodgorlikni qayd qilishgan. 1968-yil Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi Shoʻrtepada tekshirish ishlari oʻtkazib, Shoʻrtepa arkining qurilish-meʼmoriy tuzilishi va VII–VIII asrlarga mansub moddiy madaniyat ashyolarini aniqlagan. Shoʻrtepa oʻziga oʻxshash koʻp qishloqlar qatorida Chochning ilk oʻrta asrlardagi poytaxtiga qarashli keng va gavjum viloyatga kirgan. VIII asr 1-yarmidan ancha vaqt xaroba holida yotgan. X–XII asrlar va XV asrda Shoʻrtepada hayot qisqa muddat tiklangan.

Shu bilan birga, *Shoʻrtepa* – *shoʻr tuproqli tepalik* maʼnosini ham anglatadi.

EZGULIK – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 1990-yilda tashkil topgan. Eski nomi – “Tinchlik”. Joydagi asosiy koʻcha nomi bilan uygʻunlashtirish maqsadida, 2016-yilda “Ezgulik” deb qayta nomlangan.

“Mehrigiyo”, “Qut-baraka”, “Madadkor”, “Yangi Sergeli”, “Ziynat” mahallalari bilan chegaradosh.

Ezgulik termini mustaqillikdan keyin atalgan nom bo‘lib, unga “*O‘zbek tili-ning izohli lug‘ati*”da shunday ta’rif beriladi: “xayrli, ezgu ish” (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, V jild, 22-bet).

Ezgulik – insonning mehr-muhabbat, saxovat, adolat va rahm-shafqat kabi yuksak xislatlari ifodasidir. U boshqalarga yaxshilik qilish, yordam berish va ularning manfaatini ko‘zlash kabi amallarda namoyon bo‘ladi. Jamiyatda ezgulik, tinchlik, taraqqiyot va hamjihatlikka asos bo‘ladigan eng muhim qadriyatlardan biri hisoblanadi.

ELOBOD – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 2015-yilda “Bo‘z-2” mahallasidan ajralib chiqqan yangi mahalla. Mirzo Ulug‘bek shohko‘chasi va Buyuk ipak yo‘li ko‘chasi oralig‘ida joylashgan. “Alpomish”, “Podshobog‘”, “Buyuk ipak yo‘li”, “Bo‘z”, “Yangi Olmachi” mahallalari bilan chegaradosh.

Toshkent shahrining aholi gavjum va qulay hududlaridan biridir. Ushbu Elobod toponimi *el* so‘ziga o‘rin-joy ma’nosidagi ot yasovchi *-obod* affiksini qo‘shish orqali hosil qilingan bo‘lib, apellyativning birinchi komponenti *el* so‘zi “*bir joyning odamlari, aholisi, xalqi; umuman, ko‘pchilik odam, xaloyiq,*” ma’nolarini anglatadi.

Bu nom mahalla tomonidan tinch va osoyishta yashash joyi, xalqning birligi va obodligi ramzi sifatida tanlangan.

ELPARVAR – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 2022-yilda “Ahil” mahallasidan ajralib chiqqan yangi mahalla. “Moyariq”, “Ahil”, “Gulzor”, “Yangi Toshkent” mahallalari bilan chegaradosh.

“Elparvar” so‘zi “*elni e‘zozlovchi*”, “*xalq uchun qayg‘uruvchi*” ma’nolarini anglatadi. Bu nom mahalla aholisi orasidagi mehmondo‘stlik, o‘zaro yordam va birlikni ifodalaydi.

ESKI JALOYIR – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Zangiota tumanidan shahar hududiga o‘tkazilgan. Eski nomi – “Jaloyir”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Eski Jaloyir” deb qayta nomlangan. “Sultonobod”, “Ko‘hna Qumariq”, “Xonobodtepa”, “Ziyo-lilar”, “Sug‘diyona”, “Qipchoq” mahallalari bilan chegaradosh.

Jalayir (jaloyirlar) – turk-mo‘g‘ul qabilalari ittifoqi. XII asrda Jaloyirlar Sibirning Onon va Kerulen daryolari qirg‘oqlarida yashashgan. XII asrning oxiri va XIII asr boshlarida ular Markaziy Osiyoning, jumladan, O‘zbekistonning Yettidaryosida joylashgan. Jaloyirlar o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq va qirg‘iz xalqlari tarkibiga kirishgan. 1926-yildagi qaydlarga ko‘ra, O‘zbekiston hududida, asosan Toshkentda, Buxoro vohasida va Nurota cho‘qqilarining tog‘oldi joylarida, Jizzax viloyati Zomin tumani, Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumanida, Navoiy viloyati Karmana tumanida, Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanida va Xorazm viloyatida 25 mingga yaqin jaloyirlar yashashgan.

Mahalla nomidagi “eski” qo‘shimchasi hududning uzoq tarixga ega ekanligi hamda yaqin davrda tashkil etilgan shu nomdagi geografik obyektдан “qadimgi”-ligidan dalolat beradi.

ESKI JARARIQ – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 1932–1938-yillarda tashkil topgan bo‘lib, o‘sha vaqtda mahallaga “Joriy” nomi berilgan. 1939–1954-yillarda Kalinin jamoa xo‘jaligi va “Jarariq” mahallasi deb atalgan. 1994-yilda shahar hokimligining qaroriga ko‘ra mahalla Zangiota tumanidan Shayxontohur tumaniga o‘tkazilgan. 1974–2009-yillarda mahalla shu jamoa xo‘jaligi raisi Yoqub Ziyayev nomi bilan yuritilgan, 2009-yil 22-apreldan hozirgi nom bilan ataladi. “Zafarobod”, “Katta Jarariq”, Ibn Sino, “Ipakchi”, “Shodlik”, “O‘zbekiston”, “Yangi Jarariq” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi shu yerdan oqib o‘tuvchi Toshkentning qadimgi ariqlaridan birining nomidan olingan.

Jarariq gidronimi relyef bilan bog‘liq bo‘lib, *“jarlikda hosil bo‘lgan ariq”*, *“jardani oqib o‘tgan suv”* ma’nolarini ifodalaydi. Ma’lumki, Chig‘atoy baland yerlardan oqqan, undan o‘ng tomonga tarmoqlangan ariqlardan eng kattasi sanalgan Jarariq oqib o‘tgan hudud nisbatan pastqam (qiya yoki nishab) joylarga to‘g‘ri keladi. *Jarariq* – *“jarlik pastidagi ariq”* deganidir.

XX asr boshlariga oid rus manbalarida Jarariq “Джар” shaklida berilgan. Mazkur davrda Jarariq Toshkent shahri Ko‘kcha dahasining *“Shahidontepa”* mahallasi hamda shahar atrofidagi *Jarariq* mavzesini suv bilan ta’minlagan.

ESKISHAHAR – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. Beruniy, Saqichmon va Forobiy ko‘chalari oralig‘ida joylashgan. “Eskishahar” nomi bilan 1998-yilda ro‘yxatga olingan. XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida 4 ta: “O‘zgand”, “Kallaxona” (Kalonxona), Muqimiy va “Pichoqchilik” mahallalaridan iborat bo‘lib, 1998-yilda ularning birlashishidan hozirgi mahalla nomi paydo bo‘lgan. Mahalla hududida Shoh Aziz Avliyo, To‘xtaboy masjidlari joylashgan. Hofiz Ko‘hakiy, Chustiy, “Gulobod”, “Chorsu”, “Zarhal”, “Chig‘atoy Darvoza”, “Gulbozor” mahallalari bilan chegaradosh.

Eski shahar – Toshkentning shimoli-g‘arbida joylashgan tarixiy joy bo‘lib, 1865-yildan chor Rossiyasi hududida bo‘lgan. Eski shahar nomi Toshkentda yangi shahar vujudga kela boshlagandan so‘ng ishlatila boshlangan. Eski shahar hududi katta maydonni ishg‘ol qilib, shimoldan Kaykovus, sharqdan Anhor, g‘arbdan Ko‘kcha, janubdan Zax kanallari bilan chegaralangan. Uning shakllana boshlashi IX asrga to‘g‘ri keladi. X asr shaharsozligida ark, shahriston (ichki shahar), ichki va tashqi rabod ajralib turgan. Shahar baland devorli bir necha darvozalar bilan o‘ralgan bo‘lgan. Har bir darvozadan shahar markazi, ya’ni “Eskijo‘va” bozori tomonga yo‘llar ketgan. XV asr 2-yarmi va XVI asr 1-yarmida yirik binolar bunyod etilgan. XIX asr oxirlarida Eski shahar hududi 1,5 ming gektarga yetgan, ayni shu vaqtda Toshkent Turkistonda eng yirik shaharga aylangan edi. Ma’muriy jihatdan Eski shahar – Beshyog‘och, Ko‘kcha, Sebzor, Shayxontohurga bo‘lingan.

Har bir daha uchun alohida hokimlar bo'lgan. Eski shaharda 1910-yilga kelib 146 ming aholi istiqomat qiladigan 21 ming turar joy bor edi. Eski shahar 1917-yildan boshlab Yangi shahar bilan birgalikda rasmiy ravishda ma'muriy birlik deb hisoblana boshlandi. 1929-yilga kelib Yangi shahar va Eski shahar birlashtirildi. 1930-yilga kelib, Toshkent O'zbekiston poytaxti bo'lgach, butun shahar miqyosida yangi ma'muriy birlik sifatida qabul qilindi.

ESHONBULOQ – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Toshkent viloyati Zangiota tumanidan shahar hududiga o'tkazilgan. Eski nomi – “Sohibkor”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Eshonbuloq” deb qayta nomlangan. “Nurafshon”, Barotxo'ja, “Sadoqat”, “Kengmakon”, “Yangi Qo'yliq”, “Chinor”, Qo'yliqota mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi hududda joylashgan buloq nomidan olingan. Mazkur buloq eshonlar va ularning avlod-ajdodlari yashaydigan ko'chadan oqib o'tganligiga ko'ra shunday nomlangan. Gidronim tarkibidagi *eshon* termini forscha bo'lib, “*ular*” degan ma'noni anglatadi. Manbalarda ko'rsatilishicha, *eshon* – sufiylik oqimlarida diniy rahnamolar unvon. Shuningdek, *dindorlar orasida ma'lum obro' qozongan ruhoni, din kishisi* ma'nosini ham anglatadi. Gidronim tarkibidagi *eshon* lug'aviy birligi xuddi shu ma'noda qo'llangan.

ESHONGUZAR – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Toshkentning qadimiy mahallalaridan biri hisoblanadi. Mahalla hududida ilmli, ma'rifatparvar ulamolar yetishib chiqqanligi uchun “Eshonguzar” deb atala boshlagan. 1996-yilda Yunus Rajabiy va “1-May” mahallalari negizida “Eshonguzar” mahalla fuqarolar yig'ini tashkil topgan. “Kattabog'”, Zangiota, “Chorsu”, “Yangi Kamolon”, “Kamolon”, “Qoratosh”, Suzukota mahallalari bilan chegaradosh.

Beshyog'och dahasi hududida “Eshonguzar” jome masjidi me'moriy yodgorligi (1870) ham mavjud. Keksalarning xotirlashicha, masjid hashar yo'li bilan qurilib, nafaqat ibodat markazi, balki ilm-ma'rifat o'chog'i ham bo'lgan. Bu yerda ulamolar, eshonlar ilmiy davra qurib, shariat masalalarini yechishgan. Shu asos bo'lib, bu yer Eshonguzar nomini olgan. Mashhur tabib Bositxon ibn Zohidxon ibn Muhammad Sodiqxon Shoshiy, Abdulla Qodiriy va G'ulom Zafariylar shu joyda tahsil olishgan.

YUZRABOT – Mirzo Ulug'bek tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 1980-yilda tashkil topgan. 1988-yilda “Navbahor” deb atalgan. Joydagi asosiy ko'cha nomi bilan uyg'unlashtirish maqsadida, 2005-yilda “Yuzrabot” deb qayta nomlangan. “Azamat”, “Pastkiyuz”, “Beshkapa”, “Traktorsozlar” mahallalari bilan chegaradosh.

Ko'chaga joyning yuqori qismida Qibray tumaniga qarashli Yuqoriyuz qishlog'i bo'lgani uchun, unga uyg'unlashtirish maqsadida shu nom berilgan.

Geografik nom tarkibi *yuz* va *rabot* so'zlarining birikishidan iborat. Nomning birinchi komponenti *yuz* so'zi o'zbek xalqi tarkibidagi urug' nomi, etnonim.

Toponimning ikkinchi komponenti – *rabot* soʻzining bir nechta izohlari mavjud: 1. Mustahkamlangan qoʻrgʻonlarda soqchilar turadigan joy yoki istehkom qoʻrgʻon. 2. Savdo yoʻllaridagi mustahkamlangan mazgil, karvonsaroy. 3. Shahardan chetroqdagi turar joy. Akademik V.V. Bartoldning maʼlumotlariga qaraganda, musulmon dunyosining chegaraga yaqin boshqa oʻlkalaridagi kabi Turkistonda ham diniy urush – gʻazovot uchun devor va gʻovlardan tashqari *ribotlar* (toʻgʻri talaffuzi shunday) yoki *rabotlar* qurganlar (buni Turkistondagi *rabod* soʻzi bilan adashtirmaslik kerak deydi V.V. Bartold); akademik davom etib yozadiki, *rabot* soʻzining maʼnosi “*ot bogʻlanadigan joy*” demakdir; *rabot* muqaddas, yaʼni diniy urush uchun kurashadigan gʻoziylarga moʻljallab qurilgan edi. Gʻoziylar rabotda dushmanlar bilan yuzma-yuz yashab, ularning hiylanayranglarini, hujumlarini daf qilib turishgan. Ribotlar (rabotlar) otliq askarlar dastalari uchun kazarma rolini bajargan. Bundan tashqari, Oʻrta Osiyoda *rabod* yoki *rabaz* termini ham boʻlgan. Tarixchi A.A. Semyonovning yozishicha, shaharga tutash shahar-mahallalar *rabaz* deb yuritilgan. Shunday qilib, dastlab rabaz deganda ichki shaharni emas, balki shahar atrofidagi devor hamda shaharga tutash qishloq-mahallalar tushunilgan. Keyinchalik bu ikki termin bir-biriga qoʻshilib, *karvonsaroy* ham *rabot* yoki *rabod* deb ataladigan boʻldi. Buning sababi shu ediki, deb yozadi V.V. Bartold, istilochilar qurgan rabotlar bu yerda oldindan mavjud boʻlgan gʻaribxonalar va ibodatxonalarga juda oʻxshab ketar edi. Shuning uchun ham bunday tayyor binolar *rabot*larga moslashtirilgan. Buning ustiga rabot qurish ham masjid solish kabi savob ish hisoblangan. A.R. Muhammadjonov *rabot-ravot* soʻzini sugʻdcha deb hisoblaydi: *ro(h)* – yoʻl, *bat* (bata, vata) – manzil, mazgil va Buyuk ipak yoʻli boʻylab qurilgan koʻpdan-koʻp bekatlar ana shu termin bilan atalgan deydi.

YUKSALISH – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 1991-yilda tashkil topgan. Eski nomi – “Mustaqillik”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Yuksalish” deb qayta nomlangan. Mahallaning janubiy chegarasidan Tolariq kanali oqib oʻtadi. “Tolariq”, “Chinor”, “Ziyonur”, “Fayziobod”, “Bilimdon” mahallalari bilan chegaradosh.

“Yuksalish” soʻzi oʻzbek tilida “*taraqqiyot*”, “*oʻsish*” va “*rivojlanish*” maʼnolarini bildiradi. “Yuksalish” – bu inson va jamiyatning taraqqiyot sari intilishi, buyuk orzular sari qadam tashlashi va yaxshilikka erishishga boʻlgan harakatining ramzidir. Mahalla nomi uning aholisi orasidagi oliy maqsadlarga intilish, taraqqiyparvarlik va farovonlikni aks ettiradi.

YUQORI BESHQOʻRGʻON – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – “Beshqoʻrgʻon”. 1870-yillarda bu yerga Toshkentdan 5 nafar aka-uka koʻchib, doimiy yashash uchun 5 ta qoʻrgʻoncha qurishgan, nomi shundan. 1950-yillarning boshlarida bu hududda aholi uchun yer uchastkalari ajratila boshlagan. Bu yerlar dastlab Toshkent viloyatining Toshqishloq (Ташсельский), keyinchalik Kalinin va Toshkent tumanlari tarkibiga kirgan. 1980-yilda shahar

hududiga o'tkazilgan. Shundan boshlab "Beshqo'rg'on" nomi bilan atalib kelgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, tarixiy nomini saqlab qolgan holda 2016-yilda "Yuqori Beshqo'rg'on" deb qayta nomlangan. "Shon-shuhrat", "Nihol", "Chamanbog'", "Tepaguzar", "G'alaba", "Mustaqil yurt" mahallalari bilan chegaradosh.

Toponim tarkibidagi "yuqori" so'zi mahallaning joylashuvini yoki boshqa Beshqo'rg'on hududlaridan geografik farqini ko'rsatadi.

Geografik nom tarkibidagi *besh* so'zi sonni bildiradi. Atrofi devor bilan o'ralgan mustahkam hovli *qo'rg'on* deb ataladi. Qo'rg'on so'zining "*mozor*", "*qal'a*", "*istehkom*", "*qo'ra*" ma'nolari ham bor.

YUQORI DARXON – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 2019-yilda Toshkent viloyati Zangiota tumanidan Toshkent shahar Sergeli tumaniga o'tkazilgan. "Bunyodobod", "Jo'nariq", "Qubaytepa", "Yangi Choshtepa", "Tashabbus", "No'g'oyqo'rg'on", "O'zgarish", "Yangi Darxon" mahallalari bilan chegaradosh.

"Darxon" ("tarxon") – bu so'z barcha turdagi soliqlar va bojlardan ozod qilingan shaxs ma'nosini bildirsa, "yuqori" so'zi bu yerning yuqori yoki balandroq qismini anglatadi, ya'ni mahallaning geografik joylashuvini ko'rsatadi.

Terminning kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Bu so'z ko'pchilik turkiy tillarda uchraydi, shuningdek, fors-tojik, kurd, osetin, gruzin, venger, rus tillarida ham uchraydi va "Ma'lum imtiyozlarga ega bo'lgan, davlat oldida gunohi kechirilgan shaxs", – deb tushuniladi.

Darxon so'zi ancha qadimiy manbalarda uchraydi. Mug' tog'i yodgorliklarida, shuningdek, arab yilnomalarida tilga olingan Tarxun (704–710) nomi munosabati bilan bu so'zning etimologiyasiga doir birmuncha mulohazalar bildirilgan.

Tarxonlik ayniqsa, XV asrda avj olgan va feodallarga keng imtiyoz berishning bir vositasi bo'lib xizmat qilgan. Temuriylar davlatida tarxonlar qo'lida yirik yer maydonlari va katta hokimiyat bo'lgan. Tarxon xohlagan narsasini qila oladigan, butunlay mustaqil, harbiy xizmatdan ozod kishidir, tarxonlar har qanday jinoyat qilsa ham, to'qqiz martagacha afv etilgan. Aftidan, darxon termini ishtirok etgan qishloqlar hukmdorlar tomonidan tarxon (darxon)lik berilgan shaxslarga tegishli bo'lgan.

YUQORI SEBZOR – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 1992-yilda tashkil topgan va "Qahramon" nomi berilgan. 1997-yildan 2016-yilgacha "Taxtapul" nomida bo'lgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, Sebzor dahasining yuqori qismida joylashgani uchun 2016-yilda "Yuqori Sebzor" deb qayta nomlangan. "Chilto'g'on", "Xonchorbog'", "Namuna", Kohota, "Sebzor", "Kaykovus" mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi hudud tabiati bilan bog'liq. Toponim tarkibidagi "yuqori" so'zi esa mahallaning joylashuvini, boshqa Sebzor hududlariga nisbatan yuqoriroqda yoki balandroq qismda ekanligini bildiradi. "Sebzor" – qo'shma toponim, "*seb*" va "*zor*" qismlardan (forscha "*seb*" – "*olma*") hosil bo'lgan bo'lib, "*olmazor*" degan ma'noni anglatadi. Ya'ni Sebzor dahasi olmazor, umuman bog'lari ko'p

yer bo'lgan. Aholisi asosan hunarmandchilik (kosibchilik, to'quvchilik, chitga gul bosish va b.), savdo-sotiq, shahar tashqarisidagi yerlarda esa bog'dorchilik hamda dehqonchilik bilan shug'ullangan.

YUNUS RAJABIY – Yakkasaroy tumanidagi mahalla nomi. Mahalla 1980-yillardan shu mahallada yashagan akademik Yunus Rajabiy nomi bilan atalgan. “Rakatboshi”, “Beshyog'och”, “Tepa”, “Bog'saroy”, “Konstitutsiya”, “Qashqar”, “O'rda”, “Afrosiyob”, At-Termiziy, Sharof Rashidov mahallalari bilan chegaradosh.

Yunus Rajabiy – O'zbekiston xalq artisti, milliy san'at rivojiga ulkan hissa qo'shgan bastakor, musiqachi, folklorshunos olim va ko'plab iste'dodli musiqa-chilarning ustози. Yunus Rajabiyga qadar o'zbek san'atida notalar yozuvi mavjud bo'lmagan.

Yunus Rajabiyning eng buyuk xizmatlaridan biri bu yuzlab yillar davomida avloddan avlodga o'tib kelgan 1500 dan ortiq o'zbek, tojik va uyg'ur tillaridagi xalq qo'shiqlari va navolarini notaga kiritish va bastalash orqali ularni abadiy yo'qolib ketishdan saqlab qolgan. Yunus Rajabiyning o'zbek musiqa va qo'shiq san'ati kamolotidagi katta xizmatlari 1958-yilda “O'zbekiston xalq artisti” unvoni, Respublika Davlat mukofoti (1973), “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni (2000) bilan taqdirlandi. 1966-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zoli-giga saylandi.

Mahallada xalq artisti Halima Nosirova, yozuvchilar Abdulla Qahhor, Ibrohim Rahim, akademiklar Yunus Rajabiy, Obid Sodiqov, Sa'di Sirojiddinov va boshqalar yashab o'tishgan.

YUNUSOBOD – Yunusobod tumanidagi mahalla va mavzelarning nomi. 1970–1980-yillardan boshlab “Yunusobod” mahallasiga asos solingan. Nomi Yunusobod dahasiga nisbatan olingan. Mavzelar soni – 18 ta. Mahalla “Ahilobod”, “Akbarobod”, “Oqtepa”, “Otchopar-1”, “Otchopar-2”, “Anorzor”, “Qadrdon”, “Shahriston”, “Husniobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Yunusobod dahasi Bo'zsuv va Qoraqamish kanali, Katta halqa yo'li va temir yo'l yo'nalishi oralig'ida bo'lgan. Qadimda Xitoy, Rossiya va Dashti Qipchoqdan Toshkentga keladigan karvon yo'li aynan shu dahadan o'tgan. 1966-yilgi Toshkent zilzilasidan so'ng hudud shahar tasarrufiga olinib, 1967-yil loyihalash va qurilish ishlari boshlangan (loyiha mualliflari V.A. Azimov, S.R. Berkovich va boshqalar). Dastlab “Севеп” massivi deb nomlangan. 1972-yilning 25-aprelidan boshlab Yunusobod dahasi deb yuritilgan. Dahada, asosan, 4 va 9 qavatli turar joy binolari qurilgan, shuningdek, ayrim mavzelarida yakka tartibdagi uylar ham bo'lgan. Xiyobonlar, yashil maydonlar, bog'lar radial-halqali “yashil tuzilishi” barpo etilgan.

Yunusobod nomining kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar bor. Ayrim tadqiqotchilar (akademik A.Muhammadjonov) fikricha, joyning nomi juda qadimgi bo'lib, asli “Yunusrabot” deb atalgan. Bu o'rinda “rabot” karvonsaroy ma'nosi-

da qo‘llangan. Shimoliy tomondan shaharga kiruvchilar shu joyda qo‘nib o‘tishgan. Mahalliy ziyolilarning fikricha, joyning nomi sebzorlik tadbirkor Yunus hoji Nodirhoji o‘g‘li (XIX asr, Yunusobod Oqtepasida bog‘-rog‘lari bo‘lgan) haqidagi rivoyatlar bilan bog‘liq.

YUNUSOTA – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, mahalla fuqarosi Nodirhoji o‘g‘li Yunus o‘z otasining ishlarini davom ettirish maqsadida Chinobod, Choshtepa, Oqtepa dahalarida katta bog‘lar yaratgan. U asosan uzum yetishtirish va yangi navlar yaratish bilan shug‘ullangan. Bo‘sh yotgan yerlarni obodonlashtirib, katta-katta tokzor va mevali bog‘lar barpo qilgan. Uning nomini abadiylashtirish maqsadida 1995-yilda Yunusota mahallasi tashkil qilingan. “Sevinch”, “Bog‘ieram”, “Kulolqo‘rg‘on”, Ahmad Donish, “Muruvvat”, “Bobodehqon”, “Barhayot”, “Yangibog‘”, “O‘zbekiston mustaqilligi” mahallalari bilan chegaradosh.

YURTOBOD – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 2005-yilda “Choshtepa” mahallasi 3 qism (Uvaysiy, Nodirabegim va Choshtepa)ga bo‘linishi natijasida Nodirabegim nomi bilan tashkil etilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Yurtobod” deb qayta nomlangan. “Bobodehqon”, “Shoshtepa” mahallalari bilan chegaradosh.

“Yurtobod” toponimi ikki qismdan iborat bo‘lib, “yurt” – *Vatan* yoki *yashash joyi*, “obod” esa – *farovon, ravnaq topgan, gullagan* degan ma’nolarni anglatadi. Bu nom mahalla aholisining osoyishta va farovon yashash joyi ekanligini ifodalaydi.

YUSUF SAKKOKIY – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 1991-yilda tashkil etilgan. Tilshunos va adabiyotshunos alloma Yusuf Sakkokiy nomi bilan atalgan. “Chamanzor”, “O‘rikzor”, “Zarafshon”, “Katta Cho‘ponota”, “Uchtepa” mahallalari bilan chegaradosh.

Yusuf Sakkokiy (to‘liq ismi: Yusuf ibn Abu Bakr ibn Muhammad Abu Ya‘qub Sirojiddin Xorazmiy Sakkokiy (1160–1228)) – tilshunos va adabiyotshunos. Yusuf Sakkokiy fanning turli sohalariga oid ko‘plab asarlar yozgan. Bizgacha yetib kelgan, arab adabiyoti va grammatikasi masalalariga bag‘ishlangan “Miftoh ululum” (“Ilmlar kaliti”) asari mashhur bo‘lib, u madrasa talabalari uchun darslik sifatida foydalanilgan. Yusuf Sakkokiy ijodi til va adabiyot nazariyasi rivojida katta rol o‘ynagan. “Miftoh ululum” asarining qo‘lyozma nusxalari jahonning deyarli barcha sharq qo‘lyozmalari fondlarida saqlanadi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida ham uning bir qancha nusxalari mavjud.

YAKKABOG‘ – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. Dastlab mahallaga jurnalist, O‘zbekiston radio va televideniye qo‘mitasida xizmat qilgan Shotursun G‘ulomov (1928–1965) nomi berilgan. Mahalla nomini joydagi ko‘cha nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, 2016-yilda “Yakkabog‘” deb qayta nomlangan. “Tirsakobod”, “Beshqo‘rg‘on”, “Xayrobod”, “Katta Do‘mbirobod”, “Naqqoshlik”, “Bekto‘pi”, “Bo‘rijar”, “Mevazor” mahallalari bilan chegaradosh.

Nomning tarkibidagi “yakka” soʻzi *yolgʻiz, tanho* kabi maʼnolarga ega soʻz. Bundan xulosa shuki, bogʻ shu turdagi boshqa obyektlardan alohida joyda joylashganligi sababli unga nisbatan yakka soʻzi qoʻllanilgan. T.Nafasovning yozishicha, bogʻ sugʻdcha soʻz. Sugʻd tilidan qadimgi turkiy tilga oʻtgan. Dastlab *bogʻ* soʻzi *tok, tokzor* maʼnosini anglatgan. Soʻngra *mevali daraxtlar koʻp, qalin ekilgan joy* maʼnosiga ega boʻlgan.

YAKKASAROY – Yakkasaroy tumanidagi mahalla nomi. Oʻtmishda (XVIII–XIX asrlarda) “Karvonsaroy” deb atalgan. Boshqa shahar, yurtlardan kelgan savdo karvonlari shu hududda toʻxtab oʻtgan va Beshyogʻ och darvozasidan kirib shaharda savdo-sotiq qilishgan. 1991–1992-yillarda “Yakkasaroy-1” nomi berilgan. Mahalla nomini soddalashtirish maqsadida, 2007-yilda “Yakkasaroy” deb qayta nomlangan. “Qushbegi”, “Dilbuloq”, “Qubaytepa”, “Joʻnariq”, “Gavhar”, “Tirsakobod”, “Toʻqimachi”, “Katta Qozirabot”, “Meros” mahallalari bilan chegaradosh.

“Yakkasaroy” toponimining kelib chiqishi toʻgʻrisida olimlar quyidagi taxminiy mulohazalarni bildirishadi: birinchi fikrga koʻra, ushbu toponim u joylashgan hududda bittagina boʻlgani uchun shunday nomlangan: yakka+saroy (yakkasaroy).

Ikkinchi fikrga koʻra, mazkur joy nomida ikkita maʼnoli boʻlak bor: yakka va saroy. Yakka soʻzining yagona, noyob, tengi va oʻxshashi yoʻq maʼnolari bor. Saroy ikkita koʻrinishdagi omonim soʻz boʻlib, uning birinchi shakldosh soʻzining maʼnosi (saroy – turkiycha soʻz boʻlib) oʻzbeklar tarkibiga kiruvchi urugʻ-qabilalar uyushmasi. Ikkinchi omonim soʻzning esa quyidagi maʼnolari mavjud: “uy, boshpana; qasr; karvonsaroy; yopiqbozor; xon, amir, podshohlarning doimiy qarorgohi boʻlib xizmat qilgan hashamatli katta bino; koshona; saroydagi davlat boshqaruvi; hokimiyat, saltanat; umuman, istiqomat qilish yoki biror ijtimoiy faoliyat uchun moʻljallab, zamonaviy meʼmorlik uslublarida qurilgan hashamatli katta bino va majmualar; karvonlar, savdogarlar qoʻnadigan, mehmonxonali, hovli va otxonali joy; karvonsaroy, rabot”.

Uchinchi fikrga koʻra, bu toponim birinchi omonimik soʻzning maʼnolaridan shakllangan joy nomidir. Chunki oldingi davrda saroy qabilalar uyushmasining urugʻlari markazga yaqin shahar va qishloqlarda istiqomat qilishgan. Toponimning shakllanishi uchun saroy etnonimi topoasos boʻlgan va *yakkasaroy* etnotoponimi yuzaga kelgan hisoblanadi.

YAKKATUT – Chilonzor tumanidagi mahalla nomi. 1994-yilda Navroʻz bayrami arafasida “Navroʻz” mahallasi nomi bilan tashkil qilingan. 2005-yildan “Yakkatut” deb nomlangan. “Boʻrijar”, “Xayrobod”, “Xirmontepa”, “Shuhrat”, “Katta Xirmontepa” mahallalari bilan chegaradosh.

Yakkatut – yolgʻiz tutli, bitta tut daraxti oʻsgan joy. Oʻsimliklarning kamligi yoki sanoqli ekanligini, biroq shu hudud uchun xarakterli belgi vazifasini oʻtaganligi uchun qoʻyiladigan nom (Oxunov, 1989). Bunday nomlardan *Chorbogʻ, Yakkatol, Qoʻshchinor* kabilarni, qoʻshimchasiz oʻzak holidan ishlatiladigan *Archa, Rayhon, Qayragʻoch* nomlarini ham keltirish mumkin.

YALANG‘OCH – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla va dahaning nomi. Mahalla 1970-yilda tashkil topgan. “Geofizika”, “Shalola”, Nodirabegim, “Beshkapa”, “Bog‘imaydon”, “Sho‘rtepa”, “Geologlar”, “Sultoniya”, “Chimyon”, “Bahor”, Humoyun, “Katta Yalang‘ochota” mahallalari bilan chegaradosh.

Yalang‘och dahasi ilgari Visokovoltniy massivi deb atalgan. 1990-yilda o‘sha joyda yashovchi aholi va “Toshkent haqiqati” gazetasi tavsiyasiga ko‘ra Yalang‘och deb qayta nomlangan. Daha “Bog‘imaydon”, Habib Abdullayev, “Shahriobod” mahallalarida joylashgan.

Yalang‘ochota – o‘tmishda o‘zbek va qozoq xalqlarida shamol homiysi hisoblangan. Etnograf A.Divayev (1855–1933) keltirgan ma‘lumotga ko‘ra shamol chaqirish marosimida ijro etiladigan qo‘shiqda shamol homiysi sifatida Yalang‘ochotaga murojaat etilgan. Yalang‘ochotaga e‘tiqod qilish Toshkent atroflari va Janubiy Qozog‘istonda yashovchi o‘zbeklar orasida keng tarqalgan. Uning shaxsiyati bilan bog‘liq mikrotoponimlar ham mavjud. Yalang‘ochota islomiyatdan avvalgi mahalliy ma‘budlardan sanalgan. Xususan, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asarida Chingizxonning taxtga o‘tirish marosimi (1206) shunday bayon etilgan: “O‘sha kezlarda ul nohiyalarda bir kishi bo‘lgan, uni mo‘g‘ullar Tibb tangri deb atashgan. O‘zbek ulusi Yalang‘ochota deyishardi. Uning og‘zidan chiqqan har bir so‘z shu ondayoq voqe‘ bo‘lardi. Uning haqida aytishadiki, tog‘u tosh, daralarda yalang‘och kezarkan va sovuq shiddatidan va issiq haroratidan aslo va qat‘an ibo qilmaskan. Hech kim bilan aloqa qilmasdi. Turli lahzalarda so‘zlardi. Xalqqa tushunarli bo‘lgan har bir so‘zi, albatta, shu zahotiyoyq amalga oshardi. Shu bir lahzaning o‘zida ham yig‘lardi, ham kulardi. ...Tibb tangri borgohdan chiqib, shoh huzuriga kirdi. Dedi: “Kecha Tangri menga xabar berdiki, jahonga yangi nasdaq qilurman, jahon mulkini Temuchinga bergum. Unga Chingizxon nomini beramiz. Olam podshohlarini unga tobe qilurmiz... Haq amridan chiqmagin, seni Chingizxon deb atayman, endi Temuchin emassan”. Xuddi shu marosimni Abulg‘oziy Bahodirxon (XVII asr) “Shajarayi turk” asarida bayon qiladi. Lekin u Tibb tangri o‘rnida Ko‘kcha (mo‘g‘ulcha Kogiche) nomini tilga oladi. “Ko‘kcha Mo‘g‘ulistonning andag‘ qattiq sovuqlarida qish kunlari yalang‘och va yalangoyiq yurur erdi” (53–54-betlar). Abulg‘ozida keltirilgan Ko‘kcha bilan Mirzo Ulug‘bekdagi Yalang‘ochota bir shaxs ekanligi ochiq-oydin ko‘rinib turibdi.

Joy nomi shu shaxsga nisbat berilib atalgan.

YANGI AVAYXON – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 2005-yilda tashkil topgan. Avayxon, “Minglola”, “Gulzorobod”, “Ko‘hna Mevazor”, Temuriylar mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi XVIII asrning 2-yarmidagi Abdulmansur, keng jamoatga Ablayxon nomi orqali tanilgan tarixiy shaxs bilan bog‘liq. Ablayxon (1711–1781) – Qozoq xonligi tarixidagi muhim shaxslardan biri bo‘lib, jung‘orlar bosqini paytida yurt himoyasi uchun jonbozlik namoyish etgan. Geografik nom tarkibidagi “yangi” so‘zi hududning nisbatan keyingi davrda tashkil etilganligini bildiradi.

YANGI BELTEPA – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. 2005-yil may oyida “Beltepa” mahallasidan ajralib chiqqan. “Katta Jarariq”, “Shodlik”, “O‘zbekiston”, “Beltepa” mahallalari bilan chegaradosh.

“Bel” mahalliy geografik termin sifatida *“tog‘dan oshib o‘tish joyi”* degan ma‘noni anglatadi. Qadimgi turkiy tillarda “bel” so‘zi *“to‘be, tepa, do‘ng”*, *“past tog‘”*, *“tog‘ tizmasining pasaygan joyi”* ma‘nolarida (asosan balandliklarda) joy nomlari tarkibida uchraydi.

Tepa – *do‘nglik, tepalik, cho‘qqi, biron narsaning uchi* degan ma‘nolarni bildiradi. Qadimgi turkiy tilda *to‘pu – kallaning cho‘qqisi*. Turkiy tillarda *tepa, do‘bo‘, depe, to‘be, do‘ba, to‘bu*, tojik tilida *teppa*, o‘zbek shevalarida *teva, to‘ba* shakllarida talaffuz qilinadi. E.M. Murzayev aytganidek, bu termin turlicha fonetik shakllarda Kavkaz, Volga bo‘yi, Ural tog‘lari atroflari, Qozog‘iston, O‘rta Osiyo, Sibir, Yaqin Sharq, Bolqon yarimorolida ko‘plab toponimlar hosil qilgan. Shu bilan birga tepa *teva – tuya* shaklini olgan; yoki urug‘-qabilaning tarmoqlari – *to‘p* yoki *to‘pa* o‘zgarib tepa bo‘lib ketgan. Etnonimlar yonida keladigan *tepa* elementi asli *to‘pa* bo‘lishi kerak.

YANGI BUNYODOBOD – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda “Bunyodobod” mahallasi negizida tashkil etilgan. “Qut-baraka”, “Bunyodobod”, Habibi, “Mehrigiyo” mahallalari bilan chegaradosh.

“Yangi Bunyodobod” mahallasi o‘z nomidan kelib chiqib, nisbatan yangi tashkil etilgan hududlardan biri hisoblanadi. Bu nom mahalla rivojlanish va farovonlik sari intilishining ifodasidir.

YANGI GULZOR – Yangihayot tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – “Gulzor”. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2022-yilda “Yangi Gulzor” deb qayta nomlangan. “Jaloyir”, “Nurliyo‘l” mahallalari bilan chegaradosh.

“Yangi Gulzor” mahallasi Toshkent shahrining nisbatan yangi tashkil etilgan mahallalaridan biri bo‘lib, uning nomi hududning yashil va go‘zal muhitiga ishora qiladi. “Yangi” – bu mahallaning yangiligi yoki zamonaviy rivojlanish jarayonini aks ettiradi. “Gulzor” – bu hududdagi yashil maydonlar, bog‘lar va gullarga boy joylarni ifodalaydi.

YANGI DARXON – Yangihayot tumanidagi mahalla nomi. Sergeli tumanidan qisman o‘tgan “Chorbog‘” va “Past Darxon” mahallalari qo‘shilishi hisobiga 2021-yilda yangi tashkil etilgan mahalla. “Choshtepa”, “Yuqori Darxon”, “Jo‘nariq”, “Tashabbus”, “Gulshanobod”, “Yangi Choshtepa”, “Yangihayot”, “Oriyat”, “Yangi Umid” mahallalari bilan chegaradosh.

“Yangi Darxon” mahallasi Toshkent shahrining yangi rivojlanayotgan hududlaridan biridir. Toponim tarkibidagi *“yangi”* so‘zi hududning zamonaviy rivojlanishi yoki qayta tashkil etilishi haqida ma‘lumot beradi. Mahalla nomidagi *“Darxon”* (*“tarxon”*) so‘zi “barcha turdagi soliqlar va bojlardan ozod qilingan shaxs” ma‘nosini bildiradi.

YANGI JARARIQ – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 2015-yilda “Oqtepa” mahallasidan ajralgan yangi mahalla. “Katta Jarariq”, Ibn Sino, “Eski Jarariq”, “Shodlik” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi Jarariq anhorini nomidan olingan. Geografik nom tarkibidagi “yangi” soʻzi mahallaning zamonaviy rivojlanishiga yoki yangilanishiga ishora qiladi.

“Jarariq” soʻzi relyef bilan bogʻliq boʻlib, *“jarlikda hosil boʻlgan ariq”, “jardan oqib oʻtgan suv”* maʼnolarini ifodalaydi.

YANGI KAMOLON – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 1995-yilda tashkil topgan. Mahalla guzari yangi bino boʻlganligi sababli, mehnat va urush faxriylari maslahati bilan “Yangi Kamolon” nomi berilgan. “Beshyogʻoch”, “Chaqar”, “Eshonguzar”, “Kamolon”, “Qoratosh” mahallalari bilan chegaradosh.

“Kamolon” toponimi haqida turli fikrlar mavjud. “Kamolon” soʻzining aynan lugʻaviy maʼnosi – komil insonlar yashaydigan yer. Muhammad Solihxoʻja “Tarixi jadidayi Toshkand”da mahalladagi darvozani Kamondaron deb ataydi (XIV asr oxiri) va Kamondaronlar (turkman oʻgʻuz-uchuq qabilalar uyushmasi) qabilasi-ning bir toifasiga mansub deydi.

“Kamolon” toponimi haqida keyingi fikrga koʻra, bu soʻz “Kamondaron”, yaʼni “kamonchilar mahallasi” maʼnosini beradi.

YANGI KAMOLOT – Mirzo Ulugʻbek tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Mirzo Ulugʻbek tumanidagi hududiy chegaralarni qayta koʻrib chiqish hisobiga “Kamolot” mahallasi negizida yangi tashkil etilgan mahalla. “Kamolot”, “Feruza”, “Shalola” mahallalari bilan chegaradosh.

Geografik nom tarkibidagi “Yangi” soʻzi mahallaning zamonaviy rivojlanishiga yoki yangilanishiga ishora qiladi. “Kamolot” soʻzi esa insonning yangi bosqichdagi maʼnaviy va aqliy oʻsishi, tajriba va bilimlarini boyitishi, yangi imkoniyatlar sari intilishini bildiradi.

YANGI QOʻYLIQ – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1930-yillargacha hozirgi Qoʻyliq-4 dahasi oʻrni toʻqayzordan iborat boʻlgan. 1932-yil bahorida Usmon Yusupov rahbarligida Fargʻona viloyatidan 57 xoʻjalik koʻchirib keltirilgan va bu yerlar obod qilingan. 1970-yillardan soʻng Toshkent shahri atrofiga katta beton yoʻli qurilishi munosabati bilan 57 xoʻjalik qishlogʻi buzilib, aholisi koʻchirilgan. Oʻrniga Qoʻyliq-4 dahasi qurilgan. 1998-yilgacha mahalla “Tolariq”, 1998-yildan “Qatortol”, 2005-yildan joydagi mavze va koʻcha nomi bilan uygʻunlashtirish maqsadida “Yangi Qoʻyliq” deb atala boshlangan. “Kengmakon”, “Eshonbuloq”, “Madaniyat”, “Xalqobod”, “Tolariq”, “Chinor” mahallalari bilan chegaradosh.

YANGI MIROBOD – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 1994-yilda tashkil topgan. Avval “Mirobod” mahallasi tarkibida boʻlgan, eski xonadonlar buzilib yangi koʻp qavatli uylar qurilgan. Shu joylarda “Yangi Mirobod” nomi bilan mahalla tashkil etilgan. Abdulla Avloniy, “Salor”, “Baynalmilal”, “Mirobod” mahallalari bilan chegaradosh.

Mazkur toponim ushbu hududda saqlanib kelgan Mirobod aholi maskani nomidan olingan bo‘lib, “mirlar yoki taniqli shaxs tomonidan obodonlashtirilgan yer, joy” ma’nosini bildiradi. Ma’lumotlarga ko‘ra, 1880–90-yillarda Shayxontohur dahasidan Mirjonboy ismli shaxs boshchiligida mirlar qavmiga mansub oilalar hozirgi “Mirobod” bozori atrofidagi joyga ko‘chib kelib, shu hududni o‘zlashtirishgan. Natijada bu joylar keyinchalik Mirobod nomi bilan tanilgan.

Yana bir fikrga ko‘ra, Mirobodning asl nomi “Amirobod”dir. “Amir” nomi Arab xalifaligi davrida hokimlarga berilgan unvon bo‘lib, Sohibqiron Amir Temur mo‘g‘ul xonlaridan o‘zini farq qilmoq uchun bu unvonni qabul qilgan. Temuriylar sulolasi davridan esa amir unvoni mahalliy hokimlarga ham in’om qilingan.

YANGI OLMACHI – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi mahalla nomi. 2021-yilda Mirzo Ulug‘bek tumanidagi hududiy chegaralarni qayta ko‘rib chiqish hisobiga “Olmachi” mahallasi negizida yangi tashkil etilgan mahalla. “Elobod”, “Podshobog‘”, “Boyqo‘rg‘on”, “Sayram”, “Buyuk ipak yo‘li”, “Darxon”, “Olmachi”, “Turon”, Mirzakalon Ismoiliy mahallalari bilan chegaradosh.

“Yangi Olmachi” nomi quyidagi ma’nolarni anglatadi: “*yangi*” – bu mahallaning nisbatan yangi tashkil etilganligini yoki yangilanish jarayonini bildiradi, “*Olmachi*” – “*olma olib sotadigan*”. Mahalla nomi hududning tarixan yoki geografik jihatdan ekinzor yoki bog‘lar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Boshqa fikrga ko‘ra, Olmachi – etnik birlik nomi, etnonim (X. Doniyorov. “O‘zbek shajara va shevalari”. 80-bet). Etnonim toponimga ko‘chgan.

YANGI SEBZOR – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. 1991-yilda “Sebzor” mahallasi ikkiga bo‘linishi natijasida shu nomda tashkil etilgan. Hastimom, “Namuna”, Kohota, “Sebzor”, “Janggoh”, “Xadra” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi hudud tabiati bilan bog‘liq. “Sebzor” – qo‘shma toponim, “*seb*” va “*zor*” qismlardan (forscha “*seb*” – “*olma*”) hosil bo‘lgan bo‘lib, “*olmazor*” degan ma’noni anglatadi. Ya’ni Sebzor dahasi olmazor, umuman bog‘lari ko‘p yer bo‘lgan. Aholisi asosan hunarmandchilik (kosibchilik, to‘quvchilik, chitga gul bosish va b.), savdo-sotiq, shahar tashqarisidagi yerlarda esa bog‘dorchilik hamda dehqonchilik bilan shug‘ullangan.

YANGI SERGELI – Sergeli tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – Sobir Rahimov. Joydagi mavze va shu nomdagi ko‘cha nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, 2011-yilda “Yangi Sergeli” deb qayta nomlangan. “Madadkor”, “Ziynat”, “Qut-baraka”, “Sug‘diyona”, “Ezgulik”, “Sohibqiron” mahallalari bilan chegaradosh.

“*Yangi*” – bu mahallaning nisbatan yangi tashkil etilganligini yoki o‘zgarishlar va rivojlanish jarayonlarini bildiradi. Geografik nomning ikkinchi komponenti *Sergeli* – urug‘ nomi, etnonim.

YANGI TOSHKENT – Olmazor tumanidagi mahalla nomi. Eski nomi – Komiljon G‘ofurov. Mahallaning avvalgi nomini tiklash maqsadida, 2016-yilda

“Yangi Toshkent” deb qayta nomlangan. “Elparvar”, “Paxta”, “Umid”, “Moyariq”, “Chukursoy”, “Gulzor” mahallalari bilan chegaradosh.

“Yangi Toshkent” nomi shaharning yangilanishi va rivojlanishi jarayonlarini aks ettiradi. “Yangi Toshkent” – Toshkentning tarixiy merosi va zamonaviy qiyofasini uygʻunlashtirgan holda, yangi avlod uchun ilhom manbai boʻlishini ham anglatadi.

YANGI UMID – Yangihayot tumanidagi mahalla nomi. 2019-yilda Toshkent viloyati Zangiota tumanidan Toshkent shahri Sergeli tumaniga qoʻshilgan hamda Sergeli tumanidagi mahallalarning hududiy chegaralarini qayta koʻrib chiqish hisobiga yangi tashkil etilgan mahalla. 2021-yilda Yangihayot tumaniga oʻtkazilgan. “Yangi Darxon”, “Yangiturmush”, “Tashabbus”, “Yangihayot” mahallalari bilan chegaradosh.

Toponim tarkibidagi “yangi” soʻzi mahallaning nisbatan yangi tashkil etilganligini yoki yangilanish jarayonlarini anglatadi. “Umid” soʻzi esa *“yaxshilik, ilhom, yangi imkoniyatlar”* maʼnosini bildiradi. Bu nom mahalla aholisi uchun ijobiy va istiqbolli kelajakka boʻlgan ishonchni aks ettiradi.

YANGI CHOSHTIPA – Yangihayot tumanidagi mahalla va mavzening nomi. 2019-yilda Toshkent viloyati Zangiota tumanidan Toshkent shahri Sergeli tumaniga qoʻshilgan hamda Sergeli tumanidagi mahallalarning hududiy chegaralarini qayta koʻrib chiqish hisobiga yangi tashkil etilgan mahalla. 2021-yilda Yangihayot tumaniga oʻtkazilgan. “Choshtepa”, “Yuqori Darxon”, “Joʻnariq”, “Yangi Darxon” mahallalari bilan chegaradosh.

Yangi Choshtepa nomli mavze ham mavjud boʻlib, 2024-yilda tashkil etilgan. “Choshtepa”, “Yangi Choshtepa” mahallalarida joylashgan.

“Yangi Choshtepa” mahallasi soʻnggi yillarda obodonlashtirilib, yangi rivojlanayotgan va zamonaviy infratuzilmaga ega hududlardan biridir. Mahallaning nomi quyidagi maʼnolarni anglatadi: *“yangi”* – bu mahallaning nisbatan yangi tashkil etilganligini yoki yangilanish jarayonlarini bildiradi.

Hozirgi Toshkent shahrining janubi-gʻarbiy chekkasida Yoʻn (Joʻn) arigʻi boʻyida miloddan avvalgi I-II asrlarda tashkil topgan qadimgi Toshkent shahri xarobalarining keyingi davrlarda tepalik shaklida mavjud holatining nomi – Choshtepa. Toponimning qadimgi shakli sugʻdcha “choch” (yoki “chosh”) soʻzlaridan olingan va “Tosh uyumi”, “Tosh qoʻrgʻon” maʼnolarini anglatadi. Buyuk ipak yoʻlida tashkil topgan va uning nomi qadimgi xitoy manbalarida “Chjeshi” boʻlib, “Tosh qoʻrgʻon” degan maʼnoni bildiradi, yaʼni mahalliy atalishidan tarjima qilib berilgan.

Forsiy adabiyotlarda Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma” asaridan boshlab, shahar nomi “Choch” shaklida uchraydi va nazmlarda “Kamoni chochiy” (“Chochiy kamon”) koʻp eslatiladi. Arablar shaharni bosib olgach, arab tilida “ch” tovushi boʻlmagani sababli, arab yozuvidagi manbalarda “Choch” oʻrniga “Shosh” yozildi va ushbu shakldagi toponim arab, fors va turkiy tillarda yozilgan

arab yozuvidagi yozma merosdan keng o‘rin oldi. Biroq hozirda yana “Chosh” shaklida yuritila boshlangan.

YANGIARIQ – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 1937-yilda tashkil topgan. “Turkqo‘rg‘on”, Jomiy, “Iftixor”, Usta Shirin mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalliy aholi vakillari mazkur nomni “*yangi qazilgan ariq*” ma’nosida deb talqin qilishadi. Professor Z.Do‘simovning fikricha, Yangiariq toponimining ikkinchi qismi ark so‘zi bilan bog‘liqdir. Bu so‘z “Boburnoma”da podshoh o‘rdasi, V.V. Radlovning lug‘atida “qal’a” manosida ekanligi, uning doimo baland joyda o‘rnashib, hukmdor saroyi shu yerda bo‘lganligi qayd etiladi.

Xorazm shevalarida ark “xon saroyi, saroy” ma’nolarida qo‘llanilgan. Yangiariq bilan Xiva o‘rtasida o‘rik, olma yetishtirgan qishloqlar bo‘lgan. Bu joylarda xon sayillar, yig‘inlar o‘tkazgan va ma’lum ma’noda xonning maxsus joyi vazifasini o‘tagan. Shunday ekan, Yangiariq “xonning yangi joyi” ma’nosidadir. Oldingi saroy, arkdan farq qilish uchun xalq uni yangi deb atagan.

Toponimiyada bunday hodisalar ko‘plab uchraydi. Masalan, Eski shahar, Yangi shahar, Eski ko‘prik, Yangi ko‘prik va hokazo. Demak, Yangiariq shevada – Yangoriq (yangi – ravish) (Z.Do‘simov, X.Egamov. “Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati”. – Toshkent, 1977. 151-bet).

YANGIBOG‘ – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 1993-yildan 2016-yilgacha “Yangiobod” nomi bilan yuritilgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Yangibog‘” deb qayta nomlangan. “Sevinch”, “Bog‘ieram”, Yunusota, “Ahilobod”, “Akbarobod”, “Kulolqo‘rg‘on”, “Bog‘ishamol” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomining izohi quyidagicha talqin qilinishi mumkin: “yangi” – bu hududning yangilangan yoki yangi tashkil etilganligini bildiradi. “Bog‘” so‘zi “*yashillik, mevali daraxtlar ko‘p o‘sadigan obodonlashtirilgan joy*”ni anglatadi. “Yangibog‘” – vaqt ko‘lami jihatidan boshqa bog‘lardan keyin (yaqinda) yaralgan bog‘. Toponim mahalla yashil va osoyishta muhitga ega ekanligini ko‘rsatadi.

YANGIDAVR – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1930-yillarda “Oquy” mahallasi, 1940-yillarda “24-sonli kvartkom” nomi bilan yuritilgan. 2008-yilgacha Inog‘om Yunusov mahallasi deb atalgan. Joydagi guzar nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, 2008-yil 2-sentyabrda “Yangidavr” nomi berilgan. “Bunyodkor”, “Katta Yangiobod”, “Jarqo‘rg‘on”, “Asalobod”, “Oquy”, “Fayziobod”, “Xosiyatli” mahallalari bilan chegaradosh.

“Yangidavr” mahallasi nomi o‘zida zamonaviylik va rivojlanishni ifoda etadi: “yangi” – bu hududning yangilangan yoki yangi tashkil etilganligini bildiradi. “Davr” so‘zi esa “*zamon*”, “*vaqt*” yoki “*bosqich*” ma’nosini bildiradi. Mahalla nomi zamonaviy davr bilan hamnafaslik va yangi bosqichdagi hayotni ifodalaydi.

YANGIZAMON – Mirobod tumanidagi mahalla nomi. 1956-yilda Toshkent aeroporti kengayishi munosabati bilan u yerda yashovchi aholiga shu hududdan yer

maydoni ajratib berilgan. 1958-yilga kelib mahalla shakllana boshlagan. 1962-yilda mahalla nomi “12-kvartal” deb atalgan, 1994-yilda Mahkam Merganov nomi berilgan. Joydagi Yangizamon ko‘chasi nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, 2008-yilda “Yangizamon” deb qayta nomlangan. “Inoqobod”, Banokatiy, “Navro‘z”, Abdurauf Fitrat, “Istiqlolobod”, Furqat, “Sariko‘l” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahalla nomi o‘zida zamonaviylik va rivojlanishni ifoda etadi: “yangi” – bu hududning yangilangan yoki yangi tashkil etilganligini, “zamon” so‘zi esa “*davr*”, “*vaqt*” yoki “*bosqich*” ma’nosini bildiradi. “Yangizamon” – bu ibora yangi davr, zamonaviy fikrlash va yangilanish jarayonini ifodalovchi so‘zdir. U jamiyatning yangi qadriyatlar, urf-odatlar bilan boyishi, an’anaviy tushunchalarning zamonaviy qarashlar bilan uyg‘unlashishini anglatadi.

YANGIYO‘L – Uchtepa tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 1994-yil sentyabrda Xorazmiy nomi bilan tashkil topgan. Takror mahalla nomini tartibga keltirish maqsadida, 2016-yilda “Yangiyo‘l” deb qayta nomlangan. “Diydor”, “Katta Qa’ni”, “Diyorobod”, “Foziltepa”, Alixonto‘ra Sog‘uniy mahallalari bilan chegaradosh.

“Yangiyo‘l” nomi hududning yangi boshlanishlar yoki rivojlanishning yangi davri bilan bog‘liqligini anglatadi. Geografik nom tarkibidagi “yangi” so‘zi hududning yangilangan yoki yangi tashkil etilganligini bildiradi. “Yo‘l” so‘zi esa “*yo‘nalish*”, “*katta yo‘l*” yoki “*taraqqiyot yo‘li*” ma’nolarida ishlatiladi. “Yangiyo‘l” – yangi imkoniyatlar va istiqbolli maqsadlarga intilish timsoli sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu ma’noda u inson va jamiyatning taraqqiyot sari tashlagan dadil qadamini ifoda etadi.

YANGIQO‘RG‘ON – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. 1966-yildagi Toshkent zilzilasidan so‘ng shahar markazidagi “Qashqar”, “Qiyot”, “Turkqo‘rg‘on” va boshqa mahallalardan ko‘chib kelgan aholidan tarkib topgan. 1992–2009-yillarda mahalla faxriysi, urush qatnashchisi, mahallaning birinchi oqsoqoli Ahmadjon Nazarov nomi bilan atalgan, 2009-yil apreldan boshlab hozirgi nom bilan ataladi. “Mirishkor”, “Nurafshon”, “Yosh avlod”, “Behizor”, “Tarnovboshi”, “O‘rtamasjid” mahallalari bilan chegaradosh.

Bu mikrotoponim “*yangi*” va “*qo‘rg‘on*” qismlarining qo‘shilishidan tashkil topgan. “*Yangi*” umumturkiy so‘z bo‘lib, “*yaqinda bunyod etilgan*” degan ma’noni bildiradi. “*Atrofi devor bilan mustahkam o‘ralgan hovli, qal’a, ark*” esa “*qo‘rg‘on*” deb ataladi.

YANGINUR – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. Dastlab mahallada rais bo‘lgan Karimberdi Xudoyberdiyev nomi bilan yuritilgan. Mahalla nomini joydagi Yangilik ko‘chasiga uyg‘unlashtirish maqsadida, 2012-yilda “Yanginur” deb qayta nomlangan. “Katta Yangiobod”, “Oydinko‘l”, “Behizor”, “Tarnovboshi”, “Shohsanam” mahallalari bilan chegaradosh.

“Yanginur” – yangi davrning boshlanishi, nurli istiqbol va kelajakka bo‘lgan ishonch ramzi. U hayotdagi iliqlik, yaxshilik va yorug‘likka ishora qiladi.

“Yanginur” – bu ibora quyoshning ilk yorug‘ nuri, tong otishi yoki yangilangan tabiat manzarasini ifodalash uchun ham ishlatilishi mumkin.

YANGIOBOD – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. “Erkin”, “Chaqar” mahallasi deb ham yuritilgan. 1936-yilga kelib “Yangiobod” mahallasi tashkil topgan. “Kattabog‘”, “Samarqand Darvoza”, “Kamolon”, “Kamolon Darvoza”, “Charxnovza” mahallalari bilan chegaradosh.

Yangiobod – “*yangi o‘zlashtirilgan yer*”, “*obodonlashtirilgan maskan*” ma’nolaridadir. Geografik nom tarkibidagi *obod* so‘zi – tojikcha “*ob – suv, obod – suvli, suv yetarli joy*” degan ma’noni bildiradi. Bu so‘z shahar, qishloq, umuman, aholi manzilgohlariga nisbatan ishlatiladi. Asosiy ma’nosi “*gullagan*” demakdir.

YANGITARNOV – Yunusobod tumanidagi mahalla nomi. 2015-yilda Firdavsiy mahallasidan ajralib chiqqan yangi mahalla. “Bog‘ibo‘ston”, Firdavsiy, Shayx Shibliy, “Bo‘zsuv”, “Bodomzor”, “Oydin” mahallalari bilan chegaradosh.

Mahallaning nomi o‘zida hududning geografik va tarixiy xususiyatlarini aks ettiradi: “yangi” – mahallaning yangilanish yoki nisbatan yaqinda tashkil etilganligini anglatadi, “*tarnov*” so‘zi an’anaviy ravishda suv o‘tkazish tizimlari yoki kichik suv yo‘llarini bildiradi. Bu hudud nomining suv bilan bog‘liq tarixiy-geografik ahamiyatini ko‘rsatadi.

YANGITURMUSH – Yangihayot tumanidagi mahalla nomi. Sergeli tumanidagi “Humo” mahallasining hududiy chegaralarini qayta ko‘rib chiqish hisobiga 2020-yilda tashkil etilgan yangi mahalla. 2021-yilda Yangihayot tumaniga o‘tkazilgan. “Madadkor”, “Ziynat”, “Tashabbus”, “Yangihayot”, “Humo”, “Yangi Umid”, “Marhamat” mahallalari bilan chegaradosh.

“Yangiturmush” mahallasi zamonaviy turmush tarzini ta’minlashga qaratilgan infratuzilma va osoyishta muhit bilan ajralib turadi. Yangi mazmundagi hayot boshlash va farovon yashash uchun bu mahalla qulay joy hisoblanadi.

YANGIHAYOT – Yangihayot tumanidagi mahalla va mavzelarning nomi. Sergeli tumanidagi “Humo” mahallasining hududiy chegaralarini qayta ko‘rib chiqish hisobiga 2020-yilda tashkil etilgan yangi mahalla. 2021-yilda Yangihayot tumaniga o‘tkazilgan. “Gulshanobod”, “Yangi Darxon”, “Yangiturmush”, “Oriyat”, “Yangi Umid”, “Marhamat” mahallalari bilan chegaradosh.

Tumanda mavjud 2, 3, 3A, 3B, 8, 9-qurilish hududi mavzelari 2024-yilda Yangihayot deb qayta nomlangan. Ular “Gulshanobod”, “Marhamat”, “Oriyat”, “Tashabbus”, “Umid”, “Choshtepa”, “Yangi Umid”, “Yangi Choshtepa”, “Yangiturmush”, “Yangihayot”, “Humo” mahallalarida joylashgan.

Mahalla nomiga tuman nomi asos bo‘lgan. Bu nom hududdagi zamonaviy turmush tarzini ramzi sifatida tanilgan. Infratuzilma va xizmatlarning keng doirasi bu mahallani yashash uchun qulay va farovon joyga aylantiradi.

Mazkur toponim *yangi* va *hayot* so‘zlarining qo‘shilmasidan paydo bo‘lgan. Hayot so‘zi ushbu toponim tarkibida *kishi va jamiyatning faoliyati va yashash yo‘sini, turmush, tirikchilik* ma’nosini bildiradi.

“O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”da xalq shevalarida *hayot/hayat* so‘zi borligi hamda uning *qishloqdan uzoqda yoki qishloqdagi hovliga devori tutash bog‘, bog‘ot* kabi ma‘nosi mavjudligi qayd etilgan.

T.Nafasov toponimning gibrid nom ekanligini qayd qilgan. O‘zbekcha *yangi*, arabcha *hayot* (*to* bilan), tojik va o‘zbek tillarida *hayat – hovli, hovli-joy, hovli sahni; tevaragi devor bilan o‘ralgan joy, tomorqa; qishloq* ichi yo tashqarida yozlik yashaydigan, bog‘-rog‘ qilingan joy, ya‘ni *hayat – yangidan tashkil qilingan, bog‘-rog‘, bog‘ot* yo *tomorqa*. Ana shunday joyda tashkil etilgan aholi punkti – *Yangihayat – Yangihayot*. Hayat so‘zi shevalarda ovul ma‘nosini ham kasb etgan.

YANGISHAHAR – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Mahalla tarixi qo‘shni “Obinazir” mahallasi tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, taxminan XIV asr oxiri – XV asr boshlariga borib taqaladi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shahar hududining kengayishi natijasida, shahar devori tashqarisida yangi mahallalar vujudga kelgan, shulardan biri “Yangishahar” mahallasi bo‘lgan. “Ko‘kcha”, “Obinazir”, “Jarariq”, “Kattahovuz”, “Sarxumdon”, “Oqlon” mahallalari bilan chegaradosh.

Mazkur toponim o‘zbekcha *yangi* hamda forsha *shahar* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan nom bo‘lib, u “*yangi shahar*” degan ma‘noni ifodalaydi.

YASHNOBOD – Yashnobod tumanidagi mahalla nomi. Bu mahalla 2001-yil 7-dekabrda tashkil topgan. Shoir Hamza nomi berilgan. Mahalla nomini tuman nomi bilan uyg‘unlashtirish maqsadida, 2014-yilda “Yashnobod” deb qayta nomlangan. “Aviasozlar”, “Qadriyat”, “Birlashgan”, Maxmur, “Alimkent”, “Navro‘z-obod” mahallalari bilan chegaradosh.

“Yashnobod” – mazkur nomda aholining hududni obod qilish bilan bog‘liq harakati, orzu-umidlari inobatga olinib, kelajakda mazkur mahalla shaharning go‘zal, ko‘rkam, obod mahallalaridan biri bo‘lishiga bo‘lgan ishonch o‘z aksini topgan.

METRO BEKATLARI

TOSHKENT METROPOLITENI – ko‘p sonli yo‘lovchilarni tashishga mo‘ljallangan elektr transport turi. “Toshshahartransportxizmat” uyushmasiga qarashli “Toshelektrotrans” davlat kompaniyasi tarkibida faoliyat yuritadi.

Toshkent shahrida metro qurilishi 1973-yil boshlangan, bu ishni “Toshmetroqurilishi” tresti, metro qurilish direksiyasi olib bordi. Metro sobiq Ittifoqda yettinchi, dunyoda 37 bo‘lib 1977-yilning 6-noyabrida ishga tushirildi.

Hozirgi metro tarkibida 4 ta yo‘l (liniya) mavjud bo‘lib, undan uchta yer osti yo‘llari, bittasi esa yer usti metro yo‘llaridir. Yo‘llarning umumiy uzunligi – 71 km. Jami bekatlar soni – 50 ta. 2024-yil dekabrda metro tomonidan bir kunda 1 mln dan ortiq yo‘lovchi tashildi. Qayd etish joizki, bugungi kunda Toshkent metropoliteni o‘zining yo‘llari uzunligi hamda xizmati ko‘lami bo‘yicha Markaziy Osiyoda 1-o‘rinni, sobiq Ittifoq davlatlari o‘rtasida – 7-o‘rinni, dunyoda – 68-o‘rinni egallaydi.

Toshkent metropolitenining birinchi liniyasi “Chilonzor” yo‘li deb nomlanadi. Metroning birinchi yo‘li 12 ta yer osti va 5 ta yer usti bekatdan iborat. Bu quyidagilar: “Olmazor”, “Chilonzor”, “Mirzo Ulug‘bek”, “Novza”, “Milliy bog‘”, “Xalqlar do‘stligi”, “Paxtakor”, “Mustaqillik maydoni”, “Amir Temur xiyoboni”, “Hamid Olimjon”, “Pushkin”, “Buyuk ipak yo‘li”; “Choshtepa”, “O‘zgarish”, “Sergeli”, “Yangihayot”, “Chinor”. Birinchi liniya uzunligi 23,7 km ga teng.

Ikkinchi liniya “O‘zbekiston” yo‘li deb ataladi. Metroning ikkinchi yo‘lida 11 ta bekat bor. Bular: “Beruniy”, “Tinchlik”, “Chorsu”, “G‘afur G‘ulom”, “Alisher Navoiy”, “O‘zbekiston”, “Kosmonavtlar”, “Oybek”, “Toshkent”, “Mashinasozlar”, “Do‘stlik”. Bu liniyaning uzunligi 14,3 km ni tashkil etadi.

Metro uchinchi liniyasining nomi – “Yunusobod” yo‘li. Uchinchi yo‘lda 8 ta bekat bor. Bu quyidagilar: “Mingo‘rik”, “Yunus Rajabiy”, “Abdulla Qodiriy”, “Minor”, “Bodomzor”, “Shahriston”, “Yunusobod”, “Turkiston”. Mazkur metro yo‘li uzunligi 10,5 kilometrdan iborat.

Metropolitenning yer usti liniyasida ochiq havoda yer ustiga o‘rnatilgan relslarda elektropoyezdlar harakatlanadi. Uning qurilishi Prezident Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yilda boshlangan va 2021-yil O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz yilligi munosabati bilan ishga tushirilgan. U Toshkent metropoliteni yer osti metrosining liniyalariga: jumladan, Chilonzor va O‘zbekiston yo‘llariga ulangan. Yer usti metrosi Toshkent shahrining Yashnobod, Mirobod, Sergeli, Yangihayot tumanlaridan o‘tadi. Unda 19 ta metro bekati mavjud.

Toshkent metrosining to‘rtinchi liniyasi (yer usti metrosi) “O‘zbekiston mustaqilligining 30 yilligi” deb nomlanadi. Halqa yo‘li shaklida qurilgan bo‘lib, “Do‘stlik” – “Qo‘yliq” (“Halqa yo‘li”) deb ham nom olgan, unda quyidagi 14 ta metro bekatlari ochilgan: “Texnopark”, “Yashnobod”, “Tuzel”, “Olmos”,

“Rohat”, “Yangiobod”, “Qo‘yliq”, “Matonat”, “Qiyot”, “Tolariq”, “Xonobod”, “Quruvchilar”, “Turon”, “Qipchoq”.

Yo‘lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida bekatlarda eskalatorlar o‘rnatilgan. Har bir bekatning badiiy me‘morlik hamda haykaltaroshlik nuqtayi nazaridan bezatilishi ramziy ravishda shu bekat nomini aks ettiradi. Ularda madaniy, monumental, dekorativ va amaliy san‘atning milliy an‘analari o‘z aksini topgan. Bekatlarga bezak berishda, asosan, mamlakatimizda chiqadigan qora, qizil, kulrang granitlar, marmar, keramika-sopol, yog‘och, oyna, turli xil metallardan foydalanilgan. Metro ishi uchun zarur 800 xildan ortiq ehtiyot qismlar respublikamiz sanoat korxonalari va metropolitenning o‘zida ishlab chiqariladi.

Metro 9 balli zilzilaga bardosh beradi. Signalizatsiya, markazlashtirish va blokirovka tizimlari harakat xavfsizligini ta‘minlaydi, svetoforming taqiqlovchi signali yonganda elektr poyezdlar avtomatik tarzda darhol to‘xtaydi.

Toshkent metrosining bir necha qurilmalari dunyo metrosozligida yagona hisoblanadi. Jumladan, havoni changdan tozalab, sovutib va namlikni yaratib beradigan adiobatlik uskuna, metro qurilmalarining yer silkinishi natijasidagi ahvolidan xabar beruvchi seysmometrik asboblari o‘rnatilgan.

“ABDULLA QODIRIY” METRO BEKATI – Toshkent metrosining “Yunusobod” yo‘lida joylashgan. 2001-yil 26-oktyabrda foydalanishga topshirilgan. Yunusobod tumani hududida.

“Abdulla Qodiriy” metro bekati XX asr o‘zbek adabiyotining ulkan namoyandasi, o‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy (1894–1938) nomi bilan atalgan. Abdulla Qodiriy serqirra janrlarda ijod qilib, roman, satirik hikoya, she‘r, qissa, pyesa, publitsistik va adabiy-tanqidiy maqolalar yaratgan. Uning asarlari millatparvarlik ruhida yozilgan bo‘lib, jadidchilik g‘oyalari bilan sug‘orilgan.

Mazkur bekat Amir Temur shohko‘chasi bo‘ylab Abdulla Qodiriy ko‘chasi yaqinida joylashgan. “Toshmetroloyiha” institutida loyihalangan (me‘mori F.Muzaffarova, muhandislar: O.Zokirov, V.Juravlyov va boshqalar). Bekat qurilishida yig‘ma temir-beton elementlardan foydalanish imkoniyatini beradigan yangi konstruktiv sxema qo‘llangan. Zali tantanavor, mahobatli sharqona ustunli, devorlariga Abdulla Qodiriy asarlari asosida pannolar, badiiy shisha vitrajli manzaralar ishlangan, yozuvchi asarlaridan olingan iqtiboslar arab shrifti uslubida bezatilgan.

“ALISHER NAVOIY” METRO BEKATI – Toshkent metrosining “O‘zbekiston” yo‘lida joylashgan. 1984-yil 7-dekabrda foydalanishga topshirilgan. Shayxontohur tumani hududida.

Toshkent metropolitenining “O‘zbekiston” hamda “Chilonzor” yo‘llari kesishgan bekatga buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkir, o‘zbek adabiy tili asoschisi va davlat arbobi Alisher Navoiy (asl ismi Nizomiddin Alisher; 1441–1501) nomi berilgan. Alisher Navoiyning adabiy va ilmiy merosi juda ulkan va serqirra bo‘lib, XV asr musulmon Sharqi ma‘naviy hayotining deyarli barcha tomonlarini qamrab olgan 30 ga yaqin devon, yirik dostonlar, nasriy asarlar va ilmiy risolalardan iborat.

Mazkur bekat Botir Zokirov ko'chasida, Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi, savdo majmualari yaqinida joylashgan. Bekatning yo'lovchilar zali ustunli, ikki yer osti yo'lakli bo'lib, biri orqali "Paxtakor" metro bekati ga o'tiladi. Me'morlari: Y.Mansurov, V.Mahmudov; muhandislari: O.Zokirov va boshqalar. Interyeri girih va islmiy naqshlar bilan ishlangan (rassomlar: R.Muhammadjonov, A.Rahimov). Karnizlari va toqlari ham milliy naqshlar bilan bezatilgan (usta I.Shermuhamedov va boshqalar). Zal devorlarida Navoiy "Xamsa" asari syujetlaridagi namoyonlar, Navoiy barelyefi bor (rassomlar: Ch.Ahmarov, I.Qayumov, koshinkor ustalar: A.Aminov, U.Mamatboyev, haykaltarosh A.Shoymurodov).

"AMIR TEMUR XIYOBONI" METRO BEKATI – Toshkent metrosining "Chilonzor" yo'lida joylashgan. 1977-yil 7-noyabrda ochilgan. Mirzo Ulug'bek tumani hududida.

Bekatning dastlabki nomi – "Oktyabr inqilobi" (sovet davrining mashhur tarixiy voqeasi sharafiga atalgan). Mustaqillik yillarida mazkur nom "Markaziy xiyobon" (1992), so'ng "Amir Temur xiyoboni" deb o'zgartirilgan (1993).

"Amir Temur xiyoboni" metro bekati nomi buyuk tarixiy shaxs nomi – sohibqiron Amir Temur bilan bog'liq. Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir (1336–1405) – o'rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi. O'zining o'ttiz besh yillik hukmronligi davrida juda ko'p davlatlarga harbiy yurishlar qilib, barchasida muvaffaqiyat qozongan. Amir Temur imperiyasi uning "Temur tuzuklari" nomli asosiy qonunchilik qoidalari asosida boshqarilgan. O'z saltanatida u ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan hamda zabt etgan mamlakatlaridagi bir qator shaharlar (Bag'dod, Darband, Bayliqon va boshqalar)ni qayta tiklagan. Movarounnahr va Xurosonni obodonlashtirish ishlarini faol olib borib, Kesh, Samarqand va boshqa shaharlarda ko'plab saroy, masjid, madrasa, maqbaralar bunyod ettirib, bog'-rog'lar yaratgan. Amir Temur din arboblari ga, fan, madaniyat va san'at ahliga homiylik qilgan.

Mazkur bekat Amir Temur shohko'chasida, Amir Temur xiyoboni, "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyi, "O'zbekiston" mehmonxonasi yaqinida joylashgan. Bekat me'morlari: M.Akramov, I.Merport, S.Shappo, muhandisi G.Oganesov va boshqalar. Bekat ustunli qilib qurilgan: yer osti piyodalar yo'lagiga tutashgan ikki yer osti vestibuly bor. Yig'ma temir-beton konstruksiyalardan qurilgan, shifti plitalarni qirrador qilib tutashtirib jozibali qilingan; to'sinlar orqasiga qandillar o'rnatilgan. Ustunlari Nurota oq marmari bilan, yo'lak devorlari G'ozg'on marmari bilan qoplangan. Sahniga kulrang va qora granit plitalar yotqizilgan. Devorlariga Amir Temur hayoti bilan bog'liq pannolar ishlangan.

"BERUNIY" METRO BEKATI – Toshkent metrosining "O'zbekiston" yo'lida joylashgan. 1991-yil 30-aprelda foydalanishga topshirilgan. Shayxontohur tumani hududida.

“Beruniy” metro bekatiga ulug‘ o‘zbek mutafakkir olimi, o‘rta asrning buyuk daholaridan bo‘lgan Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973–1048) nomi berilgan. Beruniy fanning deyarli barcha sohalari bilan shug‘ullangan qomusiy olim hisoblanadi: falakiyot, fizika, riyoziyot, ilohiyot, ma‘dashunoslik, adabiyot, ona tili, tarix, geografiya, geodeziya va boshqalar. Bu fanlar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi bilan uning nomi dunyo fanining buyuk siymolari qatoridan joy olgan. Olim qoldirgan meros 152 ta kitob va risoladan iborat.

Mazkur metro bekati Toshkent metropoliteni “O‘zbekiston” yo‘lidagi oxirgi bekat. Me‘morlari: F.Muzaffarova, A.Tabibov; muhandislari: O.Zokirov, V. Juravlev va boshqalar. Yo‘lovchilar zalining me‘moriy yechimi milliy me‘morlik an‘analari asosida gumbazsimon ko‘rinishda hal etilib, vestibyullar yordamida yer osti yo‘laklari bilan tutashtirilgan. Gumbaz shifti bezakli marmar bilan qoplangan va platformaning yo‘l yoni devorlariga kelib tayangan. Shiftdagi jimjimador ishlangan billur qandillar vestibyul va zina devorlariga o‘rnatilgan elektr yoritkichlar bilan bir uslubda ishlanib, o‘zaro uyg‘unlashtirilgan (rassom Sh.Jalilova). Bekat ichki bezagida marmar, granit, metall, shisha, sopol va boshqa materiallardan foydalanilgan.

Metro bekati joylashgan hududdagi maydonda Beruniy haykali o‘rnatilgan (haykaltarosh M.Musaboyev, me‘mor P.Zohidov).

“BODOMZOR” METRO BEKATI – Toshkent metrosining “Yunusobod” yo‘lida joylashgan. 2001-yil 26-oktyabrda foydalanishga topshirilgan. Yunusobod tumani hududida.

“Bodomzor” metro bekati “Bodomzor” mahallasi nomi bilan atalgan. Yunusobod tumanidagi ushbu mahallaga XIX asr o‘rtalarida asos solingan.

Mazkur bekat me‘mori Y.Mansurov, muhandislar: O.Zokirov, V.Juravlev va boshqalar. Bekat gumbazsimon bo‘lib me‘moriy yechim g‘oyasi bog‘ xiyoboni bilan uzviy bog‘liq. Shift va devorlarida badiiy sopol orqali bodom gullari va hosili ifodalangan kompozitsiyalar yaratilgan (rassomlar: R.Muhammadjonov, A.Rahimov). Ajralib turadigan joyi – yo‘lovchilar zali devorlarining yo‘qligi va shu tufayli zal gumbazi yaxlitligidir. Yoritkichlar platformada torshe- o‘rindiqlarda joylashgan. Sahniga milliy gilam shaklida qizil, kulrang va qora granit plitalar yotqizilgan. Bekat ichki bezagida mahalliy marmar, granit, badiiy sopol, metall, shisha va boshqa pardozlash materiallaridan foydalanilgan.

“BUYUK IPAK YO‘LI” METRO BEKATI – “Chilonzor” yo‘lining so‘ngi bekati. 1980-yil 18-avgustda ochilgan. Yunusobod tumani hududida.

Dastlab “Maksim Gorkiy” nomi bilan atalgan. Mustaqillik yillarida joy nomi milliy lashtirish va tarixiylik bilan bog‘lash maqsadida amalga oshirilgan ishlar doirasida bekat nomi 1997-yil 1-mayda o‘zgartirilgan.

Buyuk ipak yo‘li Markaziy Osiyo hududida qadimdan mavjud mashhur va muhim karvon yo‘li, mil. avv. II asrdan to milodiy XV asrgacha faol bo‘lib, sharqda Xitoydan boshlanib, g‘arbda O‘rta dengiz sohillarigacha davom etgan

va ko'plab qadimgi hamda o'rta asrlarda mavjud davlatlarning savdo, xalqaro aloqalarini o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etgan. Buyuk ipak yo'lining bir tarmog'i Toshkent shahri orqali o'tgan. Mazkur tarixiy yo'lining bugungi kunda sayyohlik yo'nalishlari ishlab chiqilgan va O'zbekiston davlati ushbu loyihalarda qatnashadi. Bu yo'lining o'zbek xalqi tarixida alohida mavqei bo'lgani sababli, uning tarixiylikni asrashdagi roliga e'tibor qaratgan holda, metro bekatiga "Buyuk ipak yo'li" nomi berilgan.

Mazkur metro bekat me'morlari: S.Odilov, F.Muzaffarova, R.Fayzullayev, A.Tabibov, muhandis G.Oganesov va boshqalar. Bekat gumbazsimon shaklda bo'lib, yo'l osti – o'tish yo'llari bilan qo'shib ketgan ikkita yerosti vestibuldan iborat. Yo'lovchilar zalining gumbazsimon shiftida 8 ta qubba joylashgan. Qubbalar ichiga yoritkich lampalar o'rnatilgan. Zalni bezashda marmar va qizil granitlardan foydalanilgan; sahniga kulrang va pushti granit yotqizilgan. Toqlarining shipi va bekat yon devorlarining karnizlariga ganchdan naqshlar ishlangan (naqqosh M.Usmonov).

"G'AFUR G'ULOM" METRO BEKATI – Toshkent metrosining "O'zbekiston" yo'lida joylashgan. 1989-yil 6-noyabrda ishga tushirilgan. Shayxontohur tumani hududida.

"G'afur G'ulom" metro bekatiga O'zbekiston xalq shoiri, O'zR FA akademigi G'afur G'ulom (1903–1966) nomi berilgan. Adibning serqirra ijodiyotida turli janrga xos asarlar o'rin olgan bo'lib, jumladan, she'r, doston, hikoya, qissa, felyeton, pyesa, ocherklar, publistik va ilmiy maqolalar, xorijiy shoirlar asarlarining tarjimalari yaratilgan. O'zbek adabiyoti rivojiga qo'shgan munosib hissasi uchun G'afur G'ulom Davlat mukofoti laureati, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan. G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida shoirga haykal o'rnatilgan, yashagan manzilida uy-muzeyi ochilgan.

Mazkur bekat me'morlari: A.Tabibov, F.Muzaffarova; muhandis O.Zokirov va boshqalar. Bekatning yer osti yo'lovchilar zali va ikki vestibuly bor, ular badiiy-me'moriy bezaklar bilan ishlangan (rassom S.Sultonmurodov). G'oya va mavzularning obrazli yechimini topishda badiiy sopoldan ishlangan o'ziga xos kompozitsiyalardan foydalanilgan. Zal ustunlari ko'p qirrali, tepa qismi bir oz yo'g'onlashgan. Mayin nur sochuvchi elektr yoritkichlar shiftidagi qubbalar ortiga berkitilgan. Bekatni bezashda mahalliy qurilish materiallari – marmar, granit, shuningdek, metall, shishadan foydalanilgan.

"DO'STLIK" METRO BEKATI – Toshkent metrosining "O'zbekiston" yo'lida joylashgan. 1987-yil 6-noyabrda ishga tushirilgan. Yashnobod tumani hududida.

Mazkur metro bekat dastlab "Chkalov" deb atalgan, sababi, bu yerdan Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasiga chiqilgan. Mustaqillik yillarida ushbu zavod o'z faoliyati yo'nalishini hamda nomlanishini o'zgartirgan va bu yerda turli sanoat ishlab chiqarish korxonalari qurilgan. Shu munosabat bilan metro bekatining nomi o'zgartirilib, "Do'stlik" deb atalgan.

Ma'lumki, O'zbekistonda bir yuz o'ttizdan ortiq millat vakillari istiqomat qiladi va ular ahil-inoq yashab kelishadi. O'zbekiston davlatida barcha millatlar teng bo'lib, ularning huquqlari Asosiy qonunda kafolatlangan. O'zbekiston hududida ko'p asrlar mobaynida turli millat, xalq, elat vakillari tinch-totuv, o'zaro ishonch va do'stona munosabatda yashab kelayotganlari o'zbek xalqining katta yutug'idir. Shahar aholisining baynalmilal tarkibda totuv va o'zaro do'stona munosabatda yashashini ifoda qilish maqsadida mazkur metro bekatiga "Do'stlik" nomi berilgan.

Metro bekati me'morlari: O.Oydinova, A.Dashkevich, B.Qurbonxo'jayev, muhandis A.Zokirov. Bekatning me'moriy-badiiy yechimida gumbazsimon temir-beton konstruksiyalardan foydalanilgan. Platforma shifti feruza rang bilan bo'yalib, alyuminiydan ishlangan elektr yoritkichlar kamalaksimon ko'rinishda. Ularning o'rta qismi yorug'roq yonib, chekka tomonga xiralashib borishi zalga o'ziga xos fazoviy ko'rinish baxsh etgan. Bekatning bezak ishlarida ko'proq alyuminiydan foydalanilgan, har xil ma'lumot ko'rsatkichlar alyuminiydan radarsimon shaklda ishlanib, alyuminiy ustunlarga mahkamlangan. Vestibyul va zina devorlari oq rang G'ozg'on marmari bilan, sahni kulrang va qora granitlar bilan qoplangan. Bu bekat "O'zbekiston" metro yo'li yer osti qismining so'nggi bekati bo'lib, undan Toshkent metropolitenining yer usti yo'lidagi "Texnopark" metro bekatiga o'tiladi.

"KOSMONAVTLAR" METRO BEKATI – Toshkent metrosining "O'zbekiston" yo'lida joylashgan. 1984-yil 7-dekabrda foydalanishga topshirilgan. Yakkasaroy tumani hududida.

Bekatga "Kosmonavtlar" nomi berilib, XX asr olimlarining koinotni o'rganish, ilk bor kosmosga insonning raketada uchib chiqishi, umuman kosmonavtikaning rivojlanishi, kishilik jamiyati, fan, texnika taraqqiyotidagi ulkan hissassi namoyon qilingan.

Mazkur metro bekati shahar metropoliteni tarkibidagi jozibali, qiziqarli dizayn uslubida bezatilgan bekatlar qatoridan o'rin olgan. Bunda asosan samo, fazo, osmon jismlarining sirli ruhiyatini yo'lovchilarga yetkazishga harakat qilingan. Me'morlari: S.Sutyagin, S.Sokolov, muhandislar: O.Zokirov, A.Braslovskiy. Ustunkor bekat ikki vestibyul va yer osti yo'laklaridan iborat. Binoning me'moriy bezak yechimi kosmos mavzuiga bag'ishlangan. Yo'lovchilar zalining interyeri ko'k badiiy sopol va Ulug'bek, Y.Gagarin va boshqalar qiyofasi aks ettirilgan medalyonlar bilan bezatilgan (rassom V.Gan). Somon yo'lini eslatadigan shiftga nafis, quyib tayyorlangan shisha yuluzchalar qadalgan. Yo'lovchilar zalining dumaloq ustunlari shisha bilan qoplangan, vestibyullari oyna, metall, granit, marmar bilan uyg'unlashtirib jimjimadorlashtirilgan. Bu ham mavzu yechimini ochib berishga xizmat qilgan.

"QIYOT" METRO BEKATI – Toshkent yer usti metrosi "O'zbekiston mustaqilligining o'ttiz yilligi" yo'lining "Qo'yliq" – "Quruvchilar" yo'nalishi-

da joylashgan. 2023-yil 25-aprelda foydalanishga topshirilgan. Sergeli tumani hududida.

Joy nomlarida tarixiylikni aks ettirish uchun mustaqillik yillarida O‘zbekiston toponimiyasida ko‘plab tarixiy o‘tmish bilan bog‘liq joy nomlari tiklandi. Shu jumladan, turkiy xalqlarning nomlarini qo‘yish ko‘lami kengaydi. Xususan, Toshkent metropolitenining mazkur bekatiga etnotoponimlar guruhiga mansub Qiyot nomi berildi. Qiyot – qadimgi turkiy qabilalardan biri; o‘g‘uzlar tarkibiga kirgan. VIII–X asrlarda Dashti Qipchoqda yashab, ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullanishgan. O‘g‘uzlar davlati yemirilgach, XI asrda qiyotlar ham bo‘linib ketishgan. Ularning katta qismi Turkmaniston hududiga siljib, mahalliy aholiga, boshqa qismi esa Bolqon yarimorolidagi xalqlar tarkibiga singib ketgan. Qiyotlar XX asrning boshlarida, asosan, o‘troqlashib, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanishgan. Keyingi davrlarda ularning ayrim guruhlari O‘zbekiston hududlariga ham qisman tarqalgan. Ushbu urug‘ vakillari istiqomat qilgan qishloqlar ba’zida “Qiyot” deb nomlangan, natijada mazkur atama xalq nomidan joy nomiga aylangan.

Toshkent yer usti metrosidagi “Qiyot” bekati estakada uslubida qurilgan bo‘lib, platformasi uzunligi 102 metrga teng, uning g‘arbiy tomonida imkoniyati cheklangan yo‘lovchilar uchun lift o‘rnatilgan. Sharqiy tarafida asosiy vestibul uchta yo‘lakli eskalator bilan jihozlangan.

“QIPCHOQ” METRO BEKATI – Toshkent yer usti metrosi “O‘zbekiston mustaqilligining o‘ttiz yilligi” yo‘lining “Quruvchilar” – “Qipchoq” yo‘nalishida joylashgan. 2024-yil 11-martda foydalanishga topshirilgan. Sergeli va Yangiyyot tumanlari hududida.

Mahalliy aholi hamda metro yo‘lovchilariga qulaylik yaratish maqsadida, mazkur bekat u joylashgan hudud nomi bilan atalgan. Ayni vaqtda “qipchoq” atamasi etnotoponimlar guruhiga mansub bo‘lib, qadimgi turkiy xalqlarning biri hisoblanadi va shu bois joy nomi sifatida u o‘zbek xalqining tarixi bilan bog‘liq. Qipchoqlar – turkiy xalqlarning eng yirik qabilalaridan biri bo‘lib, nafaqat o‘zbek xalqi etnogenezida, balki qator turkiy xalqlar – qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman, tatar, boshqird, oltoyliklar, shimoliy Kavkazdagi ayrim xalqlar, usmonli turk, venger va boshqa xalqlarning shakllanishida ma’lum ahamiyatga ega. Qipchoqlar mil. avv. III – mil. IV asrlarda shimoli-g‘arbiy Oltoyda yashashgan, keyinchalik VIII–XII asrlarda Dashti Qipchoq hududiga tarqalishgan. Movarounnahr hududiga XVI–XVIII asrlarda kelib joylashishgan. Qipchoqlar Sirdaryo, Toshkent vohasi, Mirzacho‘l, O‘rta Zarafshon, Shimoliy Farg‘ona hududlarida o‘troqlashib, o‘zlari uchun an‘anaviy bo‘lgan chorvachilikni dehqonchilik bilan qo‘shib olib borishgan. Hozirgi davrda Sergeli tumanida ushbu xalq nomi bilan mahalla va ko‘cha nomlangan, sababi bu hududda qipchoqlar yashagan qishloq bo‘lgan.

Toshkent metropolitenining yer usti metrosida joylashgan “Qipchoq” bekati Sergeli yo‘nalishining so‘nggi bekati hisoblanadi. Ayni vaqtda ushbu bekatdan

“Chilonzor” yo‘lining “Chinor” bekatiga o‘tiladi. Mazkur bekat estakada uslubida qurilgan bo‘lib, platformasining sharqiy tomonida imkoniyati cheklangan yo‘lovchilar uchun lift o‘rnatilgan. G‘arbiy tarafida esa asosiy vestibul uchta yo‘lakli eskalator bilan jihozlangan.

“QURUVCHILAR” METRO BEKATI – Toshkent yer usti metrosi “O‘zbekiston mustaqilligining o‘ttiz yilligi” yo‘lining “Qo‘ylik” – “Quruvchilar” yo‘nalishida joylashgan. 2023-yil 25-aprelda foydalanishga topshirilgan. Sergeli tumani hududida.

Bekat Quruvchi dahasining nomi bilan atalgan. Bu daha Sergeli hududida 1966-yilgi Toshkent zilzilasi oqibatlarini bartaraf etish ishlarini amalga oshirish davrida yangi turar joylar qurilishi natijasida barpo qilingan. Zilziladan keyingi yillarda shaharni tiklash ishlariga respublikaning turli viloyatlaridan hamda sobiq Ittifoqning boshqa respublikalaridan Toshkentni tiklash uchun ko‘plab ishchilar, ayniqsa quruvchilar jalb etilgan. Natijada qisqa davr ichida, aniqrog‘i 3,5 yilda, shahar markazi qayta tiklangan, ko‘plab yangi uylar, mavzalar barpo qilingan. Sergelida ham keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan va bunda quruvchilarning alohida ahamiyati bo‘lgan. Ushbu kasb egalari sharafiga Sergelidagi dahaga “Quruvchi” deb nom qo‘yilgan. Hozirgi paytda Toshkent yer usti metrosining Qo‘ylik yo‘nalishidagi bekat aynan shu daha hududida joylashgani uchun, yo‘lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida unga “Quruvchilar” nomi berilgan.

Toshkent yer usti metrosidagi “Quruvchilar” bekat estakada uslubida qurilgan bo‘lib, platformasi uzunligi 102 metrga teng, uning shimoli-sharqiy tomonida imkoniyati cheklangan yo‘lovchilar uchun lift o‘rnatilgan. Janubi-g‘arbiy tarafida asosiy vestibul uchta yo‘lakli eskalator bilan jihozlangan.

“QO‘YLIK” METRO BEKATI – Toshkent yer usti metrosi “O‘zbekiston mustaqilligining o‘ttiz yilligi” yo‘lining “Qo‘ylik” – “Quruvchilar” yo‘nalishida joylashgan. 2020-yil 30-avgustda foydalanishga topshirilgan. Bektemir tumani hududida.

Shahar aholisi hamda metro yo‘lovchilariga qulaylik yaratish maqsadida mazkur metro bekatiga u joylashgan hudud – Qo‘ylik mavzesi va shu nomdagi bozor nomi berilgan. “Qo‘ylik” atamasining kelib chiqishi xususida, asosan, uchta fikr mavjud. Aholi o‘rtasida avvallari bu yerda qo‘y bozori bo‘lgan, shu sababli ham “qo‘ylik” deb ataladi degan fikr tarqalgan. Ba’zilar esa bu yerda suv quyilishi joyi bo‘lgan, shuning uchun “qo‘ylik – suv to‘planishi, ko‘llanishi joyi” degan fikrni ilgari surishadi. Fanda yana bir fikr mavjud bo‘lib, unga ko‘ra ushbu hududda XIV asrda taniqli shaxs Qo‘ylikota yashab o‘tgan, bu yerda hatto uning qabristoni ham mavjud. Bunday fikr ilmiy asoslangan va haqiqatga yaqinroq sanaladi. Hozirgi davrda mazkur joyda Qo‘ylikota qabristoni mashhur ziyoratgoh sifatida aholi o‘rtasida tanilgan.

Toshkent metropoliteni yer usti halqa yo‘lining “Qo‘ylik” bekat qurilishi 2017-yil 1-oktyabrda boshlangan va 2020-yil 20-martda tugatilib, uch yil davo-

mida u yer usti metro yo'lining so'nggi bekati vazifasini bajargan. Keyinchalik, yer usti metrosi qurilish ishlari davom ettirilib, yangi bekatlar ishga tushirilgach, ushbu bekatdan Sergeli yo'nalishi tomon yer usti metrosi poyezdlari qatnaydigan bo'ldi (2023-yil).

“MATONAT” METRO BEKATI – Toshkent yer usti metrosi “O‘zbekiston mustaqilligining o‘ttiz yilligi” yo'lining “Qo‘yliq” – “Quruvchilar” yo'nalishida joylashgan. 2023-yil 25-aprelda foydalanishga topshirilgan. Mirobod tumani hududida.

Bekat nomi O‘zbekiston paralimpiya harakati sportchilari nomi bilan bog‘liq. Mamlakatimiz dovrug‘ini dunyoga tanitish borasida yoshlarning qo‘lga kiritgan yutuqlarini, ularning ibratli hayot tarzini targ‘ib qilish orqali mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, yoshlarni pasport turlariga keng jalb qilish borasida O‘zbekiston hukumati tomonidan dasturamal tadbirlar amalga oshirib kelinadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-maydagi “Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5114-son qarorida, 2022-yil 6-iyundagi “Paralimpiyachilarning matonat maktabi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-270-son qarorida paralimpiya harakatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini amaliyotga bosqichma-bosqich tatbiq etish chora-tadbirlari belgilab berildi. Mazkur tadbirlar ko‘lamida paralimpiya harakatini keng targ‘ib qilish vazifasi ham belgilangan bo‘lib, PQ-270-son qarorning 8-bandida O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi, Toshkent shahar hokimligi, Transport vazirligi va Sportni rivojlantirish vazirligining Abdulla Qodiriy nomidagi ko‘chada joylashgan piyodalar yurish va dam olish maskanida Paralimpiyachilar bog‘ini tashkil etish; Toshkent metropolitenining yangi qurilayotgan bekatlaridan biriga “Paralimpiya harakati” nomini berish” to‘g‘risidagi takliflarga rozilik berilishi lozimligi tasdiqlangan. Mazkur qarorga ko‘ra, metro bekatiga O‘zbekiston paralimpiyachilari sharafiga ularning “Matonat” maktabi nomi berildi.

“Matonat” metro bekati estakada uslubida qurilgan bo‘lib, platformasi uzunligi 102 metrga teng, uning g‘arbiy tomonida imkoniyati cheklangan yo‘lovchilar uchun lift o‘rnatilgan. Sharqiy tarafida asosiy vestibul uchta yo‘lakli eskalator bilan jihozlangan.

“MASHINASOZLAR” METRO BEKATI – Toshkent metrosining “O‘zbekiston” yo‘lida joylashgan. 1987-yil noyabrda foydalanishga topshirilgan. Yashnobod tumani hududida.

Dastlab ushbu bekat “Tashselmash” deb atalgan, sababi, undan Toshkentdagi qishloq xo‘jaligi mashinalarini ishlab chiqaradigan zavodga chiqilgan.

Mustaqillik yillarida geografik obyektlar nomlarini milliy lashtirish talablari-dan kelib chiqqan holda, 1992-yili “Tashselmash” metro bekatining nomi o‘zbek tiliga moslashtirilib, “Mashinasozlar” deb yuritila boshlandi. Metrodan uzoq bo‘lmagan joyda “Mashinasozlar” mahallasi ham joylashgan.

Mazkur metro bekati me'mori: A.Odilova, muhandis O.Zokirov. Bekatning me'moriy-badiiy yechimi temir-beton yig'ma konstruksiya va ustunlardan tashkil topgan. Vestibyullar, yer osti o'tish yo'li devorlari shaffof rangli marmar, zal ustuni va to'sinlari qizg'ish-yashil marmar bilan hashamlangan. Zalning markaziy qismidagi to'sinlarga o'rnatilgan quyma uslubda tayyorlangan shisha yoritkichlar yo'lovchilar zali va zina yoni devorlarida ham davom etib, vestibulda barpo etilgan badiiy kompozitsiya ko'rinishida yakunlanadi (rassom V.Gan). Vestibul shiftidagi elektr yoritkichlar o'rnatilgan qobirg'alar alyuminiy panjaralar bilan to'silganligi tufayli, yorug'lik bir maromda tarqaladi. Yo'lovchilar zali, vestibyullar va yer osti o'tish yo'li sahnalari granit bilan qoplangan.

“MILLIY BOG’” METRO BEKATI – Toshkent metrosining “Chilonzor” yo'lida joylashgan. 1977-yil 7-noyabrda foydalanishga topshirilgan. Chilonzor tumani hududida.

Dastlab unga “Komsomol” nomi berilgan. Mazkur atama sobiq sovet ittifoqi davrida mamlakat yoshlari birlashgan siyosiy tashkilot nomini anglatgan. Ushbu metro bekatidan chiqishda shu tashkilot va yosh avlodga atalib nomlangan “Komsomol bog'i” hamda unda “Komsomol ko'li” ham bo'lgan. Bu bog' 1938-yilda yoshlartashabbusi bilan, asosan, hashar usulida qurilgan va shu sababdan shunday nomda atalgan. Mustaqillik yillarida joy nomlarini milliylashtirish maqsadida, ushbu bog' va shu jumladan, metro bekatiga “Yoshlik” nomi berilgan (1992-yil may oyida). 1991-yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi tantanalari munosabati bilan mazkur bog' qayta rekonstruksiya qilingan va yangicha qiyofaga ega bo'lgan, hududi kengaytirilib, milliy uslubdagi qurilmalar bunyod etilgan. U Toshkentning markaziy qismida joylashgan O'zbekistondagi eng katta madaniyat va istirohat bog'iga aylantirilib, umumiy maydoni 45 gektarni tashkil etgan. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy bog'i deb nomi o'zgartirilgan (1991). Milliy bog' Alisher Navoiy memorial majmui, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi binosi, Madaniyat va san'at ko'rgazmasi, Adiblar xiyoboni, Toshkent muzeyi, “Xalqlar do'stligi” san'at saroyi, Abulqosim madrasasi, sobiq “Navro'z” restorani, favvorali aylana hovuz, sahna va amfiteatr bilan yaxlit uyg'unlik kasb etgan. Ushbu bog'ga olib chiquvchi “Yoshlik” metro bekating nomi 2008-yilda “Milliy bog'” deb o'zgartirilgan. Chunonchi, ushbu nomda metrodan qaysi hududga chiqilishi aniq ifodalangan.

“Milliy bog'” bekating me'morlari: V.Agafonova, A.Ablayeva, R.Zaripov; muhandisi G.Oganesov. Ustunkor yo'lovchilar zali va ikki yer osti yo'lagi qobirg'ali plitalar bilan yopilgan. Yo'lovchilar zalini peshtoq ko'rinishidagi kengaytirilgan charmakli ikki kator ustunlar ko'tarib turadi. Charmak-peshtoqlar yashirin chiroqlar uchun karniz vazifasini ham bajaradi. Ular o'yma ganch naqshlar bilan bezatilgan (ganchkor A.Sultonov). Qizil marmar bilan qoplangan devorlarga geraldik mis qadamalar va badiiy pannolar o'rnatilgan (rassomlar: B.Jalolov,

R.Nemirovskiy). O'tish joylari, yo'lak devorlari va ustunlar G'ozg'on pushti marmari bilan qoplangan. Sahniga kulrang va qora granit plitalar yotqizilgan.

“MINGO'RIK” METRO BEKATI – Toshkent metrosining “Yunusobod” yo'lida joylashgan. 2001-yil 26-oktyabrda foydalanishga topshirilgan. Mirobod tumani hududida.

Ushbu metro bekatiga tarixiylikni tiklash maqsadida olib borilayotgan tadbirlar natijasida O'zbekiston tarixi, xususan Toshkent shahar tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan Mingo'rik arxeologik yodgorligi nomi berilgan. Mingo'rik arxeologik yodgorligi qadimgi shahar xarobasi qoldig'i (I–XIII asrlar), mahalliy aholi o'rtasida u Afrosiyob tepaligi nomi bilan ham mashhur bo'lgan. To'rtburchak arkka yondoshgan minora-qasr va shahristonning tepalikka aylangan hududidan iborat. Toshkent temir yo'l vokzali yaqinida, Salor kanali sohilida joylashgan, maydoni 30-35 gektarga teng bo'lgan; shahar xarobasi o'rnida XIX asrda katta o'rikzor bo'lganligi uchun, ushbu yer maydonlari “Mingo'rik” deb atalgan. Hozirgi shahar qurilishi munosabati bilan Mingo'rik hududining oldingi relyefi va yodgorlikning madaniy qatlami buzilib ketishi tufayli Mingo'rik tepaligining bir qismigina saqlanib qolgan. 2008-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrining 2200 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, Mingo'rik shahar xarobasi konservatsiya qilindi.

“Mingo'rik” metro bekatni me'mori: A.Tabibov; muhandislar V.Juravlev, O. Zokirov. Bekatning yer osti vestibuly va yo'lovchilar zali orqali Yunusobod yo'lidan O'zbekiston yo'lining “Oybek” metro bekatiga o'tish mumkin. Bekatning yo'lovchilar zali ustunli. Zaldagi, marmar vestibyuldagi ustunlar badiiy shisha va xromlangan trubalar bilan ishlangan. Shiftga ustunlar orasiga yo'lovchilar zalini bezab turuvchi qandillar osilgan. Bekat mavzui vestibyulning kirish qismidagi keramik badiiy namoyonda aks ettirilgan. Sahniga kulrang va qora granitlar yotqizilgan. Bekatni bezatishda mahalliy qurilish materiallari – marmar, granit, shuningdek, badiiy sopol, metall, shishadan foydalanilgan.

“MINOR” METRO BEKATI – Toshkent metrosining “Yunusobod” yo'lida joylashgan. 2001-yil 26-oktyabrda foydalanishga topshirilgan. Yunusobod tumani hududida.

Metro bekatni “Minor” nomli mahalla hududida qurilgani sababli, shu joyning nomi berilgan. “Minor” toponimi “mazkur hududdagi yakka minora” ma'nosini anglatadi va o'rta asrlarga oid tarixiy nom sifatida Toshkent shahridagi mahalla va qabriston nomlanishida saqlanib keladi. Tarixga nazar solinsa, “Minor” mahallasi Shayxontohur dahasidagi qadimgi mahallalardan bo'lgan va uning hududidan Anhor kanali oqib o'tgan, aholisi Oqqo'rg'on, Yalang'och mavzellarida dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Hozirgi kunga kelib “Minor” mahallasining joylashuvi Yunusobod tumaniga to'g'ri keladi, Minor mavzesi deb ham ataladi.

“Minor” metro bekati me’mori: F.Muzaffarova; muhandislar: V.Juravlev, O.Zokirov. Ustunli shaklda qurilgan bekatning yo‘lovchilar zali qismi yangi konstruktiv yechimga va shunga muvofiq ravishda yangi me’moriy uslubga ega. Ustunlarda, dekorativ karnizlarning shiftga qo‘shilgan qismlarida badiiy-latun elementlardan tashkil topgan qandil-bralar osilgan. Ustunlar G‘ozg‘on marmari va metall hoshiya bilan qoplangan. Bekatda yo‘lovchilar oqimini taqsimlash maqsadida ustunlar zal o‘rtasida bir qator qilib joylashtirilgan va zinapoyalarga tutashtirilgan.

“MIRZO ULUG‘BEK” METRO BEKATI – Toshkent metrosining “Chilonzor” yo‘lida joylashgan. 1977-yil 7-noyabrda foydalanishga topshirilgan. Chilonzor tumani hududida.

Mazkur metro bekati buyuk o‘zbek olimi va davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek nomi bilan atalgan. Mirzo Ulug‘bek (asl ismi Muhammad Tarag‘ay; 1394–1449) – buyuk o‘zbek astronomi va matematigi, davlat arbobi, tarix, she‘riyat, musiqa sohalari bilan ham shug‘ullangan. Shohruxning o‘g‘li, Amir Temurning nabirasi. Ulug‘bek o‘z hukmronligi davrida (1410–1449) Xuroson bilan Movarounnahrni birlashtirishga harakat qilgan. Uning davrida Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlarda hunarmandchilik, me’morlik, savdo rivojlangan, ilm-fan, adabiyot ravnaq topgan, ko‘plab jamoat inshootlari qurilgan. Samarqandda Ulug‘bek ilmiy maktabi yaratilgan. U yulduzlar jadvalini (“Ziji Ko‘ragoniy”) tuzgan, Quyosh va Oy harakatlarini to‘g‘ri hisoblagan. Mirzo Ulug‘bekning ulkan ilmiy merosidan nafaqat o‘rta asr ilm-fan va adabiyot rivojida, balki keyingi asrlarda ham Sharq va Yevropa mamlakatlari olimlari tomonidan keng foydalanilgan.

“Mirzo Ulug‘bek” metro bekati me’morlari: Y.Mansurov, V.Mahmudov, A. Tabibov; muhandisi G.Oganesov. Bekat ustunli, yer osti yo‘lovchilar zali va ikki vestibyulli qilib qurilgan. Shipining yonbosh qismiga shakldor alyuminiy qoplangan, uning ichiga yoritkichlar o‘rnatilgan. Yo‘lovchilar zali va vestibyullar devorlari G‘ozg‘on oqish marmari bilan qoplangan. O‘tish yo‘llari, vestibyullar, yo‘lovchilar zalining sahniga kulrang va qora granit yotqizilgan.

“MUSTAQILLIK MAYDONI” METRO BEKATI – Toshkent metrosining “Chilonzor” yo‘lida joylashgan. 1977-yil 7-noyabrda foydalanishga topshirilgan. Yunusobod tumani hududida.

Mazkur metro bekati Toshkent shahrining markaziy qismida joylashgan. Dastlab unga “Lenin nomidagi maydon” nomi berilgan, sababi bu bekatdan aynan shunday nomli shahar maydoniga chiqilgan. O‘zbekiston suveren davlat bo‘lgan 1991-yilda shahar markazidagi inshootlarning katta qismi qayta qurilgan va ularga o‘zbek xalqi tarixi hamda milliyligini ifoda etuvchi nomlar berildi. Shu jumladan, poytaxtning markaziy maydoni qayta barpo qilinib, unga “Mustaqillik maydoni” nomi berildi. Mazkur metro bekati shu maydon hududida joylashgani sababli, uning nomi bilan ataldi.

1992-yili Mustaqillik maydoni markaziga Mustaqillik monamenti o‘rnatilgan. 1999-yil 9-mayda bu maydondagi “Noma‘lum soldat qabri” o‘rnida qayta bunyod

etilgan Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan qahramon jangchilar xotirasi abadiylashtirilgan Xotira maydoni ochilgan. 2004-yilda qayta qurilgan Senat binosi foydalanishga topshirilgan. 2005-yilda Mustaqillik monumenti bilan uyg'unlashgan "Baxtiyor Ona" haykali, Ezgulik arkasi ochilgan. Umumxalq bayramlari, tantanali marosimlarda ushbu obida poyiga gulchambar qo'yish marosimi rasmiy taomilga kirgan. Mustaqillik maydonida umumta'lim maktab o'quvchilari uchun Mustaqillik darsini o'tkazish ham odatga aylangan.

"Mustaqillik maydoni" metro bekati me'morlari: L.Adamov, A.Odilova, S.Odilov, L.Popov; muhandisi G. Oganegov. Vestibyullardagi to'g'ri to'rtburchak ustun va devorlar G'ozg'on marmari bilan qoplangan. Vestibyullarni bino shiftining qovurg'asimon plitalarni tubiga joylashtirilgan chiroqlar yoritib turadi. Yo'lovchilar zali Nurota marmari qoplangan och pushti devorlar bilan uyg'unlashib ketgan. Poydevoriga qizil granit qoplangan; zal sahniga milliy bezakli qizil va kulrang sayqallangan granit plitalar yotqizilgan. Platforma zalidagi 8 qirrali ustunlar tepasidagi nafis ustun qoshlar (kapitellar) shift badiiy bezagiga mos. Shift perimetri bo'ylab gumbazlarga billur qandillar o'rnatilgan; zal o'rtasidagi gumbazlarga katta muqarnasli billur qandillar qo'yilgan (rassom I.Lipene). Dekorativ plastik gumbazli shift monolit temir-betondan ishlangan (muhandis N.Dubovskiy).

"NOVZA" METRO BEKATI – Toshkent metrosining "Chilonzor" yo'lida joylashgan. 1977-yil 7-noyabrda ishga tushirilgan. Chilonzor tumani hududida.

Bekat nomi dastlab o'zbek shoiri Hamza nomi bilan atalgan. Mustaqillik yillarida geografik obyektlarning tarixiy nomini tiklash ishlari amalga oshirilib, poytaxtdagi ko'plab joylarning nomlari o'zgartirildi, shu jumladan, Chilonzor tumanidagi mazkur metro bekati joylashgan hududga uning tarixiy nomi – "Novza" berildi. "Novza" so'zi "yangi ariq" ma'nosini anglatadi. Metro bekati shu nomli hududga olib chiqishi hisobga olinib, yo'lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida uning nomi "Novza" deb o'zgartirildi.

Mazkur bekat me'morlari: A.Loshkarev, A.Xurshudov, G.Chernov. Bekat zali bir gumbazli, ikki yer osti vestibulli. Vestibyullar va zal umumiy yaxlit gumbaz bilan yopilgan. Gumbazning ichki yuzasi bekatning piyodalar o'tish yo'lini, vestibyullar va platforma zalini tutashtirgan. Gumbaz shaklini platforma zalining yo'l chetidagi devorlari davom ettiradi; ular muqarnas ko'rinishdagi dekorativ o'ymakorlik bilan ishlangan, och rangli marmar bilan qoplangan.

"OYBEK" METRO BEKATI – Toshkent metrosining "O'zbekiston" yo'lida joylashgan. 1984-yil 7-dekabrda foydalanishga topshirilgan. Mirobod tumani hududida.

Metro bekatiga taniqli o'zbek adibi, O'zbekiston xalq yozuvchisi, O'zR FA akademigi, adabiyotshunos olim va jamoat arbobi Oybek (taxallusi; asl ismi Musa Toshmuhammad o'g'li; 1905–1968) nomi berilgan. Oybek ko'plab romanlar yozgan, lirik she'riyat, dostonnavislik sohalarida ijod qilib, adabiyotshunoslikka oid tadqiqot va maqolalar yaratgan. U o'zining rang-barang ijodiy va jamoat

arbobi sifatidagi faoliyati bilan o'zbek xalqining madaniy yuksalishiga ulkan hissa qo'shgan. Toshkentdagi adib yashagan uyda 1980-yili uy-muzeyi tashkil etilgan va unga haykal o'rnatilgan.

"Oybek" bekati me'mori F.Muzaffarova; muhandisi A.Zokirov va boshqalar. Ustunli platforma Toshkent metrosi yo'llarida birinchi marta qo'llangan zilzila-bardosh yaxlit konstruksiyalardan foydalanib qurilgan, yer osti yo'laklari bo'lgan ikki vestibuly bor. Platforma zalining yassi toqsimon shifti ustunlar va devorlarga tayangan. Ustunlar qizg'ish marmar bilan qoplangan, bo'rtma naqshli sopolaklar bilan bezatilgan (rassom M.Mamajonov). Platformaga tushiladigan zinapoyalar yon devorlariga Oybek asarlari mavzularidagi (kitob sahifalari tarzidagi) namoyon (panno)lar ishlangan. Namoyonlardan birida adibning bo'rtma tasviri ishlangan (rassom O.Xabibullin). Bekatni bezashda marmar, granit, sopol va boshqa materiallardan keng foydalanilgan. Bekatning yer osti vestibuly va yo'lovchilar zali orqali "O'zbekiston" yo'lidan "Yunusobod" yo'lining "Mingo'rik" metro bekatiga o'tish mumkin.

"OLMAZOR" METRO BEKATI – Toshkent metrosining "Chilonzor" yo'lida joylashgan. 1977-yil 7-noyabrda foydalanishga topshirilgan. Chilonzor tumani hududida.

Mazkur metro bekati dastlab Ikkinchi jahon urushida qahramonlik ko'rsatgan general Sobir Rahimov nomi bilan atalgan. Mustaqillik yillarida Toshkent shahridagi Sobir Rahimov tumani nomi Olmazor deb o'zgartirilgani bois, mazkur metro bekati ham 2010-yili shu nom bilan atalgan (yana qarang: *Olmazor tumani*).

"Olmazor" metro bekati me'morlari: A.Tabibov, V.Mahmudov, Y.Mansurov. Bekat ustunli, yer osti yo'lakli qilib qurilgan. Yo'laklar devori, vestibyullardagi ustunlar va platforma devorlari G'ozg'on marmari bilan qoplangan. Yo'lovchilar zalining kvadrat ustunlari Nurota oq marmari bilan bezatilgan. Zal shifti ham oppoq tusda. Karniz, shift plitalari qirralari orasiga yashiringan chiroqlar milliy bezakli; ular platforma o'rtasida qizil granit qoplangan oltita keng ustunga ishlangan qabariq tasvirlar mazmuni bilan uyg'unlashgan. Ushbu bekat "Chilonzor" yo'lidagi yer osti metrosi qismining so'nggi bekati bo'lib, undan Toshkent metro-politenining yer usti qismiga o'tiladi.

"OLMOS" METRO BEKATI – Toshkent yer usti metrosi "O'zbekiston mustaqilligining o'ttiz yilligi" yo'lining "Do'stlik" – "Qo'yliq" yo'nalishida joylashgan. 2020-yil 30-avgustda foydalanishga topshirilgan. Yashnobod tumani hududida.

Ushbu metro bekating nomi "Olmos" mahallasi hamda shu nomdagi yangi qurilgan turar joy majmuasi bilan bog'liq. Aslida Olmos – Namangan viloyati, Chust tumanidagi qishloqning nomi. Qishloq tuman markazidan 14 km masofada. Qishloq aholisi paxtachilik, pillachilik, chorvachilik, bog'dorchilik bilan shug'ullanib kelgan. Toshkent atrofi hududiga ushbu viloyatdan olmosliklar taxminan Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda ko'chib kela boshlagan va

shu joylar (hozirgi Toshkent shahridagi Tuzel mavzesi hududiga yaqin yerlar)da yashab qolishgan, dastlab qishloq xo‘jaligi bilan band bo‘lishgan. Ular istiqomat qilgan joyda 1940-yillarda mahalla tashkil topgan bo‘lib, u Toshkent viloyati sobiq Kalinin tumaniga qarashli bo‘lgan va “O‘tkir” deb atalgan. XX asr 80-yillarida mahallaning nomi “Olmos” deb o‘zgartirilgan. Mustaqillik yillarida ushbu joylar Toshkent shahar tarkibiga kiritilgan va bu hududning katta qismida ko‘p qavatli yangi uylar qurilib, bu yerlar “Olmos” turar joy majmuasi deb atala boshlangan. Mazkur hudud Ohangaron shohko‘chasining o‘ng tomonida (Tuzel mavzesi yaqinida) joylashgan.

Ushbu majmuaga yaqin joydagi “Olmos” metro bekatiga, shahar aholisi hamda metro yo‘lovchilariga qulaylik yaratish maqsadida, aynan u joylashgan hududning nomi berilgan.

“Olmos” yer usti metro bekati estakada uslubida qurilgan bo‘lib, platformasi-ning uzunligi 102 metr, ikkita vestibyuli (ayvoni) bor. Bekat platformasining janubiy tomonida imkoniyati cheklangan yo‘lovchilar uchun lift o‘rnatilgan. Shimoliy tarafida asosiy vestibyul uchta yo‘lakli eskalator bilan jihozlangan.

“PAXTAKOR” METRO BEKATI – Toshkent metrosining “Chilonzor” yo‘lida joylashgan. 1977-yil 7-noyabrda foydalanishga topshirilgan. Shayxontohur tumani hududida.

Mazkur metro bekati Toshkentdagi eng yirik sport majmuasi – “Paxtakor” markaziy stadioni yaqinida joylashgani bois, shu nom bilan atalgan. Ushbu stadion 1953–56-yillarda qurilgan (me’morlar: M.Bulatov, M.Karash), umumiy maydoni 18,4 gektar. Tarkibiga asosiy va kichik futbol maydoni, “Yoshlik” madaniy sport majmuasi, yengil atletika stadioni, tennis korti, qilichbozlik, gimnastika, boks, og‘ir atletika, shaxmat-shashka zallari va boshqalar kiradi. 1956-yilda Toshkent shahrida “Paxtakor” futbol klubi tashkil qilingan, u sobiq ittifoq chempionatining oliy ligasida qatnashgan va yuqori o‘rinlarni egallashga muvaffaq bo‘lgan. 1979-yil 11-avgustda “Paxtakor” futbol jamoasi a‘zolari aviahalokatga uchragan va jamoaning 17 nafar a‘zosi fojeali halok bo‘lgan. Ular xotirasiga bag‘ishlab an’anaviy “Paxtakor-79” turniri o‘tkazib kelinadi. Ushbu futbol klubi qoshida “Paxtakor” futbol akademiyasi faoliyat ko‘rsatadi.

“Paxtakor” metro bekati me’morlari: F.Tursunov, A.Sodiqov, T.Sodiqov. Bekatda yer osti va aylana yer usti vestibyullari bor. Yer usti vestibyulini bezashda mahalliy tabiiy toshlardan keng foydalanilgan. Zalning G‘ozg‘on marmari qoplangan dumaloq ustunlari milliy naqshli quyma alyuminiy panjarali kallaklar bilan bezatilgan; yoritkichlar ana shu kallaklar ichiga o‘rnatilgan. Bekat devorlariga naqshinkor rasmlar (rassom I.Jarskiy) bilan uyg‘unlashib ketgan koshinlar, sahniga kulrang va qora granit taxtalar qoplangan. Devorlar va platformaga tushish joyining me’moriy ko‘lami rangli chinni namoyonlar (rassom V.Burmakin) bilan yanada hashamdor qilingan. “Paxtakor” bekati eskalatorli

yer osti yo‘lagi orqali “Alisher Navoiy” metro bekati bilan tutashgan, bu orqali “Chilonzor” metro yo‘lidan “O‘zbekiston” metro yo‘liga o‘tiladi.

“PUSHKIN” METRO BEKATI – Toshkent metrosining “Chilonzor” yo‘lida joylashgan. 1980-yil 18-avgustda foydalanishga topshirilgan. Mirzo Ulug‘bek tumani hududida.

Ushbu metro bekati rus yozuvchisi, shoir, yangi rus adabiyoti asoschisi Aleksandr Sergeevich Pushkin (1799–1837) nomi bilan atalgan. A.S. Pushkin romantizmdan realizmgacha bo‘lgan mavzularda roman, she‘riy asarlar, ertak, doston va boshqa janrlardagi mashhur adabiyot namunalarini yaratgan. Olamshumul asarlari: “Boqchasaroy fontani”, “Kavkaz asiri”, “Yevgeniy Onegin”, “Igor qo‘shini haqidagi qissa”, “Boris Godunov”, “Belkin qissalari”, “Pikovaya dama”, “Shoh Sulton haqidagi ertak” va boshqalar. Pushkin she‘riyati insoniylikni milliy g‘oya sifatida o‘zida mujassamlashtirib, gumanizm, haqiqat pafosi, fuqarolik, xalqchilik va tarixiylikni birlashtiradi.

“Pushkin” metro bekati me‘morlari: L.Adamov, R.Fayzullayev, A.Tabibov, A.Odilova. Bekat ustunvor qurilgan bo‘lib, ikkita yer osti vestibuly bor. Marmar qoplangan ustunlarning tepalariga sham marjonlariga o‘xshatib ishlangan yonlama qandillar o‘rnatilgan (rassom I.Lipene). Platformaga tushaverishdagi zinapoya devorlari quyma cho‘yan figurali kronshteynlarga o‘rnatilgan sham shaklidagi qandillar bilan bezatilgan; platformaga kiraverishda bronzadan bo‘rttirib ishlangan geraldika namoyoni o‘rnatilgan; ulardan birida A.S. Pushkinning qiyofasi tasvirlangan (haykaltarosh I.Lipas). Devorlar, vestibul va platforma ustunlari oq va nim pushti marmar bilan qoplangan; sahniga silliqlangan kulrang granit yotqizilgan.

“ROHAT” METRO BEKATI – Toshkent yer usti metrosi “O‘zbekiston mustaqilligining o‘ttiz yilligi” yo‘lining “Do‘stlik” – “Qo‘yliq” yo‘nalishida joylashgan. 2020-yil 30-avgustda foydalanishga topshirilgan. Yashnobod tumani hududida.

Aholi va metro yo‘lovchilariga qulaylik yaratish maqsadida, bu metro bekatiga u joylashgan hudud – Rohat nomi berilgan. Mazkur toponim ushbu hududda 1960-yillarda shakllangan. Toshkent shahrining janubi-sharqiy tomonida, Chirchiq daryosining chap sohilida, Ohangaron yo‘lining o‘ng tomonida 1967-yili “Rohat” dam olish zonasi tashkil etilgan (u davrda bu yerlar Toshkent viloyati tarkibida bo‘lgan), maydoni 100 gektar bo‘lgan. Shuningdek, zona ichida 35 gektar maydonga teng Rohat ko‘li ham qazilgan. Bu joylarda barpo qilingan bog‘da turli manzarali – chinor, shumtol, tuxumak, zarang, akatsiya, tuya, eman va boshqa daraxtlar o‘sgan. Shuningdek, mevali daraxtlar o‘stirilgan (15 ming tupdan ortiq). Bog‘ga yaqin hududda 1991-yilda “Rohat” nomli mahalla tashkil qilingan bo‘lib, u Bektemir tumanidagi Suvsoz mavzesi hududida joylashgan. Mahallaga Rohat ko‘lining nomi berilgan.

“Rohat” bekati estakada uslubida qurilgan bo‘lib, platformasining uzunligi 102 metrga teng, ikkita vestibuly bor, platformaning janubi-g‘arbiy tomonida

imkoniyati cheklangan yo'lovchilar uchun lift o'rnatilgan, shimoli-sharqiy tarafi esa uchta yo'lakli eskalator bilan jihozlangan.

“SERGELI” METRO BEKATI – Toshkent yer usti metrosining “Chilonzor” (Sergeli) yo'lida joylashgan. 2020-yil 26-dekabrda foydalanishga topshirilgan. Sergeli tumani hududida.

Sergeli – o'rta asrlarda o'zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalar uyushmasi, turkiy xalqlardagi urug'ning nomi. Bu urug' joy nomi tarzida Markaziy Osiyoda ko'p uchraydi. Ularning bir qismi Zarafshon vohasi qipchoqlari va Jizzax viloyati yuzlarining tarkibiga mayda urug' tarzida qo'shilgan. XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Toshkent vohasi hududida ular tarqalib ketishgan. Sergelilar tarkibida 12 ta qabila bo'lib, o'z tamg'asi va o'roniga ega bo'lishgan. Etnogeneziga ko'ra, dug'lat, uyshun qabilalari bilan qardosh hisoblanishadi. Ular, asosan, yarim ko'chmanchi chorvachilik, qisman dehqonchilik, hunarmandchilik (alacha, shol to'qish, kigiz bosish) bilan shug'ullanishgan. Sergelilarning avlodlari Toshkent viloyatining Yangiyo'l, Yuqori Chirchiq tumanlarida va Chimkent viloyatida yashab kelishmoqda. Ayrim hududlardagi joy nomlarida sergeli tarkibidagi urug'larning nomlari saqlanib qolgan. Toshkent shahridagi tumanlardan biri Sergeli deb ataladi.

Toshkent metropoliteni yer usti metrosi “Chilonzor” (Sergeli) yo'lidagi “Sergeli” metro bekati Sergeli tumanida joylashgani sababli, shahar aholisi va metro yo'lovchilariga qulaylik yaratish maqsadida, unga ushbu tumanning nomi berilgan (shuningdek, ayni vaqtda u Sergeli metro yo'nalishining nomi ham sanaladi).

“Sergeli” metro bekati estakada uslubida barpo qilingan bo'lib, platformasining uzunligi 102 metr ga teng, janubiy tomonida imkoniyati cheklangan yo'lovchilar uchun lift o'rnatilgan, shimoliy tarafida asosiy vestibul uchta yo'lakli eskalator bilan jihozlangan.

“TEXNOPARK” METRO BEKATI – Toshkent yer usti metrosi “O'zbekiston mustaqilligining o'ttiz yilligi” yo'lining “Texnopark” – “Qo'yliq” yo'nalishida joylashgan. 2020-yil 30-avgustda foydalanishga topshirilgan. Yashnobod tumani hududida.

Aholi va metro yo'lovchilariga qulaylik yaratish maqsadida, ushbu metro bekatiga u joylashgan hududdagi “Elektromexanika” zavodi (Texnopark)ning nomi berilgan. Mazkur muassasada muzlatkich, kir yuvish mashinasi, konditsioner, lift, eskalator, chiller va boshqa sanoat-texnika mahsulotlari ishlab chiqariladi.

“Texnopark” bekati Toshkent yer usti metrosi “O'zbekiston mustaqilligining o'ttiz yilligi” yo'lining birinchi bekati hisoblanadi. U o'tish yo'lagi orqali yer osti metrosining “Do'stlik” metro bekati bilan zinali o'tish yo'laklari orqali bog'lanadi. Ushbu bekatdan Toshkent metropolitenining yer osti metrosi “O'zbekiston” yo'lga o'tiladi. Bekatda imkoniyati cheklangan yo'lovchilar uchun ikkita lift o'rnatilgan.

“TINCHLIK” METRO BEKATI – Toshkent metrosining “O‘zbekiston” yo‘lida joylashgan. 1991-yil 30-aprelda ishga tushirilgan. Shayxontohur tumani hududida.

Mazkur metro bekati “Tinchlik” deb ataluvchi mahalla hududiga yaqin yerda joylashgani sababli, uning nomi bilan atalgan. Ushbu mahalla Shayxontohur tumaniga tegishli bo‘lib, 1935-yilda “12-domkom” nomi bilan tashkil etilgan. 1945-yilda Ikkinchi jahon urushi tugaganligi munosabati bilan va unda qozonilgan g‘alaba sharafiga mahallaga “Tinchlik” nomi berilgan. Hozirgi davrda mahalla hududida ko‘p qavatli uylar, savdo do‘konlari, tibbiyot-dagnostika majmuasi, oshxona va boshqa inshootlar mavjud.

“Tinchlik” metro bekati me‘morlari: Y.Mansurov, S.Kozimov; muhandisi A.Zokirov. Bekatning me‘moriy va haqiqiy yechimida temir-beton yig‘ma konstruksiyalar va ustunlardan foydalanilgan. Vestibyullardan biri birinchi bor o‘ziga xos konstruktiv va hajmiy yechim orqali (yer osti o‘tish yo‘lagi va vestibyl yaxlit hajmda olinib, bir-biridan vitraj – yorug‘likni o‘tkazuvchi namoyon tarzidagi to‘siq bilan ajratilgan) bajarilgan.

Me‘moriy-badiiy g‘oyalarning yechimi bekat nomi (“Tinchlik”)da o‘z aksini topgan, platformaning yo‘l yoni devorlaridagi ranglar uyg‘unlashtirilgan orombaxsh hayot mavzusiga bag‘ishlangan. Badiiy komplekslarning uyg‘unlashuvi platformaga o‘ziga xos qiyofa va keng hajmli ko‘rinish baxsh etgan (rassomlar: R.Muhammadjonov, A.Qayumov). Ustunlar yuqoriga kengaya boradi. Ular Nurota marmari bilan bezatilib, yuqorisiga mayin yorug‘lik taratuvchi elektr yoritkichlar o‘rnatilgan. Platforma zali shiftning markaziy qismiga shisha va latundan ishlangan qandillar osilgan (rassom A.Flit). Umuman, bekatning ichki qismi (yer osti yo‘lagi, vestibyl, zina va platforma)da vitraj, girixsimon bezaklar, badiiy sopoldan ishlangan bo‘rtma tasvirlar hamda G‘ozg‘on, Nurota marmarlari bilan o‘ziga xos me‘moriy-badiiy ko‘rinish barpo etilgan.

“TOLARIQ” METRO BEKATI – Toshkent yer usti metrosi “O‘zbekiston mustaqilligining o‘ttiz yilligi” yo‘lining “Qo‘yliq” – “Quruvchilar” yo‘nalishida joylashgan. 2023-yil 25-aprelda foydalanishga topshirilgan. Sergeli tumani hududida.

Ushbu metro bekatiga Tolariq kanali nomi berilgan. Bu yerga yaqin hududda 1976-yilda tashkil topgan “Tolariq” mahallasi joylashgan va Tolariq kanali oqib o‘tadi. Mazkur kanal Toshkent shahrining Yashnobod, Mirobod, Sergeli tumanlari hududlaridan oqadi. Kanal 1937-yilda rekonstruksiya qilingan, uzunligi 1600 metr, suv o‘tkazish imkoniyati 80 l/s, 60 gektar yer maydonini suvlari bilan sug‘oradi. 1960-yillarda Tolariq oqib o‘tgan yer maydonlarida keng dalalar, bog‘-rog‘lar, ekinzorlar bo‘lgan va shu joylar uning suvlari bilan sug‘orilgani bois, hududning nomini ham mahalliy aholi “Tolariq” deb atagan. Keyingi yillarda bu yerga sanoat obyektlari qurilib, ekinzorlar qisqarib ketgan bo‘lsa-da, joyning nomi saqlanib qolgan.

Toshkent metropoliteni yer usti yo‘lidagi “Tolariq” bekati estakada uslubida qurilgan bo‘lib, platformasining uzunligi 102 metrga teng, platformaning g‘arbiy tomonida imkoniyati cheklangan yo‘lovchilar uchun lift o‘rnatilgan, sharqiy tarafi esa uchta yo‘lakli eskalator bilan jihozlangan.

“TOSHKENT” METRO BEKATI – Toshkent metrosining “O‘zbekiston” yo‘lida joylashgan. 1984-yil 7-dekabrda ishga tushirilgan. Mirobod tumani hududida.

Mazkur metro bekati O‘zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahri nomi bilan atalgan. Toshkent Markaziy Osiyoning eng yirik shaharlardan biri bo‘lib, yoshi 2200-yildan ziyod, ya’ni u qadimiy sivilizatsiya davridan mavjud maskan sanaladi. Uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida Toshkent qadimgi davrlardan boshlab to hozirgi zamonga qadar Markaziy Osiyo hududidagi yirik shaharlardan biridir. U Shosh viloyati markazi, Qang‘ davlati poytaxti, Turk xoqonligidagi yirik savdo markazi, Arab xalifaligi davrida ma’rifat o‘choqlaridan biri, Chig‘atoy ulusidagi muhim hunarmandchilik va savdo shahri, Temuriylar davridagi strategik ahamiyatga ega bo‘lgan va madaniy hayotda alohida o‘rin egallagan, xonliklar davrida Toshkent bekligining markazi, keyingi asrlarda Turkiston general-gubernatorligi markazi, sobiq sovetlar davlati tarkibidagi respublika poytaxti vazifasini o‘tab, bugungi kunda suveren O‘zbekiston davlatining poytaxti maqomiga erishgan. Toshkent tarixiy davrlar davomida takomillashib, taraqqiy etib kelayotgan, jahonga tanilgan, Markaziy Osiyodagi muhim strategik ahamiyatga ega shahar, yirik siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma’naviy markaz hisoblanadi.

“Toshkent” metro bekati me’mori A.Tabibov, muhandisi A.Zokirov va boshqalar. Ustunli platforma ikki yer osti yo‘laklariga ega. Devorlari va shift ustunlar kallagi bezagiga monand, milliy ruhda bezatilgan (rassom S.Sultonmurodov), platformaning zinapoyali yo‘laklarida “Toshkent – tinchlik va do‘stlik shahri” mavzuida shahar gerbi, turli tasvirlar ishlangan (rassom O.Xabibullin). Bezaklarda marmar, granit, keramika, metall, shisha va boshqa materiallardan keng foydalanilgan.

“TUZEL” METRO BEKATI – Toshkent yer usti metrosi “O‘zbekiston mustaqilligining o‘ttiz yilligi” yo‘lining “Do‘stlik” – “Qo‘yliq” yo‘nalishida joylashgan. 2020-yil 30-avgustda foydalanishga topshirilgan. Yashnobod tumani hududida.

Aholi va metro yo‘lovchilariga qulaylik yaratish uchun, ushbu metro bekatiga u joylashgan hudud – Tuzel mavzesi nomi berilgan. “Tuzel” tarixiy atama bo‘lib, turkiy xalqlarda qadimdan tekislikdan iborat yer maydonlari “tuz yer”, “tuz el” (“keng hudud” ma’nosida ham qo‘llaniladi) deyilgan. Tuzel nomi “tekis yer” ma’nosini anglatadi. Ma’lumki, Toshkent shahar va atrofidagi hududlardagi relyef o‘r-qirlar, past-balandliklardan tashkil topgan. Masalan, Tuzel qishlog‘i joylashgan hudud ancha tekis keng maydonlarni qamrab olgan, undan yuqoriroqda, balandlik

bo'lib, u yerlar Oltintepa deb atalgan. Hozirgi paytda ushbu maydonlar shahar tasarrufiga kiradi.

Sobiq Ittifoq davrida Tuzel va uning atrofidagi hududlar G'alabaniy 40 yilligi mavzesi deb nomlangan va uning tarkibida bir nechta dahalar bo'lgan (G'alabaniy 40 yilligi-1, 2, 3, 4 dahalari). Mustaqillik yillarida ushbu daha va mavzelarga shu joyning "Tuzel" degan tarixiy nomi berildi. 1991-yilda Tuzel qishlog'i hududida mahalla tashkil qilingan. Dastlab u Mehnat Qahramoni Ikrom Akmalov nomi bilan atalgan, 2009-yilda mahallaga joyning tarixiy nomi berilib, u "Tuzel" deb nomlangan.

Toshkent metropoliteni yer usti metrosining "Tuzel" bekati estakada uslubida qurilgan bo'lib, platformasining uzunligi 102 metr ga teng, ikkita vestibuly bor, platformaning shimoliy tomonida imkoniyati cheklangan yo'lovchilar uchun lift o'rnatilgan, janubiy tarafi esa uchta yo'lakli eskalator bilan jihozlangan.

"TURKISTON" METRO BEKATI – Toshkent metrosining "Yunusobod" yo'lida joylashgan. 2020-yil 29-avgustda foydalanishga topshirilgan. Yunusobod tumani hududida.

Mazkur metro bekati ga "Turkiston" nomi berilgan bo'lib, ushbu toponim tarixiylikni o'zida aks ettiradi. Ayni paytda geografik makon ko'lamini anglatadi. Turkiston – Markaziy Osiyoning o'rta asr va so'nggi o'rta asrlar, yangi tarix davri tarixiy-geografik adabiyotlarida uchraydigan nom. Nafaqat geografik, balki etno-geografik tushunchani anglatib, siyosiy-huquqiy ahamiyatga ham ega. Uning siyosiy sarhadlari Uzoq shimol va sharqqa, Arab xalifaligi, Qarluq va Uyg'ur xoqonliklari bilan chegaradosh bo'lgan yerlarga yoyilgan. XIX asr o'rtalarida Turkiston hududi (3 mln kv km dan ortiq) g'arbda Ural tog'lari etagi va Kaspiy dengizi, sharqda Oltoy tog'lari va Xitoy, janubda Eron va Afg'oniston, shimolda Tomsk va Tobolsk guberniyalari bilan chegaradosh bo'lgan. Turkiston shartli ravishda G'arbiy (Qozog'istonning janubiy qismi, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston hududlari), Sharqiy (Sinszyan-Uyg'ur muxtor rayoni) va Afg'on Turkistoni (Afg'onistonning shimoliy qismi)ga bo'lingan.

G'arbiy Turkiston hududida 1867-yil Turkiston general-gubernatorligi tuzilgan. Uning hududi 1986-yildan boshlab rasman Turkiston o'lkasi deb atalgan. 1918-yil aprelda G'arbiy Turkiston hududida Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (TASSR) tashkil qilingan. Biroq milliy-davlat chegaralanishi siyosati natijasida u alohida respublikalarga bo'lib yuborilgan va "Turkiston" atamasi sun'iy ravishda sovetlar davrida iste'moldan chiqarilib, o'rniga "O'rta Osiyo" atamasi joriy qilingan.

Mustaqillik yillarida tarixiylik va milliylik g'oyalarini tiklash hamda saqlab qolish maqsadida "Turkiston" atamasi yana muomalaga kiritildi va turli davrlardagi sarhadlarini hisobga olgan holda yuritila boshlandi.

Toshkent metropolitenining "Turkiston" bekati me'mori: T.Nurullin, muhandislari: V.Bensler, R.Divanov. Bekat uch qismli, uzunligi 102 metr

bo'lgan platforma zaliga ega, oq ustunlar bilan mustahkamlangan. Platforma, devorlar va ustunlar oq, kulrang, sarg'ish ranglardagi marmar bilan qoplangan. Shiftlar oq rangda va ularga hovuzchalar shakllarida shisha chiroqlar o'rnatilgan. Qurilishida Germaniya va Rossiya texnik uskunalari hamda suvni ushlab qolish texnologiyalaridan foydalanilgan. Toshkent metropoliteni "Yunusobod" yo'lining so'nggi bekatidir.

"TURON" METRO BEKATI – Toshkent yer usti metrosi "O'zbekiston mustaqilligining o'ttiz yilligi" yo'lining "Qo'yliq" – "Quruvchilar" yo'nalishida joylashgan. 2024-yil 11-martda foydalanishga topshirilgan. Yangihayot va Sergeli tumanlari hududida.

Mazkur bekat nomi "Turon" tarixiy-geografik atamasi bilan bog'liq. Turon – O'rta asrlar adabiyotlarida (Tabariy, Beruniy, Firdavsiy) Eron va Turon hududiy chegaralari Amudaryo orqali belgilanadi. Dastlab Avestoda qayd etilgan "tur" etnonimi keyinchalik Markaziy Osiyo tog' va dasht yerlarida yashovchi chorvador aholi bilan bog'langan. Odamlarning fikriga ko'ra, "turlar" tushunchasi – bu sak-massagetlarning dastlabki nomi bo'lishi mumkin. Sak-massagetlar va ularga yaqin qarindosh qabilalar mil. avv. VI–IV asrlarda Oltoy va Janubiy Sibir dashtlarigacha tarqalgan. Shuning uchun "Turon", "turonliklar" yurti tushunchasi keng hududlarga tegishli. Ba'zi tarixchi va geograflarning ta'kidlashlaricha, Turon – bu turklar, turkiy qabilalar yurti degan ma'noni bildirib, keyinchalik "Turkiston" tushunchasiga aylangan.

Hozirgi davrda O'zbekistonda ushbu toponim bilan nafaqat daha, mahalla, ko'cha, balki ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy obyektlarni nomlash holatlari tarqalgan. Bunda ushbu joy nomi orqali o'zbek xalqining uzoq tarixiy davrlarga teng sivilizatsion taraqqiyotiga e'tibor qaratiladi, tarixiylik omiliga urg'u beriladi. Shu jumladan, Toshkent metropoliteni yer usti yo'lidagi "Turon" deb atalgan bekat nomida xalqimizning ulkan tarixga ega ekanligi, uning o'tmishidagi hududlari keng geografik makonni qamrab olgani o'z ifodasini topgan.

"Turon" metro bekat estakada uslubida qurilgan bo'lib, platformasi uzunligi 102 metrga teng, sharqiy tomonida imkoniyati cheklangan yo'lovchilar uchun lift o'rnatilgan, g'arbiy tarafida asosiy vestibulda uchta yo'lakli eskalator qurilgan.

"O'ZBEKISTON" METRO BEKATI – Toshkent metrosining "O'zbekiston" yo'lida joylashgan. 1984-yil 7-dekabrda ishga tushirilgan. Shayxontohur tumani hududida.

Bekat nomi mamlakatimiz sharafiga atab "O'zbekiston" deb qo'yilgan. Bunda Vatanimizning qadimiy davrlardan boshlab to bugungi jahon hamjamiyatiga teng huquqli a'zo bo'lib kirgan davriga qadar bo'lgan tarixi, qudrati, munosib o'rni ifodalangan. O'zbekiston Respublikasi Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 448,9 ming kv. km, aholisi 37 552 569 kishini tashkil qiladi (01.01.2025). Tarkibida o'n ikkita viloyat, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi bor. Tumanlar soni – 177 ta, shaharlar soni –

120 ta, shaharchalar – 1068 ta, qishloq fuqarolar yig‘ini – 1243 ta, ovullar – 198 ta, aholi punktlari – 11109 ta. Hududi sharqdan g‘arbgacha 1425 km ni, shimoldan janubgacha 930 km ni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi – huquqiy-demokratik davlat, prezident boshqaruviga ega respublika, qonun chiqaruvchi hokimiyat – Oliy Majlis, ijro etuvchi hokimiyat – Vazirlar Mahkamasi, joylarda o‘z-o‘zini boshqarish tizimi hokimliklar tizimi orqali amalga oshiriladi, davlat tili – o‘zbek tili, milliy pul birligi – so‘m. O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi ko‘pmillatli aholiga ega davlat bo‘lib, 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi.

“O‘zbekiston” metro bekati me‘mori A.Tabibov, muhandisi A.Zokirov va boshqalar. Gumbazli platforma zali 2 yer osti vestibyuli, ko‘cha osti yo‘laklariga ega. Chiroqlar shishadan va metallardan paxta chanoqlari shaklida ishlangan (rassom V.Dudin), devorlar dalalarga obihayot berib oqayotgan sirlangan sopoldan ishlangan suv tasviri bilan (rassom R.Muhammadjonov), shifti esa ganch o‘ymakorligi bilan (xalq ustasi A.Sultonov va boshqalar) bezatilgan. Bekatni bezashda marmar, granit, keramika, ganch, metall, shisha va boshqalardan foydalanilgan.

“O‘ZGARISH” METRO BEKATI – Toshkent yer usti metrosining “Chilonzor” (Sergeli) yo‘lida joylashgan. 2020-yil 26-dekabrda foydalanishga topshirilgan. Yangihayot va Sergeli tumanlari hududida.

Ushbu metro bekati nomi shu yerda joylashgan “O‘zgarish” dahasi nomiga moslab qo‘yilgan. “O‘zgarish” toponimi ko‘chma ma‘noda “yangilanish” so‘zining sinonimi sanaladi va sovet davrida O‘zbekiston viloyatlarida bir qancha qishloqlar shu nom bilan atalgan. O‘zgarish dahasi ilgari ma‘muriy-hududiy jihatdan Toshkent viloyati tarkibida bo‘lgan. Tarixiy toponimlar jumlasiga kiradi. Mazkur hududda 1998-yilda “O‘zgarish” nomli mahalla ham tashkil topgan.

“O‘zgarish” metro bekati estakada uslubida barpo qilingan; platformasining uzunligi 102 metrga teng bo‘lib, janubiy tomonida imkoniyati cheklangan yo‘lovchilar uchun lift o‘rnatilgan, shimoliy tarafida asosiy vestibul uchta yo‘lakli eskalator bilan jihozlangan.

“XALQLAR DO‘STLIGI” METRO BEKATI – “Xalqlar do‘stligi” maydonida joylashgan. “Chilonzor” yo‘lidagi bekat sifatida 1977-yil 7-noyabrda “Xalqlar do‘stligi” nomi bilan ochilgan. Shayxontohur tumani hududida.

Ma‘lumki, O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat vakillari istiqomat qilishadi. Konstitutsiyada barcha millatlar tenghuquqli va erkin yashashi ta’kidlangan bo‘lib, davlat tomonidan ularning manfaatlarini himoya qilinadi. Tarixga nazar solinsa, O‘zbekiston diyorida ko‘plab millat va diniy e’tiqod vakillari o‘zaro hurmat, ahillik, do‘stona munosabatda bo‘lib kelishgan va bunda o‘zbek xalqining mehmondo‘stligi, bag‘rikengligining o‘rni beqiyos. Masalan, Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston, shu jumladan, Toshkent shahri evakuatsiya jarayonlarida faol qatnashib, minglab insonlarga boshpana bergan, yetim bolalarni oilalarga qabul qilib, ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatgan. Mazkur yillarda o‘zbek xalqi

mardonavorlik, qahramonlik, matonat, insonparvarlik, bag'rikenglik xislatlarini keng namoyon qilgan. Yana bir misol, bu 1966-yilgi Toshkent zilzilasi oqibatlarini bartaraf etish uchun O'zbekistonning turli viloyatlari va sobiq Ittifoqning boshqa respublikalaridan shaharni tiklash uchun turli millat vakillari yordamga kelib, shahar rekonstruksiya qilingan. Yuqorida qayd etilgan ezgu ishlarda qatnashgan xalqlar sharafiga, shuningdek, O'zbekistondagi barcha xalqlarning o'zaro ezgu va samimiy munosabatda bo'lishini alohida e'tirof etib, ushbu tuyg'ularni joy nomlarida ham aks ettirishga harakat qilinib, zilziladan keyingi yillarda Beshyog'och maydoniga yaqin hududda yangi barpo qilingan maydon, madaniyat saroyi, metro bekatiga "Xalqlar do'stligi" nomi berilgan. Mazkur maydonda 1982-yili "Xalqlar do'stligi" monumenti ochilib, u urush yillarida o'n to'rtta evakuatsiya qilingan bolani boqib olgan Shoahmad Shomahmudovlar oilasi va shu kabi yuzlab o'zbek oilalarining insonparvarligini ramziylashtiradi.

"Xalqlar do'stligi" metro bekatining me'morlari: M.Galeev, V.Muratov, U. Rahimov; muhandis G.Oganesov va boshqalar. Bekat ustunli qurilgan. Sakkiz qirrali ko'rinishdagi oq marmar ustunlarning tepasini nilufar g'unchasi shaklidagi murakkab kallak bezagan. Yo'lovchilar zali devorlariga bo'rtma plitalar qoplangan. Osma shiftning qabariq sirtiga bo'rtma naqshlar tushirilgan. Shiftning har qaysi qanoti o'rtasida yashirin chiroqli ovalsimon o'yiqlar bor. Bekat sahniga an'anaviy milliy naqsh tushirilgan silliq kulrang va qora granit qoplangan. "Xalqlar do'stligi" metro bekati ostida bekatning yer osti vestibuly joylashgan. Dumaloq yer ustidagi vestibul jimjimador tojni eslatadi; uning ichkarisi zal ustuni bilan uyg'un holda bezatilgan.

"XONOBOD" METRO BEKATI – Toshkent yer usti metrosi "O'zbekiston mustaqilligining o'ttiz yilligi" yo'lining "Qo'yliq" – "Quruvchilar" yo'nalishida joylashgan. 2023-yil 25-aprelda foydalanishga topshirilgan. Sergeli tumani hududida.

Aholi va metro yo'lovchilariga qulaylik yaratish uchun, ushbu metro bekatiga u joylashgan hudud – "Xonobod" nomi berilgan. "Xonobod" toponimi "Xonobodtepa" tarixiy atamaning qisqartirilgan shakli bo'lib, ushbu hududda qadimgi davrlarda xon qarorgohi va unga tegishli hududlar bo'lganidan dalolat beradi.

Xonobodtepa – (mil. avv. VI–XIII asr. boshi – XVI–XVII asrlar). Toshkent shahri janubida Chirchiq daryosining o'ng sohilida, daryodan 0,5 km narida joylashgan. XX asr 30–60-yillarda arxeologlar M.Y. Masson, V.M. Masson, Y.F. Buryakovlar, 70-yillarda Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. Xonobod yodgorligi kvadrat shaklida, maydoni 30 gektar. U keng xandaq bilan o'ralgan ark va shahristondan iborat, istehkomsiz qishloq shaklida qad ko'targan, keyinchalik minoralari bor mustahkam devor bilan o'ralgan shaharga aylantirilgan. Shahar ichida muhtasham binolar, uy-joylar, maydon va bozor joylashgan. Shahar xarobasidan qadimgi va o'rta asrlarga oid tangalar,

xazina, o'ymakor naqshli ostodonlar, sirsiz va sirlangan idishlar topilgan. Asrlar mobaynida Xonobod shahar xarobasi tepalikka aylangan bo'lsa-da, uning nomlanishi mazkur hududning tarixiy nomi tarzida saqlanib qolgan.

Toshkent metropoliteni yer usti metrosining "Xonobod" bekati estakada uslubida qurilgan bo'lib, platformasining uzunligi 102 metrga teng, shimoli-sharqiy tomonida imkoniyati cheklangan yo'lovchilar uchun lift o'rnatilgan, janubi-g'arbiy tarafida asosiy vestibul uchta yo'lakli eskalator bilan jihozlangan.

"HAMID OLIMJON" METRO BEKATI – Toshkent metrosining "Chilonzor" yo'lida joylashgan. 1980-yil 18-avgustda ishga tushirilgan. Mirzo Ulug'bek tumani hududida.

Mazkur metro bekati taniqli o'zbek shoiri, publitsisti va jamoat arbobi, O'zbekiston FA muxbir a'zosi Hamid Olimjon (1909–1944) nomi berilgan. Adabiy asarlar yaratish bilan bir qatorda, Hamid Olimjon pedagogik faoliyat bilan shug'ullangan, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining mas'ul kotibi bo'lib ishlagan. Hozirgi davrda Toshkent shahridagi metro bekati, maydon, ko'cha, mahalla Hamid Olimjon nomi bilan ataladi. Mazkur mahallada shoirga haykal o'rnatilgan (haykaltarosh Y.Shapiro, me'mor S.Odilov).

Mazkur metro bekati me'morlari: Y.Mansurov, V.Rusanov, A.Tabibov, H.Ubaydullayev. Bekat zali yaxlit toq ko'ndalang belbog'lar bilan alohida qismlarga ajratilgan, milliy uslubda bo'rtma sopol bezaklar ishlangan. Bekat zali sahnida oq marmar va rang-barang shisha sopolaklardan haykaltaroshlikka xos ishlangan 9 ta ustunsimon chiroq o'rnatilgan (rassomlar: I.Lipene, S.Bondereva). Vestibul-dagi namoyonlardan biriga Hamid Olimjonning gorelyefi ishlangan (haykaltarosh I.Jabborov).

"CHILONZOR" METRO BEKATI – Toshkent metrosining "Chilonzor" yo'lida joylashgan. 1977-yil 7-noyabrda ishga tushirilgan. Chilonzor tumani hududida.

Toshkent metropolitenining ushbu bekati poytaxtning Chilonzor tumani nomi bilan atalgan bo'lib, u mazkur tumanda joylashgani uchun shunday nomlanadi; shuningdek, bu metro yo'lining katta qismi Chilonzor tumani hududidan o'tgani bois, yo'nalishga ham "Chilonzor yo'li" deb nom berilgan. "Chilonzor" toponimining etimologiyasi xususida hozirga qadar olimlar yagona fikrga kelmagan bo'lsalar-da, bu atama tabiiy toponimlar sirasiga kirishi aniq. Zero, "chilonzor" so'zidagi "chilon" qo'shimchasi "chilon jiyda" ma'nosini bildiradi, "zor" qo'shimchasi esa "bog'" ma'nosini anglatadi. Ya'ni, aksariyat toponimistlarning fikricha, "Chilonzor" nomi "chilon jiydalar bog'i" deb talqin qilinadi. Ta'kidlash joizki, Chilonzor tumanida mavze, ko'p qavatli uylarni qurish ishlari 1950-yillarda boshlangan va 1960–70-yillarda (1966-yilgi Toshkent zilzilasidan keyin) ayniqsa keng tus olib, asosan to'rt va to'qqiz qavatli panelli turar joy binolari qurilgan, transport qatnovi va maishiy xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Unga qadar ushbu hududda qishloq yerlari, xususiylar xonadonlar, ekinzor va bog'lar bo'lgan.

“Chilonzor” metro bekati me’morlari: V.Kachurines, I.Petuxova, A.Strelkov. Ikki yer osti vestibyulli toqsimon shiftli zali bilan ko‘cha ostidan o‘tish joylari kompleks hal etilgan. Bekat yon devorlari va ustunlariga Nurota oq marmari qoplangan. Rangli keramika namoyonlarida (rassom-haykaltaroshlar: G.Krollis, I.Krolle, N.Mentele, M.Ozolinsh, K.Ozolinya) o‘zbek xalqining ijodiy hayoti, madaniyati va mehnati aks etgan. Nafis to‘garak (diametri 5 metr) qandillar milliy naqshlar bilan bezatilgan (rassom X.Risin).

“CHINOR” METRO BEKATI – Toshkent yer usti metrosining “Chilonzor” (“Sergeli”) yo‘lida joylashgan. 2020-yil 26-dekabrda foydalanishga topshirilgan. Sergeli va Yangihyot tumanlari hududida.

Mazkur bekat Chinor ko‘chasiga yaqin joyda joylashganligi sababli hamda ko‘cha nomiga uyg‘unlashtirish maqsadida bu nom taklif etilgan. Chinor – ming yil umr ko‘radigan sersoya katta daraxt.

“Chinor” metro bekati estakada uslubida barpo qilingan; platformasining uzunligi 102 metrga teng bo‘lib, shimoliy tomonida imkoniyati cheklangan yo‘lovchilar uchun lift o‘rnatilgan, janubiy tarafida asosiy vestibyul uchta yo‘lakli eskalator bilan jihozlangan. Ushbu bekatdan yer ustidagi o‘tish yo‘lakchasi orqali “Qipchoq” metro bekatiga o‘tiladi.

“CHORSU” METRO BEKATI – Toshkent metrosining “O‘zbekiston” yo‘lida joylashgan. 1989-yil 6-noyabrda ishga tushirilgan. Shayxontohur tumani hududida.

Toshkent metropolitenining mazkur bekati shaharning eng yirik markazlaridan biri bo‘lgan “Chorsu buyum bozori” hamda “Chorsu” avtostansiyasi yonida joylashgani sababli, shu nom bilan atalgan. “Chorsu” atamasi Toshkent hududida o‘rta asrlardan beri mavjud bo‘lib, “yo‘llar kesishgan joy” ma’nosini anglatadi. Chorsu o‘rta asrlardan boshlab, to XIX asr oxirlariga qadar shahar markazi hisoblanib, bu yerda yirik ko‘chalar tutashgan va Toshkentning eng katta bozori – “Eski Jo‘ba” (Eskijo‘va) joylashgan hudud bo‘lgan. XX asrda ushbu bozor o‘rni o‘zgarmagan bo‘lsa-da, nomi “Chorsu” deb atala boshlandi (shu joyning nomlanishi bilan bog‘liq holda shu nom tanlangan).

“Chorsu” metro bekati me’morlari: A.Loshkaryov, A.Xurshudov, S.Kozimov, muhandislari: A.Zokirov, V.Juravlev. Bekat ravoqsimon platforma tarzidagi ikki vestibyulli. Vestibyullardan biri yer ostida, ikkinchisi yer ustida. Ulardan biri platformali zal bilan ekskalator yordamida birlashtirilgan. Platforma va vestibyul devorlari oq rangli G‘ozg‘on marmari, sahni esa kulrang granit toshlar bilan qoplangan. Shiftdagi ikkita osma sharafa (karniz)larni hal yuritilgan alyuminiy tirgak (konsol)lar ushlab turadi. Platformaning devorlari va vestibyullar ustunlariga oq, yashil binafsha rangli sopollardan ishlangan belbog‘lar platformaning yon devoridagi barelyeflarga kelib taqalgan. Barelyef (“Ekologiya” va “Vaqlar aloqasi”) feruza-yashil va oq rangda bajarilgan (rassom Y.Kim).

“CHOSHTIPA” METRO BEKATI – Toshkent yer usti metrosining “Chilonzor” (“Sergeli”) yoʻlida joylashgan. 2020-yil 26-dekabrda foydalanishga topshirilgan. Sergeli va Yangiyyot tumanlari hududida.

Choshtipa – Toshkentning eng qadimgi nomi. Hozirgi Toshkent hududida shahar sifatida mil. avv. II asrda Buyuk ipak yoʻlida tashkil topgan. Bizning zamonimizga arxeologik yodgorlik, Joʻnariqning ikki tomonida tepaliklar shaklida yetib kelgan.

Nomi yozma manbalarda Choch, Shosh, Shoshkent, Toshkent viloyati xitoy manbalarida Yuni, Chjeshe, Chjehji, Shi shakllarda uchraydi va xitoycha “Shi” joy nomi “tosh” degan maʼnoni anglatgan. Nom asli sugʻdcha “chosh” soʻzidan va shu shaklda fors hamda oʻzbek tillarida bizning davrimizgacha yetib kelgan; xirmonga toʻplangan don (bugʻdoy, sholi va boshqalar) uyumlarini bildiradi; ayni paytda toshdan qurib koʻtarilgan qoʻrgʻon ham. Arab tilida “ch” tovushi boʻlmagani sababli, arabcha yozma manbalarda “Choch” toponimi “Shosh” shaklida yozilgan (masalan, mashhur vatandoshimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning (IX asr) geografiyaga oid “Kitob surat al-arz” asarida: Shosh va Torband viloyati).

“Choshtipa” metro bekati estakada uslubida barpo qilingan; platformasi uzunligi 102 metr ga teng boʻlib, janubiy tomonida imkoniyati cheklangan yoʻlovchilar uchun lift oʻrnatilgan, shimoliy tarafida asosiy vestibyl uchta yoʻlakli eskalator bilan jihozlangan.

“SHAHRISTON” METRO BEKATI – Toshkent metrosining “Yunusobod” yoʻlida joylashgan. 2001-yil 26-oktyabrda foydalanishga topshirilgan. Yunusobod tumani hududida.

Mazkur metro bekati dastlab akademik Habib Abdullayev nomi bilan atalgan. Mustaqillik yillarida joy nomlarida tarixiylikni aks ettirish masalasi dolzarb koʻplab hududlarga tarixiy joy nomlari berildi va ushbu metro bekati joylashgan hudud “Shahrison” (2015) deb nomlandi. Sababi, ushbu joyda qadimgi Toshkentning shahrison qismi (hozirgi Yunusobod Oqtepsi; mil. V asr) joylashgan. Bu joylar keyingi davrlarda ham aholi tomonidan “shahrison” deb atalgan. Aslida “shahrison” deb Sharqda oʻrta asrlarda shaharlarning markazi, mudofaa devori bilan mustahkamlangan asosiy qismi aytilgan. Saroy (baʼzan ark), jome masjid, yopiq (tim) yoki ochiq bozor, bosh maydon (registon), muhim maʼmuriy binolar, hukmdor va uning yaqinlarining qoʻrgʻonlari, shuningdek, oddiy aholi xonadonlari va boshqalar mavjud boʻlgan. Ilk davrlarda unda bogʻ, ekinzorlar ham boʻlgan. Shahrisonlar asosiy koʻchalar bilan bir necha dahalarga boʻlingan. Keyingi asrlarda shahrisonlar atrofida tashqi shahar – rabot qurilgan.

Toshkent metropolitenining ushbu metro bekati meʼmori: A.Adilova, muhandislari: V.Juravlev, O.Zokirov. Bekat ustunli boʻlib, vestibyllari va yoʻlovchilar zali Toshkent metrosida birinchi marta qoʻllangan konstruktiv yechimlar asosida qurilgan. Yon tomonlari platformali ikki oraliqni bekat yoʻlovchilar oqimini ajratadi, bu yoʻlovchilar uchun qoʻshimcha qulaylik yaratadi.

Ustunlari qizil granit bilan quyma dekorativ kapitell, yon devorlari oq marmar, granit toshlardan vertikal qo'shimchalar bilan bezatilgan. Vestibulyullarning birida rang-barang qimmatbaho minerallardan terilgan O'zbekiston xaritasi ishlangan.

“YUNUS RAJABIY” METRO BEKATI – Toshkent metrosining “Yunusobod” yo'lida joylashgan. 2001-yil 26-oktyabrda foydalanishga topshirilgan. Mirzo Ulug'bek tumani hududida.

Bekatega akademik, bastakor, xonanda va sozanda, o'zbek musiqa merosini to'plovchisi, O'zbekiston xalq artisti Yunus Rajabiyning (1897–1976) nomi berilgan. Yunus Rajabiy, shuningdek, O'zbekiston teleradiosining “Maqom” ansambli tashkilotchisi va badiiy rahbari bo'lgan. Uning repertuaridan maqom parchalari, “Ushshoq”, “Qalandariy”, “Chorgoh”, “Bayot”, “Ko'cha bog'i” va boshqa ashula turkumlari o'rin olgan. Olim Shashmaqomning 6 jildli yangi nashrini tayyorlagan. Yunus Rajabiy o'zbek xalqi va musiqasi san'ati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun davlat tomonidan Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan.

Bekati me'mori: A.Adilova, muhandislari: V.Juravlev, O.Zokirov. Metro bekati yeri osti vestibuly va yo'lovchilar zali orqali Yunusobod yo'lidan Chilonzor yo'lining “Amir Temur xiyoboni” metro bekati bilan o'tish mumkin. Bekati ustunli qilib qurilgan. Yo'lovchilar zali yangi konstruktiv yechimga ega bo'lib, yig'ma monolit elementlardan milliy uslubda ishlangan. Devorlari, ustunlar oq marmar bilan qoplangan, yuqori qismi dekorativ shishadan iborat. Bekatni bezatishda marmar, granit va shishadan foydalanilgan.

“YUNUSOBOD” METRO BEKATI – Toshkent metrosining “Yunusobod” yo'lida joylashgan. 2020-yil 29-avgustda foydalanishga topshirilgan. Yunusobod tumani hududida.

Mazkur metro bekati Toshkent shahrining Yunusobod tumanida joylashgan bekatlardan biri bo'lgani sababli, unga ushbu tuman va shu metro yo'nalishining nomi berilgan. Yunusobod joy nomining kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar (akademik A.Muhammadjonov) fikricha, joyning nomi juda qadimgi bo'lib, asli “Yunusrobot” deb atalgan. Bu o'rinda “robot” karvonsaroy ma'nosida qo'llanilgan. Shimol tomondan shaharga kiruvchilar shu joyda qo'nib o'tishgan. Mahalliy ziyolilarning fikricha, joyning nomi sebzorlik tadbirkor Yunus'hoji Nodirhoji o'g'li (XIX asr, Yunusobod Oqtepasida bog'-rog'lari bo'lgan) haqidagi rivoyatlar bilan bog'liq. Tuman shaharning shimoliy qismida joylashgan. Amir Temur xiyobonidan boshlanib shimoliy tomonga, Katta halqa yo'ligacha davom etadi.

“Yunusobod” metro bekati me'mori T.S. Nurullin, muhandislar: V.I. Bensler, R.Divanov. Shifti qora rangda, ko'plab mayda oq rangli yoritkichlar o'rnatilgan (yulduzli osmonga o'xshash shaklda joylashtirilgan). Platforma zali ustunlar yordamida uzunasi bo'ylab ikki qismga ajratilgan. Ustunlar oq marmardan yasalgan. Devorlar kulrang granit va oq-sariq rangdagi marmar bilan bezatilgan.

“YANGIOBOD” METRO BEKATI – Toshkent yer usti metrosi “O‘zbekiston mustaqilligining o‘ttiz yilligi” yo‘lining “Do‘stlik” – “Qo‘ylik” yo‘nalishida joylashgan. 2020-yil 30-avgustda foydalanishga topshirilgan. Yashnobod tumani hududida.

Aholi va metro yo‘lovchilariga qulaylik yaratish maqsadida, ushbu metro bekati u joylashgan hudud yaqinidagi Yangiobod nomli turar joy obyektlari va shu nomdagi bozor nomlari berilgan. Shuningdek, ushbu hududda Yangiobod nomli mahalla ham mavjud bo‘lib, u 1966-yilgi Toshkent zilzilasi keyingi yillarda, bu hududga zilziladan jabr ko‘rgan Toshkentning “Qashqar” mahallasi aholisining ko‘chib kelib o‘rnashishi bilan bog‘liq holda tashkil topgan. “Yangiobod” toponimining “yangi” komponenti “boshqalar, atrofdagilarga nisbatan endi vujudga kelgan, shakllangan” degan ma‘noni anglatadi, ikkinchi komponenti – “obod” esa bunda “joy”, “qishloq”, “hudud” ma‘nolarini bildiradi. Ya‘ni “Yangiobod” – bu “yangi barpo qilingan, obodonlashtirilgan hudud” ma‘nosini beradi. Yangiobod turar joy obyektlari XX asrning 60–70-yillarida shahar markazidan aholining ko‘chib kelishi, ayni vaqtda respublikaning boshqa viloyatlaridan odamlarning Toshkent shahri chekka hududlari va uning atrofidagi yerlarga kelib yashab qolishi natijasida aholi maskani tarzida shakllanib kelgan.

Toshkent metropoliteni yer usti metrosining “Yangiobod” bekati platformasi-ning uzunligi 102 metrga teng.

“YANGIHAYOT” METRO BEKATI – Toshkent yer usti metrosining “Chilonzor” (Sergeli) yo‘lida joylashgan. 2020-yil 26-dekabrda foydalanishga topshirilgan. Sergeli va Yangiyo‘l tumanlari hududida.

Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan ushbu hudud va unga tutash yerlarda Toshkent shahrining yangi tumani tashkil etilib, tumanga Yangiyo‘l nomi berildi (2020). Tuman nomiga uyg‘unlashtirish maqsadida bekat shu nom bilan atalgan.

“Yangiyo‘l” metro bekati estakada uslubida barpo qilingan; platformasining uzunligi 102 metrga teng bo‘lib, janubiy tomonida imkoniyati cheklangan yo‘lovchilar uchun lift o‘rnatilgan, shimoliy tarafida asosiy vestibul uchta yo‘lakli eskalator bilan jihozlangan.

“YASHNOBOD” METRO BEKATI – Toshkent yer usti metrosi “O‘zbekiston mustaqilligining o‘ttiz yilligi” yo‘lining “Do‘stlik” – “Qo‘ylik” yo‘nalishida joylashgan. 2020-yil 30-avgustda foydalanishga topshirilgan. Yashnobod tumani hududida.

Aholi va metro yo‘lovchilariga qulaylik yaratish maqsadida, ushbu metro bekati u joylashgan hudud – Yashnobod tumani nomi berilgan. Ta‘kidlash joizki, yer usti metrosining ushbu yo‘nalishidagi oltita bekat (“Texnopark”, “Yashnobod”, “Tuzel”, “Olmos”, “Rohat”, “Yangiobod”) aynan Yashnobod tumanida joylashgan. Yashnobod – Toshkent shahar hududida 1966-yilgi zilziladan keyingi shaharni tiklash va obodonlashtirish tadbirlari ko‘lamida

tashkil topgan tumanlardan biri bo‘lib, shaharning sharqiy tomonida joylashgan. “Yashnobod” toponimi aholining hududni obod qilish bilan bog‘liq harakati, orzu-umidlari inobatga olinib, kelajakda mazkur tuman shaharning go‘zal, ko‘rkam, obod tumanlaridan biri bo‘lishi ma’nosini anglatadi.

Toshkent metropoliteni yer usti metrosining “Yashnobod” bekati estakada uslubida qurilgan bo‘lib, platformasining uzunligi 102 metrga teng, ikkita vestibyuli bor, platformaning janubiy tomonida imkoniyati cheklangan yo‘lovchilar uchun lift o‘rnatilgan, shimoliy tarafi uchta yo‘lakli eskalator bilan jihozlangan.

TOSHKENT SHAHRI ZIYORATGOHLARI

SUZUKOTA MAJMUASI – Shayxontohur tumanidagi ziyoratgoh nomi, “Chorsu” bozori yaqinida joylashgan.

Mazkur majmuaga yurtimizda yashab oʻtgan ulugʻ tasavvuf ustozlaridan boʻlgan Suzukotaning nomlari berilgan. Hazrat Shayx Mustafoqul Xoja (Suzukota) 1140-yilda Turkistonning Qorachiq qishlogʻida tugʻilgan boʻlib, Yassaviya tariqati asoschisi Xoja Ahmad Yassaviyning nabirasidir. Mustafoqul faylasufning yagona qizi Gavhari Xushtoj va uning turmush oʻrtogʻi shayx Ahmad al-Qorachiqiyning kenja oʻgʻlidir. Mustafoqul yoshligida bobosiga sidqidildan xizmat qilgan, oʻta itoatkor boʻlgan. Shuning uchun ham Ahmad Yassaviyning Mustafoqulga nisbatan hamisha nigohi va iltifoti oʻzgacha boʻlgan. Bobosi har doim uni koʻrganda oʻzgacha xursand boʻlib, mehr bilan “Suzugim – mening qora koʻzligim, xush kelibsan!”, – deb kutib olardi. Shu sababli u xalq orasida Suzukota nomini olgan.

Voyaga yetganidan soʻng, Ahmad al-Qorachiqiy oʻgʻlini diniy bilimlarni egallashi va solih yoʻl bilan rizq topishni oʻrganishi uchun boshqa mamlakatlarga yuboradi. U Toshkent mahallalariga tutash tepaliklar va qoyalardan iborat adirga joylashib, bu hududni obodonlashtirishga kirishadi. Afsonaga koʻra, bir oqsoqol dalada yosh Mustafoquldan yordam soʻraydi, uning evaziga esa toʻlov va oziq-ovqat vaʼda qiladi. Egasi oziq-ovqat uchun ketgan bir paytda, yigit begona oʻtlar bilan qoplangan yerga egilib shunday deydi: “Ekilgani qolsin, begonasi chiqsin!”. Barcha begona oʻtlar darhol tuproqdan chiqib, ariqqa tushadi. Uydan chiqqan oqsoqol bunday moʻjizani koʻrib, “Ey Xudo, meni kechir va rahm qil, shu yaxshi yigitda sening qudratingni sezmabman!” – deya xitob qiladi va Mustafoqulning yaktagini oʻpa boshlaydi. Ushbu voqea tezda butun mahalla boʻylab tarqaladi. Ziyoratchilar yigitdan duo soʻrab, uning ilmini oʻrganish uchun murojaat qila boshlashadi. Mustafoqul islom ilmi va falsafasini yaxshi bilganligi, oʻzidagi mehr-oqibat tuygʻusi va yetakchilik fazilatlarini orqali hurmatga sazovor boʻladi. Ushbu hududni obodonlashtirgandan soʻng, Shayx ota-onasini tinchlantirish va ularga oʻz turar joyining manzilini aytish uchun oʻz qishlogʻiga borishga qaror qiladi. Qaytib, u oʻz qishlogʻidan hunarmandlar va Qurʼonni yod olgan qorilarni taklif qiladi, barchaga boshpana va himoya beradi. Bundan tashqari, u aholini ilm-fan va hunarmandchilikka oʻqitishni boshlashni buyuradi. Ustalar yetib kelgach, darhol uy-joy, masjid va madrasa qurilishi boshlanadi. Dinning eng muhim masalalari xususida suhbatlashish uchun uzoq mintaqalardan mudarrislar va talabalar kelishib, moʻminning aql-zakovati va bilimlariga qoyil qolishadi. Shunday qilib, yuzlab talabalarning ustozlari Suzukota boy va mazmunli hayot kechirib, toshloq yerlarni gullab-yashnayotgan mahallaga aylantiradi. Suzukota 1217-yilda vafot etadi.

Suzukota majmuasi tarixi. Suzukota masjidi va maqbarasining dastlabki qurilishi Amir Temur davriga to‘g‘ri keladi. 1363-yildagi yurish paytida sarkarda to‘satdan kasal bo‘lib, davolanish uchun Toshkentda qoladi. Sog‘ayganidan so‘ng, u bu hududda masjid va madrasa qurishni buyuradi. Chunki bu yerda Sohibqiron buyuk ma‘naviy ozuqa olgan edi. Suzukota maqbarasi va masjidi 1364-yilda qurilgan va hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

Afsuski, 1936-yilda bolsheviklar boshchiligida masjid va maqbara yopilib, metall buyumlar ishlab chiqarish korxonasiga aylantiriladi. Xonalar o‘rniga korxona idorasi va ombor quriladi. Binolarning barcha devorlarini ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan yoqilg‘i moyi va ko‘mir izlari qoplaydi. Ishlab chiqarish kecha-yu kunduz davom etib, qoldiq zaharli kislota ariqqa tashlanavergach, mahalla aholisining sabr kosasi to‘ladi. 1989-yilga kelib, mahalliy aholining doimiy shikoyatlari va talablari tufayli hukumat tomonidan ishlab chiqarish to‘xtatiladi.

1990-yildan boshlab masjid va maqbarani tiklash ishlari boshlandi. Uzoq vaqt davomida shimol tomondagi ayvonlar qayta tiklanib, shuningdek, tahorat xonasi, imomlar xonasi, kutubxona va binoni qo‘riqlash joyi quriladi. 1996-yilda musulmonlarning Hayit bayrami paytida masjidda tantanali va‘z o‘qiladi. Shu yili masjid faoliyati rasmiy ravishda hukumat tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilib, aholi ixtiyoriga topshiriladi.

SO‘GALLIOTA – Chilonzor tumanidagi ziyoratgoh nomi, So‘galliota nomi bilan atalgan.

So‘galliota tabib bo‘lib, tanasida so‘gali bor kishilar u kishidan shifo topishgan. U kishi bemorlarni giyoh o‘t bilan davolaganlar. So‘galliota XVI–XVII asrlarda yashab o‘tishgan. Vafotlaridan so‘ng dafn etilgan joy So‘galliota qabristoni deb yuritila boshlangan. U kishi qabrlariga o‘rnatilgan qabr toshiga “Vali Olloh tabibiy So‘galli Ota, XVI asr” deb yozib qo‘yilgan. So‘galliota yetti birodarning biri bo‘lganlar. Eng kattalari So‘galliota, ukalari G‘oyibota, Bo‘zloqota, Ilonliota, Terakliota, Sandiqliota, Fozilotalar bo‘lishgan. Ulardan besh kishining nomi bilan qabristonlar atalgan.

XAYROBODIY (XAYROBOD ESHON MAJMUASI) – Chilonzor tumanidagi ziyoratgoh nomi.

Xayrobod eshon majmuasi – me‘moriy yodgorlik (XVIII–XIX asrlar). Xayrobod eshon mablag‘iga usta Qoraxo‘ja rahbarligida bunyod etilgan. Uning qurilishiga oid hech qanday tarixiy yoki boshqa ma‘lumotlar yo‘q. Faqat vaqf hujjatlarida keltirilishicha, 1626-yilda bu yerdan foydalanish uchun marhum Abduqayum Xayrobod eshon o‘z o‘g‘liga tavsiya qilganligi haqida qisqacha ma‘lumot qoldirgan.

Majmua masjid, maqbara, hovuzli hovlidan iborat. Maqbara trapetsiya tarhli (7,5x7,7 m), bezaksiz, pishiq g‘ishtdan ganch qorishmasida barpo etilgan. Masjid to‘rtburchak xonali (12,5x16,5 m), oldi va shimoliy tomondan ustunli ayvonlar

bilan tutashgan. Masjidning ichki devorlariga taxmonlar va navoli tokchalar ishlangan. Ayvonlar islomiy naqshlar bilan bezatilgan. X asrda ta'mirlangan, hovuz esa saqlanmagan.

Mahalliy rivoyatlarga ko'ra, 300 yil ilgari bu yerlar dasht bo'lgan. Xayrobod eshon degan kishi Qozon shahriga borib, bir necha yil o'sha yerda islom dinidan saboq berib yurgan davrlarida tushlariga oq tuya kiradi. Shu tuyaga minib yo'lga chiqasan, tuya qayerga cho'ksa, o'sha yerni makon tutasan degan xabar keladi. Ertalab uyg'onsa, eshigi tagida oq tuya turardi, tuyaga o'tirib, uzoq yuradi va hozirgi masjid, maqbara turgan tepalikka kelib cho'kadi. Nihoyat, Xayrobod eshon bu yerlarni obod kilib, qo'rg'on qurdiradi.

XO'JA ALAMBARDOR – Shayxontohur tumanidagi ziyoratgoh nomi.

Xo'ja Alambardor maqbarasi – me'moriy yodgorlik (XIX asr). Mahalliy rivoyatga ko'ra, maqbara Qaffol Shoshiyning safdoshi, alambardor (bayroqdor) nomi bilan mashhur bo'lgan Xo'ja Alambardor sharafiga qurilgan. Uning taxmin qilingan qabri (X asr) Kamolon darvozasi ortida bo'lib, ziyoratgoh memorial majmuga asos bo'lgan; uning yer osti chillaxonasi hozirgacha saqlangan. Maqbara qabristonning markazida joylashgan, peshtoq gumbazli bir xonali inshootdan iborat.

Xo'ja Alambardor aslida Sayramda dafn etilgan (Xo'ja Alambardor maqbarasidagi qabr ramziy).

“Xo'ja Alambardor” ba'zi manbalarda “Xoja Alamdor” laqabi bilan tilga olingan, Toshkentdagi maqbara esa Abdulaziz bobning ramziy qabri sifatida mashhur. Mazkur maqbaraning qachon va nima sababdan yuzaga kelgani haqida ma'lumot beruvchi yozma manbaning hozirgacha uchramagani bois, u haqida turli naqlar mavjud. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Toshkentda bo'lgan bir qator yevropalik mualliflarning mahalliy aholi vakillaridan eshitgan ma'lumotlariga ko'ra esa, Xo'ja Alambardor nomi bilan tanilgan Sayid Abdulaziz mashhur alloma Qaffol Shoshiy (904–976) mulozimlaridan bo'lgan. “Alambardor” yoki “alamdor” so'zi “bayroqdor”, “bayroq ko'tarib yuruvchi” ma'nolarini bildirib, o'tmishda hukmdor, sarkardaga tegishli bayroqni ko'tarib yuruvchi kishilarga nisbatan ishlatilgan. Markaziy Osiyo hududida “alambardor” laqabi bilan yuritiladigan bir nechta mozorlar mavjud. Ular orasida Sayram va Toshkentdagi Xo'ja Alambardor mozori mashhur va ularning tarixi bir-biri bilan bog'liq. Yozma manbalarda mazkur shaxs “Abdulaziz bob” va “Sayid Abdulaziz” deb tilga olingan. Abdulaziz bobning VIII asr ikkinchi yarmida Sayram va unga tutash hududlarda islom dini uchun kurash olib borgan Xalifa Ali (r.a.) farzandi Muhammad Hanafiya avlodlaridan bo'lgan Is'hoq bob qo'shinida bayroqdor bo'lgani va Sayram uchun bo'lgan jangda shahid bo'lgani aytiladi. Sayramdagi “Abdulaziz bob” maqbarasi XV–XIX asrlar davomida shakllangan bo'lib, “Balogardon bobo” nomi bilan mashhur. Ushbu muallif Nosiriddin Ali al-Bayzoviyning (XIII asr) “Tarixi Bayzoviy” asaridagi ma'lumotlarga tayanib, Xo'ja Alambardorning bunday nom olishi sababiga to'xtaladi. Unga ko'ra, kunlarning birida chiltonlar o'z sheriklaridan biri vafot etgach, o'rniga

Xo‘ja Alambardorni munosib topadilar. Shundan so‘ng Xizr alayhissalom Xo‘ja Alambardorga chiltonlar bayrog‘ini topshirgan ekanlar va shu sabab “alambardor” laqabini olgan ekanlar.

Xo‘ja Alambardor mozorida masjid o‘rta asrlardan buyon mahalla ahli va ziyoratchilarga xizmat qilib kelgan. Ma‘lumotlarga qaraganda, Xo‘ja Alambardor mozoridagi masjid binosi 1790-yilda qurilgani qayd qilingan. XIX asrdagi eski masjid esa Toshkentlik Saidazimboy mablag‘iga bunyod etilgan. 1918 va 1924-yildagi siyosiy o‘zgarishlardan so‘ng, masjid Sho‘ro hukumatining 1944-yil 6-dekabrdagi 452-son qarori bilan qayta ochilgan. Masjid 1945-yil 10-mayda qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan vaqtdan boshlab bugungi kungacha faoliyat yuritib kelmoqda. Masjidning hozirgi binosini qurish 1993-yilda boshlangan bo‘lib, 2005-yilda nihoyasiga yetkazilgan. Masjidning eski xonaqohini ta‘mirlash ishlari 2009-yilda boshlangan edi, bu ishlarda yurtimizning barcha vohalaridan tajribali ustalar va duradgorlar mehnat qilishgan.

HAZRATI IMOM MAJMUASI – Olmazor tumanidagi ziyoratgoh nomi.

Hazrati Imom majmuasi (xalq orasida Hastimom nomi bilan mashhur) – XVI–XX asrlarga oid me‘moriy yodgorlik. Majmua o‘z ichiga Mo‘yi Muborak madrasasi, Qaffol Shoshiy maqbarasi, Baroqxon madrasasi, Hazrati Imom jome masjidi, Tillashayx masjidi va Imom al-Buxoriy Islom institutini qamrab olgan. Ansambl Toshkentning birinchi imom-xatibi, olim, Qur‘on va hadis bilimdoni, Toshkentdagi ilk islom targ‘ibotchilaridan biri, shoir va hunarmand Hazrati Imom (uning to‘liq ismi Abu Bakr ibn Ismoil Al-Qaffol ash-Shoshiy) qabri yonida barpo etilgan.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, Hazrati Imom qulf va kalit yasashda ham usta bo‘lgan, buning uchun “Qulf sozlovchi” degan ma‘noni anglatuvchi “Qaffol” laqabini olgan.

Baroqxon madrasasi XVI asr ikkinchi yarmida (1531–1532) Mirzo Ulug‘bekning “Baroqxon” laqabli nabirasi Navro‘z Ahmadxonning ko‘rsatmasi bilan bunyod etilgan me‘moriy yodgorlik. Madrasa ichida ikkita maqbara bo‘lib, birinchisi – Shayboniylar sulolasidan bo‘lgan Toshkentning birinchi hukmdori Suyunchxo‘jaxon dafn etilgan joy ustida qad rostlagan Suyunchxo‘jaxon maqbarasi, ikkinchisi – Nomsiz maqbarasi hisoblanadi. Bu maqbara Baroqxon uchun qurilgan, ammo Baroqxon keyinchalik Samarqandda dafn etilgan. Baroqxon madrasasi hujralarining eshiklari fil suyagi va rangli metallar bilan bezatilgan. Baroqxon madrasasi 1868-yili 34 hujra, bir masjid, bir darsxonadan iborat bo‘lgan. Madrasa 1886-yilgi zilziladan qattiq zarar ko‘rgan, 22 metrli gumbazi qulab tushgan. 1917-yilga kelib madrasa yotoqxonaga aylantirilgan. 1936-yildan madrasadan ko‘rlar jamiyati va omborxona maqsadida foydalanib kelingan. Binodan 2006-yilning oxirigacha O‘zbekiston musulmonlari idorasi qarorgohi tarzida foydalanilgan.

Qaffol Shoshiy maqbarasi XVI asrda (1541–1542) me‘mor G‘ulom Husayn tomonidan pishiq g‘ishtdan bunyod etilgan. Maqbara Abu Bakr Muhammad ibn

Ali Ismoil Qaffol ash-Shoshiy nomiga atab qurilgan (u haqida lugʻatning “Daha va darvozalar” qismida ma’lumot keltirilgan).

Mo’yi Muborak madrasasi Toshkent hokimi Mirzo Ahmad qushbegi tomonidan 1856–1857-yillarda Toshkentning Hazrati Imom mavzesida, Minglar sulolasi hukmronligi davrida pishiq gʻishtdan bunyod etilgan. Hozirgi kunda bu madrasada xalifa Usmon davrida (644–656) kiyik terisiga hijoz xatida yozilgan, 644–648-yillarda yaratilgan qadimiy Qur’oni karim (Usmon Mus’hafi) saqlanmoqda. Bu muqaddas Qur’onning eng nodir qo’lyozmalaridan hisoblanib, XIV asrda Amir Temur tomonidan Suriyadan olib kelingan. Hovlining o’rtalarida 7x6 metr o’lchamli qabr bo’lib, usti gumbaz hujralar bilan yopilgan. Madrasa 13 hujra va bir masjiddan iborat bo’lgan.

Hazrati Imom jome masjidi O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 2007-yilda bunyod etilgan. U ikki minorali, qo’sh gumbazli ulkan inshootdir. Uning ulkan moviy gumbazlari ichki qismi Samarqanddagi Tillakori madrasasi gumbazidan andoza olinib, xuddi o’shanday qilib qurilgan. Quyosh nurida bu moviy ko’k gumbazlar yarqirab, yanada go’zal ko’rinadi. Masjid Hazrati Imom, Shoshiy, “Istiqbol” va “Namuna” mahallalariga xizmat qiladi. Hovlidagi ayvonlarga Hindistondan keltirilgan sandal daraxtidan yasalgan, bo’yi 8,6 metrlik naqshinkor ustunlar o’rnatilgan.

Tillashayx masjidi Toshkentlik mashhur shayx Tillashayx tomonidan, XIX asrning oxiri – XX asrning boshida, aniqrog’i 1890–1902-yillarda bunyod etilgan. Tillashayx masjidi biroz vaqt faoliyat yuritgandan so’ng Rossiya imperiyasining mahalliy ma’muriyati tomonidan yopib qo’yilgan. Masjid so’nggi marotaba 1902-yilda qayta qurilgan. Masjid XX asrning 30-yillarida yopilib, artel (kasb-hunar egalari birlashmasi)ga aylantirilgan. 1943-yilda O’rta Osiyo va Qozog’iston musulmonlari diniy nazoratini tashkil etishga ruxsat berilganida faoliyatini qaytadan boshlagan birinchi masjidlar qatori “Tilla Shayx” ham ochilgan. Masjid 1955–1963-yillarda usta Shirin Murodov tomonidan ta’mirlangan. 1972–1973-yillarda masjid ta’mirlanib, kengaytiriladi, qibla tomoniga tutashtirib yana bir xonaqoh quriladi va avvalgi mehrobining ikki yonidagi devor olinib, qo’shib yuboriladi.

Hazrati Imom majmuasida katta kutubxona mavjud. Bugungi kunda qo’lyozmalar soni 30000 tani tashkil etadi. Ular “Tilla Shayx” masjidining eski binosidagi saqlash xonasida joylashgan.

CHIMIROTA – Olmazor tumanidagi ziyoratgoh nomi. Chimirota taxminan 1450–1530-yillarda Toshkentda tug’ilib, shu yerda yashab vafot etgan va hozirgi Chimirota qabristoniga dafn etilgan.

“Chimirota” masjidini Chimirota deb nomlanishi to’g’risida ikki xil ma’lumot bor.

Chimirota Xoja Ahmad Yassaviy hazratlarining iqtidorli shogirdlaridan yoki zurriyotlaridan biri bo’lib, Yassaviya tariqatini Shosh diyorida tarqatish uchun piri murshidlari tomonidan jo’natilgan. Toshkentda, ya’ni hozirda dafn etilgan joyla-

riga yaqinroq joyda yashab, atrofdagi musulmonlarni Yassaviya tariqatiga chaqirganlar.

Tarixchilarning ba'zilar quyidagi rivoyatni to'g'riroq deyishadi: 1378–1456-yillar oralig'ida 78 yil umr ko'rgan Beydibekdan yigirma ikki yosh kichik bo'lgan uchinchi ayoli Dumaloq (Nurila) onadan Jarg'ishaq (Tilovberdi) tug'ilgan. Jarg'ishaqni ikki xotini bo'lib, katta xotini Tavkalbibidan Alban va Suan ismli farzand ko'rgan. Ikkinchi xotini, xo'janing qizi Bibi Fotimadan Do'lat tug'iladi. Do'lat taxminan 1426–1506-yillarda yashab, 80 yoshida vafot etadi. Do'lat ayoli Gulzaynabdan to'rt farzand ko'radi. Ular Siqim, Janis, Botpay, Chimir. Bular orasida Chimirota ilmga chanqoqligi, zehnini o'tkirligi bilan ajralib turgan. O'z davrining madrasalarida ulug' ustozlardan ta'lim olgan va zamonasining olimlaridan biriga aylangan. Islomning beshinchi farzi haj ibodatini ado etishga musharraf bo'lgan. U zotdan Ijxoja, Bekbulat, Temur ismli uch farzand qolgan.

CHO'PONOTA – Uchtepa tumanidagi ziyoratgoh nomi. Cho'ponota majmuasi – gumbazli darvozaxona va maqbara (ayrim ma'lumotlarga ko'ra XV asr), masjid (XIX asr oxiri – XX asr boshi)dan iborat. Cho'ponlar homiysi Cho'ponota shaxsiga atab Ulug'bek tomonidan qurilgan deb taxmin qilinadi. Darvozaxona hovlining janubiy tomonida, g'arbida masjid, shimol tarafda maqbara joylashgan, uning atrofi qabriston. Maqbaraga boraverish xiyobon tarzida tashkil etilgan. Bino interyerlari va devorlariga to'rttadan sayozroq taxmonlar ishlangan; bag'allari "kaptar dumi" (qalqonsimon) shaklida chiqarilgan. Binolarning farqli jihatlar ham bor. Darvozaxonaning hovli tomonida ham peshtoq bo'lib, u ko'cha tarafidagiga qaraganda pastroq; gumbazining ustiga mezana qurilgan. Maqbara eshigining tepasidagi yozuv (kitoba) qirib olingan, o'rniga ganchdan naqsh ishlangan. Sag'ana maqbara ichining ancha qismini egallagan. G'arbiy taxmon devorida tuynuk bor. Maqbaraning ichi suvoqsiz bo'lib, g'ishtlardan naqshsimon shakllar hosil etilgan. Shiftli masjid XX asrning 50-yillaridagi kengaytirish natijasida o'zining dastlabki holatini yo'qotgan. Xonaqoh 3 qismga bo'lingan. Unga sharqdan o'rtasida 5 tayanchi bo'lgan romli ayvon tutashtirilgan. Masjidning qarshisida, hovlining sharqiy tomonida yordamchi qurilmalar, hovuz bor. Cho'ponota majmuasida xalq me'morchiligining, ayniqsa, g'ishtkor ustalarning mahorati mujassam bo'lgan.

SHAYX ZAYNIDDINBOBO – Shayxontohur tumanidagi ziyoratgoh nomi. Shayx Zayniddinbobo maqbarasi Toshkentdagi maqbaralar orasida eng ajoyib, salobatli va muhtashamlardan biridir. Mazkur maqbara XIV–XV asrlarga mansub bo'lgan me'morchilik uslubiga xos yodgorlikdir va Shayx Zayniddinboboga atab barpo qilingan.

Maqbara chiroyli, gumbazli bo'lib, uning atrofida turli binolar (tobutxona, chillaxona, chortoq va boshqa) bo'lgan. Old tomoni janubi-sharqqa qaragan. Maqbaraning markazida Shayx Zayniddinbobo sag'anasi, burchaklarida esa boshqa shaxslarning qabrlari bor.

Maqbara ichida chillaxona bor. Mazkur chillaxonaning gumbazida lagan shaklida bir necha tuynuklar ishlangan. Ayrim falakiyot olimlarining fikricha, mazkur chillaxona o'z vaqtida rasadxona xizmatini o'tagan bo'lishi mumkin. Ushbu chillaxonaning janubi-sharqiy qismida pishiq g'ishtdan ishlangan zina bor. Bu pillapoya chillaxonadan boshlangan yer osti yo'liga tushib borgan. Yer osti yo'lining og'ziga bo'yi bir yarim metr, eni taxminan bir metr kenglikda o'ymakor eshik qurilgan bo'lib, eshik zanjiri ustidan qulf solingan.

Rivoyatlarga ko'ra, ushbu yer osti yo'li g'ori chillaxonadan boshlanib, Hazrat Imom Abu Bakr Muhammad Qaffol Shoshiy maqbaralarigacha davom etar ekan. Naql qilinishicha, Shayx Zayniddinbobo marhum Qaffol Shoshiyga ixlosmand muxlis ekanlar. Binobarin, Shayx Zayniddinbobo ul zotning marqadlarini tavof qilish maqsadida, ushbu yer osti yo'li bilan borib kelarkanlar (Qarang: Shayx Zayniddinbobo dahasi).

Zamonaviy mutaxassislar maqbara devor va qubbasining qurilishi tugatilgan davrni XVI asrga tegishli, deb hisoblashadi. Maqbarada Toshkentdagi eng qadimiy hisoblangan yog'och naqshli eshiklar bor.

SHAYX XOVANDI TOHUR MAJMUASI – Shayxontohur tumanidagi ziyoratgoh nomi. Shayx Xovandi Tohur majmuasi – me'moriy yodgorlik (XV–XIX asrlar). Taniqli diniy arbob, ulamo Shayx Xovandi Tohur sharafiga barpo etilgan.

Shayx Xovandi Tohur majmuasi maqbara (XIX asrda ko'hna poydevori ustiga qayta qurilgan), ziyoratxona va go'rxonadan iborat. Mavjud yodgorlik XV asrga oid ko'hna maqbara poydevori ustiga XVIII–XIX asrlarda qurilgan, bunda Movarounnahrda XIV asr oxiridan rivojlangan ikki xonali bo'ylama maqbara-majmua tarhlari saqlab qolingan. Maqbaraning bino yuzasidan sal chiqib turuvchi kichik peshtog'i bor, ichki devorlari chuqur ravoqli. Xonalar gumbazlar bilan yopilgan; go'rxona gumbazi qo'shqavat bo'lib, 12 qirrali asosga o'rnatilgan. Ziyoratxona me'morligi o'ziga xos xonaqoh bo'lib, sakkiz ravoqdan iborat. Darchalardagi qoshinkor panjaralar saqlanib qolgan. Keyinroq atrofiga chillaxona, Yunusxon maqbarasi (XV asr) qurilgan. Uch masjid binosi, minora, Eshonqulidodhoh madrasasi saqlanmagan. O'tmishda majmua Toshkent aholisining ziyoratgoh qadamjolaridan biri bo'lgan. Turli bayramlarda bu yer sayilgohga aylangan.

Shayx Xovandi Tohur dafn etilgan joy ziyoratgoh hisoblanadi. Uning mozori atrofida boshqa sag'ana va qabrlar paydo bo'lib, Toshkentning katta va muqaddas qabristoniga aylangan.

XV asrning ikkinchi yarmida Xoja Ahror Valiy qabr ustiga maqbara qurdiradi. Zotan uning volidai muhtaramasi shayx Dovudning qizi bo'lgan. Xoja Ahror Valiy qurdirgan inshoot zamonlar o'tishi bilan nurab, bizgacha yetib kelmagan. Hozirgi maqbara esa avvalgisining loyihasi va ko'rinishini saqlagan holda XIX asrda qayta tiklangan. Bu tabarruk go'sha bugungi kunda obod majmuaga aylantirilgan.

QO‘YLIQOTA – Mirobod tumanidagi ziyoratgoh nomi. Qo‘yliqota jome masjidi – o‘rta asrlarga oid maqbara o‘rnida barpo etilgan masjid. Dastlab Ahmad Yassaviy avlodlaridan bo‘lgan, Samarqand qozikalonining o‘g‘li Hofiz Qo‘yliqiy maqbarasi bunyod etilgan (XV–XVI asrlar). Rivoyatlarga ko‘ra, u to‘g‘rilik va ezgulikni targ‘ib etib, chorvachilik bilan mashg‘ul bo‘lgan, qo‘ylarni tez ko‘paytirish yo‘llarini yaxshi bilgan. Shu mintaqadagi aholi ham, asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan va Hofiz Qo‘yliqiyning bu boradagi bilimdonligi tufayli, uni avliyo darajasida ko‘rishgan. 1854-yil yo‘l qurilishi natijasida maqbara ziyon ko‘rgan va mahalliy aholi tomonidan Qo‘yliqota qabri hozirgi o‘rniga ko‘chirilgan. 1989-yilda aholi talabiga ko‘ra maqbara qayta ta’mirlanib, masjid barpo etilgan.

TOSHKENT SHAHRI QABRISTONLARI

AVAYXON – Mirzo Ulugʻbek tumanidagi qabriston nomi. 1880-yildan mavjud, Avayxon mahallasidagi Qorasuvboʻyi koʻchasida joylashgan. Maydoni 1,04 gektar.

Rivoyatlarga qaraganda, Chingizxon Oʻrta Osiyoga bostirib kelgan davrda uning sardorlaridan biri shu yerda panoh topgan, uning ismi Avay boʻlgan. Mahallaning nomi ham davr oʻtishi bilan Avay deb atalgan. Qabriston paydo boʻlgach, mahalla nomiga moslab uni Avayxon deb yurita boshlashgan. Qabriston tarkibida Avayxon jome masjidi bor (yana qarang: Avayxon mahallasi).

ALIBEK (ABAY) – Bektemir tumanidagi qabriston nomi. Abay mahallasidagi Husayn Boyqaro-3 tor va Muxtor Avezov-4 tor koʻchalarida joylashgan. Maydoni 0,62 gektar.

Alibek Amanjul oʻgʻli tomonidan oʻzi yashaydigan qabriston yonida tobutxona qurilgan va undan masjid sifatida foydalanilgan. Alibek mahalla imomi sifatida faoliyat yuritgan. 1991-yil ushbu joydan yangi masjid qurilgan va Alibek nomi berilgan. Qabriston bugungi kunda yopiq.

BEKTEMIR – Bektemir tumanidagi qabriston nomi. 1960-yilda tashkil topgan, “Ustozlar” mahallasidagi Nurli koʻchasida joylashgan. Maydoni 4,7 gektar.

Qabriston Bektemir tumani hududiga Toshkent viloyati Oʻrta Chirchiq tumanidan qoʻshilgan va tuman nomi bilan atalgan.

BERDIYOROTA – Yangihayot tumanidagi qabriston nomi. Qabristonning tashkil topgan vaqti aniq emas, “Chortoq” mahallasidagi Chortoq-6 berk koʻchasida joylashgan. Maydoni 2,02 gektar.

Berdiyorota Toshkent viloyati hududidagi Yangiyoʻl tumani, “Doʻstlik” qishloq fuqarolar yigʻiniga qarashli “Chortoq” mahalla fuqarolar yigʻini hududida yashagan. Ushbu hudud 2020-yilda Toshkent shahrining Yangihayot tumaniga qoʻshilgan.

“Chortoq” mahalla fuqarolar yigʻini aholisi soʻzlariga koʻra, Berdiyorota sobiq sovet tuzumi davrida oʻziga toʻq oilada tugʻilib oʻsgan, ilm va maʼrifat, diniy bilimlarni rivojlanishi, aholining savodli boʻlishi yoʻlida doimiy izlanishlar olib borgan. Keyinchalik oilasi bilan boshqa joyga koʻchib ketgan va oʻziga tegishli boʻlgan xonadonni mahalliy aholiga masjid sifatida foydalanishlari uchun hadya qilgan. Mustaqillik yillarida mahalliy aholi faollari va homiylar tashabbusi bilan masjid binosi qayta taʼmirlanib, aholiga topshirilgan.

BESHQOʻRGʻON (QORAXOʻJAOTA) – Olmazor tumanidagi qabriston nomi. Taxminan XVII asrda tashkil topgan, “Mustaqil yurt” mahallasidagi Beshqoʻrgʻon koʻchasida joylashgan. Maydoni 2,16 gektar. Qabriston hududida “Qoraxoʻjaota” maqbarasi (XI asr) bor.

BOLALAR – Yangihayot tumanidagi qabriston nomi. “Jaloyir” mahallasida-gi Jaloyir ko‘chasida joylashgan. Maydoni 0,04 gektar. Qabriston bugungi kunda har qanday dafn marosimlari uchun yopiq.

BOLTAMOZOR – Yunusobod tumanidagi qabriston nomi. Taxminan 1850-yillarda tashkil topgan, “Yo‘layriq” mahallasidagi Amir Temur shohko‘cha-sida joylashgan. Maydoni 4,6 gektar.

Bolta aka degan bir qariya o‘z yeridan qabriston uchun joy ajratib berganligi sababli, qabriston “Boltamozor” deb atalgan.

BOTKIN (1-, 2-HUDUDLAR) – Yashnobod tumanidagi qabriston nomi. Qabriston ikkita hududdan iborat, “Mashinasozlar” mahallasidagi Botkin ko‘cha-sida joylashgan. Umumiy maydoni 42 gektar.

Yevropa millatiga mansub aholi dafn etiladigan 1-sonli shahar qabristoni 1820–1830-yillarda tashkil topgan. Rus vrach-terapevti, Peterburg tibbiyot-jar-rohlik akademiyasining professori S.P. Botkin (1832–1889) nomi bilan atalgan.

Qabristonning qadimiyligini tasdiqlovchi sklep (maqbara) qilib ishlangan qabrlar mavjud: Geyns Karl Karlovich (1835–1862), Nikolay Ivanovich Ivanov (1836–1906), Karl Yermolayevich Faust (1830–1894). Taxminan 1860-yillarda cherkov qurilishi boshlangan va 1900-yillarda qurib bitkazilgan. Qabristonda 1979-yilda aviahalokatga uchragan “Paxtakor” futbol jamoasi a‘zolarining xoki dafn etilgan.

BO‘TABUVA (BESHQO‘RG‘ON) – Chilonzor tumanidagi qabriston nomi. Taxminan 1910-yilda tashkil topgan, “Beshqo‘rg‘on” mahallasidagi Beshqo‘r-g‘on ko‘chasida joylashgan. Maydoni 2,18 gektar.

Bo‘tabuva eski shaharlik bo‘lib, chilangarlik bilan shug‘ullangan. Dastlab qabriston bir tepalik bo‘lib, dafn etish shu yerdan boshlangan. Bo‘tabuva o‘zlari ham shu qabristonda dafn etilganlar.

Qabristonning “Beshqo‘rg‘on” deb ikkinchi nom bilan yuritilishiga sabab, besh o‘g‘illi bir kishi ko‘chib kelib, shu yerda farzandlariga beshta qo‘rg‘on qurib bergan. Shu sababli bu qabristonni Beshqo‘rg‘on deb ham atashgan.

BUXORO YAHUDIYLARI – Olmazor tumanidagi qabriston nomi. 1820-yildan mavjud, “Allon” mahallasidagi Allon tor ko‘chasida joylashgan. Maydoni 2,3 gektar.

Qabriston Olmazor tumanida joylashganligiga sabab, undagi Saqichmon va Sag‘bon hududlarida asosan Buxoro yahudiylari istiqomat qilishgan. Ularning sinagogasi (machiti) ham shu tumanda joylashgan. Vidolashish va rasm-rusumlari bo‘yicha janoza o‘qish uchun maxsus xona qurilgan. Buxoro yahudiy millatiga mansub kishilardan eri vafot etsa, yonidan xotiniga, xotini vafot etsa, yonidan eriga joy qoldiriladi. Ularni dafn etish uchun 300 ta g‘isht, 10 ta beton balka, to‘l ishlatiladi. Qabristonda O‘zbekiston xalq artistlari: Berta Davidova,

Maryam Yoqubova, Mixail Davidov, Emmanuel Kalantarov, kompozitor Sulaymon Yudakov, baletmeyster Isaxar Oqilovlar dafn etilgan.

BUXORO YAHUDIYLARI – Yakkasaroy tumanidagi qabriston nomi. 1940-yilda tashkil topgan, “To‘qimachi” mahallasidagi Dilxiroj ko‘chasida joylashgan. Maydoni 3,7 gektar.

Qabriston shaharda istiqomat qiluvchi Buxoro yahudiy millatiga mansub aholiga xizmat qiladi.

G‘OYIBOTA – Olmazor tumanidagi qabriston nomi. XVI asrda tashkil topgan, “Taraqqiyot” mahallasidagi Qorasaroy ko‘chasida joylashgan. Maydoni 4,63 gektar.

G‘oyibota Husan Shayx – Ahmad Yassaviy nasablaridan bo‘lib, ular yetti og‘ayni bo‘lishgan. Eng kattalari – So‘galliota, ikkinchilari – G‘oyibota, uchinchilari – Bo‘zloqota, to‘rtinchilari – Ilonliota, beshinchilari – Terakliota, oltinchilari – Sandiqliota, yettinchilari – Fozilota. Bu mo‘tabar aka-ukalarning ismlari bilan ziyoratgohlar nomlangan. Qabristonning G‘oyibota deb atalishiga sabab G‘oyibota o‘z muridlari bilan qabriston joylashgan yerda yashaganlar va odamlarga diniy ilmdan saboq berganlar.

Oradan ko‘p vaqt o‘tgandan so‘ng, bir kechada odamlari bilan g‘oyib bo‘lganlar. U kishi yashagan joylariga sag‘ana qurilib, shu yerni G‘oyibota deb atay boshlashgan. Sag‘ana bo‘yiga to‘rt metr, eniga uch metr bo‘lib, atrofi musulmon g‘isht bilan fundament qilingan, to‘rt burchagiga ustun qo‘yilib, shiypinning usti yopilgan. 1968–1969-yillar oralig‘ida u kishining sag‘anasi oldida ziyoratchilar tomonidan yoqilgan shamdan shiypon yonib ketgan. Sag‘anani qayta tiklash jarayonida, musulmon g‘isht fundamenti ko‘chirilganda, bosh tomonidagi g‘ishtlar orasidan bo‘yiga bir metr, eni musulmon g‘isht eniday charmdan g‘ilof qoplangan kitob chiqadi. Kitobni o‘sha davr O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy qo‘mitasi raisi Eshon Boboxon o‘g‘li Ziyovuddinqori Muftiy hazratlari o‘qib ko‘rib, unda G‘oyibota nasl-nasabining shajarasi haqida ma‘lumot berilganini bilgach, kutubxonaga topshiradilar. Sag‘ana o‘rni qayta tiklanib, unga “G‘oyibota – XVI asr” deb yozib qo‘yilgan. Xuddi shunday sag‘ana u kishi tug‘ilib o‘sgan Turkistonda ham mavjud ekanligini turkistonlik ziyoratchilar ma‘lum qilishgan.

GULISTON – Yashnobod tumanidagi qabriston nomi. 1930-yillarda tashkil topgan, “Mumtoz” mahallasidagi Chashma-4 tor ko‘chasida joylashgan. Maydoni 2,4 gektar.

DO‘MBIROBOD-2 – Chilonzor tumanidagi qabriston nomi. 1964-yilda tashkil topgan, “Bekto‘pi” mahallasidagi Ippodrom ko‘chasida joylashgan. Maydoni 150 gektar.

Yevropa millatiga mansub fuqarolarga xizmat qilayotgan Botkin ko‘chasida joylashgan 1-sonli qabriston to‘lib, dafn uchun joy qolmagach, yopilish masalasi ko‘tarilgan. Yangi qabriston ochish muammosi paydo bo‘lgach, o‘rganib chiqilib,

shaharga tutash chegaradosh Chilonzor tumani chetidagi sobiq “Moskva” kolxozi yerlari hisobiga kengaytirish tavsiya etilgan. Birinchi bosqichda 40 gektar yerda qabriston barpo etilgan bo‘lsa, chorak asr mobaynida qabriston 150 gektargacha kengaytirilgan. O‘sha paytdagi “Moskva”, “XXI Partsyezd” kolxozlarining yerlari qabristonga qo‘shilib ketgan. Afg‘onistonda halok bo‘lgan jangchilar alohida xilxonaga dafn etilib, ular qabriga yodgorlik toshi o‘rnatilgan.

YEVROPA – Bektemir tumanidagi qabriston nomi. 1971-yilda tashkil topgan, “Ustozlar” mahallasidagi Nurli ko‘chasida joylashgan. Maydoni 3,52 gektar.

Qabriston shaharda istiqomat qiluvchi yevropa millatiga mansub aholiga xizmat qiladi.

YOPUG‘LIKOTA – Mirobod tumanidagi qabriston nomi. XIX asrda tashkil topgan, “Sariko‘l” mahallasidagi Fidoyilar-1 berk ko‘chasida joylashgan. Maydoni 0,7 gektar.

Qorasuv anhuri yoqasida yashovchi aholi ichida bir avliyosifat inson bo‘lib, u eski qabriston hududidagi g‘orda yashagan. Odamlar bilan muloqotda yuzini yopib yurgan. Bu inson tabobat bilan shug‘ullanib, bemorlarni turli giyohlar bilan davolagan. U kishining vafotidan so‘ng uni shu qabristonda dafn etishgan, shundan so‘ng qabriston Yopug‘likota deb yuritila boshlangan. 1931-yilda bu kichik qabriston hududi aeroport hududiga qo‘shilib ketgandan keyin, kolxoz yeridan salkam 1 gektar yer ajratilib, qabriston barpo etilgan. Bu qabristonni ham Yopug‘likota deb atashgan.

JO‘RABEK (QORASUV-1) – Yashnobod tumanidagi qabriston nomi. XX asr boshida tashkil topgan, Jo‘rabek mahallasidagi Farg‘ona yo‘li, Zarkent ko‘chalarida joylashgan.

1840–1906-yillarda yashab o‘tgan sharqshunos Jo‘rabek Qalandar qori o‘g‘lining yerlari bo‘lib, u qabriston uchun 1,4 gektar yer ajratgan. O‘zi ham shu yerga dafn etilgan. Qabriston yonidan Qorasuv kanali oqib o‘tganligi sababli, aholi o‘rtasida ikki nom bilan: Qorasuv va Jo‘rabek qabristoni deb ataladi.

ZAXARIQ – Shayxontohur tumanidagi qabriston nomi. XIX asrda tashkil topgan, “Samarqand Darvoza” mahallasidagi Samarqand Darvoza ko‘chasida joylashgan. Maydoni 3,2 gektar.

Qabriston Bo‘zsuvdan ajralib chiqib, qabriston yoqalab o‘tuvchi ariq nomi bilan atalgan. Qadimda Toshkentga kiriladigan Samarqand darvozasi shu yerda bo‘lgan. Janub tomondan keluvchi karvonlar shu manzilda to‘xtab, dam olib, so‘ng shaharga kirishgan. Osiyoni Yevropa bilan bog‘lovchi yo‘l atrofida aholi zich joylashib, ular dehqonchilik, hunarmandchilik, bog‘dorchilik, savdo-sotiq bilan shug‘ullanishgan.

Qabristonda 1932-yilda Markaziy Osiyoda mashhur bo‘lgan, o‘zbek kurashining buyuk namoyandasi polvon Ahmad Tolipboy o‘g‘li dafn etilgan. 2006-yilda polvon qabri ta’irlanib, belbog‘li kurash darg‘asi majmuasi yaratilgan.

Qabrystonda mamlakatimizda taniqli kishilar – tibbiyot fanlari doktori, professor Saidazim A'zamxo'jayev, hukuqshunos olim, professor Anvarxon A'zamxo'jayev, san'atkor Hakimjon Fayziyev va boshqalar mangu qo'nim topishgan.

IBROHIM BO'ZCHI – Uchtepa tumani hududiga yaqin joyda joylashgan, Toshkent shahar tasarrufiga o'tgan qabryston nomi. 1994-yilda tashkil topgan, Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi Nazarbek qishloq fuqarolar yig'inida joylashgan. Maydoni 67,3 gektar.

Zangiota tumanidagi Nazarbek qishlog'ida yashagan va bo'zchilik bilan shug'ullangan Ibrohim Bo'zchi nomli shaxs 1992-yilda vafot etib, bog'larini hamda yerlarini qabrystonga vasiyat qilganlar. Qabryston nomi shu shaxs nomidan olingan.

IBROHIMOTA – Olmazor tumanidagi qabryston nomi. Taxminan XVIII–XIX asrlar oralig'ida tashkil topgan, Ibrohimota mahallasidagi Ibrohimota ko'chasida joylashgan. Maydoni 2,28 gektar.

Chor hukumati farmoni bilan shahar ichidagi qabrystonlar yopilgandan so'ng, shu hududda yashovchi To'raxonota boshchiligida obod qilingan. Rivoyatga ko'ra, Ibrohimota (Ahmad Yassaviyning otalari) XI asrda Turbatdan shu yerga kelib, bir necha vaqt yashaganlar. O'zlari bu yerga dafn etilgan-etilmaganlari noma'lum, lekin qadamjo tabarruk joy bo'lgani uchun qabryston u kishining nomi bilan atalib, XVII asrda me'moriy yodgorlik qurilgan, davlat tomonidan muhofaza qilinadi. 1864-yildagi qattiq yer qimirlashi oqibatida yodgorlikning tepa gumbazi buzilgan, keyinchalik gumbaz qayta qurilgan. Qabrystonda O'zbekiston xalq hofizi, bastakor Orifxon Hotamov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Yulduz Rizayeva dafn etilgan.

ILONLIKOTA – Chilonzor tumanidagi qabryston nomi. Taxminan XVII–XVIII asrlar atrofida tashkil topgan, "Yakkatut" mahallasidagi Katta Xirmontepa ko'chasida joylashgan. Maydoni 2,5 gektar.

O'zbeklar orasida ilonli, jilonli, jilontamg'ali kabi urug'lar mavjud. Bu etnonimlarning vujudga kelishi ilon totemi bilan bog'liq, qadimda Markaziy Osiyo xalqlari ilonni yer va suv timsoli sifatida muqaddaslashtirgan. Qabryston nomi ham (O'rta Osiyoda bu nomdagi qabryston, qadamjolar ko'plab uchraydi) shundan olingan. Yana bir taxmin bo'yicha, qabryston atrofi chakalakzor bo'lib, bu yerda qozoq millatiga mansub fuqarolar yashashgan. Chakalakzorda ilonlar ko'p bo'lib, bir avliyosifat kishi atrofida yurishgan va qabryston o'sha avliyo nomiga Ilonlikota deb atalgan.

ISTIQLOL – Sergeli tumanidagi qabryston nomi. "Kengmakon" mahallasidagi Buyuk avlod ko'chasida joylashgan. Maydoni 7,07 gektar.

Qabryston atrofi beton devor bilan o'ralgan, 200 dan ortiq turli daraxtlar o'tqazilgan.

KATTA QOZIRABOT – Chilonzor tumanidagi qabriston nomi. Taxminan XVIII asrda tashkil topgan, “Katta Qozirabot” mahallasidagi Chilonzor ko‘chasi-
da joylashgan. Maydoni 6,01 gektar.

Manbalarga ko‘ra, 1892-yilda shaharda vabo tarqalishi munosabati bilan shahar qabristonlari yopilib, shahar tashqarisida yangi qabristonlar ochilgan. Beshyog‘och dahasi qozisi Said Boqijon (Baqo) yangi qabristonga yer sotib olishi uchun mahalliy boylardan pul to‘plagan va katta hashar uyushtirib, bu yerlar obod qilingan, xususan shiypon, choyxona, savdo va hunarmandchilik do‘konlari qurilgan. Qozi vafot etganda, shu yerda dafn etilgan va Qozirabot qabristoni shu tariqa bunyod bo‘lgan. Qabriston nomi shu shaxs nomidan olingan.

Qabristonda yozuvchilar: Shotursun G‘ulomov (1928–1965) va Majid Usmon (1892–1965) dafn etilgan.

QALLIG‘OTA – Yunusobod tumanidagi qabriston nomi. Qadimda Quloq-
tepa deb atalgan. Taxminan XVIII asrda tashkil topgan, Hasanboy mahallasidagi Baraka ko‘chasida joylashgan. Maydoni 8,7 gektar.

Qadimda bu joy Quloqtepa deb atalgan va Hasanboy qishlog‘i hududida joylashgan. O‘sha davrda bu hududda qozoq millatiga mansub kishilar ko‘plab istiqomat qilishgan. Qabriston o‘rni bir qozoq boyga tegishli bo‘lib, u o‘z yeridan qabristonga ajratib bergan degan taxmin bor. Dastlab bu yerni “Qozoqmozor” deb atashgan, keyinchalik “Qallig‘ota” deb yuritila boshlangan. Taxminan, bu nom qozoqlarning to‘yda qalliq berish urf-odatlaridan olingan.

Qabristonda O‘zbekiston xalq artisti Nuriddin Haydarov (1957–2004) dafn etilgan.

QATORTOL – Chilonzor tumanidagi qabriston nomi. “Dilobod” mahallasi-
dagi Qatortol ko‘chasida joylashgan. Maydoni 0,2 gektar.

Taxmin qilinishicha, bu yerga Abdulqayum degan kishi 980-yillar atrofida boshqa bir mamlakatdan ko‘chib kelib, Chirchiq daryosi o‘zanidan suv keltirib, bu yerlarni obod qilgan. Shundan so‘ng bir necha xo‘jaliklar ko‘chib kelib, obo-
donchilik ishlarini boshlab yuborishgan, ariq lablariga ko‘plab nihollar, ayniqsa, qator qilib tol ekilganligi sababli Qatortol nomini olgan. Ko‘chib kelganlarning vafot etgan yaqinlari dafn etilgan yer ham Qatortol nomi bilan atalgan. Qabriston Qatortol dahasiga xizmat qilgan va 1962-yilda dafn uchun yopilgan.

QIZMOZOR – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi qabriston nomi. 1905-yillar atro-
fida tashkil topgan, “Yuzrabot” mahallasidagi Buyuk ipak yo‘li-5 tor ko‘chasida joylashgan. Maydoni 0,88 gektar.

Rivoyatlarga ko‘ra, Jamolxon eshon ismli shaxsning 18 yashar Mastura ismli qizi vafot etadi. Jamolxon eshon o‘z tasarrufidagi yerning eng baland joyiga qizini dafn etib, o‘sha yerdan 1 gektarga yaqin yerni qabristonga ajratib beradi. Birinchi bo‘lib qiz dafn etilganligi sababli, qabriston Qizmozor deb ataladi.

QIRSADOQ – Yangiheyot tumanidagi qabriston nomi. O‘tgan asrning 30-yillarida tashkil topgan, Xo‘ja Uchqun mahallasidagi G‘uncha ko‘chasida joylashgan. Maydoni 2 gektar.

Qabriston Qirsadoq nomini keyinchalik olgan, ungacha qanday nomlanganligi noma‘lum. Qirsadoq (sadoq – o‘qdon) so‘zi “40 ta kamon” degan ma‘noni anglatadi. Mahalliy aholining aytishicha, qirsadoqlar Hazrati Umardan tarqalgan avlodlar hisoblanib, ular O‘rta Osiyoga arablarning kirib kelishidan so‘ng Sirdaryo bo‘yida joylashadi. Keyinchalik XIX asrda Toshkent hokimi Yunusxo‘ja davrida ular Toshkent atrofidagi Chirchiq daryosi bo‘yiga ko‘chiriladi. Shundan so‘ng ular yon-atrofni o‘zlashtirib, yashash manzillarini barpo etishadi. Qabriston nomi shundan.

X.Doniyorov asarida Yuz qabilasi Marqa bolasi, Qaropcha, Rajab bolasi degan tarmoqqa bo‘lingan. O‘z navbatida Marqa bolasi Uyas, Solinga bo‘lingan. Solin urug‘i tarkibida Qirsadoq – bu aslida Qang‘ davlatining 40 sadoqli askarlar guruhi bo‘lib, ular karvon yo‘llarini himoya qilishgan.

QORASOQOL – Yangiheyot tumanidagi qabriston nomi. Qabriston “Binokor” mahallasidagi Sangzor ko‘chasida joylashgan. Maydoni 2,20 gektar.

Qorasqolota shaxsi to‘g‘risida aniq ma‘lumot yo‘q. Ammo ba‘zi kishilarning guvohlik berishicha, uch yuz yillardan beri qabriston mavjud. Avvalo, Ko‘kota nomi bilan bog‘liq ma‘lumotlar xalqimizning milliy, tarixiy xotirasiga mustahkam o‘rnashgan bo‘lib, ziyorat etiladi. Rivoyat va naqllarda kashofu karomatlari tavsif va ta‘rif qilinadi. Hazrat Ali (r.a.) payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning amakivachchasi va kuyovi bo‘lgan, ya‘ni ilmda ziyoda bo‘lgan insondir. Ko‘kota ana shu hazrat Alining o‘g‘li Muhammad Abu Hanafiya avlodlariga mansub zot ekanligi naqllarda ta‘rif etilgan. Aslida ular uch aka-uka bo‘lishgan. Ko‘kota va ikki og‘a-inisi pirlari ishorasi bilan Turkiston tomonlardan kelishgan. Ukalaridan biri Qorasqolota, yana birlari Qilichliota laqablari bilan tanilgan. O‘rtanchilari Qorasqolota ilonlar bilan tillashar ekanlar. Ularning bu yerga kelishlari yerlik xalq uchun inoyat bo‘lgan ekan.

QO‘YLIQOTA – Mirobod tumanidagi qabriston nomi. Hozirgi hududi 1930-yillarda tashkil topgan, Qo‘yliqota mahallasidagi Xonobodtepa ko‘chasida joylashgan. Maydoni 4,8 gektar.

Qabristonning Qo‘yliqota deb atalishiga sabab, XV–XVI asrlarda hazrati Xoja Ahmad Yassaviy avlodlariga mansub Samarqand qozikaloning o‘g‘illari Hofiz Qo‘yliqiy o‘sha davrlarda Chirchiq daryosi atroflarida qo‘ychivonlik qilganlar. U kishi to‘g‘rilik va ezgulikni targ‘ib etib, chorvachilik bilan mashg‘ul bo‘lgan, qo‘ylarni tez ko‘paytirish yo‘llarini yaxshi bilgan. Shu mintaqadagi aholi ham, asosan, chorvachilik bilan shug‘ullangan va Hofiz Qo‘yliqiyning bu boradagi bilimdonligi tufayli, uni avliyo darajasida ko‘rishgan va vafotlaridan so‘ng eski qabriston shu avliyo nomi bilan atalib, “Qo‘yliqota” deb yuritilgan. 1930-yillarda

eski qabriston to'lganligi sababli, mahalla ichkarisidagi daladan yer ajratilib, bu qabriston ham "Qo'yliqota" deb yuritila boshlangan.

QO'SHQO'RG'ON – Sergeli tumanidagi qabriston nomi. 1920-yillarda tashkil topgan, "Qo'shqo'rg'on" mahallasidagi Qo'shqo'rg'on-4 tor ko'chasida joylashgan. Maydoni 6,05 gektar.

Qabriston joylashgan yer XIX asr boshlarida to'qayzor bo'lgan, 2 kishi ko'chib kelib, yonma-yon qilib bittadan qo'rg'on qurgan. Shu asnoda bu yerlar Qo'shqo'rg'on deb atala boshlangan, qabriston ham shu nom bilan yuritila boshlangan.

LAFARG (BO'Z MOZORI) – Mirzo Ulug'bek tumanidagi qabriston nomi. Qabriston 1932-yilda kolxoz raisi bo'lib ishlagan Mahmud aka ismli shaxs tomonidan tashkil qilingan, "Elobod" mahallasidagi Buyuk ipak yo'li tor ko'chasida joylashgan. Maydoni 1,94 gektar.

Qabriston "Bo'z" mahallasida joylashganligi uchun ko'p yillar Bo'z mozori deb atalib kelingan. Keyinchalik qabriston orqasidagi ko'cha Lafarg deb atalganligi uchun, shu yerda yashovchi aholi Lafarg ko'chasidagi qabriston deb, shu nom bilan atay boshlagan. Qabriston 1970-yilda dafn uchun yopilgan, Turkiston harbiy boshqarmasi muzeyi hamda Turkiston harbiy qo'shinlari qo'mondonligi binosi qurilishi bunga sabab bo'lgan. 1991-yilda o'sha atrofda yashovchi tub aholining iltimosiga binoan dafn uchun qayta ochilgan.

MASHRUG'OTA – Yangiheyot tumanidagi qabriston nomi. Taxminan 1700-yillar atrofida tashkil topgan, "Choshtepa" mahallasidagi Jo'nbo'yi ko'chasida joylashgan. Maydoni 0,5 gektar.

Mahalliy aholining aytishicha, qabriston 200-yildan ortiq tarixga ega bo'lib, tuyaning o'rkachini eslatadigan ikkita tepalikdan iborat bo'lgan. Bugungi kunda qabriston markazida birgina tepalikni ko'rish mumkin, ikkinchi tepalik qabristondan uzoq bo'lmagan boshqa hududda joylashgan. Qabriston atrofidagi qurilishlar natijasida ular bir-biridan ajralib qolgan. Qabristonning nomi shu yerga birinchi bo'lib dafn etilgan kishi nomidan olingan.

MA'RUFOTA – Sergeli tumanidagi qabriston nomi. 1123-yildan mavjud, "Jo'nariq" mahallasidagi Choshtepa-1 tor ko'chasida joylashgan. Maydoni 1,13 gektar.

Rivoyat qilinishicha, qadimda Yassaviya sulukiga mansub Ma'rufota ismli shayx qabriston joylashgan hudud atrofida o'tov tikib yashagani sababli shu nom bilan atalgan. Qabriston hududi bir tomonidan anhor bilan chegaralangan, boshqa tomonlari g'isht, panjara bilan o'ralgan. Qabriston yonida Ma'rufota jome masjidi bor.

MINOR – Yunusobod tumanidagi qabriston nomi. 1866-yilda tashkil topgan, "Minor" mahallasidagi Sharof Rashidov ko'chasida joylashgan. Maydoni 12,5 gektardan ortiq.

Qabriston Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan tashkil etilgan. U kishi Nikolay podshoning Toshkentga yuborilgan ukasi Aleksandr bilan saroyda uchrashib, qabristonga yer ajratish lozimligini aytadi. Aleksandr rozilik bildirib, faqat shahardan tashqarida, uzoqroq yerda barpo etishni uqtiradi. Munavvarqori Abdurashidxonov Aleksandrga: “Siz aytgandek shahar chetidan yer tanladim, xohlasangiz olib borib ko‘rsataman”, – deb, hozirgi Agrar universiteti tomonidan aylantirib olib kelib, shaharning qoq markazidagi anhor labidagi yerni ko‘rsatadi. Shunday qilib Minor qabrisoni shahar o‘rtasida bunyod bo‘lgan. Qabrison yaqinida (“Minor” mahallasi hududida 1994-yilda qurilgan 90-uy o‘rnida) yakka minora bo‘lganligi sababli shunday atalgan.

Minor qabrisonining uch tarafidan mahobatli kirish darvozalari o‘rnatilgan.

MIRZAOTA (OTAMOZOR) – Yashnobod tumanidagi qabrison nomi. Toshkent viloyatining Zangiota tumanidan shahar hududiga o‘tgan, 1900-yillarda tashkil etilgan. “Go‘zal” mahallasidagi Darxon ko‘chasida joylashgan.

Eski qabrison maydoni 1,5 gektar. Tepalik yerga joylashgan bu qabrisonda 90 yil umr ko‘rgan Otaboy degan kishi birinchi bo‘lib dafn etilgan, keyinchalik qabrison shu kishining nomi bilan Otamozor deb yuritilgan. 1970-yilda qabrison hududi 22 gektarga yetkazib kengaytirilgan. Qabrisonda Yashnobod (Hamza) tumanida istiqomat qiluvchi fuqarolar dafn etila boshlangan. 1970-yildan boshlab qabrisonda katta obodonlashtirish ishlari amalga oshirila boshlangan. Mehnat Qahramoni Turob aka Normuhammedov 1970-yillarda jamoa xo‘jaligi raisi bo‘lib, olmazor bog‘idan 20 gektar yerni qabrison uchun ajratgan. U kishining qabrlariga oq marmardan byust o‘rnatilgan, minnatdor avlod vakillari doim ziyoratga kelib turishadi.

MITONOTA (QORASUV) – Sergeli tumanidagi qabrison nomi. 1909-yilda tashkil topgan, “Ko‘hna Qumariq” mahallasidagi Qumariq ko‘chasida joylashgan. Maydoni 5,77 gektar.

Qabrison o‘rni bir tepalik bo‘lgan, atrofi qamishzor bo‘lib, odamlar yozda ko‘chib kelib, dehqonchilik qilishgan. Aholi ichida bir past bo‘yli odam yashagan, shu odam birinchi bo‘lib vafot etgan va shu yerga dafn etilgan. Odamlar u kishini hayotligida “mitti odam” deb atashgani uchun qabrison ham Mitonota deb atala boshlagan. Biroq miton, muyton qabilasi ham manbalarda uchraydi.

MOZORTEPA – Chilonzor tumanidagi qabrison nomi. 1870-yillar atrofida tashkil topgan, “Katta Do‘mbirobod” mahallasidagi Naqqoshlik ko‘chasida joylashgan. Maydoni 1,5 gektar.

Qabrison atrofida katta-katta bog‘lar bo‘lib, bu yerga ko‘chib kelgan bog‘bonlar vafot etgan yaqinlarini shu yerdagi bir tepalikka dafn etishgan. Bu tepalik dehqonlarning xirmon yanchadigan joyi bo‘lgan. Mozortepa nomi shu tariqa paydo bo‘lgan.

MUSAVOYOTA – Chilonzor tumanidagi qabriston nomi. 1890-yillar atrofida tashkil topgan, “Bekto‘pi” mahallasidagi Diydor ko‘chasida joylashgan. Maydoni 5,77 gektar.

NASRONIYLAR – Olmazor tumanidagi qabriston nomi. 1890-yillar atrofida tashkil topgan, Ibrohimota mahallasidagi Ibrohimota ko‘chasida joylashgan. Maydoni 0,69 gektar. Yopiq qabriston.

NASRONIYLAR-1 – Sergeli tumanidagi qabriston nomi. 1900-yillar boshlarida Jo‘nariq kanali qirg‘oqlarida tashkil etilgan, “Jo‘nariq” mahallasidagi Choshtepa-1 berk ko‘chasida joylashgan.

Qabriston hududi temir panjara va devor bilan o‘ralgan. Toshkent shahar hokimining 2018-yildagi qarori bilan har qanday dafn marosimlari uchun qabriston yopilgan, faqat ziyoratchilar uchun ochiq hisoblanadi.

NASRONIYLAR-2 – Sergeli tumanidagi qabriston nomi. 1927-yillar atrofida tashkil topgan, “Daryobo‘yi” mahallasidagi Daryobo‘yi ko‘chasida joylashgan. Maydoni 0,092 gektar.

Qabriston atrofi beton devor bilan o‘ralgan, jarlik yoqasida joylashganligi uchun yo‘laklar qilinmagan. 1955-yili har qanday dafn marosimlari uchun yopilgan.

NO‘G‘OYQO‘RG‘ON – Sergeli tumanidagi qabriston nomi. Taxminan 1830-yildan boshlab faoliyat ko‘rsatadi, “Qubaytepa” mahallasidagi Kubeytepa ko‘chasida joylashgan. Maydoni 2,71 gektar.

Qabriston atrofi to‘qayzor bo‘lib, qamishzorlar bilan qoplangan. O‘sha davrda qabriston atrofiga chor Rossiyasidan surgun qilingan no‘g‘oylar kelib joylashgan. Shu tariqa qabriston No‘g‘oyqo‘rg‘on deb yuritila boshlangan.

OQILOTA – Yunusobod tumanidagi qabriston nomi. XVIII asrning ikkinchi yarmida tashkil etilgan, “Anorzor” mahallasidagi Oqilota ko‘chasida joylashgan. Maydoni 7,2 gektar.

Qabristonda birinchi bo‘lib Oqilota dafn etilganlar, shu sababli qabriston u kishining nomi bilan ataladi.

OQTEPA – Yunusobod tumanidagi qabriston nomi. “Oqtepa” mahallasidagi Chinobod ko‘chasida joylashgan. Maydoni 10 gektarga yaqin.

Qabristonning nomi Yunusobod Oqtepasi arxeologik yodgorligidan (V–XII asr boshi) olingan (tafsilotlarni qarang: Toshkent. Ensiklopediya. 2009, 671–672 betlar).

1944-yilda bu yerlar kolxoz hududi bo‘lib, barcha erkaklar frontga yuborilgan davrda 97 yoshli Ulug‘bi Badalova degan ayol vafot etadi. U kishini qabristonga olib borib dafn etadigan erkaklar bo‘lmaganidan Oqtepa deb atalgan tepaga dafn etadilar. Shu tariqa qabristonga asos solinib, qabriston Oqtepa deb yuritila boshlangan.

OQUY – Mirobod tumanidagi qabriston nomi. Taxminan XIX asrda tashkil topgan, “Fayziobod” mahallasidagi Fayziobod-4 tor ko‘chasida joylashgan. Maydoni 4,7 gektar.

Keksalarning so‘ziga ko‘ra, Rossiyadan ko‘chib kelgan Chyotkin familiyalı rus kishisi hozirgi Tolariq kanali bo‘yida uy, tegirmon va karvonsaroy qurgan, so‘ngra Chirchiq bo‘yida kichik ohak ishlab chiqarish sexi ochib, o‘zining uyi, tegirmoni va karvonsaroyini ohak bilan suvagan. Shundan so‘ng o‘sha atrofdagi xonadonlar uning ohagidan foydalanishgan. Shu sabab bo‘lib, savdogarlar va sayyohlar mo‘ljal sifatida Toshkentdagi Oquy karvonsaroyida, tegirmonida uchrashishni belgilashgan. Joyning nomi shundan kelib chiqqan. Qabriston joylashgan hududda ham bir katta bino qurilib, oqqa bo‘yalgan ekan. Bu bino Toshkentga keluvchi savdogarlarga mehmonxona vazifasini o‘tagan. Juda dovrug‘i ko‘tarilib, hamma bu binoni Oquy deb atagan ekan. Shu tariqa qabriston ham Oquy deb atala boshlangan.

OLTINTEPA – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi qabriston nomi. “Alpomish” mahallasidagi Mirishkor ko‘chasida joylashgan. Maydoni 1 gektarga yaqin.

Qabriston joylashgan tepalikning tuprog‘i toza, noyob bo‘lib, asosan kulolchilikda ishlatilgan, shu sababli bu tepalik Oltintepa deb yuritilgan. Qabriston ham shu nom bilan atalgan. Qabriston hovlisida “Oltintepa” masjidi joylashgan.

PAST DARXON – Sergeli tumanidagi qabriston nomi. 2017-yilda tashkil etilgan, “Yuqori Darxon” mahallasidagi Beltepa ko‘chasida joylashgan. Maydoni 1 gektar.

Qabriston to‘liq devor bilan o‘ralgan. 50 dan ziyod turli manzarali daraxtlari mavjud.

PULEMAS (QORASUV-2) – Yashnobod tumanidagi qabriston nomi. Taxminan XVI–XVII asrlar oralig‘ida tashkil topgan, Maxmur mahallasidagi Alimkent 4-tor ko‘chasida joylashgan. Maydoni 1,8 gektar.

Qabristonda birinchi bo‘lib qabriston tashkil etilgunga qadar shu yerda korandalik qilgan dehqon – Pulemasota laqabli kekxa kishi dafn etilgan. Shu dafndan so‘ng qabriston Pulemas deb atala boshlangan.

Rivoyatlarga ko‘ra, bundan besh-olti asrlar oldin ushbu hududdan o‘n uch kishi haj ibodatini bajarish uchun yo‘lga chiqishgan. Nihoyat yetti oy deganda haj safaridan bir kishigina sog‘-omon uyga qaytgan. Undan qolganlar haqida so‘rashganida, – “Hajdan qaytishimizda yo‘lda ochlik bizni qiynadi. Yeyishga biron narsamiz qolmagan. Kimsasiz biyobonda bir fil bolasini uchratdik. Sheriklarim ochlikdan o‘lgandan ko‘ra, fil bolasini so‘yib yeyishni afzal bildi. Men esa yemadim, daraxt ildizlarini kovlab topib yeb, jon saqladim. Oradan uch kun o‘tgach, ortimizdan ona fil yetib keldi. Sheriklarimni o‘ldirdi, meni qayta-qayta hidlab ko‘rdiyu, zarar yetkazmadi. U biz so‘ygan filning onasi edi. Bolasini kim yeganini hididan ajratar ekan”, deb javob bergan ekanlar. Shundan

soʻng yerlik aholi fil bolasini yemay, hajdan sogʻ-omon qaytgan ushbu valiysifat kishining ismini aytmay, “Fil yemasota” deya taʼriflashgan. U zot hajdan qaytganidan soʻng bir chillaxona qurib, ibodat bilan mashgʻul boʻlgan. Shogirdlari shu yerda dehqonchilik qilishgan. Yoʻlovchi musofirlar ehtiyojiga meva-sabzavot soʻrashsa, ulardan pul olmay, shundayligicha hadya qilar ekan. Odamlar orasida “Fil yemasota” nomi bilan tanilgan bu kishini xalq “Pul olmas ota” deb ham taʼriflay boshlagan. Keyinchalik xalq ogʻzida “Pul yemasota” boʻlib ketgan.

RUS-KOREYSLAR – Yangihayot tumanidagi qabriston nomi. 1929-yilda tashkil topgan, “Toshkent” mahallasidagi Bogʻ koʻchasida joylashgan. Maydoni 0,81 gektar.

Qabristonda asosan nasroniylikka eʼtiqod qiluvchilar hamda turli millatga mansub insonlar, shu jumladan, rus, koreyslar koʻmilgan. Qabriston faqat mahalliy aholiga xizmat qiladi.

SAGʻBON – Olmazor tumanidagi qabriston nomi. XVIII asrda tashkil topgan, “Guruchariq” mahallasidagi Sagʻbon koʻchasida joylashgan. Maydoni 3,5 gektar.

Baʼzi tarixiy manbalarda qayd etilishicha, taxminan XIV–XV asrlarda qabriston joylashgan hudud atrofida koʻplab karvonsaroylar, doʻkonlar boʻlib, ularni Suqbon (arabcha) – bozor qorovuli, qoʻriqchi qoʻriqlagan. Shuningdek, shahar devoridagi eng mustahkam darvoza shu yerda boʻlgani sababli, u Saʼbon (arabcha “mustahkam”) deb nomlangan ham deyiladi. Davr oʻtishi bilan bu atama Sagʻbon boʻlib ketgan.

Boshqa rivoyatda, qabriston joylashgan hudud atrofida chor Rossiyasi davrida it boqiladigan joy boʻlganligi tufayli, u yerlar Sakbon deb yuritilgan, shu sababli qabriston ham Sakbon deb atalib, keyinchalik Sagʻbon deb yuritila boshlangan degan taxminlar ham bor.

Qabristonda Oʻzbekiston xalq artistlari Gʻani Aʼzamov, Malik Qayumov, jamoat arbobi Abduhamid Qayumovlar dafn etilgan.

SAIDVAQQOSOTA – Uchtepa tumanidagi qabriston nomi. 1800–1820-yillar atrofida barpo etilgan, “Zarafshon” mahallasidagi Katta halqa yoʻli koʻchasida joylashgan. Maydoni 5 gektar.

1966-yilda boʻlib oʻtgan zilzila oqibatida Beshqayragʻoch, Oktyabr massivi tashkil etilib, markazda yashovchi koʻplab aholi koʻchib borganligi sababli qabriston maydoni kengaytirilgan. Keksa otaxonlarning aytishlaricha, hozirgi qabriston yonidan katta anhor oqib oʻtgan, bu yerda pishiq gʻisht, sopol idishlar tayyorlangan. Yaqin atrofda qabriston boʻlmaganligi sababli, vafot etganlar shu yerda qoʻnim topishgan va shu tariqa qabriston barpo boʻlgan.

Muhammad (s.a.v.) paygʻambar sahobalaridan Saʼd ibn Abu Vaqqos (595–674) nomi bilan atalgan. Birinchilardan boʻlib islom dinini qabul qilgan shaxs, Madinada dafn etilgan. Qabriston hududida maqbara barpo etilgan boʻlib,

u yerga kim dafn etilganligi noma'lum. Keksalarning aytishicha, maqbara Said Vaqqosota xotirasiga qurilgan.

SAIDOTA – Olmazor tumanidagi qabriston nomi. 1780-yildan mavjud, “Paxta” mahallasidagi Qoraqamish-1 ko'chasida joylashgan. Maydoni 3,73 gektar.

Toshkent viloyatida Sayid Ahmad ismli o'qimishli bir kishi istiqomat qilib, o'z davrining bilimdonlaridan bo'lgan. U kishi vafotidan so'ng, shu qabristonda dafn etilib, qabriston nomi Saidota deb atala boshlangan. O'sha davrda qabriston Toshkent viloyatiga qarashli bo'lib, shahar hududi kengaytirilib, Sobir Rahimov (hozirgi Olmazor) tumani tashkil etilgan paytda Saidota qabristoni ham shahar tasarrufiga o'tgan. Qabristonda Saidota qabrlariga sag'ana barpo qilingan.

General-mayor Komiljon G'ofurov (1949–1994), O'zbekiston xalq artisti Rahim Shokirov (1916–1979) shu qabristonda dafn etilgan.

SIRMOQLIOTA (SIRMOQOTA) – Olmazor tumanidagi qabriston nomi. 600–650-yillik tarixga ega, “Chig'atoy Darvoza” mahallasidagi Forobiy ko'chasida joylashgan. Maydoni 0,05 gektar.

Qabriston tasavvuf allomalaridan biri bo'lgan, mashhur tabib Sirtmoqota nomi bilan atalgan. Mahalliy xalq bu yerga ziyorat uchun doimiy kelib turgan va Sirtmoqota qabrlari tuprog'ini tabarruk bilib, har xil kasalliklarga malham sifatida foydalanishgan. Yopiq qabriston.

SO'GALLIOTA – Chilonzor tumanidagi qabriston nomi. “Bekto'pi” mahallasidagi So'galliota ko'chasida joylashgan. Maydoni 4,2 gektar.

So'galliota tabib bo'lib, tanasida so'gali bor kishilar u kishidan shifo topishgan. U kishi bemorlarni giyoh o't bilan davolaganlar. So'galliota XVI–XVII asrlarda yashab o'tganlar. Vafotlaridan so'ng, dafn etilgan joy So'galliota qabristoni deb yuritila boshlangan. So'galliota qabrlariga o'rnatilgan qabr toshida “Vali Olloh tabibiy So'galli Ota, XVI asr” deb yozib qo'yilgan.

Rivoyatlarga ko'ra, So'galliota yetti birodarning biri bo'lganlar. Eng kattalari So'galliota, ukalari G'oyibota, Bo'zloqota, Ilonliota, Terakliota, Sandiqliota, Fozilotalar bo'lishgan. Ulardan besh kishining nomi bilan qabristonlar atalgan.

SULTON SHAYXBUVA – Olmazor tumanidagi qabriston nomi. Taxminan 1915–1917-yillarda ochilgan, “Qorasaroy” mahallasidagi Qorasaroy ko'chasida joylashgan. Maydoni 0,15 gektar.

1890-yillarda bu yerga Sayramdan ilmi Sulton shayx degan inson ko'chib kelgan. U kishi shu yerdagi aholiga ilm berish bilan shug'ullangan. Sulton Shayx vafot etganidan so'ng, u kishi shu yerda dafn etilib, qabriston uning nomi bilan atalgan. Oxirgi dafn ocharchilik yillariga to'g'ri kelgan (1932–1933) va qabriston yopilgan. Sulton Shayxbuva qabrlariga sag'ana o'rnatilgan.

SULTONQUL – Yunusobod tumanidagi qabriston nomi. 1930-yilda “O'zbekiston qirq yilligi” kolxozi hududidagi tepalik yerda tashkil topgan, “Yangibog'” mahallasidagi Yunusobod-13 mavzesida joylashgan. Maydoni 2,2 gektar.

Qabringtona shu hududda uzoq yillar dehqonchilik qilgan, 108 yoshda vafot etgan Sultonqul Toshxo‘jayev nomi berilgan.

TERAKLIOTA – Uchtepa tumanidagi qabrington nomi. Qabrington taxminan XVIII asr boshlarida tashkil topgan, “Hamdo‘st” mahallasidagi Lutfiy ko‘chasida joylashgan. Maydoni 2,4 gektar.

Rivoyatlarga qaraganda, bir musofir kishi ariq qazib, suv chiqargan va ariqning ikki chetiga terak ekib, terakzor barpo etgan. U kishi vafotidan so‘ng o‘zi yaratgan terakzorga dafn etilgan. Shundan so‘ng qabrington Terakliota nomi bilan yuritilgan. Shu atrofga ko‘chib kelgan aholi ham vafot etgan yaqinlarini ushbu qabringtonda dafn eta boshlagan.

TESHIKQOPQA – Olmazor tumanidagi qabrington nomi. 1880-yillarda tashkil topgan, “Xonchorbog‘” mahallasidagi Teshikqopqa ko‘chasida joylashgan. Maydoni 8,07 gektar.

Sebzor dahasida joylashgan qabrington shahar ichida joylashganligi sababli, chorizm hukmronligi davrida dafn etish man etilgan. Yerli aholi dafn etishni davom ettirish uchun qabrington devoridan tuynuk ochib, uni qopqoq bilan yopib qo‘yganlar va shu tuynukdan mayitni olib kirib, saharda, kechqurun dafn etganlar, kunduz kunlari teshik yopiq bo‘lgan. Shu sababli qabrington nomi Teshikqopqa deb yuritilgan.

TOVKENTEPA – Yashnobod tumanidagi qabrington nomi. Qabrington Toshkent shahri tasarrufiga Qibray tumanidan o‘tgan. “Tovkentepa” mahallasidagi Yangihayot ko‘chasida joylashgan. Maydoni 3,66 gektar.

TOLARIQ – Mirobod tumanidagi qabrington nomi. Qabrington Toshkent shahri tasarrufiga O‘rta Chirchiq tumanidan o‘tgan. “Parvona” mahallasidagi Sarbon ko‘chasida joylashgan. Maydoni 0,54 gektar. Yopiq qabrington.

TO‘QAYTEPA – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi qabrington nomi. Qabrington Toshkent shahri tasarrufiga Qibray tumanidan o‘tgan. “Ijodkor” mahallasidagi Kamalak ko‘chasida joylashgan. Maydoni 4,87 gektar.

ULUG‘BEK – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi qabrington nomi. Ulug‘bek mahallasidagi Bulqsoy ko‘chasida joylashgan. Maydoni 0,36 gektar. Yopiq qabrington.

UCHQUN – Bektemir tumanidagi qabrington nomi. Qabrington Toshkent shahri tasarrufiga O‘rta Chirchiq tumanidan o‘tgan. 1950-yilda tashkil topgan, “Musaffo” mahallasidagi Iltifot ko‘chasida joylashgan. Maydoni 0,67 gektar.

FOZILOTA (YAKKASAROY) – Yakkasaroy tumanidagi qabrington nomi. 1830-yillarda tashkil topgan, “Yakkasaroy” mahallasidagi Bog‘ibo‘ston ko‘chasida joylashgan. Maydoni avval 5 gektar bo‘lib, 1970-yilda 3,2 gektarga kengaytirilgan, hozir umumiy maydoni – 8,2 gektar.

Keksa otaxonlarning gapiga ko‘ra, hozirgi qabrington o‘rnida bir saroy qurilgan bo‘lib, boshqa yurtdan kelgan kishilar vaqtinchalik shu saroyda yashashgan. Bino atrofida boshqa biron-bir inshoot bo‘lmaganligi sababli Yakkasaroy deb

nom olgan. Qabriston ham ko‘p yillar davomida qabriston joylashgan daha nomi bilan Yakkasaroy deb atalgan. Xalqning talab va istagini qondirish maqsadida, 1994-yilda shahar hokimi qarori bilan qabristonga 60 yil xizmat qilgan Fozilota nomi berilgan.

Qabristonda shaharda istiqomat qiluvchi ozarbayjon millatiga mansub aholining vafot etgan yaqinlari ham dafn etilgan. Ikkinchi jahon urushi davrida va undan keyin asirlikda vafot etgan yapon fuqarolaridan 80 kishi, nemis fuqarolaridan 19 kishi alohida-alohida yerga dafn etilgan. Yapon fuqarolari dafn etilgan yer atrofi 1979-yilda panjara bilan o‘ralib, har bir qabrga xotira toshi qo‘yilgan. 1990-yilda O‘zbekiston “Do‘stlik” jamiyati bilan birodarlashgan Yaponiya “Fukusima” birodarlik jamiyati o‘rtasida shartnoma tuzilib, yapon fuqarolari dafn etilgan yerda Fuqarolarga xizmat ko‘rsatish boshqarmasi tomonidan memorial kompleks barpo etilgan. O‘zbekistonning turli viloyatlarida dafn etilgan yapon fuqarolari soni qayd etilib, ularning xoki shu qabristonga keltirilgan va 8 qirrali dahma barpo etilib, xoklar o‘sha yerga qo‘yilgan. Har bir qabrga marmar yodgorlik o‘rnatilgan. Har yili Yaponiyadan tashrif buyuruvchi ko‘plab sayyohlar qabristonga ziyoratga kelishib, ajdodlari qabriga gullar qo‘yishadi.

1995-yilda nemis elchixonasi tashabbusi bilan nemis fuqarolari dafn etilgan yer ta‘mirlanib, atrofi marmar to‘siq bilan o‘ralgan va har bir qabrga marmar yodgorliklar o‘rnatilib, yo‘lakchalar atrofiga gullar ekilgan. Har yili oktyabr oyida nemis elchixonasi vakillari yig‘ilib, o‘tganlarni xotirlaydi.

XIRMONTEPA – Chilonzor tumanidagi qabriston nomi. 1870-yilda tashkil topgan, “Xirmontepa” mahallasidagi Katta Xirmontepa ko‘chasida joylashgan. Maydoni 0,4 gektar.

Xirmontepa atrofiga har yili odamlar dehqonchilik qilish uchun kelishgan. O‘sha davrda vafot etgan yaqinlarini shu yerdagi bir tepalikka dafn etishgan. Shu tepalikda bir paytlar dehqonlar xirmon ko‘targanlari uchun Xirmontepa deb atalgan. 1962-yilda dafn uchun yopilgan.

XONOBODTEPA – Sergeli tumanidagi qabriston nomi. XVII asrdan mavjud, “Xonobodtepa” mahallasidagi Xonobod ko‘chasida joylashgan. Maydoni 8,3 gektar.

Arxeologik ma‘lumotlarga ko‘ra, qabriston qadimiy shahar xarobasi Xonobodtepa nomi bilan atalgan. Yana rivoyat qilishlaricha, bu yerda bir badavlat boy yashagan ekan. U ko‘plab xizmatkorlari yordamida aravada tuproq keltirib to‘kkan va baland tepalik hosil qilib, unda bog‘ barpo etgan. Shuning uchun bu yer Xonobod deb atalgan.

KRISTIAN-KOREYSLAR – Sergeli tumanidagi qabriston nomi. 1950-yilda tashkil topgan, “Daryobo‘yi” mahallasidagi Xonobod ko‘chasida joylashgan. Qabriston hududidan rus millati uchun – 3,2 gektar, koreys millati uchun – 2,22 gektar yer ajratilgan.

XO‘JA ALAMBARDOR (KAMOLON) – Shayxontohur tumanidagi qabriston nomi. Qabriston XVI asrlardan mavjud, “Yangiobod” mahallasidagi Kamolon ko‘chasida joylashgan. Maydoni 6 gektardan ortiq.

Rivoyatlarga ko‘ra, qabriston nomi Xo‘ja Alambardor nomiga qo‘yilgan bo‘lib, u kishi tarixda Qaffol Shoshiyning safdoshi bo‘lgan ekan. “Nasabnoma”larda alambardor (bayroqdor) nomi bilan mashhur sanalgan va uning tarixi Shosh viloyatiga islom dini kirib kelishi bilan bog‘liq.

Qabristonda qadimiy maqbara bo‘lib, unda islom tug‘i saqlangan. Maqbara XVIII–XIX asrlarda qayta ta‘mirlanib, madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish idoralari tomonidan ro‘yxatga olingan. Qabriston Kamolon darvozasi tashqarisida joylashgani sababli, Kamolon qabristoni deb ham yuritilgan.

Qabristonda sharqshunos olim Abduqodir Murodov, shoirlar: Habibiy, Miskin, Yong‘in Mirzo, Muzayyana Alaviya, Xurshid, akademik Maqsuda Xojinova, professorlar Hamidulla Hasanov, Isoq Komilov, aktyorlar To‘g‘on Rejаметov, Ne‘mat Qosimov va boshqalar dafn etilgan.

XO‘JAMAHALLA – Yangihayot tumanidagi qabriston nomi. “Choshtepa” mahallasidagi Choshtepa ko‘chasida joylashgan. Maydoni 0,52 gektar. Yopiq qabriston.

XO‘JAMOZOR – Sergeli tumanidagi qabriston nomi. Taxminan 1900-yilda tashkil topgan, “Sadoqat” mahallasidagi Xonobod ko‘chasida joylashgan. Maydoni 0,08 gektar. Har qanday dafn marosimlari uchun yopiq.

CHANGELDI – Yashnobod tumanidagi qabriston nomi. Qabriston Toshkent shahri tasarrufiga Qibray tumanidan o‘tgan. “Arg‘in” mahallasidagi Eski Arg‘in va Cho‘lpon ko‘chalarida joylashgan. Maydoni 6,52 gektar.

CHIG‘ATOY – Olmazor tumanidagi qabriston nomi. “Chimboy” mahallasidagi Forobiyko‘chasida joylashgan. Umumiy maydoni 10 gektar, 1978-yili 3 gektarga kengaytirilgan.

Mazkur qabriston Qo‘ychiota, Qo‘shmozor nomlari bilan ham yuritilgan. Toshkentning Eski shahar qismidagi Olmazor tumanining Chig‘atoy dahasida joylashgani uchun, shu joy nomi bilan yuritila boshlangan. Taxminan XVI asrda bunyod etilgan, hududida XIX asrda qurilgan Xo‘ja Bahri maqbarasi bor. Qabriston ikki qismdan iborat bo‘lib, o‘rtasi asfalt yo‘l hamda archa daraxtlari bilan chegaralangan. Atoqli davlat, adabiyot, san‘at va fan arboblari dafn etiladigan qismi uch gektarni tashkil etadi.

Qabristonda davlat arboblari: Usmon Yusupov, Yo‘ldosh Oxunboboyev, Sharof Rashidov, Amin Niyozov, Asadulla Xo‘jayev, Yo‘ldosh Qurbonov, xalq shoiri va yozuvchilari: Oybek, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Zulfiya, Said Ahmad, Ne‘mat Aminov, Ozod Sharafutdinov, olimlar: Habib Abdullayev, Obid Sodiqov, Toshmuhammad Qori-Niyoziy, Ibrohim Mo‘minov, Hamid Sulaymon, Sa‘di Sirojiddinov,

Ubay Oripov, Muhammad O‘rozboyev, Sodiq Azimov, Xadicha Sulaymonova, Muzaffar Homidxonov, Tesha Zohidov, san‘at arboblari: Komil Yormatov, Nabi G‘aniyev, Muxtor Ashrafiy, Mannon Uyg‘ur, Muhiddin Qoriyoqubov, Obid Jalilov, Usta Olim Komilov, Quдрat Xo‘jayev, Hamza Umarov, Rahim Pirmuhamedov, Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov, Razzoq Hamroyev, Olim Xo‘jayev, Mukarram Turg‘unboyeva, Lutfixonim Sarimsoqova, Tamaraxonim, Botir Zokirov, Yunus Rajabiy, O‘zbekiston Qahramonlari: Abdulla Oripov, Erkin Vohidov va boshqa ko‘plab mashhur shaxslar dafn qilingan.

CHILONZOROTA – Chilonzor tumanidagi qabriston nomi. XII–XIII asrlarda barpo etilgan, “Chilonzor” mahallasidagi Eski Chilonzor-3 tor ko‘chasida joylashgan. Maydoni 1,7 gektar. Tarixiy nomi – Jilonota qabristoni.

Bu qabristonda birinchi bo‘lib dafn etilgan Chilonota bog‘dorchilikka qiziqib, ko‘p turdagi daraxtlar, shifobaxsh giyoh va gullar yetishtirish bilan shug‘ullanganlar. Ko‘plab chilonjiyda daraxtlari o‘tqazganlar. Qabriston nomi shundan kelib chiqqan. Qabristonda Chilonota qabrlariga sag‘ana qurilgan.

Ushbu qabristonga muhtasham Sobitxon Hoji jome masjidi tutashgan. Qabristonda buyuk bastakor, betakror hofiz, Buxoro, Qo‘qon xonlarining hurmatiga sazovor bo‘lgan Mulla To‘ychi Toshmuhamedov dafn etilgan (1868–1943). Rivoyatlarga ko‘ra, Buxoro xoni Amir Olimxonga hech narsa yoqmay turgan paytda xonning ruhiyatini ko‘tarish maqsadida vazirlar hofizni saroyga taklif ettirib, ashula aytirishadi. Hofiz amirning ruhiyatidan kelib chiqib ikkita ashula kuylaydi. Ashula amirga shunday ta’sir etadiki, kayfiyati ko‘tarilib, hofizga o‘zi minadigan otlardan birini sovg‘a qiladi.

CHILONOTA – Yashnobod tumanidagi qabriston nomi. Taxminan XVII–XVIII asrlar o‘rtalarida tashkil topgan, “Yanginur” mahallasidagi Chilonota ko‘chasida joylashgan. Maydoni 2,4 gektar.

Aytishlaricha, qabriston bunyod bo‘lishidan oldin, bu hududda o‘zbek va qozoq millatiga mansub aholi qo‘shni bo‘lib yashashgan ekan. Shu aholi ichida bir xalqparvar inson bo‘lib, u kishining ismlari Chilon bo‘lgan. Bu kishi ikki millat o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash uchun xizmat qilgan. U kishi vafoti yaqinlashganda, o‘zini shu yerga dafn etib, mozorimiz ham, do‘stligimiz ham bir bo‘lsin deb, qabristonning Chilonota deb atalishini vasiyat qilgan ekanlar. Qabriston ikki millat xalqini do‘stlashtiruvchi, tirigi ham, o‘ligi ham birligini ifodalovchi Chilonota nomi bilan atalgan.

CHIMIROTA – Olmazor tumanidagi qabriston nomi. “Shifokorlar” mahallasidagi Katta halqa yo‘li ko‘chasida joylashgan. Maydoni 9,0 gektar.

Qozog‘istonlik Chimirota taxminan XIV–XV asrlarda shu qabriston o‘rniga kelib yashaganlar. Chimirota vafot etganlaridan so‘ng, shu yerga dafn etiladilar. Keyinchalik u kishining qabrlari ustiga maqbara quriladi. Qabriston shu kishi-

ning nomi bilan atalgan. Qabrison yonida XII asrga mansub Chimirota maqbarasi va masjid bor.

CHINGELDI – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi qabrison nomi. Qabrison Toshkent shahri tasarrufiga Qibray tumanidan o‘tgan. “Chingeldi” mahallasidagi Milliy bog‘ ko‘chasida joylashgan. Maydoni 2,73 gektar.

CHOSHTEPA – Chilonzor tumanidagi qabrison nomi. 1941-yildan mavjud, “Beshqo‘rg‘on” mahallasidagi Chorbog‘-2 tor ko‘chasida joylashgan. Maydoni 2,6 gektar. Tepalik joyda joylashganligi uchun Choshtepa deb atalgan.

CHO‘LDARAXT – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi qabrison nomi. “Azamat” mahallasidagi Cho‘ldaraxt ko‘chasida joylashgan. Maydoni 1,06 gektarga yaqin.

Taxminan 1910-yillarda shu atrofga yashash uchun ko‘chib kelgan odamlar bu yerdagi har xil yovvoyi daraxtlarni kesib, qabrison uchun tanlashgan. Bu daraxtlar yovvoyi, mevasiz bo‘lgani uchun “cho‘l daraxti” deb atalgan.

CHO‘PONOTA – Uchtepa tumanidagi qabrison nomi. XIV asrdan mavjud, “Ko‘hna Cho‘ponota” mahallasidagi Chilonzor-13 mavzesida va Bog‘obod ko‘chasida joylashgan. Maydoni 6,6 gektar.

Qabrison nomi cho‘pon-ota, avliyo, cho‘ponlar homiysi – Cho‘ponota nomidan olingan. Qabrison ichida taxminan XIV asrlarda Cho‘ponota maqbarasi qurilgan.

Qabrisonda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan dirijyor va bastakor Said Aliyev, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar: Adiba Mirzayeva, Zokir Sultonov dafn etilgan.

SHAYX ZAYNIDDINBOBO (KO‘KCHA) – Shayxontohur tumanidagi qabrison nomi. XI–XII asrlar o‘rtalarida tashkil topgan, “Ko‘kcha” mahallasidagi Ko‘kcha Darvoza ko‘chasida joylashgan. Maydoni 8,2 gektar.

Mannon Uyg‘ur ko‘chasining 1955-yilgacha nomidan kelib chiqib, “Viloyat” qabrisoni ham deyilgan. Shayx Zayniddinbobo Xorazmdan Toshkentga kelayotganlarida shaharning Ko‘kcha darvozasidan bir necha chaqirim narida u kishining tuyalari cho‘kadi, u kishi shu yer Alloh tomonidan belgilangan joy bo‘lsa kerak deb, shu yerda qo‘nim topadilar. U kishi vafot etganlaridan so‘ng, shu yerga dafn etilib, Shayx Zayniddinbobo qabrisoni paydo bo‘ladi. Bu tabarruk zot 95 yoshda olamdan o‘tganlar. Amir Temur Shayx Zayniddinboboning ziyoratiga kelganlarida, u kishining qabrlari yonida hujralar va rasadxona bo‘lgan ekan. Amir Temur Shayx Zayniddinbobo qabrlariga ulkan maqbara qurdiradilar. Keyinchalik bu maqbara yer qimirlashlari va davr o‘tishi oqibatida bir necha bor ta‘mirlangan. Maqbaraning kattakon gumbazi musulmon g‘ishtlar bilan terilib, ustiga hech narsa qoplanmagan (yana qarang: Shayx Zayniddinbobo).

SHAYXOTA – Yangihayot tumanidagi qabrison nomi. “Fayzli” mahallasidagi Qipchoq shohko‘chasida joylashgan. Maydoni 0,66 gektar. Yopiq qabrison.

SHAHID – Sergeli tumanidagi qabriston nomi. “Xonobod” mahallasidagi Beruniy-1 tor ko‘chasida joylashgan. Maydoni 0,45 gektar. Yopiq qabriston.

SHAHID – Yashnobod tumanidagi qabriston nomi. “Bog‘bon” mahallasidagi Darxon ko‘chasida joylashgan. Maydoni 0,08 gektar. Yopiq qabriston.

SHO‘RTEPA (TROSKIY) – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi qabriston nomi. “Yalang‘och” mahallasidagi Temur Malik ko‘chasida joylashgan. Maydoni 2,9 gektar. Yopiq qabriston.

ESKI XRISTIANLAR – Sergeli tumanidagi qabriston nomi. 1930-yilda tashkil topgan, “Sug‘diyona” mahallasidagi Jaloyir ko‘chasida joylashgan. Maydoni 1,52 gektar. 2002-yildan har qanday dafn marosimlari uchun yopilgan.

ESHONOTA – Yashnobod tumanidagi qabriston nomi. 1950-yilda tashkil topgan, “Tuzel” mahallasidagi Cho‘lpon ko‘chasida joylashgan. Maydoni 3,54 gektar.

Qabristonda birinchi bo‘lib bir necha eshonlar dafn etilganligi sababli, Eshonota deb nom berilgan. Qabriston yaqinida “Eshonota” jome masjidi bor.

YUNUSOTA – Sergeli tumanidagi qabriston nomi. 1910-yilda tashkil etilgan, “Sadoqat” mahallasidagi Xonobod-4 tor ko‘chasida joylashgan. Maydoni 1,25 gektar.

Shu hududda yashab o‘tgan, qabristonni obodonlashtirishda ko‘p mehnati singan nuroniy Yunusota nomi bilan atalgan.

YALANG‘OCH-1 (1-, 2-HUDUD) – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi qabriston nomi. “Yalang‘och” mahallasidagi Buyuk ipak yo‘li ko‘chasida joylashgan. Yalang‘och-1 qabristonining 1- va 2-hududlarining umumiy maydoni 1,78 gektar.

Qariyalarning hikoya qilishlaricha, taxminan XVIII–XIX asrlarda Yalang‘ochtepa degan tepalik bo‘lib, bu tepalikda hech qanday daraxt o‘smagan ekan. Shu tepalikka birinchi bo‘lib Telovliota degan kishi dafn etilgan ekan. Tepalik nomi Yalang‘och bo‘lgani uchun, Yalang‘och mozori deb atala boshlangan. Keyinchalik Yalang‘och-1 qabristonini qoq o‘rtasidan ajratib yo‘l qurilgan. Qabriston ikki hududga ajralgan bo‘lib, atrofi beton devor bilan o‘ralgan. Yopiq qabriston.

YALANG‘OCH-2 – Mirzo Ulug‘bek tumanidagi qabriston nomi. 1900–1910-yillar atrofida baland tepalikda barpo etilgan, “Yalang‘och” mahallasidagi Temur Malik ko‘chasida joylashgan. Yalang‘och-2 qabristonining avvalgi maydoni 1,5 gektar bo‘lgan, 1968-yilda 7,8 gektarga kengaytirilib, 9,27 gektarga yetkazilgan.

Tepalikda hech qanday daraxt, ko‘katlar o‘smaganligi, quruq yerdan iborat bo‘lganligi uchun “Yalang‘och” degan nom berilgan. Qabriston “Yalang‘och-2” deb atalishiga sabab, shu tumanda ancha avval boshqa “Yalang‘och” qabristonini ham mavjud bo‘lgan. Bugungi kunda qabriston har qanday dafn marosimlari uchun yopilgan.

Qabristonda ko‘plab atoqli insonlar qo‘nim topishgan: akademiklar J.Saidov, A.Imomaliyev, A.Muzaffarov, S.Mirahmedov, R.Bekjonov, Y.Muborakov, Q. Zokirov, seleksionerlar Rizamatota Musamuhamedov, Zayniddin Faxriddinov, shoirlar Shavkat Rahmon, Mashrab Boboyev.

YAPON-KOREYSLAR – Yashnobod tumanidagi qabriston nomi. “Katta Qo‘ylik” mahallasidagi Quruvchilar ko‘chasida joylashgan. Maydoni 5,8 gektar. Yopiq qabriston.

YAHUDIYLAR – Yakkasaroy tumanidagi qabriston nomi. “To‘qimachi” mahallasidagi Tadbirkor tor ko‘chasida joylashgan. Maydoni 0,08 gektar. Yopiq qabriston.

O‘RTASAROY-3 – Bektemir tumanidagi qabriston nomi. Qabriston Toshkent shahri tasarrufiga Yuqori Chirchiq tumanidan o‘tgan. Yuqori Chirchiq tumanidagi “Navro‘z” qishloq fuqarolar yig‘inida joylashgan. Maydoni 83,1 gektar.

HARBIY ME‘MORCHILIK (BIRODARLIK QABRISTONI) – Yakkasaroy tumanidagi qabriston nomi. 1941–1945-yillarda barpo etilgan, “To‘qimachi” mahallasidagi Cho‘ponota va Shota Rustaveli ko‘chalarida joylashgan. Maydoni 5 gektar.

Avvalgi nomi rus tilida “Братские могилы” yodgorligi edi. Dastavval qabriston maydoni bir gektar bo‘lgan, 1971-yilda qo‘shimcha to‘rt gektarga kengaytirilgan.

Qabristonni kengaytirish, memorial barpo qilish tarixi quyidagicha. Har yili 9-may – G‘alaba kuni soat 10 da davlat rahbarlari tomonidan ushbu qabristonda dafn etilgan 600 ta urush qatnashchisi xotirasiga gulchambarlar qo‘yilib, ularning xotirasi yod etilardi. 1971-yilda davlat rahbarlari harbiy memorialga soat 10 da emas, 9.30 da kelib qolishdi. Gulchambar esa hali olib kelinmagan edi. Qabriston hududida bir tepalik bo‘lib, gulchambarlar o‘sha tepalikka qo‘yilar edi.

Gulchambarni kutib turish paytida, respublika rahbari Sharof Rashidov yaqinlashib kelayotgan G‘alabaning 30 yilligiga shu yerda bir harbiy memorial barpo etilsa, boshqa qabristonda dafn etilgan urush davri qurbonlari bir yerga jamlansa, ulkan bir “Motamsaro Ona” haykali bunyod etilsa, uning xoki poyiga gulchambarlar qo‘yib, Xotira kuni nishonlansa, degan g‘oyani o‘rtaga tashladilar. Shu tariqa harbiy memorial barpo etish g‘oyasi amalga oshirila boshlandi. Qabriston atrofiga joylashgan omborxona va benzin quyish shoxobchasi ko‘chirilib, qabriston hududi kengaytirildi. O‘sha davrda Botkin ko‘chasida joylashgan 1-son shahar qabristonida 800 ta urush qatnashchilari dafn etilgan edi.

Har bir vafot etgan urush qatnashchisi qabriga betondan uzunligi 1 m 20 sm, eni 50 sm li ramka qilinib, bo‘yi 30 sm, eni 15 sm li marmarga vafot etgan askarning ismi, familiyasi yozilgan edi. Har bir vafot etgan kishining xoki solingan oq surup xalta uning ismi yozilgan marmar lavhaga biriktirilib, barpo etilayotgan

memorialga ko‘chirila boshlandi. Ko‘chirish davomida zobitlar alohida, oddiy askarlar alohida joylashtirildi. Harbiy qabristonda, memorial barpo etilgunga qadar, 599 kishi dafn etilgan bo‘lib, ko‘chirilib kelgandan so‘ng ularning soni 1399 nafarga yetdi. Harbiy memorialning eng baland joyiga (arxitektor L.T. Adamov, haykaltarosh L.G. Ryabsev) qizil granitdan mahobatli “Motamsaro Ona” haykali o‘rnatildi. Bugungi kunda qabriston yopiq hisoblanadi.

HOJIMOZOR – Chilonzor tumanidagi qabriston nomi. “Beshqo‘rg‘on” mahallasidagi Bunyod ko‘chasi hamda Janubi-g‘arbiy sanoat hududida joylashgan. Maydoni 0,33 gektar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Географик объектларнинг номлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Қонуни. – Тошкент, 2011 йил 12 октябрь. № ЎРҚ – 303 («Халқ сўзи» газетасининг 2011 йил 13 октябрдаги № 198 (5365) сони).
2. «Географик объектларнинг номлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига мувофиқ географик объектларнинг номлари соҳасидаги ишларни тартибга солиш чора-тадбирлари ҳақида»ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 16 октябрдаги № 295 сон қарори.
3. Avezov M.M. Arid o'lkalar toponimlarining tabiiy geografik xususiyatlari. Monografiya. –T.: “KALEON PRESS”, 2021. – 196 b.
4. Алимова Д.А., Филанович М.И. Тошкент тарихи (қадимги даврлардан бугунги кунгача) – Тошкент: «Арт-флекс», 2009. – 208 б.
5. Баратов П. Тошкент шаҳрининг ирригация шохобчалари. – Тошкент: «Фан», 1983. – 47 б.
6. Бартольд В.В. Сарт. Сочинения. Т. II. Ч.2. – Москва, 1964. – С. 527–529.
7. Бердиев Х. Нурота тарихий топонимиясининг манбашунослик таҳлили. Монография /– Тошкент: «Университет» – 2020. – 180 б.
8. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. – Тошкент: «Ўзбекистон», 1997. – 166 б.
9. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси. [Матн]. Монография. – Тошкент: «Мумтоз Сўз», 2017. – 352 б. [харита ва илл.].
10. Бўриев О. «Бобурнома»даги топонимлар изоҳли луғати. Тошкент: «Наврўз» – 2015. – 140 б.
11. Бўриева Х.А. Тошкент шаҳрининг тарихий топонимияси (XIX аср охири – XX аср бошлари). Монография. – Тошкент: «Ноширлик ёғдуси», 2009. – 222 б.
12. Bo'riyeva X. Toshkent shahri loy nomlari tarixidan. / To'ldirilgan qayta nashr. – Toshkent: “KALEON PRESS”, 2021. – 136 b.
13. Буряков Й.Ф. Тошкент кўчалари. – Тошкент: «Ўзбекистон», 1972. – 207 б.
14. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Т.: 1968.
15. Захириддин Муҳаммад Бобур . «Бобурнома». Порсо Шамсиев, Содиқ Мирзаев ва Эйжи Мано (Япония) нашрлари асосида қайта нашрга тайёрловчи: Саидбек Ҳасанов. Тошкент «Шарқ», 2002.
16. Захириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси (қайта ишланган иккинчи нашр) /Таҳрир хайъати: А.Қаюмов ва бошқ. Бош муҳаррир: А.Аъзамов. – Т.: «Шарқ» НМАК Бош таҳририяти, 2017. – 688 б. (40 бет иллюстрациялар).

-
17. Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Тошкентнинг «Янги шаҳар» қисми тарихи. – Т.: «Фан ва технология», 2004. – 140 б.
18. Караев С.К. Топонимия Узбекистана с топонимическим словарем. – Т.: «Турон замин зиё», 2015.
19. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: 1976.
20. Кошғарий М. Девону луғотит турк. I жилд. – Т.: 1960.
21. Миракмалов М.Т. Халқ табиий географик терминлари. – Т.: «Фан ва технология» нашриёти, 2009.
22. Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов. – М.: “Мысль”, 1984.
23. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – М.: “Мысль”, 1974.
24. Маллицкий Н.Г. Ташкентские махалля и мауза. – Ташкент, 1927. – С. 16.
25. Мукминова Р. Тўрт аср олдинги Тошкент. – Тошкент: «Фан», 1984. – 48 б.
26. Муҳаммаджонов А. Қадимги Тошкент (Тарихий ва археологик лавҳалар). – Тошкент: «Шарқ», 2002. – 64 б.
27. Муҳаммаджонов А. Қанғ – қадимги Тошкент ва тошкентликлар (тарихий лавҳалар). – Т.: «Шарқ» нашриёти, 2009. – 128 б.
28. Муҳаммадкаримов А. Тошкентнома. Тарихий-топонимик лавҳалар. 1-китоб. – Тошкент: «Мовароуннахр», 2004. – 170 б.
29. Наршахий Абу Бакр Муҳаммад. Бухоро тарихи. /«Мерос» туркумидан/. – Т.: «Камалак» нашриёти, 1991. 82–174 бетлар.
30. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати (Ўзбекистоннинг жанубий районлари). – Т.: «Ўқитувчи» нашриёти, 1988.
31. Охунов Н. Жой номлари табири. – Т.: «Ўзбекистон» нашриёти, 1994. – 86 б.
32. Охунов Н., Аҳмадалиев Й. Фарғона вилояти ойконимларининг номланиш хусусиятлари. – Фарғона: «Фарғона» нашриёти, 2010.
33. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Том I–IV. СПб., 1893–1911.
34. Расулов Ҳ. Тошкент зиёратгоҳлари. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2012. – 224 б.
35. Тошкент: Энциклопедия / Бош таҳрир ҳайъати: А.Ақромов, Б.Ш. Алимов, М.Н. Аминов ва бошқ. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – 784 б.: рангли сурат, харита.
36. Тошкент шаҳридаги номи ўзгарган кўчалар тўғрисида маълумот (1989–2005). – Тайёрловчи: Исматуллаев Э. Тошкент шаҳар Камолот бўлими. – Тошкент, 2005. – 92 б.

-
37. Тошкент плани. Ўзбекистон Республикаси, Ер ресурслари, геодезия, картография ва давлат кадастри давлат қўмитаси. – Тошкент, 2011.
38. Филанович М.И. Древняя и средневековая история Ташкента в археологических источниках. – Т.: «Узбекистан», 2010. – 312 с.
39. Ўринбоев А., Бўриев О. Тошкент Муҳаммад Солиҳ тавсифида. Тошкент, «Фан» 1983. – 56 б.
40. Эназаров Т. Ўзбекистондаги баъзи топонимларнинг этимологик талқини. – Т.: «Университет», 2004.
41. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Birinchi nashr. – Т.: “Donishmand ziyosi”, 2022. – 624 б.
42. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-2 жилд. – Т.: 1981.
43. Қораев С. Ўзбекистон топонимларини ҳосил қиладиган асосий терминлар ва бошқа сўзлар луғати. – Т.: ХТ «Давкарова», 2001. – 150 б.
44. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8 жилд. Солнома – Тўйтепа. Таҳрир ҳайъати А.Азизхўжаев, М.Аминов, Т.Даминов ва б. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2004. – 704 б. (672–673 б.).
45. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 9 жилд. Тўйчи Ҳофиз – Шаршара. Таҳрир ҳайъати А.Азизхўжаев, М.Аминов, Т.Даминов ва б. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2005. – 704 б. (463 б.).
46. Ўзбекистон Республикаси географик объектлари номларининг давлат тилида ёзилиши йўриқномаси. – «Ўзгеодезкадастр», 2020. – 78 б.
47. Қораев С. Тошкент топонимлари / Масъул муҳаррир А.Муҳаммаджонов. – Тошкент: «Фан», 1991. – 62 б.
48. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2005.
49. G‘ulomov P., Mirakmalov M. Toponimika va geografik terminshunoslik. – Т.: “Universitet”, 2005.
50. Ҳасанов Ҳ.Ҳ. Географик номлар имлоси. – Т.: «Фан», 1962.
51. Ҳасанов Ҳ.Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Т.: «Фан», 1965.
52. Ҳасанов Ҳ.Ҳ. Ер тили. – Т.: «Ўқитувчи», 1962. – 102 б.
53. Ҳудуд ул-олам (Мовароуннаҳр тавсифи) // Форс тилидан таржима, сўзбоши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи Омонулло Бўриев. Масъул муҳаррир Мирсодиқ Исҳоқов, тарих фанлари доктори. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2008. – 64 б. (Қадимги битиклар).

MUNDARIJA

Soʻzboshi	3
Tarixiy Toshkent	6
Ariqlar va kanallar	9
Daha va darvozalar	20
Muassasalar	29
Zamonaviy Toshkent	41
Toshkent shahri tumanlari	41
Toshkent shahrining mahalla, daha, mavzelari	49
Metro bekatlari	216
Toshkent shahri ziyoratgohlari	245
Toshkent shahri qabristonlari	253
Foydalanilgan adabiyotlar	274

**Omonullo Bo‘riyev, Mirali Mirakmalov,
Xayriya Bo‘riyeva, Muxriddin Avezov,
Gulnoz Gapporova**

**TOSHKENT SHAHRI
JOY NOMLARINING
IZOHLI LUG‘ATI**

Muharrir

I. Ahmedov

Badiiy muharrir

D. Mulla-Axunov

Sahifalovchi

G. Ahmedova

Noshirlik faoliyati to'g'risidagi xabarnoma
6.11.2023-yil qabul qilingan. Tasdiqnoma № 156149.
Bosishga 2025-yil 9-sentyabrda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16. Shartli bosma tabog'i 17,5.
Adadi 300. Buyurtma raqami № 020-25.

“Kamalak-PRESS” MCHJning
matbaa bo'limida chop etildi.
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

